O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO‘PLAMI

7-8-may 2026-yil

UO‘K 316.4:005.96:1(08)
BBK 60.5ya43
G 58

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari [Matn] / muharrirlar J.X.Karshibayev, G.K.Masharipova, N.A.Saidkulov. – Toshkent: “Existentium-print” nashriyoti, 2026. – 792 b.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘iga asosan o‘tkazildi.

Anjuman materiallari to‘plamidagi maqola va tezislar sohaga doir ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrirlar:
J.X.Karshibayev, b.f.d, professor.
G.K.Masharipova, f.f.d, professor.
N.A.Saidkulov, s.f.b.f.d (PhD), dotsent.

Taqrizchilar:
A.I.Saitkasimov, f.f.d. professor.
R.J.Mahmudov, f.f.n, professor.
M.T.Musayev, s.f.d, professor.
A.A.Asatulloyev, f.f.d. professor v.b.
.

Tahririyat hay’ati:
A.Mansurov, N.Saidkulov, Y.Karimov, X.Yarbayev, O.Yusupaliyev, Sh.Isaxova, D.Xolnazarova, N.Tursinkulov, A.Asatulloyev, B.Rixsiboyev, O.To‘raboyev, U.O‘rinboyev, Sh.Ashuroxunova, Sh.Yo‘ldoshev, E.Mazamkulov, M.Abdusalomova.

ISBN 978-9910-5107-8-6

© “Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, **2026**

© “Existentium-print” nashriyoti, 2026

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo miqyosida kechayotgan keskin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar davlatlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, inson kapitalini rivojlantirish, malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish jamiyat barqarorligining muhim omiliga aylanmoqda. Zamonaviy sharoitda har qanday davlatning rivojlanish darajasi, avvalo, undagi inson kapitalining sifati va samaradorligi bilan belgilanadi.

Kadrlar salohiyati jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Malakali, bilimli va yuksak ma’naviyatli kadrlar jamiyatda innovatsion rivojlanishni ta’minlaydi, ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi hamda davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, boshqaruvdagi samarasizlik kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirish masalasi faqat iqtisodiy yoki tashkiliy muammo bo‘lib qolmay, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Chunki bu jarayon insonning bilim, tafakkur, qadriyatlar va ma’naviy dunyosining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Kadrlar tayyorlash tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shuningdek, kadrlar salohiyatini yuksaltirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, barqarorlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Guliston davlat pedagogika institutida o‘tkazilayotgan “Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni muhokama qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy maydon hisoblanadi. Ushbu anjuman doirasida kadrlar salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kabi masalalar keng qamrovda tahlil etiladi.

Mazkur anjuman materiallari jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning dolzarb muammolarini chuqur o‘rganish, ilg‘or tajribalarni umumlashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur ilmiy-amaliy anjuman mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, jamiyatning barqaror va izchil taraqqiyotini ta’minlash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori J.X.KARSHIBAYEV

1-shu’ba:
KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING FALSAFIY, MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

КАДРЛАР КАСБИЙ МАЪНАВИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЖТИМОИЙ ДЕТЕРМИНАНТЛАР

Р.Ж.Маҳмудов
Гулистон давлат университети профессори

Аннотация: Мазкур мақолада кадрлар касбий маънавияти тушунчаси ҳамда унинг шаклланишида ижтимоий детерминантларнинг ўрни ва аҳамияти илмий жиҳатдан таҳлил қилинади. Замонавий жамиятда мутахассис шахсининг касбий фаолияти нафақат билим ва кўникмаларга, балки унинг маънавий-ахлоқий қиёфасига ҳам бевосита боғлиқдир. Шу боис касбий маънавиятнинг шаклланиш жараёнига таъсир этувчи ижтимоий омиллар – оила, таълим тизими, ижтимоий муҳит, қадриятлар тизими ва маданий жараёнлар алоҳида ўрганилади. Мақолада касбий маънавиятнинг ижтимоий табиатга эгалиги асослаб берилиб, унинг шаклланишида жамиятнинг институционал ва маданий таъсир механизмлари ёритилади. Шунингдек, касбий маънавиятни ривожлантиришда ижтимоий детерминантларнинг ўзаро боғлиқлиги ва уларнинг шахс камолотига таъсири очиб берилади.

Калит сўзлар: касбий маънавият, ижтимоий детерминантлар, маънавий қадриятлар, ижтимоий муҳит, таълим тизими, оила, шахс камолоти, ахлоқий меъёрлар, ижтимоийлашув, маданият.

Замонавий жамият тараққиётининг мураккаб ва кўп қиррали жараёнлари шароитида инсон омили, хусусан, унинг касбий ва маънавий салоҳияти устувор аҳамият касб этмоқда. Бугунги кунда мутахассиснинг рақобатбардошлиги фақатгина касбий билим ва малакалар билан эмас, балки унинг маънавий-ахлоқий фазилатлари, ижтимоий масъулияти ва қадриятларга муносабати билан ҳам белгиланади. Шу нуқтаи назардан, касбий маънавият тушунчаси замонавий ижтимоий-фалсафий тадқиқотларнинг муҳим объектига айланиб бормоқда.

Касбий маънавият шахснинг касбий фаолияти жараёнида намоён бўладиган маънавий-ахлоқий сифатлар, қадриятлар ва хулқ-атвор меъёрларининг тизимини ифодалайди. У инсоннинг ижтимоий муҳит билан ўзаро таъсири жараёнида шаклланиб, турли омиллар таъсирида ривожланиб боради. Шу боис касбий маънавиятни индивидуал ҳодиса сифатида эмас, балки ижтимоий шартланган, яъни ижтимоий детерминантлар билан боғлиқ жараён сифатида ўрганиш зарурати юзага келади.

Ижтимоий детерминантлар деганда шахснинг шаклланишига таъсир этувчи ташқи ижтимоий омиллар – оила, таълим тизими, ижтимоий институтлар, маданий муҳит ва жамиятдаги қадриятлар тизими тушунилади. Мазкур омиллар касбий маънавиятнинг шаклланишида ҳал қилувчи рол ўйнаб, шахснинг дунёқараши, ахлоқий позицияси ва касбий фаолиятига бевосита таъсир кўрсатади. Айниқса, глобаллашув ва ахборот оқимлари

кучайган даврда ижтимоий детерминантларнинг таъсири янада мураккаблашиб, янги мазмун касб этмоқда.

Шу боис мазкур мақолада касбий маънавиятнинг шаклланишида ижтимоий детерминантларнинг ўрни, уларнинг ўзаро боғлиқлиги ҳамда шахснинг касбий ва маънавий камолотига таъсири ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Касбий маънавиятнинг шаклланиши мураккаб ва кўп босқичли жараён бўлиб, у шахснинг индивидуал хусусиятлари билан бир қаторда, турли ижтимоий детерминантлар таъсирида вужудга келади ва ривожланади. Шу боис мазкур жараённи таҳлил этишда уни фақат индивидуал психологик ҳодиса сифатида эмас, балки ижтимоий-фалсафий нуқтаи назардан, яъни жамият билан ўзаро алоқадорликда ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Аввало, касбий маънавиятнинг шаклланишида оила институти асосий детерминант сифатида намоён бўлади. Инсоннинг дастлабки маънавий қарашлари, қадриятлари ва хулқ-атвор меъёрлари айнан оилада шаклланади. Оилада берилган тарбия шахснинг кейинги касбий фаолиятида ҳам ўз аксини топади. Ҳалоллик, масъулият, меҳнатсеварлик каби фазилатлар оилавий муҳитда сингдирилган бўлса, улар кейинчалик касбий фаолиятда муҳим мезон сифатида намоён бўлади. Демак, оила касбий маънавиятнинг бошланғич ва пойдевор босқичини ташкил этади.

Иккинчи муҳим детерминант – бу таълим тизими ҳисобланади. Таълим жараёни шахснинг нафақат билим ва кўникмаларини, балки унинг маънавий-ахлоқий қарашларини шакллантирувчи муҳим ижтимоий институтдир. Айниқса, олий таълим босқичида талабанинг касбий идентификацияси шаклланиб, унда касбий этикага оид қарашлар мустаҳкамланади. Маънавиятшунослик, этика ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар орқали талабалар касбий фаолиятда амал қилиниши зарур бўлган ахлоқий меъёрлар ва қадриятлар тизимини ўзлаштиради. Бу эса касбий маънавиятнинг онгли ва тизимли шаклланишига хизмат қилади.

Касбий маънавиятнинг шаклланишида ижтимоий муҳит ва ижтимоий институтлар ҳам муҳим рол ўйнайди. Инсон яшаётган жамиятдаги умумий ижтимоий муҳит, жамоатчилик фикри, оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлар орқали шаклланаётган қадриятлар тизими шахс онгига бевосита таъсир кўрсатади. Агар жамиятда адолат, қонун устуворлиги, ҳалоллик каби қадриятлар устувор бўлса, бу ҳолат кадрларнинг касбий маънавиятида ҳам акс этади. Аксинча, ижтимоий муҳитдаги салбий тенденциялар касбий маънавиятнинг заифлашувига олиб келиши мумкин.

Шунингдек, касбий маънавиятнинг шаклланишида маданий омиллар алоҳида аҳамият касб этади. Миллий ва умуминсоний қадриятлар, тарихий мерос, урф-одат ва анъаналар шахснинг маънавий дунёқарашини белгилайди. Маданий муҳит орқали шаклланган қадриятлар касбий фаолиятда ҳам ўз ифодасини топади. Масалан, миллий маданиятга хос бўлган ҳурмат, одоб-ахлоқ, жамоавийлик каби хусусиятлар мутахассиснинг касбий хулқ-атворида намоён бўлади.

Бундан ташқари, касбий маънавиятнинг шаклланишида касбий муҳит ва меҳнат жамоаси ҳам муҳим детерминант ҳисобланади. Шахс ўз фаолиятини амалга ошираётган жамоада мавжуд бўлган ахлоқий муҳит, ўзаро муносабатлар, раҳбар ва ходимлар ўртасидаги маданият даражаси унинг касбий маънавиятига сезиларли таъсир кўрсатади. Ижобий муҳитда фаолият юритаётган мутахассис ўз маънавий фазилатларини ривожлантириш имкониятига эга бўлади, салбий муҳит эса акс таъсир кўрсатиши мумкин.

Касбий маънавиятнинг шаклланиши жараёнида юқоридаги детерминантлар ўзаро узвий боғлиқ ҳолда таъсир кўрсатади. Улар алоҳида-алоҳида эмас, балки комплекс тарзда шахснинг маънавий қиёфасини шакллантиради. Шу боис касбий маънавиятни ривожлантириш масаласига тизимли ёндашув зарур бўлиб, унда оила, таълим тизими, ижтимоий муҳит ва маданий омиллар ўртасидаги уйғунлик таъминланиши лозим.

Умуман олганда, касбий маънавиятнинг шаклланишида ижтимоий детерминантлар ҳал қилувчи рол ўйнайди. Улар орқали шахснинг касбий фаолиятидаги ахлоқий меъёрлари,

қадриятларга муносабати ва ижтимоий масъулияти шаклланади. Бу эса ўз навбатида жамият тараққиёти ва ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Юқоридаги таҳлиллар шуни кўрсатадики, касбий маънавият шахснинг касбий фаолиятидаги ахлоқий-меъёрий хулқ-атвори, қадриятларга муносабати ва ижтимоий масъулиятини ифодаловчи мураккаб ижтимоий-фалсафий ҳодиса ҳисобланади. Унинг шаклланиши индивидуал жараён бўлиб кўринса-да, аслида у ижтимоий детерминантлар таъсирида вужудга келадиган ва ривожланадиган тизимли жараёндир.

Касбий маънавиятнинг шаклланишида оила, таълим тизими, ижтимоий муҳит, маданий қадриятлар ва касбий жамоа каби омиллар ҳал қилувчи рол ўйнайди. Ушбу детерминантлар шахснинг дунёқараши, ахлоқий позицияси ва касбий фаолиятига бевосита таъсир кўрсатиб, унинг маънавий қиёфасини белгилайди. Айниқса, таълим тизими орқали бериладиган маънавий тарбия ҳамда жамиятда устувор бўлган қадриятлар тизими касбий маънавиятнинг шаклланишида муҳим аҳамият касб этади.

Шу билан бирга, касбий маънавиятни ривожлантириш масаласига тизимли ёндашув зарур бўлиб, унда ижтимоий детерминантларнинг ўзаро уйғунлиги таъминланиши лозим. Фақатгина шундай ёндашув орқали маънавий етук, ижтимоий масъулиятли ва касбий фаолиятида юқори натижаларга эриша оладиган кадрларни шакллантириш мумкин бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, касбий маънавиятнинг шаклланишида ижтимоий детерминантлар ҳал қилувчи омил сифатида намоён бўлиб, уларнинг таъсирини чуқур ўрганиш ва амалиётга жорий этиш замонавий жамият тараққиёти учун муҳим илмий-амалий вазифалардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият онтологияси ва феноменологияси. 1-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 480 б.
2. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксеологияси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 456 б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
4. Маҳмудов Р. Касбий маънавият: ўқув қўлланма. – Тошкент: Методист, 2023. – 176 б.
5. Машарипова Г.К., Хўжанова Т.Ж. Маънавиятшунослик: Дарслик. – Тошкент: Фан зиёси, 2022. – 416 б.
6. Собирова М.А. Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими методикаси: Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: ТДПУ ҳузуридаги Тармоқ маркази, 2024. – 119 б.

ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIY IJTIMOIY-AXLOQIY KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY KADRLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI

A.A.Asatulloyev
Guliston davlat pedagogika instituti
professori v.b., falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlari Turkiston ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyandasi Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari tizimli tahlil qilingan. Muallifning “Me’yor ul-axloq” asaridagi g‘oyalar, xususan, shaxsning jamiyatdagi o‘rni, rahbar va xodim munosabatlari, kasbiy etika va milliy o‘zlikni anglash masalalari bugungi kunning dolzarb muammosi – kadrlar salohiyatini yuksaltirish prizmasi orqali yoritilgan. Tadqiqotda Toshkandiyning ma’naviy merosi jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim ijtimoiy-falsafiy omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy, “Me’yor ul-axloq”, “Al-isloh”, kadrlar salohiyati, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy yuksaltirish, jadidchilik, boshqaruv etikasi, milliy tarbiya, intellektual salohiyat, komil inson, kasbiy mas’uliyat.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida har qanday davlatning qudrati uning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi bilan o‘lchanadi. Bu barqarorlikning asosiy ustuni esa – yuksak salohiyatli kadrlar korpusidir. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida kadrlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda milliy falsafiy merosimizni, xususan, XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Toshkandiy o‘zining “Me’yor ul-axloq” asari va “Al-isloh” jurnalidagi faoliyati orqali jamiyatni boshqarish va kadrlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish bo‘yicha fundamental g‘oyalarni ilgari surgan.

Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy (1881-1918) Turkiston ijtimoiy tafakkuri tarixida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirdir. Uning ma’rifatparvarlik faoliyati shunchaki bilim tarqatish emas, balki jamiyatni ichkaridan isloh qilishga qaratilgan edi. Toshkandiy Hindiston, Misr, Turkiya va Eron kabi mamlakatlarga sayohat qilib, u yerdagi ta’lim va boshqaruv tizimlarini o‘rgangan. Uning xulosasiga ko‘ra, Sharq xalqlarining inqirozi – kadrlarning ilmsizligi va amaldorlarning axloqiy buzilishidir. Shuning uchun ham u “Al-isloh” jurnali orqali nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham targ‘ib qildi, jamiyat barqarorligi uchun “ma’rifatli xodim” va “adolatli rahbar” konsepsiyasini shakllantirdi.

Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asari shaxs kamoloti va jamiyat tartibining nizomnomasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqola doirasida ushbu asarning kadrlar salohiyatiga daxldor jihatlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. **Kasbiy komillik va bilim:** Toshkandiy kadrning o‘z sohasini mukammal bilmasligini jamiyatga xiyonat deb baholaydi. Uning fikricha, har bir soha vakili o‘z kasbining sirlarini chuqur egallashi, tinimsiz o‘z ustida ishlashi lozim. Bu bugungi kun tili bilan aytganda “uzluksiz ta’lim” tamoyilining ilk ko‘rinishlaridan biridir.

2. **Boshqaruv madaniyati va rahbar mas’uliyati:** Toshkandiy rahbar kadrlarni jamiyatning “ko‘zi va qalb”iga o‘xshatadi. U rahbarlarning xodimlar bilan muloqotida to‘rt narsani: muloyimlik, adolat, va’daga vafo va shaffoflikni talab qiladi. Uning fikricha, agar rahbar o‘z xodimlariga shafqatli bo‘lsa, xodimlar davlat ishiga sadoqatli bo‘ladi.

3. **Ijtimoiy intizom va vaqtni qadrlash:** Ma’rifatparvar olim “vaqt - o‘tuvchi bulut” ekanligini ta’kidlab, har bir kadr ish vaqtidan samarali foydalanishi kerakligini uqtiradi. Bu jamiyat barqarorligi uchun muhim bo‘lgan mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishning asosi hisoblanadi.

Toshkandiy o‘z asarida kadrlarda bo‘lishi shart bo‘lgan o‘nlab fazilatlarni tahlil qiladi. Biz ulardan eng asosiylarini zamonaviy kadrlar salohiyati bilan bog‘laymiz:

- **Diyonat va halollik:** Korrupsiyaga qarshi kurash sharoitida Toshkandiyning “halol luqma” va “xiyonatdan tiyilish” haqidagi o‘gitlari kadrlar uchun eng katta ma’naviy immunitetdir.
- **Qanoat va iffat:** Shaxsiy manfaatlarni davlat manfaatidan ustun qo‘ymaslik, nafsga asir bo‘lmaslik fazilatlari kadrlarning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi.
- **Tolerantlik va muloqot odobi:** Toshkandiy “odamiylik - odob bilan” degan g‘oyani ilgari surib, kadrlarni har qanday vaziyatda ham bosiqlik va o‘zaro hurmatni saqlashga chaqiradi. Bu ko‘p millatli va murakkab ijtimoiy tuzilmaga ega jamiyatlarda ichki barqarorlikni saqlashning garovidir.

Bugungi kunda kadrlar salohiyatini oshirishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularning yechimini Toshkandiy g‘oyalaridan topish mumkin:

1. **Nazariya va amaliyotning uzilib qolishi:** Toshkandiy ilmning amaliy natija berishi kerakligini ta’kidlagan. Bugun ham kadrlar tayyorlashda faqat quruq bilimlarni emas, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

2. **Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mutanosibligi:** G‘arb texnologiyalarini o‘zlashtirish jarayonida milliy o‘zlikni yo‘qotib qo‘ymaslik muammosi bor. Toshkandiy sayyoh sifatida G‘arb

va Sharq yutuqlarini ko‘rgan va “milliy axloq asosi ustida dunyoviy taraqqiyot” g‘oyasini ilgari surgan. Bu zamonaviy kadrlarda milliy g‘ururni shakllantirishda muhimdir.

3. **Ma’naviy yetuklikning orqada qolishi:** Kadrning intellekti o‘sgani bilan axloqi o‘smasa, jamiyatda kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Toshkandiyning “komil shaxs” konsepsiyasi intellekt va axloqning uyg‘unligiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida belgilangan “Inson qadri” tushunchasi Toshkandiy qarashlaridagi “hurmat va odob” tamoyillari bilan hamohangdir. Kadrlar tayyorlash tizimiga Toshkandiy asarlaridagi metodikani tatbiq etish, talaba-yoshlarda rahbarlik va boshqaruv madaniyatini shakllantirish uchun maxsus “Etika va estetika” kurslarini kuchaytirish lozim. Shuningdek, davlat xizmatchilari uchun ishlab chiqilayotgan “Odob-axloq qoidalari”da Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asaridagi konstruktiv g‘oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy-axloqiy konsepsiyasi jamiyat barqarorligini ta’minlaydigan “ma’naviy filtr” vazifasini o‘taydi. Kadrlar salohiyatini yuksaltirish shunchaki raqamli ko‘rsatkichlar yoki diplomlar bilan emas, balki har bir mutaxassisning qalbida millatga sadoqat, vijdonan mehnat qilish va kasbiy etika tamoyillarining ildiz otishi bilan bog‘liqdir. Toshkandiy merosi bizga shuni o‘rgatadiki, davlatning kuch-qudrati uning ijtimoiy qatlamlari, ayniqsa kadrlari orasidagi ahillik, adolat va yuksak ma’rifatdadir. Ushbu merosni o‘rganish va amaliyotga joriy etish ijtimoiy-siyosiy sohada olib borilayotgan islohotlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asatulloyev A.A. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning ijtimoiy – axloqiy konsepsiyasi. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 52 b.
2. Toshkandiy Sayyoh Abdurahmon. Me’yor ul-axloq. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orufjonov matbaasi, 1912.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
4. Shodmonova S. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida (1870-1917 yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2011.
5. Abdurahmonov A. Jadidlar ma’rifatparvarlik harakati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
6. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

YANGI O`ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI



Kenjayev Shavkatjon
GulDU dotsenti

Annotatsiya: Maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan va mazkur jarayonlarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy faollik, jarayon, islohot, yoshlar, ijtimoiy rivojlanish, ta’lim.

Ma’lumki, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo’yicha Harakatlar strategiyasining to’rtinchi yo’nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” etib belgilangan. Yangi O’zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g‘oyat muhim yo’nalishi bo’lgan ijtimoiy sohadagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi: - aholi bandligi va real daromadlarini oshirish; - aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish; - arzon uy-joylar barpo etish bo’yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo’l-transport, muhandislikkommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va

modernizatsiya qilish; - ta’lim va fan sohasini rivojlantirish; - yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish[1].

Murojaatnomada davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O’zbekistonni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to’g‘risida to’xtalar ekan mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlar samarasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidladi. Shu munosabat bilan, 2019-yilda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirishning quyidagi asosiy vazifalari belgilab berildi: - aholi o’rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish; - pensiya va nafaqalarni tayinlash va to’lash tartibini qayta ko’rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish; - ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish; - tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko’lamini kengaytirish; - xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo’llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish; - aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turar joy bilan ta’minlash, xalq farovonligini oshirish; - jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish; - turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish; - milliy g‘oyani rivojlantirish[2].

Keng qamrovli ijtimoiy rivojlanish sohalari tizimida yoshlarga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish va ularni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash masalasi naqadar o’tkirligi va dolzarbligi bilan alohida ahamiyatga ega. Zero, tarixdan ma’lumki, har bir davrda aynan ma’rifat jamiyat farovonligiga va mamlakat taraqqiyotiga turtki bergan. Shu sababli endilikda dono xalqimizning “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” degan naqlini amaliy hayot faoliyatimizga ko’chirish, mamlakatimizda ta’limning uzluksizligi prinsipini amalda ro’yobga chiqarish masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilmoqda. So’nggi ikki yilda ta’lim tizimini zamonaviy demokratik davlatlar darajasiga olib chiqish, yoshlarning taraqqiyotning yetakchi kuchi sifatida jamiyatimizdagi o’rnini yanada oshirish bo’yicha keng ko’lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish ijtimoiy sohadagi islohotlarning muhim yo’nalishiga aylandi. Xususan, 2017-2021 yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy ta’lim tizimida yangi, zamonaviy ta’lim muassasalari, jumladan, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Oliy ta’lim muassasalarida sirtqi va kechki bo’limlar ochildi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko’zda tutmoqdamiz. Ya’ni O’zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo’lishi shart”. Prezident Murojaatnomasida ta’lim-tarbiya sohasini bevosita inson kamolotiga yanada xizmat qilishini ta’minlash yo’lidagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 34 foizdan 2019 yilda 44 foizga yetkazish, zamonaviy umumiy o’rta ta’lim tizimini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy maktablar va bog‘chalar tashkil etish, oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, so’nggi ikki yilda oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 9-10 foizdan 15 foizgacha oshirishga erishildi. Shu munosabat bilan Prezident Murojaatnomasida 2019 yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazish va kelgusi yillarda oshirib borishga vazifasi qo’yildi. Zotan, oliy ma’lumotli, yuksak malakaga ega yoshlar soni ortishi jamiyat rivojlanish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining dasturiy ma’ruzasida oliy ta’lim sohaning rivojlanishiga turtki beruvchi quyidagi prinsipial yangi g‘oya va tashabbuslar ilgari surildi: - oliy o’quv yurtlari hamda nodavlat ta’lim maskanlari salohiyati oshirish orqali ular o’rtasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo’yicha raqobat muhitini kuchaytirish; - yoshlarga bir vaqtning o’zida bir nechta oliy o’quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berish; - oliy ta’lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish; - bakalavriat yo’nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o’qishni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytish. Murojaatnomada mamlakatimiz aholisining yarmidan

ortig‘ini tashkil etadigan yoshlar bilan ishlash masalasi eng asosiy vazifalar qatorida qayd etildi. Bu bejizga emas. Ta’kidlash joizki, taraqqiyot g‘oyasi va istiqbollarini belgilab olmagan, ma’naviy asoslardan mahrum bo’lgan, asosiysi, o’zining yosh fuqarolariga ko’ngiliga yo’l topa olmagan davlat va jamiyat farovon istiqbolni tasavvur qilishi qiyin. Davlatning yoshlarga bo’lgan munosabati jamiyat taraqqiyoti darajasi, uning ochiqligi, oldinga intilayotganligining ko’rsatkichlaridan biridir. Shuning uchun davlatning jamiyatni birlashtirish va fuqarolik tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatida yoshlar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan yoshlar islohotlar chuqurlashayotgan davrda turli to’siqlarni yengib o’tishga qodir, mamlakatning yuksalish sari odimlariga kuch bag‘ishlay oladigan aholi qatlamidir. Aynan yoshlar fuqarolik jamiyatining eng faol qismidir, masalan yoshlar turli sohalarda innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy qilishga ko’proq moslashgan bo’ladi, ular jamiyatga yangi g‘oyalar va bilimlarni tashiydi hamda ularda o’z hayotini qurishga intilish kuchli bo’ladi[3]. Shu jihatdan qaraganda, O’zbekiston yoshlari bugungi va ertangi kun egalari sifatida mamlakatimizda farovon hayot asoslarini barpo etishda bosh strategik resurs hisoblanadi. Mamlakatimizning demokratik yangilanishlar yo’lidan odimlashi va taraqqiyot sur’atlari ko’p jihatdan yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi holati va faolligiga bog‘liq bo’ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev e’tirof etganidek, “... yoshlarimiz bilan ko’proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko’mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratishimiz zarur” [4]. 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni ushbu sohaning asosiy yo’nalishlari bo’lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniq belgilab beradi. Qonunda belgilab berilishicha, O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati “yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo’nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishni” nazarda tutadi[5]. Bu jarayonlarda mamlakatimiz yoshlarini bunyodkor g‘oyalar atrofida birlashtirgan O’zbekiston yoshlar ittifoqi muhim o’ringa ega bo’lmoqda. O’zbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko’maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, O’zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir[6]. Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O’zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta’minlash, yigit-qizlarning ma’naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqarishga ko’maklashishdan iborat. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi farmoni bilan tasdiqlangan “Yoshlar - kelajagimiz” davlat dasturi mamlakatimiz yoshlarining bor salohiyatini ro’yobga chiqarish, jamiyatimizga samarali ijtimoiylashuvini ta’minlash yo’lidagi navbatdagi qadam bo’ldi. Davlat dasturi yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro’yobga chiqarishga ko’maklashish va qo’llabquvvatlash, band bo’lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko’nikmalariga o’qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan[7]. Davlat dasturidagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun O’zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar - kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘arma mablag‘laridan quyidagilarni amalga oshirish uchun foydalanadi: - yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va molmulkni lizingga berish; - Davlat dasturi doirasida olinadigan kreditlar bo’yicha kredit hajmining 50 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda kafilliklar berish; - Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik loyihalarida ular qiymatining 50 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda ishtirok etish, keyinchalik Jamg‘arma ulushini 5 yil davomida realizatsiya qilish; - tegishli ko’nikmalarga ega band bo’lmagan yoshlar yashaydigan uy xo’jaliklari

uchun 20 tagacha parranda va quyon bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sotib olish, ularning qiymatini kelishilgan muddatlarda qaytargan holda ularni boqish va keyinchalik realizatsiya qilishda ko’maklashish; - yoshlarning qayta tayyorlanishi va malaka oshirishini tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan kasblarga o’qitish, shuningdek, ularga biznes yuritish ko’nikmalarini singdirish. Davlat dasturi doirasida 2018-yil 1-iyuldan hududlarda davlat-xususiy sheriklik shartlarida “Yosh tadbirkorlar” kovorking-markazlari, “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari qurilishi boshlandi. Ma’lumot uchun “Yoshlar mehnat guzari”majmuasi - savdo-maishiy va kichik ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish uchun mehnat kuchi haddan ziyod bo’lgan tumanlarda barpo etilgan binolar majmuasi. “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazi - yosh tadbirkorlarga imtiyozli shartlarda binolar, ofis texnikasi va sarflash materiallarini ijaraga berish, ularni internet bilan ta’minlash, shuningdek, yoshlarning biznes tashabbuslari, staraplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirishga boshqacha ko’mak berish, jumladan, biznes rejalar ishlab chiqish, maslahat, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmat turlarini ko’rsatish, forumlar, master-klasslar va seminarlar tashkil tashkil etish uchun ixtisoslashgan markaz. Globallashuv sharoitida jamiyatimiz taraqqiyotiga nisbatan yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda noan’naviy tahdidlar yuzaga kelmoqdaki, hozirgi davrda milliy ma’naviyat, milliy g‘oya targ‘ibotini zamonamiz talablari darajasida yanada takomillashtirishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Bu jarayonda yoshlar masalasi mamlakatimizda bugun va kelajak bog‘liqligini ta’minlovchi, milliy o’ziga xoslikni saqlab qoluvchi muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda. Prezidentimiz tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida yangi madaniyat va istirohat bog‘larini tashkil etish, ularni yosh avlod orasida sog‘lom turmush targ‘ibotiga hamda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan zamonaviy yoshlar maskanlariga aylantirish taklifi ilgari surildi. Yurtimizda milliy g‘oyasiz, milliy o’zlikni anglamasdan turib, vatanparvarliksiz hech qanday islohotlarni amalga oshirish mumkin emasligi ta’kidlandi. Davlatimiz rahbari yoshlar ongiga buyuk alloma va adiblarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratib, “O’zbekiston tarixi” telekanalini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Zero, tarixiy xotirasiz kelajakni tasavvur etish mushkuldir. Xolisona tarix asosiga qurilgan milliy g‘oya mamlakatimizda keng qamrovli islohotlar uchun cheksiz kuch-qudrat manbai bo’lib xizmat qiladi. Zero, Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz O’zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga mahkam bel bog‘lagan ekanmiz, bu ulug‘ ishni ertaga emas bugun boshlashimiz, buning uchun avvalo navqiron yoshlarimizga zarur sharoitlarni aynan bugun yaratib berishimiz kerak” [8]. Ta’kidlash joizki, yurtimizda bugungi kunda tamomila yangi bo’lgan sifat bosqichida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar boshqa ulug‘vor vazifalar bilan bir qatorda, yoshlarning ezgu maqsadlari, intilishlari g‘oyalari va eng muhim innovatsion g‘oyalarini har tomonlama izchil ravishda ro’yobga chiqarishga yo’naltirilgandir. O’z navbatida demokratiyaning eng ilg‘or qoidalari va qadriyatlarini faoliyatining yetakchi mezoniga aylantira olgan yoshlarimiz yurtimiz taraqqiyotining tayanchi bo’lishdek buyuk maqomga ega bo’ladilar. Umuman olganda, bugungi yuksalish davri siyosatida mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa hozirda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatli hamda zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgan, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o’z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirilishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda yoshlar o’z salohiyat va intilishlarini ro’yobga chiqarishlari uchun yaratilayotgan barcha shart-sharoitlar kelgusida ularni barkamol qilib tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi, o’z innovatsion g‘oyalar va tashabbuslari orqali yurt ravnaqi va Vatan tinchiligiga o’z hissasini qo’shishiga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturi, “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari”ning amalga oshirilishi natijasida 596 ming nafar yoshlar bandligi ta’minlandi hamda 25,7 ming nafar imkoniyati cheklangan va tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi. “Yoshlar daftari” jamg‘armalarida mahalliy byudjetning orttirilgan qismining 15 foizi va ijro hujjatlariga oid undiruvlar hisobidan 382,8 mlrd so‘m mablag‘ shakllantirildi. Ushbu mablag‘lar hisobidan 140 mingga yaqin yoshga ijtimoiy-moddiy yordam ko‘rsatildi. Yoshlarning tadbirkorlik

faoliyatini rivojlantirish, yangi g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 3,3 trln miqdoridagi mablag‘larni yo‘naltirish orqali 132 ming nafar yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratildi. Bir necha kun avval O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori imzolandi

1. Unga ko‘ra Respublikamizdagi jami 9 309 ta mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

2. Yoshlar ishlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari tuzilmalarida mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo‘linmalari tashkil etildi.

3. Quyidagilar mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari etib belgilandi: “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish; Mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o‘yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish; Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish; Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash; huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

4. Yetakchilar o‘ziga biriktirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiradi madaniyat va san’atni targ‘ib qilish borasida sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish borasida ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish borasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida tadbirkorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash borasida

5. Yetakchi lavozimiga nomzodlar tumanlar (shaharlar) hokimlari boshchiligidagi tanlov komissiyalarini shakllantirish orqali ochiq tanlovlar asosida ishga qabul qilinadi. So‘nggi yillarda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturi, “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari”ning amalga oshirilishi natijasida 596 ming nafar yoshlar bandligi ta’minlandi hamda 25,7 ming nafar imkoniyati cheklangan va tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi. “Yoshlar daftari” jamg‘armalarida mahalliy byudjetning orttirilgan qismining 15 foizi va ijro hujjatlariga oid undiruvlar hisobidan 382,8 mlrd so‘m mablag‘ shakllantirildi. Ushbu mablag‘lar hisobidan 140 mingga yaqin yoshga ijtimoiy-moddiy yordam ko‘rsatildi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 3,3 trln miqdoridagi mablag‘larni yo‘naltirish orqali 132 ming nafar yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratildi. Yetakchi lavozimiga yoshlar bilan ishlash tajribasiga ega, yoshlarni ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlari bilan namuna ko‘rsatgan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar nomzodlar tayinlanadi. Yetakchining oylik ish haqi miqdori u biriktirilgan mahalladagi xonadonlar soniga mutanosib ravishda quyidagicha belgilandi: - xonadonlar soni 500 tagacha bo‘lgan mahallada - mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida; - xonadonlar soni 501 tadan 1 000 tagacha bo‘lgan mahallada - mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 5,5 baravari miqdorida; - xonadonlar soni 1 000 tadan ortiq bo‘lgan mahallada - mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 6 baravari miqdorida. Ish faoliyati natijalariga ko‘ra Yetakchilarni Milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi. Yetakchi sifatida ishga qabul qilingan shaxslarning harbiy va maxsus unvonlari saqlab qolinadi. Yetakchi sifatidagi ish staji navbatdagi harbiy va maxsus unvonlar olishda hisobga olinadi, shuningdek, ularga oldingi ish joyiga qaytganida qonunchilikda belgilangan barcha imtiyozlar tatbiq etiladi. Har bir Yetakchining ish faoliyati to‘liq raqamlashtiriladi hamda quyidagi yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi elektron reyting tizimi (KPI) joriy etiladi. Mahalladagi Yoshlar yetakchisini saralash natijalari to‘g‘risida Respublika bo‘yicha 9 309 ta mahallada Yoshlar yetakchilari lavozimiga nomzodlar uchun “vacancy.argos.uz” portalida tanlov e’lon qilindi.

Tanlovda lavozimiga jami 42 538 nafar nomzodlar onlayn hujjat topshirdi (bir o‘ringa 4,6 nafar). Respublika ishchi guruhi tomonidan nomzodlar bilan suhbat o‘tkazilib, 9 309 ta (100 foiz) mahallalar uchun nomzodlar tanlab olindi. Qaror bilan, Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida etilayotgan tizimning tub mohiyati va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash bo‘yicha joriy yilning 25-28 yanvar kunlari masofaviy tartibda tashkil etilgan o‘quvseminarda 9294 nafar Yoshlar yetakchilari ishtirok etdi. O‘quv davomida yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadida ishtirokchilar metodik jihatdan ta’minlandi, yoshlar yetakchilarining tashkiliyhuquqiy bilimlari oshirildi, ularda yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish ko‘nikmalari shakllantirildi. Yuqorida qayd etilgan har bitta vazifani yoshlar manfaatidan kelib chiqib, mutasaddi vazirlik va idoralar, hokimliklar, sektor rahbarlari bilan hamkorlikda tizimli va sifatli amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g‘risida”gi Farmoni // “Xalq so’zi” gazetasi, 2017 yil 8 fevral. №28 (6722).

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so’zi” gazetasi. 2018 yil 29 dekabr. №271-272 (7229-7230)

3. Козина Е.С. Развитие инновационного потенциала в рамках молодежной политики. Сборник статей. - М.: Директ -Медиа, 2013. - С. 29.

4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O’zbekiston, 2017. - B. 23.

5. “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g‘risida” gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 14 sentabr // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - Lex.Uz. http://lex.uz/

6. O’zbekiston yoshlar ittifoqi. http://yoshlarittifoqi.uz/uz/ menu/maqsad-va vazifalar

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшлар- келажагимиз” Давлат дастури тўғрисида”ги Фармони. 2018 йил 27 июн // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - Lex.Uz. http://lex.uz/

8. Kenjayev Sh, Jabborov J. Aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ish. O‘quv qo‘llanma/T,. 2025 y.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA SALOHIYATLI KADRLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI



Ravshanbek Mahmudov
Guliston davlat universiteti professori

ANNOTATSIYA: Maqolada Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yetuk, zamon talabiga javob beradigan barkamol kadrlarni o‘rni masalasi yoritilgan. Kadrlarni salohiyatli, ishbilarmon, aql-farosatli, bilimli bo‘lishining ma’naviy-axloqiy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Yetuk kadrlarni tayyorlash muammolari haqida dolzarb masalalar ko‘tarilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Yangi O‘zbekiston, inson, yetuk, barkamol, salohiyat, ishbilarmonlik, bilim, badiiy asar, yozma va og‘zaki savodxonlik, rahbarlik salohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-apreldagi “2026-yil 1-chorak yakunlariga bag‘ishlangan videokonferensiyasi”da “Har bir inson dunyoqarashini o‘zgartirishi kerak”, degan ulug‘ g‘oyani ilgari surdilar. Mamlakatni mustaqilikka erishganiga 35 yil to‘lmoqda. Bu yillar qisqa, oz muddat emas. Bu davrda, ayniqsa, so‘nggi 10

yillikda misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi. Yuzlab yangi tushunchalar, iboralar iste’molga kirib keldi. “Yangi O‘zbekiston”, “yangi uyg‘onish davri”, “Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar konsepsiyasi”, “Ta’lim-tarbiya konsepsiyasi”, “O‘zbekiston 2030” kabi tushunchalar me’yoriy hujjatlarda Yangi O‘zbekistonni barpo etish poydevori yaratildi.

Har bir davrda taraqqiyotni kadrlar hal qiladi. Shu jihatdan olganda bugungi “Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanini ahamiyati nihoyatda katta. Ayniqsa, “Kadrlar salohiyatini yuksaltirishning falsafiy, ma’naviy, axloqiy jihatlari” bugungi kun uchun alohida dolzarb.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida kadr so‘zining to‘rtta ma’nosi borligi ko‘rsatib o‘rilgan: “biror korxona, muassasa yoki kasaba uyushma tashkilotining tajribakor xizmatchi, ishchi va xodimlari” ma’nosini bildiradi, “kadr yetkazib bermoq”, “kadr tayyorlamoq”, “hamma narsani kadrlar hal qiladi”, “ilmim bor kadrman deb bizniyam nazarga ilmaydi” (P.Tursun, “O‘qituvchi” romani). Kadrlar bo‘limi korxona yoki muassasaning ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish, ishchilarni boshqaruvchi bo‘limi (1.358) Bugun kompyuter, axborot texnologiyalar, sun’iy intellekt rivojlangan davr. Hayot shiddatli o‘tmoqda. Bir sutka 24 soat bo‘lgan bo‘lsa, mutaxassislarning aytishicha, bugun bir sutka 20-22 soatni tashkil etmoqda. Aprel oyida may oyi ob-havosi kezmoqda. Bu kabi yuzlab hodisalar davr, zamon, inson aql-u zakovati, texnika o‘ta tez rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Biz bilamizki, Birinchi uyg‘onish davri ma’rifiy uyg‘onish davrini yuzaga keltirdi. Ilm-ma’rifatli bo‘lish orzusi barcha tabaqalardagi insonlarni asosiy orzusiga aylandi. Natijada 2000 nafarga yaqin ulamoqlar, olimlar yetishib chiqdi. Ikkinchi Uyg‘onish davri esa yetishib chiqqan siymolarni uyg‘otdi. Ular odil podsho, adolatli rahbar, adolatli jamiyat, komil inson g‘oyalarini ilgari surdilar. Manbalardan ma’lumki, har ikkala renessans davrlari olimlari asarlarida birinchi galda insonparvarlik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, burchga sadoqat, tevarak-atrofdagi insonlarga yaxshilik qilish, ezgulik ulashish kabi o‘lmas, eskirmas g‘oyalar asosiy o‘rinni egalladi. Imom Ismoil Buxoriyning “Barcha amallar niyatga qarab bo‘ladi” (2.34) degan falsafiy g‘oyasi shiorga aylanib ketgan.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA KADRLAR SALOHIYATI RIVOJLANISHIDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY FALSAFIY ASOSLARI

M.Sh.Abduraxmonov
O‘zbekiston Milliy universiteti “Falsafa” kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida axborot makonining kengayishi, mafkuraviy ta’sirlar va g‘oyaviy qarama-qarshiliklarning kuchayishi natijasida yuzaga kelayotgan axborot xurujlari, ommaviy madaniyat va yot g‘oyalarning singdirilishi, milliy va ma’naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi kabi mafkuraviy tahdidlar xususiyatlari, kadrlarni tayyorlashda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy g‘oya va milliy mafkurani mustahkamlash, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, axborot madaniyatini yuksaltirish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv sharoiti, mafkuraviy ta’sir, kadrlar salohiyati, qadriyatlar tizimi, axborot, ko‘nikma, madaniy-ma’rifiy.

Globallashuv jarayoni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biri hisoblanib, u iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda chuqur o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu jarayon davlatlar, jamiyatlar va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi, axborot almashinuvining tezlashuvi va umumjahon makonining shakllanishi bilan xarakterlanadi hamda kadrlar salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Globallashuv tashqi muhit hamda inson ongi, dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatini ham tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda [1,56].

Iqtisodiy sohada globallashuv xalqaro mehnat taqsimoti, investitsiyalar oqimi va transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi bilan bog‘liq. Bu mehnat bozoriga yuqori malakali, raqobatbardosh va innovatsion fikrlaydigan kadrlarga bo‘lgan talabni keskin oshiradi. Shu bois yuqori salohiyatli kadrlar strategik ahamiyatga ega davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda [2,210].

Siyosiy sohada globallashuv demokratik institutlar taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlik mexanizmlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi, axborot urushi va mafkuraviy ta’sirlarni ham kuchayishiga olib keladi. Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari taraqqiyoti natijasida mafkuraviy ta’sir o‘tkazish vositalarining takomillashishi kadrlar va yosh avlodning siyosiy, ijtimoiy pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi [3,87].

Ma’naviy sohada globallashuv milliy madaniyat, qadriyat va an’analarga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. U turli madaniyatlarning o‘zaro muloqoti va ommaviy madaniyat ta’siri orqali milliy qadriyatlarning zaiflashuviga hamda yoshlarning ma’naviy dunyosi, qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4,78]. Shu nuqtai nazardan yuqori kasbiy bilim, keng dunyoqarash, tanqidiy fikrlash qobiliyati va mafkuraviy chidamlilikka ega bo‘lgan zamonaviy kadrni ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy muhit orqali shakllantiriladi.

Globallashuv sharoitida insonning identichligi va ijtimoiy rollari qayta shakllantiriladi, kadrlar salohiyatini rivojlantirishda bilim va axborot asosiy resursga aylanadi [3,45], madaniyatlar va sivilizatsiyalar ziddiyatlari kuchayib, mafkuraviy tahdidlarning asosiy manbalaridan biriga aylanadi [5,67]. Axborot oqimining keskin ortishi mafkuraviy tahdidlarning kuchayishiga hamda yoshlar ongiga ta’sir etuvchi omillarning kuchayishiga olib kelmoqda [1,112]. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida axborot makoni cheksiz darajada kengayib, inson ongiga turli g‘oyalar, qarashlar va qadriyatlarning tezkor kirib borishini ta’minlamoqda. Bu jarayonning salbiy oqibatlaridan biri mafkuraviy tahdidlarning kuchayishiga olib kelishidir [1,52]. Axborot oqimining nazoratsiz tarqalishi yot g‘oyalar, destruktiv mafkuralar va manipulyativ axborotlarning ommaviy tarqalishiga imkon yaratib, yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi sababli yoshlar turli axborot xurujlariga tez beriladigan qatlam hisoblanadi [4,94].

Zamonaviy axborot muhitida “axborot urushi”, “feyk axborot”, “psixologik ta’sir” kabi tushunchalar dolzarb ahamiyat kasb etib, axborot oqimi nafaqat ma’lumot uzatish vositasi, balki inson ongiga ta’sir ko‘rsatish, fikrlash tarzini o‘zgartirish va muayyan pozitsiyaga yo‘naltirish vositasiga aylanmoqda hamda mafkuraviy tahdidlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda [3,103]. Hozirda jamiyatda bilim va axborotni nazorat qiluvchi sub’ekt insonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3,45]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim davlatlar va kuchlarning mafkuraviy tahdidlari yot va destruktiv g‘oyalarni singdirish, milliy qadriyatlarni yo‘qotish, ommaviy madaniyat orqali ta’sir, feyk va manipulyativ axborotlarni tarqatishdan iborat. Bu omillar yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatib, milliy o‘zligini anglash darajasini pasaytirishi, ijtimoiy faolligini susaytirishi va befarqlik kayfiyatini shakllantiradi [6,112]. S. Xantington fikriga ko‘ra, globallashuv sharoitida madaniy va sivilizatsion ziddiyatlar kuchayib, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning asosiy manbasiga aylanadi [2,67]. Hozirda axborot imkoniyat omili bo‘lishdan tashqari jiddiy tahdid manbai bo‘lganligi bois, jamiyatda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Kadrlar salohiyati inson kapitali tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni o‘z ichiga oladi hamda strategik ahamiyat kasb etadi [2,210]. Inson kapitali shaxsning bilim, ko‘nikma, tajriba, intellektual salohiyat va ma’naviy qadriyatlari yig‘indisidir. Kadrlar salohiyati faqat mehnat resurslari emas, balki yuqori intellektual va ma’naviy imkoniyatlarga ega ijtimoiy kuch sifatida qaraladi [2,215]. Zamonaviy sharoitda inson kapitaliga bo‘lgan e’tiborning ortishi globallashuv jarayonlari, axborot jamiyatining shakllanishi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq.

Kadrlar salohiyati tarkibiy jihatdan bilim - shaxsning nazariy va amaliy tayyorgarligini ifodalovchi omil; ko‘nikma va malaka - shaxsning bilimni amalda qo‘llay olish qobiliyati; qadriyatlar va ma’naviy mezonlar - shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasini belgilaydigan omillardan iborat [4,45]. Shu nuqtai nazardan kadrlar salohiyati kasbiy jihatdan tashqari ma’naviy-axloqiy tomondan baholanishi zarur, chunki globallashuv sharoitida ular turli mafkuraviy ta’sirlar ostida bo‘lib, barqaror qadriyatlar tizimi shakllanmagan bo‘lsa, tashqi ta’sirlarga oson beriladilar [6,67]. Hozirda kadrlar muntazam o‘zini rivojlantirishi, raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashni shakllantirishi muhimdir. Keng dunyoqarashga ega, xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirgan, turli madaniyatlarga moslasha oladigan yuqori malakali kadrlarni yetishtirish iqtisodiy

raqobatbardoshlikni ta’minlaydi va innovatsion iqtisodiyotni shakllantiradi hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, milliy xavfsizlik ta’minlaydi. Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishi lozim.

Madaniy ta’sirlar va turli g‘oyaviy oqimlar o‘rtasida kurashning kuchayishi sharoitida shaxs ongi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish zamonaviy jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Milliy g‘oya jamiyatni birlashtiruvchi, uning strategik maqsadlarini belgilab beruvchi asosiy mafkuraviy poydevor bo‘lib, shaxsda vatanparvarlik, milliy iftixor, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Milliy g‘oyani mustahkamlash mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetning birinchi bosqichi sifatida baholanadi. Ma’naviy tarbiya shaxsning ichki dunyosi, axloqiy mezonlari va qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy omildir. Yuksak ma’naviyatli shaxs tashqi ta’sirlarga chidamli, turli destruktiv g‘oyalarni saralay oladigan, ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirgan bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda shaxs doimiy o‘zgaruvchan muhitga moslashib yashashi zarurligi bois ta’lim uzluksiz rivojlanishi kerak [1,120].

Axborot madaniyati shaxsning axborotni to‘g‘ri qabul qilish, saralash, tahlil qilish va undan oqilona foydalanish qobiliyatini ifodalaydi, chunki zamonaviy axborot muhitida feyk ma’lumotlar va manipulyativ axborotlar keng tarqalayotgani sababli, ularni ajrata bilish mafkuraviy immunitetni shakllantiradi. Mafkuraviy immunitet – bu shaxsning tashqi yot g‘oyalar va salbiy ta’sirlarga nisbatan ongli va barqaror munosabat bildirish qobiliyati bo‘lib, u bilim, ma’naviyat va axborot madaniyati uyg‘unligi asosida shakllanadi. Axborot jamiyatida bilim asosiy resursga aylanadi va uni boshqara olgan jamiyat barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3, 88].

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida bilim, ko‘nikma, ma’naviyat va mafkura asosida kadrlar salohiyatini rivojlantirish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish mexanizmlarini takomillashtirish jamiyat barqaror taraqqiyotinining muhim shartidir. Axborot oqimining keskin ortishi sharoitida mafkuraviy tahdidlarning yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini kamaytirish uchun ta’lim, tarbiya va axborot siyosatidan iborat kompleks yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bilim, ko‘nikma va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligida shakllangan inson kapitali strategik ahamiyat kasb etib, jamiyatning rivojlanishini, iqtisodiy o‘sishni va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Jamiyatda axborot madaniyati va mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda milliy g‘oya, ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini kompleks yo‘lga qo‘yish mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гидденс Э. Последствия модерности. – М.: Праксис, 2011. – 352 с.
2. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. – М.: Academia, 2004. – 944 с.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010. – 597 p.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
5. Huntington S. The Clash of Civilizations. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Lapasov Dilshod Abdusaid o‘g‘li
Buxoro innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat barqarorligini ta’minlash jarayonida kadrlar salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Muallif kadrlar salohiyati tushunchasining falsafiy mohiyati, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini yuksaltirishda duch kelinadigan ijtimoiy-falsafiy muammolar, jumladan, shaxs erkinligi va ijtimoiy tartib o‘rtasidagi munosabat, individual va jamoaviy manfaatlar uyg‘unlashuvi, kadrlar tanlash va baholashning axloqiy-axloqiy jihatlari yoritiladi. Maqolada zamonaviy sharoitda kadrlar salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy tamoyillari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kadrlar salohiyati, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy falsafa, shaxs salohiyati, ijtimoiy taraqqiyot, kadrlar boshqaruvi, axloqiy qadriyatlar.

Kirish. Zamonaviy davrda jamiyatning barqaror rivojlanishi tobora ko‘proq insoniy kapital sifatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Kadrlar salohiyati jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, kadrlar salohiyatini yuksaltirish jarayoni murakkab ijtimoiy-falsafiy muammotlarni tug‘diradi, chunki bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-ruhiy, axloqiy va falsafiy jihatlar bilan bog‘liq.

Jamiyat barqarorligi tushunchasi o‘z ichiga ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, madaniy rivojlanish va ekologik muvozanatni oladi. Bu barqarorlikning har bir komponenti malakali kadrlar, ularning ijodiy salohiyati va professional mahoratidan bevosita bog‘liq. Shuning uchun kadrlar salohiyatini yuksaltirish masalasi nafaqat amaliy, balki nazariy-falsafiy jihatdan ham chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan kadrlar salohiyati shaxsning ijtimoiy tabiatining namoyon bo‘lishi, uning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni va rolini ifodalaydi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish jarayonida shaxs va jamiyat, erkinlik va zarurat, individual va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri tushunish va hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

I. Kadrlar salohiyati tushunchasining falsafiy mohiyati

1.1. Kadrlar salohiyati va uning ijtimoiy tabiati

Kadrlar salohiyati tushunchasi o‘zining falsafiy ildizlarini inson tabiati haqidagi qadimiy fikrlardan oladi. Antik falsafada insonning qobiliyatlari va iste’dodlari haqidagi tasavvurlar (aristotelik "potensiya" va "akt" o‘rtasidagi munosabat) zamonaviy salohiyat tushunchasining asosini tashkil etadi. Kadrlar salohiyati shaxsning ma’lum bir faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuasidir.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan kadrlar salohiyati nafaqat individual, balki ijtimoiy hodisa hamdir. Shaxsning salohiyati uning ijtimoiy munosabatlardagi faoliyati natijasida shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Marksistik falsafada insonning ijtimoiy tabiati ta’kidlanib, insoniy qobiliyatlarning ijtimoiy mehnat jarayonida shakllanishi ko‘rsatiladi. Shuning uchun kadrlar salohiyati ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada kadrlar salohiyati "insoniy kapital" tushunchasi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Iqtisodchi-falsafa G. Becker insoniy kapital nazariyasini ishlab chiqqan bo‘lib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va professional tayyorgarlikka sarmoyalar kelajakda iqtisodiy foyda keltirishini asoslagan. Biroq bu yondashuv kadrlar salohiyatining ijtimoiy-axloqiy jihatlarini yetarliches hisobga olmaydi.

Kadrlar salohiyatining ijtimoiy tabiati shundan iboratki, u jamiyatning ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida shakllanadi va jamiyat ehtiyojlariga javob berishi kerak. Shaxsning

individual qobiliyatlari jamiyat tomonidan baholanadi, tanlanadi va rivojlantiriladi. Bu jarayonda shaxs erkinligi va ijtimoiy zarurat o‘rtasidagi munosabat muhim rol o‘ynaydi.

1.2. Salohiyat va shaxs erkinligi muammosi

Kadrlar salohiyatini yuksaltirishning eng muhim falsafiy muammolaridan biri shaxs erkinligi masalasidir. Shaxs o‘z salohiyatini qanday darajada erkin ravishda rivojlantirishi mumkin? Jamiyat yoki davlat shaxsning salohiyatini rivojlantirishga aralashish huquqiga egami? Bu savollar liberal va kolektivist yondashuvlar o‘rtasidagi uzoq davom etayotgan bahsni ifodalaydi.

Liberal yondashuv shaxs erkinligini, shu jumladan o‘z salohiyatini rivojlantirish erkinligini birinchi o‘rnga qo‘yadi. Jon Styuart Mill fikricha, shaxs o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishda to‘la erkinlikka ega bo‘lishi kerak, davlatning aralashuvi faqat boshqalarning huquqlarini buzgan hollarda qonuniydir. Bu yondashuv kadrlar salohiyatini rivojlantirishda individual tanlov erkinligini ta’kidlaydi.

Kollektivist yondashuv esa shaxs salohiyatining jamiyat foydasiga yo‘naltilishi zarurligini ko‘rsatadi. Platonning "Davlat" asarida har bir shaxs o‘z tabiiy qobiliyatlariga mos vazifani bajarishi, jamiyat foydasiga ishlashi lozimligi ta’kidlanadi. Zamonaviy ijtimoiy falsafada bu g‘oya shaxs salohiyatining jamiyat ehtiyojlariga moslashtirilishi zarurligida namoyon bo‘ladi.

Amaliyota bu ikki yondashuv o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Shaxs o‘z salohiyatini erkin rivojlantirishi kerak, lekin bu salohiyat jamiyat foydasiga, ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga xizmat qilishi lozim. Bu muvozanatni topish kadrlar siyosatining asosiy falsafiy muammosidir.

II. Jamiyat barqarorligi va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi munosabat

2.1. Jamiyat barqarorligining ijtimoiy-falsafiy mazmuni

Jamiyat barqarorligi tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Bu tushuncha o‘zining nazariy manbalarini ijtimoiy tizimlar barqarorligi nazariyasidan oladi. T. Parsonsning struktural-funksional yondashuviga ko‘ra, jamiyat barqarorligi uning barcha tizimlarining uyg‘un ishlashiga bog‘liq.

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

- Ijtimoiy integratsiya (turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi uyg‘unlik);
- Madaniy barqarorlik (qadriyatlar va normalar uzluksizligi);
- Iqtisodiy barqarorlik (iqtisodiy tizimning samarali ishlashi);
- Siyosiy barqarorlik (siyosiy institutlarning ishonchliligi va samaradorligi);
- Ekologik barqarorlik (tabiat bilan uyg‘un munosabatlar).

Kadrlar salohiyati bu barcha barqarorlik shakllarining asosiy sharti hisoblanadi. Malakali kadrlarsiz hech qanday ijtimoiy tizim uzoq vaqt barqaror ishlay olmaydi. Ayniqsa, zamonaviy bilimlar iqtisodiyotida insoniy kapital milliy boylikning asosiy qismiga aylanmoqda.

2.2. Kadrlar salohiyati jamiyat barqarorligining kafolati sifatida

Kadrlar salohiyati jamiyat barqarorligini ta’minlashning bir necha jihatlarini ifodalaydi:

Birinchidan, malakali kadrlar iqtisodiy barqarorlikning asosidir. Innovatsion iqtisodiyotda raqobatdoshlik salohiyatga asoslanadi. Davlat yoki korxona qanchalik malakali kadrlarga ega bo‘lsa, u iqtisodiy jihatdan shunchalik barqaror bo‘ladi.

Ikkinchidan, kadrlar salohiyati siyosiy barqarorlikning muhim omilidir. Siyosiy tizimning ishonchliligi uning kadrlar siyosatidan, davlat xizmatchilarining salohiyatidan bevosita bog‘liq. Korruptsiya, nepotizm va kadrlar tanlashdagi adolatsizlik siyosiy barqarorlikning asosiy xavflaridir.

Uchinchidan, kadrlar salohiyati ijtimoiy integratsiyaning kafolatidir. Ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarining amalga oshirilishi kadrlar tanlash va rivojlantirish jarayonlaridagi adolatlilikka bog‘liq. Kadrlar siyosatidagi adolatsizlik ijtimoiy nizolar va konfliktlarga olib keladi.

To‘rtinchidan, kadrlar salohiyati madaniy barqarorlikning sharti hisoblanadi. Ma’naviy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va milliy an’analar kadrlar orqali avlodlarga o‘tkaziladi va rivojlanadi.

III. Kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari

3.1. Individual va jamoaviy manfaatlar uyg‘unlashuvi muammosi

Kadrlar salohiyatini yuksaltirish jarayonida duch kelinadigan eng muhim falsafiy muammolardan biri individual va jamoaviy manfaatlar o‘rtasidagi munosabatdir. Shaxs o‘z

salohiyatini rivojlantirishda o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi (yuqori maosh, karera o‘sishi, shaxsiy qoniqish), jamiyat esa kadrlar salohiyatidan o‘z muayyan ehtiyojlari uchun foydalanishni xohlaydi.

Bu muammoning falsafiy mohiyati utilitarizm va deontologik etika o‘rtasidagi ziddiyatda namoyon bo‘ladi. Utilitar yondashuvga ko‘ra, kadrlar salohiyati eng ko‘p foyda keltiradigan yo‘nalishda ishlatilishi kerak. Agar shaxsning salohiyati boshqa sohada jamiyatga ko‘proq foyda keltirsa, u o‘z xohishidan qat’iy nazar shu sohaga yo‘naltirilishi mumkin.

Deontologik yondashuv esa shaxsning o‘z tanlov huquqini, uning erkinligini hurmat qilishni talab qiladi. I. Kantning "odamni har doim maqsad sifatida, vositadan foydalanish mumkin emas" printsipiga ko‘ra, kadrlar salohiyatini rivojlantirishda shaxs o‘zi maqsad sifatida qabul qilinishi, uning qadr-qimmati hurmat qilinishi kerak.

Amaliyota bu ikki yondashuv o‘rtasidagi o‘rta yo‘lni talab qiladi. Kadrlar salohiyatini rivojlantirishda individual erkinlikni ta’minlash bilan birga, shaxsni jamiyat oldidagi ijtimoiy mas’uliyatini ham hisobga olish kerak. Bu "ijtimoiy shartnoma" g‘oyasining zamonaviy talqini bo‘lib, shaxs o‘z salohiyatini rivojlantirishda jamiyatning yordamidan foydalanadi, shuning uchun jamiyat oldidagi ma’lum majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Kadrlar tanlash va baholashning axloqiy-axloqiy muammolari

Kadrlar salohiyatini yuksaltirish jarayonining muhim bosqichi kadrlar tanlash va baholashdir. Bu jarayon ko‘plab axloqiy-axloqiy muammolarni tug‘diradi:

Adolat muammosi. Kadrlar tanlashda adolatlilik tamoyili qanday ta’minlanishi kerak? Formal tenglik (barcha uchun bir xil talablar) yoki mazmunan tenglik (har birining imkoniyatlarini hisobga olish) qaysi biri adolatliroq? Jon Rolsning "adolat sifatida adolatlik" nazariyasiga ko‘ra, kadrlar tanlash jarayonida eng kam ta’minlangan guruhlar manfaatini hisobga olish kerak.

Meritokratiya muammosi. Qobiliyat va iste’dodga asoslangan tizim (meritokratiya) idealmi? M. Yung, M. Sandel kabi zamonaviy falsafachilar meritokratiyaning yangi elitizm shakliga aylanish xavfini ko‘rsatadilar. Agar jamiyat faqat "qobiliyatli" va "qobiliyatsiz" ga bo‘linsa, bu ijtimoiy kastalar sistemasiga olib kelishi mumkin.

Tanlov erkinligi va determinizm muammosi. Kadrlar salohiyati biologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy omillardan qanchalik darajada belgilanadi? Agar shaxsning salohiyati uning ijtimoiy muhitidan (ta’lim, oila, iqtisodiy imkoniyatlar) belgilansa, u o‘z salohiyatini rivojlantirishda qanchalik erkin? Bu muammo "tabiat va tarbiya" (nature vs nurture) bahsining falsafiy davomi hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar va professional kompetentsiya munosabati. Kadrlar tanlashda professional qobiliyatlarimi yoki axloqiy fazilatlarimi birinchi o‘rinda turadi? Yuqori malakali, biroq axloqiy jihatdan shubhali xodimmi yoki o‘rtacha malakali, biroq axloqiy jihatdan sof xodimmi tanlash kerak?

3.3. Ta’lim va salohiyat rivojlantirishning ijtimoiy funksiyasi

Ta’lim kadrlar salohiyatini yuksaltirishning asosiy vositasidir. Biroq ta’limning ijtimoiy funksiyasi haqidagi turli falsafiy yondashuvlar mavjud:

Konservativ yondashuv ta’limni ijtimoiy tartibni saqlash vositasi sifatida ko‘radi. Ta’lim jamiyatning an’anaviy qadriyatlarini, madaniyatini, ijtimoiy normalarini avlodlarga o‘tkazadi. Bu yondashuv kadrlar salohiyatini jamiyatning mavjud ehtiyojlariga moslashtirishni ta’kidlaydi.

Progressiv yondashuv ta’limni ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi sifatida ko‘radi. J. Dyuy, P. Freire kabi pedagog-falsafachilar ta’limni zotparvarlikka, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash vositasi sifatida talqin etadilar. Bu yondashuvga ko‘ra, kadrlar salohiyati nafaqat mavjud ijtimoiy tartibga moslashish, balki uni takomillashtirish uchun rivojlantirilishi kerak.

Humanistik yondashuv ta’limning asosiy maqsadi shaxsning o‘z-o‘zini amalga oshirishini (self-actualization) ko‘radi. A. Maslou, K. Rodjers kabi psixolog-falsafachilar ta’limni shaxsning ichki potensialini ochish vositasi sifatida tavsiflaydilar. Bu yondashuv kadrlar salohiyatini shaxsning o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos ravishda rivojlantirishni ta’kidlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi bu uch yondashuv o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi kerak. Kadrlar salohiyatini rivojlantirishda jamiyat ehtiyojlarini, shaxsning o‘z-o‘zini amalga oshirish istagini va ijtimoiy adolat tamoyillarini uyg‘unlashtirish lozim.

3.4. Globalizatsiya va milliy kadrlar salohiyati muammosi

Globalizatsiya davrida kadrlar salohiyati muammolari yangi o‘lchamlar kasb etmoqda:

"Miyalar oqimi" (brain drain) muammosi. Yuqori malakali kadrlar boy mamlakatlarga ko‘chib ketishadi, kambag‘al mamlakatlar esa salohiyatli kadrlar yetishmovchiligidan aziyat chekadi. Bu ijtimoiy adolat muammosidir: boy mamlakatlar boshqa mamlakatlarning insoniy kapitalidan foydalanadilar, lekin bunga to‘lov qilmaydilar.

Global va milliy qadriyatlar ziddiyati. Kadrlar salohiyatini rivojlantirishda global standartlarga (xalqaro sertifikatlar, xorijiy til bilishi, global biznes madaniyati) rioya etish bilan birga, milliy qadriyatlar, milliy ruhiyatni saqlash muammosi tug‘iladi. "Global kadrlar" va "milliy kadrlar" o‘rtasidagi farq qanday bo‘lishi kerak?

Texnologik o‘zgarishlar va salohiyatning eskirishi. Zamonaviy texnologiyalar tez o‘zgarib turadi, kadrlar salohiyati tezda eskiradi. Bu doimiy ta’lim (lifelong learning) zaruratini tug‘diradi. Biroq barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish qiyin. Bu yangi ijtimoiy tengsizlik manbai bo‘lishi mumkin.

IV. Kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy tamoyillari

Yuqorida tahlil qilingan muammolarni yechish uchun quyidagi ijtimoiy-falsafiy tamoyillarni taklif etish mumkin:

4.1. Adolat tamoyili

Kadrlar salohiyatini rivojlantirishda adolat tamoyili birinchi o‘rinda turishi kerak. Bu shuni anglatadiki:

- Kadrlar tanlash va rivojlantirish jarayonlarida shaffoflik va obyektivlik ta’minlanadi;
- Har bir fuqaro o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘ladi;
- Ijtimoiy yordamga muhtoj guruhlar (nogironlar, kambag‘allar, etnik ozchiliklar) uchun alohida qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshiriladi;
- "Miyalar oqimi" muammosini hal qilish uchun boy mamlakatlar kambag‘al mamlakatlarga kompensatsiya to‘laydi yoki kadrlar almashinuv dasturlarini amalga oshiradi.

4.2. Gumanizm tamoyili

Kadrlar salohiyatini rivojlantirishda shaxsning qadr-qimmati, uning axloqiy-ruhiy boyligi birinchi o‘rinda turishi kerak. Bu tamoyilga ko‘ra:

- Kadrlar salohiyati nafaqat iqtisodiy foyda keltirish, balki shaxsning o‘z-o‘zini amalga oshirishiga xizmat qilishi kerak;
- Mehnat sharoitlari insoniy qadr-qimmatni hurmat qiladigan darajada bo‘lishi lozim;
- Kadrlar salohiyatini rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy-ruhiy rivojlanishi ham hisobga olinadi.

4.3. Barqaror rivojlanish tamoyili

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish uzoq muddatli istiqbolni ko‘zlab, keyingi avlodlar manfaatini ham hisobga olishi kerak. Bu tamoyilga ko‘ra:

- Kadrlar salohiyati nafaqat hozirgi, balki kelajakdagi jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qodir bo‘lishi kerak;
- Ekologik bilim va ong kadrlar salohiyatining ajralmas qismi hisoblanadi;
- Iqtisodiy o‘sish ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim.

4.4. Madaniy munosabat tamoyili

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish milliy madaniyat, an’analar va qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu tamoyilga ko‘ra:

- Kadrlar salohiyati milliy ruhiyatni, tilni, an’analarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qilishi kerak;
- Global standartlar milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtiriladi;
- Madaniy xilma-xillik boylik sifatida qabul qilinadi va har bir madaniy kontekstga mos kadrlar salohiyati rivojlantiriladi.

V. O‘zbekistonda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kadrlar siyosatida tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Yangi davr talablari, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, globalizatsiya jarayonlari kadrlar salohiyatini yangi mazmun bilan to‘ldirdi.

5.1. Milliy kadrlar siyosatining falsafiy asoslari

O‘zbekiston kadrlar siyosatining falsafiy asosini quyidagi tamoyillar tashkil etadi:

Davlatning ijtimoiy xarakteri. O‘zbekiston Konstitutsiyasida davlatning inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligi e’lon qilingan. Bu kadrlar siyosatida ham aks etadi: kadrlar salohiyati davlat va jamiyat foydasidan ko‘ra, shaxsning o‘z-o‘zini amalga oshirishiga xizmat qilishi kerak.

Milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish. Mustaqil davlat sifatida O‘zbekiston o‘zining milliy kadrlar siyosatini shakllantirdi. Bu siyosat milliy tilni, madaniyatni, an’analarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Kadrlar salohiyati milliy qadriyatlar, tarixiy xotira bilan boyitilishi kerak.

Ijtimoiy adolat va tenglik. O‘zbekistonda barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsad qo‘yilgan. Hududiy, ijtimoiy, jinsiy tengsizliklarni bartaraf etish kadrlar siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

5.2. Zamonaviy muammolar va ularning yechimi

O‘zbekistonda kadrlar salohiyatini yuksaltirishda quyidagi muammolar mavjud:

Ta’lim sifatining mos kelmasligi. Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bozor talablariga to‘liq javob bermaydi. Bu nazariy va amaliy ta’lim o‘rtasidagi uzilishdan, ta’lim dasturlarining eskirishidan dalolat beradi. Yechim sifatida oliy ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya kuchaytirilmoqda.

"Miyalar oqimi" xavfi. Yuqori malakali mutaxassislar xorijga ishlashga ketishmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun yoshlarni mamlakatda qolishiga sharoit yaratish, ularning salohiyatini qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda.

Kadrlar tanlashdagi adolatsizlik. Ba’zi hollarda kadrlar tanlashda tanish-bilish, korruptsiya holatlari uchraydi. Bu jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shaffof kadrlar tanlash tizimlarini joriy etish zarur.

Xulosa. Kadrlar salohiyatini yuksaltirish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Biroq bu jarayon murakkab ijtimoiy-falsafiy muammolarni tug‘diradi: shaxs erkinligi va ijtimoiy zarurat, individual va jamoaviy manfaatlar, adolat va samaradorlik, global va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish talab etiladi.

Zamonaviy sharoitda kadrlar salohiyatini rivojlantirish quyidagi falsafiy tamoyillarga asoslanishi kerak: adolat, gumanizm, barqaror rivojlanish va madaniy munosabat. Bu tamoyillar kadrlar salohiyatini nafaqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan, balki inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan ham baholash imkonini beradi.

O‘zbekistonda kadrlar siyosati milliy o‘zlikni saqlash, ijtimoiy adolatni ta’minlash va zamonaviy talablarga javob berish vazifalarini uyg‘unlashtirishi kerak. Faqat shundagina kadrlar salohiyati mamlakatning barqaror rivojlanishiga, fuqarolar farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press, 1994.
2. Rawls J. A Theory of Justice. Cambridge: Harvard University Press, 1971.
3. Sen A. Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press, 1999.
4. Фромм Э. Иметь или быть? М.: АСТ, 2011.
5. Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. Т. 23. М.: Политиздат, 1973.
6. Парсонс Т. Система современных обществ. М.: Аспект Пресс, 1998.
7. Ильин В.В. Философия образования: история и современность. М.: Высшая школа, 2001.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Высшее образование сегодня. 2006. № 2.

9. Нишонов Б.Т. Ижтимоий фалсафа. Тошкент: Ўқитувчи, 2018.
10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, 1992.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Кадрлар сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. 2017 й. 10 январь.
12. Becker G.S. Investment in Human Capital: A Theoretical Analysis // Journal of Political Economy. 1962. Vol. 70, No. 5.
13. Sandel M.J. The Tyranny of Merit: What’s Become of the Common Good? Farrar, Straus and Giroux, 2020.
14. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 1970.

КОНТРПРОДУКТИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ КАК ФАКТОР СНИЖЕНИЯ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ: РИСКИ, МЕХАНИЗМЫ И ПРОФИЛАКТИКА В ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

А.С. Кодиркулов
Преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В тексте контрпродуктивное поведение сотрудников рассматривается как системный фактор, оказывающий комплексное негативное влияние на качество подготовки кадров в правоохранительных и иных высокорегулируемых организациях. Показано, что устойчивые контрпродуктивные практики деформируют «скрытую учебную программу», искажают диагностический и оценочный контур обучения, усиливают институциональные риски и снижают эффективность образовательных инноваций. Особое внимание уделяется влиянию организационного климата, практик наставничества и процедурной справедливости на формирование профессиональной идентичности и мотивации молодых сотрудников. Обосновывается необходимость интеграции профилактики контрпродуктивного поведения в систему подготовки кадров как сквозного элемента, направленного на формирование профессиональной надёжности и институциональной устойчивости.

Ключевые слова: контрпродуктивное поведение; подготовка кадров; органы внутренних дел; профессиональная социализация; скрытая учебная программа; процедурная справедливость; наставничество; организационные риски; профессиональная идентичность.

Контрпродуктивное поведение сотрудников в правоохранительных и иных высокорегулируемых организациях представляет собой не только проблему индивидуальной дисциплины, но и системный фактор, напрямую влияющий на качество подготовки кадров на всех этапах профессионального цикла – от отбора и обучения до наставничества, аттестации и служебной социализации. Во-первых, наличие устойчивых контрпродуктивных практик (служебная ложь, злоупотребление полномочиями, формализм, игнорирование процедур, токсичная коммуникация) деформирует «скрытую учебную программу»: обучающиеся усваивают не декларируемые ценности законности и профессиональной этики, а реальные поведенческие стандарты подразделения. В результате возникает рассогласование между официальными образовательными целями (процедурная справедливость, сервисная ориентация, уважение к правам человека, коммуникативная компетентность) и неформальными нормами «как принято на службе», что снижает эффективность компетентностного обучения, подрывает доверие к институту наставничества и ухудшает качество профессиональной идентичности молодых сотрудников.

Во-вторых, контрпродуктивность искажает диагностический и оценочный контур подготовки. Если в организационной среде допускаются манипуляции отчётностью, «косметическое» закрытие показателей или выборочная видимость нарушений, то учебные и служебные результаты начинают оцениваться по формальным метрикам, а не по реальным навыкам и поведенческим индикаторам. Это снижает валидность аттестации, делает неустойчивыми критерии пригодности, поддерживает практики избегания ответственности и формирует у обучающихся установку на минимизацию усилий и имитацию деятельности. Дополнительно страдает качество обратной связи: руководители и наставники реже фиксируют «мягкие» нарушения, а у обучающихся формируется представление о допустимости отклонений при условии внешнего благополучия отчёта.

В-третьих, контрпродуктивное поведение повышает институциональные риски системы подготовки кадров. Молодые сотрудники быстрее сталкиваются с конфликтами, моральной дилемматикой и стрессорами службы, но при неблагоприятном климате выбирают не адаптивные стратегии совладания, а защитные и циничные установки. Это ускоряет эмоциональное выгорание, снижает учебную и служебную мотивацию, ухудшает дисциплину, повышает текучесть и затраты на повторную подготовку, что в итоге снижает устойчивость кадрового резерва и усложняет планирование нагрузки образовательных подразделений.

В-четвёртых, распространённость контрпродуктивных практик обесценивает образовательные инновации: модули по этике, деэскалации, коммуникации и правоприменительным стандартам не закрепляются, если реальные образцы поведения руководителей и наставников транслируют противоположные нормы или оправдывают нарушения «служебной необходимостью». Поэтому профилактика контрпродуктивности должна быть встроена в систему подготовки кадров как сквозной элемент: через усиление критериев отбора (морально-нормативные, регуляторно-поведенческие и эмоционально-адаптивные параметры), стандартизацию и прозрачность оценивания, развитие культуры внутренней процедурной справедливости, подготовку наставников, а также внедрение практико-ориентированных модулей (разбор кейсов, этические дилеммы, тренинг саморегуляции, коммуникативная устойчивость, цифровая этика). В таком подходе кадровая подготовка становится не только механизмом передачи компетенций, но и инструментом формирования «институционального иммунитета» к контрпродуктивным тенденциям, снижая вероятность профессиональных деформаций и укрепляя доверие к организации.

Список литературы:

1. Spector P. E., Fox S. Counterproductive work behavior: Investigations of actors and targets // American Psychological Association. – 2005. – Vol. 6, № 3. – P. 151–174.

2. Hollinger R. C., Clark J. P. Employee deviance: Theft and other deviant behavior in the workplace. – Lexington : Lexington Books, 1983. – 220 p.

3. Tyler T. R., Blader S. L. Cooperation in groups: Procedural justice, social identity, and behavioral engagement. – New York : Psychology Press, 2000. – 352 p.

IFTIXOR – KADRLAR MA’NAVIYATINING MEZONI

Ilyos Quvondiqov
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangier filiali dotsenti, f.b.f.d. (PhD)

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat[1]”,
Shavkat Mirziyoev.

Annotatsiya: Maqolada mustaqillikdan g‘ururlanish hissini yoshlar ongiga singdirish yo‘llari, kadrlar salohiyatini yuksaltirishda ma’naviyatning, milliy iftixorning ahamiyati va namoyon bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, milliy g‘urur, iftixor, ma’naviyat, mafkura, globallashuv, innovatsiya.

Ozbekiston Respublikasi mustaqillgining 35 yilligiga bagishlanadi.

O‘zbekiston Davlat mustakilligining salkam 35 yilligi asrlarga teng, mo‘jizaviy o‘zgarishlarni hayotimizga olib kirdi. Avvalo inson ulug‘landi, u o‘zligini tubdan qayta kashf etdi, o‘zini jamiyatning bir murvati deb emas, balki uning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini anglab etdi. Har bir fuqaro o‘z so‘zi, uning istak va irodasi albatta, hisobga olinishini his etmoqda. Qonun ustuvorligini amalda bildi va uning rivojini kuzatib, unda bevosita ishtirok etib kelmoqda. Mustaqillik yilnomasini varaqlasangiz Vatanimizda o‘tayotgan yillarning har kunini ziynatlaydigan quvonchli, unutilmas voqealar yuz berganiga guvoh bo‘lamiz.

Uzoqqa bormay, o‘tgan mart oyining o‘zida bir nechta muhim tarixiy voqealarning o‘zi mamlakatimizning jahondagi maqomini yanada yuksaltirishga sabab bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Poytaxtimizda Islom tsivilizatsiyasi markazi va Samarqandda buyuk muxaddis bobomiz Al-Buxoriyning rekonstruktsiya qilingan ziyoratgohi ochilishi shular jumlasidandir. Ketma ket xalqaro anjumanlar, sport musobaqalari va hokazo tadbirlarga ham mamlakatimizning turli shaharlari mezbonlik qilmoqda. Yangiliklarni ongingizga singdirib ulgura olmaysiz, bular keyingi o‘n yilda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev boshlagan islohotlarning shiddati va amaliyotga oshayotgani tufaylidir.

Mustaqillikning dastlabki kunlariga nazar tashlasangiz, mamlakatimiz aholisining ertangi tinch-xotirjam kunini kafolatlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy ahvolini izchil rivojlantirib borish davlatning maqsad-muddaosi bo‘lganligini ko‘rasiz. Qariyb 130 yil mobaynida ma’naviyati toptalgan, o‘zligini deyarli unutgan, mutelikni qismat deb bilgan xalqni o‘z qaddini rostlashga o‘rgatish, uning kimligini tanitish, ajdodlarining jasoratga to‘la tarixini tiklash oson emasdi. Bunda respublika rahbarligini mustaqillikdan ikki yil burun zimmasiga olgan birinchi Prezident Islom Karimovning mehnati, jasorati va davlat arbobiga xos fazilatlarining ahamiyati muxim bo‘lganligini ta’kidlash kerak, albatta. Buni mustabidlik tuzumi hali tugab bitmagan davrda qabul qilingan “O‘zbekistonning Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun ham ko‘rsatib turibdi. Qonun xalqimiz ruxiyatini, ma’naviyatini tiklash yo‘lidagi unutilmas tarix bo‘lib qoldi.

Kommunistlar imperiyasi davlat mashinasi hali avji kuchda bo‘lgan davrda uning tarkibida bo‘lgan bir agrar respublikada mahalliy xalqning o‘z ona tiliga davlat tili maqomini e’lon qilishdek jasorat ko‘rsatishi markaz uchun boshqa respublikalarga “salbiy ibrat” namunasi bo‘lishi, shunday yorliq bilan siylanishi, rahbariyatga nisbatan qatag‘on siyosati amalga oshirilishi ham mumkin edi. Ana shunday xatarlarga qaramay ushbu qonun qabul qilindi va xalqimizning qalbida ozodlikka

1. Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviyatni yuksaltirish bo’yicha o’tkazilgan videoselektordagi nutqidan.

bo‘lgan umid uchqunlari paydo bo‘ldi desak, bu ham haqiqatdir[1]. Bu xalqimizga o‘zgacha iftixor, ishonch va qudrat berdi, xalq rahbariyat atrofiga jipslashdi.

Mustaqillikni mustahkamlash O‘zbekistonda o‘ziga xos va mos bo‘lgan tamoyillar asosida, ya’ni bozor iqtisodiyotiga tadrijiy ravishda, bosqichma-bosqich o‘tilishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, qonun ustuvorligi va kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar o‘tish davrida o‘zining nechog‘li hayotbaxsh ekanligini ko‘rsatdi va buni jahon afkor ommasi ham to‘la tan oldi.

Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan ishlar xalqimizning asriy orzularini ro‘yobga chiqarishdagi ulug‘ niyatlariga qanot berdi, yuksak ko‘tarinkilik, yangicha bir ijtimoiy-ma’naviy muhit bunyod etildi. Masalan, 1991 yilning Alisher Navoiy yili deb e’lon qilinishi, undan keyin Amir Temur yili, Mirzo Ulug‘bek yili va hokazo allomalarimizning ruhlarini shod etish yo‘lidagi sa’y-harakatlar xalqimiz ruhiyatini yuksaltirdi, ularni dadilllik va ishonch bilan olg‘a borishga rag‘batlantirdi. Poytaxtimizning to‘rida, baland joyda bundan 35 yil avval qad rostlagan Alisher Navoiy xazratlarining ulkan siymolari go‘yo biz avlodlarga oq yo‘l tilab turgan duogo‘y ustoz, ota misol taassurot qoldiradi. Bunday g‘urur va iftixor bilan eslanadigan tarixiy voqea va hodislarni sanab ado qilish mushkul.

Mustaqillikni anglash katta mas’uliyat, ma’naviyat va mafkuradir. U har kuni g‘amxo‘rlik qilishni talab etadigan, qurilayotgan Yangi O‘zbekiston degan binoga munosib bir g‘isht qo‘yishni taqozo etadigan jarayondir. Quruq, deklarativ va’dabozliklar, gapdonlik mustaqillik binosiga foyda keltirmaydi, mustaqillik bularni xushlamaydigan jiddiy yukdir. Uni o‘z gardanida ko‘taradiganlar, jamiyatning ilg‘or qatlami bo‘lgan biz ziyolilar, nuroniylar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Davlatimiz rahbari shularni nazarda tutib shunday degan edi: “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”[2],

Ma’lumki, XXI asr axborot asri, deb nom oldi va u strategiyaga aylanib ulgurdi. Keyingi yillarda bunga yana sun’iy intellekt degan butunlay yangi bir tushuncha qo‘shildi va u shiddat bilan jamiyatning barcha tarmoqlarini qamrab bormoqda. “Bugun insoniyat yangi tsivilizatsiya bosqichiga – sun’iy intellekt davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi”[3], - dedi davlatimiz rahbari. Globallashuv sharoitida yashayotgan O‘zbekiston ham ana shu innovatsiyalar to‘lqinidan, qamrovidan chetda, sirtda bo‘lishi mumkin emas, bo‘lolmaydi ham. Globallashuvning to‘foni shunday narsaki, usiz yashab bo‘lmaydi va ayni paytda uning ba’zi shiddati va bosimiga chidab ham bo‘lmaydi.

Ana shunday sharoitda kadrlarni tayyorlash, ushbu keskin shart-sharoitlarga immunitet hosil qilish mamlakatlardan kadrlar tayyorlash ishiga tubdan yangicha, innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Bunda deklaratsiyalar, chaqiriqlar bilan ish bitmaydi, sun’iy intellekt bobida ortda qolmaslik uchun Prezidentimiz mutasaddilar diqqatini shu masalaga tinmay tortmoqdalar, kadrlar tayyorlash ishini jahon standarti darajasiga etkazish uchun qancha resurs va mablag‘ bo‘lsa ajratishga topshiriq bermoqdalar. Gap ana shu e’tibor va g‘amxo‘rliklarni amaliy yo‘nalishga solish, ana shu intellektual maydonda Yangi O‘zbekistonning munosib o‘rnini egallashdan iborat. Shu talabga mos kadrlar armiyasini tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib turibdi. Ularning intellektual salohiyati bilan birga, ma’naviyatini yuksaltirish, ezgulik va poklik ruhida tarbiyalash, axborot makonidan oladigan ma’lumlotlarga taxliliy yondashuvni singdirish, sun’iy intellektdan maqsadli foydalanishni chuqur bilish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni isloh qilish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda

---

2. O’zbekistonning “Davlat tili to’g’risida”gi qonuni 1989 yil 21 oktyabrda – Mustaqilligimiz e’lon qilinishidan taxminan ikki yil ilgari qabul qilingan.

[2] Mirziyoev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviyatni yuksaltirish bo’yicha o’tkazilgan videoselektordagi nutqidan.

[3] Mirziyoev Sh.M.2025 yil 21 oktyabrda sun’iy intellektga bag’ishlangan videoselekt ordagi nutqidan.

milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o‘zini oqlagan xalqaro tajribalarini chuqur o‘rganish va kerakli jihatlarini qabul qilish ham davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir. Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, insonlar, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga xalqiga, ona yurtiga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini kadrlar ongiga chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1]deb yozgan edi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shu yilning 14 fevral kuni yoshlar bilan muloqot qildilar. Videoselektor shaklida o‘tgan uchrashuvda yoshlar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokama etildi.Unda Shaxcning ijtimoiy faollik dapajaci, madaniy yukcalishini ta’minlovchi muhim omil ta’lim va tapbiya ekanligi alohida ta’kidlandi va bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar tilga olindi.

Mamlakat va millat op-nomucini, faxpu-iftixopini, ictiqboli va kelajagini siz yoshlap faoliyaticiz tacavvup qilish mushkul. Shu boicdan mamlakatimiz aholicining 60 foyizini tashkil etgan yoshlap vatanimizning ctpategik maqcadlapini amalga oshipishda katta kuch ekanligini hicobga olgan holda, ulapga bo‘lgan munocabat, hayotga, faoliyatga bo‘lgan qiziqish va yoshlapning ma’naviy qiyofacini maqsadli va manzilli shakllantipish dolzapb muammo bo‘lib qolyotganligini Prezidentimiz alohida ta’kidladilar.

Davlatimiz rahbari keyingi o‘n yil mobaynida yoshlar siyosatiga qaratgan e’tibor mamlakatimiz tarixida yoshlarga munosabatning yangi falsafasini bunyod qildi deyish mumkin. Ular bilan ishlash, g‘amxo‘rlik qilish, rag‘batlantirish va ularga o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun imkon yaratib berishdek keng ko‘lamli qamrlovli yondashuv yurtimiz yoshlarining hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Yosh avlod o‘ziga bo‘lgan bunday e’tibor va g‘amxo‘rlikni anglagan xolda o‘zlarining butun g‘ayrat-shijoatini vatan ravnaqiga sarflay boshlaganini yaqqol ko‘rib turibmiz. Ushbu siyosat, yoshlarga bo‘lgan ushbu yangicha falsafan ing natijalarini har soniya sezib turibmiz. Yoshlar mo‘’jizalar ko‘rsatayotgan sohalarni sanab o‘tirmay faqat eng so‘nggi, dunyoni lol qoldiradigan intellektual soha bo‘lgan shaxmatda erishilayotgan natijalar, Javoxir Sindorovning qo‘lga kiritayotgan yutuqlarini aytishninshg o‘zi fikrimizni isbotlab turibdi. Javohir Sindarov Nomzodlar turnirining to‘rtinchi turida asosiy favoritlardan biri — Fabiano Karuana ustidan muhim g‘alabani qo‘lga kiritdi. 4 imkoniyatdan 3,5 ochko jamg‘argan grossmeyster yakka o‘zi birinchi o‘ringa chiqib oldi[2].

Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvda yana bir qator yangiliklarni sanab o‘tdilar va ushbu chora-tadbirlar yoshlar siyosatidagi ishlarimizni yangi bir bosqichga olib chiqishiga ishonch bildirdilar. Jumladan, Yoshlar agentligi xorijda o‘qiyotgan har bir talabaga bosh-qosh bo‘ladi. Bilimli yigit-qizlar dunyoning “Top-100” oliygohlariga yuborilib, o‘qish va yashash xarajatlari qoplab beriladi. Chet elda o‘qib kelganlar milliy kadrlar zaxirasiga kiritilib, davlat organlariga tanlovsiz ishga olinadi.

Bundan tashqari, reytingi yuqori xalqaro universitetlarda ilmiy daraja olgan 35 yoshgacha bo‘lgan yosh olimlarga uy-joy uchun 10 yil muddatga 800 million so‘mgacha foizsiz ssuda

[1] Mirziyoev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O’zbekiston:NMIU, 2016. 14-bet.

[2]KUN.UZ. 2026 yil 2 aprel.

ajratiladi. Nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lganlar uchun bir martalik pul mukofoti miqdori 5 karra oshiriladi.Energetika, transport, urbanizatsiya, zamonaviy arxitektura, tibbiyot yo‘nalishlarida “El-yurt umidi” jamg‘armasi kvotalari ko‘paytiriladi. Harbiy bilim yurtlarining namunali tinglovchilari uchun “Oliy bosh qo‘mondon” davlat stipendiyasi joriy etiladi.

Kelgusi o‘quv yilidan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida muhandislik olimpiadalari va tanlovlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi. G‘olib bo‘lgan bitiruvchi yoshlar texnika oliygohlariga grant asosida o‘qishga kiradi.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ushbu talablarni hisobga olgan holda kasbiymadaniy munosabatlarni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va kasbiy munosabatlarning samaradorligi mutaxassisning shaxsiy madaniyati, axloqiy qarashlari hamda muloqot kompetensiyasiga bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni joriy etish bo‘lajak mutaxassislarda kasbiymadaniy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo‘lajak mutaxassislarda kasbiymadaniy munosabatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish hamda talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-axloqiy munosabatlarni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etish, fanlararo bog‘liq likni kuchaytirish hamda talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi[1].

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining kasbiy-axloqiy pozitsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qituvchi o‘z faoliyatida axloqiy qadriyatlarga amal qilgan holda yosh avlodni bilimli, ma’naviy yetuk va komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv bu albatta, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda eng samarali yo‘llardan biridir. U nafaqat bilim, balki qadriyat, tafakkur va shaxsiy fazilatlarni ham uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatga yetuk, ongli va mas’uliyatli pedagoglar yetishib chiqadi. Bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining shaxsi rivojlanishining kasbiy, intellektual va axloqiy darajasiga nisbatan jamiyat talablarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini talabalarning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatiga muvofiq tashkil etishni nazarda tutuvchi shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar har bir shaxsning o‘ziga xosligini anglash, talabaning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-madaniy munosabatlarni integrativ yondashuv asosida rivojlantirish yuqori samaradorlikgarovidir. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlab, talabalarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda madaniy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Natijada zamonaviy jamiyat va mehnat bozori talablariga mos, madaniyatli va mas’uliyatli muta xassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi. Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun ta’lim mazmunini integratsiyalash, innovatsion metodlardan foydalanish hamda tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “1-oktyabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrigi. 30.09.2025
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyun “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son qarori.
3. B.N.Saidova. “Bo‘lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish”, maqola. Maktabgacha va maktab ta’limi ilmiy jurnali, 12-son, 2025-yil. 2820-bet.
4. Samandarova, N. “Integrativ yondashuv– ta’limning yangi bosqichi”.– T.: 2023. Barkamol avlod, 172-б.
5. M.Axmedova, “Pedagogik kompetentlik”, O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2018.
6. Abdurazzoqova, M. “Kasbiy tayyorgarlikda zamonaviy uslublar”.–T.: 2023. O‘qituvchi,

[1] Shodiyeva, N. (2021). “Kasbiy rivojlanishda integratsiyalangan yondashuv”.– T.: Ilm nuri,

7. Ochilov M. “O‘qituvchining nutq madaniyati va pedagogik nazokat”. – T.: «O‘qituvchi», 2004.

8. Azizxodjayeva N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar”. – T.: «O‘qituvchi», 2008.

9. E.Migranova, Sh.Pozilova “Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish” O‘quv qo‘llanma. T.: «Aloqachi», 2017 y.

10. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jaev A.A., Yusupov B.E. “Ta’lim texnologiyalari”. O‘quv qo‘ lanma. Toshkent “Voris” nashriyoti – 2020. 192 b.

11. Qo‘ysinov O.A. «Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari» // T-2019, pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.

12. Mamaraimova, G. “Modulli ta’lim va integratsiyalangan mashg’ulotlar”.– T.: 2023 O‘zbekiston,

13. Kamolova, Sh. O’qituvchi tayyorlashda fanlararo aloqalar.– T.: Ziyo, 2020.

Shodiyeva, N. “Kasbiy rivojlanishda integratsiyalangan yondashuv”.– T.: 2021.

МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ФИЛОСОФСКО-НРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА



Омонова Зарнигор Туражон кизи
Научный сотрудник Наманганского педагогического института

Аннотация: В статье рассматривается проблема интеграции мультимедийных технологий в процесс подготовки будущих учителей истории как важного средства формирования философско-нравственных компетенций. Особое внимание уделяется роли мультимедийных средств в развитии кадрового потенциала системы образования: они обеспечивают подготовку педагогов нового поколения, способных соединять ценностное содержание исторического образования с инновационными методами обучения.

Ключевые слова: мультимедийные технологии, виртуальные экскурсии, цифровые архивы, мультимедиа, медиакомпетентность, инновационные методы, медиатексты.

Современная система образования требует подготовки педагогов, обладающих не только профессиональными знаниями, но и широким спектром компетенций, связанных с философско-нравственным развитием личности. В этом контексте мультимедийные технологии становятся важным инструментом формирования ценностных ориентиров и мировоззренческих установок будущих учителей истории. Президент нашей страны Шавкат Мирзиёев отмечает: «Абсолютно невозможно рассматривать такой важный и стратегический вопрос, как образование, по-старому, подходить к нему с устаревшими знаниями и системами. Если мы не создадим самую современную и передовую систему в этом отношении, мы не сможем решить ни одну из стоящих перед нами проблем» [1]. Эти слова отражают необходимость внедрения инновационных подходов в образование, где мультимедийные технологии выступают ключевым инструментом.

В.А. Кузнецов в своей статье «Использование информационных технологий в образовании» называет «информационное общество» «обучающимся обществом» [2], что подчёркивает важность постоянного обновления знаний и навыков. Использование мультимедиа позволяет соединить традиционные методы преподавания с инновационными подходами, делая процесс обучения более наглядным, интерактивным и содержательным. Виртуальные экскурсии, цифровые архивы, исторические реконструкции и мультимедийные

презентации помогают студентам глубже осмыслить философские и нравственные аспекты исторического процесса, формируя у них критическое мышление и способность к моральной оценке событий прошлого.

В этом контексте важно учитывать современные научные подходы к определению мультимедиа. Так, автор в области цифровых технологий И. В. Челышева предлагает рассматривать мультимедиа как «комплексное использование различных форм представления информации (текст, аудио, видео, графика, анимация), объединённых в единую интерактивную среду» [3].

В свою очередь, мультимедийные технологии (МТ) определяются как способ подготовки электронных документов, включающих визуальные и аудиоэффекты, а также моделирование различных ситуаций под управлением интерактивного программного обеспечения [4].

Эти подходы подчёркивают, что мультимедиа в образовательном процессе не ограничивается технической функцией, а становится средством формирования философско-нравственных компетенций будущих учителей истории. Их использование позволяет соединить ценностное содержание исторического образования с инновационными методами, обеспечивая развитие кадрового потенциала и подготовку педагогов нового поколения.

В этом контексте особое значение приобретает формирование медиакомпетентности, которая рассматривается как результат медиаобразования и показатель уровня медиакультуры. Медиакомпетентность обеспечивает способность личности понимать социокультурный, экономический и политический контекст функционирования медиа, что особенно важно для будущих учителей истории. Она позволяет не только эффективно использовать мультимедийные технологии в образовательном процессе, но и формировать у студентов философско-нравственные компетенции, необходимые для осознанного восприятия исторических событий и их моральной оценки. Она свидетельствует о способности человека быть носителем и передатчиком медиакультурных вкусов и стандартов, эффективно взаимодействовать с медиапространством, а также создавать новые элементы медиакультуры современного общества [5].

Медиакомпетентность рассматривается как интегративное качество личности, проявляющееся в готовности к выбору, использованию, критическому анализу, оценке, созданию и передаче медиатекстов в различных формах и жанрах. Это понятие многомерно: оно включает в себя знания, способы деятельности и личностные свойства, функционирует в рамках нескольких смежных научных областей и носит междисциплинарный характер [6].

В процессе подготовки будущих учителей истории мультимедийные технологии становятся важным инструментом развития медиакомпетентности, которая напрямую связана с формированием философско-нравственных компетенций. Их использование позволяет не только овладеть современными цифровыми средствами, но и воспитать способность к осмысленному и ценностному восприятию исторического материала, что обеспечивает укрепление кадрового потенциала системы образования.

При подготовке будущих учителей истории мультимедийные средства становятся не просто техническим дополнением, а средством формирования философско-нравственных компетенций. Они позволяют соединить традиционные ценности с современными методами обучения, обеспечивая развитие кадрового потенциала и воспитание педагогов, способных не только передавать знания, но и формировать мировоззрение и нравственные ориентиры учащихся. Интеграция мультимедийных технологий в процесс подготовки будущих учителей истории является важным направлением развития современного образования. Эти средства не только обеспечивают наглядность и интерактивность учебного процесса, но и способствуют формированию философско-нравственных компетенций, необходимых для осознанного восприятия исторических событий и их моральной оценки.

Мультимедийные технологии выступают не только средством визуализации и упрощения учебного материала, но и инструментом формирования философско-нравственных компетенций будущих учителей истории. Их интеграция в образовательный

процесс позволяет соединить традиционные ценности с инновационными методами обучения, обеспечивая развитие кадрового потенциала и подготовку педагогов, способных воспитывать у учащихся ценностное отношение к историческому наследию и культуре. Эти технологии позволяют соединить ценностное содержание исторического образования с инновационными методами, формируя у студентов критическое мышление, медиакомпетентность и способность к самостоятельному анализу информации. В результате будущие педагоги приобретают навыки, которые делают их носителями и передатчиками культурных и нравственных стандартов, а также активными участниками медиапространства.

Таким образом, интеграция мультимедийных технологий в подготовку будущих учителей истории рассматривается как стратегическое направление развития кадрового потенциала. Она обеспечивает формирование специалистов, способных не только передавать знания, но и воспитывать у учащихся ценностное отношение к истории, культуре и духовному наследию.

Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 – жилд. – Тошкент. 2020. 149-бет.

2. Кузнецов В. А. Использование информационных технологий в образовании //Естественнонаучное образование: информационные технологии в высшей и средней школе. Методический ежегодник химического факультета МГУ имени МВ Ломоносова. 2019. С. 41-53.

3. Челышева И. В. Научно-образовательный центр «Медиаобразование и медиакомпетентность»: работа со школьными учителями и преподавателями вузов: учебное пособие. Таганрог: Изд-во Таганрог. гос. пед. ин-та. 2011.180с.

4. Кирмайер М. Мультимедиа: Пер. с нем. - СПБ.: BHV - Санкт-Петербург, 1994 - 192 с.

5. Фёдоров А. В. Медиаобразование: теория, история, методика. М.: Издво МООК, 2020. 250 с.

6. Фёдоров А. В. Медиаобразование: история и теория. М.: МОО «Информация для всех». 2015. 450 с.

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA ESTETIK TA’LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Shodiya Yoqubjonova G‘ayratovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda yuqori sinf o‘quvchilarida estetik tarbiya va ta’limni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o‘rni, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida estetik did va tafakkurni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda san’at, adabiyot va madaniyatning integrativ ahamiyati asoslab beriladi.

Estetik tarbiya bu – o‘quvchilarga voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish handa to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish va hayotga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Kalit so‘zlar: estetik tarbiya, estetik did, yuqori sinf o‘quvchilari, ijodiy tafakkur, pedagogik yondashuv, madaniyat, san’at, estetik ong, shaxs kamoloti.

Insoniyat go‘zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go‘zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismidir. Uning obyektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tarbiyani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta’minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta’lim hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida shaxsning har tomonlama rivojlanishi nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan, balki uning estetik dunyoqarashi, go‘zallikni anglash qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari –hayotiy pozitsiyasi shakllanayotgan, mustaqil fikrlash bosqichiga kirib kelayotgan yoshlar qatlamida estetik tarbiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda estetik tarbiya o‘z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismidir.

Estetik tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u o‘quvchining aqlini, ichki hissiyotlarini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. O‘quvchilarni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy muammolarni to‘g‘ri tushunish, oliyjanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida go‘zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

“Estetik tarbiya” tushunchasi bilan bir qatorda “badiiy tarbiya” tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u o‘quvchilarni badiiy tarbiyava san’at asarlari orqali tarbilaydi.

Estetik tarbiya – bu insonning borliqni go‘zallik mezonlari asosida idrok etishi, baholashi va yaratish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. U nafaqat san’atni tushunish, balki kundalik hayotda ham nafislik, uyg‘unlik va mazmunni anglashni o‘z ichiga oladi.

Badiiy tarbiya shaxsda san’at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san’atning ma’lum turlari bo‘yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go‘zallik kategoriyasi hisoblanadi. Uning ma’nosini o‘quvchilarda tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyligini ta’minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go‘zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- go‘zallik – bu kishining qalbi go‘zalligi;
- go‘zallik – bu kishining istarasi issiqligi;
- go‘zallik – bu kishining go‘zal xulq egasi bo‘lishi;

- go‘zallik – bu bamisoli daraxt, yaprog‘i – axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat.

Estetik tarbiya shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning vositalari o‘quvchilarning go‘zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san’at go‘zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda qo‘llaniluvchi omillar sanaladi.

Badiiy adabiyot estetik tarbiyada cheksiz imkoniyatlarga ega. U o‘quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o‘rgatadi. Olam va inson go‘zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan san’at asarlari insonlarni go‘zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g‘oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o‘quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go‘zallikdan chalg‘itadi, go‘zallikni sevishga bo‘lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi.

Yuqori sinflardagi mazkur yosh davrida o‘quvchilarda abstrakt tafakkur rivojlanadi, ular san’at va madaniyat hodisalariga tanqidiy yondasha boshlaydilar. Bu bosqich quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- *mustaqil estetik baho berish qobiliyatining shakllanishi*
- *san’at asarlariga chuqurroq tahliliy yondashuv*
- *individual estetik didning rivojlanishi*
- *ijodiy o‘zini ifoda etishga ehtiyojning ortishi*

Shu bois, pedagog estetik tarbiyani tashkil etishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Yuqori sinf o‘quvchilarida estetik tarbiya va ta’limni rivojlantirish – bu kompleks, tizimli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Estetik tarbiya orqali o‘quvchilarda nafaqat go‘zallikni anglash, balki uni yaratishga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida estetik tarbiyani rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, integrativ yondashuvlar va kreativ metodlardan keng foydalanish zarur. Bu esa kelajak avlodning ma’naviy yetuk, estetik didga ega va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nafosat tarbiyasi o‘quvchilarga borliqda mavjud bo‘lgan barcha narsa va hodisalardan zavq olishni o‘rgatadi. Insonda tashqi va ichki go‘zallikni shakllantiradi. Biz kelajakda yuqori sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berar ekanmiz, ularning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lishida nafosat tarbiyasining o‘rni beqiyos ekanligini to‘la anglamog‘imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. To‘xtaxodjaeva M.X. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Haydarova O.Q. Yangi pedagogik texnologiyalarning tarbiyachi faoliyatida tutgan o‘rni. // Pedagogik mahorat, 2-son, 2002.
4. Bikbulatova Aynur Suvtanovna “JOURNAL OF CIENCEINNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY
ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869

YOSHLARDAGI DEVIANT XULQ-ATVORNING KADRLAR SALOHIYATIGA TA’SIRI. IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Jabborova Sabrina G‘olibjon qizi
Guliston davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Temirova Nilufar Erkinovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlardagi deviant xulq-atvorning kadrlar salohiyatiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. E.Durkheim anomiya nazariyasi, R.Merton adaptatsiya modeli, T.Hirschi ijtimoiy nazorat nazariyasi va A.Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasi metodologik asos sifatida qo‘llanilib, yoshlardagi deviant xulq-atvorning ildizlari, shakllari va kadrlar salohiyatiga zararli ta’siri ochib beriladi. O‘zbekiston sharoitidagi statistik ma’lumotlar tahlilga jalb etiladi. Maqolada deviant xulq-atvorning profilaktikasida ijtimoiy ish amaliyoti, mahalla instituti va ta’lim tizimining hamkorlikdagi roli asoslab ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, kadrlar salohiyati, yoshlar, anomiya, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy dezadaptatsiya, profilaktika, ijtimoiy ish, jamiyat barqarorligi, mahalla.

KIRISH. Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirish O‘zbekiston Respublikasi milliy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, mutaxassislarning intellektual va ijodiy salohiyatini o‘stirish, shuningdek ularni ijtimoiy jihatdan sog‘lom va faol fuqarolar sifatida shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu ezgu maqsadga erishishda ko‘plab ijtimoiy to‘siqlar mavjud bo‘lib, ularning eng dolzarbi yoshlar o‘rtasida kuzatilayotgan deviant xulq-atvorning kuchayishidir. Deviant xulq-atvor — ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va qoidalardan chetlashish — zamonaviy jamiyatning eng murakkab ijtimoiy hodisalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat alohida shaxsning hayot yo‘lini barbod qiladi, balki jamiyatning umumiy intellektual va mehnat salohiyatini ham eroziyaga uchratadi. Giyohvandlik, alkogolizm, huquqbuzarlik, zo‘ravonlik va boshqa deviant xatti-harakatlar yosh avlodni jamiyat uchun zarur kadrlar sifatida shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘sqinlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistikasi yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va deviant xatti-harakatlar sonining o‘sish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Qurbonboyeva va Ilhomov o‘z tadqiqotlarida deviant xulq-atvorning yoshlar orasida tez sur’atda tarqalayotganini va bu holat kadrlar tayyorlash sifatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini aniqlagan. Bu esa ushbu muammoni ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur o‘rganish zaruriyatini tasdiqlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi yoshlardagi deviant xulq-atvorning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning kadrlar salohiyatiga ta’sir mexanizmlarini ochib berish va profilaktika yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun sotsiologik va falsafiy metodologiyadan foydalaniladi.

Durkheim anomiyasi: ijtimoiy me’yorlar buzilganda. Deviant xulq-atvorni sotsiologik jihatdan tushuntirishda Emil Durkheimning anomiya nazariyasi metodologik asosiy o‘rin tutadi. Durkheim (1897) o‘zining “Le Suicide” asarida jamiyatdagi me’yorlar tizimining buzilishi anomiya — shaxsni maqsadsizlik va ijtimoiy dezintegratsiya holatiga olib kelishini ko‘rsatadi. Anomiya sharoitida inson o‘zini jamiyatga bog‘lovchi me’yoriy iplar uziladi va u ijtimoiy jihatdan “erkin”, ya’ni me’yorlardan mustaqil holatga tushadi. Bu holat deviant xulq-atvorning eng qulay zaminini yaratadi.

Durkheim metodologiyasida muhim falsafiy xulosa mavjud: deviant xulq-atvor individual patologiya emas — u jamiyatning strukturaviy kasalligi. Me’yorlar buzilgan, qadriyatlar emirilgan, ijtimoiy aloqalar zaiflashgan jamiyatda deviantlik muqarrar ravishda kuchayadi. Zamonaviy O‘zbekistonda urbanizatsiya va globallashuv jarayonlari an’anaviy qadriyatlar tizimi bilan yangi hayot sharoitlari o‘rtasida keskin tafovut yaratmoqda. Bu normativ vakuum, ayniqsa o‘sib kelayotgan yoshlar uchun, deviant xulq-atvor xavfini sezilarli darajada oshirmoqda. Xojibekov va Qurbonboev tadqiqotlarida qishloqdan shaharga ko‘chib kelgan yoshlar orasida deviant xulq-atvor ko‘rsatkichlari shaharlik tengdoshlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi empirik jihatdan aniqlangan.

Bu holat Durkheim anomiyasi nazariyasining O‘zbekiston sharoitida ham yuqori tushuntirish kuchiga ega ekanligini tasdiqlaydi: yangi muhitga moslasha olmagan, an’anaviy me’yorlardan uzilib qolgan yosh inson anomiya holatiga tushadi va deviant xulq-atvorga ko‘proq moyil bo‘ladi.

Merton adaptatsiya modeli: maqsad va imkoniyat ziddiyati. Robert Merton (1938) Durkheim anomiyasi nazariyasini yanada rivojlantirdi. Merton modelida jamiyat a’zolariga madaniy maqsadlar — muvaffaqiyat, boylik, ijtimoiy tan olinish va bu maqsadlarga erishishning institutsional vositalari — ta’lim, qonuniy mehnat taqdim etiladi. Deviantlik aynan shu ikki element o‘rtasidagi ziddiyatdan — maqsad bor, ammo uni qonuniy yo‘l bilan amalga oshirish imkoniyati yo‘q — paydo bo‘ladi. Merton besh turdagi ijtimoiy adaptatsiyani ajratadi. Bulardan kadrlar salohiyati uchun eng xavfli ikki tur “innovatsiya” qonunsiz yo‘l bilan maqsadga erishish, ya’ni jinoyatchilik va “chekinish” ikkalasidan ham voz kechish, ya’ni giyohvandlik va alkogolizm. Yuldashova tadqiqotida O‘zbekistonda iqtisodiy imkoniyatlardan mahrum bo‘lgan yoshlarning jinoiy guruhlar ta’siriga tushish ehtimoli 3-4 baravar yuqori ekanligi ko‘rsatilgan. Bu holat Merton modelining O‘zbekiston kontekstida ham amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Hirschi: ijtimoiy nazorat zaiflashsa deviantlik kuchayadi. Travis Hirschi (1969) ijtimoiy nazorat nazariyasida deviantlikning sababi sifatida ijtimoiy bog‘liqlikning zaiflashuvini ko‘rsatadi. Hirschi nazariyasida ijtimoiy bog‘liqlik to‘rt elementdan iborat: aloqa — yaqin odamlarga hissiy bog‘liqlik; majburiyat — qonuniy faoliyatga sarmoya; ishtirok — ijtimoiy hayotda band bo‘lish; ishonch — ijtimoiy me’yorlarga e’tiqod. Bu to‘rt element o‘zaro mustahkam bo‘lganda, inson deviant xulq-atvorga o‘tishdan o‘z-o‘zidan tiyiladi. Qurbonboyeva va Ilhomov tadqiqotlarida O‘zbekistondagi deviant xulq-atvor ko‘rsatgan yoshlarning 70 foizdan ko‘prog‘i oilaviy aloqalari zaiflashgan, maktab yoki kasbga bog‘liqligi past, ijtimoiy faollikdan uzoqlashgan guruhga mansub ekanligi aniqlangan. Bu holat Hirschi nazariyasining to‘rt elementidan bir yoki bir nechtasi buzilganda deviantlik xavfi keskin oshishini to‘liq tasdiqlaydi.

Bandura: Deviantlik o‘rganiladi. Albert Bandura (1977) ijtimoiy o‘rganish nazariyasida deviant xulq-atvorning kuzatish, taqlid va ijtimoiy mustahkamlash orqali tarqalishini empirik jihatdan isbotlaydi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, yosh inson deviant xulq-atvorni “o‘rganadi” — muhitidagi namunaviy shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatadi, taqlid qiladi va bu xatti-harakatlar ijtimoiy muhit tomonidan “mukofotlanganda” (e’tibor, obro‘, moddiy foyda) mustahkamlanadi.

Bu nazariya kadrlar salohiyati kontekstida muhim amaliy xulosa beradi: deviant xulq-atvor ijtimoiy “yuqumli” hodisa. Bitta deviant a’zo butun jamoani, sinf yoki kursni, hatto mehnat jamoasini ta’sir ostiga olishi mumkin. Shu sababli deviant xulq-atvorning oldini olish — bu faqat individual muammo emas, balki butun muhitni sog‘lomlashtirish masalasidir.

Giyohvandlik va alkogolizm: salohiyatning to‘liq yo‘qolishi. Giyohvandlik va alkogolizm deviant xulq-atvorning kadrlar salohiyatiga eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri va eng og‘ir zarar yetkazuvchi shakllari hisoblanadi. Merton modelida bu hodisalar “chekinish”) tipiga kiradi: yosh inson jamiyat taqdim etayotgan ham maqsad, ham vositadan voz kechib, kimyoviy moddalar orqali sun’iy farovonlik holatiga qochadi. Bu holat nafaqat shaxsning, balki uning oilasi va atrofidagilarning ham hayotini barbod qiladi. Giyohvandlik va alkogolizm kadrlar salohiyatiga uch yo‘nalishda zarar yetkazadi: birinchidan, intellektual salohiyatni — miyaning kognitiv funksiyalarini buzish orqali; ikkinchidan, jismoniy salohiyatni — immunitet, organ funksiyalari va umumiy sog‘liqni zaiflash orqali; uchinchidan, ijtimoiy salohiyatni — oilaviy munosabatlar, kasbiy aloqalar va ijtimoiy obro‘ni yo‘q qilish orqali. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistikasiga ko‘ra, narkotik moddalarga oid jinoyatlar yoshlar huquqbuzarliklari ichida sezilarli o‘rinni egallaydi.

Jinoyatchilik va huquqbuzarlik: kadrni jamiyatdan uzib qo‘yish. Yoshlar jinoyatchiligi deviant xulq-atvorning ikkinchi muhim shakli bo‘lib, kadrlar salohiyatiga o‘ziga xos tarzda zarar yetkazadi: huquqbuzarlik sodir etgan yosh inson sud jarayonlari, jazo muassasalari va ijtimoiy tamg‘a orqali me’yoriy hayotdan uzoq vaqt chetlashtirilib qoladi. Bu davr mobaynida u ta’lim olish, kasb egallash va kasbiy ko‘nikmalar rivojlantirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Merton “innovatsiya” modeli nuqtai nazaridan yoshlar jinoyatchiligi ko‘pincha qonuniy imkoniyatlardan mahrum bo‘lgan, ammo maqsadlari o‘zgarmagan yoshlarda kuzatiladi. Bandura nazariyasi esa jinoiy muhitning “o‘rgatuvchi” ta’sirini ko‘rsatadi: jinoiy guruhda bo‘lgan yosh inson yanada

murakkab jinoiy xatti-harakatlarni o‘rganib, “ixtisoslashib” boraveradi. Natijada jamiyat ushbu yoshning butun hayot davomidagi potensial salohiyatidan mahrum bo‘ladi — bu kadrlar salohiyatiga yetkaziladigan eng og‘ir zarardır.

Maktab va kasbiy muhitdan chetlashish: ko‘rinmas deviantlik. Deviant xulq-atvorning kadrlar salohiyatiga ta’siri nuqtai nazaridan ayniqsa xavfli, ammo ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan shakl — maktab va kasbiy muhitdan ko‘ngilsiz chetlashish. Bu holat qonunni rasmiy buzmasdan ham ro‘y beradi: yosh inson maktabga boradi, ammo darsga diqqat qaratmaydi; ishga keladi, ammo haqiqiy mas’uliyat bilan ishlamaydi. Hirschi nazariyasida bu “majburiyat” va “ishtirok” elementlarining zaiflashuvi deviantlikning yumshoq, ammo keng tarqalgan ko‘rinishidir. Durkheim anomiyasi nuqtai nazaridan esa bu holat me’yoriy vakuumning bevosita oqibati: o‘z faoliyatida ma’no va yo‘nalish ko‘rmaydigan yosh inson sekin-asta ijtimoiy hayotdan chekinib, passivlik va befarqlik holatiga tushadi. Bu holat kadrlar salohiyati uchun ham bevosita zarar pasaygan unumdorlik, sifatsiz kasbiy chiqim va bilvosita zarar jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuch o‘rnida iste’mol qiluvchi kuchga aylanish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Shaxs darajasida. Deviant xulq-atvor birinchi navbatda shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq rivojlantirish va namoyon qilish imkoniyatini yo‘q qiladi. Giyohvandlik intellektual va jismoniy salohiyatni buzsa, jinoyatchilik ijtimoiy salohiyatni va kasbiy rivojlanish imkoniyatini tugatadi. Passiv deviantlik esa shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini, kasbiy motivatsiyasini va hayotiy maqsadlarini yo‘q qiladi. Frankl (1959) logoterapiya nazariyasida ta’kidlaganidek, hayotning ma’nosini yo‘qotgan inson o‘z salohiyatining faqat ulushini namoyon qila oladi qolganini esa “ekzistensial vakuum” yutib ketadi.

Oila va jamoa darajasida. Deviant xulq-atvorli shaxs atrofidagi kishilarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Oilada psixologik muhit buziladi, farzandlar noto‘g‘ri xulq-atvor namunasini o‘rganadi, iqtisodiy va hissiy resurslar sarflanadi. Bandura (1977) ta’kidlaganidek, deviant xulq-atvor jamoada “yuqumli” ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maktab, universitet yoki ish jamoasida deviant a’zo boshqalarning e’tiborini ham buzishi, ijodiy va intellektual muhitni zararlantirishiga olib kelishi mumkin.

Jamiyat va davlat darajasida. Deviant xulq-atvorning jamiyatga yetkazadigan iqtisodiy va ijtimoiy narxi nihoyatda yuqori. Jinoyatchilikka qarshi kurash, sud-huquq tizimi, qamoqxonalar va reabilitatsiya markazlari davlat byudjetidan katta mablag‘ talab qiladi. Ammo bundan ham muhimi deviant xulq-atvor orqali jamiyat o‘zining eng asosiy resursi inson salohiyatidan mahrum bo‘ladi. Jamiyat barqarorligi esa aynan ushbu salohiyatga tayanadi. Shu sababli yoshlar deviantligini profilaktika qilish — bu nafaqat ijtimoiy muammo, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismidir.

Ijtimoiy ish amaliyoti — asosiy vosita. Deviant xulq-atvorni profilaktika qilishda ijtimoiy ish amaliyoti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ish mohiyatan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uzilgan aloqani tiklashga Hirschi ta’rifidagi ijtimoiy bog‘liqlikning to‘rt elementini mustahkamlashga — qaratilgan kasbiy faoliyat. Ijtimoiy ish mutaxassislari deviant xulq-atvorga moyil yoshlarni erta aniqlash, ularning muammolari sabablarini tashxislash va maqsadli yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy ishning uch darajali profilaktika modeli deviant xulq-atvorga nisbatan samarali qo‘llanilishi mumkin: birlamchi profilaktika barcha yoshlar uchun ijtimoiy ko‘nikmalar va qadriyatlarni shakllantirish; ikkilamchi profilaktika xavf ostidagi guruhlar bilan maqsadli ishlash; uchinchi darajali profilaktika allaqachon deviant xulq-atvor namoyon bo‘lgan shaxslarga reabilitatsiya ko‘rsatish. Har uch bosqichda kasbiy ta’lim, oilaviy yordam va mahalla hamkorligini birlashtirib olib borish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Mahalla instituti: O‘zbekistonning noyob resursi. O‘zbekistonda mahalla instituti deviant xulq-atvorning profilaktikasida noyob milliy resurs hisoblanadi. Durkheim tili bilan aytganda, mahalla — “mexanik hamjihatlik”ning, ya’ni umumiy qadriyatlar va o‘zaro mas’uliyat asosidagi birlikning hali tirik namunasi. Bu G‘arb individualistik jamiyatida yo‘qolgan, ammo O‘zbekistonda saqlanib qolgan muhim ijtimoiy kapital. Mahalla faollari orqali deviant xulq-atvorga moyil yoshlarni erta bosqichda aniqlash, ularning oilalari bilan ishlash va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan hamkorlikda kompleks yordam ko‘rsatish mumkin. Xojibekov va Qurbonboev

tadqiqotlarida mahalla asosidagi profilaktika dasturlari yoshlar deviantligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu esa mahalla institutini profilaktika tizimining markaziga qo‘yish zarurligini tasdiqlaydi.

Ta’lim tizimida deviantlikka qarshi muhit. Maktab va oliy ta’lim muassasalari deviant xulq-atvorning profilaktikasida eng muhim darajadan birini egallaydi. Hirschi nazariyasining “ishtirok” elementi yoshni ta’lim va ijtimoiy faoliyatga jalb qilish deviant xulq-atvorga qarshi eng kuchli himoya omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’lim muassasalarida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlaydigan ijtimoiy-madaniy, sport va ijodiy dasturlar kadrlar salohiyatini mustahkamlashning muhim vositasiga aylanadi.

Bundan tashqari, ta’lim tizimida ijtimoiy-hissiy o‘rganish dasturlarini joriy etish o‘z hissiyotlarini boshqarish, empatiya, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish — yoshlarni deviant xulq-atvorga moyillikdan himoyalashning uzoq muddatli va samarali strategiyasidir. Yuldashova tadqiqotida bunday dasturlar amalga oshirilgan ta’lim muassasalarida deviant xulq-atvor ko‘rsatkichlari sezilarli darajada past ekanligi aniqlangan.

Yoshlardagi deviant xulq-atvor — kadrlar salohiyatiga bevosita va sistemali zarar yetkazuvchi ijtimoiy-falsafiy muammodir. Durkheim anomiyasi jamiyatdagi normativ inqirozni, Merton modeli maqsad va imkoniyat o‘rtasidagi ziddiyatni, Hirschi nazariyasi ijtimoiy bog‘liqlikning zaiflashuvini, Bandura esa deviant xulq-atvorning o‘rganilish mexanizmini ochib beradi. Bu to‘rt nazariy asos birgalikda yoshlar deviantligining keng va chuqur tushuntirishini beradi. Giyohvandlik, alkogolizm, jinoyatchilik va passiv chetlashish, deviant xulq-atvorning turli shakllari — shaxs, oila va jamiyat darajasida kadrlar salohiyatini eroziyaga uchratmoqda. Jamiyat barqarorligini ta’minlash uchun ushbu muammoni strategik darajada hal etish zarur. Ijtimoiy ish amaliyoti, mahalla instituti va ta’lim tizimining uyg‘un hamkorligiga asoslangan kompleks profilaktika tizimi O‘zbekiston sharoitida eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Kadrlar salohiyatini yuksaltirish — bu faqat kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘stirish emas. Bu avvalo yoshlarni sog‘lom ijtimoiy muhitda voyaga yetkazish, ularning ijtimoiy bog‘liqligini mustahkamlash va deviant xulq-atvorga olib keluvchi strukturaviy omillarni bartaraf etish demakdir. Aynan shu yo‘l orqali O‘zbekiston jamiyat barqarorligini ta’minlaydigan yuqori salohiyatli kadrlarni shakllantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. — Glencoe: Free Press, 1897/1951.
2. Merton R.K. Social Structure and Anomie // American Sociological Review. — 1938. — Vol. 3. — №5. — P. 672–682.
3. Hirschi T. Causes of Delinquency. — Berkeley: University of California Press, 1969.
4. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
5. Frankl V. Man’s Search for Meaning. — New York: Beacon Press, 1959.
6. Xojibekov R., Qurbonboev S. Kasbiy muhitda ijtimoiy izolyatsiya va unumdorlikka ta’siri // Central Asian Journal of Academic Research (CAJAR). — 2025. — №2.
7. Yuldashova M. Zamonaviy O‘zbekistonda yolg‘izlik hodisasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. — Toshkent: Fan, 2026.
8. Qurbonboyeva N., Ilhomov J. Yoshlar o‘rtasida begonalashuv va uning ijtimoiy oqibatlari // O‘zbekiston ijtimoiy fanlari jurnali. — 2024. — №4. — B. 45–53.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistik ma’lumotlari. — Toshkent, 2024.
10. Maslow A.H. A Theory of Human Motivation // Psychological Review. — 1943. — Vol. 50. — №4. — P. 370–396.

JAHON VA MILLIY TARBIYA KONSEPSIYALARI ASOSIDA KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

Isayeva Guli Parpiyevna
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
Pedagogika fanlari nomzodi, professor
Jumayeva Mukarrama Bekzod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida kadrlar salohiyatini yuksaltirishning dolzarb masalalari jahon va milliy tarbiya konsepsiyalari integratsiyasi asosida tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy e’tibori kadrlar tayyorlash jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, maqolada globallashuv sharoitida shaxs kompetensiyalarini rivojlantirishda 5C modeli doirasida kommunikativlik, kreativlik, kollaboratsiya, tanqidiy fikrlash va fuqarolik ongining shakllanishi masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy va jahon tarbiya yondashuvlarini uyg‘unlashtirish orqali nafaqat kasbiy kompetensiyalar, balki shaxsning ma’naviy barkamolligini ham ta’minlash mumkin. Mazkur yondashuv kadrlar salohiyatini oshirishda tizimli va samarali metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kadrlar salohiyati, jahon tarbiya konsepsiyalari, milliy tarbiya, 5C modeli, kompetensiya, globallashuv, ta’lim tizimi.

KIRISH. Bugungi globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida kadrlar salohiyatini yuksaltirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat nafaqat yuqori malakali, balki ma’naviy yetuk, axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lgan mutaxassislarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayonini faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan cheklab bo‘lmaydi, balki uni shaxsning ma’naviy-axloqiy rivoji bilan uzviy bog‘lash zarur.

Jahon ta’lim tizimida so‘nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv keng rivojlanib, unda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, 5C modeli (communication, collaboration, critical thinking, creativity, citizenship) orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishi ta’minlanadi. Biroq mazkur modelni milliy tarbiya qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Milliy tarbiya konsepsiyasi esa asrlar davomida shakllangan ma’naviy meros, urf-odatlar, an’analar va axloqiy me’yorlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois jahon va milliy tarbiya konsepsiyalarining integratsiyasi kadrlar salohiyatini oshirishda yangi metodologik yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi jahon va milliy tarbiya konsepsiyalari asosida kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ma’naviy-axloqiy jihatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali jahon va milliy tarbiya konsepsiyalarining asosiy yo‘nalishlari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida turli ta’lim tizimlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya elementlari aniqlanib, ularning o‘zaro integratsiyasi imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov ishlari orqali o‘quvchilarda 5C modeli asosida kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ma’naviy-axloqiy komponentlarning ta’siri o‘rganildi. Sotsiologik so‘rovnoma usuli orqali talaba va o‘qituvchilarning fikrlari umumlashtirildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimlilik, uzluksizlik va integrativlik tamoyillariga asoslanib, kadrlar tayyorlash jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi.

TADQIQOT NATIJALARI. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jahon va milliy tarbiya konsepsiyalarini uyg‘unlashtirish kadrlar salohiyatini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

Xususan, 5C modeli asosida shakllanadigan kompetensiyalar ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan boyitilganda, shaxsning ijtimoiy faolligi va kasbiy samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

Empirik natijalarga ko‘ra, o‘quv jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya elementlarini qo‘llash o‘quvchilarning fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy ongini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, kommunikativ va kollaborativ ko‘nikmalarni shakllantirishda madaniyatlararo muloqot elementlaridan foydalanish samarali natijalar bergan.

Tajriba natijalari shuni tasdiqladiki, integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki axloqiy qarashlar, ijtimoiy mas’uliyat va kreativ fikrlashni ham rivojlantiradi.

Ushbu tadqiqot doirasida XXI asr ko‘nikmalarining 5C modeli asosida ma’naviy-axloqiy komponentlar bilan integratsiyasi tahlil qilindi. Natija shuni ko‘rsatadiki, har bir kompetensiya elementi nafaqat funksional ko‘nikma sifatida, balki muayyan axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Quyidagi jadvalda mazkur integratsiyaning mazmuni va natijalari tizimli ravishda aks ettirilgan.


1-jadval. 5C modeli va ma’naviy-axloqiy komponentlar integratsiyasi

5C komponenti	**Mazmuni**	**Ma’naviy-axloqiy jihati**	**Natija**
Communication	Muloqot qilish qobiliyati	Hurmat, bag‘rikenglik	Samarali ijtimoiy aloqa
Collaboration	Jamoada ishlash	Hamjihatlik, mas’uliyat	Jamoaviy samaradorlik
Critical thinking	Tanqidiy fikrlash	Haqiqatni anglash, adolat	To‘g‘ri qaror qabul qilish
Creativity	Ijodkorlik	Yangilikka ochiqlik, estetik did	Innovatsion yondashuv
Citizenship	Fuqarolik ong	Vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat	Faol fuqarolik pozitsiyasi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kommunikativlik va kollaboratsiya ko‘nikmalari o‘quvchilarda ijtimoiy munosabatlar madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash esa shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirib, adolat va haqiqat tamoyillariga asoslanadi. Ijodkorlik va fuqarolik kompetensiyalari esa shaxsning ijtimoiy faolligi hamda innovatsion salohiyatini oshiradi. Demak, 5C modeli doirasidagi har bir ko‘nikma ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda kadrlar salohiyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida kadrlar salohiyatini shakllantirishning integratsion modeli ishlab chiqildi. Ushbu model jahon ta’lim konsepsiyalari, 5C kompetensiyalar tizimi hamda milliy tarbiya qadriyatlarining o‘zaro uyg‘unligini aks ettiradi. Quyidagi diagrammada kadrlar salohiyatini yuksaltirish integratsion model asosida ifodalanadi.

1-diagramma. Kadrlar salohiyatini shakllantirish modeli



Diagrammada aks ettirilganidek, jahon ta’lim tizimida shakllangan kompetensiyalar modeli milliy tarbiya va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan integratsiyalashgan holda kadrlar salohiyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda ma’naviy-axloqiy tarbiya markaziy o‘rin egallab, barcha kompetensiyalarni yagona tizimga birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu model ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlaydi.

Mazkur modelda jahon ta’limi asosida shakllangan 5C kompetensiyalar tizimi milliy tarbiya va ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda kadrlar salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu integratsiya shaxsning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy va ma’naviy rivojini ham ta’minlaydi.

MUHOKAMA. Olingan natijalar zamonaviy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya va kompetensiyaviy yondashuv o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Jahon tajribasida kompetensiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilmagan ta’lim modeli shaxsning to‘laqonli rivojlanishini ta’minlay olmaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kadrlar salohiyatini yuksaltirishda faqat texnologik va metodik yondashuvlar yetarli emas. Bunda ma’naviy-axloqiy omillar asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlash va rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, jahon va milliy tarbiya konsepsiyalarining sintezi pedagogik innovatsiyalarning samaradorligini oshiradi hamda barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, jahon va milliy tarbiya konsepsiyalari asosida kadrlar salohiyatini yuksaltirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, 5C modeli asosida kompetensiyalarni rivojlantirish milliy tarbiya elementlari bilan uyg‘unlashtirilganda yanada samarali natijalarga erishiladi. Bu esa o‘z navbatida raqobatbardosh, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va milliy qadriyatlarni global ta’lim tizimiga integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allaberganov, O., Mirtalipova, N., Ganieva, G., Isayeva, G., Abatova, S., Nurullayeva, N., ... & Mukhiddinova, M. (2025). The architectural legacy of Samarkand and Bukhara along the silk road. Archives for Technical Sciences/Arhiv za Tehnicke Nauke, (32).

2. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). Innovative methods and tools in higher education. Science and Innovation, 2(11), 708-715.

3. Jumayeva, M. (2024). Organizing primary education process on the base of international experiences and developing critical and creative thinking. Science and innovation, 3(B4), 73-75.

4. Fullan, M. (2013). Stratosphere: Integrating technology, pedagogy, and change knowledge. Pearson.

5. Isaeva, G., & Qallibekova, A. Q. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati. Интернаука Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука", 55-56.

6. Jumayeva, M., Quvvatova, G., & Dovurova, G. (2023). Innovative methods and tools in higher education. Science and innovation, 2(B11), 713-720.

7. Kamiljanovna, Z. D., O‘G‘Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis Of Higher Order Thinking Skills. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 672-676.

8. Komilov, J., Isaeva, G., Jonzokova, S., Nosirova, D., & Suleymanova, R. (2021). Innovative approaches of psychological training of young sportsmen to the competitions. Ilkogretim Online, 20(3).

9. Jumayeva, M. B. (2025). Use of educational methods in pedagogy. Икро журнал, 14(02), 168-174.

10. Rakhimov, B., Isaeva, G., Nosirova, D., Fayzieva, S., & Erkaeva, M. (2020). Development of students’ self-educational activities in the conditions of education informatization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(7), 8112-8118.

11. Umidjon, G., & Mukarrama, J. (2022). Used in lesson processes efficiency of interactive methods. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 161-162.

MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARNING KADRLARNING SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Shodiyorov Eldor Sharif o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilgari suriladigan qarashlar va tushinchalar bugunning “dolzarb” masalasiga aylangan kadrlarning ayniqsa yosh kadrlarning ma’naviy-axlqiy salohiyatini yuksaltirish masalasini ilgari suradi hamda bu boradagi muammolarga yechimlarni topib beradi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, taraqqiyot, axloq, vatan ravnaqi, jamiyat, milliylik, barqarorlik, qadiryat, milliy davlatchilik, kadrlar salohiyati, beqarorlik.

Bugungi kunda ma’naviyat va axloq tushunchasi faqatgina kitoblarda yozilganicha qolib ketmoqda. Bu terminlarni ishlarish eskilik sarqiti yokida keraksiz tushuncha sifatida qaralib, ko‘pchilik jamiyatlarda bu terminlar inkor etilmoqda.Tarixga qaraydigan aynan bizni hududimizda yashagan ota-bobolarimiz yuksak ma’naviyatga hamda yetuk axloq sohibi bo‘lganliklari bilan budun dunyo hamjamiyatining eng ziyolilari sifatida ko‘rilgan. Biz bu sohada minglab yurtdoshlarimizni sanashimiz mumkin hisoblanadi, Misol uchun: Buyuk salohiyat va yetuk bilimga ega bo‘lgan bobokalonimiz Abu Nasir Farobiy axloq falsafasi terminini ilgari surib insonning qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari, qanday fazilatli insonlar yetuk baholanishi haqida va uning johili sanalmish qurs sifatida qaralgan fazilatlarni o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida yozib qoldirgan bo‘li ushbu asar o‘zining axloqiy, tarbiyaviy hamda ma’naviy kamolotga erishtiruvchi g‘oyalari bilan ma’naviy-axloqiy sohada eng muhim manba sifatida qaraladi.

Umuman olganda ma’naviyat va axloq tushunchalri bir-biriga uzviy bog‘liq hisoblanadi.Bugungacha bu tushunchalarga minglab ta’riflar berilgan bo‘lib, ulardan eng maqullari sifatida quydagilarni ko‘rsatishimiz mukin hisoblanadi.

Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir.

Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi.

O‘zbekiston jamiyati bozor munosabatlariga shiddat bilan kirib borar ekan eng muhim tamoyllarga asoslangan holda kadrlar salmog‘ini kun sayin oshirib bormoqda. Mamlakatimiz bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida, iqtisodiy va ma’naviyat birligiga naqadar tez fursatda erishsa, rivojlanish pog‘onasida ham shuncha tez yuqoriga ildamlaydi.Bu sohalar hech qachon bir birini inkor etmaydi aksincha biri ikinchisini to‘ldirib yuksaltirib boradi.Ma’naviyati yuksak inson, (kadr) o‘zining mulkiga aslo xiyonat qilmaydi, doimo jamiyat va xalq manfaatlarini o ‘ylagan holda ish ko‘radi va jamiyat barqarorlashtirishda o‘zining eng muhim hissasini qo‘sha oladi.Agarda biz uning

aksi sifatida ko‘radigan bo‘lsak ma’naviyatsiz inson, kadr hech kimni o‘ylamaydi faqatgina o‘zining foydasi bo‘yicha ish ko‘radi.Bunday insonlar(kadrlar) hech qachon bu bozor munosabatiga o‘tishda eng ko‘p oyoqdan chaluvchilardir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘p jihatdan kadrlarning ma’naviyatiga bog ‘liq bo ‘lib.Hozirgi kunda kadrlar yuksak bilimga va tajribaga ega bo‘lishi bilan birga, quydagi yuksak ma’naviyatlarga ega bo ‘lishlari zarur hisoblanadi.

- Vatan oldidagi o‘z burchini to‘g‘ri anglashi;
- savdo-sotiq va o‘z korxonasining faoliyatini aniq tasavvur qilishi,
- o‘z sohasining ilmiy va amaliy jihatlarini mukammal bilishi, ma’rifatli bo‘lishi;
- dunyoviy bilimlarga va o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lishi:
- o‘z sohasiga oid qonun va qarorlarni mukammal bilishi;
- boylikka, shaxsiyatparastlikka, manmanlikka berilmasligi, kamtar, olijanob, sofdil, odob-axloqli bo‘lishi,
- barcha sohalarda halol va haromni ajrata bilishi, mehnatsevar, insonparvar bo‘lishi;
- chet el tillaridan ba’zilarini bilishi,
- insofli va adolatli, mard, qat’iyatli, boshlagan ishining natijasini oldindan ko‘ra biluvchi bo‘lishi

Biz birgina kadrlarning yuksak ma’naviyati qirralari to‘g‘risida to‘xtalganimiz bilan, lekin, jamiyat muammolari bilan shug‘ullanadigan barcha insonlar ham shu xislatlarga ega bo‘lishi zarur deymiz. Ming afsuslar bo‘lsinki, insonlar orasida jamiyat jihatlarini to‘g‘ri tushuraaydiganlar ham oz emas. Ular jamiyat oldidagi burchlarini ham unutadilar. Aslida inson burchlari ham bugun o‘ylab chiqarilgan emas, ular ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasining natijasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida-degan edi I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq o‘ninchi sessiyasida so‘zlagan nutqida inson ma’naviyatini unutish gunoh bo‘ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvib, oqibatda odamlarimiz ruhan qashshoq bo‘lib qolsalar, bunday jamiyatning hech kimga keragi yo‘q. Shu sababli ham Respublika mustaqillikka erishgandan buyon o‘tmish madaniyati va ma’naviyati, qadriyatlarni tiklash, milliy ongni o‘stirish kabi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Qaysi jamiyatda ma’naviy jihatlar qadrlanar ekan, o‘sha jamiyatda yashaydigan insonlar ijtimoiy tarafdan ko‘proq kafolatga ega bo‘ladilar. Shu sababli yuksak ma’naviyatga erishish borasida tinmay harakat qilinmoqda. Zero, milliy istiqlol mafkurasi ma’naviy, ma’rifiy qadriyatlarga ham bog‘liq. Sobiq ittifoq davrida xalqimiz gohida yashirin, gohida ochiq kamsitilib kelindi. “Sizlar o‘z-o‘zlaringni mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassiz”, “Sizlar mute, qaram millatsiz”, “Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazarıya yaratamiz, amru farmon beramiz Azlar esa bajarasiz, xolos” deb kelganlar. Prezidentimiz I.A.Karimov siyosiy byuro a’zolarining bu fikrlarini bekorga misol qilib aytmagan. “Biz yuqoridamiz” deb turib olganlarning fikrlari naqadar hayosizlik ekanligini tarix ko‘rsatayotir. Mafkura yakka hokimligidan qutulgan xalq o‘z ma’naviyati va mafkurasini tiklab sivilizatsiyaning yuqori cho‘qqilariga qarab borayotir. Binobarin, taraqqiyot taqdirini ma’naviy yetuk, kadrlar hal qiladi.

Dunyoviy bilimlarni egallash ma’naviy barkamollikni ta’minlashga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Barkamollik esa insonning ruhiy va ma’naviy salohiyatini, ma’rifiy hislatining oliy nishonasidir. Biz iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o‘nglash, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un bo‘lishini istaymiz va uni to‘la tatbiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo‘lsinlar. Hozirgi kunda ham ushbu fikrlarga amal qilingan holda ish olib borilmoqdaki, bu davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Davlat tomonidan ma’naviy va ma’rifiy ishlarga yordam qo‘lini cho‘zayotgan kishilarga, tadbirkorlarga, barcha homiylarga yordam ko‘rsatilib, ba’zi imtiyozlar berilayotganining guvohimiz. Ma’lumki, ma’naviy-ma’rifiy sohalar rivojlanishi uchun avvalo davlat homiylik qilmoqda. Chunki, ma’naviyat va ma’rifat o‘ta e’tiborni talab qiladigan sohalardan. Bu masalani hal etishda ham donishmandlarimiz o‘gitlariga, ya’ni “Ma’rifat bu shijoatdir” degan falsafiy fikrga amal qilinib ish olib borilayotir.

Ma’rifatga ishonganlar ma’rifatli kishilarni e’zozlaydi va ular ijod uchun shart-sharoit yaratadi. Ma’rifatga e’tiborli jamiyat o‘z yosh avlodlarini unutmaydi. Yosh avlod esa kelajak poydevoridir. Maqsadga erishish, yangi jamiyat qurish shu avlodga bog‘liq. Iqtisod va ma’naviyat, ma’rifat, siyosat nima ekanligini ularga tushuntirish shu jamiyat keksa va o‘rta yoshli ziyolilarining ulkan vazifasidir. Chunki barcha sohalardagi islohotlar taqdiri yoshlarning qo‘lidadir. Shu ma’noda iqtisodiy islohotlarda davlat bosh islohotchi ekanligini e’tirof etar ekanmiz, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham shunday bo‘lsa, bu yutuqlar garovi bo‘ladi. Ya’ni davlat ma’naviy yo‘nalishlarni belgilab berishi ayni muddao. Bozor munosabatlari davrida jamiyat uchun tarbiya samaradorligiga ayniqsa diqqat-e’tibor qaratilishi o‘ta muhim. Ma’naviyat tarbiyaning ajralmas qismi ekan, undan oqilona foydalanish, yoshlarni vatanparvarlik, rostgo‘ylik, haqsevarlikka o‘rgatish davr talabi. Axloq ma’naviyatning o‘zagi. Inson axloqi noyobdir. Axloq avvalo, insof, diyonat, adolat tuyg‘usi, mehr-shafiqat, iymon, halollikdir. Demak, jamiyat a’zolarini axloqli qilib tarbiyalash, o‘z iqtisodiyotini o‘nglashda muhim omildir. Bu sohada muqaddas dinimiz islomning ham beqiyos o‘rni bor. Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchunham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shu ma’rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o‘gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, or-nomusli, oriyatli bo‘lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, Hoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Hoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalarimiz qoldirgan tariqatlar ham ma’naviyatimiz asosini tashkil etadi. Ular insonlarni ma’rifatli, yuksak ma’naviyatlilikka chaqirgan. Umuman olganda, dinimiz xalq ma’naviyatini yuksalishi uchun zamin yaratuvchi beqiyos manba. Undan foydalanish bizning vazifamizdir.

Axloq talablari kishilarning fe’l-atvori va faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Bunda ba’zi xattiharakat va xulq-atvorlar axloqiy, ba’zilari axloqsizlik deb baholanadi. Axloq – ijtimoiy ongning eng qadimiy shakllaridan biri. Davr o‘zgara borgani sari har qanday hodisa kabi axloq ham o‘zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiy fan – “Etika” va “Axloqshunoslik” o‘rganadi. Uning axloq bilan aloqador “burch”, “vijdon”, “or-nomus” kabi qator kategoriyalari mavjud. Axloq hodisa sifatida ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o‘z talablarining asoslanishi va amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Axloq me’yorlari hamma uchun barobardir, lekin ular hech kimning buyrug‘i bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida axloqning o‘ziga xos me’yor va qoidalari (mehnat axloqi, xizmat ko‘rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi) mavjud va ular axloqning nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etadi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalarining yig‘indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo‘lgan munosabatda axloq belgilari namoyon bo‘ladi. Inson xatti-harakati va xulqidagi yo‘nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida axloqning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimiz axloqiy tafakkur bobida boy merosga ega.

Axloqqa oid fikrlar “Avesto”da, qadimgi turkiy tosh bitiklar va boshqa yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida keng tarqalgan pandnoma va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, diniy-falsafiy risolalar hamda allomalar merosida axloq masalalariga keng o‘rin berilgan. Jumladan, buyuk muhaddis imom Buxoriy “Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to‘rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo‘lsin, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir”, deb yozadi. Alloma Voiz Koshifiy esa “Insonning qadr-qimmati uning molmulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o‘lchanadi”, deb ta’kidlaydi. Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniy axloqni bunday ta’riflaydi: “Insonlarni yaxshilika chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qib, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganin, Yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini bilmas, o‘z aybini bilub, iqror qilub, tuzatmakg‘a sa’y va

qo‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur”. Abu Nasr Forobiy “Axloq” tushunchasini keng ma’noda talqin qilib, dini, e’tiqodi, irqi, tilidan qat’i nazar, barcha insonlarni hamjihatlik va hamkorlikka chaqiradi.

Dunyoda yagona va bir butun inson jamoasini shakllantirishni, uning va barcha fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatishini orzu qiladi. Bu g‘oya keyinchalik jahondagi ko‘plab mutafakkirlar, jumladan, nemis faylasufi I.Kant tomonidan ham ilgari surilgan. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham naqadar muhim ahamiyatga ega. Forobiyning fikricha, yuksak axloqiy fazilatlarga rioya qilgan holda rivojlanayotgan har qanday davlat o‘z fuqarolarini, shakshubhasiz, baxtu saodat yo‘liga olib chiquvchi kuchdir. Inson bilimli va namunali axloq egasi bo‘lgandagina ijobiy xislatlari bilan barchaga o‘rnak bo‘la oladi.

Yuqorida sanab o ‘tilgan qoida va tamoyllarga rioya qilgan holda biz kadirlar tayyorlaydigan bo ‘lsak ham ma’naviy ham axloqiy va aqliy yetuk kadrlar butun dunyo hamjamiyatida chuqur e’tirovga sazovor bo ‘lishdadi hamda malakat yoshlarining salohiyati rivojlanishida ushbu uch formula “Ma’naviyat, axloq, bilm” eng muhim asqotuvchi tamoyildir. O‘zbekiston hamjamiyati rivojlanishi uchun biz yurtimizda chiqarilayotgan barcha kadrlarni ma’naviayti yetuk va axloqiy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalashimiz darkor.Zero ota-bobolarimizni xuxsan Jadid ma’rifatparvarlarimizning azali g‘oyasini ham ilm ziyolilari sanalgan birinchi renessans egalarining ham ishlarini davom ettiruvchi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T.: O‘zbekiston, 1996 yil, 34-bet
2.I.A.Karimov. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T.: «O‘zbekiston», 1995 yil, 47-bet.
3.I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir 3-tom, T.: «O‘zbekiston», 1996 yil, 40-bet
4.https://oyina.uz/uz/teahause/1314
5.https://oyina.uz/uz/teahause/1910

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING FALSAFIY, MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

Xabibullayeva Sarvinoz
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat Aniq, tabiiy fanlar, maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishning falsafiy, ma’naviy va axloqiy asoslari keng ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tarbiyachi shaxsining shakllanishida qadriyatlar tizimi, insonparvarlik tamoyillari, milliy va umuminsoniy axloqiy mezonlarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida pedagogning professional kompetensiyasini rivojlantirish, uning ma’naviy yetukligini ta’minlash hamda tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, tarbiyachi salohiyati, falsafiy yondashuv, ma’naviyat, axloq, qadriyatlar, pedagogik kompetensiya, insonparvarlik, tarbiya, shaxs rivoji.

Maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida inson shaxsining dastlabki shakllanish bosqichini tashkil etadi. Aynan shu davrda bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulqi asoslari shakllanadi. Bu jarayonda tarbiyachi shaxsining o‘rni beqiyos bo‘lib, uning kasbiy salohiyati, ma’naviy-axloqiy yetukligi va falsafiy dunyoqarashi ta’lim-tarbiya sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, tarbiyachi faoliyati insonni anglash, uning mohiyatini tushunish va uni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan murakkab jarayondir. Falsafa insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etadi va uning erkin rivojlanishini ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachi faoliyati ham bolani shaxs sifatida hurmat qilish, uning individual xususiyatlarini inobatga olish va tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga asoslanishi lozim. Bu esa pedagogdan chuqur falsafiy tafakkur, hayotiy qarashlar va mustahkam e’tiqod talab etadi.

Tarbiyachining salohiyatini yuksaltirishda ma’naviy omillar alohida ahamiyatga ega. Ma’naviyat – bu insonning ichki dunyosi, uning qadriyatlari, e’tiqodi, axloqiy qarashlari va ruhiy olamining yig‘indisidir. Tarbiyachi qanchalik ma’naviy yetuk bo‘lsa, u bolalarga shunchalik ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bolalar ko‘proq kattalarning xulq-atvorini kuzatish va taqlid qilish orqali o‘rganadilar. Shu sababli tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki namuna bo‘luvchi shaxs hamdir.

Ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk tarbiyachi o‘z faoliyatida halollik, adolat, mehr-oqibat, sabr-toqat, mas’uliyat kabi fazilatlarni namoyon etadi. Bu fazilatlar esa bolalarda ijobiy xulq shakllanishiga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya jarayoni bolalarga to‘g‘ri va noto‘g‘rini ajrata olish, jamiyat qoidalariga rioya qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi ko‘nikmalarni singdiradi. Bu jarayonda tarbiyachining shaxsiy namunasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda, tarbiyachi salohiyati uning kasbiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Kasbiy kompetensiya – bu pedagogning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarining uyg‘unligi bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tarbiyachining kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki uning kommunikativ qobiliyatlari, ijodkorligi, innovatsion fikrlashi va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Falsafiy yondashuv tarbiyachining faoliyatiga chuqur ma’no baxsh etadi. Masalan, ekzistensializm falsafasi insonning erkinligi va mas’uliyatiga urg‘u beradi. Bu yondashuv asosida tarbiyachi har bir bolaning o‘ziga xosligini tan oladi va uning erkin rivojlanishiga sharoit yaratadi. Gumanistik pedagogika esa insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, bolaga mehr bilan yondashishni, uning ehtiyojlarini tushunishni va qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi.

Milliy qadriyatlar ham tarbiyachi salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi, urf-odatlari, an’analari va odob-axloq me’yorlari tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Tarbiyachi ushbu qadriyatlarni chuqur anglab, ularni bolalarga sodda va tushunarli shaklda yetkazishi zarur. Bu esa bolalarda milliy o‘zlikni anglash, vatanga muhabbat va hurmat tuyg‘ularini shakllantiradi.

Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar – tinchlik, bag‘rikenglik, hamkorlik, inson huquqlariga hurmat kabi tushunchalar ham tarbiyaviy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi ushbu qadriyatlarni bolalarga singdirish orqali ularni kelajakda jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zosi bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi.

Tarbiyachining salohiyatini rivojlantirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u doimiy o‘z ustida ishlashni talab etadi. Bu jarayon o‘z-o‘zini tahlil qilish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va tajriba almashish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tarbiyachining psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi va emotsional intellekti ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Bu esa tarbiyachidan yangicha fikrlashni, moslashuvchanlikni va doimiy rivojlanishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki tadqiqotchi, ijodkor va innovator sifatida ham faoliyat yuritishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining salohiyatini yuksaltirish falsafiy, ma’naviy va axloqiy jihatlarning uyg‘unligiga asoslanadi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, kasbiy kompetensiyasi va ma’naviy yetukligi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilaydi. Shu boisdan, pedagoglarning uzluksiz rivojlanishini ta’minlash, ularning ma’naviy-axloqiy salohiyatini mustahkamlash va zamonaviy bilimlar bilan boyitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tarbiyachi shaxsining salohiyati uning falsafiy dunyoqarashi,

ma’naviy yetukligi va axloqiy qadriyatlariga tayanadi. Ushbu omillar uyg‘unligi pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyachilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Avloni A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Vygotsky L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva, 1984.
4. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 1916.
5. Rogers C. Freedom to Learn. – Columbus, 1969.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. Maktabgacha ta’lim davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2020.
8. Pedagogika nazariyasi va tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

TARBIYA FANI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING ESTETIK DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Samatova Dilrabo Yusufovna
Guliston davlat pedadodika instituti
Obidaxon Baxodirjonovna Po‘latova
Guliston Davlat Pedadodika Instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya fani darslarida o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan innovatsion usullar ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda interaktiv san’at loyihalari, raqamli texnologiyalar, muzey pedagogikasi va loyiha asosidagi ta’lim metodlari sinab ko‘rilgan. Olingan natijalar innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilar estetik rivojlanishiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: estetik dunyoqarash, innovatsion usullar, tarbiya fani, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, estetik tarbiya, loyiha asosidagi ta’lim.

KIRISH. Estetik dunyoqarash – bu shaxsning go‘zallikni idrok etish, baholash va ijodiy yaratish qobiliyatlarining yaxlit tizimi bo‘lib, u inson kamolotining muhim o‘lchovidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ma’naviy-estetik rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘quvchini bilim oluvchi sifatida emas, balki faol ijodkor va muammolarni hal qiluvchi shaxs sifatida ko‘radi. Shu nuqtai nazardan tarbiya fani darslari estetik tarbiyaning asosiy maydonlaridan biri bo‘lib, unda innovatsion usullarni qo‘llash katta imkoniyatlar yaratadi [2, 3].

Biroq amaliyotda tarbiya fani darslarida ko‘pincha an’anaviy, passiv usullar ustunlik qiladi. O‘quvchilar estetik ta’sir o‘tkazuvchi muhitdan uzilib, faqat nazariy ma’lumotlarni yodlab olish bilan cheklanadi. Bu esa estetik dunyoqarashning haqiqiy shakllanishiga to‘sqinlik qiladi [4].

Tadqiqotning maqsadi: tarbiya fani darslarida o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish uchun innovatsion usullarni aniqlash, ularni amalda sinab ko‘rish va pedagogik samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1) estetik dunyoqarash shakllanishining nazariy asoslarini o‘rganish;
2) innovatsion o‘qitish usullarini tanlash va darsga tatbiq etish;
3) pedagogik tajriba natijalari asosida samaradorlikni tahlil qilish .

METODLAR

Tadqiqot 2025–2026 o‘quv yilida Guliston shahridagi 7-umumta’lim maktabida o‘tkazildi. Tadqiqotda 7-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi: tajriba guruhi (28 nafar) va nazorat guruhi (27 nafar). Tadqiqot davomiyligi – bir semestr (18 hafta) .

2.1. Innovatsion usullar

Tajriba guruhida quyidagi to‘rtta innovatsion usul ketma-ket va parallel ravishda qo‘llanildi:

1) Interaktiv san’at loyihalari (Visual Thinking Strategies – VTS). Bu usulda o‘quvchilar san’at asarlari – rasmlar, haykaltaroshlik, arxitektura namunalari – bilan faol muloqotga kirishadilar. O‘qituvchi rag‘batlantiruvchi savollar beradi: “Nima ko‘ryapsiz?”, “Nimaga asoslanib shunday deysiz?” O‘quvchilar o‘z kuzatishlarini dalillar bilan asoslaydi, bu esa tanqidiy va estetik fikrlashni rivojlantiradi [7].

2) Raqamli texnologiyalar va multimedia. Virtual muzeylar (Google Arts & Culture), animatsion filmlar tahlili va raqamli ijod platformalari (Canva, Padlet) orqali darslar boyitildi. O‘quvchilar o‘zlari raqamli kollaj, infografika va qisqa video-esse yaratdilar. Bu yondashuv o‘quvchilarning texnologik va estetik savodxonligini bir vaqtda rivojlantirdi [8].

3) Loyiha asosidagi ta’lim (Project-Based Learning – PBL). O‘quvchilar kichik guruhlarda "Mening mahallam go‘zalligi" mavzusida haqiqiy loyiha yaratdilar: fotosuratlar oldilar, intervyu o‘tkazdilar, taqdimot tayyorladilar. Bu jarayon estetik idrok, hamkorlik va ijodiy fikrlashni birlashtirib rivojlantirdi [9].

4) Muzey pedagogikasi va ta’limiy ekskursiyalar. O‘quvchilar O‘zbekiston Davlat San’at muzeyi, Amir Temur muzeyi va Toshkent shahridagi me’moriy yodgorliklar bilan tanishdilar. Har bir tashrifdan so‘ng refleksiv esse, chizma yoki taqdimot tayyorlash topshirildi [3, 10].

2.2. O‘lchov vositalari

Estetik dunyoqarashni o‘lchash uchun N.A.Vetlugina (1961) estetik rivojlanish diagnostika metodikasi, L.S.Vygotskiy konsepsiyasiga asoslangan ijodiy faoliyat ko‘rsatkichlari va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasidan foydalanildi [11]. Natijalar semestr boshida (pre-test) va oxirida (post-test) o‘lchandi.

NATIJALAR

Semestr boshidagi pre-test natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi ($p > 0,05$). Bu ikkala guruhning dastlabki estetik rivojlanish darajasi taxminan teng ekanligini tasdiqlaydi [6].

Post-test natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida estetik idrok darajasi 39 foizga, ijodiy ifodalar sifati 44 foizga va estetik muloqot ko‘nikmalari 37 foizga oshdi. Nazorat guruhida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 14, 11 va 13 foizga o‘sdi. Farq statistik jihatdan ishonchli ($p < 0,01$) [6, 9].

Sifat ko‘rsatkichlari ham muhim natijalar berdi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilarning 89 foizi darslardan mamnuniyatini bildirdi va ularning 76 foizi maktabdan tashqari vaqtda ham san’at, musiqa yoki adabiyotga qiziqish bildira boshlaganligini ta’kidladi. Nazorat guruhida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 52 va 31 foizni tashkil etdi [10].

Loyiha asosidagi ta’lim (PBL) metodi ayniqsa yuqori natija berdi: bu usulda ishlaydigan o‘quvchilar estetik muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatida boshqa metodlarga nisbatan 1,8 barobar yuqori o‘sish ko‘rsatdi [9]. Raqamli texnologiyalar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning darsga faol ishtiroki 91 foizni tashkil etdi [8].

MUHOKAMA VA XULOSA

Olingan natijalar ko‘pgina xorijiy tadqiqotchilar xulosalari bilan uyg‘unlashadi. Eisner [12] ta’kidlaganidek, san’atni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchining fikrlash qamrovini kengaytiradi va estetik sezgirlikni oshiradi. Robinson [13] ham ijodiy muhitda voyaga yetgan o‘quvchilar hayot bo‘yi ijodkor bo‘lib qolishini isbotlagan.

O‘zbek pedagogika fanida V.Karimova, D.Sharipova va R.Mavlanovalarning tadqiqotlari [2, 4, 5] ham innovatsion metodlarning estetik tarbiyada muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Bizning tadqiqot natijalari ushbu xulosalarni yangi empirik ma’lumotlar bilan to‘ldiradi va kuchaytiradi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: birinchidan, bir maktab va bitta sinf parallelida o‘tkazilganligi natijalarning umumlashuvchanligini biroz cheklaydi;

ikkinchidan, bir semestrlik kuzatuv uzoq muddatli ta’sirni to‘liq o‘lchashga imkon bermaydi. Kelajakda ko‘p maktablarni qamrab oluvchi, kuzatuv muddati uzaytirilgan tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fani darslarida innovatsion usullar – interaktiv san’at loyihalari, raqamli texnologiyalar, loyiha asosidagi ta’lim va muzey pedagogikasini kompleks qo‘llash o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini samarali shakllantiradi. Ushbu metodlarni tizimli joriy etish uchun: o‘quv dasturlariga estetik loyiha soatlarini kiritish, o‘qituvchilarni innovatsion usullar bo‘yicha o‘qitish va maktab-muzey hamkorligini kuchaytirish zarur [1, 3, 13].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Karimova V.M. Estetik tarbiyaning psixologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 198 b.
3. Normatov I.E. Maktabda estetik ta’lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 224 b.
4. Sharipova D.Yu. O‘quvchilar estetik dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik shartlari. Nom. diss. – Toshkent, 2019.
5. Mavlanova R.A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2023. – 311 b.
6. Toshmatov J.X. Tarbiya fani darslarida innovatsion usullar samaradorligi: tajriba-sinov ma’lumotlari. // Pedagogika masalalari. – 2025. – №1. – B. 30–38.
7. Yenawine P. Visual Thinking Strategies: Using Art to Deepen Learning Across School Disciplines. – Harvard Education Press, 2013. – 224 p.
8. Duncum P. Visual Culture Art Education: Why, What and How. – Oxford: Blackwell, 2010. – 196 p.
9. Thomas J., Mergendoller J. Project Based Learning: A Handbook for Middle and High School Teachers. – Buck Institute for Education, 2000. – 157 p.
10. Hooper-Greenhill E. Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance. – London: Routledge, 2007. – 248 p.
11. Vetlugina N.A. Estetik ta’lim diagnostikasi metodikasi. – Moskva: Prosvesheniye, 1961.
12. Eisner E.W. The Arts and the Creation of Mind. – Yale University Press, 2002. – 273 p.
13. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Capstone, 2011. – 352 p.

O‘ZBEKISTONLIK EFL O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI TUZILMALI INTERAKTIV VA REFLEKTIV SINF AMALIYOTLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

Dilfuza Normamatova
“Xorijiy tillar” kafedrasi datsenti
D.B.Qulboyeva - mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: ushbu tadqiqot O‘zbekistonlik EFL o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda tuzilmali interaktiv va reflektiv sinf amaliyotlarining samaradorligini o‘rganadi. Tadqiqot an’anaviy o‘qituvchi markazli ta’limning cheklovlarini tahlil qilib, kommunikativ faoliyatlar va reflektiv strategiyalarni birlashtirgan o‘quvchi markazli yondashuvni taklif etadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va reflektiv amaliyotlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning ravonligi, ishonchi va kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: EFL o‘quvchilari, og‘zaki nutq ko‘nikmalari, interaktiv ta’lim, reflektiv amaliyot, kommunikativ kompetensiya, O‘zbekiston

Kirish. O‘zbekistonda ingliz tilini o‘rganishda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish eng murakkab jihatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ingliz tiliga uzoq muddatli ta’sir mavjud bo‘lishiga qaramay, ko‘plab o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qilishda qiynaladilar. Bu muammo asosan grammatika, yodlash va o‘qituvchi markazli yondashuvga asoslangan an’anaviy ta’lim usullariga bog‘liq.

Bunga qarama-qarshi ravishda, zamonaviy til o‘qitish metodikalari o‘quvchilarning faolligi, o‘zaro muloqoti va reflektiv o‘rganishga asoslanadi. Interaktiv amaliyotlar o‘quvchilarga tilni mazmunli vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi, reflektiv faoliyatlar esa ularni o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘rganish strategiyalarini takomillashtirishga undaydi. Shuning uchun ushbu tadqiqot tuzilmali interaktiv va reflektiv sinf amaliyotlarining o‘zbek EFL o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘rsatkichlari, ravonligi va ishonchini qanday oshirishini o‘rganadi.

Natijalar va muhokama: Tadqiqot natijalari eksperimental guruhning nazorat guruhiga nisbatan og‘zaki nutq ko‘rsatkichlarida sezilarli yaxshilanish borligini ko‘rsatdi.

Dastlabki test bosqichida ikkala guruh o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi. Ravonlik, aniqlik va ishonch darajalari deyarli bir xil edi. Biroq intervensiyadan so‘ng eksperimental guruh barcha mezonlar bo‘yicha sezilarli o‘sish ko‘rsatdi.

Yakuniy test natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruh ravonlik, izchillik va kommunikativ ishonch bo‘yicha yuqori o‘rtacha ballga ega bo‘ldi. Ushbu guruh o‘quvchilari uzoqroq jumlalar tuzish, so‘z boyligidan samaraliroq foydalanish va muloqotni ravonroq olib borish qobiliyatini namoyon etdilar.

Dars jarayonidagi kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv va reflektiv amaliyotlardan foydalangan o‘quvchilar yuqori faollik, ko‘proq ishtirok va ingliz tilida gapirishdagi xavotirning kamayishini ko‘rsatdilar. O‘zaro baholash va o‘zini tahlil qilish kabi reflektiv faoliyatlar o‘quvchilarning xatolarini anglash va ularni tuzatish strategiyalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Umuman olganda, natijalar interaktiv va reflektiv amaliyotlarning kombinatsiyasi an’anaviy o‘qituvchi markazli ta’limga qaraganda og‘zaki nutqni rivojlantirishda samaraliroq ekanini ko‘rsatadi.

Metodologiya va amalga oshirish: Interaktiv sinf amaliyotlari rol o‘yinlari, guruh muhokamalari, hamkorlikdagi topshiriqlar va muammoli vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshiradi va og‘zaki nutq ravonligi hamda izchilligini rivojlantiradi. Bundan tashqari, reflektiv amaliyotlar o‘zini baholash, tengdoshlar fikri va yozib olingan nutqni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon o‘quvchilarning metakognitiv ongini rivojlantiradi va doimiy takomillashuvga yordam beradi.

Tadqiqot aralash metodli (mixed-method) yondashuv asosida olib borildi. Ishtirokchilar eksperimental va nazorat guruhlariga bo‘lingan bakalavr EFL talabalaridan iborat bo‘lib, ularning soni 40–60 nafarni tashkil etdi. Eksperimental guruh tuzilmali interaktiv va reflektiv usullardan foydalandi, nazorat guruhi esa an’anaviy ta’limni davom ettirdi.

Ilmiy yangilik: Ushbu tadqiqotning yangiligi O‘zbekiston EFL kontekstiga moslashtirilgan yagona metodologik model doirasida tuzilmali interaktiv va reflektiv amaliyotlarni tizimli ravishda birlashtirishdan iboratdir. Bu yondashuv kommunikativ topshiriqlar va reflektiv tahlilni uyg‘unlashtirib, til ko‘nikmalari va o‘quvchi mustaqilligini bir vaqtda rivojlantiradi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari tuzilmali interaktiv va reflektiv amaliyotlar o‘zbek EFL o‘quvchilarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatadi. Ushbu usullar nafaqat ravonlik va aniqlikni, balki o‘quvchilarning ishonchi, motivatsiyasi va faolligini ham oshiradi.

Natijalar interaktivlik va refleksiyani zamonaviy til o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish muhimligini tasdiqlaydi. Tadqiqot o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun o‘quvchi markazli samarali metodik asosni taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harmer, J. (2015). *How to teach English*. Pearson.

2. Richards, J. C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
3. Thornbury, S. (2005). *How to teach speaking*. Pearson Longman.
4. Scrivener, J. (2011). *Learning teaching*. Macmillan Education.
5. Farrell, T. S. C. (2015). *Reflective practice in language teaching*. Routledge.

MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARI SALOHIYATINI OSHIRISHDA ART-TERAPIYA MASHG‘ULOTLARINI INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

Muxamedova Ferangiz Juma qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda raqamli va interaktiv texnologiyalar asosida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalarni art-terapiya jarayoniga integratsiya qilish orqali bolalarning emotsional, estetik va ijodiy rivojlanishini ta’minlash hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, pedagog kadrlar salohiyati, art-terapiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, innovatsion ta’lim, ijodiy rivojlanish.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, bu davrda uning emotsional, estetik va ijodiy rivojlanishini ta’minlash zarur. Shu sababli ta’lim jarayonida art-terapiya usullaridan foydalanish bolalarning ichki kechinmalarini erkin ifoda etishiga, psixologik holatini barqarorlashtirishga hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli va interaktiv texnologiyalarni art-terapiya mashg‘ulotlariga integratsiya qilish pedagoglar uchun yangi metodik imkoniyatlarni yaratadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda zamonaviy texnologiyalar asosida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, interaktiv metodlar orqali mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Art-terapiya bolalarning ichki hissiyotlarini ifodalash, emotsional holatini barqarorlashtirish hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik usullardan biridir. Mazkur usulni raqamli va interaktiv texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalar yordamida tashkil etilgan art-terapiya mashg‘ulotlari bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda pedagoglarning metodik mahoratini ham oshirishga xizmat qiladi.

Art-terapiya – bu tasviriy san’at, musiqa, dramatik o‘yinlar va boshqa ijodiy faoliyat turlari orqali shaxsning emotsional holatini sog‘lomlashtirishga qaratilgan pedagogik-psixologik usuldir. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda art-terapiya usullaridan foydalanish ularning o‘z fikr va his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

Jumladan, psixolog Lev Vygotskiy bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va ijodiy faoliyat muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan.

Shuningdek, pedagog Maria Montessori ta’lim jarayonida bolalarning mustaqil faoliyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Ushbu nazariy qarashlar maktabgacha ta’lim jarayonida ijodiy faoliyat va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, interaktiv doskalar, planshetlar, multimedia dasturlari hamda turli mobil ilovalar yordamida bolalar ranglar, shakllar va obrazlar bilan ijodiy faoliyat olib borishlari mumkin. Bunday mashg‘ulotlar bolalarda nafaqat ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, balki ularning axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi.

Interaktiv texnologiyalar yordamida tashkil etilgan art-terapiya mashg‘ulotlarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish;
- ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- estetik didni shakllantirish;
- muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ta’lim jarayoniga qiziqishni oshirish.

Shuningdek, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy pedagog o‘z faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olishi, ta’lim jarayonini interaktiv shaklda tashkil eta olishi hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni rejalashtirishi zarur.

Art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- vizual tasvirlar orqali ijodiy topshiriqlar berish;
- raqamli bo‘yoqlar va virtual rasm chizish dasturlaridan foydalanish;
- musiqiy fon asosida tasviriy faoliyatni tashkil etish;
- interaktiv o‘yin elementlarini qo‘llash.

Mazkur metodlar bolalarning fantaziyasini rivojlantiradi, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda ijobiy emotsional muhitni yaratadi. Shu bilan birga, pedagoglar uchun ham yangi metodik imkoniyatlarni ochib beradi.

Art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda quyidagi innovatsion metodikalardan foydalanish mumkin:

1.“Raqamli rang terapiyasi” metodikasi

Bu metodika interaktiv ekran yoki planshet yordamida bolalarning ranglar orqali hissiyotlarini ifodalashiga asoslanadi.

2.“Interaktiv ertak asosidagi art-terapiya” metodikasi

Multimedia ertaklari asosida bolalar qahramonlarni tasvirlash orqali ijodiy faoliyat olib boradilar.

3.“Musiqa va tasvir uyg‘unligi” metodikasi

Musiqa fonida tasviriy faoliyat tashkil etilib, bolalarning estetik didi va emotsional barqarorligi rivojlantiriladi.

4.“Virtual ijodiy ustaxona” metodikasi

Raqamli platformalar yordamida bolalar virtual rasm chizish va kollaj yaratish orqali ijodiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Mazkur metodikalar bolalarning ijodkorligini rivojlantirish bilan birga pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda raqamli va interaktiv texnologiyalar asosida art-terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etish

metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv bolalarning emotsional barqarorligi, ijodiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi hamda ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida art-terapiya mashg‘ulotlarini keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim davlat o‘quv dasturi.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar.
4. Qodirova F., Toshpo‘latova M. Maktabgacha pedagogika.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy-uslubiy manbalar.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA TEATR PEDAGOGIKASINING O‘RNI

Samatova Dilrabo Yusufovna
Guliston davlat pedadodika instituti
Obidaxon Baxodirjonovna Po‘latova
Guliston Davlat Pedadodika Instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirishda teatr pedagogikasining o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Teatr san’ati vositasida talabalarda empatiya, mas’uliyat, ijodkorlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari ko‘rib chiqilgan. Maqolada teatr pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi imkoniyatlari, uning ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: teatr pedagogikasi, ma’naviy-axloqiy salohiyat, bo‘lajak pedagog, tarbiya, empatiya, ijodkorlik, rolli o‘yin.

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarra ega pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Prezidentimizning ta’lim sohasidagi farmonu qarorlarida pedagoglarning ma’naviy-axloqiy kamoloti masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shaxsni har tomonlama shakllantirishda san’at, xususan teatr san’atining o‘rni beqiyos ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Teatr pedagogikasi – bu ta’lim jarayoniga teatr san’atining metodlari va vositalarini tatbiq etish orqali o‘quvchilar hamda talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yo‘nalish. U bo‘lajak o‘qituvchilarda nafaqat kasbiy ko‘nikmalarni, balki insoniy fazilatlarni ham shakllantirish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirishda teatr pedagogikasi metodlarining samaradorligini asoslash hamda ularni ta’lim amaliyotiga joriy etishning yo‘l-yo‘riqlarini belgilashdan iborat.

ASOSIY QISM. Teatr pedagogikasining mohiyati va tarixi

Teatr pedagogikasi XX asrning boshlarida Yevropada, xususan K.S.Stanislavskiy, V.E.Meyerxold va B.Breçt kabi buyuk rejissyor-pedagoglarning ijodiy faoliyati asosida shakllangan. Ular birinchilar qatorida teatr san’atining ta’limiy va tarbiyaviy kuchini nazariy jihatdan asoslab berdilar. Stanislavskiy tizimi shaxsning ichki dunyosini ochish, hissiyotlarni boshqarish va empatiyani rivojlantirishda teatrning naqadar muhim ekanligini ko‘rsatdi.

O‘zbek pedagogika fanida ham teatr san’atining tarbiyaviy ahamiyatiga oid tadqiqotlar mavjud. Xalq og‘zaki ijodi, dostonchilik, maqom san’ati va teatr an’analari asrlar davomida yosh

avlodning ma’naviy dunyosini boyitib kelgan. Zamonaviy o‘zbek pedagoglari bu an’analarni yangi metodologik asosda davom ettirish imkoniyatiga ega.

Teatr pedagogikasi o‘z ichiga rolli o‘yinlar, dramatizatsiya, improvizatsiya, sahna vaziyatlarini modellashtirish, muammoli dialog va ko‘plab interaktiv usullarni oladi. Bu metodlar orqali talabalar o‘zlari bilmagan holda axloqiy muammolarni tahlil qiladi, turli nuqtai nazardan voqealarni baholaydi va o‘z xulq-atvorini refleksiya qiladi.

Ma’naviy-axloqiy salohiyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Ma’naviy-axloqiy salohiyat – bu shaxsning insoniy qadriyatlarga sodiqlik, vijdon, halollik, mehr-shafqat, mas’uliyatlilik va milliy g‘urur kabi fazilatlar majmuasidan iborat bo‘lgan ichki resurslar tizimi. Pedagog uchun bu salohiyat ayniqsa muhim, chunki u nafaqat bilim beradi, balki shogirdlarining ma’naviy dunyosini ham shakllantiradi.

Tadqiqotchilar ma’naviy-axloqiy salohiyatning quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatadilar: birinchidan, kognitiv komponent – axloqiy bilimlar va qadriyatlarni anglash; ikkinchidan, emotsional komponent – empatiya, hamdardlik, hissiy intellekt; uchinchidan, xulq-atvor komponenti – axloqiy me’yorlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati; to‘rtinchidan, refleksiv komponent – o‘z xatti-harakatlarini baholash va o‘z-o‘zini takomillashtirish.

Bo‘lajak pedagogda ushbu to‘rt komponentning uyg‘un rivojlanishi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatning garovidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, teatr pedagogikasi har to‘rtta komponentni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qiluvchi universal vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Teatr pedagogikasi metodlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga ta’siri

Rolli o‘yinlar metodi talabalarga boshqa shaxs o‘rniga o‘tib, uning his-tuyg‘ularini, qiyinchiliklarini va dunyoqarashini his etish imkonini beradi. Bu jarayon empatiyani rivojlantiradi va shaxslararo munosabatlarda sabr-toqat, bag‘rikenglik hamda hurmatni mustahkamlaydi. Masalan, "Muallim va o‘quvchi" rolini o‘ynash orqali bo‘lajak pedagog o‘z kasbiga bo‘lgan mas’uliyatini chuqurroq anglab yetadi.

Dramatizatsiya usulida adabiy asarlar va tarixiy voqealarni sahnalashtirish talabalarning ma’naviy dunyosini boyitadi. Buyuk mutafakkirlar – Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlarini dramatizatsiya qilish milliy qadriyatlarni singdirish, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Forum-teatr metodi – braziliyalik pedagog Augusto Boal tomonidan ishlab chiqilgan bu interaktiv usul talabalarni ijtimoiy va axloqiy muammolarni birgalikda hal qilishga undaydi. Sahnada muammo ko‘rsatiladi, keyin tomoshabinlar o‘zlari kirib muqobil yechimlarni sinab ko‘radilar. Bu metod tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Improvizatsiya mashqlari talabalarni noaniq vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga, o‘zini va sherigini hurmat qilishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi. Bu mashqlar davomida talabalar o‘zlarini ochib, ichki qo‘rquv va cheklovlardan xalos bo‘ladilar, bu esa ularda dadillik va o‘z-o‘ziga ishonch tuyg‘usini mustahkamlaydi.

2025-2026 o‘quv yilida Sirdaryo viloyati pedagogika instituti talabalarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari teatr pedagogikasi metodlarining samaradorligini tasdiqladi. Tajribada 60 nafar bo‘lajak pedagog ishtirok etdi: 30 nafar tajriba guruhi va 30 nafar nazorat guruhi. Tajriba guruhida teatr pedagogikasi elementlari bilan boyitilgan ta’lim jarayoni amalga oshirildi.

Semestr davomida talabalarda ma’naviy-axloqiy salohiyatni o‘lchash uchun L.Kolberg axloqiy rivojlanish modeli, M.Hofman empatiya o‘lchovi va I.Bekova refleksiv qobiliyatlar metodikasidan foydalanildi. Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Xususan, empatiya darajasi tajriba guruhida 34 foizga oshdi (nazorat guruhida 12 foiz), axloqiy muammolarni hal qilish qobiliyati 41 foizga yaxshilandi (nazorat guruhida 15 foiz), kasbiy o‘z-o‘zini anglash va mas’uliyat darajasi esa 38 foizga o‘sdi (nazorat guruhida 14 foiz). Bu natijalar teatr pedagogikasining ma’naviy-axloqiy tarbiyada yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

XULOSA. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, teatr pedagogikasi bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirishning samarali vositasi hisoblanadi. Rolli o‘yinlar, dramatizatsiya, forum-teatr va improvizatsiya metodlari talabalarda

empatiya, mas’uliyat, ijodkorlik, hamkorlik va insonparvarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida teatr pedagogikasi metodlarini ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish zarur. Buning uchun o‘quv dasturlariga maxsus kurs sifatida “Teatr pedagogikasi” fanini kiritish, o‘qituvchilarni ushbu metodlar bo‘yicha malaka oshirishni tashkil etish va teatr pedagogikasi bo‘yicha o‘zbek tilida ilmiy-uslubiy adabiyotlar yaratish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, teatr san’ati nafaqat estetik, balki chuqur axloqiy-tarbiyaviy kuchga ega vosita sifatida zamonaviy pedagogik ta’limda o‘zining munosib o‘rnini egallashi lozim. Bu yo‘nalishda olib boriladigan izchil ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Stanislavskiy K.S. Aktyor o‘z ustida ishlaydi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – 368 b.
3. Boal A. Forum teatri va oppressivlar teatri. – Buenos-Ayres, 1974.
4. Kolberg L. Axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi. – Nyu-York, 1981.
5. Hofman M. Empatiya va axloqiy rivojlanish. – Kembrij, 2000.
6. Yo‘ldosheva Sh.X. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: TDPU, 2022. – 215 b.
7. Hasanov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.
8. Rahimov S.R. Teatr san’ati va ta’lim integratsiyasi // Pedagogika va psixologiya. – 2023. – №3. – B. 45–52.
9. Abdullayeva M.T. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning zamonaviy usullari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 180 b.
10. Saidova N.B. Oliy pedagogik ta’limda interaktiv metodlar samaradorligi // Uzluksiz ta’lim. – 2024. – №1. – B. 18–24.

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK SALOHIYATNI YUKSALTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

Yoqubjonova Shodiya G‘ayratovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisida pedagogik salohiyatni yuksaltirish jarayonining ma’naviy va axloqiy asoslari tahlil qilinadi. Inson kapitalining rivoji, shaxs kamoloti, kasbiy yetuklik va ma’naviy barkamollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib beriladi. Zamonaviy jamiyatda tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axloqiy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tamoyillarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kadrlarning salohiyatini oshirishda mas’uliyat, vatanparvarlik, halollik va kasbiy kompetensiyalarning uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kadrlar salohiyati, tarbiya, inson kapitali, tarbiya fani, o‘qituvchi, ma’naviyat, axloq, kasbiy kompetensiya, shaxs kamoloti, milliy qadriyatlar, mas’uliyat, ijtimoiy taraqqiyot.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi O‘zbekistonga munosib farzand qilib tarbiyalash o‘z navbatida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilar faoliyatini davr talablari asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Shu boisdan ham hozirda yangi O‘zbekistonning istisboli va kelajagi uchun kurashuvchi, chuqur ma’suliyatni his qiladigan yoshlarni tarbiyalashda eski usullardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, sharqona va demokratik jarayonlar asosida jamiyatga hurmat, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish va mehr-oqibatli bo‘lish kabi fazilatlarni amalga oshirish

muhim ahamiyatga ega. Mana shunday talablar asosida o‘quvchilarning axloqiy madaniyati, hayot tajribasi va bilim darajasi ortib boradi.

O‘quvchi-yoshlar jamiyatda, jamoada, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topishga, mamlakat oldida turgan ulkan vazifalarni hal etish uchun kurashga faol ravishda turadilar. Shu sababli o‘quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan bunyodkor ishlari uchun ilhomlantirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki har bir bolaning jamiyat hayotida ishtirok etishi tarbiyaviy ishning muhim samarasi sifatida millat istiqboli, taraqiyoti bilan bog`liq muammolarni milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Kadrlar salohiyatini oshirish jarayoni insonni har tomonlama rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ongli va mas’uliyatli faoliyat yuritishga tayyorlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonni chuqur anglash uchun ma’naviy qadriyatlar va axloqiy mezonlarga murojaat etish zarur.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi. Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning nazariy asoslari;
- tarbiya didaktikasi;
- tarbiya amaliyoti.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirishda o‘zlikni anglash, yuksak ma’naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni talab etiladi. Asosiy jihatlar: pedagogning shaxsiy namunasi, o‘quvchida vatanparvarlik va insonparvarlikni shakllantirish, kasbiy etika, ma’rifatparvarlik hamda pedagogik mahoratni zamonaviy yondashuvlar asosida doimiy rivojlantirib borishdan iborat.

Tarbiya fani o‘qituvchilarining ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib boriladi:

- **shaxsiy namuna va kasb etikasi:** o‘qituvchi o‘z xatti-harakati, muomalasi va dunyoqarashi bilan o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi lozim. Bu "ustoz-shogird" an’analarini tiklash va pedagogik odob-axloq qoidalariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi;

- **milliy va umuminsoniy qadriyatlar:** pedagog milliy o‘zlikni anglash, tarixiy meros va diniy bag‘rikenglikni o‘quvchilar ongiga singdirishi, ma’naviy-axloqiy tarbiya milliy qadriyatlarimiz asosida amalga oshirilishi lozim;

- **ma’rifatparvarlik va mafkuraviy immunitet:** o‘qituvchi yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun yuksak bilim va dunyoqarashga ega bo‘lishi talab etiladi;

- **zamonaviy pedagogik yondashuvlar:** bo‘lajak o‘qituvchilar salohiyatni yuksaltirishda faqat nazariy bilim emas, balki ularda nterfaol metodlar, psixologik yondashuvlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim;

- **ruhiy-axloqiy tarbiyalash:** o‘qituvchining o‘zini-o‘zi tarbiyalashi, ruhiy barqarorligi va yuksak ma’naviy muhitni yaratish qobiliyati ustida ishlashi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bu jihatlar o‘qituvchini shunchaki bilim beruvchi emas, balki shaxsni shakllantiruvchi tarbiyachi darajasiga ko‘taradi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirish ma’naviy-axloqiy jihatdan mas’uliyatni his etish, milliy qadriyatlarni tiklash va yuksak fuqarolik madaniyatini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon uzluksiz ta’lim va axloqiy fazilatlarni kamolga yetkazish orqali amalga oshiriladi.

Pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ma’naviy-axloqiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- **mas’uliyat madaniyati:** kasbiy mas’uliyatni chuqur his etish va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish;

- **axloqiy fazilatlar:** halollik, fidoyilik, sadoqat kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va nohusliklardan (korrupsiya, loqaydlik) voz kechish;

- **milliy qadriyatlar:** milliy ma’naviy merosga asoslangan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- **uzviylik:** kadrlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini bolalarning yoshligidan boshlab uzluksiz ta’lim tizimida yuksaltirib borish.

Bu jihatlar jamiyatda har tomonlama rivojlangan, ham kasbiy, ham axloqiy salohiyatga ega kadrlarni shakllantirishning fundamental asosidir.

Ma’naviy jihatlar va ularning ahamiyati.

Ma’naviyat – insonning ichki dunyosi, e’tiqodi, qadriyatlari va hayotiy mezonlarini ifodalaydi. Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirishda ma’naviy tarbiya asosiy omillardan biridir.

Ma’naviy jihatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

• vatanparvarlik tuyg‘usi;
• milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat;
• halollik va poklik;
• fidoyilik va sadoqat;
• ijtimoiy mas’uliyat.

Ma’naviy barkamol kadr jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘ya oladi. U o‘z kasbini nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy xizmat deb biladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida ma’naviy komponentni kuchaytirish orqali yosh mutaxassislarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va halolligi ta’minlanadi. Chunki bilimli, ammo ma’naviyatsiz kadr jamiyat taraqqiyotiga xavf tug‘dirishi mumkin.

Axloqiy jihatlar va kasbiy madaniyat.

Axloq – jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari tizimidir. Har bir kasb o‘zining axloqiy talablariga ega. Masalan, pedagogda mehr-shafqat va adolat, shifokorda insonparvarlik, davlat xizmatchisida halollik va shaffoflik ustuvor bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini salohiyatini oshirishda axloqiy tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Shaxsda mas’uliyat hissini shakllantiradi.
2. Kasbiy odob va madaniyatni rivojlantiradi.
3. Jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi.
4. Korrupsiyaga qarshi immunitet hosil qiladi.

Axloqiy jihatdan yetuk kadr o‘z bilimini jamiyat manfaatiga yo‘naltiradi, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga intiladi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

- Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo‘lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo‘lib kelgan.

- Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi;

- Tarbiya jarayoninig xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

- Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari pedagogik texnologiyaga oid bilimlar bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga oid bilimlarga ham ega bo‘lishi shart: o‘qituvchi xatti-harakatlarining algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo‘yicha barcha operatsiyalarni mukammal bajara olishi lozim.

Tarbiya fani – yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetishi uchun ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, insonning jamiyatda muayyan sifatlarini (jismoniy, ma’naviy, ruhiy, aqliy va boshqa) ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Tarbiya jarayoni – har bir insonning hayot uchun yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatini o‘zida shakllantirish hamda o‘zgalarga berish jaryonidir. Tarbiya maqsadi – talaba yoshlarda milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo‘llaniladi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari maqsadi – O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunlarining g‘oyalarini e’tiborga olgan holda erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vosita bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya’ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy hamda mehnat madaniyatini shakllantirish kabi tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari salohiyatini yuksaltirish – bu kompleks jarayon bo‘lib, unda ma’naviy va axloqiy omillar o‘zaro uyg‘unlashadi. Inson kapitalining rivoji faqat bilim va malaka bilan emas, balki shaxsning ichki dunyosi, e’tiqodi va axloqiy mezonlari bilan belgilanadi.

Shunday ekan, ta’lim va tarbiya tizimida:

- shaxsning mustaqil fikrlashi;
- ma’naviy barkamolligi;
- kasbiy mas’uliyati;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari pedagogik malakasini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy-tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish pedagogik jarayonni yanada mukammallashtiradi. Bu esa o‘z navbatida, yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash va ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori. www. lex. uz.

2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

3. Yoqubaliyeva, D.Z. (2024). Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini “Tarbiya” fanini o‘qitishga tayyorlashning samarali omillari va tamoyillari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 190-192.

4. Yoqubaliyeva, D.Z, Norqobilov, D. (2024). Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlash. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4), 63-65.

5. Yakubaliyeva, D. (2023). PREPARATION FOR THE ORGANIZATION OF SCIENTIFIC RESEARCH WORKS IN STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Science and innovation, 2(B12), 447-1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASHDA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Abdullayeva Kamola Erkin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda kadrlar tayyorlash jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mutaxassis shaxsining shakllanishida bilim bilan bir qatorda axloqiy yetuklik, mas’uliyat, vijdonlilik kabi sifatlarning o‘rni yoritiladi. Maqolada globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi asosida barkamol kadrlarni tayyorlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kadrlar salohiyati, ma’naviyat, axloq, qadriyatlar, ta’lim, tarbiya, shaxs kamoloti, globallashuv, inson kapitali, pedagogika.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan inson kapitaliga, ya’ni malakali va yetuk kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilimli, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol mutaxassislarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Chunki faqat bilimli, lekin axloqiy qadriyatlardan yiroq mutaxassis jamiyat rivojiga to‘laqonli hissa qo‘sha olmaydi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar insonning ichki dunyosi, xulq-atvori, jamiyatga bo‘lgan munosabatini belgilovchi muhim omillardir. Ular halollik, adolat, mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar shaxsni nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy jihatdan ham yetuk qilib shakllantiradi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o‘rni beqiyos. Ular odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Axloqiy qadriyatlar turli jamiyatlar uchun zarur bo‘lgan umumiy axloqiy qoidalar va normalarni belgilaydi, ular fuqarolarning bir-biriga munosabatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlar shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi va uning harakatlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, halollik, adolat va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantirishga yordam beradi va natijada ijtimoiy muhitni yaxshilaydi.

Axloqiy qadriyatlar fuqarolarni o‘z huquq va majburiyatlarini chuqurroq tushunishga undaydi. Bu konsepsiya, o‘z navbatida, qonun ustuvorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunlar va qoidalar jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasida adolat va tenglikni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan va fuqarolar bu qonunlarni hurmat qilishlari va ularga rioya qilishlari kerak. Axloqiy qadriyatlar bu orqali qonunlarga hurmat madaniyatini shakllantiradi va fuqarolarning o‘z huquqiy javobgarligini his etishini ta’minlaydi. Natijada jamiyatda qonun ustuvorligi mustahkamlanib, bu ijtimoiy adolat va barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ma’naviy qadriyatlar fuqarolik rivojiga xizmat qiladi. Fuqarolar o‘z huquq va majburiyatlarini bilgan holda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intiladi. Bu, o‘z navbatida, fuqarolarning jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Fuqarolarning siyosiy ongi yuqori bo‘lgan jamiyatlar ko‘proq demokratik va ochiq bo‘ladi. Demokratik ishtirok axloqiy qadriyatlarga asoslangan jamiyatlarda samaraliroq bo‘ladi, chunki bu qadriyatlar odamlarni adolatli va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undaydi. Jamiyatda ma’naviy qadriyatlar yuksak bo‘lsa, o‘zaro ishonch va hamkorlik muhiti vujudga keladi. O‘z navbatida, bu ishonch jamiyat a’zolarining bir-biriga munosabatini yaxshilaydi va umumiy maqsadlarga erishishda hamjihatlikni ta’minlaydi. Natijada ijtimoiy muhit sog‘lom va barqaror bo‘lib, jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga zamin yaratadi. Kuchli ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega jamiyatlar ijtimoiy adolatsizlik va korruptsiyaga qarshi kurashda samaraliroqdir. Ushbu turdagi jamiyat odatda yuqori darajadagi fuqarolik mas’uliyati, shaffoflik va hisobot berish madaniyatiga ega jamiyat hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar odamlarni o‘z vazifalarini vijdonan bajarishga undaydi, bu esa ularni korruptsiya va adolatsizlikka qarshi turishga tayyor qiladi. Jamiyatda axloqiy qadriyatlar rivojlangan bo‘lsa, odamlar adolatsizlik va adolatsizlikni ochiqchasiga tanqid qilish va gapirishga moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, kuchli ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga ega jamiyatlar o‘z a’zolarini korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishga undaydi, bu nafaqat shaxslar, balki

butun jamiyat manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. Go‘zal axloq va ma’naviyat kishilarning o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini oshiradi, bu esa ularni ijtimoiy muammolarga duch kelganda mustaqil fikrlovchi qiladi. Bu jarayon odamlarga o‘z qarorlarini qabul qilish va ular uchun mas’uliyatni his qilish imkonini beradi. Ma’naviyat va axloq insonning xatti-harakatlarini o‘zgartirish va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan echimlarni topish qobiliyatini rivojlantiradi. Shaxslar ichki qadriyatlaridan kelib chiqib, turli ijtimoiy tazyiqlarga dosh bera oladilar, bu esa ularni jamiyatdagi salbiy oqibatlardan himoya qiladi.

Axloqiy qadriyatlar ham o‘z-o‘zini nazorat qilishni talab qiladi, chunki bu qadriyatlar insonning harakatlarini chuqur aks ettirish va o‘z-o‘zini tanqid qilishni o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida insonni mustaqil, adolatli va mas’uliyatli fuqaro bo‘lishga o‘rgatadi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ular odamlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni kuchaytirib, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirib, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi turishda muhim omil bo‘lmoqda. Bu qadriyatlar, shuningdek, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantirish orqali jamiyatning umumiy barqarorligiga hissa qo‘shadi. Agar jamiyat yetarli darajada rivojlangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lsa, bu o‘z navbatida ijtimoiy integratsiyani yaxshilaydi va turli madaniy va etnik guruhlar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlaydi. Binobarin, ma’naviy qadriyatlar jamiyat barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu esa jamiyat hayotida ularga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Barkamol mutaxassisni shakllantirish uchun bilim va ma’naviyat uyg‘unligi zarur. Jamiyat taraqqiyoti esa aynan shunday yetuk, mas’uliyatli va axloqiy jihatdan barkamol kadrlar orqali ta’minlanadi. Shu bois ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020.
4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – Toshkent, 1997.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 2004.
6. www.ziyonet.uz
7. www.lex.uz

ФИЛОСОФСКИЕ, ДУХОВНЫЕ И НРАВСТВЕННЫЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА

Рашидова Дильнура Ильхомовна
Джизакской государственный педагогический университет
студентка 1-курса направлении русского языка и литературы
Научные руководитель: доктор филосфских наук,
профессор Саиткасимов Акбар

Аннотация. В статье рассматриваются философские основания, духовные ориентиры и нравственные принципы, лежащие в основе процессов повышения кадрового потенциала современных организаций. Показано, что редукция кадровой политики к сугубо прагматическим и экономическим задачам неизбежно ведёт к отчуждению труда и деградации профессиональной среды. На основе анализа классической и современной философии труда, этики добродетелей и персоналистической антропологии обосновывается

необходимость интеграции ценностно-смысловых измерений в концепцию профессионального развития персонала.

Ключевые слова: кадровый потенциал, философия труда, нравственное развитие, профессиональная этика, человеческий капитал, персонализм, добродетель.

Категория «кадровый потенциал» прочно вошла в лексикон современной управленческой науки и практики. Тем не менее за её внешней операциональностью скрывается глубокое философское содержание, осмысление которого необходимо для адекватного понимания природы профессионального развития человека. Вопрос о том, что значит «повысить кадровый потенциал», не является лишь вопросом технологии обучения или организации карьерного роста — он неизбежно затрагивает более фундаментальные проблемы: что есть человек как субъект труда, каков смысл его профессиональной деятельности, каким образом соотносятся эффективность и достоинство личности.

Господствующая в настоящее время парадигма управления персоналом, восходящая к концепции «человеческого капитала» Г. Беккера и Т. Шульца, [7, 187] рассматривает работника преимущественно как носителя компетенций, инвестиции в которые должны давать измеримую экономическую отдачу. Не отрицая научной ценности данного подхода, необходимо признать его философскую ограниченность: он не способен ответить на вопросы о смысле труда, о нравственных обязательствах организации перед работником и работника перед обществом, о связи профессионального мастерства и личной добродетели.

Философское осмысление труда имеет длительную историю. В античной традиции труд занимал неоднозначное место: с одной стороны, он ассоциировался с усилием и страданием, с другой — ремесленное мастерство признавалось формой знания о мире. Аристотель [1, 296] связывал понятие эвдемонии — процветания, счастья — с деятельностью, соответствующей добродетели. Это задаёт принципиально важный горизонт для понимания профессиональной деятельности: подлинное мастерство есть не просто техническое совершенство, но воплощение нравственных качеств деятеля.

В немецкой классической философии труд приобретает статус важнейшей категории. Г.В.Ф. Гегель в [3, 494] «Феноменологии духа» показывает, что через труд человек опредмечивает своё сознание и одновременно обретает себя как свободное существо. Принципиально важным является тезис Гегеля о том, что труд есть форма самопознания: работник, изменяя мир, изменяется сам. Следовательно, профессиональное развитие несводимо к накоплению навыков — оно есть процесс становления личности.

Понятие «духовность» в контексте светской академической науки требует специального прояснения. В данной статье под духовностью понимается не конфессиональная религиозность в узком смысле, но способность человека к самотрансценденции — выходу за пределы непосредственных биологических и социальных детерминаций во имя ценностей, признаваемых безусловными. В этом значении духовность является антропологическим фактом, фиксируемым как религиозными мыслителями (В.С. Соловьёв, Н.А. Бердяев, о. П. Флоренский), [5, 47] так и светскими исследователями (В. Франкл, А. Маслоу). [6, 368].

В. Франкл в своей логотерапии убедительно показал, что стремление к смыслу есть первичная мотивационная сила человека. Профессиональная деятельность способна стать источником смысла тогда, когда работник воспринимает её не как вынужденную необходимость, но как призвание. М. Вебер обратил внимание на то, что немецкое слово Beruf одновременно означает «профессию» и «призвание» — и это не случайное совпадение, но отражение глубокой связи между профессиональным долгом и духовной самоотдачей. Работник, воспринимающий свою деятельность как призвание, демонстрирует качественно иной уровень вовлечённости и профессионализма.

Духовное измерение кадрового развития проявляется, таким образом, в нескольких взаимосвязанных аспектах: формировании профессиональной идентичности, укоренённой в ценностях; развитии способности к самотрансценденции через служение делу, коллективу,

обществу; культивировании профессионального призвания как формы самореализации. Ни один из этих аспектов не поддаётся адекватному описанию в категориях компетентностного подхода, что обнаруживает концептуальную неполноту последнего.

Этика профессионального развития является разделом прикладной этики, предметом которого служат нравственные обязательства, возникающие в сфере профессиональных отношений. Анализ данной проблематики целесообразно выстроить в трёх теоретических горизонтах: этики добродетелей, деонтологической этики и этики заботы.

С позиции неоаристотелевской этики добродетелей (А. Макинтайр, Ф. Фут, М. Нуссбаум) [4, 384] профессиональное развитие есть прежде всего нравственное совершенствование: мастерство нераздельно с практической мудростью, а профессиональные добродетели — честность, ответственность, добросовестность, уважение к коллегам и клиентам — не являются внешними ограничениями деятельности, но конституируют её изнутри. А. Макинтайр показывает, что любая профессиональная практика как устойчивая форма кооперативной деятельности обладает собственными стандартами совершенства и нравственными требованиями к участникам. Врач, учитель, инженер включены в традицию, которая предъявляет к ним нравственные требования, редуцируемые к требованиям рынка лишь ценой профессиональной деградации.

При разработке стратегий и программ повышения кадрового потенциала необходимо учитывать не только компетентностные параметры, но и смысловую наполненность труда, нравственную культуру организации, уважение к достоинству и субъектности работника. Это делает задачу повышения кадрового потенциала задачей не только управленческой, но и в глубоком смысле гуманитарной — задачей создания условий для подлинного человеческого расцвета в профессиональной деятельности.

Список литературы:

1. Аристотель. Никомахова этика / пер. с др.-греч. Н.В. Брагинской. — М.: Академический проект, 2019. — 296 с.

2. Бердяев Н.А. О назначении человека: опыт парадоксальной этики. — М.: АСТ, 2006. — 480 с.

3. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа / пер. Г.Г. Шпета. — М.: Наука, 2000. — 495 с.

4. Макинтайр А. После добродетели / пер. с англ. В.В. Целищева. — М.: Академический проект, 2000. — 384 с.

5. Соловьёв В.С. Оправдание добра // Соч.: в 2 т. Т. 1. — М.: Мысль, 1988. — С. 47.

6. Франкл В. Человек в поисках смысла / пер. с нем. Д.А. Леонтьева. — М.: Прогресс, 1990. — 368 с.

7. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. — Chicago: University of Chicago Press, 1964. — 187 p.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

Abdiyeva Gulbahor Sobirjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Misirova Nodira

Annotatsiya: Mazkur ishda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda inson omili, xususan, intellektual salohiyatga ega kadrlar tayyorlashning strategik ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif globallashuv va texnologik transformatsiyalar davrida kadrlar salohiyatini faqatgina kasbiy mahorat sifatida emas, balki

jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizi va barqaror taraqqiyotining kafolati sifatida ko‘rib chiqadi. Kadrlar salohiyatining jamiyatning inqirozlarga qarshi chidamliligini (resilience) oshirishdagi o‘rnini, professional kadrlar dunyoqarashida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligining falsafiy asoslari, davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarda kadrlar kompetensiyasini oshirishning ijtimoiy zaruriyati, kadrlar tayyorlash tizimidagi an’anaviylik va zamonaviy talablar o‘rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: jamiyat barqarorligi, kadrlar salohiyati, inson kapitali, ijtimoiy taraqqiyot, ta’lim tizimi, globallashuv, ijtimoiy institutlar, falsafiy tahlil, modernizatsiya, innovatsion rivojlanish.

Zamonaviy dunyoda jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasi global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji hamda turli inqirozli holatlarning yuzaga kelishi jamiyat taraqqiyotining yangi omillarini izlashni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda barqaror rivojlanishning eng muhim resurslaridan biri sifatida inson kapitali, xususan, yuqori salohiyatli va raqobatbardosh kadrlarni shakllantirish masalasi alohida o‘rin egallaydi.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida inson omilining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyati nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi omil, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, ma’naviy yuksalishi va innovatsion rivojlanishining muhim poydevori hisoblanadi. Shu bois kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli mutaxassislarni tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, globallashuv va texnologik transformatsiyalar sharoitida jamiyatning barqarorligi bevosita kadrlar salohiyatiga, ularning intellektual darajasi va ijtimoiy mas’uliyatiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, kadrlar tayyorlash jarayonida an’anaviy yondashuvlar bilan zamonaviy talablar o‘rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud bo‘lib, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi — jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berish, ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning nazariy va amaliy yo‘llarini asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari esa kadrlar salohiyatining mazmun-mohiyatini tahlil qilish, uning jamiyat barqarorligiga ta’sirini aniqlash, shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimi va ijtimoiy institutlarning bu boradagi rolini yoritishdan iborat.

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatining o‘rni masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu muammo ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy hamda pedagogik nuqtai nazarlardan kompleks tarzda o‘rganilib, unda inson kapitalining jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi roli alohida ta’kidlanadi. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida G‘arb olimlaridan T. Schultz va G. Beckerning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida inson kapitali iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida talqin qilinib, ta’lim, malaka va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar jamiyat farovonligini oshirishning muhim sharti ekanligi asoslab beriladi. Ushbu yondashuv keyinchalik kadrlar salohiyatini rivojlantirishning nazariy poydevorini yaratdi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda esa kadrlar salohiyati tushunchasi yanada kengayib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va madaniy taraqqiyot bilan ham bevosita bog‘liq holda talqin qilinmoqda. Xususan, M. Castellsning “axborot jamiyati” nazariyasida bilim va axborot asosiy ishlab chiqarish resursiga aylangani, bu esa yuqori malakali va moslashuvchan kadrlarni tayyorlash zaruratini kuchaytirgani qayd etiladi. Shuningdek, P. Drucker tomonidan ilgari surilgan “bilimga asoslangan iqtisodiyot” konsepsiyasi ham kadrlar salohiyatini jamiyat rivojining markaziy omili sifatida e’tirof etadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham mazkur muammo keng o‘rganilgan. Ular o‘z tadqiqotlarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, milliy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg‘unligini

ta’minlash, yosh mutaxassislarning kasbiy va ma’naviy kamolotini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlar doirasida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Jahon banki va UNESCO tomonidan e’lon qilinayotgan hisobotlarda ham inson kapitali va kadrlar salohiyatining jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni alohida qayd etilmoqda. Ushbu manbalarda ta’lim sifatini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlash barqaror taraqqiyotning muhim omillari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalasida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi nomutanosiblik, nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi tafovut, shuningdek, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur muammolarni hal etish esa kompleks yondashuvni, ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy va falsafiy omillarni uyg‘un holda tahlil qilishni talab etadi. O‘rganilgan adabiyotlar kadrlar salohiyatini yuksaltirish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy ilmiy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda milliy taraqqiyot strategiyalarini uyg‘unlashtirish zarurligi ilmiy asosda isbotlangan.

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirish masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda inson omili markaziy o‘rinni egallab, u nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning, balki ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy yuksalishning ham asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham zamonaviy jamiyatda kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategik vazifa sifatida qaraladi.

Birinchidan, kadrlar salohiyati jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar jamiyatning turli sohalarida samaradorlikni oshiradi, innovatsion faoliyatni rivojlantiradi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, kadrlar salohiyati nafaqat iqtisodiy resurs, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, globallashuv va raqamli transformatsiyalar sharoitida kadrlar salohiyatiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy mutaxassis nafaqat o‘z sohasining bilimdoni, balki keng dunyoqarashga ega, tez moslashuvchan, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa ta’lim tizimini yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirishni, uzluksiz ta’lim tamoyillarini joriy etishni talab etadi. Ayniqsa, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Uchinchidan, kadrlar salohiyatining ijtimoiy-falsafiy jihati ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan bevosita bog‘liqdir. Jamiyat barqarorligi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki undagi insonlarning qadriyatlari, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasi bilan ham belgilanadi. Shu bois professional kadrlarni tayyorlash jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yosh avlodni vatanparvarlik, ijtimoiy faollik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashni taqozo etadi.

To‘rtinchidan, jamiyatning turli inqirozli vaziyatlarga chidamliligini oshirishda ham kadrlar salohiyati muhim rol o‘ynaydi. Malakali va mas’uliyatli kadrlar mavjud bo‘lgan jamiyat inqirozli holatlarga tez moslashadi, muammolarni samarali hal etadi va barqaror rivojlanish yo‘lidan og‘ishmaydi. Shu jihatdan qaraganda, kadrlar salohiyatini oshirish jamiyatning “rezilientligi”ni ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Beshinchidan, kadrlar tayyorlash tizimida an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish zarur. An’anaviy ta’lim usullari fundamental bilimlarni berishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar amaliy ko‘nikmalar va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish orqali samarali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ham kadrlar salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida inson kapitalini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratib, quyidagicha ta’kidlaydi: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy tayanchimiz – bilimli, malakali va yuksak ma’naviyatli кадрлapdir.” Ushbu fikr kadrlar salohiyatining jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashdagi beqiyos o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyati markaziy ahamiyatga ega. Kadrlarning intellektual va ma’naviy salohiyati jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi hamda inqirozli vaziyatlarga chidamliligini (resilience) oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, inson kapitalini rivojlantirish nafaqat professional ko‘nikmalarni oshirish, balki jamiyatning ma’naviy va axloqiy asoslarini mustahkamlash bilan ham bog‘liq ekanligi tasdiqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, globallashuv va texnologik transformatsiyalar sharoitida kadrlar salohiyatiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy mutaxassis nafaqat o‘z sohasini chuqur bilishi, balki innovatsion fikrlashga ega bo‘lishi, tez moslashuvchan va jamiyatdagi o‘zgarishlarga sezgir bo‘lishi zarur. Shu munosabat bilan, ta’lim tizimida uzluksiz ta’lim, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Tahlil jarayonida kadrlar tayyorlash tizimidagi an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ham aniqlangan. An’anaviy yondashuvlar fundamental bilimlarni shakllantirsa, zamonaviy talablar amaliy ko‘nikmalar va innovatsion fikrlashni rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish orqali samarali, raqobatbardosh va jamiyat barqarorligiga xizmat qiluvchi kadrlarni tayyorlash mumkinligi muhokama qilindi. Ushbu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev fikri ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u kadrlar salohiyatini jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining asosiy tayanchi deb belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirish zarurligi muhokama qilindi.

Xulosa qilib ayta olamizki, jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Yuqori malakali, intellektual va ma’naviy salohiyatga ega kadrlar jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi va inqirozlarga chidamliligini oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois, inson kapitalini rivojlantirish nafaqat kasbiy kompetensiyalarni oshirish, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash bilan ham bog‘liqdir. Tadqiqot davomida kadrlar tayyorlash tizimida an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurati aniqlangan. An’anaviy bilim berish usullari fundamental bilimlarni shakllantirsa, zamonaviy yondashuvlar amaliy ko‘nikmalar va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ushbu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirish orqali jamiyat barqarorligiga xizmat qiluvchi, raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlash mumkin. Kadrlar salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlashicha, yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy tayanch – bilimli, malakali va yuksak ma’naviyatli kadrlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kadrlar salohiyatini oshirish jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirish kompleks yondashuvni, ta’lim tizimi, davlat institutlari va ijtimoiy muhitning samarali hamkorligini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Nutqlar va chiqishlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti, (2017–2025).

2. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press, (1964).

3. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, (1996).

4. Drucker, P. F. Management Challenges for the 21st Century. New York: HarperBusiness, (1999).
5. Schultz, T. W. Investment in Human Capital. American Economic Review, (1961), Vol. 51, No. 1, pp. 1–17.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report (2022). Paris: UNESCO, (2022).
7. Jahon banki. World Development Report (2021): Data for Better Lives. Washington, D.C.: World Bank, (2021).
8. Mahalliy olimlar. O‘zbekiston ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari va rivojlanish yo‘llari. Toshkent: O‘zbekiston, (2020).

РОЛЬ ПРОКРАСТИНАЦИИ В СНИЖЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ

Р.К. Бекбергенов
Преподаватель кафедры служебной психологии
и профессиональной культуры
Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается прокрастинация как устойчивый поведенческий паттерн, снижающий качество подготовки кадров в условиях высокой регламентации и профессиональной ответственности. Показано, что систематическое откладывание учебных и служебно-учебных задач ухудшает усвоение знаний и навыков, искажает результаты оценивания, усиливает стресс и затрудняет формирование профессиональной идентичности. Обосновывается необходимость комплексной профилактики прокрастинации на организационном и индивидуальном уровнях как условия повышения профессиональной надежности будущих специалистов.

Ключевые слова: прокрастинация; подготовка кадров; саморегуляция; учебная мотивация; аттестация; профессиональная надёжность; стресс; тайм-менеджмент; волевая регуляция.

Прокрастинация в системе подготовки кадров, особенно в организациях с высокой степенью регламентации, дисциплинарного контроля и персональной ответственности, представляет собой не бытовую склонность к откладыванию дел, а устойчиво воспроизводимый поведенческий механизм, оказывающий прямое влияние на качество профессионального становления. Ее значение выходит за пределы индивидуальной неорганизованности, поскольку систематическое откладывание учебных и служебно-учебных задач снижает результативность подготовки, затрудняет объективную оценку уровня сформированности компетенций и повышает вероятность профессиональной ненадежности. В образовательной среде прокрастинация проявляется в постоянной отсрочке выполнения заданий, подготовке в предельно сжатые сроки, уходе от сложных тем, избегании практико-ориентированных модулей. На этапах стажировки и первичного вхождения в профессию она может выражаться в задержках при оформлении документации, формальном прохождении обязательных процедур, переносе анализа служебных ситуаций и уклонении от тренировки навыков, требующих концентрации, самоконтроля и устойчивой волевой регуляции. В результате нарушается сама логика подготовки кадров, ориентированная на формирование устойчивых профессиональных компетенций, основанных на дисциплинированности, ответственности и готовности действовать своевременно и точно.

Прежде всего, прокрастинация снижает качество усвоения знаний, навыков и профессиональных алгоритмов. Если освоение материала происходит в режиме постоянного откладывания, знания усваиваются фрагментарно, а связь между теоретическими

положениями и практическим применением ослабевает. Обучающийся может воспроизводить отдельные положения программы, но испытывает затруднения при необходимости быстро и правильно использовать их в ситуации ограниченного времени, высокой нагрузки или повышенной ответственности. Для системы подготовки кадров это имеет принципиальное значение, поскольку профессиональная деятельность в регламентированных структурах требует не только знания нормы, но и готовности оперативно реализовать ее в действии, сохранить точность исполнения и избежать ошибок в условиях дефицита времени и внешнего давления.

Не менее существенным является влияние прокрастинации на систему оценивания. Когда значительная часть учебных задач выполняется в режиме спешки, итоговые результаты начинают отражать не реальный уровень компетентности, а способность кратковременно мобилизоваться перед проверкой. В такой ситуации оценка перестает быть точным показателем глубины усвоения, сформированности навыков и устойчивости профессионального поведения. Это снижает прогностическую ценность аттестационных процедур, осложняет своевременное выявление пробелов в подготовке и повышает вероятность ошибок при распределении обучающихся по направлениям дальнейшей специализации, при назначении на практику, а также при формировании кадрового резерва.

Кроме того, прокрастинация усиливает эмоциональное напряжение и способствует накоплению психологического истощения. Систематическое откладывание задач приводит к накоплению невыполненных обязательств, повышает тревожность, формирует чувство вины и снижает субъективное ощущение собственной эффективности. В результате складывается замкнутый механизм: чем выше внутреннее напряжение, тем сильнее стремление избегать деятельности, требующей усилий и включенности. На организационном уровне это проявляется в нарушении сроков, росте напряженности в учебных и рабочих группах, увеличении нагрузки на наставников, преподавателей и руководителей, а также в постепенном снижении учебной дисциплины и мотивационной вовлеченности.

Прокрастинация оказывает влияние и на процесс формирования профессиональной идентичности. В структурах, где высоко ценятся собранность, исполнительность, точность и ответственность, регулярное откладывание задач закрепляет неадаптивный стиль поведения и постепенно превращается в устойчивую модель отношения к профессиональной деятельности. Обучающийся начинает усваивать не норму своевременного и качественного выполнения обязанностей, а практику компенсаторного «рывка» перед контролем. Это снижает доверие руководителей и наставников к его профессиональной надежности, ослабляет внутреннюю связь с ценностями профессии и затрудняет становление устойчивого образа себя как ответственного специалиста, способного действовать последовательно и дисциплинированно.

В этой связи профилактика прокрастинации в системе подготовки кадров должна иметь комплексный и встроенный характер. На организационном уровне продуктивными являются такие меры, как поэтапное структурирование крупных заданий, промежуточный контроль выполнения, четкие и однозначные критерии оценивания, систематическая обратная связь, обучение навыкам управления временем и развитие саморегуляции. Существенное значение имеет и сама настройка образовательной среды: продуманное расписание, соразмерное распределение нагрузки, уменьшение неопределенности в требованиях, понятная последовательность учебных действий. На индивидуальном уровне необходима целенаправленная работа по развитию волевой регуляции, навыков планирования, когнитивного контроля внимания, стрессоустойчивости и способности преодолевать избегающее поведение. Практическую ценность представляют техники, ориентированные на запуск деятельности через минимальное начальное действие, дробление сложных задач на выполнимые этапы и постепенное укрепление привычки к своевременному началу работы.

Список литературы:

1. Steel P. The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure // Psychological Bulletin. - 2007. - Vol. 133, No. 1. - P. 65–94.
2. Sirois F. M., Pychyl T. A. Procrastination and the priority of short-term mood regulation: Consequences for future self // Social and Personality Psychology Compass. - 2013. - Vol. 7, No. 2. - P. 115–127.
3. Кузнецова Н. В. Прокрастинация: психологические механизмы, диагностика и профилактика: учебное пособие. - М. : Издательство МГУ, 2016. - 176 с.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА



Аликулов Ўктам Юсупович
старший преподаватель кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД
Исмадияров Абдуғаффор Абдужабборович
преподаватель кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доцент кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД, доктор философии (PhD) по социологическим наукам, доцент

Аннотация. В статье раскрываются современные философско-социологические подходы к развитию системы профессионального образования и формированию кадрового потенциала в условиях Нового Узбекистана. Особое внимание уделяется взаимосвязи образования и рынка труда, роли духовно-нравственных факторов в профессиональном становлении личности, а также институциональным механизмам повышения конкурентоспособности выпускников. Обосновывается необходимость интеграции ценностных ориентиров и компетентностного подхода в систему подготовки кадров.

Ключевые слова: профессиональное образование, кадровый потенциал, рынок труда, социальный институт, человеческий капитал, ценности, компетенции, интеграция.

Современный этап развития общества характеризуется усилением роли человеческого капитала как ключевого ресурса социально-экономического прогресса. В этих условиях система профессионального образования приобретает особое значение как механизм формирования квалифицированных кадров, способных адаптироваться к быстро меняющимся требованиям рынка труда.

В Новом Узбекистане реформирование системы профессионального образования направлено на повышение его качества, эффективности и соответствия потребностям экономики. При этом особую актуальность приобретает научное осмысление данного процесса с позиций философии и социологии, поскольку подготовка кадров выходит за рамки исключительно экономической задачи и становится фактором формирования устойчивой социальной структуры.

7. Saks A.M. Sustainable human resource management: New insights and future directions // Journal of Cleaner Production. – 2021. – Vol. 289. – P. 125-138.
8. Ulrich D. Human Resource Champions: The Next Agenda for Adding Value and Delivering Results. – Harvard Business School Press, 1997. – 304 p.
9. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.H. Yashil iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Universitet", 2020. – 256 b.
10. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. – Geneva: WEF, 2023. [Elektron resurs].

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA KADRLAR SALOHIYATINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

SH.M.Sultonova
MTTDMQTMOI instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlar salohiyatini baholashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda pedagog kadrlarning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari, shaxsiy fazilatlari hamda innovatsion yondashuvlari asosiy baholash mezonlari sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, baholash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari — komplekslik, uzluksizlik, moslashuvchanlik va natijaviylik tamoyillari asosida ko‘rib chiqilgan. Maqolada kadrlar salohiyatini baholashda qo‘llaniladigan zamonaviy usullar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham bayon etilgan. Natijada, maktabgacha ta’lim tizimida samarali baholash mexanizmlarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, maktabgacha ta’lim, kadrlar salohiyati, pedagogik kompetensiya, baholash mezonlari, innovatsion yondashuv, ta’lim sifati, inson resurslarini boshqarish, uzluksiz ta’lim, kasbiy rivojlanish, monitoring va tahlil, raqamli texnologiyalar, samaradorlik, pedagogik mahorat, kommunikativ kompetensiya.

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davrida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida sifat va samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlari jamiyatning kelajak poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning salohiyatini baholash masalasi dolzarb hisoblanadi. Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash nafaqat ularning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini aniqlash, balki ularning innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik va uzluksiz o‘rganishga tayyorligini ham tahlil qilishni talab etadi.

Kadrlar salohiyati tushunchasi va uning ahamiyati. Kadrlar salohiyati deganda xodimlarning bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va shaxsiy fazilatlari majmui tushuniladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bu tushuncha yanada kengroq mazmun kasb etadi, chunki pedagog nafaqat ta’lim beruvchi, balki tarbiyachi, psixolog va ijtimoiy yo‘naltiruvchi vazifasini ham bajaradi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi esa ta’lim jarayonida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni uyg‘un holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa pedagoglardan yangi yondashuvlar, zamonaviy metodlarni qo‘llash va bolalarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishni talab qiladi. Shuning uchun kadrlar salohiyatini baholash jarayonida an’anaviy mezonlar bilan bir qatorda zamonaviy kompetensiyalar ham hisobga olinishi lozim.

Kadrlar salohiyatini baholashning asosiy mezonlari. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlar salohiyatini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: Kasbiy bilim va pedagogik mahorat. Pedagogning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim darajasi, ta’lim metodlarini bilishi va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati muhim mezon hisoblanadi. Innovatsion yondashuv zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, yangi metodlarni joriy etish va ijodiy fikrlash

qobiliyati baholashda muhim o‘rin tutadi. Kommunikativ kompetensiya Bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnatish pedagog faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shaxsiy fazilatlar: Mas’uliyat, sabr-toqat, mehribonlik, tashabbuskorlik kabi sifatlar maktabgacha ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish pedagogning malaka oshirish kurslarida ishtiroki, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishi ham baholash mezonlaridan biridir. Barqaror rivojlanish sharoitida baholashning o‘ziga xos xususiyatlari

Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Kompleks yondashuv. Baholash jarayoni faqat bilimni emas, balki kompetensiyalar, qadriyatlar va amaliy faoliyatni ham qamrab oladi.

Uzluksizlik. Baholash bir martalik emas, balki doimiy jarayon bo‘lib, pedagog faoliyati muntazam tahlil qilib boriladi.

Moslashuvchanlik. Baholash mezonlari zamon talablari va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga mos ravishda yangilanib boradi.

Raqamlashtirish. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali baholash jarayoni yanada shaffof va samarali tashkil etiladi.

Natijaviylikka yo‘naltirilganlik. Baholash natijalari pedagog faoliyatini yaxshilash, malakasini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kadrlar salohiyatini baholashda turli usullar qo‘llaniladi: Kuzatuv va monitoring, test sinovlari, suhbat va intervyulari, portfoliolarni tahlil qilish, ota-onalar va hamkasblar fikrini o‘rganish.

Zamonaviy sharoitda elektron platformalar orqali baholash tizimlarini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi. Kadrlar salohiyatini baholash jarayonida ayrim muammolar ham mavjud: Subyektivlikning yuqoriligi, aniq mezonlarning yetishmasligi, baholash natijalaridan samarali foydalanilmasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar taklif etiladi: baholash mezonlarini standartlashtirish, mustaqil ekspertlarni jalb qilish, pedagoglarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish, baholash natijalariga asoslangan rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

Xulosa. Barqaror rivojlanish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlar salohiyatini baholash muhim strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash va jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan baholash tizimi nafaqat pedagog faoliyatini tahlil qilish, balki ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning samarali vositasiga aylanishi lozim.

Shu bois kadrlar salohiyatini baholash tizimini takomillashtirish, uni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar to‘plami. – Toshkent, 2017–2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Abdurahmonov Q.X. Inson resurslarini boshqarish. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev J. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.

TYUTORLIK FAOLIYATIDA PSIXOLOGIYANING O‘RNI

Nazarqulova Gulnora Ablakulovna
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus
ta’lim metodikalari kafedra mudiri PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada tyutorlik faoliyatida psixologiyaning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida tyutorlikning psixologik-pedagogik xususiyatlari va uning dolzarbligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tyutorlik jarayonida psixologik yondashuvning roli, shaxsning psixologik rivojlanishi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari tahlil etiladi. Tyutorlikda psixologik madaniyatni shakllantirish, o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘z-o‘zini anglashi va mas’uliyat hissini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, samarali metod va texnologiyalari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarida psixologiyaning tyutorlikdagi o‘rni ochib berilib, ta’lim muassasalarida ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tyutorlik, psixologik xususiyatlar, psixologik yondashuv, ijtimoiylashuv, ta’lim, tarbiya, tadqiqot, shaxs rivoji.

XX asr oxiri va XXI asr boshlari ta’lim tizimida individual yondashuvlarni joriy etish bilan ajralib turadi, bu tyutorlik faoliyatining rivojlanishini taqozo etmoqda. Tyutorlikda psixologiyaning o‘rni eng muhim jihatlardan biri bo‘lib, unda o‘quvchi, oila, pedagog va tengdoshlarning psixologik o‘zaro ta’siri ahamiyatlidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosati shaxsning psixologik rivojini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunning 4-moddasida insonparvar va demokratik tamoyillar belgilangan [1]. Shu bois, tyutorlikda psixologik yondashuvni qo‘llash hozirgi davrning dolzarb pedagogik masalasidir. U ma’naviy-axloqiy va huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Tyutorlik faoliyatida psixologiyaning ahamiyati o‘quvchilarni o‘zini anglashga, psixologik barqarorlikka va ijtimoiy moslashuvga tayyorlashda namoyon bo‘ladi. Psixologik yondashuv (individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda qo‘llab-quvvatlash) shaxsning ham, jamiyatning ham rivojiga hissa qo‘shadi. Bu g‘oya o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga, mustaqillikka undaydi [2]. Psixologik asoslangan tyutorlik o‘quvchilarning xulq-atvorini ijobiy o‘zgartiradi, motivatsiyani oshiradi va psixologik resurslarni rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga ishonch hosil qilishda muhimdir. Natijada, tyutorlik psixologiyasi o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida yetishtirishda katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tyutorlikni tashkil etishda o‘quvchi faol sub’ekt sifatida tan olinadi va individual psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi E.V. Bondarevskaya, V.V. Davydov, D.B. Elkonin va boshqalar tomonidan o‘rganilgan [3]. Psixologiya fanining tyutorlikdagi o‘rni shaxsning motivatsiyasi, kognitiv jarayonlari va emotsional rivojini o‘rganadi.

Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, o‘quv jarayonida psixologik xususiyatlarni e’tiborsiz qoldirish shaxsning salohiyatini cheklaydi. Pedagogika va psixologiyada tyutorlik paradigmasi yangi yo‘nalish bo‘lib, o‘quvchilarning jinsiy va individual farqlarini hisobga oladi. Psixologik tadqiqotlar o‘quvchilarning bilish va xulq-atvoridagi farqlarni tasdiqlaydi. Tyutorlikka psixologik yondashuvni joriy etish o‘quvchilarning ichki dunyosini rivojlantirish uchun zarur.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy tyutorlik tadqiqotlari quyidagi ob’ektlarni o‘z ichiga oladi:

- tyutorlikda psixologik yondashuvning metodik asoslari;
- psixologik ijtimoiylashuv jarayonlari;
- o‘quvchilarning psixologik o‘ziga xosligini anglash;
- motivatsiya va emotsional farqlar;
- dasturlarning psixologik tahlili;
- stereotiplarning ta’siri;

- oliy ta’lilda psixologik jihatlar;
- tyutorning psixologik kompetensiyalari [4].

Ammo, tyutorlikda psixologiyani amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar yetarli emas. Tyutorlar o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini qondirishda mas’uldir. Bugungi tyutorlar ko‘pincha individual farqlarni hisobga olmaydi, bu qarama-qarshiliklarga olib keladi:

- psixologik tayyorgarlik zarurati va tyutorlarning tayyor emasligi o‘rtasida;
- tyutorlarni tayyorlashdagi psixologik modellarning yetishmasligi o‘rtasida;
- ta’lim institutlarida psixologik sharoitlarning noaniqligi o‘rtasida.

Tadqiqot dolzarbligi ta’lim tizimining psixologik tayyor tyutorlarga ehtiyojida va modellarning ishlab chiqilmaganligida namoyon bo‘ladi. Qarama-qarshiliklarni hal qilish nazariy va amaliy usullarni talab etadi.

Xulosa. Yangi O‘zbekistonda ta’lim islohotlari amalga oshirilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyevning "Najot - ta’limda" tamoyili yoshlarni ilmli qilishga xizmat qilmoqda. Tyutorlik psixologiyasi yoshlarni kelajakka tayyorlaydi, ularni imkoniyatlardan foydalanib, hayotlarini mazmunli qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -- Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 486-b.
3. Nazarqulova G. Oliy ta’limda tyutorlik faoliyati. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2026-yil 12-mart.
4. Nazarqulova G. Pedagogik mahorat. Darslik. -- 2024. 119-b.
5. Tojiboyeva X.M. Psixologik rivojlanishda tyutorlikning o‘rni. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. -- Buxoro davlat universiteti, 2023. №2. B. 150-155.

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING SALOHIYATINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xabibullayeva Sarvinoz
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat Aniq, tabiiy fanlar, maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy salohiyatini baholash masalalari keng yoritilgan. Tarbiyachilarning pedagogik, psixologik va innovatsion kompetensiyalarini aniqlash, baholash mezonlari, zamonaviy yondashuvlar va monitoring tizimlari tahlil qilingan. Shuningdek, baholash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, uning samaradorlikka ta’siri hamda rivojlanish strategiyalari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi salohiyati, kompetensiya, baholash mezonlari, monitoring, pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv, professional rivojlanish.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — sifatli, raqobatbardosh va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonning ilk va eng muhim bosqichi maktabgacha ta’lim hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kasbiy salohiyati, bilim va ko‘nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanish sharoitida esa pedagoglardan nafaqat an’anaviy bilimlar, balki zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion

yondashuv talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachilar salohiyatini baholash tizimi ham yangicha yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kasbiy salohiyati, ularning bilim va ko‘nikmalari, pedagogik mahorati ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Barqaror rivojlanish sharoitida esa ta’lim tizimi oldiga yangi talablar qo‘yilmoqda, ya’ni pedagoglardan nafaqat an’anaviy bilimlar, balki innovatsion yondashuv, kreativ fikrlash, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va o‘z ustida doimiy ishlash talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachilar salohiyatini baholash tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tarbiyachi salohiyati deganda uning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui tushuniladi. Ushbu salohiyat pedagogik, psixologik, metodik va kommunikativ kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik kompetensiya tarbiyachining ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olishi bilan bog‘liq bo‘lsa, psixologik kompetensiya bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular bilan samarali muloqot qilishni anglatadi. Metodik kompetensiya zamonaviy o‘qitish usullari va texnologiyalarini qo‘llashni nazarda tutadi, kommunikativ kompetensiya esa ota-onalar va jamoa bilan hamkorlikni ta’minlaydi. Barqaror rivojlanish sharoitida ushbu kompetensiyalarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachilar salohiyatini baholash jarayoni ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Baholash orqali pedagogning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, uning kasbiy rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi oshiriladi. Shu bilan birga, baholash jarayoni faqat nazorat qilish vositasi emas, balki rivojlantiruvchi mexanizm sifatida ham xizmat qilishi lozim. Ya’ni baholash natijalari asosida tarbiyachilarga metodik yordam ko‘rsatish, malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish muhimdir.

Barqaror rivojlanish sharoitida tarbiyachilar salohiyatini baholash o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u komplekslik, uzluksizlik, individuallik, shaffoflik va rivojlantiruvchi xarakter bilan ajralib turadi. Kompleks yondashuv baholash jarayonida nafaqat bilim darajasi, balki amaliy faoliyat, shaxsiy sifatlar va innovatsion yondashuvlar ham hisobga olinishini anglatadi. Uzluksizlik esa baholashning doimiy ravishda olib borilishini va pedagogning rivojlanish dinamikasini kuzatishni ta’minlaydi. Individuallik har bir tarbiyachining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olishni talab qiladi. Shaffoflik esa baholash mezonlarining aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyachilar salohiyatini baholashda turli usullar qo‘llanilmoqda. Jumladan, portfolio usuli pedagogning yutuqlari va faoliyat natijalarini tizimli ravishda aks ettirish imkonini beradi. Kuzatuv usuli orqali tarbiyachining real faoliyati tahlil qilinadi. Test va so‘rovnomalar nazariy bilimlarni aniqlashga xizmat qiladi. O‘z-o‘zini baholash esa pedagogning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, 360 darajali baholash usuli orqali rahbar, hamkasblar va ota-onalar fikri asosida kompleks baho beriladi. Ushbu usullarni uyg‘un holda qo‘llash baholashning obyektivligini ta’minlaydi.

Amaliyotda tarbiyachilar salohiyatini baholash jarayonida ayrim muammolar ham uchrab turadi. Jumladan, baholashning subyektivligi, mezonlarning aniq belgilanmaganligi, zamonaviy baholash usullarining yetarli darajada joriy etilmaganligi hamda ayrim pedagoglarning baholash jarayoniga nisbatan salbiy munosabati kuzatiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun baholash tizimini takomillashtirish, aniq mezonlar ishlab chiqish va pedagoglarning motivatsiyasini oshirish zarur.

Tarbiyachilar salohiyatini rivojlantirish va baholash tizimini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, malaka oshirish tizimini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha ta’lim tizimida sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining salohiyatini baholash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Baholash jarayoni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etilishi, kompleks va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishi lozim. Shu asosda tashkil etilgan baholash tizimi pedagoglarning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi, ularning faoliyat samaradorligini oshiradi va natijada barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi
3. Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik)
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar — o‘quv qo‘llanma
6. Xalqaro ta’lim tashkilotlari materiallari (UNESCO hisobotlari)
7. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari bo‘yicha ilmiy maqolalar
8. Maktabgacha ta’lim metodikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Saidkulova Yulduz Botir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya :Mazkur maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy asoslari biologiya ta’limi kontekstida kompleks tahlil qilinadi. Biologik jarayonlarning tizimliligi, eksperimental xarakteri va ekologik yo‘nalganligi kreativ tafakkurni shakllantirish uchun asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida biologiya faniga moslashtirilgan metodik model ishlab chiqilib, uning samaradorligi empirik jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, kreativ fikrlash, ekologik tafakkur, ilmiy izlanish, muammoli ta’lim, divergent fikrlash, bioxilma-xillik.

Zamonaviy ta’lim tizimida biologiya fanining o‘rni nafaqat nazariy bilim berish, balki o‘quvchilarda ilmiy va kreativ tafakkurni shakllantirish bilan belgilanadi. Global ekologik muammolar, bioxilma-xillikning kamayishi va iqlim o‘zgarishi sharoitida biologiya o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonlik olim N.X. Avliyakulov ta’lim samaradorligi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Shu bois, biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlashni rivojlantirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Kreativ fikrlash muammolarga noodatiy yondashuv asosida yechim topish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Joy Paul Guilford kreativlikni divergent fikrlash bilan bog‘lab, bir nechta yechim ishlab chiqish qobiliyati sifatida izohlaydi.

Shuningdek, Ellis Paul Torrance kreativlikni muammoga sezgirlik, g‘oyalar originaligi va moslashuvchanlik orqali ifodalaydi. Bu yondashuv biologiya ta’limida, ayniqsa, ilmiy gipotezalar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.Kreativ fikrlash biologiyada tajribalarni loyihalash, tabiiy hodisalarni modellashtirish, ekologik muammolarga innovatsion yechim topish jarayonlari orqali namoyon bo‘ladi.

D.A. To‘xtayeva biologiya o‘qitishda tajriba va kuzatuvning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biologik

tafakkur esa o‘z ichiga tizimli yondashuv, evolyutsion fikrlash, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash kabi komponentlarni oladi.Yangi biologik gipotezalar ilgari surish masalan, fotosintez jarayonini o‘rganishda talaba faqat formulani yodlamaydi, balki “agar yorug‘lik intensivligi o‘zgarsa nima bo‘ladi?” kabi savollar orqali kreativ fikrlaydi.Biologiya fanining kreativlikni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari Biologiya fanining o‘ziga xosligi uning eksperimental xarakteri, kuzatuvga asoslanganligi, real hayot bilan bog‘liqligi bilan belgilanadi.

Quyidagi yo‘nalishlar ayniqsa samarali:

Ekologiya.Ekotizimlarni o‘rganishda talabalar muammoli vaziyatlarga duch keladi (masalan, ifloslanish oqibatlari).

Genetika. Genetikada irsiylik qonunlarini tahlil qilish kreativ fikrlashni talab qiladi.

Evolyutsiya. Evolyutsiya jarayonlarini tushunish uchun sabab-oqibatni chuqur tahlil qilish zarur.

Biologiya yo‘nalishidagi talabalarda qo‘llanilgan metodlar laboratoriya ishlari orqali kuzatish, biologik muammolar asosida testlar, kreativ topshiriqlar (masalan: “yangi o‘simlik turini tasvirlash”) hisoblanadi. Ilmiy metod asosida faoliyat natijasida tajriba davomida talabalar mustaqil tajriba o‘tkazadi, natijalarni tahlil qialdi, xulosa chiqardi. Biologiya darslarida kreativ metodlar muammoli biologik vaziyatlar masalan: “Agar bir ekotizimdan bir tur yo‘qolsa nima sodir bo‘ladi?”
Muammo (biologik) → Gipoteza → Tajriba → Tahlil → Natija → Refleksiya
Misol:Muammo: O‘simlik o‘sishiga yorug‘lik ta’siri
Gipoteza: Yorug‘lik ko‘p bo‘lsa o‘sish tezlashadi
Tajriba: 2 xil sharoitda o‘simlik yetishtirish
Natija: Taqqoslash

Bu model Eksperiment asosida qurilgan.Tajriba asosida o‘rganish orqali talabalar o‘zlari eksperiment o‘tkazadi. Biologik modellashtirish jarayonlarini sxema yoki model orqali tushuntiriladi.Empirik natijalar quyidagilarni ko‘rsatdi:biologik muammolar asosida ishlagan guruhda kreativlik 30% ga oshdi. Talabalar mustaqil tajriba o‘tkazishni o‘rganadi,ekologik tafakkur rivojlanadi

Natijalar muhokamasi (biologik yondashuvda natijalar shuni ko‘rsatadiki, biologiya fanida kreativ fikrlash tabiiy ravishda shakllanishi mumkin, agar ta’lim jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa. Ayniqsa, ekologik muammolar, genetik masalalar, evolyutsion jarayonlar, talabalarda chuqur va kreativ tafakkurni shakllantiradi.

Har bir mavzuni biologik muammo bilan boshlash, laboratoriya ishlarini ko‘paytirish,mahalliy flora va fauna asosida dars o‘tish,ekologik loyihalarni joriy etish kabi usullar bilan o‘quvchilarning kreativ fikrlarini takomillashtirish mumkin.Mazkur tadqiqot natijalari biologiya ta’limida kreativ fikrlashni rivojlantirishning yuqori darajada samarali ekanligini ko‘rsatdi. Biologiya fanining o‘ziga xos xususiyatlari — ya’ni, uning eksperimental, tizimli va hayotiy xarakterga ega ekanligi — kreativ tafakkurni shakllantirish uchun tabiiy muhit yaratadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik model biologik jarayonlarga asoslangan holda tashkil etilgani bilan ajralib turadi. Bu model orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, tajriba o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish orqali ilmiy tafakkurni rivojlantiradi. Ayniqsa, ekologiya, genetika va evolyutsiya kabi yo‘nalishlarda kreativ fikrlash sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion va muammoli ta’limga o‘tish zarurligini ko‘rsatdi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatida samarali pedagogik qarorlar qabul qilish, o‘quvchilarda ilmiy va ekologik tafakkurni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, biologiya ta’limida kreativlikni rivojlantirish — bu nafaqat pedagogik vazifa, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omildir. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, metodikani takomillashtirish va ta’lim tizimiga keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakulov N.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent Fan va texnologiya 2019.
2. Sharipov Sh.S. Tlabalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish metodikasi metodikasi. – Toshkent; O‘qituvchi 2018.
3. To‘xtayeva D.A. Biologiya o‘qitish metodikasi. Toshkent; O‘qituvchi – 2020.
4. E.P. Torrance.Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
5. J.P.Guilford Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow. // The Journal of Creative Behavior. – 1967.
6.Vygotsky L.S. Thought and Language. – 1986

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR SALOHIYATINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nomozova Shahzoda Abdualim qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu ishda barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholashning nazariy hamda amaliy jihatlari atroflicha tahlil etiladi. Bugungi globallashuv jarayonlari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli tashkilotlar va jamiyat uchun kadrlar salohiyatini to‘g‘ri baholash, ularning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.Ayniqsa, barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida inson kapitalining o‘rni alohida e’tirof etilib, uni baholashning innovatsion usullari keng yoritib beriladi. Kadrlar salohiyatini baholash jarayonida nafaqat kasbiy bilim va tajriba, balki shaxsiy sifatlar, ijodkorlik, moslashuvchanlik hamda ijtimoiy faollik kabi omillar ham muhim ekani asoslab beriladi.

Shuningdek, ishda baholashning an’anaviy va zamonaviy metodlari o‘zaro solishtirilib, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholashning o‘ziga xos jihatlari sifatida tizimlilik, uzluksizlik, shaffoflik va adolatlilik tamoyillari alohida ta’kidlanadi.Mazkur tadqiqot natijalari tashkilotlarda samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, kadrlar siyosatini takomillashtirish hamda inson kapitalidan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadqiqotda kadrlar salohiyatini baholashning amaliy mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilib, tashkilotlarda qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar ham tahlil etiladi. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida baholash jarayonlarini tashkil etish, ma’lumotlar bazalari va sun’iy intellektdan foydalanish orqali xodimlar salohiyatini aniqlashning samarali usullari ko‘rsatib beriladi. Bu esa baholash jarayonining aniqligi, tezkorligi va obyektivligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, kadrlar salohiyati, inson kapitali, baholash tizimi, kasbiy malaka, innovatsion yondashuv, boshqaruv samaradorligi, shaxsiy sifatlar, moslashuvchanlik, kadrlar siyosati, strategik boshqaruv.

Bugungi globallashuv davrida dunyo mamlakatlari o‘rtasida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda barqaror rivojlanishga erishish har bir davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash oddiy nazorat vositasi emas, balki strategik boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi. Chunki aynan baholash orqali tashkilotlarda mavjud inson resurslarining real holati aniqlanadi, ularning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilinadi hamda kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, kadrlar siyosatini takomillashtirish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.Bugungi kunda kadrlar salohiyatini baholash jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli platformalar hamda

sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa baholash jarayonining aniqligi, tezkorligi va xolisligini ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, inson omilini to‘liq inkor etmagan holda, uning shaxsiy fazilatlari, motivatsiyasi va ijodiy salohiyati ham alohida e’tiborga olinmoqda.Shu bois, barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash tizimini takomillashtirish har bir tashkilot va davlat uchun dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki inson kapitali – bu jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Inson resurslarining imkoniyatlari aniqlanadi, ularni rivojlantirish yo‘llari belgilanadi va samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda tezkor qaror qabul qilish, innovatsion fikrlash hamda raqamli texnologiyalarni egallash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini baholash jarayonida shaffoflik, adolatlilik va obyektivlik tamoyillariga rioya etish zarur.Chunki noto‘g‘ri yoki bir tomonlama baholash nafaqat xodimning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, balki tashkilotning umumiy samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli baholash tizimini takomillashtirish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini to‘g‘ri baholash orqali inson kapitalidan samarali foydalanish, tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda jamiyat taraqqiyotiga erishish mumkin. Ushbu ishda aynan kadrlar salohiyatini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari keng yoritiladi.

Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash masalasi an’anaviy yondashuvlardan tubdan farq qiluvchi yangi mazmun kasb etmoqda. Ilgari kadrlar asosan ularning bilim darajasi, ish tajribasi va kasbiy ko‘nikmalariga qarab baholangan bo‘lsa, bugungi kunda bu mezonlar yetarli emasligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda insonning intellektual salohiyati bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-psixologik barqarorligi, emotsional intellekti va o‘zgarishlarga moslashish qobiliyati ham muhim omilga aylanmoqda.Eng muhim yangiliklardan biri shundaki, kadrlar salohiyatini baholash endilikda “statik” emas, balki “dinamik” jarayon sifatida qaralmoqda. Ya’ni xodimning hozirgi holati emas, balki uning rivojlanish trayektoriyasi, o‘sish sur’ati va kelajakdagi potensiali baholash markaziga chiqmoqda. Bu esa “potensialni baholash” (potential-based assessment) tushunchasining ahamiyatini oshirmoqda. Mazkur yondashuv orqali tashkilotlar nafaqat mavjud kuchli kadrlarni, balki kelajak yetakchilarini ham aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.Yana bir muhim jihat shundaki, kadrlar salohiyatini baholashda insonning “ko‘rinmaydigan qobiliyatlari”ni aniqlashga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Masalan, kreativ fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish, jamoada ijobiy muhit yaratish, boshqalarni ruhlantirish kabi sifatlar an’anaviy testlar orqali to‘liq aniqlanmaydi. Shu sababli zamonaviy baholash tizimlarida simulyatsiyalar, real vaziyatli topshiriqlar (case study), loyiha asosida baholash (project-based assessment) kabi usullar keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda,barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash zamonaviy boshqaruv tizimining muhim va ajralmas yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon xodimlarning mavjud bilim va ko‘nikmalarini aniqlash bilan birga, ularning kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari hamda tashkilot taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini baholashda ham katta ahamiyatga ega.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy baholash yondashuvlari bugungi zamon talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli baholash tizimiga innovatsion usullarni joriy etish, jumladan kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va interaktiv metodlardan foydalanish zarur hisoblanadi. Bu esa baholash jarayonining yanada aniq, shaffof va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.Shuningdek, kadrlar salohiyatini baholashda faqat kasbiy ko‘rsatkichlar emas, balki ijodkorlik, moslashuvchanlik, ijtimoiy mas’uliyat va emotsional barqarorlik kabi shaxsiy sifatlar ham muhim mezon sifatida qaralishi lozim. Ushbu omillar zamonaviy xodimlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, baholash natijalaridan faqat tahliliy maqsadlarda emas, balki amaliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham samarali foydalanish zarur. Xususan, xodimlarni rag‘batlantirish, ularni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, to‘g‘ri joylashtirish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirishda baholash muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.Umuman olganda, barqaror

rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini adolatli va samarali baholash inson kapitalidan oqilona foydalanish, tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish va zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Armstrong M. *Human Resource Management Practice*. – London: Kogan Page, 2014.
3. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
4. Drucker P.F. *Management Challenges for the 21st Century*. – New York: Harper Business, 1999.
5. Ivancevich J.M. *Human Resource Management*. – New York: McGraw-Hill, 2010.
6. Kaplan R.S., Norton D.P. *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
7. Ulrich D. *Human Resource Champions*. – Boston: Harvard Business School Press, 1997.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2017–2024.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2018–2024.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA YOSHLAR MANTQIY TAFAKKURINI O‘RNI TIMSS DASTURI MISOLIDA

Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich
GulDPI “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
Shohjahon Hayitov Shuhratjonovich
GulDPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda yoshlar mantiqiy tafakkurining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturi natijalari asosida yoshlarning kognitiv salohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli konseptual jihatdan yoritilgan.TIMSS dasturi o‘quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobilyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib,bu jarayonda mantiqiy fikrlash asosiy o‘rin egallagan.

Kalit so‘zlar: TIMSS, mantiqiy fikirlash,matematik savodxonlik,tabiiy fanlar,muommoli vaziyat, kompetensiya, baholash, maktab, ta’lim sifati.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda har qanday jamiyatning barqarorligi nafaqat uning moddiy boyliklari, balki o‘sib kelayotgan avlodning intellektual salohiyati va mantiqiy fikrlash darajasi bilan belgilanadi. Mantiqiy tafakkur — bu shunchaki to‘g‘ri xulosa chiqarish san’ati emas, balki murakkab ijtimoiy jarayonlarda ratsional qarorlar qabul qilish va axborot xurujlariga qarshi tura olish qobiliyatidir. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat bilim darajasini emas,balki ularning mantiqy va tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Shu nuqtai nazardan,xalqaro baholash dasturlari,xususan TIMSS,ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.TIMSS dasturi o‘quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobilyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib,bu jarayonda mantiqiy fikrlash asosiy o‘rin egallagan.

Mantiqiy tafakkur – ijtimoiy barqarorlikning intellektual asosi

Jamiyat barqarorligi kutilmagan inqirozlarga nisbatan jamiyat a’zolarining tayyorgarligi bilan o‘lchanadi. Yoshlarda mantiqiy tafakkurning shakllanganligi quyidagi ikki yo‘nalishda jamiyatni himoya qiladi.

-Yoshlar voqea va hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglaydi, bu esa turli ekstremistik g‘oyalar yoki manipulyatsiyalarga berilmaslik imkonini beradi.

-Mantiqiy fikrlaydigan kadrlar iqtisodiyotda murakkab muammolarga optimal yechim topadi, bu esa ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

TIMSS dasturi- Mantiqiy salohiyatni o‘lchash mezoni

TIMSS baholash dasturi maktabda to‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda o‘tkaziladi; ayrim sikllarda “TIMSS Advanced” deb nomlangan qo‘shimcha dastur ham mavjud bo‘lib, u maktabni tamomlayotgan o‘quvchilarning ilg‘or matematika va fizika yutuqlarini o‘lchaydi. Har bir mamlakatda milliy tadqiqot markazlari ishtirok etadi, ular xalqaro markaz bilan birgalikda sinov savollarini ishlab chiqish, namunaviy tanlovni belgilash va ma’lumot yig‘ishni amalga oshiradi.Mazkur maqola o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlanishda TIMSS xalqaro baholsh dasturi topshiriqlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.Taqdimotda TIMSS topshiriqlarining tuzulishi,ularning kompetensiyaviy yo‘nalganligi hamda o‘quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Mantiqiy fikrlash-bu: tahlil qilish,solishtirish,umumlashtirish, xulosa chiqarish qobilyatlarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflardan boshlab bu ko‘nikmalarni rivojlantiradi:Matematik savodxonlikni oshiradi.Mustaqil fikrlashni shakllantiradi.Muommolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi

TIMSS topshiriqlari o‘quvchilarningmantiqiy fikirlashini quydagi yo‘llar bilan rivijlantiradi.

Muammoli vaziyat yaratish orqali.

-Topshiriqlar o‘quvchilarni izlanishga undaydi, bu esa mustaqil fikirlashni rivojlantiradi.

Tahliliy fikirlashni shakillantirish orqali .

-O‘quvchi bergan ma’lumotlarini tahlil qiladi,solishtiradi va kerakli xulosaga keladi.

Sabab- oqibat bog‘lanishini aniqlash orqali.

-Masalani yechishda o‘quvchi mantiqiy ketma-ketlikni tushunadi.

Ijodiy yondashuvni rivojlantirish orqali.

-Bir masalaga turli yechimlar toppish imkoniyati o‘quvchilarning kreativ fikirlashni oshiradi.

1-misol. Bir sinfda 27 ta o‘quvchi bor. Ularning 1/3 qismi qizlar. Qolganlari o‘g‘il bolalar. O‘g‘il bolalar soni qizlardan nechta ko‘p?

Yechim:

Qizlar: 27 ÷ 3 = 9 ta

O‘g‘il bolalar: 27 – 9 = 18 ta

Farq: 18 – 9 = 9 ta

Ahamiyati:

Bu topshiriq o‘quvchini:

-ulushni tushunishga,

-bosqichma-bosqich fikrlashga,

-natijani solishtirishga o‘rgatadi.

2-misol Quyidagi sonlar ketma-ketligini davom ettiring:

2, 4, 8, 16, _ , _ ,

Yechim:

Har safar 2 ga ko‘paytirilmoqda

Keyingi sonlar: 32, 64

Ahamiyati**:**

Bu misol:

-qonuniyatni aniqlash,

-umumlashtirish,

-mantiqiy xulosa chiqarishni rivojlantiradi.

3-misol. Bir do‘konda 1 dona daftar 4000 so‘m turadi. Dilshod 5 ta daftar sotib oldi va 25000 so‘m berdi. Unga nech pul qaytariladi?

Yechim**:**

5 × 4000 = 20000 so‘m

Qaytim: 25000 – 20000 = 5000 so‘m

Ahamiyati:

-amaliy hisoblash,

-pul bilan ishlash,

-hayotiy vaziyatni tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Jamiyat barqarorligi faqat huquqiy-ma’muriy choralar bilan emas, balki har bir shaxsning, ayniqsa yoshlarning ongli va mantiqiy munosabati bilan ta’minlanadi. TIMSS dasturi bizga yoshlarimizning mantiqiy salohiyatini obyektiv baholash imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichlarni yaxshilash — kelajakdagi ijtimoiy bo‘hronlarning oldini olish va davlatning intellektual mustaqilligini mustahkamlash demakdir.TIMSS xalqoro baholash dasturi orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim ,balki tahlil qilish muammoni hal etish va ijodiy fikirlash ko‘nikmalariham shakillanadi. Ular o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llash,tahliliy fikrlash va muommolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.Shu bois,ushbu topshiriqlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yili 5-sentyabrdagi – Xalq ta’limitizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora tadbirlari
2. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS International Results.
3. TIMSS 2019 Assessment Frameworks.

MUSIQA TA’LIMI JARAYONIDA TALABALARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yulyaxshiyev Sherali Narzullayevich
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada musiqa ta’limi jarayonida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida talabalarning mustaqil fikrlashi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, ijodiy salohiyat, pedagogik texnologiyalar, estetik tarbiya, innovatsion yondashuv.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar sifat jihatidan yangilanib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki uning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni egallashini taqozo etadi [1]. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Musiqa ta’limi ushbu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u shaxsning nafaqat intellektual, balki emotsional-estetik va ma’naviy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa san’ati orqali insonning ichki kechinmalari boyiydi, uning badiiy didi shakllanadi hamda ijodiy tafakkuri faollashadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqiy faoliyat bilan muntazam shug‘ullanish talabalarning kognitiv faolligini oshirib, ularning tasavvur, fantaziya va

interpretatsion qobiliyatlarini rivojlantiradi [2]. Shu bois musiqa ta’limi jarayonida ijodiy salohiyatni rivojlantirish pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasidan tashqari, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bu esa musiqa ta’limida an’anaviy reproduktiv metodlardan konstruktiv, interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga o‘tishni zarur etadi. Xususan, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, ijodiy topshiriqlar, improvizatsiya va interpretatsiya kabi metodlar talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi [3]. Musiqa ta’limi jarayonini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri bu ijodiy pedagogik muhitni shakllantirishdir. Bunday muhitda talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va badiiy tajriba o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagogning vazifasi esa ushbu jarayonda yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi sifatida namoyon bo‘lib, talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga ko‘maklashishdan iborat. Zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan o‘qituvchi bilim beruvchi subyekt emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozim [4]. Shuningdek, musiqa ta’limida ijodiy salohiyatni rivojlantirish faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanmasligi zarur. Sinfdan tashqari faoliyatlar: konsert dasturlari, ijodiy tanlovlar, musiqiy loyihalar, ustoz-shogird uchrashuvlari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash bilan birga, ularning sahna madaniyati va ijodiy o‘ziga ishonchini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [5]. Bunday faoliyatlar talabalarning ijtimoiy faolligini oshiradi va ularni kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti musiqa ta’limi mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, zamonaviy musiqa dasturlari, audio tahrirlash platformalari, virtual studiyalar hamda onlayn ta’lim resurslari talabalarning ijodiy faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli muhitda musiqa yaratish, aranjirovka qilish va tahlil etish imkoniyatlari kengayib, ta’lim jarayonining interaktivligi va samaradorligi oshmoqda [6]. Bu esa talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning innovatsion fikrlashini ham shakllantiradi.

Shu bilan birga, musiqa ta’limi jarayonida ijodiy salohiyatni rivojlantirishda ayrim tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, an’anaviy o‘qitish usullarining ustunligi, pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi hamda moddiy-texnik bazaning cheklanganligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash hamda ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga keng joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta’limi jarayonida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ko‘p qirrali, murakkab va tizimli yondashuvni talab etadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, kompetensiyaviy yondashuv hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning uyg‘un qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ijodiy fikrlashini shakllantirish nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki ularni mustaqil qaror qabul qila oladigan, yangilikka intiluvchan va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqa ta’limida ijodiy salohiyatni rivojlantirishda pedagogik muhitning qulayligi, o‘qituvchining fasilitatorlik roli, interfaol metodlar va amaliy faoliyat turlarining o‘zaro integratsiyasi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va zamonaviy musiqiy dasturlardan samarali foydalanish talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirib, ularning individual qobiliyatlarini yanada chuqurroq namoyon etishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ta’lim jarayonining uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish zarur. Ijodiy loyihalar, sahna chiqishlari, tanlovlar va musiqiy tajriba almashuvlari talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ularning estetik dunyoqarashi, badiiy tafakkuri va ijodiy mustaqilligini rivojlantiradi. Kelgusida musiqa ta’limi tizimini takomillashtirish doirasida pedagoglarning

innovatsion kompetensiyalarini oshirish, zamonaviy o‘quv-uslubiy ta’minotni boyitish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu asosda tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularni barkamol shaxs va yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurillo R. GLOBALLASHUV DAVRIDA MUSIQA SAN’ATI MIGRATSIYASI JARAYONLARINING MADANIYATLAR O ‘ZGARISHIDAGI TA’SIRI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 92-94.
2. Narzullayevich R. N. UMUMTA’LIM MAKTABLARI MUSIQA MASHG ‘ULOTLARI JARAYONIDA O ‘QUVCHILARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH //CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 167-172.
3. Kamilovich B. E. TALABALARGA CHOLG‘U SOZLARINI O‘RGATISH JARAYONLARIDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARINING AHAMIYATI //ZAMONAVIY TA’LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 111-115.
4. Ogli, Sattarov Alisher Alikul. "MUSIQA DARSLARIDA RAQAMLI MUHIT ORQALI O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH." Бюллетень педагогов нового Узбекистана 2.4 (2024): 5-8.
5. Anvarovna, Nuraliyeva Zuxra. "TYPES OF MUSICAL ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATION." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)”. – Toshkent, 2019.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.

5.O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Ekologik siyosat va barqaror rivojlanish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2022.

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAHBAR XODIMLARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH



D. B. G‘ofurov
Guliston davlat pedagogika instituti
Ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimidagi transformatsiya jarayonlarida rahbar xodimlarning axborot kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion yondashuvlar, xususan, "Data-driven management" (ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv) va raqamli ekotizim komponentlari o‘rganilgan. Maqolada rahbar xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini baholashning mualliflik modeli va strategik rivojlantirish yo‘nalishlari jadval hamda diagrammalar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, rahbarlarning axborot kompetentligi, raqamli yetakchilik, DigCompEdu, yangi rivojlantirish tizimi.

Kirish. Globalizatsiya va to‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida oliy ta’lim tizimi misli ko‘rilmagan transformatsiyani boshidan kechirmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarini (OTM) boshqarishda an’anaviy, ya’ni vertikal iyerarxiyaga asoslangan konservativ metodlardan voz kechib, raqamli va innovatsion boshqaruv paradigmasiga o‘tish shunchaki texnik yangilanish emas, balki strategik zaruriyatga aylandi. Ta’lim bozoridagi raqobatning kuchayishi va bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi OTM menejmenti oldiga yangi murakkab vazifalarni qo‘ymoqda.

Zamonaviy OTM rahbari (rektor, prorektor, dekan yoki kafedra mudiri) endilikda faqatgina buyruq va ko‘rsatmalar beruvchi ma’muriy boshqaruvchi funksiyasi bilan cheklana olmaydi. Axborot hajmining geometrik progressiya bilan ortishi (Big Data) sharoitida, rahbar — "Raqamli transformatsiya lideri" sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Uning axborot kompetentligi quyidagi strategik yo‘nalishlarda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi:

- Axborot oqimlarini filtrlash va saralash: Katta hajmdagi ma’lumotlar ichidan ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan relevant (muhim) axborotni ajratib olish va "axborot shovqini"ni bartaraf etish.

- Analitik prognozlash: O‘quv jarayoni va ilmiy faoliyat natijalarini real vaqt rejimida (real-time data) tahlil qilish orqali muassasaning kelgusi 5-10 yillik rivojlanish trayektoriyasini aniqlash.

- Kiberxavfsizlik va axborot immuniteti: Ta’lim muassasasining intellektual mulki va shaxsiy ma’lumotlarini raqamli tahdidlardan himoya qilish hamda jamoada korporativ raqamli madaniyatni shakllantirish.

Ushbu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, rahbar xodimlarning axborot kompetentligini rivojlantirish — bu shunchaki kompyuter savodxonligini oshirish emas, balki innovatsion boshqaruv tafakkurini shakllantirishdir. Maqolaning maqsadi OTM rahbarlarining raqamli ekotizimda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi innovatsion yondashuvlarni tizimlashtirish va ularning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Axborot kompetentligi tushunchasi endilikda oddiy "kompyuter savodxonligi" doirasidan chiqib, sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga olmoqda. Shunga qaramay, ko‘plab OTMlarda rahbarlarning texnologik imkoniyatlardan strategik maqsadlarda foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

1. Tizimli tahlil: Xalqaro raqamli kompetentsiya freymvorklari (DigCompEdu va UNESCO model) OTM boshqaruviga adaptatsiya qilindi.
2. Sotsiologik tadqiqot: 2025-2026 yillar davomida OTM rahbar xodimlarining (n=120) axborot-tahliliy faoliyati monitoring qilindi.
3. Innovatsion modellashtirish: Rahbarlarning kompetentligini rivojlantirish uchun "Yaxlit raqamli muhit" modeli taklif etildi.

Tadqiqot davomida rahbar xodimlarning axborot kompetentligi to‘rtta asosiy klasterga bo‘lib o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar operatsion vazifalarda (elektron pochta, messenjerlar) yuqori faollik ko‘rsatsa-da, strategik tahlil va kiberxavfsizlikda zaifliklar mavjud.

1-jadval

OTM rahbar xodimlarining axborot kompetentligi tarkibiy qismlari va baholash ko‘rsatkichlari

Kompetentlik Klasteri	Mazmuni va Indikatorlari	O‘rtacha o‘zlashtirish (%)
Kognitiv-axborot	Axborotni qidirish, saralash, ishonchliligini (fact-checking) tekshirish.	68%
Boshqaruv-texnologik	LMS (Moodle, Hemis), ERP va boshqa ichki boshqaruv tizimlaridan foydalanish.	54%
Analitik-	Akademik ko‘rsatkichlar tahlili,	32%

prognostik	prognozlash, Big Data asosida qaror qabul qilish.	
Kiber-etik	Raqamli xavfsizlik, mualliflik huquqi, raqamli muloqot etikasi.	41%

Ushbu ma’lumotlar asosida rahbar xodimlarning professional rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqildi.

Innovatsion yondashuvlar asosida axborot kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Boshqaruvni algoritmizatsiyalash: Rahbar kundalik takrorlanuvchi hisobotlar va monitoring ishlarini avtomatlashtirilgan tizimlarga topshirishi, bo‘shagan vaqtni esa strategik rivojlanishga yo‘naltirishi kerak.

- Kollektiv intellektual muhit: OTMda "Bulutli texnologiyalar" (Google Workspace, Microsoft 365) orqali hujjatlar bilan jamoaviy ishlash madaniyatini joriy etish.

- Sun’iy intellekt integratsiyasi: Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tahliliy hisobotlarni generatsiya qilish uchun AI vositalaridan (ChatGPT, Gemini kabi professional versiyalar) foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Rivojlantirishning innovatsion omillari:

1. Geymifikatsiya: Rahbarlar uchun raqamli keyslar va simulyatorlar orqali treninglar o‘tkazish.

2. Mentorlik (Reverse Mentoring): Yosh IT mutaxassislarning tajribali rahbarlarga raqamli vositalarni o‘rgatishi.

Xulosa. Oliy ta’lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida rahbar xodimlarning axborot kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar quyidagi fundamental xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

Birinchidan, OTM rahbar xodimlarining axborot kompetentligi — bu shunchaki texnik ko‘nikmalar majmuasi emas, balki oliy ta’lim sifatini kafolatlovchi va muassasaning xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik drayverdir. Zamonaviy menejer axborotdan faqat vosita sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini optimallashtiruvchi intellektual resurs sifatida foydalanishi zarurligi isbotlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, rahbarning raqamli salohiyati bevosita muassasadagi ta’lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining samaradorligiga korrelyatsiya qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqot doirasida taklif etilgan "Innovatsion rivojlanish modeli" va strategik yo‘nalishlar OTM boshqaruv apparatini tubdan modernizatsiya qilishning konseptual asosini tashkil etadi. Ushbu model rahbar xodimlarni "ma’muriyatchi" qiyofasidan "raqamli strateg" qiyofasiga o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Bunda boshqaruv jarayonlarini algoritmizatsiyalash va ma’lumotlar tahlili (Data Analytics) asosida ish yuritish byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va boshqaruv shaffofligini ta’minlashning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, rahbar xodimning axborot kompetentligi endilikda individual (shaxsiy) professional sifat darajasidan chiqib, institutsional xarakterga ega bo‘ldi. Bu shuni anglatadiki, rahbarning kompetentligi muassasaning umumiy raqamli ekotizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, doimiy harakatdagi transformatsion jarayondir. Ya’ni, rahbarning o‘zgarishi butun jamoaning raqamli madaniyatini o‘zgartiradi va muassasada "raqamli intellekt" muhitini shakllantiradi. Rahbar xodimlarning axborot kompetentligini tizimli rivojlantirish — oliy ta’lim muassasasini an’anaviy modeldan "Smart-universitet" modeliga o‘tkazishning eng muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schwab, K. (2021). *The Fourth Industrial Revolution*. World Economic Forum.

2. Johnson, L., & Adams Becker, S. (2024). *NMC Horizon Report: Higher Education Edition*.

3. Mirziyoyev, Sh.M. (2025). "Yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi" mavzusidagi ma’ruzasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2025-2026). “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasidagi hisobotlar va chora-tadbirlar.
5. Jameson, J., et al. (2022). A systematic review and framework for digital leadership research in higher education. *Computers & Education: Artificial Intelligence*.
6. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: Иқтисодиёт, 2012.
7. Menejment nazariyasi: Darslik / Qosimova D. S. - Toshkent, «Tafakkur-bo‘stoni». 2011. 336 b.
8. Ijtimoiy menejment: O‘quv qo‘llanma. – J.: JizPI, 2022, - 182 bet.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI STRATEGIYASIDA INSON SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Daniyarova Xafiza To‘ychi qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” doirasida inson salohiyatini yuksaltirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson kapitalining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi muhim omillar yoritiladi. Shuningdek, inson salohiyatini rivojlantirishda davlat siyosati bilan bir qatorda jamiyat institutlari va xususiy sektorning o‘rni ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashini ko‘rsatadi. Mazkur ishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, taraqqiyot strategiyasi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, barqaror rivojlanish.

Kirish. Yangi bosqichdagi milliy taraqqiyot yo‘lida inson omili hal qiluvchi kuch sifatida e’tirof etilmoqda. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar markazida aynan inson, uning huquq va manfaatlari, bilim va salohiyati turadi. Zero, har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy farovonligi, avvalo, inson kapitalining sifatiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois mazkur strategiyada inson salohiyatini yuksaltirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, bu borada tizimli va keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda mamlakatlarning ustunligi tabiiy resurslar yoki geografik joylashuv bilan emas, balki bilimli, malakali va tashabbuskor inson resurslari bilan belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat davlatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga xizmat qiladi. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, yoshlar va xotin-qizlar faolligini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar inson salohiyatini yuksaltirishning muhim omillari hisoblanadi.

Xususan, ta’lim sohasida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, innovatsion fikrlashni rivojlantirish orqali kelajak avlodning raqobatbardoshligini oshirish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash orqali aholining jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash ham muhim vazifalardan biri sifatida ilgari surilmoqda. Negaki, sog‘lom va bilimli inson – bu taraqqiyotning eng muhim omilidir. Bundan tashqari, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash ham inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ochiq va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish mumkin. Bu esa o‘z navbatida innovatsiyalar, tadbirkorlik va ijodkorlik rivoji uchun qulay muhit yaratadi.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”da inson salohiyatini yuksaltirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Chunki inson kapitaliga qaratilgan investitsiyalar mamlakatning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi. Mazkur tezisda aynan shu yo‘nalishlar chuqur tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” doirasida inson salohiyatini yuksaltirish masalasi bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda tahliliy manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar inson kapitali nazariyasi, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni, shuningdek, davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Avvalo, inson kapitali tushunchasiga ilmiy asos bergan xorijiy olimlar – T. Shults va G. Bekker tadqiqotlari alohida e’tiborga loyiqdir. Ularning ilmiy ishlarida inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va malaka oshirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri chuqur tahlil qilingan. Ushbu nazariy yondashuvlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ko‘plab davlatlar, jumladan O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida o‘z aksini topgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham inson salohiyatini rivojlantirish masalalari keng o‘rganilgan. Xususan, iqtisodchi olimlar tomonidan inson kapitalining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning innovatsion rivojlanish bilan bog‘liqligi, mehnat unumdorligini oshirishdagi roli tahlil etilgan. Ularning ilmiy ishlarida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va yoshlar bandligini ta’minlash inson salohiyatini oshirishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlari ham mazkur mavzuni yoritishda muhim manba hisoblanadi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” inson manfaatlarini ta’minlash, aholi farovonligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni belgilab bergan. Ushbu hujjatda ta’lim sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, gender tenglikni ta’minlash kabi masalalar keng yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilinadigan hisobotlar ham inson salohiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, BMT Taraqqiyot dasturining Inson taraqqiyoti indeksiga oid hisobotlari turli mamlakatlarda inson kapitalining rivojlanish darajasini solishtirish imkonini beradi. Ushbu hisobotlar orqali O‘zbekistonning global reytinglardagi o‘rni, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda inson salohiyatini yuksaltirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligi, ijtimoiy himoya mexanizmlari, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, raqamli iqtisodiyotga moslashuv ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda inson kapitalini rivojlantirishda innovatsiyalar, axborot texnologiyalari va umrbod ta’lim konsepsiyasining ahamiyati alohida ta’kidlanmoqda. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson salohiyatini yuksaltirish masalasi ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” doirasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot muhokamasi. Mazkur tadqiqot doirasida “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”da inson salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar tizimli tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion iqtisodiyot talablariga mos kadrlar tayyorlash hamda sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari xalqaro tajriba bilan hamohang ekanligini ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlarda inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalariga

ajratilayotgan mablag‘larning oshirilishi ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Biroq, mavjud muammolar ham mavjud bo‘lib, ular orasida hududlar kesimida sifat tafovutlari, kadrlar malakasi darajasidagi nomutanosiblik va infratuzilma yetishmovchiligi ajralib turadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida inson salohiyatini rivojlantirishda ijtimoiy himoya tizimining o‘rni alohida qayd etildi. Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash orqali inson kapitalining umumiy darajasini oshirish mumkin. Shu bilan birga, yoshlar va xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish ham muhim omillardan biri sifatida baholandi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat — raqamli texnologiyalarning roli alohida ta’kidlandi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson salohiyatini rivojlantirish uchun zamonaviy bilim va ko‘nikmalar zarur bo‘lib, bu esa ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni talab etadi. Masofaviy ta’lim, onlayn platformalar va raqamli xizmatlar inson kapitalini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson salohiyatini yuksaltirish faqat davlat siyosati bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatning barcha institutlari, jumladan, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati ishtirokini ham talab etadi. Hamkorlik asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yanada samarali natijalarni ta’minlaydi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar inson kapitalini rivojlantirishda kompleks va integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”da belgilangan maqsadlarga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Inson salohiyatini yuksaltirish “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik sohalaridagi islohotlar inson kapitalining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv va zamonaviy innovatsion mexanizmlarni keng joriy etish zarur. Kelgusida inson salohiyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, umrbod ta’lim va xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat va jamiyat institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu asosda inson kapitaliga yo‘naltirilgan siyosat mamlakat taraqqiyotining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Becker, G. S. (1993). Human capital: A theoretical and empirical analysis with special reference to education (3rd ed.). University of Chicago Press.

2. Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. The American Economic Review, 51(1), 1–17.

3. United Nations Development Programme. (2020). Human Development Report 2020. UNDP.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.

5. World Bank. (2021). World Development Report 2021: Data for better lives. World Bank Publications.

DUAL TA’LIM SHAROITIDA XORIJIY TAJRIBALARNI QO‘LLASH ORQALI BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Otabayeva Oydina Nematjonovna
Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta’lim sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Germaniya, Finlyandiya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston kasb-hunar ta’limi tizimiga moslashtirishning metodologik asoslari asoslab berilgan. Tadqiqotda dual ta’limning kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan ko‘rsatib berilgan; bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yo‘naltirilgan metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, xorijiy tajriba, bo‘lajak tarbiyachi, metodika, kasbiy kompetentlik, kasb-hunar ta’limi, kontekstuallashtirishning prinsipi.

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi va mehnat bozorining o‘zgaruvchan talablari fonida kasb-hunar ta’limi tizimini modernizatsiya qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari — xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” — bo‘lajak tarbiyachilarga qo‘yiladigan yangi sifat talablarini belgilab bergan.

Dual ta’lim modeli nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan mushtaraklikda egallashga asoslangan ta’lim paradigmasi sifatida xorijiy mamlakatlarda yuqori samaradorligini isbotlagan. Mazkur model bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentliklarni real ish muhitida shakllantirish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliqni bartaraf etish hamda mehnat bozoriga tayyor kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — xorijiy mamlakatlardagi dual ta’lim tajribalarini qiyosiy tahlil qilish va ularni O‘zbekiston kasb-hunar ta’limi kontekstida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash metodikasini takomillashtirish maqsadida qo‘llashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Dual ta’lim tizimining nazariy-metodologik asoslari

Dual ta’lim tizimi to‘g‘risidagi dastlabki nazariy qarashlar XX asrning 60-yillarida Germaniyada shakllangan bo‘lib, hozirda jahonning ko‘plab mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda [1]. "Dual" atamasi ta’lim jarayonining ikki asosiy tarkibiy qismini — ta’lim muassasasidagi nazariy ta’lim va ishlab chiqarish korxonasidagi amaliy tayyorgarlikni — o‘zida mujassam etadi. D. Euler ta’kidlaganidek, dual ta’lim tizimi ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarib, kasbiy layoqatni real sharoitda shakllantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi [2].

Germaniya tajribasi

Germaniyada dual ta’lim tizimi ("Duales Ausbildungssystem") 1969-yilda "Kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida"gi Federal qonun bilan mustahkamlangan bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil sifatida tan olingan. Ushbu tizimda bo‘lajak mutaxassislar haftaning 3–4 kunini korxonada bevosita amaliy faoliyat bilan, 1–2 kunini esa kasb-hunar maktabida nazariy ta’lim olish bilan o‘tkazadilar. Germaniyada tarbiyachilarni tayyorlashga mo‘ljallangan dual ta’lim dasturlari ("Erzieher" mutaxassisligi) ta’lim muassasalari va bolalar bog‘chalari hamkorligida amalga oshirilib, bitiruvchilarning 85 foizdan ortig‘ining mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashishini ta’minlaydi [3]. Bundan tashqari, Germaniya tajribasining o‘ziga xos jihati — davlat

va ish beruvchilar tomonidan kasbiy tayyorgarlik dasturlarining birgalikda moliyalashtirilishi bo‘lib, bu tizimning barqaror faoliyat yuritishiga asos yaratadi.

Finlyandiya tajribasi

Finlyandiyada pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi "triadik model" asosida qurilgan bo‘lib, unda universitet, maktab va amaliyot muassasasi o‘rtasidagi tizimli hamkorlik hal qiluvchi o‘rin tutadi. Finnish National Agency for Education ma’lumotlariga ko‘ra, bo‘lajak tarbiyachilar ta’lim davomida kamida 30 haftalik boshqarib boriladigan amaliyot dasturini o‘tadilar [4]. Finlyandiya tizimida mentor-tarbiyachi instituti yuqori rivojlanganlik darajasiga ega: har bir talabaga tajribali pedagog tomonidan individual kasbiy yo‘naltirish ta’minlanadi. Refleksiv ta’lim metodologiyasiga asoslangan ushbu yondashuv talabalarning kasbiy o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya tajribasi

Yaponiyada maktabgacha ta’lim pedagoglarini tayyorlash tizimi o‘ziga xos madaniy va falsafiy asoslarga ega. "Sanshin itchi" tamoyili — tana, aql va ruh birligini ta’minlash g‘oyasi — yaponiyalik tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini belgilovchi metodik poydevor hisoblanadi [5]. Yapon tizimida qayta aloqa ("hansei") va jamoaviy pedagogik tahlil ("jugyokenkyu" yoki dars tadqiqoti) amaliyoti bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy refleksiya qobiliyatini rivojlantirishda yetakchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu tajriba kasbiy tayyorgarlikka jamoaviy va tizimli yondashuv nuqtai nazaridan O‘zbekiston uchun muhim metodologik dastur bo‘la oladi.

Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning metodologik asoslari

Xorijiy dual ta’lim tajribalarini O‘zbekistonga tatbiq etish bir qancha metodologik prinsiplarga asoslanishi zarur:

1. Kontekstuallashtirishning prinsipi: xorijiy modellarni aynan nusxalamay, balki mahalliy ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va pedagogik sharoitlarni hisobga olgan holda moslashtirishni taqozo etadi.

2. Ketma-ketlik va uzluksizlik prinsipi: kasbiy tayyorgarlik jarayonining bosqichma-bosqich va izchil tarzda "umr bo‘yi ta’lim" kontseptsiyasi doirasida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

3. Hamkorlik prinsipi: ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ish beruvchilar va tegishli davlat idoralari o‘rtasidagi tizimli hamkorlikni nazarda tutadi.

4. Kompetentlikka yo‘naltirilganlik prinsipi: kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning yaxlit tizim sifatida shakllantirilishini hamda ularning amaliyotda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida dual ta’lim modelini qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim modeliga nisbatan dual ta’lim dasturlarida ishtirok etgan talabalarning kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlari 32–38 foizga yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari, ish beruvchilar tomonidan o‘tkazilgan baholashlar dual ta’lim asosida tayyorlangan mutaxassislarning amaliy tayyorgarligi va kasbiy moslashuvchanlik darajasining sezilarli darajada balandligini tasdiqlaydi [6].

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda dual ta’lim metodikasini takomillashtirish yo‘nalishlari

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda dual ta’lim metodikasini quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalishda takomillashtirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, modulli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Kasbiy faoliyat tuzilmasiga muvofiq loyihalangan o‘quv modullari nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unligini ta’minlaydi. Har bir modul yakunida kompetentlikka asoslangan baholash tizimi joriy etilishi, modullar esa "maktabgacha ta’lim pedagogikasi", "bolalar psixologiyasi amaliyoti", "ta’lim muhitini loyihalash" kabi kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlanishi lozim.

Ikkinchidan, mentor-nastavniklik institutini rivojlantirish. Tajribali tarbiyachilar va pedagog-psixologlarning faol ishtiroki asosida amaliyot bazalarida mentorlik faoliyatini tashkil etish bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Germaniya va Finlyandiya tajribasiga ko‘ra, mentor sifatida faoliyat yuritayotgan pedagoglarga maxsus metodologik tayyorgarlik berish zarur.

Uchinchidan, pedagogik refleksiya va kasbiy portfolio tizimini joriy etish. Finlyandiya tajribasidan foydalangan holda talabalar tomonidan muntazam to‘ldirib boriladigan kasbiy portfolio tizimi ularning o‘z-o‘zini baholash kompetentligini, maqsad qo‘yish va kasbiy o‘sishni rejalashtirishni rivojlantiradi.

To‘rtinchidan, raqamli va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish. Simulyatsiya-o‘yin texnologiyalari, virtual haqiqat muhitlari va interaktiv raqamli platformalar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini yangi darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi. Yaponiyaning "dars tadqiqoti" (lesson study) metodologiyasini raqamli formatga ko‘chirish hamda onlayn hamkorlik platformalarida amalga oshirish ham istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Xulosa

Germaniya, Finlyandiya va Yaponiyaning dual ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalarini qiyosiy tahlil qilish va ularni O‘zbekiston kasb-hunar ta’limi tizimiga kontekstuallashtirilgan tarzda moslashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalar chiqarishga asos beradi:

Dual ta’lim modeli bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashda nazariya va amaliyot birligini ta’minlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida tan olingan; kontekstuallashtirishga asoslangan moslashtirish metodologiyasi O‘zbekiston sharoitida ushbu modelni joriy etishda yetakchi tamoyil bo‘lib xizmat qiladi. Modulli o‘quv dasturlari, mentor-nastavniklik instituti, kasbiy portfolio tizimi va raqamli texnologiyalarning kompleks qo‘llanilishi bo‘lajak tarbiyachilar tayyorlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxtorova M., Raximova D. O‘zbekistonda dual ta’limni joriy etishning pedagogik asoslari // Pedagogika va psixologiya. — 2022. — №3. — B. 45–52.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi PF-5712-son Farmoni "Kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". — Toshkent, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida". — Toshkent, 2022.

4. Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish instituti. O‘zbekistonda dual ta’limni joriy etish: holat va istiqbollar / Tahliliy hisobot. — Toshkent: KKTI, 2023. — 84 b.

5. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 512 p. DOI: https://doi.org/10.1787/e13bef63-en

6. BIBB (Bundesinstitut für Berufsbildung). Datenreport zum Berufsbildungsbericht 2023. — Bonn: BIBB, 2023. — 560 S.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA EKOLOGIK TAFAKKURGA EGA KADRLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Mazamqulov Eldor Muhammadqul o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat barqarorligini ta’minlashda ekologik tafakkurga ega kadrlarni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy global ekologik muammolar sharoitida inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi, ayniqsa ekologik ong va mas’uliyatning shakllanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaraladi. Maqolada ekologik tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy ong shakllari bilan o‘zaro aloqasi hamda kadrlar tayyorlash tizimidagi o‘rni falsafiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat barqarorligi, ekologik tafakkur, kadrlar salohiyati, inson kapitali, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ekologik madaniyat, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, ta’lim tizimi, ekologik kompetensiya, ekologik xavfsizlik, innovatsion kadrlar, ekologik qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, yashil iqtisodiyot

Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolar nafaqat tabiiy jarayonlarning buzilishi, balki inson faoliyatining noto‘g‘ri yo‘naltirilganligi bilan ham bog‘liqdir. Bu esa ekologik tafakkurga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni faqat kasbiy ehtiyoj emas, balki ijtimoiy zarurat darajasiga olib chiqadi. Chunki ekologik muammolarning aksariyati insonning tabiatga nisbatan utilitar, ya’ni faqat foyda olishga qaratilgan munosabati natijasida yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik tafakkur inson ongida qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ekologik tafakkurga ega kadrlarni shakllantirish jarayonida qadriyatlar masalasi alohida o‘rin tutadi. Chunki har qanday bilim yoki kompetensiya, agar u ma’naviy-axloqiy asos bilan mustahkamlanmasa, amaliy natija bermaydi. Ekologik qadriyatlar — bu tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish, kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni anglash kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Aynan shunday qadriyatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar jamiyatda ekologik barqarorlikni ta’minlashga real hissa qo‘sha oladi.

Bundan tashqari, ekologik tafakkurni shakllantirishda fanlararo yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki ekologik muammolar biror bitta fan doirasida hal etilmaydi. Ular iqtisodiyot, siyosat, huquq, sotsiologiya va falsafa kabi turli sohalarning o‘zaro integratsiyasini talab qiladi. Shu sababli, zamonaviy kadrlar nafaqat o‘z mutaxassisligi doirasida, balki kengroq tizimli fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa ularning murakkab ekologik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, ekologik tafakkur innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda “yashil texnologiyalar”, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlari kabi yo‘nalishlar jadal rivojlanmoqda. Bunday sharoitda ekologik bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar innovatsion jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Demak, ekologik tafakkur nafaqat muhofaza qilish, balki rivojlanishning yangi modelini shakllantirish omili sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, ekologik tafakkurni shakllantirishda ijtimoiy institutlarning o‘rni beqiyosdir. Davlat siyosati ekologik ta’limni qo‘llab-quvvatlashi, qonunchilik asosida ekologik normalarni mustahkamlashi zarur. Ommaviy axborot vositalari esa ekologik muammolarni keng yoritish orqali jamiyatda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari esa aholining ekologik faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonlarning uyg‘unligi natijasida ekologik tafakkur keng ijtimoiy hodisaga aylanadi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, ekologik tafakkur insonning o‘z mavjudligini qayta anglash jarayoni bilan ham bog‘liqdir. Inson o‘zini tabiatdan ustun qo‘yish emas, balki uning bir qismi sifatida anglagan taqdirdagina barqaror rivojlanish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa antropotsentrik qarashlardan biosentrik yoki ekotsentrik yondashuvga o‘tishni taqozo etadi. Mazkur o‘zgarish esa faqat bilim orqali emas, balki chuqur falsafiy tafakkur va madaniy evolyutsiya orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, ekologik tafakkurni shakllantirish faqat ta’lim tizimi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayon jamiyatning barcha sohalarini — ommaviy axborot vositalari, davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va oilaviy tarbiya tizimini ham qamrab olishi lozim. Chunki ekologik ong va madaniyat kompleks ijtimoiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi.

Ekologik tafakkur inson va tabiat o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni anglashga asoslanadi. Inson tabiatning bir qismi sifatida uning qonuniyatlariga bo‘ysunadi va shu bilan birga o‘z faoliyati orqali unga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu o‘zaro ta’sir jarayonida muvozanatni saqlash jamiyat barqarorligining muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik tafakkurga ega kadrlarni tayyorlash nafaqat amaliy, balki chuqur falsafiy asosga ega zaruratdir.

Natijada, ekologik tafakkurga ega kadrlarni shakllantirish jamiyatning strategik rivojlanish yo‘nalishiga aylanadi. Bu jarayon uzluksiz ta’lim, innovatsion yondashuv, qadriyatlar tizimini

yangilash va ijtimoiy hamkorlik asosida olib borilishi zarur. Faqat shundagina jamiyat ekologik tahdidlarga bardosh bera oladigan va barqaror rivojlanishni ta’minlay oladigan darajaga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat barqarorligini ta’minlashda ekologik tafakkurga ega kadrlarni shakllantirish strategik ahamiyatga ega. Bunday kadrlar ekologik muammolarni chuqur anglay oladigan, ularning yechimiga innovatsion yondasha oladigan va jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan mutaxassislar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ekologik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan tizimli va kompleks yondashuv jamiyatning barqaror kelajagini ta’minlashning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.

2.O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida. Toshkent, 1992 (yangi tahrirlar bilan).

3.United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.

4.UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris, 2017.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid hujjatlar to‘plami. Toshkent, turli yillar.

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA KADRLAR SALOHIYATINI AHOLASHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdunabiyeva Dilshoda
Namangan Davlat Pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: Habibjanova Nodira

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Unda inson kapitali tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda kadrlar salohiyatini aniqlash mezonlari yoritib beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish jarayonida kadrlarni baholashda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki ma’naviy-axloqiy fazilatlar, innovatsion fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy yondashuvlar hamda xalqaro tajribalar asosida kadrlar salohiyatini baholashning samarali mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish, kadrlar salohiyati, baholash mezonlari, inson kapitali, kompetensiya, innovatsiya, samaradorlik, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, boshqaruv

Kirish. Bugungi kunda barqaror rivojlanishni ta’minlash har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat hamda inson omilining rivoji muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu nuqtai nazardan kadrlar salohiyatini to‘g‘ri baholash va undan samarali foydalanish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Kadrlar salohiyati faqatgina xodimlarning bilim darajasi yoki kasbiy ko‘nikmalari bilan belgilanmaydi, balki ularning ijodiy fikrlashi, moslashuvchanligi, mas’uliyati hamda ma’naviy yetukligi bilan ham uzviy bog‘liqdir[1]. Zamonaviy jamiyatda inson kapitali eng muhim resurs sifatida qaraladi va uning sifat darajasi mamlakatning raqobatbardoshligini belgilaydi. Shu sababli kadrlar salohiyatini baholashda an’anaviy yondashuvlardan tashqari yangi, kompleks va tizimli usullarni qo‘llash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u ko‘p omilli va murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki bunday sharoitda nafaqat bugungi ehtiyojlar, balki kelajakdagi talab va tendensiyalar ham inobatga olinishi zarur. Bu esa kadrlarni baholashda uzoq muddatli strategik yondashuvni qo‘llashni taqozo etadi.

Zamonaviy boshqaruv tizimlarida kadrlar salohiyatini baholashda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv xodimning faqat nazariy bilimlarini emas, balki uning amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati, muammolarni hal etish ko‘nikmalari hamda jamoa bilan samarali ishlash salohiyatini ham baholashni nazarda tutadi. Bu esa baholash jarayonining obyektivligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kadrlar oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Xususan, raqamli savodxonlik, innovatsion fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va doimiy o‘rganishga tayyorlik kabi sifatlar bugungi kunda muhim mezonlarga aylanmoqda. Shu bois kadrlar salohiyatini baholashda ushbu omillarni inobatga olish zarur bo‘ladi. Umuman olganda, barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash tizimi an’anaviy usullardan farqli ravishda kompleks, moslashuvchan va doimiy takomillashib boruvchi jarayon sifatida shakllanmoqda. Bu esa o‘z navbatida, samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, inson resurslaridan oqilona foydalanish hamda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi[2].

ASOSIY QISM. Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash an’anaviy yondashuvlardan farq qiladi. Endilikda baholash jarayoni faqat bilim va tajribani aniqlash bilan cheklanmaydi, balki xodimning har tomonlama rivojlanganlik darajasini qamrab oladi. Kadrning salohiyati uning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyati orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, uning yangiliklarga moslashuvchanligi va doimiy o‘z ustida ishlashga tayyorligi muhim mezon sifatida qaraladi. Barqaror rivojlanish talablariga mos ravishda baholash tizimi kompleks xarakterga ega bo‘ladi. Xodim faoliyatining natijalari bilan bir qatorda uning kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari ham hisobga olinadi. Bu esa baholash jarayonini strategik yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi. Kadrning bugungi natijasi emas, balki uning istiqboldagi salohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy baholash tizimlarida kompetensiyaviy yondashuv keng qo‘llaniladi. Kadrlar salohiyatini baholashda ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy omillar ham alohida o‘rin egallaydi[3]. Halollik, mas’uliyat, jamoa bilan ishlash madaniyati, tashkilot maqsadlariga sadoqat kabi sifatlar xodim faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori kasbiy bilimga ega bo‘lgan, lekin axloqiy jihatdan sust rivojlangan kadr barqaror rivojlanish talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Shu bois baholash jarayonida insoniy fazilatlar ham muhim mezon sifatida e’tiborga olinadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyatini baholash yangi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, tezkor qaror qabul qilish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati zamonaviy mutaxassis uchun zarur talabga aylangan. Innovatsion fikrlash va kreativ yondashuv esa tashkilotning raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Baholash tizimida obyektivlikni ta’minlash muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Subyektiv qarashlar va noto‘g‘ri yondashuvlar kadrlar salohiyatini to‘g‘ri aniqlashga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli zamonaviy usullar — testlar, intervyular, amaliy topshiriqlar, monitoring va baholashning raqamli tizimlaridan foydalanish kengayib bormoqda. Bu usullar kadrning haqiqiy salohiyatini aniqlashga yordam beradi[4].

Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash doimiy jarayon sifatida qaraladi. Mehnat bozori va texnologiyalar tez o‘zgarayotganligi sababli kadrlarning bilim va ko‘nikmalari muntazam ravishda yangilanib borilishi lozim. Baholash natijalari asosida xodimlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va rivojlantirish choralarini belgilash zarur bo‘ladi. Bu esa tashkilot va jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.



DIAGRAMMA. Mazkur diagramma barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rsatadi. Diagrammaning markazida kadrlar salohiyatini baholash tushunchasi joylashgan bo‘lib, uning atrofida baholashga ta’sir etuvchi muhim omillar berilgan. Diagrammaga ko‘ra, kadrlar salohiyati bir nechta asosiy komponentlar orqali shakllanadi. Birinchi navbatda bilim muhim rol o‘ynaydi, chunki har qanday kadrning professional darajasi uning nazariy tayyorgarligiga bog‘liq. Ikkinchidan, ko‘nikma va malaka amaliy faoliyatda bilimni qo‘llay olish imkonini beradi va xodimning ish samaradorligini belgilaydi. Tajriba ham muhim omil hisoblanadi, chunki u vaqt davomida shakllanib boradi va real ish jarayonida muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Diagrammada keltirilgan innovatsiya esa zamonaviy talablar asosida yangi g‘oyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish salohiyatini ifodalaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy jihat kadrning jamiyat va jamoa bilan ishlash madaniyatini, hamkorlik qilish qobiliyatini anglatadi. Bu esa barqaror rivojlanish jarayonida juda muhim hisoblanadi.

XULOSA. Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash tizimi jamiyat va tashkilotlar rivojida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon kadrning bilim darajasi, ko‘nikma va malakasi, ish tajribasi, innovatsion yondashuvi hamda ijtimoiy faolligini birgalikda tahlil qilishga asoslanadi. Bilim kadrning nazariy tayyorgarligini belgilaydi, ko‘nikma va malaka esa ularni amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beradi. Tajriba vaqt davomida shakllanib, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Innovatsion salohiyat yangi g‘oyalarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini oshiradi. Ijtimoiy jihat esa jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot madaniyatini ifodalaydi. Ushbu omillarning uyg‘unligi kadrning umumiy salohiyatini belgilaydi va uning samarali faoliyat yuritishiga asos bo‘ladi. To‘g‘ri baholash tizimi inson resurslaridan oqilona foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish va tashkilot rivojini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada malakali, tashabbuskor va raqobatbardosh kadrlar shakllanadi hamda barqaror rivojlanish jarayoni mustahkamlanadi.

Barqaror rivojlanish sharoitida kadrlar salohiyatini baholash tizimi tashkilot va jamiyatning uzoq muddatli samarali rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir. Bu jarayon kadrlarning faqat mavjud bilim va ko‘nikmalarini emas, balki ularning rivojlanish salohiyati, moslashuvchanligi va kelajakdagi imkoniyatlarini ham aniqlashga qaratiladi. Bilim kadrning nazariy asosini shakllantiradi va uning kasbiy faoliyatga kirishish darajasini belgilaydi. Ko‘nikma va malaka esa olingan bilimlarni amaliyotda to‘g‘ri va samarali qo‘llash imkonini beradi. Tajriba esa vaqt o‘tishi bilan shakllanib, xodimning murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi hamda ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal etishga yordam beradi[5]. Innovatsion salohiyat zamonaviy sharoitda juda muhim bo‘lib, kadrning

yangicha fikrlashi, muammolarga kreativ yondashuvi va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasini ko‘rsatadi. Bu omil tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy jihat esa kadrning jamoa bilan ishlash qobiliyati, kommunikativ madaniyati, mas’uliyat hissi va hamkorlikka tayyorligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Becker, Gary S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis (1964) https://www.nber.org/books/beck64-1

2. United Nations (BMT) Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development (2015 https://sdgs.un.org/2030agenda

3. World Bank The Changing Nature of Work: World Development Report 2019 https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2019

4. International Labour Organization (ILO) Skills and Lifelong Learning for Sustainable Development https://www.ilo.org

5. Schultz, Theodore W. Investment in Human Capital (1961) https://www.jstor.org/stable/1829945

3-shu’ba:
IJTIMOIY - MA’NAVIY JARAYONLAR VA KADRLAR SALOHIYATINING O‘ZARO DIALEKTIKASI

IJTIMOIY-MA’NAVIY JARAYONLAR VA KADRLAR SALOHIYATINING O‘ZARO DIALEKTIKASI

Masharipova Gularam Kamilovna
Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyatining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning dialektik rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida inson omili, ayniqsa, malakali kadrlarning roli, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlari bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy muhit va ma’naviy qadriyatlarning kadrlar salohiyatini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy jarayon, ma’naviyat, kadrlar salohiyati, dialektika, inson kapitali, taraqqiyot.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat rivoji ko‘p jihatdan inson omiliga, xususan, kadrlar salohiyatiga bog‘liqdir. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar esa ushbu salohiyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ularning o‘zaro dialektik aloqadorligini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda insonning ong, tafakkur, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashining rivojlanishini o‘z ichiga oladi [1]. Bu jarayonlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi, madaniy merosning uzluksizligi, ijtimoiy ong va tafakkurning rivoji. Mazkur jarayonlar jamiyatdagi barcha institutlar, jumladan, ta’lim tizimi, oila va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshadi.

Kadrlar salohiyati – bu jamiyatning intellektual, kasbiy va ma’naviy imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan inson resurslari majmuasidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat: bilim va malaka darajasi, kasbiy kompetensiyalar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyati. Kadrlar salohiyati mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi [2].

Dialektik yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati bir-birini o‘zaro taqozo etuvchi va rivojlantiruvchi tizimdir .

Birinchidan, ijtimoiy-ma’naviy muhit kadrlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom ma’naviy muhitda yetishib chiqqan kadrlar yuqori axloqiy mas’uliyatga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, yetuk kadrlar jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning rivojiga faol ta’sir qiladi. Ular yangi g‘oyalar, innovatsiyalar va madaniy qadriyatlarni ilgari suradi.

Uchinchidan, bu jarayonlar o‘rtasida uzluksiz o‘zaro ta’sir mavjud bo‘lib, u rivojlanishning spiral shaklida kechishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘zaro uzviy bog‘langan, bir-birini taqozo etuvchi hamda doimiy ravishda rivojlantiruvchi murakkab tizimni tashkil etadi [3]. Bu tizimni dialektik yondashuv asosida tahlil qilish ularning mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi.

Jamiyatdagi ma’naviy muhit, qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy munosabatlar inson shaxsining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit: shaxsda mas’uliyat, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni shakllantiradi, bilim olishga intilish va o‘z ustida ishlash motivatsiyasini kuchaytiradi, kasbiy rivojlanish uchun zarur ichki ehtiyojni yuzaga keltiradi. Natijada, bunday muhitda yetishgan kadrlar nafaqat malakali, balki yuksak ma’naviyatli ham bo‘ladi.

Kadrlar salohiyati – ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot harakatlantiruvchi kuchi. Yuqori salohiyatga ega kadrlar jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi [4]. Ular: yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni ilgari suradi, madaniy va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantiradi va targ‘ib qiladi, jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, ilmli va ongli mutaxassislar ta’lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari orqali jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy-ma’naviy yuksalishni ta’minlaydi.

Bu ikki omil o‘rtasidagi munosabat bir yo‘nalishli emas, balki o‘zaro va uzluksiz ta’sir shaklida kechadi: ijtimoiy muhit - kadrlarni shakllantiradi, kadrlar - ijtimoiy muhitni o‘zgartiradi va rivojlantiradi.

Bu jarayon dialektikaning asosiy qonunlariga mos ravishda: o‘zaro bog‘liqlik va ta’sir, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdordan sifatga o‘tish kabi qonuniyatlar asosida rivojlanadi [5]. Masalan, ta’lim sifati oshgani sari (miqdoriy o‘zgarish), jamiyatda sifat jihatidan yangi – innovatsion fikrlovchi kadrlar paydo bo‘ladi.

Tizimning uzluksiz rivojlanish mexanizmi. Mazkur tizim quyidagi mexanizm asosida ishlaydi:

1. Jamiyatda ma’naviy qadriyatlar shakllanadi.
2. Shu qadriyatlar asosida kadrlar tarbiyalanadi.
3. Yetuk kadrlar jamiyatga yangi g‘oya va qadriyatlar olib kiradi.
4. Natijada ijtimoiy-ma’naviy muhit yanada boyiydi va takomillashadi. Bu jarayon spiral shaklida rivojlanib, har bir bosqichda yuqoriroq darajaga ko‘tariladi.

Bugungi globallashuv davrida bu tizimning ahamiyati yanada ortmoqda. Chunki: axborot oqimining kuchayishi ma’naviy muhitga ta’sir qilmoqda, raqobatbardosh iqtisodiyot yuqori malakali kadrlarni talab etmoqda, milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy bilimlarni egallash zarurati ortmoqda. Shu sababli, ijtimoiy-ma’naviy siyosat va kadrlar tayyorlash strategiyasi o‘zaro uyg‘un holda olib borilishi lozim.

Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘zaro chambarchas bog‘langan yagona tizim bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti hisoblanadi. Ushbu tizimni to‘g‘ri boshqarish orqali nafaqat malakali, balki yuksak ma’naviyatli avlodni shakllantirish mumkin.

Kadrlar salohiyati – bu jamiyat yoki tashkilotdagi inson resurslarining bilim darajasi, kasbiy mahorati, tajribasi, intellektual salohiyati va ma’naviy-axloqiy fazilatlari yig‘indisidir. U nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning ham asosiy omili hisoblanadi.

Zamonaviy yondashuvlarda kadrlar salohiyati “inson kapitali” tushunchasi bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, u davlatning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Kadrlar salohiyatini oshirishning zarurati. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar salohiyatini oshirish quyidagi omillar bilan izohlanadi:ilm-fan va texnologiyalarning tez rivojlanishi, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlash zarurati. Shu bois kadrlarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan islohotlarda inson kapitalini rivojlantirish asosiy o‘ringa qo‘yilgan.

Ta’lim tizimini takomillashtirish: Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish (maktab – OTM – malaka oshirish), zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish, xalqaro standartlarga mos kadrlar

tayyorlash. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish: amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, Soft skills (muloqot, liderlik, muammoli vaziyatlarni hal qilish)ni rivojlantirish, mutaxassislik bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berish. Bu yo‘nalishda “learning by doing” tamoyili muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion va raqamli kompetensiyalarni oshirish: axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, sun’iy intellekt, data tahlili kabi zamonaviy yo‘nalishlarni o‘zlashtirish, raqamli iqtisodiyot talablariga moslashish. Bu esa kadrlarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Ma’naviy-axloqiy salohiyatni rivojlantirish: kadrlar faqat professional emas, balki yuksak ma’naviyat egasi bo‘lishi lozim. Bu borada Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatni jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida ta’kidlaydi.

Asosiy yo‘nalishlar: vatanparvarlik tarbiyasi, halollik va mas’uliyatni oshirish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish.

Motivatsiya va rag‘batlantirish tizimi: Moddiy rag‘batlar (ish haqi, bonuslar), ma’naviy rag‘batlar (e’tirof, martaba o‘sishi), ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish. Motivatsiya yuqori bo‘lgan kadrlar o‘z ustida ishlashga intiladi va samaradorligi ortadi.

Boshqaruv va liderlikni rivojlantirish: Zamonaviy menejment texnologiyalarini joriy etish, strategik fikrlashni shakllantirish, samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu esa tashkilot va jamiyat rivojida muhim rol o‘ynaydi.

Kadrlar salohiyatining oshishi quyidagi natijalarga olib keladi: iqtisodiy o‘sish va innovatsion rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy muhitning mustahkamlanishi, yoshlarning bandligi va faolligining oshishi. Bu jarayon ijtimoiy-ma’naviy tizim bilan dialektik bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini rivojlantiradi.

Muammolar va ularni hal etish yo‘llari. Muammolar: ta’lim sifati yetarli darajada emasligi, amaliyot bilan nazariyaning uzilishi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, motivatsiya tizimining sustligi.

Yechimlar: ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, xalqaro tajribani joriy etish, uzluksiz malaka oshirish tizimini yaratish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.

Kadrlar salohiyatini oshirish – bu ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘unligida amalga oshadigan kompleks jarayon bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda raqobatbardosh davlat qurish uchun, eng avvalo, bilimli, malakali va yuksak ma’naviyatli kadrlarni shakllantirish zarur. Zamonaviy sharoitda muammo va yechimlar. Bugungi kunda quyidagi muammolar kuzatilmoqda: ma’naviy qadriyatlarning ayrim hollarda susayishi, yosh kadrlar tarbiyasida tizimli yondashuv yetishmasligi, global axborot oqimining salbiy ta’siri. Ularni bartaraf etish uchun: ta’lim tizimini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish zarur.

Xulosa. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ushbu ikki omilning uyg‘un rivojlanishi mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydi. Shuning uchun ham zamonaviy siyosat va strategiyalarda inson kapitalini rivojlantirish hamda ma’naviy muhitni mustahkamlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘zaro uzviy, dialektik munosabatda bo‘lib, bir-birini kuchaytiruvchi va rivojlantiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatning ma’naviy-axloqiy holati, ta’lim tizimi, mehnat samaradorligi va kadrlar tayyorlash jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning sifatli shakllanishi bevosita kadrlarning professional va axloqiy salohiyatiga bog‘liq.

Kadrlarning malakasi, kreativligi va ma’naviy yetukligi ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning sifatini belgilaydi. Shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy muhit kadrlarning rivojlanishiga, motivatsiyasiga va ish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kadrlar salohiyatini oshirish, ularning ma’naviy va kasbiy jihatdan yetukligini ta’minlash jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-ma’naviy

jarayonlarni boshqarish va rivojlantirish kadrlar tayyorlash va ularga sarmoya kiritish bilan uzviy bog‘liqdir. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘zaro bir-birini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va muvozanatni ta’minlovchi tizimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish. – Toshkent: Fan, 2020. – 320 b.
2. Sodiqov A.S. Ijtimoiy falsafa asoslari. – Toshkent: Sharq, 2019. – 280 b.
3. Erkayev A. Ma’naviyat falsafasi. - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2010, 112–120-betlar.
4. Yo‘ldoshev B. Ijtimoiy falsafa. - Toshkent, 2015, 134–140-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. - Toshkent, 1997, 12–18-betlar.

IJTIMOIY-MA’NAVIY YANGILANISH SHAROITIDA KADRLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIALEKTIK XUSUSIYATLARI

S.J.Nishonov
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti (DSc)
dotsent, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-ma’naviy yangilanish jarayonlari sharoitida kadrlar salohiyatini rivojlantirishning dialektik xususiyatlari tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida ma’naviy muhit, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ong transformatsiyasining inson kapitali shakllanishiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, kadrlar salohiyati va ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning o‘zaro shartlanganligi, ularning bir-birini to‘ldiruvchi va rivojlantiruvchi jihatlari ilmiy-nazariy asosda ochib beriladi. Zamonaviy islohotlar sharoitida professional kompetensiya, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyat uyg‘unligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijasida ijtimoiy-ma’naviy yangilanish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish o‘rtasidagi dialektik birlik jamiyat barqaror taraqqiyotining muhim omili ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-ma’naviy yangilanish, kadrlar salohiyati, dialektika, inson kapitali, ma’naviy muhit, ijtimoiy taraqqiyot, professional kompetensiya, qadriyatlar tizimi, modernizatsiya, ijtimoiy ong.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy-ma’naviy yangilanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Har qanday islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, inson omiliga, ya’ni kadrlar salohiyatiga tayanadi. Shu bois ijtimoiy-ma’naviy yangilanish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni ilmiy asosda tahlil etish dolzarb masalalardan biridir. “Ayni paytda jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir davr kechmoqda” [1]. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar jamiyatning qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlari, dunyoqarashi va madaniy darajasini belgilaydi. Kadrlar salohiyati esa jamiyatning intellektual, kasbiy va ma’naviy imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ularning o‘zaro ta’siri va bir-birini shartlantirishi dialektik xarakterga ega.

Inson konsepsiyasi haqidagi fanlar fanlar (falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqalar) bugungi kunda jamiyatni o‘zgartirish bo‘yicha davlat siyosatining markazida bo‘lib, nafaqat ijtimoiy-madaniy muhitni, balki yangi insonni, «ijodkor» insonni shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

Ijtimoiy-ma’naviy yangilanish jamiyat hayotining barcha sohalarida yuz beradigan sifat o‘zgarishlarini anglatadi. U qadriyatlar tizimining yangilanishi, ijtimoiy ong va tafakkurning o‘sishi, fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishi hamda ma’naviy madaniyatning yuksalishi bilan tavsiflanadi. Bunday jarayonlar jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadi. Ammo

yangilanishning real natijasi uni amalga oshiruvchi subyekt - inson va uning salohiyati bilan belgilanadi.

Demak, ijtimoiy-ma’naviy muhit va kadrlar salohiyati o‘zaro shartlangan va bir-birini taqozo etuvchi jarayonlardir.

Kadrlar salohiyati - bu jamiyatning intellektual, kasbiy va ma’naviy imkoniyatlari majmui bo‘lib, u nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas’uliyat va innovatsion tafakkurni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda raqobatbardosh kadr deganda faqat tor soha mutaxassisi emas, balki keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxs tushuniladi. Shu jihatdan kadrlar salohiyatini rivojlantirish jarayoni ta’lim sifati, tarbiya tizimi va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqdir.

Dialektika nuqtai nazaridan qaralganda, ijtimoiy-ma’naviy yangilanish va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi munosabat o‘zaro ta’sir, o‘zaro boyitish va rivojlanish orqali namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, sog‘lom ma’naviy muhit va yuksak qadriyatlar tizimi malakali va mas’uliyatli kadrlar shakllanishi uchun zamin yaratadi. Ikkinchi tomondan esa, bilimli va tashabbuskor kadrlar jamiyatda yangicha tafakkur va ilg‘or g‘oyalarni qaror toptirib, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotni jadallashtiradi. Bu jarayonda eski va yangi qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlar tabiiy ravishda yuzaga keladi va aynan shu ziddiyatlar taraqqiyotning ichki harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimidagi miqdoriy o‘zgarishlar - ta’lim muassasalari sonining ortishi, innovatsion dasturlar joriy etilishi, malaka oshirish tizimining takomillashuvi - ma’lum bosqichda sifat o‘zgarishlariga olib keladi. Natijada jamiyatning umumiy intellektual va ma’naviy darajasi yuksaladi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-ma’naviy yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtiradi.

Shunday qilib, mazkur ikki jarayon o‘zaro dialektik birlikda rivojlanadi.

Ijtimoiy-ma’naviy yangilanish sharoitida kadrlar salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uzluksiz ta’limni yo‘lga qo‘yish, yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash, innovatsion tafakkurni rag‘batlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kasbiy kompetensiya bilan ma’naviy mas’uliyatning uyg‘unligi jamiyat barqaror taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir.

«Zamonaviy inson motivatsiyasining 98 foizi uning shaxsiy motivatsiyasi emas. Insonni sotsium shakllantiradi. Bizning qarashlarimizning atigi 2 foizi haqiqatan ham shaxsiy bo‘lib, ko‘pincha faqat daho jamiyat fikriga qarshi chiqishi mumkin» [2], - muhit odamlarda inson kabi fikrlash va harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi. Jamiyat qolipga solmaydi, balki shakllantiradi, bunda odamlar o‘zlarida mavjud bo‘lgan madaniyat stereotiplariga e’tibor qaratadilar. Insonda har doim jamiyat bosimiga qaramay, tanlash imkoniyati qoladi. «Jamiyat odamlar yig‘indisi emas, balki tashkiliy aloqalar va madaniyat variantlari tizimi, o‘zaro ta’sir matritsasidir» [3]. XX asr misoli - «hayotni qurish va yangi hayot shakllarini tashkil etish» vazifasi qo‘yilganda ijtimoiy loyihalashni amalga oshirish misolidir.

O‘tgan asrning o‘rtalarida yoshlar va atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muammosi bilan bog‘liq barcha masalalar aniq va tushunarli edi. Shaxs - bu inson va uning ijtimoiy muhiti, bu dunyoning o‘z ijtimoiy muhiti bilan o‘ziga xos mafkuraviy aloqasidir. Asosiy vazifa shundan iborat ediki, voyaga yetish davrida yosh inson ham tarbiyalovchi, ham rivojlantiruvchi ijtimoiy muhit bilan himoyalangan bo‘lishi kerak edi; butun jamiyatning (pioner va komsomol tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari) sa’y-harakatlari shunga qaratilgan edi, ya’ni yoshlarni ham mazmunan, ham tashkiliy jihatdan tarbiyalashning yaxlit tizimi mavjud edi. Kelajak jamiyatida psixologiya yangi inson haqidagi fan bo‘ladi.

Bugungi kunda, XXI asr boshlarida, yoshlar muhitida ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelgan «saboqlar»dan so‘ng, muhit va yoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda boshqa maqsadlar belgilovchi bo‘lib qolmoqda. Pedagogika fani ham, ijtimoiy amaliyot ham zamonaviy yoshlarni ijtimoiy muhit ta’siridan qanday himoya qilishni hal qilishga harakat qilmoqda. Biz yoshlarni atrof-muhit ta’siridan himoya qilishni emas, balki o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar, madaniyat vakillarining birgalikdagi ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tashkil etish orqali,

yoshlarni, birinchi navbatda, «multikreativ o‘zaro ta’sir» jarayoniga kiritish orqali ijtimoiy muhitni o‘zgartirishni taklif etamiz. Agar yoshlarni muhitdan ajratib qo‘yish mumkin bo‘lsa, muhitni (tabiiy, madaniy, ta’lim) ajratib bo‘lmaydi, chunki u hamma joyda mavjud. Shunday qilib, bunyodkorlik makoni konsepsiyasini ishlab chiqishga kirishish zarur.

Shu bilan birga, mamlakatimiz qaytmaslik nuqtasini yengib o‘tishga muvaffaq bo‘ldi, Vatan g‘oyalari, unga xizmat qilish tamoyillari davlatni modernizatsiya qilish va barpo etishning asosi sifatida ijtimoiy hayotga qayta boshladi. Madaniy tarixiy an’analar, ma’naviyat va axloqiylik, O‘zbekistonning tayanch nuqtalari sifatida yo‘qolmagan, ular bizning hududiy, biologik va milliy makonimizda yashab kelmoqda. Modernizatsiya uchun, birinchi navbatda, ijtimoiy-madaniy genotipimizni hisobga olish, ikkinchidan, avvalo gumanitar sohada to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni juda muhimdir. «Modernizatsiya jarayonini sekinlashtiradigan uchta ijtimoiy-madaniy xususiyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin» [4].

Birinchidan, odamlarimizda standartlar va qonunlarga hurmat uyg‘otish.

Ikkinchidan, an’anamizda nohaq ravishda sharmandali hisoblangan murosaga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish. Bizga kelishuvchanlik kerak, demak, bizga avtoritar iroda emas, balki murosa madaniyati kerak.

Uchinchidan, fuqarolarimizni bolaligidanoq strategik fikrlashga o‘rgatish, ularning hayotiy rejalashtirish ko‘lamini kengaytirish lozim.»

Modernizatsiya muvaffaqiyati maktablar, universitetlar, kutubxonalar, televideniye orqali uzatiladigan va bir tomondan madaniy kodimizni (Yerga, madaniyatga, Vatanga muhabbat) saqlashga, qaratilgan ijtimoiylashuvning yangi standartlariga bog‘liq.

Shunda biz ijtimoiylashuvning umumiy maqsadli vazifasini shaxsiy-etniklikdan umuminsoniylikka yuksalish, o‘zini etnos, davlat va insoniyatning bir qismi sifatida anglash orqali dunyoviy ongni shakllantirish sifatida belgilashimiz mumkin. Ijtimoiylashuv jarayoni etnik, fuqarolik va global darajalarni o‘z ichiga oladi va bu uning rivojlanish ketma-ketligini belgilaydi:

1. O‘z etnosining madaniyatiga kirish va boshqa xalqlarning etnomadaniyati bilan tanishish, boshqa odamlarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish, millatlararo muloqot madaniyatini o‘zlashtirish.

2. Fuqarolik pozitsiyasini, vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish, o‘zini mamlakat fuqarosi sifatida anglash, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.

3. Inson huquqlari va erkinliklari haqidagi bilimlar tizimi bilan tanishish, ularni jamiyat taraqqiyoti uchun qadriyat va zaruriy tarkibiy qism sifatida anglash, birgalikda yashashning ijobiy tajribasini shakllantirish.

«Ijtimoiylashuv tizimi deganda, birinchidan, davlatning tabiiy, ijtimoiy va madaniy muhit hayoti to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligini tushunamiz.

«Zamonaviy milliy tarbiyaviy ideal va sivilizatsiyaviy standartlashtirilgan asosiy qadriyatlar asosida insonni tabiat, jamiyat va madaniyatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, asrab-avaylash va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishga tayyorlash» [4].

Milliy va mintaqaviy dasturlar va loyihalarni ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hamda davlat, fan, ta’lim, madaniyat va fuqarolik jamiyatining strategik sherikligi asosida amalga oshirish.

Nazariy daraja, avvalo, ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati haqidagi tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lib, masala bu mohiyatni qanday xususiyatlar (sifatlar) bilan o‘lchashda namoyon bo‘ladi.

Buning uchun barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy tarkibiy qismi sifatida ijtimoiylashuv va tarbiyani belgilashda falsafa, psixologiya va pedagogika masalalarini hal etish maqsadida inson haqidagi fanlarning bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishi zarur. Shaxsning ustuvor fazilatlarini shakllantirish mexanizmlarini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-ma’naviy yangilanish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bir-biridan ajralmas, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan jarayonlardir. Ularning dialektik birligi jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi. Ma’naviy yetuk, intellektual salohiyati yuqori va kasbiy jihatdan malakali kadrlar mavjud bo‘lgan taqdirdagina ijtimoiy yangilanish jarayonlari izchil

va samarali kechadi. Shu bois inson kapitalini rivojlantirishga kompleks va tizimli yondashuv jamiyatning barqaror va sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishining muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J. 2. - T.: O‘zbekiston, 2018. - B. 224.

2. Thomas Piketty – Capital in the Twenty-First Century. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. - P. 98.

3. Yuval Noah Harari - 21 Lessons for the 21st Century. – London: Jonathan Cape, 2018. - P.13.

4. Joseph E. Stiglitz – People, Power, and Profits. – New York: W.W. Norton & Company, 2019. - P. 65.

ДИАЛЕКТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ



Хайров Расим Золимхон углы
Гулистанский государственного педагогический институт Доктор философий по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры “Искусствоведения”

Аннотация. В статье рассматривается диалектическая взаимосвязь профессионального и духовно-нравственного развития будущего педагога в условиях трансформации образовательной среды. Обоснована необходимость интеграции компетентностного и аксиологического подходов. Раскрыта роль современных образовательных технологий и педагогических условий в формировании целостной личности учителя.

Ключевые слова: педагогогика, диалектика, профессиональное развитие, духовно-нравственные ценности, образование, компетенции

Современный этап развития системы образования в условиях формирования Нового Узбекистана характеризуется активной модернизацией содержания и технологий обучения. Особое внимание уделяется подготовке педагогических кадров, способных эффективно функционировать в условиях глобализации, цифровизации и социально-культурных изменений. В этой связи возрастает значимость формирования личности педагога, обладающего не только профессиональными компетенциями, но и устойчивыми духовно-нравственными ценностями.

Актуальность исследования определяется необходимостью осмысления подготовки будущих педагогов как целостного процесса, в котором профессиональное и духовно-нравственное развитие находятся в диалектическом единстве. Современная педагогическая наука рассматривает компетентность как интегративное качество личности, включающее знания, умения, навыки и ценностные установки. В частности, в трудах узбекских исследователей подчёркивается, что педагогическая компетентность представляет собой систему взаимосвязанных компонентов, обеспечивающих эффективность профессиональной деятельности [2; б. 112].

Вместе с тем духовно-нравственное развитие выступает фундаментальной основой формирования личности педагога. Как отмечает Ш.Ш. Олимов, нравственное воспитание определяет ценностные ориентиры личности, её отношение к обществу, культуре и

профессиональной деятельности [1; б. 47]. В этом контексте педагог выступает не только как транслятор знаний, но и как носитель духовных ценностей.

Диалектика профессионального и духовно-нравственного развития будущего педагога проявляется в их взаимной обусловленности и единстве. Профессиональное развитие предполагает овладение педагогическими знаниями, методиками и технологиями обучения, тогда как духовное развитие формирует гуманистическую направленность педагогической деятельности. Отсутствие гармонии между этими компонентами приводит либо к формализму в обучении, либо к недостаточной эффективности педагогической практики.

Анализ подготовки будущих педагогов выявляет противоречия между общественными требованиями к личности учителя и уровнем его духовно-нравственной зрелости, между теоретической направленностью обучения и практическими потребностями, а также между внедрением инноваций и сохранением гуманистических ценностей образования.

В условиях перехода к кредитно-модульной системе обучения усиливается роль самостоятельной работы студентов, их ответственности за результаты обучения, а также необходимость формирования способности к саморазвитию и рефлексии [3; с. 102]. Это, в свою очередь, требует интеграции профессионального и духовного развития в образовательном процессе. Особое значение приобретает использование современных образовательных технологий, направленных на активизацию познавательной деятельности студентов. Как показывают исследования, внедрение инновационных методов обучения способствует не только развитию профессиональных компетенций, но и формированию ценностных установок будущих педагогов [4].

Практическая реализация диалектического единства профессионального и духовно-нравственного развития будущего педагога требует создания комплекса педагогических условий, включающих интеграцию теории и практики, применение интерактивных методов, развитие рефлексивной деятельности и формирование ценностно-смысловой образовательной среды [2; б. 115]. Например, в процессе педагогической практики студенты сталкиваются с ситуациями, требующими не только профессиональных знаний, но и нравственного выбора. Это может быть решение конфликтных ситуаций в классе, взаимодействие с учащимися и родителями, принятие педагогических решений в сложных условиях. Такие ситуации способствуют формированию профессиональной ответственности и духовной зрелости будущего педагога.

Таким образом, диалектика профессионального и духовно-нравственного развития будущего педагога представляет собой основу его профессионального становления. Их интеграция обеспечивает формирование компетентного специалиста, способного эффективно решать задачи современного образования и выполнять социально значимую миссию.

В заключение следует отметить, что дальнейшие исследования могут быть направлены на разработку диагностических инструментов оценки уровня интеграции профессиональных и духовных компонентов в подготовке педагогических кадров, а также на совершенствование образовательных технологий в условиях цифровизации.

Список используемой литературы:

1. Олимов Ш.Ш. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари: монография. - Т.: Фан ва технология, 2015. - 228 б.

2. Abdullayeva B.S.Umumiy pedagogika (1-qism). /Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B./ Darslik. - T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020, - 496 b.

3. Азамкулов Г. О., Хомидов З. Д., Хайров Р. З. У. Основные понятия кредитно-модульной системы обучения в высших учебных заведениях // Научный журнал «EO IPSO». - 2022. - С. 102.

4. Xayrov R. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi // Scienceproblems. UZ Учредители: ООО “Scienceproblems team”. - 2024. - Т. 3. - №. 12/2.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY SOHADAGI ISLOHOTLARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich
Guliston davlat universiteti universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida ma’naviy sohada keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning amaliy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, ushbu sohada erishilayotgan natija va yutuqlar haqida batafsil yoritilgan. Shu jumladan, mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ma’naviy-madaniy islohotlarning ahamiyati haqida fikr-mulohaza, tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tashabbus, ma’naviyat, qadriyat, ilm-fan, texnologiya, taraqqiyot, strategiya, madaniy diplomatiya, milliy san’at, kinematografiya.

KIRISH. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlar Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan ayni paytda ilm-fan, texnika-texnologiya, madaniyat, ta’lim, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur’atlari tobora jadallashmoqda. Shuning bilan birga axborotlar asri talablariga muvofiq o‘zgarayotgan turmush tarzimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga ko‘plab yangidan-yangi vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bu muammolarga qarshi turish uchun bizga samarali yechim va chora-tadbirlar suv va havodek zarur bo‘lib bormoqda. Har qanday xalqning, jamiyatning a’zolari ongida ma’naviy-madaniy saviya va salohiyatni yuksaltirish, ularning dunyoqarashini va tafakkurini o‘stirish bugungi kunda mamlakat rivojida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bu masala xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydilar: “Jamiyatimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, ikurslarni uzviy ravishda inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim”[4].

Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng miqyosdagi islohotlar mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning orzu-maqsadlarni, xohish-istaklarini o‘zida ifoda etib, butun dunyoda yuksak e’tirof etilmoqda. Shundan kelib chiqib, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish har bir fuqaroning zimmasiga yuklangan burchi va mas’uliyatiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Biz ma’naviyat va ma’rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir”.[5] Darhaqiqat, ma’naviyatli, ma’rifatga oshno inson har tomonlama yetuk, zukko va ilmli inson bo‘la oladi. Sababi, qalbida ma’naviyat nuri bo‘lgan inson harakatdan to‘xtamaydi, barcha ilmlarni o‘rganishga, o‘zining xalqi, yurti uchun foydali ishlar qilishga urinadi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar - bu keng ommani ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh

vaqtlarini samarali o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushunchadir. Shu maqsadda bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan har bir ma’naviy-madaniy islohotlarimiz quyidagi masalalarni o‘z oldiga dolzarb vazifa sifatida qo‘ymoqda:

birinchidan, mamlakatimizda ma’naviy-madaniy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning bo‘sh vaqtlarining mazmunli o‘tishini ta’minlash, xalqimizning milliy qadriyat, urf-odat va an’analarni o‘zida mujassam etgan namunali o‘quv-dasturlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish;

ikkinchidan, fuqarolarning ma’naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, xalq ijodiyoti va badiiy san’atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, turli havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli va samarali ravishda boyitib borish;

uchinchidan, yoshlarni amaliy to‘garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o‘rganish va “nutq madaniyati” hamda “notiqlik” bo‘yicha kurslarni uzviy ravishda tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo‘nalishlari, havaskorlik san’ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ‘ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;

to‘rtinchidan, adabiyot hamda san’at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o‘tkazish; beshinchidan, ma’naviy tadbirlar, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san’atining tuman (shahar) miqyosidagi festival va anjumanlarini o‘tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, rag‘batlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash; oltinchidan, bayram, tomosha va xalq sayillarini keng ko‘lamda tashkillashtirish lozim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlar har bir fuqaroda yuksak ma’naviyat va axloqiy fazilatlarning shakllanishida asosiy ko‘mak beruvchi vositalardan biri sanaladi. Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi” – degan ta’kidlarini yodga olish kifoya. Xususan, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar keng ma’noda o‘quv muassasalari, ta’lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat muassasalri va turli istirohat bog‘larida amalga oshiriluvchi faoliyatlarni qamrab oladi. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni tizimli va izchil amalga oshirilishini ta’minlash borasida ko‘plab qonunchilik hujjatlari, strategiyalar va yo‘l xaritalari qabul qilinmoqda.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarorini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu Qarorda “Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida: ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; –oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash; –targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiyma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish; –el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish”[6] lozimligi belgilab qo‘yildi. Endigi vazifa ushbu yo‘nalishlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga joriy etish uchun yetarli shart-sharoit yaratish hisoblanadi. Binobarin, ma’naviyat va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar jamiyat hayotida quyidagilarni amalga oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi: –yurt ravnaqi va xalq farovonligi uchun ko‘plab tashabbuskorlik loyihalarini kuchaytirish, yosh avlodda intellektual salohiyatni shakllantirish uchun mustahkam va

samarali ijodiy va ma’rifiy muhitni yaratish, har bir shaxsda tevarak-atrofda ro‘y berayotgan voqea-jarayonlarga nisbatan daxldorlik hissini uyg‘otish, befarqlik, loqaydlik kabi salbiy illatlarga barham berish; – har bir fuqaroning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldida turgan muqaddas burchlarini anglab yetish darajasini oshirish, mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olish va mustaqil fikr-mulohazaga ega yoshlar sifatida tarbiyalash; –Vatanga va o‘z millatiga cheksiz muhabbat va sadoqat hissini shakllantirish, Vatanning muqaddasligi, u insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni voyaga yetkazadigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan, ta’lim-tarbiya beradigan, safarga chiqsa mudom sog‘inadigan tabarruk maskan ekanligini tushuntirish; – kishilarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi umumbashariy sifatlarni rivojlantirish, ularga millatchilik va shovinizm hamjihatlikka raxna soluvchi salbiy illatlar ekanligini tushuntirish; – jamiyatimiz a’zolarining ma’naviy olamini, dunyoqarashini kengaytirish, har sohada ijtimoiy faolligini oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarining ko‘lamini kengaytirish; – siyosiy-huquqiy bilim saviyasini oshirish, dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga baho berish ko‘nikmasini shakllantirish, mafkuraviy-g‘oyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab yetishiga ko‘maklashish lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy va ma’rifiy islohotlar zamirida xalqimizni ma’naviyatli qilib tarbiralash, ularda insonparvarlik, mehroqibat va ezgulik axloqiy fazilatlarni shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biri sanaladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilning 22- dekabrda Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisida ma’naviyatimizni yanada yuksaltirish borasida quyidagi ishlarga e’tibor qaratilishi ta’kidlandi[2]:

Birinchidan, yoshlar tarbiyasida mahalla faollari, nuroniylarning e’tiborini kuchaytirish;

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hokimlarning mas’uliyatini keskin oshirish;

Uchinchidan, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g‘oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san’atining o‘rnini oshirish;

To‘rtinchidan, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish;

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish, ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an’analarni ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytirish;

Oltinchidan, milliy madaniyatimiz rivojida muhim o‘ringa ega bo‘lgan musiqa va raqs san’atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish;

Sakkizinchidan, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirish;

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish. Yuqorida keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishda ma’naviyat targ‘ibotchilarining ham o‘rni katta.

Bugunga kelib ma’naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni tartibga solish ehtiyojini qondirish muhim va dolzarb sanaladi. Ana shu ehtiyojlarni hisobga olgan holda yurtimizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Milliyma’naviyatimizning yuksalishida ma’lum bir guruh yoki jamoaning harakati kutilgan natijaga olib kelmaydi. Bu jarayonda butun millat, jamiyat birgalikda harakat qilsa biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga, albatta, erisha olamiz. Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifa va maqsadlarni amalga oshirish lozim:

– ta’lim muassasalari va mahalla a’zolari o‘rtasida faollikka targ‘ib qiluvchi turli ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazib turish;

– oila, mahalla va maktabning birlashib harakat qilishlari uchun turli tashabbus va dasturlar amalga oshirish;

– madaniy ko‘ngilochar tadbirlarni targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy ruhdagi amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar o‘tkazish joiz sanaladi.

Ayni damda yurtimizda ma’naviyat sohasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishidan biri hisoblanadi. Shu sababli qabul qilinayotgan strategik dasturlar, vazifalarda ma’naviyat ham alohida o‘rin egallagan. Masalan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish” bo‘yicha islohotlar keltirilgan[3]. Unda quyidagi vazifalar belgilangan:

– Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash; – O‘zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni rivojlantirish;

– Zamonaviy teatr va sirk san’atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish;

– O‘zbek milliy san’atini targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish;

– Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish;

– Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish;

– Milliy kinematografiyani rivojlantirish.

Ushbu strategiyadagi vazifalar ham ma’naviyatimizning yuqori pog‘onaga ko‘tarilishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning ma’naviy sohasidagi islohotlar haqida quyidagi fikrmulohazalar yuqori ahamiyat kasb etadi:

1. O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasiga katta e’tibor berilmoqda. Darhaqiqat, insoniyat ma’naviyati rivojlanishi madaniyat va san’atsiz kechmaydi. O‘zbek san’atining taraqqiyoti uchun, xususan, duradgorlik, o‘ymakorlik, kulolchilik sohasida shoh asarlar yaratilishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Milliy musiqa va raqsning rivojlanishi yurtimizni dunyoga tanitishda bevosita o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Ushbu sohalardagi mavjud islohotlar, o‘zbek madaniyati va san’atini mangulikka eltib dunyoga tanitishda bevosita yordam beradi.

2. Yurtimizda bebaho milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy boyliklarimiz, ajdodlarimiz merosini bugungi kun talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, biz uchun muqaddas islom dinining chinakam insoniy mohiyatini, uning tinchlik, yaxshilik, mehr-shafqat, hamjihatlik dini ekanini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish lozim.

3. Ma’naviy sohani rivojlantirishda milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni mafkuraviy xarita shaklida ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholi barcha qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish kerak.

4. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va mexanizmlarini, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul va uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

XULOSA. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, yot va begona g‘oyalar, xususan, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish bugungi kunning dolzarb vazifasi sanaladi. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilishva bu jarayonga yoshlarni keng jalb qilish, shu orqali ularda mas’uliyat va dahldorlik hissini uyg‘otish lozim. Bu esa amalga oshiriladigan tadbirlarning sifati va samaradorligini yanada oshiradi. Bunda har bir kishining xususiyatlari, muayyan voqea-hodisaga nisbatan o‘z shaxsiy fikriga ega ekanligi qay darajada shakllanganini alohida hisobga olish kerak. Qolaversa, bunday tadbirlarning samaradorligi ularning milliy, axloqiy qadriyatlarimiz, milliy g‘oya va madaniyatimiz, ma’naviy merosimiz bilan uyg‘un holda hamda zamonaviy shakllar,

interaktiv uslublar asosida tashkil etilishiga ham bog‘liqdir. Ushbu muammolarning yechimi o‘laroq quyidagi islohotlarni amalda keng joriy etish lozim:

Birinchidan, xalq ruhiyatini yuksatiradigan, uning ichki, botiniy qudratini namoyon etadigan tadbir va tashviqot ishlarini tashkil etish, shu ruhdagi adabiybadiiy asarlar, ilmiy-publitsistik tadqiqot ishlarini ko‘paytirish va ularni rag‘batlantirish, ularni keng omma ongu tafakkuriga singdirishning tizimli mexanizmini ishlab chiqish;

Ikkinchidan, mustaqillik davrida erishilgan milliy-ma’naviy yutuqlarimizning ahamiyati, jozibasini ko‘rsatish; istiqlol, xalq erki, farovonligi, milliy davlatchiligimiz eng sharafli, eng muqaddas qadriyat ekanini muntazam ravishda yoshlar ongiga singdirib borish zarur va shart;

Uchinchidan, muqaddas islom dinimizning ruhiy kamolot va barkamollikka chorlovchi ezgu g‘oyalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish, din arboblarini ham ta’lim va tarbiyaga keng jalb etish kerak;

To‘rtinchidan, qadim allomalarimizning merosini bugungi kun yoshlariga yetkazish masalasi bilan jiddiy shug‘ullanish, jadidlar va ularning namunali va mashaqqatli hayot va ilmiy yo‘llarini targ‘ib qilish, ularning asarlarini o‘rganish va nashr etishni davom ettirish zarur;

Beshinchidan, axloq me’yorlarining milliy asoslarini ishlab chiqish. Bunda umuminsoniy axloqiy me’yorlarni inobatga olish, yoshlarda kitobxonlikka e’tiborni oshirish va mamlakatimizda bu sohada olib borilayotgan ishlarni qo‘llab-quvvatlash lozim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish, jamiyat fuqarolarining ma’naviyatini yuksaltirish uchun faqat nazariy bilim bermasdan, amaliyotga ham ko‘proq urg‘u berish lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi bolalar, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’limdagi o‘quvchi va talabalar uchun ta’lim jarayoni bilan birgalikda ma’naviy dunyoqarashni o‘stiruvchi, o‘zi uchun yangi bilimlar kashf qilishi mumkin bo‘lgan turli xil muzeylarga, teatrlarga, tarixiy maskanlarga borishni tashkil etish lozim. Ta’lim tashkilotlarining barcha bo‘g‘inida tahsil oluvchilarni muzeylarga, tarixiy joylarga tashrifini amalga oshirish ularning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi kengayishida bevosita asosiy choratadbirlardan biri deb aytishimiz mumkin. Shunday ekan, dam olish kunlarida farzandi bilan muzeylarga, teatrlarga borgan ota-ona ham o‘zi uchun kerakli nimadir olishi shubhasiz. Xulosa qiladigan bo‘lsak, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muntazam tashkil etish turli ma’naviy buzg‘unchilik va vayronkorlik harakatlar va xurujlarning oldini olish, aholi ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarda ularga nisbatan bevosita ma’naviy immunitetni shakllantiradi va baxtli kelajak sari dadil odimlashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. . Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B. 267.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr. www.prezident.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.www.lex.uz.

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022 yil 21 dekabr, №272 (8334).

5. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga doir konseptual g‘oyalari va tavsiyalari)Uslubiy qo‘llanma – Toshkent: Lesson press, 2022.–B. 122.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori.

7. Kenjayev Sh.X. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T,.2024 y.

8. Kenjayev Sh, Asatulloyev A. Filosofiya. Uchebnik T,. 2025 g.

AKADEMIK ERKINLIK INSTITUTINING KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

U. R. Kudratova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim tizimida akademik erkinlik institutining kadrlar salohiyatini oshirishdagi roli ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif akademik erkinlikning institutlashuv bosqichlarini yoritib beradi va O‘zbekiston OTMlarining xalqaro reytinglardagi (QS World University Rankings 2026) o‘rnini tahlil qiladi. Shuningdek, ilmiy etika, maqolalarni qaytarib olish (retraction) holatlari va kadrlar ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, akademik erkinlik, o‘qitish erkinligi, o‘rganish erkinligi, fikr bildirish erkinligi, tanlov fanlari, kadrlar salohiyati, QS reytingi.

Keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so’zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo’nalishlari *“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”* tamoyiliga asoslandi. Harakatlar strategiyasida beshta ustuvor yo’nalishdan iborat bo’lsa, Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasiga bunyodkor g‘oyalarga asoslangan islohotlarni yangi tarixiy bosqichda davom ettirishni nazarda tutuvchi yana ikkita yangi ustuvor yo’nalish qo’shildi, ularning har biri muayyan sohalarni rivojlantirishga qaratildi.

–O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoniga binoan, jami yettita ustuvor yo’nalishdan iborat 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Tabiiyki, Taraqqiyot strategiyasi keyingi besh yilda bosqichma – bosqich amalga oshiriladi.

Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarining ahamiyatli jihatlardan biri – barcha davlat organlariga mahallalardan murojaat qilish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko’rsatish tizimi yaratilmoqda. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda *mahallaning “faol” modeli* joriy etilmoqda. Strategiyaga binoan mahallani aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta’minlash maqsadida 2022-yilda quyidagilar ko’zda tutilmoqda:

- mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo’yicha *tuman (shahar) hokimi yordamchilari* hamda yoshlar yetakchilari faoliyatini samarali yo’lga qo’yish;

- barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o’z yo’nalishi bo’yicha muammolarni o’rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilash;

- mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko’rsatish, shu jumladan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali aloqalarni yo’lga qo’yish orqali mahallalarning xalq oldidagi nufuzini oshirish;

- mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammalarni hal etishda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining vakolatlari qayta ko’rib chiqilib, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

- mahallalarning **“o’sish nuqtalari”** va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish;

- mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko’maklashish va o’qitish markazlari, tadbirkorlik ob’ektlari kabi infratuzilmani yaratish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mahalliy vakillik organlari o’rtasidagi doimiy hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratish, shu jumladan mahalla raisi tomonidan mahalliy Kengash majlisida ko’rilishi majburiy bo’lgan masalalarni kiritishning samarali mexanizmlarini yo’lga qo’yish;

- fuqarolar tomonidan mahalla raisiga nisbatan *ishonchsizlik bildirish institut*ini joriy etish.

Taraqqiyot strategiyasi bandlarini 2022-yilda amalga oshirish bo’yicha davlat dasturida adolat va qonun ustuvorligiga oid quyidagilarni bajarish nazarda tutilgan:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga jinoyat ishlari bilan bir qatorda, fuqarolik va ma’muriy ishlar bo’yicha ham davlat hisobidan bepul yuridik yordam ko’rsatish tartibi joriy etilsin;

- qarori, harakati (harakatsizligi) noqonuniy emasligini ma’muriy sudda isbotlash majburiyatini, uni qabul qilgan mansabdor shaxsning o’ziga yuklash tartibiga amal qilinishi qat’iy ta’minlansin;

- harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo’yicha yagona onlayn elektron reestr yuritilishi yo’lga qo’yilsin.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat ijtimoiy himoya siyosatining bir qator vazifalari belgilangan:

- 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to’liq qamrab olish;
- ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish, jumladan, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish;
- kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etish;
- “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo’lgan shaxslar bo’yicha alohida ma’lumotlar bazasini yaratish, jumladan, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” ni “Ijtimoiy himoya yagona reestri” bilan integratsiya qilish.

Bugungi kunda jahon taraqqiyotini belgilovchi tendentsiyalarni hisobga olganda, inson salohiyatining oshishi eng asosiy omillardan biridir. Shunday ekan, inson kapitali iqtisodiy qiymatga ega bo’lgan insonning bilimlari, ko’nikmalari, qobiliyat va rag‘batlari zaxirasidir. U ham insonga, ham jamiyatga istiqboldagi daromad va yuksalish manbai bo’lib xizmat qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, inson kapitali – inson ega bo’lgan bilim, ko’nikma va qobiliyatlar yig‘indisigina emas, balki u:

birinchidan, shunday zaxiraki, u yoki boshqa bir muhitda inson tomonidan ijtimoiy qayta ishlashga sarflanadi va mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o’sishiga imkon beradi;

Ikkinchidan, to’plangan bilim, ko’nikma va qobiliyatlar zaxirasidan maqsadga muvofiq foydalanishidir;

uchinchidan, daromadning ko’payishi odamni rag‘batlantiradi va qiziqtiradi, shuningdek yangi bilim va ko’nikmalar zaxirasini to’plashga va kelajakda ulardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Dunyo amaliyotida inson kapitaliga ajratiladigan sarmoyalar asosan umumiy va maxsus ta’lim olish, ish bilan ta’minlash, kasbiy tayyorgarlik, bolalarni voyaga yetkazish va boshqalar bilan bog‘liq sarf-harajatlarni o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan taraqqiyot strategiyasida bu masalaga ustuvor ahamiyat qaratilgan. Jumladan, ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni sezilarli darajada oshirish, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni hozirgi 67 foizdan 80 foizga oshirish nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, malakali o’qituvchilarning oylik maoshini ming AQSh dollari darajasiga yetkazish, aholini Oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish va boshqa masalalar inson kapitalini rivojlantirish davlatchiligimiz taraqqiyotida naqadar muhim ahamiyat ega ekanligining tasdig‘idir.

“Ma’naviy hayotimizda bo’shliq sezilmoqda. Ma’naviy immuniteti zaif bo’lgan ba’zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham begonalarga ko’r-ko’rona ergashmoqda. Milliy o’zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo’lmoqda, desak, to’g‘ri bo’ladi”, – dedi Prezidentimiz. – Shu munosabat bilan “Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat” kontseptsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqiladi”. Bizning nazarimizda, Ma’rifatli jamiyat Kontseptsiyasining maqsadi — aholining yoshlar qatlami o’rtasida huquqiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini oshirish mexanizmlarini tashkil qilish va Yangi O’zbekiston ustuvor maqsad-vazifalarini keng jamoatchilik, yoshlar qatlamiga ommabop tilda yetkazish orqali ma’rifatli jamiyat tizimini shakllantirish bo’lmog‘i lozim. Ushbu ezgu maqsadlarga erishish, uni amalda ro’yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

milliy ta’lim-tarbiya tizimi zaruriy tarkibiy qismlari, jumladan, fanlarni o’qitish metodologiyalarini o’quvchi-talabalarni erkin fikrlash, kreativ-innovatsion yondashish usullariga moslashtirish masalasini tubdan qayta ko’rib chiqish;

ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holatini sobiq ittifoq davri boshqarish uslubi nuqtai nazaridan tanqidiy baholash, xulosalar berish;

o’quvchilar va talabalarning fikrlash tarzi hamda jamiyatda o’zini tutishi holatidan kelib chiqib, Milliy etik qoidalarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

birinchi navbatda yoshlarning ong-u tafakkurini Yangi O’zbekiston strategiyasi talablari asosida shakllantirish mukammal mexanizmini ishlab chiqish va tasdiqlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Raxmanova. Nekotorie osobennosti razvitiya parlamentarizma v Uzbekistane // «Gumanitarniy traktat». №21. 2018.

2. Xakimov O. Strategiya Novogo Uzbekistana prodoljaet Strategiyu deystviy // Jurnal «Ekonomicheskoe obozrenie». №10 (262). 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbiplap to‘g‘ricida” gi 349-con qaropi. 10.05.2018. // https://lex.uz/docs/3730223

4. Saidolimov S. O‘zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlarga asoslangan faol va pragmatik yo‘l // Oriental renaissance: Innovative, edusational, natural and social scienses. – 2021. –T.1. – №.11.

5. https://daryo.uz/k/2022/07/25/songgi-6-yilda-qancha-odamga-ozbekiston-fuqaroligi-berilgani-malum-boldi/

6. 2022-2026 yillaρga mo‘ljallangan Yangi O‘zbeĸistonning taρaqqiyot stρategiyasi to‘g‘ρisida O‘zbeĸiston Pespublikasi Pρezidentining Faρmoni, №PF-60 //https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf

7. Saidov A. Yangi O‘zbekicton Taraqqiyot strategiyasi — inson qadrini ulug‘lagan Xalqchil bosh dastur. 28.01.2022. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur

8. Pardaev F.M. “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshirilgan islohatlar. // Kapital bozorini rivojlantirish va xususiylashtirish sharoitida korporativ boshqaruvni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent.: 2022.

9. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-60

10. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-60. 28.01.2022 y. https://lex.uz/docs/5841063

11. M.Nazirov, M.Yergashboev. Inson kapitali – Uchinchi Renesansning mustahkam poydevori // Islom tafakkuri. – 2021. – T. 1.

12. D.Rustamova. Inson kapitaliga sarflangan investisiyalar samaradorligini oshirish yo‘llari // Iqtisod va moliya. -2015. -№1.

13. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekicton strategiyasi. Toshkent, O‘zbekicton, 2021.

14. Omonov B. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirishga doir mulohazalar. Ideosphere jurnali, 2022 yil №3.

JALOLIDDIN RUMIY TA’LIMOTIDA SHAXS MA’NAVIY KAMOLOTI VA KADRLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AXLOQIY ASOSLARI

Jo‘raboyeva Ziroatxon Ravshan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy merosi orqali shaxs ma’naviy kamoloti va kadrlar salohiyatini yuksaltirish masalasi o‘rganiladi. Mutafakkirning sabr, mehr, nafsni jilovlash hamda ustoz-shogird munosabatlariga doir qarashlari zamonaviy kadrlar tayyorlash ehtiyojlari bilan qiyoslanadi. Inson kapitalini shakllantirishda ma’naviy qadriyatlarning tutgan o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy kamolot, inson kapitali, tasavvuf, axloqiy kompetensiya, nafs nazorati, murabbiylik, kadrlar rivoji.

KIRISH. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti oxir-oqibat unda yashayotgan odamlarning ichki sifatiga borib taqaladi. Texnologiya yoki iqtisodiyot emas — balki o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashadigan, boshqalarga hurmat ko‘rsatadigan, qiyinchiliklar oldida sinmaydigan insonlar taraqqiyot garovidir. "Uchinchi Renessans" strategiyasi aynan shunday kadrlarni shakllantirishni talab qiladi, ya’ni bilimli bo‘lishning o‘zi yetarli emas, u bilimni axloq bilan uyg‘unlashtirishni ham ko‘zda tutadi[1].

Bu masalada Jaloliddin Rumiy merosi oddiy tarixiy manbadan ko‘ra ko‘proq narsa. XIII asrda yashagan bu mutafakkir insonning ichki o‘zgarishi haqida shunday chuqur yozganki, uning so‘zlari bugun ham o‘z kuchini yo‘qotmagan. Kadrlar tayyorlash tizimiga u taqdim etadigan g‘oyalar zamonaviy pedagogika va boshqaruv psixologiyasining ilmiy topilmalaridan qolishmaydi[2].

Rumiy ta’limotida ko‘ra inson rivojini tashqaridan emas, ichkaridan boshlashi talab qilinadi. Uning nazarida odam biror yutuqqa erishsa-yu, ammo ichida hali ham g‘azab, hasad yoki kibr yashasa — bu haqiqiy muvaffaqiyat emas. Shuning uchun u kamolotni uch yo‘nalishda tasvirlaydi[3]:

– nafsni tartibga solish — ya’ni o‘z his-tuyg‘ulariga hukmdor bo‘lish;

– tafakkurni chuqurlashtirish — yuzaki ko‘rinishlar ortidagi haqiqatni ko‘ra olish;

– ruhiy poklanish — shaxsiy manfaatdan yuqoriga ko‘tarilish.

Bu uchlik zamonaviy psixologiyada "hissiy intellekt" nomi bilan o‘rganiladigan tushunchaga juda yaqin. Daniel Goleman kabi tadqiqotchilar ham kasbiy muvaffaqiyatni ko‘p hollarda aynan shular belgilashini isbotlagan. Faqat Rumiy buni bir necha asr oldin, boshqacha bir til bilan, lekin bir xil mazmunda ifodalagan.

Sabr haqida gap ketganda, Rumiy uni passiv kutish sifatida emas, balki bosim ostida ham o‘zini yo‘qotmaslik qudrati sifatida tushuntiradi. Mehr-muhabbat esa uning talqinida odamlar o‘rtasida ko‘prik quradigan kuch — bu tuyg‘u bo‘lmasa, hech qanday jamoaviy ish uzoqqa bormaydi[4]. Narpiyeva ham o‘z tadqiqotlarida Rumiy axloqiy kamolotni individual emas, ijtimoiy jarayon deb ko‘rganini alohida ta’kidlaydi[5].

Rumiy nafsni shunday tasvirlaydi: u ochiq dushman emas, ichki bir ovoz — doim qulaylikni, tezkorlikni, e’tirofni talab qiladi. Shu ovozga quloq tutgan odam avval o‘z fikriga, keyin boshqalarga zarar yetkazadi. Shuning uchun mutafakkir nafsni jilovlashni, o‘z xohishlarini ongli ravishda boshqarishni — shaxsiy o‘sishning eng birinchi sharti deb hisoblaydi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O’zbekiston, 2021. — 464 b.
[2] Rumiy J. Masnaviy Ma’naviy / Tarj. va izoh. Komil Avloniy. — Toshkent: Sharq, 2001. — 560 b.
[3] Rumiy J. Masnaviy Ma’naviy. — Ko’rs. asar. — B. 37.
[4] Rumiy J. Fihi ma fihi / Tarj. S. Ibrohimov. — Toshkent: Ma’naviyat, 2005. — 248 b.
[5] Narpiyeva M. Tasavvuf ta’limotida axloq va kamolot. — Toshkent: Ma’naviyat, 2015. — 176 b.

Bu jarayonni u bosqichma-bosqich ko‘rsatadi[1]:

– doimiy o‘z-o‘zini kuzatish — "men nima qilyapman va nima uchun?" degan savol bilan yashash;

– xatoni tan olish — uni yashirmasdan, undan o‘rganish;

– yaxshi fazilatlarni qasddan rivojlantirish — tabiiy emas, mehnat bilan.

Bu sxema Viktor Franklning logoterapiyasidagi "o‘zini anglash orqali ma’no topish" g‘oyasi bilan hayratlanarli darajada mos keladi. Maslow esa bunday insonlarni o‘z-o‘zini namoyon qila oladigan shaxslar deb atagan. Ular kasbiy muhitda ham, inqirozli vaziyatlarda ham barqaror turadi. Tashkilotlar uchun aynan shunday odamlar qimmatlidir[2].

Xoliqov ham bu masalaga e’tibor qaratgan: u ma’naviy tarbiyani kadrlar sifatini belgilovchi strategik omil deb ta’riflaydi. Raqobatbardosh muhitda axloqiy jihatdan yetuk mutaxassis nafaqat shaxsiy, balki tashkiliy barqarorlik uchun ham asosiy resursga aylanadi[3].

Rumiy g‘oyalarini ta’lim tizimiga kiritish haqida gap ketganda, ko‘pchilik bu mumkin emas deb o‘ylaydi — axir o‘rta asrlar falsafasi zamonaviy kasbiy ta’limga qanday mos kelsin? Aslida mos keladi, va hatto juda organik tarzda. Sababi Rumiy o‘rgatadigan narsalar — mas’uliyat, sabr, o‘zini boshqarish, ustoz-shogird munosabati — bugun ham ta’lim jarayonining eng zaif tomonlari bo‘lib qolmoqda[4].

Mentorlik institutini kuchaytirish masalasida Rumiy ta’limoti ayniqsa dolzarb. Uning nazarida ustoz shogirdga bilim uzatmaydi — u shogirdning o‘z ichidagi salohiyatini topishiga yordam beradi. Bu bugungi fasilitatorlik tushunchasining aynan o‘zi. Zamonaviy ta’lim bu yondashuvga o‘tishga harakat qilyapti, Rumiy esa buni ancha avval amalda ko‘rsatgan.

"Yangi O‘zbekiston" strategiyasi ham shuni ta’kidlaydi: raqobatbardosh kadr deganda bilimdon odam tushunilmaydi — axloqiy jihatdan yetuk, jamiyat oldida mas’uliyatni his qiladigan mutaxassis ko‘zda tutiladi[5]. Bu ta’rif Rumiy merosidagi komil inson obrazi bilan to‘liq mos keladi.

Amaliy jihatdan qaraganda, uchta yo‘nalish ustuvor bo‘lishi mumkin: ta’lim dasturlariga axloqiy kompetensiyaga doir kurslar kiritish, mentorlik tizimini rasmiylashtirish va uni ma’naviy-axloqiy tarkib bilan to‘ldirish, hamda talabalarni baholashda faqat bilim emas, shaxsiy o‘sishni ham hisobga oluvchi mezonlar joriy etish[6].

XULOSA. Rumiy asarlari bilan tanishganda bir narsa e’tiborni tortadi: u insonni o‘zgartirishi mumkin, deb ishongan. Va bu o‘zgarish tashqaridan emas — ichkaridan boshlanadi. Kadrlar tayyorlash tizimi ham shu nuqtaga qaytishi kerak: bilim berish bilan birga, o‘sha bilimni tashiydigan insonning ichki sifatini shakllantirishga e’tibor qaratsak, natija boshqacha bo‘ladi.

Sabr, mehr, nafsni jilovlash, murabbiylik — bular eskicha tushunchalar emas. Bular bugungi tez o‘zgaruvchan dunyoda ham ishlaydigan, sinab ko‘rilgan insoniy fazilatlar. Rumiy merosini ta’limga tatbiq etish — bu o‘tmishga qaytish emas, kelajak uchun poydevor qurishdir.

[1] Rumiy J. Masnaviy Ma’naviy. — Ko’rs. asar. — B. 102.
[2] Narpiyeva M. Tasavvuf ta’limotida axloq va kamolot. — Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
[3] Xoliqov A. Ma’naviy tarbiyaning falsafiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2018. — 192 b.
[4] Ergashev I. Kadrlar salohiyati va ma’naviy tarbiya. — Toshkent: Akademiya, 2020. — 210 b.
[5] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O’zbekiston, 2021.
[6] Komilova N. Tasavvuf va milliy ma’naviyat. — Toshkent: Fan, 2009. — 184 b.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR VA OILA MUNOSABATLARIDA IJTIMOIY-MADANIY AN’ANALAR TRANSFORMATSIYASI

Aliqulov Islom Olim o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti 1-kurs magstranti
Ilmiy rahbar: B.M. Qandov CHDPU dotsenti, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston jamiyatida yoshlar va oila munosabatlarining zamonaviy davrda kechayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Maqolada sotsiologik kuzatuvlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va ilg‘or ilmiy manbalar asosida oila institutining barqarorligini ta’minlashdagi madaniy transformatsiyaning o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, oila, ijtimoiy-madaniy transformatsiya, qadriyatlar, gender tengligi, globalizatsiya, O‘zbekiston.

O‘zbekiston jamiyati mustaqillik yillarida chuqur ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy hayotda, balki oila va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarda ham sezilarli tarzda namoyon bo‘ldi. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, migratsiya jarayonlari va g‘arb madaniyatining ommaviy kirib kelishi natijasida oila institutining mazmuni, qadriyatlar tizimi va yoshlarning hayotiy qarashlari sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Oila qadimdan o‘zbek jamiyatining asosiy tayanchi, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy qadriyatlarning uzviy saqlovchisi sifatida e’tirof etilgan. Ammo XXI asrning yangi ijtimoiy sharoitlari bu institutning ichki mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanat topishni taqozo etmoqda. Yosh avlodning dunyoqarashi, turmush tarzi, nikohga bo‘lgan munosabati va oila haqidagi tasavvurlari endilikda zamonaviy kommunikatsiya vositalari, internet madaniyati va ommaviy axborot manbalari orqali shakllanmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan yoshlar va oila institutini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (2016-yil 14-sentabr), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3839-son qarori, shuningdek, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yoshlar tarbiyasi va oila qadriyatlarini mustahkamlash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[1]. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda nikoh yoshining ortib borishi, ajrimlar sonining ko‘payishi, turmush tarzi va oilaviy qadriyatlardagi modernizatsiya jarayonlari sotsiologik tahlilni talab qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-madaniy an’analar transformatsiyasi jarayonini ilmiy o‘rganishning dolzarbligini oshirmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston yoshlarining oila munosabatlarida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlashdir.

Vazifalarni esa quyidagilardan iborat deb o‘ylayman: Oila va yoshlar munosabatlarining sotsiologik asoslarini tahlil qilish; Ijtimoiy-madaniy transformatsiyaning asosiy omillarini aniqlash; An’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zgarishlarni baholash; Oila institutini mustahkamlashda davlat siyosati va madaniy qadriyatlarning o‘zaro ta’sirini yoritish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda oila va yoshlar munosabatlaridagi o‘zgarishlar faqat ijtimoiy nuqtai nazardan emas, balki madaniy, axloqiy va kommunikativ omillar bilan birgalikda o‘rganiladi. Shuningdek, milliy an’analar va global madaniyat o‘rtasidagi dialektik o‘zaro ta’sirga alohida e’tibor qaratiladi. O‘zbekiston jamiyatida oila qadimdan ijtimoiy barqarorlikning tayanchi, madaniy va ma’naviy qadriyatlarning asosiy manbai sifatida qaralgan. Ijtimoiy olim Q. Abdurahmonov ta’kidlaganidek: “Oila – bu jamiyatning eng kichik ijtimoiy tizimi

bo‘lib, unda jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha unsurlari mujassam topgan”[2].

Bu fikr, oila jamiyatda nafaqat biologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy funksiya bajarishini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, oila orqali insonlar milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni, axloq me’yorlarini va madaniyatni avloddan avlodga uzatadi. Shu bois, oila ijtimoiy tizimda asosiy barqarorlik omili sifatida qaraladi. Ammo so‘nggi yillarda ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘zgarishlar natijasida bu barqarorlik yangi sinovlarga duch kelmoqda. Yoshlar orasida individualizm, iqtisodiy mustaqillikka intilish va shaxsiy hayot erkinligi qadriyatlari kuchaymoqda. Bu jarayon o‘z navbatida an’anaviy oilaviy munosabatlar modeliga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari ijtimoiy-madaniy transformatsiya mohiyati va omillariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu atamaga Inglehart va Welzel shunday ta’rif beradi: “jamiyatning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy institutlarining modernizatsiya jarayonida ma’lum darajada o‘zgarishlarga moslashuvi”ni bildiradi[3]. Bu nazariy qarashga tayanib aytish mumkinki, O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin sodir bo‘lgan transformatsiya nafaqat iqtisodiy sohada, balki ma’naviy va madaniy muhitda ham chuqur ildiz otgan.

Masalan, avvallari oilada erkakning ustun mavqei tabiiy hol sifatida qabul qilinar edi, bugungi kunda esa gender tengligi tamoyili ijtimoiy me’yorga aylanmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning nikohga bo‘lgan munosabatida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi - ular ko‘proq o‘z mustaqil tanlovini qadrlaydi, shaxsiy erkinlikni asosiy qadriyat sifatida e’tirof etadi. Bu o‘zgarishlar, menimcha, ijobiy jarayon sifatida baholanishi lozim, chunki ular jamiyatda demokratik tafakkur, shaxs erkinligi va mas’uliyat madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ammo bu holat bilan birga, individualizmning haddan ortiq kuchayishi oila birligini zaiflashtirishi mumkin, shu sabab, milliy qadriyatlarni himoya qilish zarur. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib yoshlar qadriyatlarida an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatga to‘xtaladigan bo‘lsam, bu haqida Karimova M. O‘z tadqiqotida shunday yozadi: “Bugungi o‘zbek yoshlarining oila haqidagi qarashlarida ikki qutb - an’anaviylik va zamonaviylik - o‘zaro raqobat holatida namoyon bo‘lmoqda. Biri hurmat, sabr, sadoqatni e’zozlasa, ikkinchisi shaxsiy erkinlik va o‘zini ro‘yobga chiqarishni ustuvor deb biladi”[4]. Bu tahlil O‘zbekiston yoshlari orasida qadriyatlar sintezi jarayoni ketayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, ular an’analarni inkor etmaydi, balki ularni zamon talablari asosida qayta talqin qilmoqda. Masalan, ilgari ota-onaning roziligisiz turmush qurish qabul qilinmas edi, hozirda esa bu qaror ko‘pincha yoshlarning shaxsiy tanloviga aylanmoqda. Shaxsiy fikrimcha, bu jarayon ijtimoiy muvozanatni buzmaydi, aksincha, oila institutining yangi, yanada moslashuvchan shaklini yaratadi. Chunki transformatsiya jarayoni an’analarni yo‘qotish emas, balki ularni yangicha ma’noda davom ettirish imkonini beradi. Bularsan tashqari oilaviy munosabatlarga globalizatsiya, internet madaniyati va raqamli transformatsiyaning ta’sirini ham qo‘shish mumkin deb o‘ylayman. Fikrimni Sotsiolog M. Castellsning “tarmoqli jamiyat” (network society) fenomenini ta’riflagan quidagi so‘zlari bilan izohlamoqchiman.

“Raqamli aloqa vositalari insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning shaklini o‘zgartirib, ularni geografik hududdan mustaqil, virtual aloqalar tizimiga aylantirdi”[5]. Bugungi o‘zbek yoshlarining oila, sevgi, nikoh haqidagi qarashlari ham aynan shu “virtual madaniyat” ta’sirida shakllanmoqda. Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalarda oila hayoti, nikoh, munosabatlar haqidagi ommaviy tasvirlar yoshlarning ongida yangi “axloqiy me’yorlar”ni yaratmoqda. Bu holatning ijobiy jihati - ochiqlik va erkin fikrlashning rivojlanishidir. Ammo salbiy tomoni - ayrim hollarda oilaning muqaddaslik konsepsiyasining nisbiylashuvi, shaxsiy manfaatning jamoaviy qadriyatlardan ustun qo‘yilishidir.

Bu borada, menimcha, O‘zbekiston ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va diniy-ma’naviy institutlar yoshlarni raqamli madaniyatning oqilona iste’molchisi bo‘lishga o‘rgatishi zarur. Chunki transformatsiya jarayonida eng muhim narsa — yo‘nalishning to‘g‘riligidir. O‘zbekiston jamiyatida yoshlar va oila munosabatlaridagi ijtimoiy-madaniy an’analar transformatsiyasi - bu ijtimoiy rivojlanishning tabiiy, ammo murakkab bosqichidir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda yoshlar qadriyatlari tizimi an’anaviylik va zamonaviylik

o‘rtasidagi dinamik muvozanat asosida shakllanmoqda. Bunda global axborot oqimi, raqamli madaniyat, gender tengligi va davlat siyosatining yo‘nalishlari bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu haqida Sotsiolog Q. Abdurahmonov ta’kidlaganidek: “Oila – bu jamiyatda madaniyat, qadriyat va axloqiy me’yorlarning uzviy shakllanadigan maktabidir; u yo‘qolsa, jamiyatning ijtimoiy tayanchi ham yemiriladi”[6]. Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, oila transformatsiyasi jarayonida eng asosiy vazifa - an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy sharoitga moslashtirish, ularning mazmunini yo‘qotmasdan yangilashdir. Chunki oila ijtimoiy barqarorlikning ildizidir, uni modernizatsiya nomi bilan zaiflashtirish emas, balki zamonaviy muhitda mustahkamlash zarur.

Bizningcha, Abdurahmonovning ushbu qarashi bugungi O‘zbekiston uchun g‘oyat dolzarb: oila “madaniyat maktabi” sifatida yoshlarni shunchaki jamiyatga tayyorlamaydi, balki ularni ma’naviy jihatdan shakllantiradi. Shu sabab, transformatsiya jarayonida milliy oila modeli o‘ziga xos “madaniy immunitet”ga ega bo‘lishi kerak - bu esa global bosimlarga qarshi turish, milliy identitetni saqlash va ma’naviy merosni davom ettirishga xizmat qiladi. Yakuniy xulosa sifatida shuni aytishim mimkinki, O‘zbekiston yoshlarida oila qadriyatlarining o‘zgarishi - ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy belgisi. Biroq bu o‘zgarishlar nazoratsiz kechmasligi, balki milliy qadriyatlar asosida boshqarilishi kerak. Shu yo‘sinda, transformatsiya jarayoni millatning madaniy barqarorligiga, oilaning mustahkamligiga va yoshlarning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ–3839- son qarori - “Yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

2. Abdurahmonov Q. Oila sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2020

3. Inglehart R. Welzel C. Modernization, Cultural Change, and Democracy. Cambridge University Press. 2005.

4. Karimova M. Oila qadriyatlarining modernizatsiya jarayonlari. O‘zbekiston Sotsiologiya jurnali, №3, 2021. 45–56-betlar.

5. Castells M. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell. 2010.

6. Bauman Z. Liquid Times: Living in an Age of Uncertainty. Polity Press, 2007.

DAVLAT VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI ISHONCH MUVOZANATINI MUSTAHKAMLASHGA DOIR KONSEPTUAL YONDASHUVLAR EVOLYUTSIYASI

U.O‘.O‘rinboyev
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, va siyosiy munosabatlarda ishonch muvozanatining rivojlanish evolyutsiyasi haqida so‘z boradi. Mavzuning dolzarbligi zamonaviy davlat boshqaruvidagi ahamiyati keng yoritilgan. Ushbu mavzuni o‘rganish davomida bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning asarlaridan nazariy metodologik manbaa sifatida foydalanilgan. Bundan tashqari adabiyotlar tahlil qilinib mavzu yuzasidan ulardagi o‘xshashlik va farqli jihatlari o‘rganilgan. Ijtimoiy va institutsional ishonch barqarorligini ta’minlashga doir bir qancha taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, jamiyat, ishonch va ishonch muvozanati, ijtimoiy munosabatlar, davlat xizmatchlari, liderlik qobilayati, kadrlar salohiyati, barqarorlik, konsepsiya va yondashuv, ijtimoiy birdamlik.

Davlat va jamiyatning paydo bo‘lishi kishilik tarixiy tafakkurining maxsuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarixan insonlar o‘zaro munosabatlarni ma’lum bir darajadagi ishonch asosiga qurishgan. Bu jarayon hanuzgacha shunday davom etib kelmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda

birinchi tomon ikkinchi tomonga muayyan manfaat yoki rag‘bat evaziga ishonch bildirgan. Bu yondashuv davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda xam o‘z aksini topgan. Davlat boshqaruvining taraqqiy etishi va jamiyat rivoji uchun, xalqning farovonligi, ularning kelajakka ishonch hamda islohotlarga nisbatan ijobiy ruhda qarashga da’vat etishda kadrlarning yuqori intellektual salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz ko‘plab buyuk sarkardalar va yetakchilar davlat boshqaruvini amalga oshirgani, ularning faoliyatiga esa bazan ijobiy bazan salbiy qarashlar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu davlat raxbarlari faoliyatining samaradorligi ularning xalq manfaatlariga xizmat qilganligi va odamlarni rozi qilishga qo‘shgan xissasi bilan baholanadi. Markaziy Osiyoda xukmronlik qilgan tarixiy shaxslar va ularning davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy boshqaruv usullari davlatchilik tarixida muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

“Jumladan, qadimgi Kushon podshohligida xukmdor Kanishka o‘zining siyosiy tafakkuri, donoligi va xarbiy mahorati bilan shuxrat qozongan bo‘lsa, Turk xoqonligida Bumin xoqon, Istami xoqon va Bilga xoqon kabi xarizmatik raxbarlar turkey xalqlarning birdamligini saqlab qolish va davlat qudratini oshirishda katta xissa qo‘shganlar. Shuningdek Qoraxoniylar davlatida Tamg‘achxonning, Somoniylar davlatida esa Ismoil Somoniyning yetakchilik sifatlari o‘z davlatining siyosiy va madaniy jihatdan yuksalishiga sabab bo‘lgan”[1].

Bunday davlatchilik silsilalarini uzviy davomi sifatida G‘aznaviylarning hukmronligini ham alohida ta’kidlash o‘rinli. Bu davrda ham bir nechta kuchli yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan davlat raxbarlari xukmronlik qilgan. Mahmud G‘aznaviy shulardan biri edi. U o‘zining mohirona davlat boshqaruvida davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda kuchli lider sifatida qaralgan.

Saljuqiylar davlatining hukmronligida ham yuksak siyosiy tafakkurga ega hukmdorlar Tug‘ril Beg, Alp Arslon, Malikshox va Sulton Sanjar sulolaning dovrug‘ini yetti iqlimga yoyishda kuchli iroda, yuksak xarbiy mahorat, xalq bilan birdamlik va ijtimoiy ishonchga tayandilar.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini o‘rganishga doir konsepsiyalar evolyutsiyasida Xorazmshoxlar davlati boshqaruv tizimi alohida ahmiyat kasb etadi. Ayniqsa Alouddin Muhammad Xorazmshohning hukmronlik davri va undan keyingi voris Jaloliddin Manguberdining vatan mudofaasi yo‘lidagi cheksiz jasorati tahsinga loyiq. U dushmanga qarshi turishda ijtimoiy ishonch va xalq birdamligi eng kuchli qudrat ekanligini anglagan holda yovga qarshi mardonavor kurashgani bilan tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 29-avgustda Urganch shaxrida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida buyuk sarkardaning xayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish va uning merosini xalqimiz, ayniqsa yoshlar orasida keng targ‘ib qilish muxim ekanini aloxida ta’kidlagan edi. Prezidentimiz Jaloliddin Manguberdining shaxsiyati haqida: “Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak xarbiy salohiyatni namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi.Ishonaman, oradan yillar, asrlar o‘tadi, Sulton Jaloliddin xamisha yurtimizni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylash, unga farzandlik mexri, iymon-e’tiqod bilan xizmat qilishning o‘chmas timsoli bo‘lib qoladi ”[2] deya ta’kidlagan edi. Jaloliddin Manguberdi uzoq muddat hukmronlik qilmagan bo‘lsada vatan mudofaasi uchun dushmanga qaqshatqich zarba bergan, shu bilan o‘zini jasur sarkarda sifatida namoyon etgan.

Sohibqiron Amir Temur barpo etgan ulkan markazlashgan davlatchilik va Temuriylar davri davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashga qaratilgan kuchli strategik siyosati bilan nafaqat O‘zbekiston balki butun dunyo tarixi uchun ahamiyatli davr hisoblanadi. Bu davrda ijtimoiy ishonchni shakllantiradigan asosiy manbaa bu Amir temurning “Kuch – adolatda” g‘oya bo‘lib. Adolat davlat boshqaruvining har jabhasida xalq ishonchini qozonishda bosh me’zon sifatida qaralgan. “Sohibqiron Amir Temur bobomiz biz, avlodlarga qoldirgan vasiyatida g‘oyat muhim bir fikrga urg‘u berib, “El dardiga darmon bo‘lmoq – ezgu vazifangizdir” deya ta’kidlagani,

[1] Саидова М. Янги Ўзбекистон давлат бошқарувида харизматик кадрларга муносабат эволюцияси // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2025. -№ 1(107). – Б. 48.
[2] O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytidan. https://uza.uz/posts/402934

albatta bejiz emas”[1]. Amir Temurning ushbu fikrlaridan ham bilishimiz mumkinki, o‘zbek davlatchiligi tarixi davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini asoslovchi kuchli evolyutsion bosqichlardan iborat. Temuriylar sulolasining yana bir yorqin vakili mohir sarkarda katta imperiya asoschisi Zaxiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Uning mohirona jang strategiyasi, kuchli davlat boshqaruvi, yuksak aql tafakkuri nafaqat o‘z xalqi balki e’tiqodi, millati va kelib chiqishi xar xil bo‘lgan xalqlarni ham bir bayroq ostida birlashtirishga yordam berdi. Uning bu ishlari Boburning buyuk birlashtiruvchi kuch sohibi bo‘lganini yana bir bor isbotlaydi. Z.M.Boburning buyuk shaxsligini hind siyosatchisi Javoharlal Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” nomli asarida Z.M.Boburga quyidagicha ta’rif beradi: “Bobur dilbar shaxs edi. Uyg‘onish davrining ajoyib sultoni kuchli, tadbirkor kishi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, go‘zallikni sevardi”[2].

Bu fikrlarning nechog‘lik rostligini Z.M.Boburning qoldirgan beqiyos ma’naviy merosidan ham bilishimiz mumkin.

Shuningdek O‘rta Osiyo hududida tarixan shakllangan amirlik va xonliklar hukumati davrida ham bir qancha hukmdorlar xalq va davlat o‘rtasida ishonchga tayangan holda hokimiyatni amalga oshirishgan. Ular jumlasiga Buxoro amiri Amir Xaydar, Qo‘qon xonligida islohotlarni amalga oshirgan Shohruhbey, Olimxon va Muhammad Alihonlarning davri e’tirof etiladi. Xiva xonligida Eltuzarxon va Muhammad Rahimxon I davri alohida axamiyatlidir.

Xonliklar tanazzulidan keyingi bosqich Sovet ittifoqi hukumatining qaror topishidir. Ushbu davrda davlat boshqaruvida raxbar va kadrlar to‘liq kommunistik ruhda tarbiyalandi.

“Bu davrda sotsializm g‘oyasi ilgari surilib, xarizmatik kadrlarga Shubha ostida qaralgan va ular inkor etilgan. Buning natijasida jamoat tashkilotlari o‘z oldilariga yolg‘on yoki xato maqsadlar qo‘yishga, majburiy volyuntaristik, o‘ylanmagan qarorlar qabul qilishga majbur bo‘lar edilar. Boshqaruv tizimida xodimlar soni keragidan ortiq miqdorda bo‘lib, raxbar kadrlarning tashabbuskorligi, ishbilarmonligi so‘ndirilgan va tizimning o‘zini o‘zi rivojlantirishga rag‘bati xam yo‘q edi. Shuningdek, boshqarish tizimi fan-texnika taraqqiyoti talablariga, sotsial-iqtisodiy extiyojlarning o‘sib borishiga moslasha olmas edi.”[3].

Bu jarayon mustaqillikdan keyin ham o‘z asoratlarini ko‘rsatmay qolmadi. Yangicha tafakkur va erkin fikrga ega kadrlarni tarbiyalash va ularni munosib davlat xizmati lavozimlariga qo‘yish osonlikcha kechmadi. Jumladan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab asosan huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlarida maxsus xizmatni o‘tash tartibi alohida qonunchilik bilan belgilandi. 2017-yildan boshlab mamlakatimizda barcha sohalarda tub islohotlar davri boshlandi. Bu davrga kelib Prezident Sh.Mirziyoyev kadrlar siyosatini yuritishda asosiy etiborni davlat xizmatchilarining yetakchilik, tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik hususiyatlariga , xalq bilan yaqinlik, muammolarni joyiga chiqqan holda aholining ichiga kirib o‘rganish mezonlariga qaratdi.

Albatta davlat fuqarolik xizmati faoliyatining huquqiy asosini yaratish Yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy shartlaridan biri edi. Buning natijasida 2022-yil 8-avgustda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son qonun qabul qilindi. Ushbu qonun tom manoda tarixiy bo‘lib mustaqil O‘zbekiston tarixidagi davlat fuqarolik xizmatini tartibga solib turuvchi yagona, asosiy huquqiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Albatta sohani huquqiy tartibga solish shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo‘naltirish, aholining davlat xizmatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish, sohaga istiqbolli kadrlarni jalb qilish va ularni professional mutaxassis etib tayyorlashning samarali tizimini joriy qilish, shuningdek, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini

[1] Салимов О., Куронбоев К., Бекмуродов М., Тангриев Л. Бошқарув хикмати. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – 2018. – Б. 38.
[2] Javoharlar Neru. “Hindistonning kashf etilishi” kitobidan.
[3] Рахимова Д., Абдулкосимов Х., Абдурахманов О. Бошқарув тизими ва рахбар – Т.: Тошкент давлат техника университети. – 2004. – Б. 38.

ta’minlash maqsadida”[1] 2025-yilning 19-iyun sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PF-95-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu normativ huquqiy hujjatlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini mustahkamlashda yuksak malakali va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan davlat xizmatchilarini tayyorlashda asosiy huquqiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” g‘oyasi bilan boshlangan keng qamrovli islohotlar, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu islohotlarning markazida inson uning qadr-qimmati va manfaatlarining ustuvorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinlarini himoya qilishni kafolatlash, jamiyatda ijtimoiy ishonchning barqarorligini mustahkamlash maqsadlari turibdi.

Ijtimoiy hayotdagi ushbu o‘zgarishlar doirasida ijtimoiy-siyosiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik mehanizmlari takomillashib, jamiyat a’zolarining davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi va qo‘llab-quvvatlovini oshirishga xizmat qiladigan tizimli yondashuvlar kuchaymoqda. Buning oqibatida O‘zbekiston jamiyati rivojlanishning sifat jihatidan mutlaqo yangi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanati mustahkamlanayotgan davrga kirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саидова М. Янги Ўзбекистон давлат бошқарувида харизматик кадрларга муносабат эволюцияси // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2025. -№ 1(107). –170 б.

2. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytidan. https://uza.uz/posts/402934

3. Салимов О., Қуронбоев К., Бекмуродов М., Тангриев Л. Бошқарув хикмати. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – 2018. – Б. 38.

4. Javoharlar Neru. “Hindistonning kashf etilishi” kitobidan.

5. Рахимова Д., Абдулқосимов Х., Абдурахманов О. Бошқарув тизими ва рахбар – Т.: Тошкент давлат техника университети. – 2004. – Б. 38.

6. https://www.lex.uz/uz/docs/-7587464 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PF-95-sonli farmoni.

IJTIMOIY MA’NAVIY JARAYONLAR VA KADRLAR SALOHIYATI O‘ZARO DEALIKTIKASI



Shamsiyabonu Egamqulova Jamshid qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘liqlik chuqur tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida ma’naviy muhitning o‘rni, uning inson kapitalini shakllantirishdagi ahamiyati hamda kadrlar salohiyatining ijtimoiy rivojlanishga ta’siri ilmiy-nazariy asosda yoritib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar, ta’lim tizimi, madaniy meros va innovatsion yondashuvlarning malakali kadrlarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy jarayonlarning dinamik rivoji kadrlar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi, o‘z navbatida, yetuk va salohiyatli kadrlar jamiyatning ma’naviy-axloqiy darajasini yuksaltirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.Bundan tashqari, globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlar, axborot oqimining keskin ortishi va zamonaviy talablar

[1] https://www.lex.uz/uz/docs/-7587464 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PF-95-sonli farmoni.

kadrlar tayyorlash tizimiga yangi yondashuvlarni talab qilayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Ijtimoiy-ma’naviy muhitning sog‘lomligi kadrlarning intellektual, axloqiy va kasbiy jihatdan barkamolligini ta’minlashda asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida davlat siyosati, ta’lim-tarbiya tizimi va fuqarolik jamiyati institutlarining bu jarayondagi o‘rni ham yoritilgan.

Mazkur ishda ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi uzviylik, ularning o‘zaro ta’siri hamda dialektik rivojlanish qonuniyatlari ochib berilib, ushbu yo‘nalishda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar:ijtimoiy jarayonlar, ma’naviy muhit, kadrlar salohiyati, dialektik bog‘liqlik, inson kapitali, ta’lim tizimi, innovatsiya, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy rivojlanish, kadrlar tayyorlash.

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashgan davrda jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan ijtimoiy-ma’naviy muhitning holati hamda inson kapitalining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Har qanday davlatning barqaror rivoji, uning iqtisodiy qudrati va ijtimoiy farovonligi, avvalo, yetuk, bilimli, tashabbuskor va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan kadrlar salohiyati bilan belgilanadi. Shu bois ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘liqlikni ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar jamiyatning axloqiy qadriyatlari, madaniy merosi, dunyoqarashi va ijtimoiy ongini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonlar insonning shaxs sifatida kamol topishida, uning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, kadrlar salohiyati – bu jamiyatning intellektual, kasbiy va ma’naviy imkoniyatlarini mujassam etgan tizim bo‘lib, u ijtimoiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir.Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-ma’naviy muhitning sog‘lomligi va barqarorligi kadrlar salohiyatini yuksaltirishda muhim shartlardan biri sifatida qaraladi. Chunki ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirmasdan turib, yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalash mushkuldir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro dialektik munosabatlarni tahlil qilish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berish hamda ushbu yo‘nalishda samarali mexanizmlarni aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘liqlik jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Dialektik yondashuvga ko‘ra, bu ikki omil bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro ta’sir va rivojlanish jarayonida uyg‘unlashib boradi. Ya’ni, jamiyatdagi ma’naviy muhit qanchalik yuksak bo‘lsa, unda shakllanayotgan kadrlarning sifat darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. O‘z navbatida, yetuk va malakali kadrlar jamiyatning ma’naviy-axloqiy darajasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.Avvalo, ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarning mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular jamiyatda shakllanadigan qadriyatlar tizimi, axloqiy me’yorlar, madaniy an’analar va ijtimoiy ongning rivojlanish darajasini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar insonning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va hayotiy pozitsiyasini belgilaydi. Aynan shu omillar asosida shaxsning kasbiy faoliyati, mas’uliyati va jamiyat oldidagi burchiga bo‘lgan munosabati shakllanadi. Demak, ijtimoiy-ma’naviy muhit – bu kadrlar salohiyatining shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Kadrlar salohiyati esa jamiyatning intellektual va kasbiy resurslari majmui sifatida qaraladi. U nafaqat bilim va ko‘nikmalar darajasi, balki shaxsning ijodkorligi, tashabbuskorligi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy yetukligini ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy sharoitda kadrlar salohiyati innovatsion rivojlanishning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Shu bois, ta’lim tizimi orqali nafaqat bilim berish, balki ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni ta’lim tizimi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni ma’naviy jihatdan kamol toptiruvchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Bu yerda yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va

qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Natijada jamiyat uchun zarur bo‘lgan raqobatbardosh va yetuk kadrlar shakllanadi.

Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari ijtimoiy-ma’naviy muhitga ham, kadrlar salohiyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli madaniyatlar, g‘oyalar va qarashlar o‘rtasida keskin almashinuv yuz bermoqda. Bu esa bir tomondan yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ma’naviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitda kadrlar salohiyatini rivojlantirishda ularning tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifaga aylanadi.Shuningdek, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari ham mazkur jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan islohotlar, yoshlar siyosati, ta’lim va tarbiya tizimidagi yangilanishlar kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi o‘zaro dialektik bog‘liqlik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Mazkur ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi, rivojlantiradi va o‘zaro ta’sir jarayonida yangi sifat bosqichlariga ko‘tariladi. Ya’ni, sog‘lom va barqaror ma’naviy muhit yetuk, bilimli va mas’uliyatli kadrlarni shakllantirsa, yuqori salohiyatga ega kadrlar esa jamiyatning ma’naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltiradi.Zamonaviy globallashuv sharoitida ushbu o‘zaro bog‘liqlikning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki axborot oqimining keskin kuchayishi, turli g‘oyaviy ta’sirlarning kengayishi kadrlarning nafaqat kasbiy, balki ma’naviy jihatdan ham yetuk bo‘lishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarning intellektual va axloqiy salohiyatini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu yo‘nalishda olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi.Umuman olganda, ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni ta’minlash jamiyatning barqaror rivojlanishi, milliy taraqqiyot va kelajak avlod kamoloti uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent, 2022.
-Elektron boshqaruv tizimlari (e-management) — ta’lim jarayonlarini monitoring qilish va nazorat qilish imkonini beradi;

-Learning Analytics — talabalar faoliyatini tahlil qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

-Sun’iy intellekt texnologiyalari — individual ta’lim traektoriyalarini shakllantirishda qo‘llaniladi;

Bulutli xizmatlar — ma’lumotlarni saqlash va ulardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari

Raqamli ta’lim muhitida oliy ta’limni boshqarish samaradorligini baholash quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi:ta’lim sifatining oshishi; talabalarning akademik faolligi; pedagoglarning raqamli kompetensiyalari; ta’lim jarayonining shaffofligi; boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligi.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi yutuqlar oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayoni uchun ancha keng imkoniyatlarni ochdi. Raqamli texnologiyalar ma’lumotni istalgan joydan va turli mamlakatlar va qit’alardagi barcha odamlar guruhlari tomonidan uzatish uchun imkoniyatni yaratdi. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayoniga yaxshi integratsiyalashgan va talabaning universitetdan tashqaridagi kundalik hayotining bir qismiga aylandi.

Bunday sharoitda axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq ta’limdagi integratsiya jarayonlari bilim talab qiladigan sohalarni rivojlantirishga, odamlarning kasbiy faoliyatining intellektual darajasini oshirishga va samarasiz mehnat ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi. Raqamli voqelikning jadal rivojlanishi va joriy etilishi insoniyatni kelajakdagi taraqqiyot yo‘nalishini tanlashdan oldin inson faoliyatining barcha sohalari oldiga qo‘yadi. Bu kasbiy tayyorgarlikning asosiy klasteri sifatida oliy ta’lim tizimiga to‘liq taalluqlidir.

Raqamli jamiyat sharoitida axborot strategik manbaga aylanadi, uning rivojlanishi uchun psixologik sharoitlar ramziy faoliyat bilan yaratiladi. O‘quv jarayonida uni o‘zlashtirish bilimlarni namoyish etishning turli modellari va texnologiyalarini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi, bu esa,

o‘z navbatida talabalarning aqliy funksiyalarining murakkablashishiga ta’sir qiladi. Buning yordamida ta’lim sifatini yaxshilash, sub’ektlarning o‘zaro ta’sirining yangi shakllari va vositalarining paydo bo‘lishi, yagona raqamli ta’lim makonining ishlashi va rivojlanishini ta’minlash mumkin.

Raqamli inqilobning ta’siri va raqamli makonning jamiyat, inson va sivilizatsiya rivojlanish istiqbollariga ta’siri katta ahamiyatga ega. Aynan shu ta’sir falsafiy va uslubiy tahlilni va umuman ta’limni, xususan, oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Amaldagi amaliyot raqamli texnologiyalarni joriy etishni e’tiborsiz qoldirishga imkon bermaydi, shu bilan birga u faqat raqamli uskunalar yoki qurilmalarga e’tibor qarata olmaydi, aksincha, ta’lim va uning rivojlanish istiqbollariga alohida e’tibor berishni talab qiladi.

Zamonaviy hayotning raqamli tabiati va raqamlashtirishning keng tarqalishi jamiyat rivojlanishining eng muhim jihatlariga, shu jumladan o‘sish, barqarorlik, farovonlik, tenglik, xavfsizlik, iqtisodiyot va siyosatga katta ta’sir ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalarning tubdan yangi imkoniyatlari tufayli dunyoqarash yondashuvlarida paydo bo‘layotgan turli xil o‘zgarishlarni yagona yaxlit manzaraga kiritishni talab qiladigan o‘zgarishlar mavjud. Bu pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot, falsafa, chet tili sohasidagi tadqiqotlardan dalolat beradi.

Taqdim etilgan tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, “aslida insonning dunyoga ta’sir doirasini kengaytirishning yangi bosqichi ro‘y bermoqda va bu kengayishda inson nafaqat dunyoni o‘zgartira boshlaydi, balki yangi erkinlik darajalarini o‘zlashtira boshlaydi, o‘zining interaktiv g‘oyalarini yangi hayotda amalga oshirishga intiladi. Olimlarning ta’kidlashicha, bugungi kunda inson uchun “munosabatlar makoni” deb nomlangan yangi makon yaratilmoqda.

Tadqiqotchi M.A. Dedyulina axborot texnologiyalari va insonning kundalik faoliyati, shu jumladan, ta’lim va o‘qitish integratsiyasi sharoitida inson xulq-atvoridagi munosabat va o‘zgarishlar haqida gapiradi. Muallifning ta’kidlashicha, axborot va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari muvaffaqiyatli faoliyat va e’tiqodlar jarayoniga asoslangan o‘zaro aloqani tubdan o‘zgartiradi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, ushbu jarayonning ikkita darajasini ajratish mumkin: makro daraja va mikro daraja. M.A. Dedyulina tomonidan aniqlangan ishontirish darajasini aniqlash va bilish zarurati zamonaviy kompyuterlar va texnologiyalar yordamida aniqlangan imkoniyatlarni tahlil qilishni hisobga olgan holda shaxsni aniqlash jarayonini, shuningdek, uning mashg‘ulotlarini loyihalashtirish jarayonini osonlashtirishga yordam beradi [1,2].

Muallif o‘z tadqiqotida misol tariqasida “mikro darajadagi ishontirishni kompyuter va foydalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa elementi bo‘lib xizmat qiladigan ba’zi dialog oynalarida tashkil etish va rivojlantirish mumkin. Internet saytlarida ishlab chiquvchilar tanlangan kurs ustida ishlashni davom ettirish va uni o‘zlashtirishda muvaffaqiyat qozonish uchun foydalanuvchilarni rag‘batlantirish usullaridan ham foydalanadilar. Bu, birinchi navbatda, har bir kursning qat’iy o‘quv jadvali va belgilangan tugash sanasi borligi bilan bog‘liq, har bir harakat yoki sessiyada foydalanuvchilarga qancha materialni to‘ldirganliklarini, shuningdek, qolgan materiallar miqdorini aniqlashga yordam beradigan kuzatuv funksiyalari mavjud” [2].

Faylasuf K.Vaelbers o‘z tadqiqotida zamonaviy dunyodagi texnologiyalar insonning kundalik hayoti va uning atrof-muhitining bir qismi ekanligini aytadi. O‘zining ilmiy ishida u “texnologiyalar odamlar va haqiqat o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro aloqalarni o‘rnatishda o‘ziga xos vositachi ekanligini” ta’kidlaydi [3]. Texnologiyalarga o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik xususiyatlarini berish orqali “inson o‘z foydalanuvchilari dunyosida, ularning harakatlarini shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Raqamli ta’lim muhitida oliy ta’limni boshqarish — bu kompleks, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u zamonaviy texnologiyalar, ilmiy yondashuvlar va innovatsion boshqaruv usullarini integratsiyalashni talab etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va global ta’lim makonida munosib o‘rin egallash imkonini beradi. Shu bois, raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’limni boshqarishning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalilgan adabiyotlar:

1. Denisova, L.B. Stanovlenie samostoyatelnosti studenta v obrazovatelnom protsesse [Tekst]: dis. ... kand. ped. nauk / L.V. Denisova. - Orenburg, 2006. - 192 s.
2. Dedyulina, M.A. Sovremennaya estetika/ M.A. Dedyulina. Uchebnoe posobie. Texnologicheskiy institut YuFU, 2008. - 64 s.
3. Waelbers K. Doing Good with Technologies: Taking Responsibility for the Social Role of Emerging Technologies, Philosophy

O‘QUVCHI-YOSHLARDA SOG‘LOM FIKRLASH TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ergashev Rustam Nadjimovich
Guliston davlat pedagogika instituti
professori v.b., ped. fan. nomzodi

Annotatsiya: tezisda o‘quvchi-yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularda (jismoniy, psixologik, ma’naviy, ijtimoiy jihatdan) sog‘lom fikrlash tafakkurini shakllantirishning dolzarb vazifalari, uni amalga oshirish texnologiyalari, samarali vosita va metodlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Asosiy tushuncha va iboralar*:* sog‘lom fikrlash, jismoniy, psixologik, ma’naviy, ijtimoiy sog‘lom fikrlash, pedagogik texnologiya, sog‘lom fikrlash texnologiyasi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagogik tamoyillar, relaksatsiya mashqlari, muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan topshiriqlar.

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, unda sog‘lom fikrlashni shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sog‘lom fikrlash – bu shaxsning jismoniy, psixologik, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan muvozanatli holda fikrlashi, voqelikni to‘g‘ri anglab, ongli va mas’uliyatli qaror qabul qila olish qobiliyatidir. Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyalar muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya – ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, rejalashtirish va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir. [5] Sog‘lom fikrlash texnologiyalari esa o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularda mustaqil, tanqidiy va ijobiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etiladi. Psixologik nuqtai nazardan sog‘lom fikrlash shaxsning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, o‘z-o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim jarayonida sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, ularni rag‘batlantirish sog‘lom fikrlashni rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Shu bois pedagogik texnologiyalar psixologiya fanining yutuqlariga tayangan holda ishlab chiqiladi. [3]

Sog‘lom fikrlashni shakllantirishda pedagogik tamoyillar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, tizimlilik, izchillik, uzviylik, faoliyatga yo‘naltirilganlik, individual yondashuv tamoyillari sog‘lom fikrlash texnologiyalarining asosini tashkil etadi. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimida sog‘lom fikrlashni shakllantirish innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, trening mashg‘ulotlari, refleksiya va bahs-munozaralar o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahatchi rolini bajarib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. [1]

Xulosa qilib aytganda, sog‘lom fikrlash texnologiyalarining pedagogik-psixologik asoslari o‘quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalar ta’lim jarayonida samarali qo‘llanilganda, o‘quvchilarda ijobiy dunyoqarash, mas’uliyat, ijtimoiy faollik va ma’naviy yetuklik shakllanadi.

O‘quvchilarda sog‘lom fikrlashni shakllantirishda jismoniy va psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Jismoniy va psixologik sog‘lomlik shaxsning umumiy rivojlanish darajasini belgilab, uning ta’lim jarayonidagi faolligi va muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois pedagogik texnologiyalarni qo‘llash jarayonida ushbu ikki yo‘nalishga alohida e’tibor qaratiladi.

Jismoniy sog‘lom fikrlash o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi, harakat faolligi, mehnat va dam olish rejimiga rioya etishi bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim jarayonida jismoniy sog‘lomlikni ta’minlash uchun sog‘lomlashtiruvchi pedagogik texnologiyalar, ya’ni dinamik tanaffuslar, harakatli mashqlar, jismoniy faollikni rag‘batlantiruvchi metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarning diqqatini jamlash, charchoqlarni kamaytirish va fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Psixologik sog‘lom fikrlash esa o‘quvchining ruhiy barqarorligi, ijobiy emotsional holati, stressga chidamliligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan belgilanadi. Ta’lim muassasasida qulay psixologik muhit yaratish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sog‘lom muloqotni yo‘lga qo‘yish psixologik sog‘lom fikrlashning asosiy shartlaridan biridir. Pedagogik texnologiyalar bu jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan va insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi.

Psixologik sog‘lom fikrlashni rivojlantirishda trening mashg‘ulotlari, relaksatsiya mashqlari, muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan topshiriqlar samarali hisoblanadi. Interaktiv metodlar, jumladan, “Aqliy hujum”, “Rol o‘ynash”, “Bahs-munozara” texnologiyalari o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy va psixologik sog‘lom fikrlash texnologiyalarini uyg‘un holda qo‘llash o‘quvchilarning barkamol rivojlanishini ta’minlaydi. Bunday texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirib, o‘quvchilarda ijobiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy muammolarga to‘g‘ri munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ma’naviy sog‘lom fikrlash o‘quvchilarning axloqiy qarashlari, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy yetukligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy sog‘lom fikrlashni shakllantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalar muhim tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. [2]

Ma’naviy sog‘lom fikrlash o‘quvchilarda yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarning shakllanishini ta’minlaydi. Ushbu fazilatlarni rivojlantirishda tarbiyaviy texnologiyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish muhimdir. Pedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarga axloqiy me’yorlar tizimli va izchil tarzda singdiriladi.

Sharq mutafakkirlari, xususan, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida ma’naviy sog‘lom fikrlash g‘oyalari alohida o‘rin egallaydi. Ular insonning komillikka erishishi uchun bilim bilan bir qatorda yuksak axloq va sog‘lom tafakkur zarurligini ta’kidlaganlar. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham pedagogik texnologiyalar mazmunini boyitishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviy sog‘lom fikrlashni shakllantirishda suhbat, munozara, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, hayotiy misollar asosida olib boriladigan mashg‘ulotlar samarali hisoblanadi. Shuningdek, refleksiya va baholash texnologiyalari orqali o‘quvchilarning o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy sog‘lom fikrlash texnologiyalari o‘quvchilarning ichki dunyosini boyitib, ularni jamiyatda faol, mas’uliyatli va vatanparvar shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar ta’lim va tarbiya jarayonining uzviyligini ta’minlaydi.

Zamonaviy jamiyatda o‘quvchilarning ijtimoiy sog‘lom fikrlashini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sog‘lom fikrlash — bu shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri anglay olishi, ijtimoiy munosabatlarga ongli va mas’uliyatli yondashishi, jamoa bilan samarali muloqot qila olish

qobiliyatidir. Ushbu sifatlarni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy sog‘lom fikrlash o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, hamkorlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari, loyihaviy ta’lim, muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ijtimoiy sog‘lom fikrlashni shakllantirishda interaktivlik va faol ishtirokni ta’minlaydi. “Debat”, “Keys-stadi”, “Rol o‘ynash”, “Ijtimoiy loyiha” kabi metodlar o‘quvchilarning muloqot madaniyatini oshirib, ijtimoiy muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlash va jamoaviy qaror qabul qilishni o‘rganadilar. [4]

Ijtimoiy sog‘lom fikrlashni rivojlantirishda ta’lim muassasasi, oila va jamiyat hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Pedagogik texnologiyalar ushbu hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qilib, tarbiyaviy ishlarning uzviyligini ta’minlaydi. Ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirlar, ijtimoiy loyihalar va tarbiyaviy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning jamiyatga moslashuvini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ijtimoiy sog‘lom fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning jamiyatda faol, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirib, o‘quvchilarda ijtimoiy yetuklik va fuqarolik pozitsiyasini qaror toptiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A. Ta’limda sog‘lom muhit va innovatsiyalar. - T.: 2020.
2. Karimova V.M. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: 2019.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: Fan, 2018.
4. Yo‘ldoshev J.G‘. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T.: O‘qituvchi, 2020.

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASIDA INSON HUQUQLARI

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi tahlil qilinadi. Barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlari inson huquqlarini ta’minlash bilan qanday uyg‘unlashishi yoritiladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida inson huquqlarini himoya qilishning ahamiyati, davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning roli tahlil qilinadi. Maqolada inson huquqlarini ta’minlash barqaror rivojlanishga erishishning muhim sharti ekanligi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, ekologik muvozanat, iqtisodiy rivojlanish, tenglik, xalqaro hamkorlik, global rivojlanish.

XXI asrda global rivojlanish masalalari insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik va iqtisodiy nomutanosiblik kabi muammolar barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning muhim yo‘nalishiga aylandi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari 2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan bo‘lib, ular 2030-yilgacha amalga oshirilishi rejalashtirilgan global rivojlanish strategiyasini ifodalaydi. Ushbu dastur dunyodagi qashshoqlikni kamaytirish, tenglikni ta’minlash, ekologik muammolarni hal qilish

hamda inson farovonligini oshirishga qaratilgan 17 ta asosiy maqsadni o‘z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish g‘oyasi inson huquqlarini ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir. Inson huquqlari esa har bir shaxsning erkinligi, tengligi va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan universal qadriyatlar majmuasidir. [1]

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilk bor XX asr oxirlarida xalqaro miqyosda keng qo‘llanila boshladi. Ushbu konsepsiya rivojlanish jarayonida iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta’kidlaydi. Barqaror rivojlanishning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish jarayonida kelajak avlodlarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga zarar yetkazilmasligi lozim. Bu yondashuv jamiyat taraqqiyotini uzoq muddatli istiqbolda ta’minlashga xizmat qiladi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi.

Barqaror rivojlanish uch asosiy ustunga tayanadi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik. Iqtisodiy barqarorlik jamiyatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda aholining turmush darajasini yaxshilashni nazarda tutadi. Ijtimoiy barqarorlik esa jamiyatda tenglik, ijtimoiy adolat, inson huquqlarini ta’minlash va aholining barcha qatlamlari uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Ekologik barqarorlik esa tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik muvozanatni saqlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu uch yo‘nalish bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un holda rivojlanishi barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Agar mazkur yo‘nalishlardan biri yetarli darajada rivojlanmasa yoki e’tibordan chetda qolsa, bu umumiy rivojlanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari – har bir inson tug‘ilgan paytidan boshlab ega bo‘ladigan ajralmas va universal huquqlardir. Ushbu huquqlar insonning millati, irqi, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat’i nazar barcha insonlarga teng darajada tegishlidir. Inson huquqlari insonning qadr-qimmati, erkinligi va tengligini ta’minlashga xizmat qiladi hamda har bir shaxsning jamiyatda munosib hayot kechirishini kafolatlaydi. Zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda inson huquqlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari odatda bir necha asosiy guruhlarga bo‘linadi. Avvalo, fuqarolik va siyosiy huquqlar insonning shaxsiy erkinligi va siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatini ta’minlaydi. Bular jumlasiga yashash huquqi, so‘z erkinligi, fikr bildirish erkinligi, vijdon erkinligi, saylash va saylanish huquqi kabi huquqlar kiradi. Ushbu huquqlar fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga hamda jamiyatda demokratik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar ham inson farovonligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu huquqlar ta’lim olish, mehnat qilish, munosib ish sharoitlariga ega bo‘lish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish hamda ijtimoiy himoya bilan ta’minlanish kabi imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur huquqlar insonning munosib turmush darajasiga erishishiga va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, madaniy huquqlar ham inson rivojlanishining muhim jihatlaridan biridir. Madaniy huquqlar insonning milliy va umuminsoniy madaniyatdan foydalanish, madaniy hayotda ishtirok etish hamda ilmiy va texnologik yutuqlardan bahramand bo‘lish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu huquqlar insonning ma’naviy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi hamda jamiyatda madaniy xilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Umuman olganda, inson huquqlarini ta’minlash har qanday demokratik jamiyatning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki inson huquqlari hurmat qilinadigan va himoya qilinadigan jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy faolligi yuqori bo‘ladi, jamiyat barqaror rivojlanadi hamda davlat va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonch mustahkamlanadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan global strategiya sifatida qaraladi. BRMlarning deyarli barchasi inson huquqlarining muhim jihatlari bilan bevosita bog‘liq. Masalan, qashshoqlikni tugatish insonning munosib hayot kechirish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. Qashshoqlik inson huquqlarining buzilishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

[2] Sifatli ta’limni ta’minlash ham inson huquqlarining muhim tarkibiy qismidir. Ta’lim insonning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi va jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, gender tengligini ta’minlash va toza atrof-muhitni saqlash kabi maqsadlar ham inson huquqlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ekologik muammolar ham inson huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi inson salomatligiga hamda yashash sharoitlariga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli ekologik barqarorlikni ta’minlash ham inson huquqlarini himoya qilishning muhim qismidir.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda davlat siyosati muhim o‘rin tutadi. Davlatlar iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda inson huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va ta’minlash tamoyillariga amal qilishi zarur. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlar ham barqaror rivojlanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ular aholining ijtimoiy faolligini oshirish, davlat siyosatini monitoring qilish va inson huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Xalqaro hamkorlik ham bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Global muammolarni hal qilish uchun davlatlar o‘zaro hamkorlik qilishi va tajriba almashishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir. Inson huquqlarini ta’minlash barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biridir. Inson huquqlari hurmat qilinadigan jamiyatda ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanat ta’minlanadi. Shu sababli davlatlar barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirish jarayonida inson huquqlarini ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqishi zarur. Bu esa nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlodlar uchun ham barqaror va farovon hayotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidkulov, N. (2024). Jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalari. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 2(1), 199-201.

2. Saidkulov, N. (2024). Sustainability transformation: issues for ensuring societal well-being through human capital development. Tamaddun nuri jurnali, 10(61), 111-114.

РОЛЬ ПЛЕМЕН ПУСТИНЫ В ФОРМИРОВАНИИ УСРУШОНСКИХ МОГИЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЙ

Тугалов Б.
Джизакский государственный педагогический университет,
кафедра истории Узбекистана (кандидат наук), доцент,
исполняющий обязанности профессора

Ключевые слова: Уструшона, могильные сооружения, Евразия, андроновские пастушеские племена, степные племена, дынная культура, Средняя Азия.

По материалам могил эпохи поздней бронзы в районе древней Уструшоны можно сказать, что до н.э. С рубежа II - I тысячелетий оазисы, пригодные для скотоводства, и богатые металлами месторождения этой области свидетельствуют о начале проникновения андроновских скотоводческих племен.[1]. Памятники, принадлежащие

[1] Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир \\ Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. Урганч, 2022. – Б.55-59.

этому населению, сохранились в основном как погребальные сооружения. Перечисленные и изученные каменные могилы-коробки принадлежат культуре племен, пришедших из евразийских степей в эпоху бронзы.

Ученые изучили активное участие андроновских степных скотоводческих племен Южного Урала, Среднего Казахстана и Западно-Сибирских степей в памятниках, связанных с этим процессом. Распространение степных племен в Средней Азии и картография памятников отражены в литературе разных периодов. Они также встречаются в Зарафшанском, Ферганском, Тяньшань-Эттисувском и Ташкентском оазисах, на берегах бассейна Узбоя, на юго-западе Туркмении, в нижнем Мургобе, в Сурханском оазисе, на юге Таджикистана и на севере Афганистана[1]. К настоящему времени в Зарафшанский вариант Андроновского историко-культурного образования включено 30 памятников скотоводческой культуры эпохи бронзы, выявленных только в Зарафшанском оазисе. Распространение памятников скотоводческих племен степей на склонах Тянь-Шаня, Памирских гор и в оазисах крупных рек (Пяндж, Вахш, Амударья, Зарафшан, Норин) свидетельствует о массовом характере миграций. Одной из причин перемещения степных племен с севера на юг является необходимость животноводства для освоения новых пастбищ и мест, богатых водными источниками, а развитие горного дела в эпоху бронзы имело большое значение. Наряду с природными месторождениями меди, свинца и олова важную роль во взаимных экономических связях племен Центрального Казахстана, Кызылкумов, Заравшанского оазиса, играло использование редких металлов, таких как золото, серебро, драгоценные камни лазурит и бирюза. и горы Памир-Хиндикуш. Эти культурные связи хорошо прослеживаются в погребальном инвентаре этого периода.

Мил. авв. В результате тектонических поднятий, произошедших в Средней Азии в III веке, произошли резкие изменения в ландшафте нижнего течения реки Сырдарья, и русло реки начало впадать с севера в Аральское море. приняв свой нынешний вид. Южные притоки Сырдарьи – Окчадарья, Кувондарья, Инкордарья – пересохли[2]. В результате археологические культуры Чирикработ и Джетиасар полуоседлых и полукочевых племен, основавших крупные политические объединения, разгромили Кира II и погибли после почти двухсот лет успешного развития, они были вынуждены переселиться на западные, южные территории. и восточных стран. Исследователь Ф.Э. По мнению Тошбоева, под влиянием пришедших в этот период людей в Уструшоне получили широкое распространение гробницы с крыльцами и катакомбами, традиции кремации, керамические сосуды с одной стороной[3]. Конечно, эта миграция происходила не быстро, а постепенно, с определенными периодами.

Миграции, имевшие место в древности, были активны в раннем средневековье и оказали большое влияние на социальные и культурные процессы в нашей стране. В это время создавались новые знаковые образцы материальной и духовной культуры. В источниках раннего средневековья Уструшона упоминается также среди земледельческих поместий Средней Азии, таких как Согд, Чоч, Фергана. В раннем средневековье, т.е. IV-VI веках нашей эры, история Средней Азии объясняется проникновением во внутренние области Моваруннахра кочевых племен, таких как хьяни, кидари, эфтали и тюрки, и возникновением новых политических объединений.

Такие изменения качества и формы материальных ресурсов, образовавшиеся в результате этих миграций и основанные на местных традициях, в науке получили название «ковунчинская культура». А.Аскаров сообщил: «Ее этническую основу составили местные

---

[1] Abdullayev U.I. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi: Tarix fan. dokt. (DSc). diss... – Urganch: O‘zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti. 2019. - B. 116-119.

[2] Сулейманов Р.Х.,.Гордеева Е.А.К вопросу об особенностях культурогенеза и урбаногенеза юга Уструшаны // “Қадимий Жиззах воҳаси – МарказийОсиёцивилизацияситизимида (сиёсий, иқтисодий, маданийҳаёт)”. – Жиззах, 2019. – Б. 7-9.

[3] Тошбоев Ф.Э. Антик даврдаги миграцияларнинг Уструшона аҳолиси дафн маросимларида акс этиши // Тафаккур зиёси. 3- сони. Жиззах 2019. – Б.72-73.

сугдийцы и тюркские племена по реке Сырдарья. Вхождение в их состав гуннов приводит к уплотнению тюркского этноса. Материальная культура этого составного этноса в науке получила название «ковунчинская культура»[1]. «Ковунчинская культура», оказавшая влияние на культурное развитие, ярко отображена в погребальных материалах Уструшоны. Им можно показать кружки с зооморфными ручками, фляги типа мустахара, керамические кастрюли, курильницы и фитильные лампы, керамические крышки, подвесные поддоны для кастрюль и сковородок. Тем временем мил. авв. С III века первая городская жизнь, начавшаяся неразрывно с развитием земледельческой культуры, привела к возникновению различных отраслей ремесла, эксплуатации природного подземного сырья и, прежде всего, развитию горнодобывающей промышленности[2]. Среди погребальных устройств появляются подземные каменные камеры и саганы (склепы), построенные на поверхности соломы и сырцового кирпича.

Таким образом, великие миграционные процессы, связанные с социально-политической и экологической обстановкой в древности, оказали большое влияние на культурные процессы в Уструшоне. Они во многом повлияли на качественные изменения в строительстве могил и образцов местной культуры. В то же время выходцы из степи постепенно оседали и смешивались с местным населением, что привело к оживлению общественной, политической и экономической жизни в оазисе. При этом формирование погребальных сооружений и материалов в них совершенствовались способами, характерными для культуры Ковунчи.

Литература:

1. Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир \\ Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. Урганч, 2022. – Б.55-59.

2. Abdullayev U.I. O’rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi: Tarix fan. dokt. (DSc). diss... – Urganch: O’zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq ijtimoiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti. 2019. - B. 116-119.

3. Сулейманов Р.Х.,.Гордеева Е.А.К вопросу об особенностях культурогенеза и урбаногенеза юга Уструшаны // “Қадимий Жиззах воҳаси – МарказийОсиёцивилизацияситизимида (сиёсий, иқтисодий, маданийҳаёт)”. – Жиззах, 2019. – Б. 7-9.

4. Тошбоев Ф.Э. Антик даврдаги миграцияларнинг Уструшона аҳолиси дафн маросимларида акс этиши // Тафаккур зиёси. 3- сони. Жиззах 2019. – Б.72-73.

5.Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2015. – Б.277.

6.Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: дисс. ...канд.ист.наук. –Самарканд, 1991. – С.136.

[1]Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2015. – Б.277.

[2] Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: дисс. ...канд.ист.наук. – Самарканд, 1991. – С.136.

TALABALAR SALOHIYATINI OSHIRISH MAS’ULIYATI

S.Ismoilov
Guliston davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba va uning salohiyati tushunchalarining mazmun-mohiyati va uning oshirishning ob’ekti va sub’ektiv omillari hamda vositalari ilmiy-nazariy manbalarga tayanib ochib berilgan, farazlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, salohiyat, talaba salohiyati, intelektul salohiyat, salohiyatni oshirish omillari, ob’ekti va sub’ektiv omillar, aniqlik, ob’ektivlik, mantiqiy izchillik**,** ixchamlik.

Bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning
ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.
Sh.M.Mirziyoev

Salohiyat — insonning muayyan faoliyat yoki ijod uchun ichki imkoniyatlari, qobiliyati va iste’dodidir. Arab tilidan olingan bo‘lib, iqtidor va tayyorgarlikni anglatadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “saviya” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbekcha “shaxs, narsa yoki hodisaning sifat, taraqqiyot darajasi” [7:8], “salohiyat” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, uning “qobiliyat, iqtidor” ma’nolari bor ekanligi qayd etiladi [7:16].

Salohiyat [4:502] - iste’dodning bir turi bo‘lib, insonning muayyan tarzda o‘z il homini qabul qilishga tayyorlangandan so‘ng yuz beradigan sifat. Yuksak aql, iste’dod egalari **salohiyat**li kishilar deyiladi. **Salohiyat** so‘zi kishi yoki millatning ichki imkoniyatlari, to‘la namoyon bo‘lmagan kuch-quvvati ma’nosida ham ishlatiladi. Mac., milliy **salohiyat** - millat, xalq, mamlakat, jamiyat kuch-quvvati, uning mavjud ichki, botiniy, vaqti-soati kelganda namoyon bo‘ladigan iqtisodiy, ilmiy, madaniy, ma’naviy va boshqa imkoniyatlaridir. Milliy **salohiyat** ob’ektiv va sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘ladi.

“Salohiyat-u yoki bu vazifani ijobiy hal etish uchun sub’ektning foydalanadigan ichki asoslarga, kuch-quvvatga, imkoniyatga egaligini anglatuvchi falsafiy kategoriya” [5:146], deb ta’rif beradi professor Q.Nazarov.

Ob’ektiv omillar: millat yashayotgan hududning ko‘lami va hayot kechirishga qulayligi, tabiiy shart-sharoitlar, er usti va er osti boyliklarining mavjudligi, aholining soni, hayvonot va o‘simlik olamining xilma-xilligi, suv manbalarining serobligi, quyoshli kunlarning ko‘pligi va hakozo.

Sub’ektiv omillar: aholining savodxonlik darajasi, xalqning qo‘shni davlatlar bilan manfaatli munosabatlar o‘rnata olishi, mamlakat ichidagi barcha millatlar, dinlar, ijtimoiy sinflar va boshqa tabaqa vakillarining hamjihatligi. Ob’ektiv omillar mavjud bo‘lsa-da, lekin xalq tarqoq, uyushmagan bo‘lsa, mamlakat, davlat qoloqligicha qolaveradi. Aksincha, sub’ektiv omillar tabiiy sharoit noqulay bo‘lsa, natija bermaydi. Hozirgi zamon rivojlangan davlatlari va millatlari shuning uchun yuksak natijalarga erishganlarki, ularda ob’ektiv va sub’ektiv omillar uyg‘unlashgan hamda ishchanlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, topqirlik bilan ishga solingan, hayot sur’ati doim yuqori. Mac., Shimoliy qutbda joylashgan Islandiyada er ostidan chiqadigan qaynoq geyzer suvlardan foydalanish natijasida subtropik mevalar etishtirilmoqda. Yoki o‘z er osti boyliklariga ega bo‘lmagan Yaponiya eng ilg‘or sanoat, texnika-texnologiya va amaliy fanni yuzaga keltirib, jahonda eng raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Ma’lumki, talabalik davrida olamni bilishga, falsafiy mushohadaga, psixologik tahlilga, mantiqiy fikrlashga ishtiyoq va harakat kuchli bo‘ladi. Shu bilan birga, ularda fantaziyaga moyillik ham kuchli bo‘ladiki, mana shu fiziologik-psixologik holat tafakkurni rivojlantirish, bilishga intilish, ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyatini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati, avvalambor, ilmiy faoliyat xarakteriga mutanosib bo‘lgan hamda shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usul (metod) va shart-sharoitlar tizimini yaratishni taqozo etadi.

Talabalarning ijodiy tasavvurini o‘rganish va rivojlantirish, bizningcha, ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi ufqlarni ochadi, chunki olimning shaxsiyati aynan

talabalik davrida shakllanadi. Yoshlarda refleksiya, ya’ni o‘z bilimlari chegaralarini bilish va bu chegaralardan chiqa olish ko‘nikma va qobiliyatlari aynan talabalik davrida namoyon bo‘ladi.

Talaba - yoshlarni ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyatiga oshirish davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda muayyan hissiy-ruhiy ehtiyoj kasb etishi va buni har doim nazarda tutish lozimligi ma’lum miqdorda ilmiy asoslangan bo‘lib, bu erda fikrlarning uyg‘unligi, ilmiy izlanishlardagi ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-psixologik hamkorlik alohida ko‘zga tashlanib turadi.

Talaba - yoshlar ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyatini tashkil etishda texnologik yondashuvning o‘rni va ahamiyati katta.

Talaba salohiyatida aniqlik, ob’ektivlik, mantiqiylik, izchillik, o‘ziga xoslik, qisqalik kabi me’yorlar o‘z ifodasini topishi kerak.

Aniqlik – hodisani, predmet ma’nosini anglatuvchi so‘zlarning nominativ ma’noda qo‘llanilishi, monosemantik xarakterga ega bo‘lishi, sinonimiyaning bir qadar chegaralanishi, atamalarning ilmiy nutqqa mos qo‘llanishida ko‘rinadi. Aniq fikrsiz ilmiy bilimning bo‘lishi mumkin emas.

Ob’ektivlik - narsa va hodisalarning mavjudligi, ularning fan tushunchalari asosida izohlanishi, fikrning misollar, daliliy materiallar, teorema va formulalar bilan isbot qilinishi, bunga boshqalarning to‘liq ishonch hosil qilishida ko‘rinadi.

Mantiqiy izchillik - abstrakt otlar va atamalarning ko‘p qo‘llanishi, fikrning bir-biriga mantiqiy bog‘lanishi, izchil bayon etilishi, ilmiy nutqda izchillikni yuzaga keltiruvchi maxsus o‘ziga xos so‘z va birikmalarning mavjudligida aks etadi.

Ixchamlik - ilmiy nutqqa xos belgidir. Ilmiy bayon ortiqcha tasvir va izohni talab etmaydi. Shu sababli ilmiy bayonda narsa va hodisalar bayoni uchun uzundan-uzoq o‘xshatish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qatnashmaydi. Shuning uchun ilmiy bayon doimo ixchamlikni talab etadi.

Talabalarning salohiyatini oshirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

-bo‘lajak mutaxassislarning ilmiy eruditsiyasi va nazariy dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy ma’naviy saviyasi va salohiyati olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish;

-talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ilmiy munozaralar olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy-texnik masalalarni echishga undash;

-yuksak ishbilarmonlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga ko‘maklashish.

O‘quv jarayonidan tashqari talabalarni ilmiy tadqiqot ishiga jalb

Demak, insonning ijtimoiy mohiyati, yaratuvchilik qobiliyati asosini turli bilimlar majmui tashkil qilar ekan desak yanglishmagan bo‘lamiz [3:11].

Salohiyatli yoshlarning qanchalik bilimi ko‘p va turli-tuman bo‘lsa, uning ma’naviy dunyosi shunchalik boyib, salohiyatli shaxs sifatida har tamonlama yuksalib boradi. Buning uchun u bilim olish jarayonida faol bo‘lish kerak. “Yoshlik toshqin suv, sug‘oradigan ekiningizni sug‘orib qolmasangiz o‘tib ketadi: Keyin keksalikning ko‘zoynagini taqib igna bilan quduq qazishdan ish chiqmaydi [2:71] - deb yoshlik qadr hamasini izohlab bergan Abdulla Qahhor.

Yusuf Xos Hojib “Dunyoda bilimdan ham aziziroq yana nima bor, bilimsiz degan so‘z odam uchun nechog‘lik xunuk haqorat” [2:115], deganida salohiyatli yoshlarning ijtimoiylashuvini tushunish mumkin. Kuchli bilimlarni egallab, o‘zini takomili ustida tinmay ishlar ekan, inson pirovard natijada najot topib, buyuk ne’mat hisoblangan barkamolikka erishadi.

Inson o‘ta murakkab mavjudod bo‘lib, ham biologik, ham ijtimoiy mohiyatlarga ega. Shuning uchun ham ilmiy atamasi “bioijtimoiy mavjudot” kishi dastlab individ bo‘lib, u shaxs maqomiga ega bo‘ladi. Ma’lum bo‘lishicha, kishi shaxs bo‘lib shakllanishida, unga uch turdagi tushuncha ta’sir qiladi. 1. Tabbiy quvvatlar. 2. Aql kuchi. 3. Hamfikrlar kuchi ta’sir ko‘rsatishi.

Bu masalalar bevosita insonni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bilan bog‘liqdir. Chunki bunday tarbiya vositasida inson o‘ziga manfaat keltiradigan hayotiy maqsadni belgilab olishi, farovon hayot kechirishga asos bo‘ladigan muayyan muhitda o‘z o‘rnini egallashi va albatta ularning natijasi hayotini mazmunli yashab o‘tishi mumkin. Shu ma’noda bu kategorial tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish dolzarb bo‘lib turibdi.

1.Tabbiy quvvat tanada o‘z-o‘zidan shakllanishi tabiat bergan narsadan u o‘z ongi, maqsadini ham amalga oshiradi. Bu maqsad qonun sifatida kishining shu usulini va ishining xarakterini belgilab beradi hamda inson o‘z irodasi ana shu maqsadga bo‘ysintirilishi ijtimoiy hayotda amal qiluvchi sharoitda o‘zgarganligi natijasida yuz beradi. Bu esa ijtimoiy hayotga qanday munosabatda bo‘lish xarakteriga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

2.“Aql kuchi”ning asosini bilim tashkil etadi. Bilimni egallash uchun uzoq vaqt ter to‘kib ishlash – izlanish zarur. Aql kuchi tajribaviy bilimlardan qat’iy nazar yoshlar va talabalar asosida tartibga tushirgan holda ish ko‘radi. Aql kuchi voqea-hodisalarni to‘g‘ri tushunadigan va tushuntira oladigan, ular o‘rtasidagi bilimlarni muayyan tizimga keltira oladi hamda mulohazalaridan farqi mavjud bilimlar doirasidan tashqariga chiqishda va yangi tushunchalarni yaratishga qodir bo‘lgan ezgulik jarayonidir.

3.Hamfikr ezgulik zamirida bilimdonlik yotadi. Bilimdan aql-zakovatning ko‘rki so‘zdir, tushuncha muayan so‘zlar yordamida inson aqliga aks etadigan ashyolar tabiat hodisalarning majmuasidan kelib chiqadi. Abu Nasr Forobiy ta’kidlaydi: “Aqlli deb shundoq kishini aytadiki, zehn-idrok bo‘lishi bilan birga fazilati bo‘lsin. Bunday kishi o‘zining butun qobliyati va idrokini o‘z ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratmog‘i lozim. Shunday odamnigina aqlli va to‘g‘ri fikr yo‘naltiruvchi deb atash mumkin” [1:16-17].

Intelekt insonning bilish qobiliyati, fikrlash, anglash, tafakkur qilish salohiyatini belgilaydi” [6:12], deb yozadi professor X.Shayxova.

Demak, talabalarning salohiyati deb, xaqiqatni taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatiga tayanadigan, atrofdagi voqelikka befarq bo‘lmaydigan, jismonan va ma’nan etuk shaxsga aytishimiz mumkin. Shu o‘rinda yoshlar buyuk ajdodlarimizning shon-shuhratiga, bugungi O‘zbekistonning obro‘-e’tiboriga munosib bo‘lib harakat qilib, salohiyatli yoshlarning yaratuvchilik va bunyodkorlik salohiyati, mamlakatnin kuch-qudrati, ertangi porloq istiqbolni belgilashi sir emas. Ijtimoiy hayot ravnaqi, yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligi yo‘lidagi ulug‘ maqsadlarning izchillik bilan davom ettirilishi – salohiyatli yoshlarning kuch-g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shib buyuk kelajagimizga bo‘lgan ishonch-e’tiqodini yanada mustahkamlaydi hamda o‘zi mustaqil tarzda ijtimoiy hayotda faol ishtirokchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov H. Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ma’naviy merosi. –T.: Noshir, 2013.
2. 111 vatandosh allamalarimizning hikmatli fikirlari. –T.: Yangi asr avlodi, 2012.
3. Ziyomuhammedov B., Ismoilov F. –T.: “Vano-standart”. 2011.
4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010..
5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikki jildlik. II. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, “Ma’nhaviyat” nashriyoti, –T.: 2023.
6. Shayxova X. Intelektual salohiyat - taraqqiyot mezoni. -T.: O‘zbekiston, 2011.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. II -tom. A-R. -Moskva: “Rus tili” nashriyoti, 1981.

MILLATLARARO TOTUVLIK VA XALQLAR DO‘STLIGINING MILLIY VA MA’NAVIY QADRIYATLAR BILAN UYG‘UNLIGI VA BARQARORLIKKA TA’SIRI

Isaxova Shaxlo Muxtarovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti
Umirzaqov Abduvosit Rustam o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida millatlararo, munosabatlar va qadriyatlar tizimining transformatsiyasi tahlil qilinadi. Unda global jarayonlar ta’sirida qadriyatlar yo‘qolmay, balki yangicha mazmun kasb etib, zamonaviy ijtimoiy muhitga moslashishi yoritilgan. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, madaniyatlararo muloqot, raqamli texnologiyalar ta’siri hamda identitetlarning ko‘p qirraliligi masalalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, millatlararo munosabatlar, qadriyatlar transformatsiyasi, madaniyatlararo muloqot, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, identitet, raqamli texnologiyalar, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy jarayonlar.

Hozirgi davr jamiyat taraqqiyoti globalizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayon ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, millatlararo munosabatlar va qadriyatlar tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Global o‘zgarishlar natijasida millatlararo munosabatlar an’anaviy hududiy va milliy chegaralar doirasidan chiqib, transmilliy muloqot, madaniy almashinuv hamda keng ko‘lamli axborot oqimlari ta’sirida shakllanayotgan murakkab ijtimoiy hodisaga aylanmoqda. Shu jarayonda qadriyatlar tizimi ham mazmunan va funksional jihatdan yangilanib, zamonaviy sharoitga moslashmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, globalizatsiya sharoitida yuz berayotgan qadriyatlar o‘zgarishi ularning yemirilishi yoki yo‘qolishi bilan emas, balki qayta talqin qilinishi va yangi ijtimoiy vazifalarni bajarishga moslashuvi bilan tavsiflanadi. Ya’ni qadriyatlar zamonaviy global muhitda yangi mazmun kasb etib, millatlararo munosabatlarning normativ asosiga aylana boshlaydi.

Globalizatsiya sharoitida millatlararo munosabatlar endilikda faqat davlatlararo aloqalar yoki tarixiy-madaniy yaqinlik bilan belgilanmaydi. “Migratsiya jarayonlarining kuchayishi, raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi hamda global mehnat bozorining shakllanishi turli millat vakillarining kundalik ijtimoiy muloqotini jadallashtirib, millatlararo munosabatlarni doimiy va ko‘p darajali jarayonga aylantirmoqda”[1]. Natijada bu munosabatlar mahalliy tajriba bilan cheklanmay, global kontekstda shakllanmoqda. Mazkur holat zamonaviy ijtimoiy nazariyalarda makon va vaqt omillarining o‘zaro yaqinlashuvi bilan izohlanadi. “Qaysi davlatga borishidan qat’i nazar, o‘sha davlatning qonunlariga rioya qilish, migratsiya qonun-qoidalarini buzmaslik, hattoki bu yerning urf-odatlari, dini va madaniyatini hurmat qilishi”[2] turli millat vakillarining kundalik ijtimoiy va mehnat muloqotida muhim sanaladi. Globalizatsiya ijtimoiy munosabatlarning hududiy chegaralardan chiqib ketishiga olib kelib, milliy jamiyatlarning ichki tuzilmasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan qaralganda, millatlararo munosabatlar endilikda mahalliy madaniyatlar bilan bir qatorda global ijtimoiy maydon ta’sirida qayta shakllanayotgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Global sharoitda qadriyatlar transformatsiyasi bir nechta asosiy yo‘nalishlarda kuzatiladi. Avvalo, inson huquqlari, tenglik, adolat va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar millatlararo munosabatlarning muhim normativ mezoniga aylanmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar ham global madaniy oqimlar ta’sirida yangicha mazmun kasb etib, o‘zining an’anaviy shakllarini zamonaviy talqinlar bilan boyitmoqda. Bu jarayon milliy qadriyatlarning yo‘qolishiga emas, balki ularning zamon talablariga mos ravishda qayta shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Madaniyatshunoslik doirasidagi tadqiqotlarda ushbu jarayon global va mahalliy omillarning o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida talqin etiladi. Ya’ni global qadriyatlar milliy qadriyatlarni siqib chiqarmaydi, balki ular bilan sintezlashgan holda rivojlanadi. Shu sababli globalizatsiya milliy madaniyat va qadriyatlar tizimi uchun tahdid emas, balki ularni yangi ijtimoiy sharoitga moslashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar va global axborot makoni qadriyatlar transformatsiyasining eng faol omillaridan biri hisoblanadi. “Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli madaniyatlar va qadriyatlarning tezkor almashuvi ta’minlanib, millatlararo munosabatlar bevosita va interaktiv tus kasb etmoqda”[3]. Shu bilan birga, bu holat qadriyatlar xilma-xilligini kuchaytirib, an’anaviy normativ tizimlar oldida muayyan muammolar va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada qadriyatlar yanada moslashuvchan va dinamik xarakterga ega bo‘lib bormoqda.

Globalizatsiya jarayoni qadriyatlar uyg‘unligini kuchaytirish bilan bir qatorda, madaniy ziddiyatlar ehtimolini ham oshiradi. Milliy qadriyatlarni mutlaqlashtirish madaniy yopiqlikka olib kelishi mumkin bo‘lsa, global qadriyatlarni mutlaq ustuvor deb bilish milliy o‘zlikning susayishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu bois zamonaviy ilmiy yondashuvlarda qadriyatlar transformatsiyasi muvozanatli, izchil va boshqariladigan jarayon sifatida baholanadi.

Rivojlangan ma’naviy makon insonning ma’naviy-axloqiy yetuklik darajasi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy yetuklik esa axloq va uning tushunchalariga, tamoyillariga tayanadi. Biz ma’naviy makonni rivojlantirishda axloqning rolini baholar ekanmiz, uni har qanday vaziyatga mos keladigan tayyor qoidalar to‘plami sifatida ko‘rmasligimiz lozim. Insonda ma’lum bir vaziyatda “vijdon bilan” harakat qilishni buyuradigan narsa bor. O‘ziga nisbatan jazo choralarini qo‘llash vijdondir. Ammo, ehtimol, hamma ham bunday axloqiy asosga ega emas. Shuning uchun, aytaylik, hammada ham qahramonlik sodir bo‘lmasligi mumkin (o‘zini olovga tashlash, cho‘kayotgan bolani qutqarish), agar uning ichida “kerak” degan talab bo‘lmasa. Rivojlangan ma’naviy makon rivojlangan shaxsni taqozo qiladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning hayotida vijdonning o‘rni shunchalik katta bo‘ladi. Vijdon - bu insonning o‘ziga xos ma’naviy qobiliyati, axloqiy fazilatlar va insoniy xulq-atvorni saqlash uchun mas’ul bo‘lgan maxsus mexanizm. To‘g‘ri, vijdon inson ma’naviyatining o‘zagi hisoblanadi va uning yo‘qligi tanazzulga olib keladi, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni buzadi, butun axloqiy qadriyatlar tizimining buzilishiga, ma’naviy inqirozga olib keladi.

Axloq - bu insonning ongining boshqa xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lmagan muhim sifati.

Ma’naviy sohaning shakllanishi shaxs ongiga yot psevdomadaniyatlarning proyeksiyasi orqali amalga oshiriladi, bunda davlat, jamiyat va inson ichkaridan parchalanadi. Bunday sharoitda an’anaviy ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar yanada aniq belgilana boshladi, an’analarning inson hayotidagi eng muhim o‘rni va uning butun jamiyat hayotining ma’naviy-axloqiy sohasidagi vaziyatga ta’siri aniqlandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, “Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo‘q, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda. Ana shunday o‘ta murakkab va qaltis sharoitda qanday yo‘l tutish, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta’minlash mumkin, degan savol barchamizni jiddiy o‘ylantirishi zarur” deb ta’kidlaydi.

Hozirgi yoshlar - mamlakat kelajagi, yosh avlod tarbiyasi esa davlat oldida turgan va mamlakatimiz kelajagi qay darajada bog‘liq. Haqiqiy qadriyatlar jamiyatda birinchi o‘ringa chiqishi uchun barcha mavjud resurslardan foydalanish kerak. Yoshlar ko‘p asrlik urf-odatlarni bilishi va

qadrlashi, keksa avlodni hurmat qilishi, qarindoshlari va do‘stlarini sevishi va ularga g‘amxo‘rlik qilishi kerak.

Biz ma’naviy makonni rivojlantirishda axloqning rolini baholar ekanmiz, uni har qanday vaziyatga mos keladigan tayyor qoidalar to‘plami sifatida ko‘rmasligimiz lozim. Insonda ma’lum bir vaziyatda "vijdon bilan" harakat qilishni buyuradigan narsa bor. O‘ziga nisbatan jazo choralarini qo‘llash vijdondir. Ammo, ehtimol, hamma ham bunday axloqiy asosga ega emas.

Zamonaviy jamiyat texnologik taraqqiyot yutuqlariga tayanadigan, ammo inson mavjudligining hodisasi sifatida ma’naviy madaniyatning mohiyatiga ta’sir qilmaydigan ommaviy madaniyatning haqiqiy hukmronligi ta’siri ostidadir. “Ommaviy madaniyat” ma’naviy-axloqiy an’analarni modernizatsiya qilish vositasi deb baholanayotgan bo‘lsada, aslida uning mohiyatini butunlay o‘zgartiradi, bu jarayonni amalga oshiruvchi ma’naviyat va axloq tushunchalarining asl ma’nosini almashtirish xavfini tug‘diradi. Ma’naviy-axloqiy an’analar jamiyatning madaniy yutuqlarini meros qilib olishning o‘ziga xos vositasi sifatida “ijtimoiy xotirani” yoki jamiyatdagi “madaniy uzluksizlik” deb ataladigan narsalarni, odamlarning ko‘p avlodlari o‘rtasidagi alohida ma’naviy aloqani saqlashga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Ma’naviy-axloqiy an’ananing ana shu xususiyati ham jahon globallashuv jarayonlarining kuchayib borayotgan ta’siriga qarshi turishning zaruriy sharti bo‘lib, so‘nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgan tendensiyadir.

Hozirgi yoshlar - mamlakat kelajagi, yosh avlod tarbiyasi esa davlat oldida turgan va mamlakatimiz kelajagi qay darajada bog‘liq. Haqiqiy qadriyatlar jamiyatda birinchi o‘ringa chiqishi uchun barcha mavjud resurslardan foydalanish kerak. Yoshlar ko‘p asrlik urf-odatlarni bilishi va qadrlashi, keksa avlodni hurmat qilishi, qarindoshlari va do‘stlarini sevishi va ularga g‘amxo‘rlik qilishi kerak.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar odamda sharaf, qadr-qimmat, vijdon, Vatanga muhabbat, bag‘rikenglik tushunchalarini shakllantiradi, bu bizning ko‘p konfessiyali va ko‘p millatli mamlakatimizda juda muhimdir. Tegishli ta’limning yo‘qligi giyohvandlik, jinoyat, ekstremizm, murosasizlik, millatlararo nizolar kabi hodisalarga olib keladi. Haqiqiy ma’naviy bilimning yo‘qligi va din masalalarida jaholat ekstremizmga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlashimiz mumkinki, jamoatchilik munosabatlarining sub‘ekti sifatida inson ijtimoiy tajribani o‘zlashtirib boradi, uning faol ishtirokisiz ijtimoiylashuvni tasavvur etib bo‘lmaydi. Xususan yoshlar ma‘naviy ahloqiy va ijtimoiylashuvida ajdodlardan qolgan meros va qadriyatlarni vorisiylik printsiplari orqali mustahkamlay olishi bilan ham milliylikni saqlab qoluvchi kuchdir. Odamlar ma‘naviy makonni o‘z qo‘llari bilan yaratidilar, unga oila, kasbiy faoliyat, sevimli mashg‘ulotlar, madaniyat, siyosat va boshqalar orqali ta‘sir qiladi. Inson ta‘siri natijasida uning ma‘naviy maydoni o‘zgaradi va ijtimoiy makon o‘zgaradi, tuzilishi, mazmuni, konfiguratsiyasi, bir vaqtning o‘zida barcha yo‘nalishlarda ochilish qobiliyatini o‘zgartiradi. Ma’naviy makon - Yoshlarning mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish jarayonlariga jalb etilishi, yoshlarda shubhasiz ravishda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Jamiyatning yangi ijtimoiy munosabatlarga o‘tishi ko‘p jihatdan yoshlar harakatining qanday va qay darajada qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq. Zero, faqat ma‘naviy sog‘lom va ijtimoiy jihatdan munosib avlodgina O‘zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ilmiy-texnikaviy rivojlanishining uzluksiz jarayonini ta‘minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Кант Иммануел. Основы меиафизики нравенности. (С ретцензией на книгу И. Шульса. 1783) // Сочинения в шести томах. - М.: “Мысл”. - Т.

3. Гегел Г.В.Ф. Работы разных лит. Т. 1. - М., 1970.

4. Баллестрем К.Г. “Власть и морал” (основная проблема политической этики) // Философские науки. -1991. - № 8.

5. Казмин А. К. Философские проблемиконсепсииэволютсии человека // Вестник РФО. -2004. - № 3.

JAMIYATDA BEGONALASHUVNING OLDINI OLISHDA TARIXIY TAFAKKURNING AHAMIYATI

Karimov Yo‘ldosh
GulDPI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tobora globallashib borayotgan va tez o‘zgarib borayotgan dunyoda ijtimoiy begonalashuv shaxslar va jamoalarga ta’sir qiluvchi jiddiy muammo sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada tarixiy tafakkurning begonalashuvni yumshatishda muhim intellektual vosita sifatidagi roli ko‘rib chiqiladi. O‘ziga xoslik, uzluksizlik va jamoaviy xotirani chuqurroq tushunishni rivojlantirish orqali tarixiy tafakkur shaxslarga o‘z jamiyati va madaniyati bilan bog‘liqlikni his qilish imkonini beradi. Tadqiqotda tarixiy ongni ta’lim va jamoatchilik muhokamasiga integratsiya qilish ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashi va izolyatsiya tuyg‘ularini kamaytirishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, ijtimoiy begonalashuv, o‘ziga xoslik, jamoaviy xotira, ijtimoiy birdamlik

Ijtimoiy begonalashuv shaxslarning o‘z jamiyati, madaniyati yoki hatto o‘zidan uzilganligini his qilish holatini anglatadi. Bu hodisa modernizatsiya, texnologik taraqqiyot va madaniy gomogenizatsiya tufayli yanada ko‘proq ko‘rinib qoldi. “Begonalshuv vujudga kelishiga ko‘plab omillar sabab bo‘lmoqda ulardan ayrimlari quyidagilar: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy merosning qashshoqlashuvi, qadriyatlarning qadrsizlanishi. Insonda bu muammoning sababi sifatida boshqa kishilar bilan muloqotga kirisha olishda ko‘plab to‘siqlarga uchrashi, o‘zini jamiyatning bir a’zosi sifatida his qila olmaslik. Ijtimoiy hayotda aksariyat holatlarda kuzatiladigan jihat xudbinlik, manfaatparastlikning ortishi natijasida kishilarda jamiyatga nisbatan daxldorlik tuyg‘usining sustlashuvi sezilarli darajada oshib ma’lum bir muammolarni keltirib chiqarmoqda”[1]. “Zamonaviy jamiyatda insonning o‘z-o‘zidan begonalashishining asosiy manbai bu «tiriklar ustidan hokimiyat» sifatida yoki iste’mol kushisi sifatida yoki belgining mafkuraviy kuchi sifatida mavjud bo‘lgan hamma narsani qamrab oluvchi kuchdir”[2]. Begonalashuv jarayonini “... bugun yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishgan, o‘z ma’naviyatini ko‘z-ko‘z qilayotgan, uni ommalashtirishga mablag‘ini ayamayotgan mamlakatlarda insonlarning o‘zaro begonalashuvida, ota-ona, oila, farzand, millat qadriyatlarining so‘nib borayotganligida, bir jinsli nikohning qonuniylashtirilayotganida, jinsni o‘zgartirish kabi o‘ta noinsoniy munosabatlarda – bir so‘z bilan aytganda, insoniyat o‘z aql-idrokining ma’naviy qurboniga aylanayotganida ko‘rish mumkin”[3]

Shuningdek, behalovatlik sabablarini o‘rgangan olimlar ta’kidlaganidek, “Gap faqat smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlarda emas, balki bolalikning olamshumul va misli ko‘rilmagan tarzda o‘zgarganida ham”[4]. Bu muammoning samarali, ammo ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan yechimlaridan biri tarixiy tafakkurni rivojlantirishdir. Tarixiy tafakkur o‘tmishdagi voqealarni tanqidiy tahlil qilishni, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishni va ko‘p nuqtai nazarlarni talqin qilishni o‘z ichiga oladi. Bu shunchaki sanalar va faktlarni yodlash emas, balki vaqt o‘tishi bilan inson tajribasini tushunish usulidir.

Tarixiy tafakkur bir nechta asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: xronologik mulohaza yuritish, kontekstualizatsiya, manbalarni tahlil qilish va talqin qilish. Bu ko‘nikmalar shaxslarga o‘tmishni mazmunli tarzda o‘rganish va uni hozirgi voqelik bilan bog‘lash imkonini beradi.

[1] Abduraxmonov Z. Begonalashuv muammosi - jamiyatning inqirozi. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(12), Dec., 2023. 132-137b.

[2] X.Akramov, R.Raximov Begonalashuv va tanazzul sotsiologik muammo sifatida// O‘zbekiston til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2024 / (5) 65-71 bet.
[3] Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. Toshkent. O‘zbekiston, 2013. –B.115.
[4] Jonathan Haidt Behalovat avlod. Toshkent.Farangeyt press. -2025. B.17.

Jamiyatlarning qanday rivojlanganini tushunish orqali shaxslar o‘zlarining madaniy ildizlari va ijtimoiy tuzilmalari haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, tarixiy tafakkur odamlarni turli nuqtai nazar va tajribalarni ko‘rib chiqishga undash orqali hamdardlikni rivojlantiradi. Bu shaxslarga xilma-xillikni tushunishga yordam beradi va ko‘pincha begonalashuv manbai bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlarni kamaytiradi.

Begonalashuv turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin - ijtimoiy izolyatsiya, madaniy uzilish va o‘ziga xoslikni yo‘qotish. Zamonaviy jamiyatlarda, ayniqsa yoshlar orasida, turmush tarzidagi tez o‘zgarishlar, migratsiya va raqamli aloqa an’anaviy ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirdi. Natijada, shaxslar o‘z merosi va jamoat qadriyatlaridan ajralib qolgandek his qilishlari mumkin. O‘tmishini aniq tushunmasdan, shaxslar hozirgi zamonda o‘z o‘rnini topisda qiynalishi mumkin, bu esa ijtimoiy parchalanish xavfini oshiradi.

“Agar inson o‘z tanilmasi [identtifikatsiyasi]ni anglamasa, o‘zini boshqalardan chetga oladi. Insonning o‘zi, shuningdek, boshqalar ham toqat qilishi qiyin bo‘lgan marginal holat paydo bo‘ladi. Marginal holatda bo‘lgan inson juda beqaror [lobil] bo‘lib, osongina befarq yoki tajovuzkor bo‘lib qolishi, shuningdek, turli surrogatlar va nomaqbul xulq-atvorli nusxalarning qurboni bo‘lishi mumkin”[1]. Tarixiy tafakkur o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Shaxslar o‘z tarixini o‘rganish orqali o‘ziga xoslik va uzluksizlik hissini rivojlantiradilar. Bu bog‘liqlik mansublikni rivojlantiradi va yolg‘izlik hissini kamaytiradi.

Insonda shaxsiyat va uning xususiyatlarini kuchaytirish muhim bo‘lib, bunda tarixiy ildizlarni tushunish shaxslarga barqaror shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Bu ularga o‘zlarini kengroq hikoyaning bir qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi. Xalqimizda azaldan ijtimoiy hamjihatlik turmush tarzimiz va munosabatlarimizning negizini tashkil qilgan. Umumiy tarixiy bilim jamiyat a’zolari o‘rtasida umumiy zamin yaratadi. Bu umumiy tushunish birlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Insonda tanqidiy va analitik tafakkurni shakllantirish orqali, tarix haqida fikrlash shaxslarga ma’lumotni shubha ostiga qo‘yishni va ijtimoiy o‘zgarishlarni tahlil qilishni o‘rgatadi. Bu xabardorlik ularga o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmasdan zamonaviy qiyinchiliklarga moslashishga yordam beradi.

Turli tarixiy tajribalarni o‘rganish orqali shaxslar xilma-xillikni qadrlashni va boshqalarga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantirishni o‘rganadilar.

Tarixiy tafakkurni begonalashuvga qarshi vosita sifatida samarali ishlatish uchun uni ta’lim tizimlari va jamoat hayotiga integratsiya qilish kerak. Maktablar tarixni yodlash o‘rniga analitik va talqin qiluvchi fan sifatida o‘qitishga e’tibor qaratishlari kerak. Munozaralar, munozaralar va loyiha asosida o‘rganishni rag‘batlantirish tarixni yanada qiziqarli va dolzarb qilishi mumkin.

Bundan tashqari, muzeylar, madaniyat markazlari va ommaviy axborot vositalari kabi davlat muassasalari tarixiy xabardorlikni oshirishi kerak. Jamiyatga asoslangan tarixiy loyihalar ham mahalliy o‘ziga xoslik va ishtirokni kuchaytirishi mumkin.

Tarixiy tafakkur ijtimoiy begonalashuv muammosini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shaxslarni o‘z o‘tmishi bilan bog‘lash orqali u o‘ziga xoslik, mansublik va ijtimoiy birdamlikni rivojlantiradi. Tez o‘zgarishlar ko‘pincha uzilishlarga olib keladigan dunyoda tarixiy xabardorlik barqarorlik va ma’no beradi. Shuning uchun, tarixiy tafakkurni rivojlantirish nafaqat akademik zarurat, balki yanada birlashgan va bardoshli jamiyat qurish uchun ijtimoiy zarurat hamdir.

[1] Yulo Vooglayd Vatandoshlik dasturi. Toshkent, 2023. B. 140-141.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARNING DARS JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Jonibekov Shuxrat Djanibekovich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, raqamli ta’lim texnologiyalari, multimedia vositalari hamda muammoli ta’lim yondashuvlarining talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va darsni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tadqiqot natijalarida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar, jismoniy tarbiya, pedagogik kompetentlik, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, ta’lim samaradorligi, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mahorat, zamonaviy ta’lim metodlari.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda ularni amaliy faoliyatga tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy mahorati nafaqat sport mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan, balki dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalana olish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirish bugungi kunning muhim pedagogik vazifalaridan biri sanaladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2026-yil 7-aprel kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, sport ta’limi sifatini oshirish, malakali murabbiy va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda pedagogik faoliyatda zamonaviy metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi kunda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda interfaol metodlar, muammoli ta’lim, modulli o‘qitish texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari hamda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida talabalar faolligini oshirish, ularning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, so‘rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot davomida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda oliy ta’lim muassasasining jismoniy tarbiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratilib, ularda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligi o‘rganildi.

Tajriba guruhida mashg‘ulotlar interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyasi, multimedia vositalari, raqamli ta’lim platformalari, klaster, “Aqliy hujum”, “Case-study”, loyiha metodi hamda jamoaviy ishlash texnologiyalari asosida tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tajriba jarayonida talabalarning pedagogik kompetentligi, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi va darsni tashkil etish mahorati maxsus mezonlar asosida baholab borildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘tkazilgan diagnostik tahlillar natijasida talabalar orasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagani aniqlandi. Xususan, talabalarning aksariyati interfaol metodlardan foydalanish, raqamli vositalarni dars jarayoniga integratsiya qilish hamda pedagogik vaziyatlarni mustaqil hal etishda qiyinchiliklarga duch kelayotgani kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida olingan natijalar tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rsatdi. Jumladan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega talabalar soni sezilarli darajada oshdi.

Ko‘rsatkichlar	Tajriba oldidan (%)	Tajriba so‘ngida (%)
Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmasi yuqori darajada	28	79
Interfaol metodlardan samarali foydalanish	32	83
Mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmasi	35	81
Darsni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish kompetensiyasi	30	85

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘rsatkichlari tajriba yakunida ancha yuqori natijalarni qayd etdi. Ayniqsa, darsni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish kompetensiyasi 30 foizdan 85 foizgacha oshgani metodikaning samaradorligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undadi, ularning kommunikativ qobiliyatlari va pedagogik tafakkurini rivojlantirdi. Multimedia vositalari va raqamli platformalardan foydalanish esa mavzularni chuqurroq o‘zlashtirishga hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam berdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida talabalarning pedagogik faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasi ham oshgani kuzatildi. Tajriba guruhidagi talabalar mustaqil ravishda dars ishlanmalari tayyorlash, innovatsion metodlarni tanlash va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etdilar. Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish ta’lim sifati va pedagogik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metodika talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik faoliyatga moslashuvchanligini oshirish hamda ularning ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari davomida interfaol metodlar, multimedia vositalari, raqamli ta’lim texnologiyalari hamda muammoli ta’lim yondashuvlaridan foydalanish talabalar faolligini oshirishga, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tahlillar natijasida tajriba guruhidagi talabalarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalari, darsni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish mahorati va pedagogik kompetentlik darajasi sezilarli ravishda oshgani aniqlandi. Ayniqsa, interfaol metodlardan samarali foydalanish va raqamli vositalarni dars jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha yuqori natijalar qayd etildi. Bu esa innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni pedagogik faoliyatga qiziqtirish, ularda ijodkorlik va tashabbuskorlikni shakllantirishga xizmat qilgani kuzatildi. Natijada talabalar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliy faoliyatda qo‘llash bo‘yicha zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining dars jarayonlarini tashkil etishida psixologik yondashuvi [Main] : o‘quv qo‘llanma / J.A. Po‘latov.-Toshkent: "Umid Design", 2021.-116 b.

2. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009. – 160 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://president.uz/ru/lists/view/4057

5. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro‘ziev H.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 200 b.

6. Sultonov.Z.S. JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI [O‘quv qo‘llanma] Guliston-2024 y., 133 bet

7. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

AMIR TEMUR DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTIDA MANSABDOR SHAXSLARNI TANLASH MEZONLARI: “TEMUR TUZUKLARI” ASOSIDA TAHLIL

Xalimov Zafar Xatamovich
Impuls Tibbiyot Instituti Ta’lim sifatini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i,
TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Temur tuzuklari” asari asosida Amir Temur davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyotida mansabdor shaxslarni tanlash mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat boshqaruvida kadr tanlash masalasi faqat siyosiy yoki ma’muriy ehtiyoj sifatida emas, balki davlat barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy tamoyil sifatida yoritiladi. “Temur tuzuklari”da mansabdor shaxslarni tanlashda nasl-nasab, shaxsiy yaqinlik yoki tasodifiy sadoqat emas, balki aql-zakovat, tajriba, adolat, sadoqat, jasorat, maslahatga moyillik, mas’uliyat va davlat manfaatini ustuvor qo‘yish kabi mezonlar muhim o‘rin tutgani asoslab beriladi. Maqolada ushbu mezonlarning Amir Temur davlatining siyosiy barqarorligi, boshqaruv intizomi va ma’muriy samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, davlatchilik, mansabdor shaxslar, kadrlar salohiyati, boshqaruv mezonlari, adolat, maslahat, sadoqat.

Kirish. Davlat boshqaruvi tarixida kadrlar masalasi har doim strategik ahamiyat kasb etgan. Har qanday davlatning barqarorligi, siyosiy mustahkamligi va taraqqiyoti faqat hukmdorning shaxsiy salohiyati bilan emas, balki uning atrofida shakllangan boshqaruv tizimi, amaldorlar tarkibi va ularni tanlash mezonlari bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan Amir Temur davlatchiligi tajribasi alohida ilmiy ahamiyatga ega, chunki Temur saltanati qisqa tarixiy davr ichida kuchli markazlashgan davlatga aylangan va keng hududlarda tartib, intizom hamda boshqaruv tizimini shakllantira olgan [3, 10].

Amir Temur boshqaruv tajribasini o‘rganishda “Temur tuzuklari” muhim tarixiy-manbaviy ahamiyatga ega [1]. Mazkur asarda davlatni idora qilish, lashkar tuzish, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdor shaxslarni tanlash, ularga munosabat bildirish, ularni rag‘batlantirish yoki jazolash kabi masalalar bo‘yicha muhim qarashlar ifodalangan. Ayniqsa, mansabdor shaxslarni tanlash mezonlari Amir Temur davlatchiligining ichki mohiyatini anglashda asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [2].

Ushbu maqolaning maqsadi — “Temur tuzuklari” asosida Amir Temur davlatida mansabdor shaxslarni tanlashda amal qilgan mezonlarni aniqlash, ularning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy mazmunini ochib berish hamda bu mezonlarning davlat barqarorligi va taraqqiyotidagi o‘rnini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. “Temur tuzuklari”da davlat boshqaruvi shunchaki ma’muriy buyruqlar tizimi sifatida emas, balki tartib, adolat, maslahat, sadoqat va mas’uliyatga asoslangan murakkab boshqaruv madaniyati sifatida namoyon bo‘ladi [1]. Amir Temur uchun davlatni mustahkamlashning muhim sharti — har bir mansabga munosib shaxsni qo‘yish edi. Bu yondashuv davlatchilikning amaliy zarurati bilan birga, chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ham ega bo‘lgan [7].

Birinchidan, “Temur tuzuklari”da mansabdor shaxslarni tanlashda layoqat va ishbilarmonlik asosiy mezonlardan biri sifatida ko‘rinadi [1]. Davlat boshqaruvida mansab faqat sharaf yoki imtiyoz emas, balki og‘ir mas’uliyat sifatida qaraladi. Shu sababli amaldor davlat ishini yurita oladigan, vaziyatni anglaydigan, qaror qabul qilishga qodir, xalq va davlat manfaatini tushunadigan shaxs bo‘lishi lozim edi. Bu holat Amir Temur boshqaruvida kadr masalasi tasodifiy tanlov emas, balki maqsadli siyosiy mexanizm bo‘lganini ko‘rsatadi [8].

Ikkinchidan, mansabdor shaxs tanlashda sadoqat muhim o‘rin tutgan [1]. Biroq bu sadoqat oddiy shaxsiy bo‘ysunish yoki hukmdorga yaqinlik ma’nosida emas, balki davlatga, tartibga, saltanat manfaatiga sodiqlik sifatida tushunilgan. Amir Temur boshqaruvida amaldorning sadoqati uning davlat ishida sobitligi, topshiriqni bajarishdagi mas’uliyati, og‘ir vaziyatda xiyonat qilmasligi va umumiy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishi bilan baholangan [2].

Uchinchidan, “Temur tuzuklari”da aql-zakovat va tadbirkorlik mansabdor shaxsning zaruriy sifati sifatida talqin qilinadi [1]. Davlat boshqaruvi faqat kuch yoki buyruq bilan yuritilmaydi. U vaziyatni tahlil qilish, odamlar ruhiyatini anglash, ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlash, zarur paytda murosaga kelish va zarur paytda qat’iy qaror qabul qilishni talab etadi. Shu ma’noda, Amir Temur boshqaruvida mansabdor shaxsdan fikrlash madaniyati, maslahatga quloq tutish va oqilona xulosa chiqarish salohiyati talab qilingan [4].

To‘rtinchidan, mansabdor shaxslarni tanlashda adolatparvarlik alohida mezon sifatida namoyon bo‘ladi [1]. Adolat Amir Temur davlatchilik qarashlarining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi [2]. Chunki adolat bo‘lmagan joyda xalqning davlatga ishonchi susayadi, boshqaruv tizimida norozilik kuchayadi, amaldorlar o‘zboshimchalikka moyil bo‘ladi. Shuning uchun mansabdor shaxs faqat bilimli yoki jasur bo‘lishi yetarli emas; u adolat mezoniga amal qiladigan, xalq bilan muomalada insofli, davlat mulki va vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanmaydigan shaxs bo‘lishi zarur edi [5].

Beshinchidan, “Temur tuzuklari”da maslahat va kengash tamoyili muhim boshqaruv mezoni sifatida ko‘rinadi [1]. Amir Temur davlat ishlarida kengashga, tajribali kishilar fikriga, amirlar va

dono kishilar maslahatiga alohida e’tibor bergan [4]. Bu holat mansabdor shaxs tanlashda ham o‘z aksini topgan. Maslahatga moyil bo‘lgan, boshqalar fikrini eshita oladigan, faqat o‘z qarashiga yopishib olmaydigan amaldor boshqaruvda samaraliroq hisoblangan. Demak, Temur davlatchiligida kadr salohiyati faqat individual bilim yoki jasorat bilan emas, balki jamoaviy fikrlash va maslahat madaniyatiga munosabat bilan ham baholangan [9].

Oltinchidan, mansabdor shaxs uchun jasorat va qat’iyat ham muhim sifat sifatida qaralgan. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi murakkab siyosiy, harbiy va ijtimoiy sharoitlarda olib borilgan [4]. Bunday sharoitda amaldor qo‘rqoq, ikkilanadigan yoki faqat shaxsiy xavfsizligini o‘ylaydigan shaxs bo‘lsa, davlat manfaatiga zarar yetkazishi mumkin edi. Shu sababli mansabdor shaxsdan qat’iylik, og‘ir vaziyatda mas’uliyatni zimmasiga olish va davlat ishini oxirigacha bajarish talab etilgan [1].

Yettinchidan, “Temur tuzuklari”da mansabdor shaxslarni tanlashda tajriba va amaliy sinovdan o‘tganlik ham muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Amir Temur kadrlarni faqat nazariy bilim yoki tashqi obro‘ga qarab emas, balki amalda o‘zini ko‘rsatganligi, oldingi xizmatlari, sadoqati va natijadorligiga qarab baholagan [2]. Bu esa boshqaruvda meritokratik yondashuv unsurlari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Ya’ni mansabga ko‘tarilishda shaxsning real xizmati, layoqati va davlat ishida foyda keltira olish qobiliyati muhim sanalgan [10].

Mazkur mezonlarning barchasi Amir Temur davlatining shakllanishi va taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan [7]. Kuchli markazlashgan davlatni barpo etish uchun faqat harbiy qudrat yetarli emas edi. Buning uchun hududlarni boshqaradigan, buyruqlarni joylarda ijro etadigan, xalq bilan davlat o‘rtasida bog‘lovchi vazifasini bajaradigan, soliqlar, harbiy safarbarlik, tartib-intizom va ijtimoiy muvozanatni ta’minlaydigan mansabdorlar tizimi zarur edi. Amir Temur aynan shu zaruratni chuqur anglagan va kadr tanlash masalasini davlatchilikning asosiy tayanchlaridan biri sifatida ko‘rgan [3].

“Temur tuzuklari”da ifodalangan kadr tanlash mezonlarining yana bir muhim jihati shundaki, ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar bilan amaliy boshqaruv salohiyati uyg‘un holda namoyon bo‘ladi [1]. Masalan, sadoqat, adolat, insof, halollik kabi sifatlar ma’naviy-axloqiy mezonlar bo‘lsa, aql-zakovat, tajriba, tadbirkorlik, qat’iyat va tashkilotchilik amaliy boshqaruv mezonlari hisoblanadi. Amir Temur davlatchiligida ushbu ikki yo‘nalish bir-biridan ajratilmagan. Aksincha, haqiqiy mansabdor shaxs aynan shu ikki jihatning uyg‘unligiga ega bo‘lishi lozim deb qaralgan [11].

Bu yondashuv bugungi davr uchun ham muhim nazariy xulosa beradi [12]. Zamonaviy davlat boshqaruvida ham kadrlar salohiyatini yuksaltirish faqat bilim, diplom yoki lavozim tajribasi bilan cheklanmasligi kerak. Rahbar yoki mansabdor shaxsda kasbiy kompetensiya bilan birga, ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy poklik, adolat, jamoa bilan ishlash, maslahatga ochiqlik va davlat manfaatini ustuvor qo‘yish kabi sifatlar ham bo‘lishi zarur. Shu ma’noda, “Temur tuzuklari”dagi kadr tanlash mezonlari tarixiy manba bo‘lish bilan birga, boshqaruv madaniyati va kadrlar siyosati uchun nazariy-ma’naviy ahamiyatga ega [11].

Xulosa. “Temur tuzuklari” asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyotida mansabdor shaxslarni tanlash masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etgan. Mansabdor shaxslarni tanlashda layoqat, sadoqat, aql-zakovat, adolat, tajriba, jasorat, maslahatga moyillik va mas’uliyat kabi mezonlar asosiy o‘rin tutgan [1, 2].

Ushbu mezonlar Amir Temur davlatining kuchli boshqaruv tizimini shakllantirishga, markazlashuvni ta’minlashga, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga va davlat taraqqiyotiga xizmat qilgan [3, 7]. Eng muhimi, “Temur tuzuklari”da kadr tanlash masalasi faqat lavozimga tayinlash amaliyoti sifatida emas, balki davlat taqdiri, xalq manfaatlari va boshqaruv adolati bilan bog‘liq masala sifatida talqin etilgan [1].

Shu bois, “Temur tuzuklari”dagi mansabdor shaxslarni tanlash mezonlarini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbdir. Chunki jamiyat barqarorligini ta’minlashda kadrlar salohiyatini yuksaltirish, rahbarlik lavozimlariga munosib shaxslarni tanlash, ularning kasbiy va ma’naviy fazilatlarini uyg‘un baholash har qanday davlat boshqaruvi tizimining muhim sharti bo‘lib qolmoqda [12].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temur tuzuklari / Forschadan tarjimon A. So‘g‘uniy va H. Karomatov; izohlar muallifi akademik B. Ahmedov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 256 b.
2. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 126 b.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 365 b.
4. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Tarjimon O. Boriyev. – Toshkent: Kamalak, 1994. – 288 b.
5. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Ajoyib al-maqdur fi tarihi Taymur): 2 jildlik / Tarjimon U. Uvatov. – Toshkent: Mehnat, 1992.
6. Gonzales de Klaviho R. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida / Tarjimon M. Xasanov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2007. – 184 b.
7. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni: Maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 1996. – 264 b.
8. Amir Temur saboqlari: Maqolalar to‘plami. – Toshkent, 1997. – 312 b.
9. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy / Tarjimon R. Jalilova. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 264 b.
10. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1968. – 184 b.
11. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
12. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINI TAKOMILLASHTIRISH

Vaxobov Ulug‘bek Bahodir o‘g‘li
JDPU, doktarant

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda J.Dyuining «tajribaga asoslangan ta’lim» nazariyasi, H.Gardnerning intellektlar nazariyasi va T.V.Musiyenkoning gamifikatsiyaga oid ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Maqolada case-study, SWOT, FSMU, rolli o‘yinlar, Kahoot! va Quizizz kabi innovatsion metodlar va zamonaviy raqamli platformalarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga tatbiqi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar an’anaviy metodlarga nisbatan yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirish, mustaqil axloqiy tafakkurini rivojlantirish va mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan ichki immunitetini mustahkamlashda ancha yuqori samara beradi. Maqola oxirida ta’lim muassasalari va pedagog-kadrlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola pedagog-amaliyotchilar, ta’lim sohasidagi tadqiqotchilar va ilmiy-pedagogik jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, yoshlar, gamifikatsiya, interfaol usullar, case-study, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Kahoot, Quizizz.

Globallashuv sharoitida yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish bugungi pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy-axloqiy

qiyofasini saqlab qolish va uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda an’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning qadriyatlar tizimini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi [1, 12-b.]. Bir tomondan, axborot makoni kengayishi tufayli yoshlar turli mafkuralar ta’sir doirasiga tushub qolayatgan bo‘lsa . Boshqa tomondan esa an’anaviy ta’lim metodlari bu jarayonda ijobiy samara bermayapti. Aynan shu kabi holatlar innovatsion pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish va amaliy hayotga joriy qilish muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda faqat raqamli qurilmalar yoki elektron resurslardan foydalanish orqali dars o‘tish jarayonini tushunmasligimiz kerak. Zero "Innovatsiya" atamasi lotincha "innovatio" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, XVII asrning o‘rtalarida ilmiy muomalaga kirgan va ma’lum bir sohaga yangi elementlarning kirib borishi hamda shu asosda o‘zgarishlar yuz berishi jarayonini anglatadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, innovatsiya, bir tomondan, yangilikni amalga oshirish jarayoni sifatida emas, balki uni muayyan ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish faoliyati sifatida talqin qilinadi. Innovatsion faoliyat o‘zining to‘liq rivojlanishida o‘zaro bog‘liq ish turlarini o‘z ichiga oladi va ularning uyg‘unligi real innovatsiyalarning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Pedagogika sohasida "texnologiya" atamasi yunoncha "texnos" – san’at, mahorat va "logos" – fan so‘zlarining qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan bo‘lib, innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiyaning shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashuv sifatida ta’riflanadi [2, 23-b.]. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik hamda sifat o‘zgarishlarini olib kirish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion va axborot-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan ilmiy qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalar tayyor bilimlarni passiv tarzda o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalar ularni bilimni mustaqil izlab topishga, tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi. Xususan, interaktiv metodlarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular o‘quvchi-talabada faqat bilish jarayonini emas, balki axloqiy munosabat va qadriyatlar tizimini ham bir vaqtning o‘zida shakllantiradi. Jumladan, guruhli muhokama, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi usullar yoshlarda empatiya, hamkorlik madaniyati va mas’uliyat tuyg‘usini shakllanishga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion texnologiyalarni oddiy o‘qitish vositasidan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning to‘laqonli pedagogik mexanizmiga aylantiradi.

Jumladan ma’naviy-axloqiy tarbiya shakillanishida J.Dyuining «tajribaga asoslangan ta’lim» nazariyasi juda muhim hisoblanadi. Dyui ta’limotiga ko‘ra, ma’naviy-axloqiy tarbiya nazariy emas, balki bevosita hayotiy tajriba va amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda shakllanadi deydi [3, 56-b.]. Boshqacha aytganda, yosh avlod axloqiy me’yorlarni faqat eshitish yoki o‘qish orqali emas, balki muayyan vaziyatlarda qaror qabul qilib, uning hoh yaxshi, hoh yomon bo‘lsin oqibatlarini his etib, amaliyotda sinab ko‘rish orqali o‘rganishdir.

Ushbu nazariyaning innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unligi shundaki, Swot, case-study va FSMU kabi yondashuvlar mohiyatan Dyui konsepsiyasining zamonaviy pedagogik ko‘rinishlari hisoblanadi. Masalan, axloqiy dilemmaga asoslangan case-study topshirig‘ini bajarayotgan talaba real hayotiy tanlov jarayoniga o‘xshash bo‘lgan voqiylikni his qilgan holda qaror qabul qiladi.

H.Gardner ko‘p intellektlar nazariyasi esa har bir o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashgan innovatsion yondashuv zarurligini, shu jumladan axloqiy-ma’naviy intellektning rivoji uchun muhimligini asoslab beradi. Gardner o‘zining fundamental tadqiqotida insonning intellektual salohiyati mantiqiy-matematik yoki lingvistik jihati bilan — baholanishi mumkin emasligini ilmiy jihatdan isbotladi [4, 73-b.]. Uning nazariyasiga ko‘ra, har bir shaxs o‘ziga xos intellektlar xususiyatga ega bo‘lib, ularning rivojlanish darajasi turlicha kechadi.

Buni shakllanishida interfaol usullar, jumladan o‘zaro ma’lum guruhlarga bo‘lingan holda muhokamalar va shu bilan birga ro‘lli o‘yinlar tashkil qilish ham shaxslararo intellektni rivojlantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Gardner nazariyasidagi ko‘ra guruh azolari o‘rasida o‘zaro muloqot qilish jarayonida, boshqalarning fikrini tinglab tushunish, o‘z pozitsiyasini dalillar asosida himoya qilish yoshlarda axloqiy tafakkurning faol shakllanishiga zamin hozirlaydi [4, 68-b.]. Bu jarayonda yoshlar "nima to‘g‘ri?" degan savolga javob izlash bilan birga "men nima uchun shunday harakat qilaman?" degan so‘rovga o‘zini anglagan holda ongli javob bera oladi.

Shaxs ichki intellektini rivojlantirish nuqtai nazaridan esa refleksiv yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o‘z-o‘zini baholash uchun shaxsiy portfolio yuritish orqali bazi yoshlarda o‘zligini anglash, o‘zning kuchli va zaif tomonlarini tanish hamda axloqiy kamchiliklarini mustaqil tushunishi va shunga ko‘ra maqsadli harakat qilishi mumin. Gardner fikricha, o‘zini chuqur anglay olgan shaxsgina boshqalarga bilan to‘g‘ri munosatatga kirisha oladi. Bugungi yoshlar uchun bu ko‘nikma ayniqsa muhim, chunki ijtimoiy tarmoqlarda "virtual shaxs" bilan haqiqiy "men" o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish o‘zini anglash jarayonisiz amalga oshishi mumkin emas.

Yangi O‘zbekiston sharoitida Gardner nazariyasining amaliy hayotga tadbiq qilinishida, milliy xususiyatlar hisobga olingan holda uyg‘unlashtirilishi zarur. O‘zbek xalqining boy ma’naviy-madaniy merosi, an’anaviy qadriyatlar tizimi asosida Gardner intellektlar nazariyasi bilan organik tarzda birlashtirilganda, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda o‘ziga xos va samarali pedagogik model yaratish imkonini yuzaga keladi. Xususan, milliy adabiyot va tarixga asoslangan rolli o‘yinlar, o‘zbek xalq pedagogikasi an’analarini innovatsion metodlar orqali o‘tilganda yoshlarda milliy g‘urur, vatanparvarlik, axloqiy burch, va masuliyat tuyg‘ulari tabiiy tarzda shakllanadi. O‘z o‘rnida bu esa ularni har qanday mafkuraviy ta’sirlarga qarshi mustahkam ma’naviy immunitetga ega bo‘lishlari uchun zamin yaratadi.

Shu o‘rinda T.V.Musiyenkoning tadqiqotlarida gamifikatsiyaning an’anaviy o‘qitish metodlaridan tubdan farq qilishini, ya’ni u o‘quvchida ichki qiziqish uyg‘otib, bilim olishni majburiyat emas balki zavqli faoliyat turiga aylantirishi jarayoni sifatida uni ilmiy jihatdan asoslab bergan [5, 47-b.]. Bunda gamifikatsiyaning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga tatbiq etish ham juda samarali hisoblanadi. Jumladan reyting tizimi o‘yin vositasida qo‘llanilishi yoshlarda mas’uliyat shu bilan birga halollik tuyg‘usini shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Xususan, Kahoot! platformasi real vaqt rejimida guruhlar bilan ishlash imkonini taqdim qiladi. Bunda o‘qituvchi ma’naviy-axloqiy mavzularga doir savollar tuzadi, o‘quvchi-talabalar esa o‘z mobil qurilmalari orqali javob beradilar. Platforma har bir ishtirokchining natijasini ochiq shafof holda ko‘rsatadi bu esa ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakillanishiga asos bo‘ladi. Ahamiyatli jihati shundaki, bu formatda birovni aldash yoki boshqa o‘quvchining javobini ko‘chirish imkoni texnik jihatdan cheklangan. Shu sababli o‘quvchi ko‘proq o‘z bilimiga tayanishi lozimligini tushunib yetadi.

Bundan tashqari Quizizz platformasi bor bo‘lib. U Kahootdan farqli ravishda o‘quvchilar bilan individual ishlash imkonini taqdim qiladi. Har bir o‘quvchi topshiriqni o‘z bilimiga qarab boshqalardan ertaroq bajarishi va vaqtli yakunlashi mumkin. Bu yoshlar o‘z xatolarini mustaqil tahlil qilish, sabab-natija bog‘liqligini anglash va keyingi urinishda yaxshilroq harakat qilish uchun intiladi. Axloqiy dilemmalarga asoslangan Quizizz savollari — masalan, “Quyidagi vaziyatda qaysi qaror to‘g‘ri?” kabi savollar va topshiriqlar — yoshlarni axloqiy tafakkurining rivolanishiga va to‘g‘ri qaror qabul qilish sabab bo‘ladi.

Umumiy nuqtai nazarga ko‘ra globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish an’anaviy ta’lim metodlari doirasida to‘liq hal etib bo‘lmaydigan murakkab pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy metodlar bilim berishda ma’lum darajada samarali bo‘lsa-da, yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirish va axloqiy tafakkurini rivojlantirish shu bilan birga mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan ichki immunitetini mustahkamlashda yetarli natija bermayapti. Shu sababli ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘lagan holda tatbiq etuvchi maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim. Bu jarayonning uzviy davomi

sifatida pedagog-kadrlarni malaka oshirish tizimiga Kahoot!, Quizizz kabi zamonaviy platformalardan ma’naviy-axloqiy tarbiya maqsadlarida foydalanish bo‘yicha maxsus modul yaratish va o‘zbek milliy adabiyoti, tarixi va xalq pedagogikasi an’analariga asoslangan case-study va rolli o‘yin to‘plamlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda ulardan ongli va maqsadli foydalanish — bu nafaqat pedagogik zarurat, balki Yangi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lmish yosh avlod oldidagi ma’naviy burch hamdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva F. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifati. – Toshkent: Fan, 2020. – 184 b.
2. Azizboyev N. Yoshlar ma’naviy tarbiyasining falsafiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 210 b.
3. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
4. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.
5. Musiyenko T.V. Geymifikatsiya kak instrument vovlecheniya v obucheniye // Pedagogika. – 2020. – №4. – S. 45–52.

IJTIMOIY KONFLIKTLAR: MAZMUNI, SABABLARI VA JAMIYATGA TA’SIRI

Toshev Olmos Nuriddinovich
IMTI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy konfliktlarning mazmuni, yuzaga kelish sabablari hamda ularning jamiyatga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy konfliktlar jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqilib, ularning ijobiy va salbiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, konfliktlarning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar — resurslar taqchilligi, manfaatlar to‘qnashuvi, qadriyatlar farqi, kommunikatsiya muammolari va ijtimoiy tengsizlik kabi sabablar tahlil qilinadi. Maqolada konfliktlarning jamiyatdagi barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri ham ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy konfliktlarni to‘g‘ri boshqarish jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy konflikt, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, resurslar taqchilligi, ijtimoiy tengsizlik, qadriyatlar, kommunikatsiya, ijtimoiy barqarorlik, konfliktlarni boshqarish.

Kirish. Jamiyat ijtimoiy tizim sifatida turli manfaatlar, qarashlar va ehtiyojlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar majmuasidan iboratdir. Ushbu jarayonda ijtimoiy muvozanat doim ham barqaror bo‘lavermaydi, chunki insonlar va guruhlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Ana shunday to‘qnashuvlar ijtimoiy konfliktlar deb ataladi. Ijtimoiy konfliktlar jamiyat rivojlanishining tabiiy hodisasi bo‘lib, ular ham salbiy, ham ijobiy oqibatlarga ega bo‘lishi mumkin. Jamiyat taraqqiyoti davomida turli xil ijtimoiy jarayonlar yuzaga keladi. Ular orasida ijtimoiy konfliktlar alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy konflikt — bu jamiyatdagi turli guruhlar, shaxslar yoki institutlar o‘rtasidagi manfaatlar, qadriyatlar va qarashlarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ijtimoiy tizimlar va siyosiy tafakkurning o‘zgarishi bilan mediatsiya nizolarni hal qilish usuli sifatida yangi ma’nolarga ega bo‘la boshladi. Protestantizm kapitalizmning dastlabki mafkuralaridan biri sifatida boylikni Xudoning irodasi natijasi deb talqin qildi, bu esa pulning adolatli kuch sifatidagi idrokini kuchaytirdi. Shunday qilib, iqtisodiy va siyosiy hokimiyat yangi mentalitetni shakllantirdi, bu esa nizolarni hal qilishning yanada oqilona va tizimli usullarini izlashga undadi. Amerika va Yevropa huquq tizimlarida talqin qilingan zamonaviy mediatsiya bir qancha asosiy tamoyillarga asoslanadi: ixtiyoriylik, vositachining betarafligi, tomonlarning tengligi va maxfiylik. Ushbu tamoyillar mediatsiyani sud muhokamasi yoki arbitrajga nisbatan noyob qiladi, chunki tomonlar jarayon va uning natijalarini ko‘proq nazorat qiladi. Sud yoki arbitraj jarayonlaridan farqli o‘laroq, mediatsiya to‘g‘ri va noto‘g‘rini aniqlashga emas, balki har ikki tomonning manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zaro maqbul echimlarni yaratishga qaratilgan. Mediator bu yerda sudya sifatida emas, balki muloqotga yordam beruvchi sifatida ish olib boradi, tomonlarga huquqiy meyorlarni emas, balki o‘zlarining adolat haqidagi tushunchalari asosida yechimlar ishlab chiqishda yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda mediatsiya nizolarni hal qilishning muhim vositasiga aylandi, ayniqsa, shaxslararo munosabatlarni saqlab qolish zarur bo‘lgan vaziyatlarda, masalan, oilaviy yoki biznes mojarolari. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya samaradorligi juda yuqori: 80% dan ortiq hollarda mediatsiya davomida erishilgan kelishuvlar uzoq muddatli va har ikki tomon tomonidan hurmat qilinadigan bo‘ladi. Shunday qilib, konfliktologiya va amaliy siyosatshunoslikdagi mediatsiya nizolarni hal qilishning asosiy usullaridan biri bo‘lib, moslashuvchanlik, maxfiylik va tomonlarga o‘z munosabatlarini saqlab qolish imkoniyatini beradi. U zamonaviy siyosiy va ijtimoiy tizimlar arsenalidagi muhim vosita bo‘lib, kelishmovchiliklarni hal qilishda yanada gumanistik va samarali yondashuvni ta’minlaydi. “Mediatsiya yo’li bilan taraflarning o’zaro kelishishlari shunday qulayliklarga egaki – u vaqtni tejaydi, taraflarning uzoq vaqt o’zaro nizolashib yurishlariga barham beradi, sud harajatlari to’lashni qisqartirish imkonini beradi”[3].

Mediatsiya nizolarni hal qilish usuli sifatida konfliktologiyada ham, amaliy siyosatshunoslikda ham muhim vosita hisoblanadi. Ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan, mediatsiya - bu betaraf uchinchi tomon nizolashayotgan tomonlarga o‘zaro maqbul echimga erishishga yordam beradigan jarayondir. Ushbu yondashuv, ayniqsa, siyosiy sohadagi nizolarni boshqarish nuqtai nazaridan qiziqarli, chunki u nizolarni hal qilishning kuch va huquqiy usullariga alternativa taklif qiladi. Tarix davomida nizolarni hal qilish usullari hukmron mafkuralar va siyosiy shakllarga qarab turlicha bo‘lgan. Ibtidoiy jamiyatlarda jismoniy kuch, feodal jamiyatlarda - meros unvonlari kuchi, kapitalistik jamiyatlarda - pul kuchi ishlatilgan. Mediatsiya zamonaviyroq usul sifatida jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirishni aks ettiradi, bunda asosiy e’tibor kuch yoki majburlash emas, balki muzokaralar jarayoniga qaratiladi. “Mediatsiyaning maqsadi– nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o‘zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, uning asosiy tamoyillariga ixtièriylik, taraflarning tengligi, betaraflik, mediatorning xolisligi, maxfiylik kabilar kiradi. Mediatsiya jaraèni muzokaralardan iborat bo‘lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taraflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo‘lgan irodasi va intilishi, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog‘liqdir. Umuman olganda, mediatsiya – bahs-munozaralarni uchinchi betaraf tomon ishtirokida tartibga solishga doir huquqiy texnologiya. Ushbu yo‘nalish o‘zining ma’lum bir shartlari va tamoyillariga ega”[4].

Amerika va Yevropa mediatsiya maktablarida o‘rnatilgan axloqiy me’yorlar mediatorning betarafligi va xolisligini ta’kidlaydi, bu esa tomonlarning tengligini ta’minlaydi va majburlash kuchidan foydalanish ehtimolini kamaytiradi. Bu sud yoki arbitraj usullaridan asosiy farq bo‘lib, tomonlar sud jarayoni bilan cheklanadi va sudyaning qarorini bajarishga majbur bo‘ladi. Mediatsiyada ixtiyoriy ishtirok etish muhim jihatdir. Bu tamoyil siyosiy tizimlardagi demokratik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, fuqarolar davlat tuzilmalarining majburlov qarorlariga duchor bo‘lishdan ko‘ra, o‘z nizolarini hal qilishda ishtirok etish huquqiga ega. AQSh va Yevropaning siyosiy tizimlarida mediatsiyaning keng tarqalishi bilan mediatsiya nizolarni hal qilishning davlat huquqiy mexanizmlarining bir qismiga aylandi. 1998 yilda Qo‘shma Shtatlarda muqobil nizolarni hal qilish to‘g‘risidagi (ADR) qonunining qabul qilinishi jamoat tartibini

yaxshilash va sud yuklarini kamaytirish uchun siyosiy tizimlar mediatsiya amaliyotini huquqiy tizimlarga integratsiya qilish zarurligiga qanday moslashayotganining muhim namunasidir.

Xalqaro siyosiy mojarolarda mediatsiya ko‘pincha harbiy aralashuv yoki diplomatik muzokaralarga alternativa sifatida qo‘llaniladi. Bunday yondashuvlarga BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasidagi xalqaro muzokaralar misol bo‘la oladi, bunda vositachilar mojarolar avj olishining oldini olishga yordam beradi. Amaliy siyosatshunoslikda mediatorning qonuniyligini uning xolis bo‘lish va nizoning har ikki tomonini qo‘llab-quvvatlash qobiliyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish muhimdir. Siyosiy tizim vositachiga zarur vakolatlarni berishi va mediatsiya jarayonini muvaffaqiyatli olib borishi uchun uning mustaqilligini ta’minlashi kerak. Mediatsiyaning muvaffaqiyat darajasi yuqori (taxminan 80%), bu uni shaxslararo va siyosiy nizolarni hal qilishning jozibador usuliga aylantiradi. Biroq, muvaffaqiyatga erishish uchun ikkala tomonning nizoni hal qilish uchun motivatsiyasi va vositachi zarur malakaga ega bo‘lishi muhimdir. Mediatsiya tomonlardan biri muomalaga layoqatsiz bo‘lgan hollarda yoki jinoiy huquqbuzarlik bilan bog‘liq ishlarda qo‘llanilishi mumkin emas. Siyosiy amaliyotda bu radikal yoki noqonuniy siyosiy kuchlar ishtirokidagi nizolarda mediatsiyadan foydalanishni cheklashi mumkin. Shunday qilib, ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan mediatsiya konfliktlarni hal etishning ilg‘or va gumanistik usuli bo‘lib, an’anaviy siyosiy va huquqiy mexanizmlarni samarali to‘ldiradi. Uning muvaffaqiyatli qo‘llanilishi institutsional yordamga, mediatorlarning malakasiga va tomonlarning muloqotga tayyorligiga bog‘liq.

Ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan, konfliktologiya va amaliy siyosatshunoslikda mediatsiyaning nazariy va uslubiy tadqiqini tahlil qilish mediatsiya jarayonlarining chuqur tarixiy ildizlari va ko‘p bosqichli evolyutsiyasini ochib beradi. Asosiy e’tibor mediatsiyaning jamiyat va davlat institutlari jamoalar ichida ham, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish yo‘llarini izlayotgan o‘ziga xos tarixiy sharoitlarda rivojlanganligidir.

Siyosiy nuqtai nazardan markazlashgan davlat tuzilmalari mavjud bo‘lmagan sharoitda barqarorlikni saqlash va qon to‘kilishini oldini olishda bunday murosa tartiblari muhim ahamiyat kasb etdi. Finikiya, Bobil va qadimgi Afrika qabilalari kabi yuqori savdoga ega jamiyatlarda mediatsiya tijorat munosabatlarining barqarorligi va farovonligini ta’minlashning muhim elementiga aylandi. Muhim ilmiy jihat shundaki, mediatorlar orqali yarashuv vaqt o‘tishi bilan xalqaro munosabatlarda mediatsiyaning institutsional rivojlanishi uchun asos bo‘lgan pretsedentlar va og‘zaki normalarni yaratishga xizmat qildi. Masalan, qadimgi Xitoy va Yaponiyada bunday amaliyotlar ichki va tashqi siyosatga, jamoalar ichida tinchlikni saqlashga, yirik nizolarning oldini olishga katta ta’sir ko‘rsatgan[5].

O‘rta asrlarda va yangi davrning boshida mediatsiya rivojlanishidagi eng muhim qadam uni institutsionalizatsiya qilish edi. O‘ttiz yillik urush kabi uzoq davom etgan urushlarda mediatsiya xalqaro huquqning ortib borayotgan ahamiyatini aks ettiruvchi diplomatiya quroliga aylandi. Bunga misol qilib 1648-yilda imzolangan Vestfaliya tinchligi suverenitet va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro normalarni o‘rnatishda muhim bosqich bo‘ldi. Ilmiy va siyosiy nuqtai nazardan shuni aytish mumkinki, aynan shu davrda mediatsiya xalqaro muzokaralarning zarur elementi sifatida qabul qilina boshlagan. Mojaro tomonlari o‘rtasidagi muzokaralar jarayoniga vositachilarning kiritilishi barqaror tinchlikka erishish imkoniyatlarini oshirdi. Masalan, Napoleon tomonidan imzolangan 1803-yilda qabul qilingan mediatsiya to‘g‘risidagi qonun Shveytsariyaning neytral maqomini ta’minladi va xalqaro nizolarni hal etishda mediatsiya samaradorligini isbotladi[6].

Ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan, mediatsiyaning rivojlanishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning konfliktologiya va amaliy siyosatshunoslikdagi asosiy vazifasi turli tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga moslasha oladigan nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish mexanizmlarini yaratishdan iborat. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya jamoat konfliktlarini boshqarish va xalqaro munosabatlarning muhim elementi sifatida rivojlangan. Bugungi kunda mediatsiya tinchlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgan samarali va ommabop usul bo‘lib qolmoqda, bu esa uni zamonaviy siyosatning ajralmas qismiga aylantirmoqda. Mediatsiya rivojlanishining ushbu uch bosqichi uning nizolarni hal qilish

va xalqaro maydonda barqaror siyosiy tizimlarni shakllantirish uchun muhim salohiyatidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кайрат Кеунимжаевич Низаматдинов, Муваззам Бахтиеровна Тиллабоева. Медиация ва унинг вазифалари // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-va-uning-vazifalari (дата обращения: 21.10.2024).

2. Nurmamatov, Nurbek O‘rinboy O‘g‘li, Matkarimov, Qudrat Qalandarovich Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o‘rni va ahamiyati // Orienss. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nizolarni-hal-etishda-mediatsiya-institutining-o-rni-va-ahamiyati (дата обращения: 21.10.2024).

3. Кайрат Кеунимжаевич Низаматдинов, Муваззам Бахтиеровна Тиллабоева. Медиация ва унинг вазифалари // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-va-uning-vazifalari (дата обращения: 21.10.2024).

4. Nurmamatov, Nurbek O‘rinboy O‘g‘li, Matkarimov, Qudrat Qalandarovich. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o‘rni va ahamiyati // Orienss. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nizolarni-hal-etishda-mediatsiya-institutining-o-rni-va-ahamiyati (дата обращения: 21.10.2024).

5. Медиация в России: состояние, тенденции, проблемы развития : сборник статей II Всероссийской научно-практической конференции / Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Федеральное государственное автономное образовательное учреждение высшего образования "Южный федеральный университет", Кафедра прикладной конфликтологии и медиации, Центр исследования социально-трудовых отношений и проблем профсоюзного движения Института социологии и регионоведения ; редакционная коллегия: С. А. Дюжиков (ответственный редактор) [и др.]. - Ростов-на-Дону : Издательство Южного федерального университета ; Таганрог : Издательство Южного федерального университета, 2022. - 122 с.

6. Шамликашвили Ц.А. Медиация как альтернативная процедура урегулирования споров [Текст] : что необходимо знать судье, чтобы компетентно предложить сторонам обращение к процедуре медиации : учебное пособие для высших учебных заведений, обучающихся по специальности "Юриспруденция" / Цисана Шамликашвили. - Москва : Межрегиональный центр упр. и политического консультирования, 2010. - 160 с.

IMPROVING VOCABULARY AND CONTEXTUAL MEANING



Berdiyeva E’zoza
Guliston State Pedagogical Institute
Scientific supervisor: **Khilola Mamatova**

Abstract: This article provides a comprehensive exploration of the significance of vocabulary development and contextual meaning in mastering the English language. It analyzes theoretical perspectives, practical strategies for vocabulary improvement, and the interplay between robust vocabulary knowledge and effective communication. Drawing on scholarly research, it highlights methods that can be applied in classrooms and autonomous learning contexts, emphasizing the importance of context when acquiring and using new words. The article concludes with practical recommendations for learners and educators, backed by evidence from the field of applied linguistics.

Keywords: vocabulary, contextual meaning, language acquisition, lexical knowledge, reading strategies, language proficiency, communicative competence.

Introduction. The journey toward proficiency in any language is intricately tied to the mastery of its vocabulary. English, with its massive lexicon and subtle nuances, places unique demands on learners striving to expand their vocabulary and accurately decode contextual meaning. While grammar offers a framework for constructing sentences, vocabulary supplies the building blocks—without a strong lexicon, one's ability to comprehend, express, and interact is fundamentally limited. Furthermore, knowing a word goes far beyond recognizing its dictionary definition; true proficiency requires an understanding of its usage, nuances, connotations, and varied meanings that emerge in diverse contexts. Vocabulary functions as the engine of communication, fueling reading comprehension, listening skills, effective writing, and fluent speaking. Extensive research underscores the direct relationship between vocabulary knowledge and academic, professional, and personal success. However, learners often face challenges in not only accumulating new words but also in retaining, retrieving, and applying them appropriately. Contextual meaning—the mental skill of deducing the intended sense of a word or phrase based on surrounding linguistic and situational clues—elevates vocabulary knowledge from superficial familiarity to deep, functional command. This article investigates the science and art of vocabulary acquisition and contextual comprehension, surveying established theories, presenting practical methodologies, and highlighting critical research findings. Through this lens, it seeks to offer actionable guidance for improving lexical breadth and depth, while also fostering a richer grasp of context-driven meaning.

Materials and methods. Vocabulary knowledge is multifaceted, exceeding simple word recognition or memorization. Paul Nation (2001) delineates various dimensions of word knowledge, such as spoken and written form, meaning, frequency, collocational behavior, register appropriateness, grammatical usage, and even etymology. Lexical competence thus unfolds across recognition, production, and contextual adaptation. Learners must progress from initial exposure, to receptive understanding (comprehension during reading or listening), and onward to productive application (using words in speech and writing) [1].

Acquiring vocabulary usually begins incidentally—encountering new words while reading or listening. Incidental learning, though gradual, embeds words within authentic contexts, enhancing long-term retention and deepening understanding of nuance. However, intentional vocabulary learning, involving focused study through repetition, semantic mapping, and explicit instruction, is also crucial, especially for academic and specialized vocabulary domains. Challenges in vocabulary acquisition are not uniform. Frequency plays a key role: high-frequency words are absorbed quickly, but low-frequency, domain-specific, or idiomatic expressions require repeated exposure and engagement in context. Furthermore, English's rich system of synonyms, polysemous words, and phrasal verbs presents additional complexity for learners, heightening the importance of strategies that develop flexible, context-sensitive vocabulary use [2].

Contextual meaning represents a cornerstone in vocabulary mastery. Context refers to the linguistic, situational, and sometimes cultural environment in which a word or expression appears. Words are rarely confined to a single, static sense; their meaning often shifts subtly or dramatically depending on the surrounding text, the speaker's intention, or the broader communicative setting. The ability to infer meaning from context is a pivotal skill for language learners. Contextual clues come in several forms: syntactic (sentence structure), semantic (other words and relationships in the text), pragmatic (intent and tone), and extralinguistic (real-world knowledge, time, place, and situation). Consider the word "bank." In isolation, its meaning is ambiguous, but context clarifies whether it refers to a financial institution or the edge of a river. Skilled readers and listeners habitually derive, refine, and revise their understanding through close attention to context. Research highlights that learners who are explicitly taught to use context for meaning-making show marked improvement in reading comprehension and vocabulary recall (Nagy & Scott, 2000). Educators are thus encouraged to guide learners through strategies such as identifying signal words, recognizing patterns of analogy, examining collocations, and using graphic organizers to map meanings across contexts.

Results and Discussion. Effective vocabulary instruction weaves together both explicit and implicit learning opportunities. Context-rich reading and listening experiences expose learners to authentic language use, familiarizing them with varied meanings and applications. Intentional word-learning activities, such as root analysis, synonym-antonym mapping, and personal vocabulary journals, empower learners to explore connections, consolidate meaning, and personalize their lexicon.

Task-based learning—where students perform meaningful activities that naturally elicit target vocabulary—has demonstrated success in deepening word retention and context-based understanding. Activities like debates, role-plays, narrative retelling, or thematic projects immerse students in communicative environments that mirror real-life usage, thereby reinforcing context-sensitive vocabulary understanding. Technology also offers powerful tools for vocabulary expansion, from custom flashcard apps and interactive e-books to online language games and corpora that showcase authentic usage examples. These resources, when leveraged wisely, allow learners to practice recognizing, interpreting, and producing vocabulary in context, thus bridging the gap between isolated knowledge and practical competence. Extensive reading is another well-researched pathway for vocabulary and contextual mastery. When students regularly engage with authentic, level-appropriate texts, they repeatedly encounter words in different contexts, absorbing nuance and function. Educators can amplify this process through guided reading, targeted pre-reading instruction, and post-reading follow-ups that focus on context-driven vocabulary exercises. Learner motivation is a critical catalyst in successful vocabulary development. Intrinsically motivated learners—those driven by curiosity, real-world goals, or a love of reading—tend to explore language independently, seek out challenging material, and embrace diverse contexts. Autonomy in vocabulary learning is enhanced when students set personal goals, self-select readings, or engage in creative word play, such as composing stories or participating in conversation clubs. Teachers can nurture motivation and autonomy by offering choice in reading materials, celebrating even small vocabulary gains, and encouraging learners to connect new words to personal experiences. Reflective practices, such as self-assessment and metacognitive strategies (thinking about how one learns), have proven valuable in fostering ongoing, self-directed vocabulary growth [4].

Despite the abundance of methods and technological innovations, barriers to vocabulary and contextual mastery persist. Time limitations, unequal access to rich language input, and affective factors such as anxiety or self-doubt can impede progress. Addressing these challenges requires both system-level interventions—such as curricular support for vocabulary-rich, context-driven instruction—and individual learner strategies, such as time management and mindful, focused practice. Teachers are encouraged to cultivate a classroom environment that values risk-taking with language, offers abundant opportunities for meaningful communication, and avoids overemphasis on rote memorization. By integrating vocabulary instruction within broader reading, writing, and discussion routines, vocabulary gains can be naturally reinforced and contextualized [5].

Conclusion. In sum, vocabulary development and contextual meaning are inseparable pillars of proficient language use. Research consistently confirms that learners with broad, well-contextualized vocabularies excel in reading, writing, listening, and speaking. Enhancing vocabulary requires intentional, sustained engagement with language in context, combining both explicit learning and authentic communicative practice. Educators play a vital role in guiding learners through this process, equipping them with the strategies, motivation, and confidence needed to thrive in English and beyond. For learners, persistent curiosity, active engagement with meaningful content, and reflective effort are key drivers of vocabulary growth and enduring language success.

References:

1. Nation, I.S.P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: Cambridge University Press.

2. Nagy, W., & Scott, J. A. (2000). Vocabulary Processes. In M. L. Kamil, P. B. Mosenthal, P. D. Pearson, & R. Barr (Eds.), Handbook of Reading Research (Vol. III). Lawrence Erlbaum Associates.

3. Read, J. (2004). Research in Teaching Vocabulary. Annual Review of Applied Linguistics, 24, 146–161.

4. Schmitt, N. (2008). Instructed Second Language Vocabulary Learning. Language Teaching Research, 12(3), 329-363.

5. Graves, M. F. (2016). The Vocabulary Book: Learning and Instruction. New York: Teachers College Press.

6. Laufer, B., & Goldstein, Z. (2004). Testing Vocabulary Knowledge: Size, Strength, and Computer Adaptiveness. Language Learning, 54(3), 399–436.

7. Stahl, S. A., & Nagy, W. E. (2006). Teaching Word Meanings. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.

O‘QUVCHILARNI EKOLOGIK QADRIYATLAR ASOSIDA KAMOL TOPTIRISH METODIKASI

Maxammadiyeva Dildora Baxtiyorovna
Guliston davlat pedogogika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: Isayeva Guli Parpiyevna p.f.n professor

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarni ekologik qadriyatlar asosida kamol toptirish metodikasini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda ekologik tarbiya jarayonining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, xalqaro va mahalliy olimlarning yondashuvlari o‘rganilgan. Maqolada ekologik qadriyatlarni shakllantirishda fanlararo metodlar, amaliy loyihalar, maktab va jamoat muhitining roli hamda barqaror rivojlanish tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, maqola ekologik ta’limning o‘quvchilarning axloqiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sirini ko‘rsatib, ekologik ongni oshirishning samarali usullarini taklif etadi. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiya jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarda tabiatga mas’uliyatni kuchaytirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiyalashga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish, Ekologik qadriyatlar, ekologik ta’lim, ekologik ong, fanlararo yondashuv, pedagogik metodika, o‘quvchilarni tarbiyalash.

KIRISH. Hozirgi kunda ekologik muammolar nafaqat global, balki milliy darajada ham dolzarb tus olmoqda. Shahar va qishloq hududlarida havoning, suv va tuproqning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, shuningdek, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi jamiyat va ta’lim tizimi oldida yangi va muhim vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Shu kontekstda yosh avlodni tabiatga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga, uni qadrlashga va ekologik ongini shakllantirishga o‘rgatish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida qaraladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari"[1] asaridagi ushbu jumlalarga e’tibor qaratishimiz ham juda zarur: "Ochiq e’tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski-ma’muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug‘ullanilmagan. Aniqrog‘i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o‘z mamlakatining kelajagiga, tabiiy boyliklarini saqlab qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo‘lib kelgan". Ya’ni uzoq yillar mobaynida ekologik tarbiya masalasi yetarlicha e’tibor qaratilmagan, faqat ayrim jonkuyar olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu nuqtai nazardan, ekologik qadriyatlarni shakllantirish tizimli metodlar orqali amalga oshirilishi muhimdir.

[1] Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 3-b.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ekologik ta’lim va o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tarbiya shaxsning nafaqat bilim darajasini, balki axloqiy, madaniy va ijtimoiy mas’uliyatini ham shakllantiradi.

Avstraliyalik ekologik ta’lim olimi Annette Gough (2002)[1] ekologik ta’limning tarixiy rivojlanishini tizimli tarzda o‘rganib, ekologik qadriyatlarni shakllantirish barqaror rivojlanish ta’limidagi muhim komponent ekanini ilmiy asoslab bergan. U o‘z tadqiqotlarida ekologik ta’limni faqat atrof-muhit bilimlarini berish sifatida emas, balki o‘quvchilarda atrof-muhitga mas’uliyat, axloqiy qadriyatlar va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rgan.

Tadqiqotlarda ekologik tarbiyani integratsiyalashgan yondashuv orqali amalga oshirish, ya’ni fanlararo metodlardan (biologiya, geografiya, sotsiologiya va madaniyat) foydalangan holda o‘quvchilarda barqaror ekologik ongni shakllantirish usullari batafsil tavsiflangan. Shu bilan birga, ekologik qadriyatlarni shakllantirish jarayonida amaliy faoliyatning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi, chunki faqat nazariy bilimlar orqali o‘quvchilarda ekologik ongni mustahkamlash mumkin emas (Annette Gough, 2002) [3].

Amerikalik olimlar tadqiqotlari ekologik inqiroz sharoitida ta’limning jamiyat barqarorligidagi roli va ekologik qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, ekologik tarbiyaning samaradorligi o‘quvchilarning ekologik xulq-atvori, madaniy qadriyatlari, etika va jamiyat bilan hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirishning eng samarali usullari quyidagilar:

- Fanlararo yondashuv orqali nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish;
- Mahalliy va global ekologik muammolar bo‘yicha amaliy loyihalarni amalga oshirish (Bowers Chet va Charles Alexander Hopkins, 2004) [4].

Hindistonlik ekologik ta’lim olimi ekologik ta’lim bo‘yicha xalqaro hamkorlik va ta’lim tarmoqlarini rivojlantirish orqali yosh avlodni ekologik faollikka jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqqan. U Hindistonda va xalqaro miqyosda ekologik ta’lim tarmoqlarini yaratib, maktablar va jamoat tashkilotlari o‘rtasida integratsiyani ta’minlagan. Sarabhaining tadqiqotlarida ekologik ta’limning samaradorligi nafaqat o‘quv jarayonidagi bilimga, balki o‘quvchilarning kundalik hayotdagi xatti-harakatlariga ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, u ekologik ta’limning global barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashishini ta’kidlab, yosh avlodni barqaror hayot tarziga o‘rgatish mexanizmlarini ishlab chiqqan (Kartikeya Sarabhai, 2010) [5].

AQSHda kasbiy ekologik ta’lim va tarbiya turli shakl va yo‘nalishlarda amalga oshiriladi, bunda metodologik yondashuvlar keng qo‘llaniladi. Ta’lim va tarbiya jarayonlariga ekologik etika chuqur integratsiyalashgan bo‘lib, aholining tabiatga mas’uliyatli va ehtiyotkor munosabatini shakllantirishda keng jamoatchilik, xususan, nodavlat tashkilotlar faol jalb qilinadi.

Shvetsiyada ekologik ta’lim va tarbiya 1970 yilda “Yevropada atrof-muhit yili” tadbirlariga tayyorgarlik jarayonida tashkil etilgan bo‘lib, atrof-muhitni muhofaza qilish mavzusi yangi to‘qqiz yillik majburiy ta’lim dasturiga kiritildi. Shu davrda atrof-muhit masalalarini tartibga soluvchi Milliy dastur ishlab chiqilib, rasmiy ravishda qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida pedagoglar va o‘quvchilar uchun yangi o‘quv qo‘llanmalar va metodik yo‘riqnomalar nashr etildi (Shodimetov. Yu, 2003) [6].

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish metodlarini aniqlash va tahlil qilish uchun integratsiyalashgan ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy vazifasi – ekologik tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, shuningdek, xalqaro olimlar tajribasini tahlil qilib, o‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni rivojlantirishning samarali metodlarini aniqlashdir.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ekologik amaliyot – bu shaxsning ekologik ma’naviyati va madaniyatini hayotiy va mehnat faoliyatida qo‘llay olish qobiliyatining motivatsiyalangan darajasidir. Ya’ni, ekologik ong va madaniyatning amaliy zarurligini his etish va uning ijobiy

[1] Gough A. Education and the Environment: Developing Eco-Literacy. – Melbourne: Australian Academic Press, 2002.

natijalaridan foyda olish imkoniyati ma’lum boshqaruv organlari yoki iqtisodiyot tarmoqlari doirasida yaratilgan sharoit bilan bog‘liq. Bu amaliyot davlat, jamiyat va korporativ tashkilotlarning ekologik siyosati, qonunchiligi, harakatlar dasturi, ish rejasi, tadqiqot yo‘nalishlari va kadrlar tayyorlash tizimida o‘z aksini topadi hamda ularni amalda tatbiq etish bilan namoyon bo‘ladi. Ekologik ta’lim, tarbiya va amaliyot mohiyati uning uch yo‘nalishdagi tadqiqot qilish, o‘rgatish va amalga joriy etish predmetida o‘z aksini topadi:ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o‘zgargan) muhofaza qilish; ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish; buzilgan ekotizimlarni qayta tiklash.

Ushbu tadqiqot maktabning 5–7-sinf o‘quvchilari ustida amaliy tarzda o‘tkazildi. Tadqiqotda 6 nafar o‘qituvchi ekologik qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar asosida faoliyat yuritdi. Umumiy olganda, 30 nafar o‘quvchi tadqiqotda ishtirok etdi. Tadqiqot boshlanishida o‘quvchilarning ekologik bilim va qadriyat darajasini aniqlash uchun diagnostik so‘rovnomalar, kuzatuv va intervyu metodlaridan foydalangan holda boshlang‘ich baholash o‘tkazildi.

Tadqiqotda ekologik qadriyatlarni shakllantirish uchun quyidagi metod va usullar qo‘llandi:

Interfaol mashg‘ulotlar – o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, ekologik loyihalar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlar orqali tabiatni muhofaza qilish vazifalarini bajardilar.

Amaliy mashg‘ulotlar – maktab hududida chiqindilarni ajratish, daraxt va gullarga g‘amxo‘rlik qilish, suv va energiya resurslarini tejash bo‘yicha amaliy ishlar bajarildi.

Kuzatuv va baholash – o‘quvchilarning xulq-atvori va ekologik faoliyati muntazam kuzatildi va baholandi.

1-jadval. O‘quvchilarning ekologik xulq-atvori va bilimlarini baholash

Sinf	O‘quvchilar soni	Boshlanishda (%)	Yakunda (%)
5-sinf	10	33%	75%
6-sinf	10	36%	80%
7-sinf	10	35%	78%
Jami/O‘rtacha	30	35%	78%

Bu metodika ilmiy asosini Kartikeya Sarabhai (Hindiston) tomonidan ishlab chiqilgan ekologik ta’lim konseptlaridan oladi. Sarabhai interfaol va amaliy metodlarni maktablar va jamoat tashkilotlari bilan integratsiya qilgan holda yoshlarni ekologik faoliyatga jalb qilishni tavsiya qiladi. Shu metodlar asosida biz o‘quvchilarning ekologik xulq-atvori va bilimlarini oshirishga erishdik.

Tahlil natijalarimizda, o‘quvchilarning ekologik bilim va qadriyatlarni qabul qilish darajasi sezilarli darajada oshdi:

– Mashg‘ulot boshlanishida o‘quvchilarning o‘rtacha ekologik bilim darajasi 35%;

– Mashg‘ulot yakunida 78% ga yetdi.

XULOSA. O‘quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirishda nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, davlat va jamoat tizimlari bilan integratsiyalashgan metodlar eng samarali hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat bilim va faollikni, balki axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, amaliy loyihalar, fanlararo yondashuv, interaktiv pedagogika va jamoaviy hamkorlik o‘quvchilarda ekologik ong va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishda eng samarali vositalardir. Ushbu tadqiqot maktabning 5–7-sinf o‘quvchilari ustida o‘tkazilgan amaliyot natijalariga asoslanadi. Tadqiqot ko‘rsatdiki, ekologik qadriyatlarni shakllantirish metodikasi, jumladan interfaol mashg‘ulotlar va amaliy ishlar, o‘quvchilarning ekologik bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi va ularning xulq-atvorida ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi. Shvetsiya, AQSH va Rossiya tajribalari ekologik qadriyatlarni shakllantirishda nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 3-b.

2. Gough A. Education and the Environment: Developing Eco-Literacy. – Melbourne: Australian Academic Press, 2002.
3. Gough A. Integrating Environmental Education: Cross-disciplinary Approaches to Sustainable Development. – Sydney: Routledge, 2005.
4. Hopkins C.A., Bowers C. Education and Ecological Crisis: Pedagogical Approaches to Sustainability. – Boston: Beacon Press, 2004.
5. Sarabhai K. Environmental Education for Sustainable Development: Strategies and International Collaboration. – New Delhi: Indian Environmental Institute, 2010.
6. Shodimetov. Yu. Ijtimoiy ekologiya. (darslik). Toshkent. 2003 y.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING SIYOSIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

Salaeva Laylo Shavkatovna
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning siyosiy-huquqiy mexanizmlari haqidagi fikrlar tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, bugungi kunda dunyo miqyosida g‘oyaviy qapama-qapshiliklap keskin va mupakkab tus olgan bir sharoitda har bir suveren davlat ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashi dolzarb vazifa sifatida e’tbor qaratilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, mafkuraviy immunitet, axborot xavfsizligi, milliy g‘oya, ma’naviy tarbiya, ta’lim.

Globallashuv sharoitida axborot oqimlarining tezligi va ta’sir doirasi ortib borayotgan bir davrda, har bir suveren davlat o‘z g‘oyaviy hududini, ijtimoiy ongi va milliy qadriyatlarini himoya qilish uchun huquqiy asoslangan, siyosiy jihatdan aniq belgilangan va institutsional tuzilmalarga tayangan strategiyalarni ishlab chiqishga majbur bo‘lmoqda. Ayniqsa, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash borasida bu siyosiy-huquqiy mexanizmlar davlat barqarorligi, fuqarolik jamiyati ishonchliligi va ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashda asosiy vositaga aylanmoqda.

Ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikning siyosiy-huquqiy mexanizmlari bu avvalo, milliy qonunchilik, davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar orqali axborot makonida va ijtimoiy ongda bo‘ladigan g‘oyaviy tahdidlarga qarshi huquqiy asosda kurashish tizimidir. Bunday mexanizmlar mazmunan faqat jinoyat yoki ma’muriy choralar bilan chegaralanmaydi, balki ma’naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan, tarbiya, ta’lim, madaniyat va kommunikatsiya sohalarini qamrab olgan kompleks yondashuvni o‘z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham mustaqillik yillaridan boshlab milliy mafkurani shakllantirish, jamiyatda g‘oyaviy barqarorlikni ta’minlash, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish kabi yo‘nalishlar davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har bir fuqaroning fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi kafolatlangan bo‘lsa-da, bu huquq ijtimoiy barqarorlik, davlat xavfsizligi va jamiyat manfaatlari bilan muvozanatli tarzda ifodalangan. Bu esa bizga fikr erkinligi va g‘oyaviy xavfsizlik o‘rtasida demokratik asosda muvozanat topishga xizmat qiluvchi siyosiy-huquqiy asoslar mavjudligini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim omil – “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun (2018), “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun, “Ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirish strategiyasi”, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun va 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kabi hujjatlar O‘zbekistonda mafkuraviy xavfsizlik sohasida samarali

huquqiy asos yaratganini ko‘rsatadi. Aynan ushbu huquqiy hujjatlar orqali mafkuraviy tahdidlarni aniqlash, axborot xavfsizligini ta’minlash, yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish, diniy ekstremizm va radikalizmning oldini olish, shuningdek, ijtimoiy ongi barqarorligini kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda siyosiy-huquqiy mexanizmlar strategik vosita sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayonlar siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, g‘oyaviy bo‘shliqlarni bartaraf etish va davlat-huquqiy institutlar faoliyatini demokratik asoslarda takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Falsafiy jihatdan olganda, siyosiy-huquqiy mexanizmlar nafaqat institutlar tizimi sifatida, balki qadriyatlar, norma va ideallarni aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy platforma sifatida qaralishi zarur. M. Jo‘rayev ta’kidlaganidek, “ma’naviy xavfsizlik g‘oyaviy suverenitetni saqlash orqali siyosiy barqarorlikka erishish vositasidir”[1]. Shu bois, siyosiy-huquqiy mexanizmlar nafaqat repressiv funktsiyalarni, balki ongiyotni yuksaltirish, fuqarolik madaniyatini shakllantirish kabi gumanitar vazifalarni ham bajarishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ma’naviyat va ma’rifat to‘g‘risida”gi qonunlar, “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi normativ hujjatlar bu borada asosiy siyosiy-huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston - yangi taraqqiyot bosqichi” konsepsiyasi doirasida “xalq bilan muloqot”, “inson qadri” tamoyillari g‘oyaviy barqarorlikni kafolatlovchi siyosiy diskursga aylandi.

Mahalliy olimlardan S.R.Sagdullayev o‘z tadqiqotlarida siyosiy-huquqiy mexanizmlarning mafkuraviy tahdidlarga nisbatan proaktiv yondashuvini targ‘ib etadi. Unga ko‘ra, siyosiy institutlar nafaqat mavjud xavflarga javob berishi, balki ularni oldindan prognozlab, ijtimoiy ongda immunitet shakllantirishi lozim[2]. Bunday yondashuvda davlat organlari, ayniqsa, Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi va boshqa tuzilmalar axborot xavfsizligi, g‘oyaviy barqarorlik va qonun ustuvorligini ta’minlashda ko‘p funksiyali rol o‘ynaydi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ–5282-sonli qarori asosida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish” konsepsiyasi doirasida davlat idoralarining mas’uliyati belgilab berildi. Mazkur hujjat asosida barcha davlat organlarida ma’naviy-mafkuraviy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi maslahatchi lavozimlari joriy etildi. Bu esa institutsional darajadagi mafkuraviy nazorat mexanizmini kuchaytirgan holda, g‘oyaviy barqarorlikning siyosiy-huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Amaliy jihatdan qaraganda, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun va “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunlar mafkuraviy xavfsizlikka bevosita daxldor. Chunki bu qonunlar orqali yoshlar ongi, axborot makoni va ijtimoiy adolatga doir g‘oyaviy ustuvorliklar normativ darajada mustahkamlanadi. Bu fikrni mahalliy siyosatshunos olim X. To‘rayev ham o‘z asarlarida alohida ta’kidlaydi[3].

Shaxsiy pozitsiyamizga ko‘ra, mafkuraviy xavfsizlikni faqat kuch bilan emas, balki huquqiy ong, siyosiy madaniyat, fuqarolik erkinliklari va ijtimoiy ishonch asosida ta’minlash mumkin. Bu esa siyosiy-huquqiy mexanizmlarning g‘oyaviy ifoda, mafkuraviy immunitet va institutsional kuch uyg‘unligidagi faoliyatiga bevosita bog‘liq.

Shaxsiy pozitsiyamizga ko‘ra, mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning siyosiy-huquqiy asoslari nafaqat xavflarni bartaraf etish, balki fuqarolik jamiyatining sog‘lom rivojlanishini kafolatlovchi “ijtimoiy kontrakt”ga aylanmog‘i zarur. Zero, demokratik huquqiy davlatda g‘oyaviy erkinlik doimiy kuzatuv ostida emas, balki mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasi orqali o‘zini namoyon qilishi kerak. Shu bois, biz O‘zbekiston siyosiy-huquqiy tizimida mafkuraviy xavfsizlik strategiyasini fuqarolarning ongini nazorat qilishga emas, balki ularni mustahkamlashga, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga va milliy g‘oya atrofida birlashtirishga yo‘naltirilgan yondashuv deb baholaymiz.

Mafkuraviy xavfsizlik masalasi har qanday zamonaviy jamiyatda nafaqat g‘oyalar maydonida, balki aniq normativ-huquqiy va siyosiy tizimlar doirasida hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifadir. Ayniqsa, O‘zbekiston singari tarixiy transformatsiyani boshidan kechirayotgan

jamiyatda bu masala ijtimoiy barqarorlik, xalqaro nufuz, milliy manfaatlar va ijtimoiy ongni himoya qilishda markaziy ahamiyat kasb etadi. Shu bois biz mafkuraviy xavfsizlikni huquqiy jihatdan mustahkamlashda, siyosiy institutlar va huquqiy mexanizmlarning muvofiqlashtirilgan harakatini zarur deb hisoblaymiz.

Birinchidan, mamlakatda huquqiy asos bo‘lmagan mafkuraviy siyosat beqarorlik, ziddiyatlar va legitimlik tanqisligiga olib keladi. Shu jihatdan, 2021-yilda qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning 5-ustuvor yo‘nalishida ma’naviy-mafkuraviy barqarorlik, ijtimoiy ong va axborot xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar alohida e’tirof etilgan. Bu normativ asos huquqiy jihatdan mafkuraviy barqarorlikni konstitutsiyaviy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirish zaruratidan kelib chiqadi .

Ikkinchidan, siyosiy-huquqiy mexanizmlarning amaliy ifodasi davlat siyosatini shakllantiruvchi va ijro etuvchi institutlar faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi faoliyatni takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonlari, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ishlash bo‘yicha komissiyalar qarorlari bevosita mafkuraviy xavfsizlikka qaratilgan davlat siyosatining komponentlari hisoblanadi .

Uchinchidan, huquqiy mexanizmlar ichida axborot sohasini tartibga soluvchi qonunlar - xususan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun va “Kiberxavfsizlik strategiyasi”ning mavjudligi g‘oyaviy ta’sirning texnologik aspektlarini normativ darajada nazorat qilishga imkon beradi.

Bizning nazarimizda, ushbu siyosiy-huquqiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirish uchun quyidagi yondashuvlar muhimdir:

1. **Tahliliy monitoring tizimlari** - xorijiy tajribada AQShning “Global Engagement Center” (GEC) yoki Yevropa Ittifoqining “Radicalisation Awareness Network” (RAN) modeli asosida O‘zbekistonda “Milliy G‘oya Monitoring Agentligi”ni tashkil etish taklifi dolzarbdir. Bu agentlik sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida axborot oqimini tahlil qilib, g‘oyaviy tahdidlarni aniqlashi mumkin.

2. **Huquqiy savodxonlik platformalari** - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Huquqiy axborot portali” bazasida maxsus “g‘oyaviy xavfsizlik” bo‘limi tashkil etilishi, yoshlarda ma’naviy-huquqiy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. **Fuqarolik monitoringi** - siyosiy-huquqiy mexanizmlar faqat yuqoridan pastga ishlamasligi kerak. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati institutsional tahlilga jalb etilishi, masalan, “Yoshlar parlamenti”, “Ochiq budjet” va “Mahalla yetakchisi” loyihalari orqali jamiyatdagi g‘oyaviy holat doimiy kuzatuv ostiga olinadi.

Bu borada biz quyidagi mahalliy olimlarning qarashlarini e’tiborga olishimiz lozim: M.A. Mahmudovning ta’kidlashicha, “g‘oyaviy xavfsizlik siyosati nafaqat reaktiv himoya, balki ongli va barqaror mafkurani ishlab chiqish, uni ijtimoiy mexanizmlar orqali singdirish bilan belgilanadi” .

Shuningdek, Q.Qahramonov o‘z tadqiqotlarida “huquqiy ong va g‘oyaviy intizom bir-birini to‘ldiradigan kategoriyalardir”[4], deb ta’kidlaydi .

Xulosa qilgan holda, biz shuni ayta olamizki, O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga doir siyosiy-huquqiy mexanizmlar ko‘p bosqichli, kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda milliy qonunchilik, siyosiy institutlar, fuqarolik tashabbuslari va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish asosiy strategik vazifadir. Aynan mana shu ko‘p qirrali yondashuv orqali biz jamiyatimizda mafkuraviy barqarorlik va g‘oyaviy mustahkamlikni kafolatlay olamiz.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar tizimida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi avvalgidan ko‘ra ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, bir tomondan, g‘oyaviy tahdidlarning ko‘p formatli va transmilliy xususiyatga ega bo‘layotgani bilan, ikkinchi tomondan esa, milliy davlatchilik va ijtimoiy birdamlik poydevorini mustahkamlash ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Biz bu jarayonda siyosiy-huquqiy mexanizmlarni faqat normativ hujjatlar majmui emas, balki ongiy nazorat, ijtimoiy ong muvozanatini ta’minlovchi strategik mexanizm sifatida ko‘rishimiz lozim.

Bugungi raqamli davrda mafkuraviy xavfsizlikni tartibga soluvchi qonunchilik ham ilg‘or texnologik vositalarni o‘z ichiga olishi lozim. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasidagi siyosatini amalga oshiruvchi organ sifatida Raqamli texnologiyalar vazirligining tashabbuslari, “Kiberxavfsizlik konsepsiyasi” va “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun loyihalari aynan mafkuraviy sohada yuz berayotgan transchegaraviy xatarlarni huquqiy jihatdan jilovlash imkonini beradi. Bu borada biz xorijiy davlatlar tajribasiga murojaat qilgan holda, o‘ziga xos milliy modelni shakllantirishimiz zarur, deb hisoblaymiz.

Masalan, Germaniya “NetzDG” qonuni orqali ijtimoiy tarmoqlarda nafrat va radikalizmni ilgari suruvchi kontentga nisbatan jazo choralarini kuchaytirgan bo‘lsa, Fransiyada “Laïcité”[5] tamoyiliga asoslangan ma’naviy-madaniy barqarorlik siyosati yuritilmoqda. Janubiy Koreyada esa “KISA” (Korea Internet & Security Agency)[6] orqali sun’iy intellekt yordamida milliy axborot makonini monitoring qilish ishlari yo‘lga qo‘yilgan[7]. Biz ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitida ma’naviy barqarorlik strategiyasi bilan uyg‘unlashtirgan holda, quyidagi yo‘nalishlarni muhim, deb hisoblaymiz:

Siyosiy-huquqiy monitoring markazlari – O‘zbekistonda “Ma’naviy xavfsizlikni baholash va monitoring qilish agentligi” tuzilib, bu agentlik siyosiy kampaniyalar, ijtimoiy tarmoqlar va OAVda yuritilayotgan mafkuraviy diskurslar ustidan monitoring olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Raqamli senzura emas, raqamli mas’uliyat – Nafaqat taqiqlovchi choralar, balki kontent ishlab chiqaruvchilarga nisbatan axloqiy va huquqiy mas’uliyat yuklovchi qonunlar ishlab chiqilishi lozim. Bu borada “Cyberspace Ethical Code” yoki “Axborot etikasi kodeksi” singari xalqaro yondashuvlar asosida milliy normativ hujjat yaratilishi zarur.

Ma’naviy va axborot sohasi mutaxassislarini tayyorlash tizimi – oliy ta’limda “Axborot xavfsizligi va mafkuraviy tahdidlar”, “Digital Ethics”, “Axborot huquqi” kabi fanlar majburiy ravishda o‘qitilishi va ushbu sohaga ixtisoslashgan magistratura va doktorantura dasturlari joriy etilishi kerak.

Shundan kelib chiqib, mafkuraviy xavfsizlikni faqat tashqi “dushmanlar”ga qarshi kurash sifatida emas, balki ichki bilim maydonini intellektual boshqarish shaklida ham ko‘rish lozim.

O‘zbekiston bu yo‘nalishda muhim siyosiy-huquqiy islohotlarni boshlab yuborgan. Masalan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “siyosiy huquqiy ongni oshirish”, “raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish” va “fuqarolik jamiyatini faollashtirish” singari g‘oyalar ilgari surilgan. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda siyosiy-huquqiy mexanizmlarning roli tobora kuchayib bormoqda. Bu mexanizmlar nafaqat davlat boshqaruvi va huquqiy normalarning himoya vositasi, balki fuqarolarning ongini shakllantiruvchi, g‘oyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi murakkab ijtimoiy-madaniy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев М. Маънавий хавфсизликнинг назарий-методологик асослари. – Т.: Ижтимоий фикр, 2021. – 224 б

2. Сагдуллаев С.Р. Идеологическая безопасность в условиях глобализации. – Т.: Фан, 2022. – b.192.

3.Тўраев Х. Миллий хавфсизлик ва мафкуравий таҳдидлар. – Т.: Iqtisod-Moliya, 2020.

4. Қаҳрамонов Қ. Маънавий ва ҳуқуқий тарбия асослари. – Т.: Норма, 2020.

5. La Loi sur la République (France, 2021). Ministère de l’Intérieur.

6. Korea Internet & Security Agency. Cyber Threat Report. – Seoul, 2022.

7. Mahmudov M.A. G‘oyaviy barqarorlik va axborot xavfsizligi. – T.: Fan, 2022.

EKOLOGIK HUQUQ VA MAJBURIYATLAR HAMDA ULARNI O‘QITISHNING DOLZARBLIGI

Sodiqova Nozima Xusan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Ushbu yo‘nalishda biz an’anaviy shakllardan foydalanamiz, masalan: suhbatlar, maslahatlar, so‘rovlar, ota-onalar yig‘ilishlarini o‘tkazish, birgalikda dam olishni tashkil etish. An’anaviy shakllar bilan bir qatorda biz ta’lim jarayoniga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilmoqdamiz: ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali masofaviy o‘zaro ta’sir, ota-onalarni ijtimoiy tadbirlarga jalb qilish, ko‘ngillilar harakati, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni konstruktiv hal qilish variantlarini izlash, birgalikda ijtimoiy videofilmlar yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda qo‘llaniladigan interaktiv ekskursiyalar shular jumlasidandir.

An’anaviy ish shakllarini innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshirilayotgan ota-onalar bilan ishlashni takomillashtirish tamoyillaridan biridir.

Tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan ishlashda biz turli xil qiyinchiliklar va muammolarga duch kelamiz, ularni hal qilish keyingi birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyati va natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Tarbiyachilar oldida turgan muammolardan biri ota-onalarni bolalarining maktabgacha ta’lim tashkilotida bo‘lish shartlari bilan tanishtirishdir. Samarali hamkorlik uchun birinchi taassurot juda muhim. Ota-onalar farzandining keyingi rivojlanishi va o‘sishi uchun bolalar bog‘chasiga borishi zarurligi va jiddiyligini bilishlari kerak. Tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan birgalikda biz bolaning qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hamkorlik tizimini, maqsad va vazifalarning birligini va ularni hal qilish usullarini ishlab chiqamiz. Biz faol individual ishlarni olib boramiz, bu oiladagi tarbiya sharoitlarini, oilaviy an’analarni, har bir oila a’zosining xarakterini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ota-onalar va bolalarning individual ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, biz kelgusida hamkorlik qilish uchun zarur va samarali hamkorlik shaklini tanlaymiz.

Bolaning bolalar bog‘chasida bo‘lish shartlari bilan tanishganda, ota-onalar xuddi farzandlari kabi o‘ziga xos moslashish davrini boshdan kechiradilar. Shu munosabat bilan ular ma’lum qo‘rquv, ishonchsizlik va noaniqlikni boshdan kechirishlari mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun biz ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilamiz va bu yerda biz nafaqat “mijoz” va “ijrochi” sifatida harakat qilamiz, balki teng huquqli sherik bo‘lamiz. Bog‘cha eshiklari nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari uchun ham doim ochiq. Maktabgacha ta’lim tashkilotida “oila klubi” mavjud bo‘lib, uning asosiy maqsadi ota-onalarning bolalar bog‘chasiga borishining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida g‘oyalarni shakllantirish va ularning moslashish davrida birga bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratishdir. Bu borada “Ishonch pochtasi” ni yaratilishi - ota-onalar bolalar bog‘chasiga tashrif buyurishda duch kelgan muammolari, ularga nima yoqdi va nima yoqmadi, ushbu muammolarning qanday yechimlarini ko‘rishlari, o‘z xohish-istaklari va maktabgacha ta’lim tashkiloti ishi bo‘yicha fikr-mulohazalarini aytib berishlari mumkin bo‘lgan xat qoldirishlari mumkin. Barcha xatlar ko‘rib chiqiladi va yuzaga keladigan kelishmovchilik va qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mumkin bo‘lgan yechimlar qabul qilinadi. Ota-onalar yanada ochiq bo‘ladilar va shu bilan ta’lim tashkiloti tarbiyachilari bilan ishonchli munosabatlar shakllanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki o‘tgan o‘quv yilida jahon banki bilan hamkorlikda tashkil etilgan loyiha davomida bir qator muammolarga ham duch kelindi. Xususan, bir qator pedagoglar hamon eskicha uslubdan voz kecha olmayapti. Bog‘chalarda ta’lim sifati va pedagoglar salohiyati o‘rganilish asnosida tarbiyachilar o‘yin mashg‘ulotlaridan kam foydalanishi aniqlandi. Yangicha usuldagi o‘yin markazlari kerakli darajada qo‘llanilmagan, tarqatma materiallar va o‘yinchoqlardan foydalanishda esa absurd darajada loqaydlikka yo‘l qo‘yilgan [2]. Masalan, ba’zi bog‘chalarga berilgan o‘quv-didaktik materiallar va o‘yinchoqlar hamon yangi holatda turgani aniqlandi. Tarbiyachilar uni ishlatmasdan, shunchaki tekshiruvchilarga ko‘rsatish uchun saqlab qo‘ygan. Aslida bu materiallar va o‘yinchoqlar bolalar ta’limi va tarbiyasi uchun foydalanish asnosida buzilib, yo‘q bo‘lib ketishi kerak edi, ammo bir qator MTTlarda ushbu jihozlar yangi holatda shkaflarda saqlanayotgani aniqlandi.

Tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan ishlashda biz ularning farqlariga duch kelamiz - har birining o‘ziga xos qiyinchiliklari va muammolari bor. Bizning oldimizda keyingi qo‘shma ishimizga ta’sir ko‘rsatadigan muhim vazifa - hissiy aloqa o‘rnatish va “sheriklik munosabatlari” istagi bor. Buning uchun biz har bir oila hayotining turli holatlarini tahlil qilamiz va muayyan vaziyatda o‘zaro ta’sir qilish usullari va vositalarini tanlashda to‘g‘ri yechimni tanlaymiz. Biz bolaning oilasining xususiyatlarini aniqlash uchun so‘rovlar, testlar va turli xil psixologik va pedagogik treninglar o‘tkazamiz. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina ota-onalar ta’lim va ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarni singdirish sohasida maxsus bilimga ega emaslar va bolalar bilan aloqa o‘rnatishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ota-onalarga yordam berish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida maslahat markazi mavjud bo‘lib, u yerda tarbiyachilar ota-

onalarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish va yaxshilash, bolalarni tarbiyalashda maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatadilar. Masofaviy maslahatlardan foydalanish amaliyoti ota-onalardan yordam so‘rab murojaatlar sonini ko‘paytirdi. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ularning bandligi tufayli barcha ota-onalar bizning tashkilotimizga tashrif buyurishi mumkin emasligi va masofadan turib ishlagan holda, ota-onalar uchun ham, maslahatchining maslahat uchun eng qulay vaqtni tanlashingiz mumkin.

Bolalar bog‘chasida qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish an’anaga aylangan: bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar, fotoko‘rgazmalar dizayni va mahorat darslari. Ota-onalar ta’lim tashkiloti faoliyatida faol ishtirok etib, nafaqat bolalar bog‘chasi xodimlari, balki bir-birlari bilan ham tanishadilar, bu tarbiyachiga ota-onalarning umumiy manfaatlarini aniqlashga va kelgusida jamoaviy faoliyat rejasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ota-onalar va tarbiyachilar yig‘ilishlari maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning an’anaviy shakllaridan biridir. Oldin ham, hozir ham ota-onalarning yig‘ilishlarga ommaviy qatnashishi bilan bog‘liq muammo bor edi. Ammo zamonaviy texnologiyalar bizga bu muammoning samarali yechimini topishga yordam berdi. Tarbiyalanuvchilarning ota-oanlari bilan ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali faol ishlaymiz. Ota-onalarning roziligi bilan biz guruh suhbatlarini yaratdik, unda bolalarning bog‘chadagi mashg‘ulotlari va mashg‘ulotlari haqidagi ma’lumotlarni ota-oanlar suhbatlar davomida muhokama qilamiz. Ota-onalarga video va fotosuratlar yuboramiz, o‘tkazilgan tadbirlarning maqsad va vazifalari va erishilgan natijalar bilan tanishtiramiz. Faol ma’lumot almashinuvi natijasida ota-onalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarni berishlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni belgilashlari mumkin.

Ota-onalar manfaati – iqtisodiy barqarorlik, bandlik, turli xil oqimlarga kirib ketishning oldi olinadi, qadriyatlar tiklanadi, ota-onani hurmat qilish, ularni qadriga yetish, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xususiyatlar rivojlanadi [3-№4].

Ota-onalar ishtirokidagi ochiq mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim tashkilotida ota-onalarning tarbiyalashdagi pedagogik mahoratini shakllantirish va turli pedagogik vaziyatlarni amaliyotda hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan samarali yo‘nalishlardan biridir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida tarbiyachi va ota-onalar belgilangan vazifalarni hal qilish yo‘llarini izlaydilar. Ushbu ish shakli ota-onaga ta’lim faoliyatining murakkabligi va o‘ziga xosligini tushunishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarning oilalari nafaqat psixologik va pedagogik yordam oladi, balki turli ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etadilar va shu orqali maktabgacha ta’lim tashkilotiga, balki butun jamiyatga “zarurligini” tushunadilar. Ijtimoiy faoliyat zamonaviy dunyo uchun juda muhim va ahamiyatli bo‘lib, erta yoshdan boshlab atrofimizdagi dunyoga qanday yordam berish mumkinligini shaxsiy misol orqali ko‘rsatish kerak. Ijtimoiy kampaniyalarimizdan asosiy maqsad bolalarning jamiyat hayotiga munosabatini rivojlantirish va ularning ota-onalarida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iborat. Biz ekologik musobaqalarni o‘tkazamiz: chiqindi qog‘oz, ishlatilgan batareyalar va quvvat elementlarini yig‘ish. Har qanday tanlov yakunida biz natijalarni sarhisob qilamiz va aksiyalarning eng faol ishtirokchilari farzandlarimiz va ularning ota-onalari qo‘lidan tayyorlangan tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi. Bog‘cha bog‘ida butunjahon daraxt ekish kuniga bag‘ishlangan “Yashil maydon” aksiyasi an’anaga aylangan bo‘lib, bog‘cha hududini ko‘kalamzorlashtirishda ota-onalar va bolalar ishtirok etmoqda. “Keraksiz narsalar uchun ikkinchi hayot” aksiyasi ota-onalar va bolalarni eski narsalardan foydali hunarmandchilik qilish variantlari va ulardan keyin foydalanish usullari bilan tanishtiradi. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko‘ngillilar ota-onalari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bolalar bog‘chasidagi ko‘ngillilar harakati yaqin atrof-muhitga yordam va yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Ko‘ngillilar harakati natijalariga ko‘ra, ota-onalar bilan birgalikda amalga oshirilgan ishlar natijalarini aks ettiruvchi ijtimoiy yo‘naltirilgan videoroliklar yaratamiz. “Do‘st uchun o‘yinchoqlar” aksiyasi barcha ishtirokchilarga juda ko‘p ijobiy his-tuyg‘ularni olib keladi - biz ota-onalar bilan birgalikda qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalarga o‘yinchoqlar beramiz. Tayyorgarlik guruhidagi bolalar bilan biz kichkintoylar

uchun tarbiyalanuvchilarning keyingi ijtimoiylashuviga hissa qo‘shadigan teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Zamonaviy bolalar mutlaqo yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda yashaydi va rivojlanadi, shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar oilaviy an’analar va ma’naviy-axloqiy tarbiya qadriyatlarini saqlash zarurati bilan duch kelishadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida oilaviy an’analar, ajdodlarimiz mehnatlari xotirasini tiklash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Bu borada quyidagi aksiyalarni o‘tkazish maqsadga muvofiq: “Qariyalarni-qadrlash”, “Faxriyga sovg‘a”, “Mehmon-aziz”, “Ulug‘ ajdodlar-tariximiz darg‘alari” v.h. Biz bu harakatlarimiz bilan davlatimiz tarixiga bo‘lgan munosabatimizni ko‘rsatib, yosh avlodni Vatanimiz tarixiga hurmatli munosabatda bo‘lishni tarbiyalashni maqsad qilganmiz. Bu boradagi ishlarimizni ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytimizda faol yoritib boramiz.

Biz ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha oilalarni rag‘batlantirish orqali guruh darajasida eng faol ishtirok etgan oilalarga minnatdorchilik va diplomlar bilan taqdirlaymiz. Bu borada nafaqat bolalar bog‘chasi darajasida, balki shahar darajasida ham - ularga sertifikatlar va sovg‘alar berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi [4].

Bolalar bog‘chasi va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik darhol yuzaga kelmaydi - bu doimiy tuzatishlarni, uzoq va mashaqqatli mehnatni talab qiladigan uzoq jarayon. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ota-onalar bilan ishlashni takomillashtirish bo‘yicha amaliy amaliyotni tahlil qilsak, shuni aytishimiz mumkinki, ota-onalarning pozitsiyasi yanada moslashuvchan bo‘ldi, ular bolalarni tarbiyalashda o‘zlarini yanada malakali his qila boshladilar, bolalar bog‘chasi hayotiga faol qiziqish va ishtirok etishni boshladilar, shuningdek, o‘z farzandlariga hissiy yordam ko‘rsatishni o‘rgandilar. Ota-onalarning psixologik-pedagogik malakasi darajasi oshdi, bu esa ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirishga va MTT xodimlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Birgalikdagi faoliyatni tahlil qilish: so‘rovlar va monitoring amalga oshirilgan ishlarning samaradorligini ko‘rsatdi. Va shuning uchun biz erishgan bosqichda to‘xtab qolmay, balki oldinga - o‘zaro ta’sirning yangi, yanada mukammal shakllarini izlashga intilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горвис Ю. М., Поздняк Л. Кому работат с компютером в детском саду. Дошколное воспитание – 1991.- № 5.

2. https://xabar.uz/talim/talim-sifati-yutuq-kamchilik-va-muammolar

3. Abdullaeva N.Sh. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga klaster tizimini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari” maqola. Obrazovanie i innovatsionnыe issledovaniya (2021 god №4)

4. Новоселова С. Л., Петку Г. П. Компютерный мир дошколника. – М.: Новая школа, 1997.

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK TUSHUNCHASI: IJTIMOIY-HUQUQIY TAHLIL

Sadikova Elmira Maratovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: B.M.Qandov ChDPU dotsenti, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zo‘ravonlikning to‘rt turi - jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy misollar va statistik ma’lumotlar orqali tasvirlangan hamda oiladagi zo‘ravonlikning salbiy oqibatlari (jismoniy vayronanlik, ruhiy kasalliklar, ijtimoiy izolyasiya) ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada, zo‘ravonlik va diskriminatsiya sabablari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini ochiqlashtirish hamda kamsitishning oldini olishga qaratilgan amaliyotga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek maqolada jamoat, davlat va diniy institutlarning rolini ochib beradi, shu bilan birga milliy va xalqaro tajriba o‘rtasidagi muvofiqlikni ochib bergan.

Kalit so‘zlar: ayollar huquqlari, zo‘ravonlik, diskriminatsiya, gender tenglik, himoya orderi, reabilitatsiya, jamiyat, Yangi O‘zbekiston, ma’rifat, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik.

Ayollar haqida gap ketganda ko‘pincha ularning ajralmas xususiyatlari - mehr-shafqat, intizom, oilaviy mas’uliyat - esga tushadi. Shunday bo‘lsa-da, zamonaviy jamiyatda ayollar nafaqat uy-hurom ishlari bilan cheklanmay, balki ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham faol ishtirok etishmoqda. Shu bilan birga, oilada va jamiyatda ayollarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlik muammosi hanuzgacha saqlanib kelmoqda. YAngi O‘zbekistonda oxirgi yillarda gender siyosati sohasida huquqiy va amaliy choralar kuchaytirildi - himoya orderlari joriy etildi, reabilitatsiya markazlari tashkil qilindi va jamoatchilik ma’rifati uchun elektron kurslar ishlab chiqildi.

Ayollar haqida gap ketganda ko‘z oldimizga munis, ojiza bir xilqat keladi. Lekin hayot sinovlaridan bardosh bilan o‘tishda ulardagi ma’naviy kuch-quvvatiga kuchli jins vakillari ham tan beradilar. Bugungi kunda ayollar nafaqat oila, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan bandlar, shu bilan bir qatorda jamiyat hayotining muayyan sohasida o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar, ilmiy yangiliklar yaratib, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini engil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz”[1], deb ta’kidlagan.

Milliy va diniy qadriyatlarimizda erkakni hurmat qilish, hurmat jihatidan o‘zidan bir pag‘ona yuqori ko‘rish kabi hislatlar ayollarda bolaligidan shakllantiriladi. Lekin qaysi millat yoki din erkakka ayolini xo‘rlash, jirkanch ishlarni qilishga majbur etishga ruxsat beradi? Bu eng avvalo insoniylikka, axloq- odobga to‘g‘ri kelmaydigan harakatdir. Sahih hadislarga ko‘ra, Abdulloh ibn Zam’a roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«Birortangiz o‘z ayolini qulni kaltaklagandek kaltaklamasin»[2:242] dedilar. Bu bilan Islom dinida ayol kishini xo‘rlamaslikka da’vat etiladi.

“Kamsitish” (“diskriminatsiya”) - kishini irqi, jinsi, tili, dini yoki boshqa asoslarga ko‘ra har qanday farqlash, chetlatish, cheklash yoki maqbul ko‘rish hisoblanib, buning oqibatida kishining huquqlari poymol qilinadi yoki ularni ro‘yobga chiqarish qiyinlashtiriladi. Teng sharoitlar mavjud bo‘lgan holatda noteng muomala qilinsa - bu kamsitish bo‘ladi. Evropa Sudining fikricha, kamsitish – bir xildagi holatda bo‘lgan shaxsga yoki bir guruh shaxslarga turlicha muomalada bo‘lishdir. Lekin, turlicha muomalada bo‘lish hamma vaqt ham kamsitish emas. Turlicha muomalada bo‘lishni oqlovchi qonuniy maqsad bo‘lmasa yoki turlicha muomalani qo‘llash shunday xolis, oqil maqsadga muvofiq bo‘lmasa – kamsitish bo‘ladi”[3].

“Zo‘ravonlik esa qonun bilan ta’qiqlangan ma’naviy, ruhiy va jismoniy zarar etkazuvchi harakatlarni shaxs xohish irodasiga qarshi ravishda amalga oshirishdir. Zo‘ravonlikning ko‘rinishlari turlicha bo‘lib, 2019 yil 2 sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonunida zo‘ravonlikning to‘rt asosiy turi belgilangan. Bular: Jismoniy zo‘ravonlik; Ruhiy zo‘ravonlik; Jinsiy zo‘ravonlik; Iqtisodiy zo‘ravonlik[3:9].

Jismoniy zo‘ravonlik – og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari etkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish. Jismoniy zo‘ravonlikka shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish; zarb bilan itarib yuborish; turli o‘tkir buyum va narsalarni otish; qurol bilan xavf solish yoki yaralash; uydan chiqishga jismonan yo‘l qo‘ymaslik; kechasi uxlashga qo‘ymaslik kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Ruhiy zo‘ravonlik deganda, xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, reproduktiv sohada nazorat qilish, o‘z xavfsizligi

uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar etkazgan harakat (harakatsizlik) tushuniladi.

Jinsiy zo‘ravonlikka - xotin-qizlarning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga etmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash kabilar misol bo‘ladi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik deganda esa, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik) tushuniladi[3:9]. Ushbu zo‘ravonliklarning barcha turi afsuski ayrim oilalardan uchrab turibdi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida har uch ayoldan biri jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda. Odam savdosi qurbonlarining 71 foizi – ayollar. Reproduktiv yoshdagi ayollar orasida o‘lim holati va nogironlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri – ularga nisbatan zo‘ravonlikning qo‘llanilishi hisoblanadi. Olim A.Murodovning izlanishlariga ko‘ra, “Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oiladagi zo‘ravonlik jabrlanuvchilarning asosan uning ojiz bo‘lgan a’zolari, ya’ni bolalar, ayollar, qariyalar va nogironlar tashkil etadi. Oilada zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning 58,5% ayollar, 29,4% voyaga etmaganlar, 5,7% qariyalar, 3,8% erkaklar, 2,6% esa nogironlar tashkil etmoqda. Ayrim tadqiqotlarda shaxsga nisbatan tan jarohati etkazishdan jabrlangan shaxslarning 60%ni ayollar va bolalar tashkil etishi aniqlangan”[4:79].

“Ayolni diskriminatsiya qilish, uning jamiyatdagi o‘rnini faqat qozon – tovoq oldida deb belgilash an’anasi jahon sivilizatsiyasining barcha davrlarida mavjud bo‘lgan”[6:800]. Olim Hayley Y. Golden ayollarni oilada kamsitilishi, zo‘ravonlikka uchrashi haqida ilmiy tadqiqot olib borgan. Ilmiy ishida olim ayollarni oiladagi zo‘ravonlikdan keyingi ruhiy holati, jumladan, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi, oilaviy nizolarga o‘zini aybdor deb his qilishi oqibatida ruhiy hastaliklarga chalinishi, stress va depressiya holatlarini boshdan kechirishini ta’kidlash bilan bir qatorda, oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar bilan o‘tkazgan suhbatlarini ilmiy ishiga ilova qilgan[6].

A.Murodov yana quyidagi tahlillarni ham keltirgan: “Oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga oid xorijiy mamlakatlardagi ma’lumotlar o‘rganilganida, Boliviyada yiliga 17% ayollar jismoniy zo‘ravonlik jabrlanuvchisi bo‘lishi; Bangladeshda qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarining 50% eri tomonidan xotiniga nisbatan sodir etilishi; YAngi Zellandiyada 20% ayollar eri yoki birga yashovchi erkak tomonidan jismoniy kaltaklanishi; Pokistonda 42% ayollar oiladagi jismoniy zo‘ravonlikni o‘zlarining taqdiri deb hisoblashi; Ispaniyada har besh kunda qasddan o‘ldirilgan shaxslarning bittasi ayollar bo‘lib, ular o‘zining turmush o‘rtog‘i tomonidan o‘ldirilganligi; Fransiyada yiliga 25 ming ayol eri tomonidan jinsiy zo‘ravonlikdan jabrlanishi; Avstraliyada ayollarning 18% oiladagi zo‘ravonlikdan aziyat chekishi va jabrlanishi; Rossiyada yiliga 36 ming ayollar oiladagi zo‘ravonlik oqibatida tan jarohati olayotganligi; Misr Arab Respublikasida 35% oilali ayollar turmush davomida kamida bir marotaba eri tomonidan qattiq jismoniy kaltaklanishi qayd etilgan”[4:82].

Imom at-Termiziy rivoyat qilgan hadisda “Ayollarni faqat karamli kishilargina hurmat qiladi, ularni faqat bezorilargina xafa qiladi”[7:83] deyilgan. Afsuski, bugungi kunda karamlilik hislati bilan sifatlangandan ko‘ra, ko‘plab insonlar berahmlilik, qahriqattiqlikni afzal ko‘rib, nafaqat ayoliga, balki farzandlariga ham ruhiy zarar etkazmoqdalar.

BMT Bosh Assambleyasining 1999 yil 17 dekabrdagi rezolyusiyasi bilan 25 noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni sifati belgilangan. 2014 yilda BMT Bosh kotibi xotin – qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni sifatida belgilangan. 2014 yilda BMT Bosh kotibi xotin – qizlarga nisbatan zo‘ravonliklarni bartaraf etishga qaratilgan “UNITE” nomli tashabbusini ochiq deb e’lon qildi. Shu munosabat bilan har yili dunyo miqyosida 25 noyabrdan 10 dekabrgacha “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun” shiori ostida turli tadbirlar o‘tkaziladi. Bu global kampaniya jahonning 187ta mamlakatida o‘tkazilib, 6 mingdan ziyod tashkilotlar hamda 300 million kishini qamrab oladi. Ushbu kampaniya ayollarga nisbatan zo‘ravonlik inson huquqlariga zid harakat ekanini ifodalovchi fikr bilan ramziy bog‘langan ikki voqea 25 noyabr –

Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish kunida boshlanib, 10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kunida yakuniga etadi. O‘zbekistonda ushbu tadbirlar 2011 yildan buyon “Uydagi osoyishtalikdan dunyodagi tinchlik sari” shiori ostida muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda.

2021 yilda mamlakatimizda oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 8ta normativ – huquqiy hujjat qabul qilindi. SHuningdek, 2020 yilda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 14 ming 770 nafar xotin – qizlarga himoya orderi berilgan bo‘lsa, 2021 yilning 10 oyi davomida 32 ming 154 nafariga ana shunday himoya orderi berildi. Ushbu raqamlar zo‘ravonlik holatlari ko‘payayotganidan emas, balki xotin – qizlarning huquqiy ongi va qarashlari yuksalayotganidan, qolaversa, joylarda profilaktika inspektorlarining faol ishlayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin – qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida Mahalla va oilani qo‘llab – quvvatlash vazirligi huzurida 29ta ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari tashkil etildi. 2021 yil 12 noyabrdan boshlab “1146” qisqa Ishonch telefoni ishga tushurildi. Ishonch telefoni “AZIZ-AYOL.UZ” yagona interaktiv milliy platformasi bilan muvofiqlashtirildi. Adliya vazirligi tomonidan xotin – qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan onlayn o‘quv kurslari ishlab chiqilib, barcha uchun bemalol foydalanish imkoniyati yaratilgan “kurslar.huquqiyportal.uz” elektron plptformasiga joylashtirildi.

Bu kabi zo‘ravonlik, ayollarning haqlari poymol etilayotgan holatlar haqida biz internet tarmoqlari, ommaviy axborot vositalaridan xabardor bo‘lib turibmiz. Eng achinarli tomoni shundaki, odamlarning eti qotib, bunday hodisalarni tabiiy jarayondek qabul qilishlaridir. Aslida, bunday vahshiylik, odam qadrini erga uruvchi holatlar millatimiz, dinimiz, umuman insoniyatga yot tushunchadir. Ma’rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bo‘lmoq ila hosil bo‘lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo‘lsa ham, o‘zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas”[8, 65] deganlar.

Butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham gender tenglikka oid izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin afsuski, xalqimizning huquqiy, diniy savodxonligining etarli emasligi gender tenglilik prinsipini amaliyotda keng, samarali qo‘llay olish imkonini ortga surmoqda. Ayrim insonlar tomonidan gender tenglik va Islomda ayol huquqlari bir – biriga zid tushuncha deb qaralayotgani, “gender tenglik” va “feminizm” tushunchalarini bir xil ma’no aks ettiradi deb o‘ylab, unga salbiy qaralayotgani achinarli holat.

Har bir illat bekorchilik, o‘zidan boshqaning dardini his qilmaslik, loqaydlikdan kelib chiqadi. Makhul roziyallohu anhu Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: “G‘iybatchi, maddoh, ta’na qiluvchi va o‘likka o‘xshab yuruvchi kishilar bo‘lishdan saqlaninglar”, degan hadislaridagi “o‘likka o‘xshab yuruvchilar”ni kasb bilan shug‘ullanmaydigan kishilar, deb izohlaganlar”[9, 25]. Bu illatlar nafaqat bir inson, balki jamiyat kelajagiga salbiy ta’sir qilishidan ogoh bo‘laylik. Bu muammoni yoritishdan maqsadimiz erkak va ayol o‘rtasiga nifoq solish yoki ularni kamsitish emas. Balki milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni unutganlar uchun eslatish, amal qilayotganlardan o‘rnak olishdan iborat. Har bir inson haq- huquqlarini talab qilganda emas, balki bir-birini hurmat qilganda, huquqlarini poymol qilmaganda, qadr topgandagina baxtlidir.

Oilada va jamiyatda ayollarga nisbatan sodir etilayotgan turli shakllardagi zo‘ravonlikning borligi va uning inson hayotiga hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zo‘ravonlikning asosiy omillari - ijtimoiy stereotiplar, huquqiy madaniyatning etarli emasligi va iqtisodiy beqarorlikdir. Davlat tomonidan qabul qilingan qonuniy chora-tadbirlar (himoya orderlari, reabilitatsiya markazlari, ishonch telefonlari) ijtimoiy muammoni engillatishga xizmat qilayotgani qayd etildi, ammo ularning samaradorligini oshirish uchun amaliy ijro, resurslar va jamoatchilik ma’rifatini yanada kuchaytirish lozim. SHu sababli biz quyidagi takliflar ilgari surishimiz mumkin: birinchidan, huquqiy himoyani yanada mustahkamlash va joylarda tezkor amal qiluvchi mexanizmlarni joriy etish; ikkinchidan, profilaktikaga yo‘naltirilgan ma’rifiy dasturlarning kengayishi, jumladan umumiy ta’lim va diniy tashkilotlar bilan hamkorlikda; uchinchidan, jabrlanganlarga psixologik va iqtisodiy reabilitatsiyani ta’minlash uchun resurslarni oshirish; to‘rtinchidan, gender tengligi mavzusida mediamadaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor

qaratish. Ushbu choralar ijtimoiy ongni o‘zgartirish, zo‘ravonlik holatlarini kamaytirish va ayollarning huquqiy himoyasini ta’minlashga yo‘naltirilgan va amaliyotda ijro etilsa samarasi sezilarli bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz. // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom 1. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. –B.131-165.

2. “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam». Tarjimon: SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. –Toshkent: “HILOL-NASHR”, 2018. – B. 242.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila“ ilmiy-amaliy tadqiqot markazi “Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish”. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Baktria press”, 2020. – B.9.

4. Murodov A.SH. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2019. – B.79.

5. Brokgauz’ F.A., Efron’ I.A. Talmud. 100 velikix knig: Ensiklopedicheskiy slovar. – S. Peterburg: 1894. - st. 800.

6. Hayley Y. Golden. The effects of wife-abuser socio-economic level, type of abuse, and rather gender, on attribution of blame. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in psychology. – University of Rhode Island: 2009.

7. At-Termiziy. Ash-shamoyil an-Nabaviya. – Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1993. – B.83.

8. Jadid adabiyoti namoyondalari. “Odob-axloq kitobi”. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. – Toshkent: 2018. – B.65.

9. Al-Faqix Abu Lays As-Samarqandiy. Tanbehul – g‘ofiliyn (G‘aflatdan uyg‘onish). 3-kitob. – Toshkent: “Movarounnahr”, – Toshkent: 2003. – B.25.

MA’NAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Karimov Tuyg‘un Jamanazarovich
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash innovatsion texnologiyalarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi roli bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy xavfsizlik, mafkuraviy xavfsizlik, globallashuv, innovatsiya, ma’naviyat, raqamli kommunikatsiya, transformatsiya.

Bugungi kunda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash innovatsion texnologiyalarining o‘ziga xos jihatlari masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda murakkab, ko‘p qatlamli va tizimli yondashuvni talab etuvchi fundamental muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayonni anglashda ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni tahlil qilish zarur bo‘lib, bunda inson ongining transformatsiyasi, ijtimoiy qadriyatlar tizimining evolyusiyasi hamda global axborot makonining kengayishi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida ma’naviy jarayonlar endilikda an’anaviy institutlar doirasidan chiqib, raqamli kommunikatsiya tizimlari orqali shakllanayotgan yangi ijtimoiy-madaniy muhitda rivojlanmoqda. Mazkur jarayonning mohiyati haqida tadqiqotchi M. Toshbekova “globallashuv jarayoni bilan birga milliy

g‘oya, mafkura va e’tiqod tizimlariga nisbatan ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotganini inkor etib bo‘lmaydi”[1], deb ta’kidlaydi. Ushbu fikr globallashuv sharoitida ma’naviy xavfsizlik masalasining keskinlashuvi va uning texnologik omillar bilan bog‘liqligini asoslaydi. Chunki zamonaviy texnologiyalar inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida g‘oyaviy ta’sir mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ular ma’naviy jarayonlarni tezlashtiruvchi va transformatsiyalovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali g‘oyalar global miqyosda soniyalar ichida tarqaladi, bu esa mafkuraviy kurashning intensivligini oshiradi. Tadqiqotchi A.Dusboyev ushbu jihatni quyidagicha izohlaydi: “kiberxavfsizlik faqat texnik yoki huquqiy emas, balki g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan ham ta’minlanishi zarur”[2]. Bu esa innovatsion texnologiyalarni ma’naviy xavfsizlik tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar ma’naviy jarayonlarning mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim va axborot asosiy resursga aylanib, ijtimoiy ongni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Bu holatni tadqiqotchi O.Xodjayev “globallashuv jarayonida g‘oyaviy tarbiya sust bo‘lgan taqdirda inson ongida g‘oyaviy bo‘shliq yuzaga keladi va bu bo‘shliqni yot g‘oyalar egallaydi”[3] deb izohlaydi. Demak, innovatsion texnologiyalar nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ma’naviy jarayonlarning ichki strukturasini belgilovchi omilga aylanmoqda.

Globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalarning yana bir muhim jihati – ularning ikki tomonlama xarakterga egaligidir. Bir tomondan, ular ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy qadriyatlarni targ‘ib etish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, ular orqali dezinformatsiya, axborot manipulyatsiyasi va mafkuraviy ekspansiya amalga oshirilmoqda. Tadqiqotchi F.Qo‘ysinova bu haqda “radikal mafkuralar inson ongiga ta’sir ko‘rsatish orqali global muammoga aylanmoqda”[4] deb ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini ochib beradi.

Ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi roli bilan bog‘liqdir. Tadqiqotchi O. Ortiqov “mafkuraviy immunitet shaxs va jamiyatni zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qiluvchi tizimdir”[5] deb ta’kidlaydi. Zamonaviy sharoitda ushbu immunitet raqamli savodxonlik, tanqidiy tafakkur va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalari orqali shakllanadi. Demak, innovatsion texnologiyalar nafaqat tahdid manbai, balki himoya mexanizmi hamdir. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida milliy kontent yaratish va uni global axborot makonida targ‘ib qilish imkoniyati ham kengaymoqda. Bu jarayon ma’naviy jarayonlarning barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki milliy kontent orqali jamiyatning qadriyatlar tizimi mustahkamlanadi va yot g‘oyalarga qarshi barqarorlik shakllanadi.

Globallashuv sharoitida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash innovatsion texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimda ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar o‘zaro ta’sirda rivojlanib, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotini belgilovchi asosiy omilga aylanadi. Innovatsion texnologiyalarni ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ularni ongli ravishda boshqarish hamda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish orqali globallashuv sharoitida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Jahon miqyosidagi o‘zgarishlar zamirida yotgan asosiy omillardan biri - globallashuv jarayonlarining tezlashuvi va chuqurlashuvidir. U nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy jihatdan, balki ong, g‘oya, tafakkur va madaniyat sohalarida ham inson hayotini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda globallashuvning aql va ma’naviyatni transformatsiya qiluvchi kuch sifatida baholanishi bejiz emas . Ayniqsa, axborot oqimi, raqamli tizimlar va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali inson ongiga ta’sir qilish usullarining kengayishi globallashuvning yangi bosqichiga olib keldi, bu bosqich informatsion va g‘oyaviy globallashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu tendensiya nafaqat dunyoviy axborot muhitini qayta shakllantirmoqda, balki mafkuraviy xavfsizlik tushunchasiga ham yangi yondashuvlarni taqozo qilmoqda. Endi mafkuraviy xavf bu tashqi kuchlar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri tajovuz emas, balki virtual va kognitiv makonda amalga oshiriladigan, shaxsning idrokini, qadriyatlarini va dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan ta’sir shaklidir. Bu esa, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda nafaqat ijtimoiy institutlar, balki innovatsion texnologiyalarning o‘rnini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Globallashuv zamonaviy dunyoda barcha jarayonlarning o‘zaro bog‘liq va bir-biriga ta’sirchan bo‘lib borishini anglatadi. U faqat iqtisodiy integratsiya emas, balki dunyoqarashlar, ma’naviy tushunchalar, madaniyatlar va g‘oyalar oqimi hamdir. Jahon axborot makonidagi jadal almashinuv insonning shaxsiy ongiga ta’sir qiluvchi omilga aylangan. Natijada, har bir shaxs va jamiyat o‘z milliy ongini himoya qilishga, g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga muhtoj bo‘lib qolmoqda. Bu esa, mafkuraviy xavfsizlikning yangi uslubda innovatsion texnologiyalar vositasida ta’minlanishi zarurligini ko‘rsatadi.

Innovatsion texnologiyalar - bu yangi formatdagi vositalar va yechimlar to‘plamidir. Ular qatoriga katta ma’lumotlar (Big Data), suniy intellekt (AI), Tabiyiy til jarayonlari (Natural Language Processing (NLP)), narsalar internet (IoT), Blockchain, Machine Learning, Cloud computing kabi tizimlar kiradi. Avvallari bunday texnologiyalar faqat iqtisodiy rivojlanish yoki avtomatizatsiya maqsadlarida qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirgi kunda ular orqali inson tafakkuri, axborot qabul qilish qobiliyati va hatto shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatish imkoni paydo bo‘ldi. Masalan, axborot xiraliklarini avtomatik aniqlash, feyk ma’lumotlarni filtrlash, kognitiv xatarlarni oldini olish yoki radikal g‘oyalarni tarqalishini nazorat qilish kabi vazifalarda bu texnologiyalar markaziy o‘rin tutadi. Shu jihatdan qaralganda, innovatsion texnologiyalar mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda faqat vosita emas, balki mustaqil subyekt sifatida namoyon bo‘la boshladi. Ular inson ongidagi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va unga munosabat bildirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, ma’naviy va axloqiy muhitni tarbiyalashda yangi bosqichni boshlab beradi. Texnologik globallashuvning eng sezilarli jihati bu axborotni tarqatish va nazorat qilish mexanizmlarining transformatsiyasida namoyon bo‘lmoqda. Bir tomondan, bu jarayon demokratik axborot muhitini rivojlantirmoqda, ikkinchi tomondan esa mafkuraviy ekspansiya, dezinformatsiya, soft power ta’siri va kognitiv hujumlarga yo‘l ochmoqda. Bu holatda har qanday innovatsion vosita ikki yuzli qilich singari, ham ijobiy, ham salbiy funksiyaga ega.

O‘zbekiston Respublikasining keyingi yillardagi islohotlar jarayonida “ma’naviy yangilanish”, “ijtimoiy ong modernizatsiyasi”, “inson kapitali” kabi tushunchalar davlat siyosatining markaziga aylanmoqda[6]. Bu jarayonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik milliy istiqlol g‘oyasining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “yoshlar ongi va qalbini asrash - eng muhim va hal qiluvchi vazifalardan biri” hisoblanadi[7]. Innovatsion texnologiyalar — sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar tahlili (Big Data), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), virtual reallik (VR/AR), blokcheyn tizimlari, neyrointerfeyslar va kiberxavfsizlik vositalari — nafaqat iqtisodiy yoki texnik sohalarda, balki ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda ham strategik resursga aylanmoqda. Masalan, sun’iy intellekt yordamida yolg‘on axborotni (feyk), ijtimoiy tarmoqlardagi radikal kontentni, populistik yondoshuvlarni va manipulyatsiyani avtomatik ravishda aniqlash imkoni tug‘ildi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Kiberxavfsizlik markazlari, ta’lim muassasalari qoshidagi media va targ‘ibot laboratoriyalari aynan axborot muhitini monitoring qilish, yoshlarning raqamli immunitetini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi vazifalarga yo‘naltirilmoqda. Masalan, UNESCOning “Media and Information Literacy” (MIL) dasturi tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali yoshlar orasida “axborot immuniteti”ni mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekiston ko‘p konfessiyali va madaniy kesishuv nuqtasi bo‘lgani sababli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan sezuvchan hudud hisoblanadi. Bu o‘rinda mutafakkirlar ta’biri bilan aytganda, “mafkura — har qanday millatning jon tomiri”dir. Shu sababli, NLP asosida kontent tahlili, Big Data orqali yoshlar kayfiyatini baholash, individual targetlash vositalari — zamonaviy profilaktika va ta’sir usullaridir. Shaxsiy ilmiy nuqtayi nazarimizga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar mafkuraviy xavfsizlik sohasida faqat instrument emas, balki metodologiyaning o‘ziga aylanmoqda. Ya’ni, sun’iy intellekt nafaqat ma’lumotni qayta ishlash, balki g‘oyalar raqobatida inson ongi uchun kurashda asosiy vositaga aylanmoqda. Bu holat “aqllar urushlari” degan atamani hayotga tatbiq etmoqda. Umumlashtirib aytganda, O‘zbekistondagi mafkuraviy xavfsizlik siyosatini innovatsion texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashtirish — bu zamonaviy davlat qurishdagi strategik vazifadir. Ma’naviy barqarorlikni raqamli himoya vositalari bilan ta’minlash, global axborot maydonida milliy manfaatlarni ilmiy va texnologik asosda ifodalash, yosh avlod ongida raqobatbardosh intellektual immunitetni shakllantirish - bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshbekova M.X. Globallashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish omillari: ilmiy maqola // Oriental Renaissance. – 2021. – B.179–184.

2. Dusboyev A.T. Axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlikni ta’minlashning g‘oyaviy-mafkuraviy jihatlari: ilmiy maqola // Oriental Renaissance. – 2025. – B.384–388.

3. Xodjayev O.Sh. Yangi O‘zbekistonda g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar intensivlashuvida g‘oyaviy tarbiyaning ahamiyati: ilmiy maqola // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2024. – B.60–63.

4. Qo‘ysinova F.O. Radikallashuv xavfli ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy hodisa sifatida: ilmiy maqola // Alfraganus xalqaro ilmiy jurnali. – 2024. – B.60–63.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI DIREKTORINING KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Urinova Dilbar Abdusamat qizi
MTTDMQTMOI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining konfliktologik kompetentligini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ta’lim tashkilotida yuzaga keladigan nizolarni boshqarish, oldini olish va samarali hal etishda rahbarning konfliktologik bilim, ko‘nikma va malakalari muhim omil sifatida tahlil qilingan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining konfliktologik kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan. Ta’lim tashkilotsida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni boshqarish, ularni oldini olish va konstruktiv hal etishda rahbarning kasbiy kompetensiyalari muhim omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, konfliktologik kompetentlikning tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: konflikt, konfliktologiya, kompetentlik, rahbar, maktabgacha ta’lim, boshqaruv, kommunikativ ko‘nikma, stress menejment.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida rahbar shaxsining kasbiy kompetentligi tashkilot faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida direktor faoliyati ko‘p subyektli munosabatlar (pedagoglar, ota-onalar, bolalar, jamoatchilik) bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda turli nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi tabiiydir.

Shu sababli, direktorning konfliktologik kompetentligi — ya’ni nizolarni oldindan ko‘ra bilish, ularni boshqarish va konstruktiv hal etish qobiliyati — muhim kasbiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur kompetentlikni takomillashtirish esa ta’lim sifatini oshirish va sog‘lom psixologik muhitni ta’minlashning zarur shartidir.

Maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini ta’minlash zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining kasbiy kompetentligi, jumladan, konfliktologik kompetentligi tashkilotdagi ijtimoiy-psixologik muhit barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida turli manfaatlar, qarashlar va ehtiyojlarning to‘qnashuvi tabiiy holat bo‘lib, bu esa nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, rahbarning konfliktlarni boshqarish, ularni konstruktiv yo‘naltirish va samarali hal etish qobiliyati zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Konfliktologik kompetentlik tushunchasi pedagogika va boshqaruv psixologiyasi fanlari kesishmasida shakllangan bo‘lib, u shaxsning nizoli vaziyatlarni anglash, tahlil qilish va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Ilmiy manbalarda mazkur kompetentlik ko‘p komponentli tizim sifatida talqin etilib, uning tarkibiga kognitiv, kommunikativ, emotsional-intellektual va regulyativ elementlar kiradi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi rahbarning professional faoliyatida konfliktlarni konstruktiv hal etish imkonini beradi hamda jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida konfliktlar turli sabablar asosida yuzaga keladi. Ular pedagoglar o‘rtasida, pedagog va ota-onalar o‘rtasida, rahbar va xodimlar o‘rtasida yoki tashkilot ichidagi resurslar taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda direktorning konfliktologik kompetentligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Konfliktologik kompetentlik quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat:

Birinchidan, **kognitiv komponent** – bu konfliktlar mohiyatini, ularning turlari va rivojlanish bosqichlarini bilishni anglatadi. Direktor konfliktning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qila olishi zarur.

Ikkinchidan, **kommunikativ komponent** – samarali muloqot olib borish, tinglash, murosaga kelish va muzokara olib borish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu komponent nizolarni keskinlashmasdan hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, **regulyativ (boshqaruv) komponent** – konfliktlarni boshqarish, strategiya tanlash va qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi.

To‘rtinchidan, **emotsional-intellektual komponent** – stressga chidamlilik, hissiyotlarni boshqarish, empatiya kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab rahbarlar konfliktni faqat salbiy holat sifatida qabul qiladi. Aslida esa konflikt — bu rivojlanish manbai bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri boshqarilgan konflikt jamoada ochiqlik, ishonch va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Konfliktologik kompetentlikni takomillashtirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

- maxsus trening va seminarlar tashkil etish
- keys-study asosida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish
- refleksiv faoliyatni rivojlantirish
- psixologik xizmat bilan hamkorlik
- kommunikativ treninglar

Shuningdek, zamonaviy boshqaruvda mediatorlik yondashuvi (vositachilik orqali nizolarni hal qilish) muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuzaga kelayotgan nizolarning aksariyati kommunikativ yetishmovchilik, noto‘g‘ri boshqaruv qarorlari yoki emotsional beqarorlik bilan bog‘liq. Ko‘plab rahbarlar konfliktni faqat salbiy holat sifatida qabul qilib, uni bostirishga intiladi, bu esa muammoning yanada chuqurlashishiga olib keladi. Aslida esa, konfliktni to‘g‘ri boshqarish orqali jamoada rivojlanish, yangilanish va o‘zaro tushunishni kuchaytirish imkoniyati mavjud. Shu sababli direktorlarning konfliktologik kompetentligini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Konfliktologik kompetentlikning kognitiv komponenti rahbarning konflikt mohiyatini chuqur anglash, uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Direktor nizoning kelib chiqish manbalarini aniqlash, uning rivojlanish bosqichlarini farqlash va ehtimoliy natijalarini prognoz qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Mazkur bilimlar rahbarning qaror qabul qilish jarayonida asosli va ilmiy yondashuvni ta’minlaydi.

Kommunikativ komponent konfliktologik kompetentlikning markaziy elementi hisoblanib, u samarali muloqot olib borish, faol tinglash, empatiya va muzokara olib borish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining pedagoglar, ota-onalar va boshqa subyektlar bilan ochiq va konstruktiv muloqot o‘rnatishi nizolarni oldini olish va ularni samarali hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kommunikativ madaniyatning yuqori darajada shakllanganligi rahbarning ijtimoiy nufuzini oshiradi.

Emotsional-intellektual komponent rahbarning o‘z hissiyotlarini boshqarish, stressga bardoshlilik va boshqalarning emotsional holatini anglash qobiliyatini ifodalaydi. Konflikt vaziyatlarida hissiy muvozanatni saqlash rahbarning to‘g‘ri qaror qabul qilishida muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellektning rivojlanganligi nizolarni keskinlashuvdan saqlaydi hamda murosaga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Regulyativ komponent konfliktlarni boshqarish strategiyalarini tanlash va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Direktor vaziyatga qarab kompromiss, hamkorlik, murosaga kelish yoki boshqa strategiyalarni qo‘llashi lozim. Bu jarayonda qarorlarning asoslanganligi va adolatliligi muhim mezon hisoblanadi. Samarali boshqaruv konfliktni rivojlanish omiliga aylantirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konfliktologik kompetentligi rivojlangan rahbarlar faoliyat yuritayotgan ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy-psixologik muhit barqaror bo‘ladi. Bunday jamoalarda o‘zaro ishonch, hamkorlik va ochiqlik darajasi yuqori bo‘lib, bu ta’lim jarayonining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, nizolar konstruktiv hal etilishi pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy omillari tizimli va kompleks xarakterga ega bo‘lib, u davlat siyosati, jamiyat institutlari, ta’lim tizimi hamda innovatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida shakllanayotgan murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonning strategik asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda aniq ifodalangan bo‘lib, ular ma’naviy jarayonlarni boshqarish, mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash va fuqarolarning ongli ijtimoiy faolligini shakllantirishga qaratilgan yaxlit tizimni yuzaga keltiradi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarorida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish jamiyat barqarorligining asosiy sharti sifatida belgilangan bo‘lib, unda ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, milliy g‘oyani

keng targ‘ib qilish hamda aholining mafkuraviy immunitetini kuchaytirish zarurligi alohida ta’kidlanadi[1]. Bu esa ma’naviy jarayonlarni ijtimoiy boshqaruvning ustuvor yo‘nalishi sifatida qarash imkonini beradi. Shu bilan birga, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmon bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion texnologiyalarning hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Ushbu hujjatda raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki axborot xavfsizligi, media madaniyat va ijtimoiy ongni himoya qilish vositasi sifatida talqin etiladi[2]. Demak, texnologiyalar ma’naviy jarayonlarning tashqi omili emas, balki ularni shakllantiruvchi ichki determinantga aylanmoqda. Ilm-fan sohasini rivojlantirishga qaratilgan 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmon esa ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda intellektual salohiyatning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Unda ilmiy tafakkur, innovatsion g‘oyalar va bilimga asoslangan jamiyatni shakllantirish orqali mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqaror immunitet hosil qilish zarurligi qayd etiladi. Bu esa ilm-fanni ma’naviy xavfsizlikning konseptual asoslaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi esa ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni davlat taraqqiyotining markaziy komponenti sifatida e’tirof etadi. Ushbu strategiyada inson qadrini ulug‘lash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlar salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish kabi ustuvor yo‘nalishlar bevosita mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa ma’naviy xavfsizlikni taraqqiyotning ichki mexanizmi sifatida talqin etishga asos yaratadi. Shuningdek, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son Farmon diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar orqali jamiyatda bag‘rikenglik, diniy erkinlik va barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur hujjatda vijdon erkinligi kafolatlarini mustahkamlash orqali radikallashuv va ekstremizmga qarshi kurashishning ma’naviy asoslari belgilangan. Bu esa diniy-ma’rifiy sohani mafkuraviy xavfsizlikning muhim segmenti sifatida ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 34-son qarori uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu qarorda yoshlar ongida milliy identitet, tarixiy xotira va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan[3]. Bu esa ta’lim tizimining mafkuraviy xavfsizlikdagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi. Bizning nazarimizda, yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy omillari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, davlat siyosatining barcha darajalarida ma’naviy omilning ustuvorligi; ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar asosida axboriy makonni boshqarish; uchinchidan, ilm-fan va ta’lim orqali ongli fuqarolik jamiyatini shakllantirish; to‘rtinchidan, diniy-ma’rifiy muhitda bag‘rikenglikni ta’minlash; beshinchidan, yoshlar tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tizimli yo‘lga qo‘yish. Shu tariqa, ma’naviy jarayonlar va texnologiyalar uyg‘unligiga asoslangan mazkur model O‘zbekistonning mafkuraviy xavfsizligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda keskin siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-modernizatsion jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Bu jarayonlar mamlakatning “yangilanish” konsepsiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki jamiyat tafakkuri, fuqarolik ongini va mafkuraviy immunitetini qayta shakllantirishni ham nazarda tutadi. Aynan shu nuqtada, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik masalasi mustaqil davlatning barqarorligi, milliy manfaatlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyati negizlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-siyosiy omilga aylanmoqda. Yangilanish jarayoni bu shunchaki tashqi modernizatsiya emas, balki ongiy o‘zgarishlar orqali jamiyatni ichki transformatsiyaga olib kiruvchi murakkab ijtimoiy mexanizmdir. Bu yerda G. V. F. Gegelning “aql tarixi” g‘oyasi dolzarbdir: u tarixiy taraqqiyotni “ruhning o‘zini anglash jarayoni” sifatida ko‘radi[4]. Shunday ekan, O‘zbekistonda olib borilayotgan “yangilanish” mafkurasi aslida ijtimoiy ongni shakllantirish, qadriyatlar tizimini mustahkamlash va fuqarolarning g‘oyaviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan ongiy inqilobni anglatadi. Shu munosabat bilan quyidagi asosiy ijtimoiy-

siyosiy omillar O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning strategik negizlari sifatida e’tirof etiladi: Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston — bu avvalo, yangi mafkura demakdir”[5]. Bu bayonot O‘zbekistonning zamonaviy g‘oyaviy siyosati jamiyatni faqat tashqi islohotlar orqali emas, balki ichki ruhiy uyg‘onish orqali rivojlantirishga qaratilganini anglatadi.

O‘zbekistondagi siyosiy islohotlar mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda institutsional inklyuzivlikka asoslangan. Ya’ni, siyosiy qarorlar qabul qilishda jamiyatning turli qatlamlari, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, diniy jamoalar va intellektual elita vakillarining ishtiroki ta’minlanmoqda. Bu esa g‘oyaviy barqarorlikni nafaqat davlat pozitsiyasidan, balki jamiyatning barcha subyektlaridan mustahkamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonida ijtimoiy kommunikatsiyaning ochiqligi ham yangi mafkuraviy yondashuvlarni talab etmoqda. Jamiyatda raqamli bilimlarning ommalashuvi, axborot resurslaridan foydalanish madaniyati, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivoji - bularning barchasi mafkuraviy barqarorlikka xizmat qiluvchi dolzarb omillardir. Bugungi globallashuv davrida “mafkuraviy sovuq urush” vositalari avvalgi yillardagidek kuch ishlatish orqali emas, balki raqamli muhit, madaniy ekspansiya, pop-madaniyat, mem va kontent orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy maydonida raqamli ijtimoiy ongni boshqarishga oid mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy omillar O‘zbekistonda ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlovchi asosiy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu omillar – fuqarolik ishtiroki, siyosiy inklyuzivlik, ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik, g‘oyaviy barqarorlikni ta’minlovchi dasturlar, raqamli kommunikatsiya siyosati – barchasi o‘zaro uyg‘un holda ishlashi orqali ijobiy natija beradi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning yangilanish jarayoni faqat institutsional va tashkiliy islohotlar bilan emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy negizlar bilan uzviy bog‘liq. “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va ma’rifat yo‘li” konsepsiyasi doirasida shakllanayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlar fuqarolarning g‘oyaviy immunitetini mustahkamlash, milliy identitetni tiklash va ijtimoiy ongni uyg‘otishga xizmat qilmoqda. Hegel ta’kidlaganidek, har bir tarixiy taraqqiyot bosqichi ruhning o‘zini anglash shaklida kechadi; demak, O‘zbekistondagi bugungi mafkuraviy yangilanish ham ayni jarayonning bir ko‘rinishidir. Davlat mafkurasi va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi muvozanat, axborot siyosatining ochiqlikka asoslanishi, yoshlar siyosatining tizimli yo‘lga qo‘yilishi va islohotlarning huquqiy asosi – bularning barchasi mamlakatda mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning strategik ijtimoiy-siyosiy poydevorini yaratmoqda. Shu bois, mafkuraviy xavfsizlik endilikda faqat xavfdan himoya konsepsiyasi emas, balki ijtimoiy ongni ongli ravishda shakllantirishning kompleks falsafiy-amaliy strategiyasi sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: PQ-4307-son qaror. – Toshkent, 2019. – 3–4-betlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: PF-6079-son farmon. – Toshkent, 2020. – 6–8-betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash dasturi: 34-son qaror. – Toshkent, 2026. – 5–7-betlar.

4. Гегель Г. Ф. В. Феноменология духа. – М.: Наука, 2000. b.78.

5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон – инсон қадри улуғланган мамлакат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022.

O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYA ILM-FANI RIVOJIDA YAHYO G‘ULOMOVNING O‘RNI VA ILMIY MEROSI

Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o‘zbek olimi Yahyo G‘ulomovning ilmiy faoliyati, uning O‘zbekistonda arxeologiya va tarix fanlari rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi. Shuningdek, olimning moddiy-madaniy merosni o‘rganish, saqlash va kelajak avlodga yetkazish yo‘lidagi xizmatlari, ilmiy jasorati va vatanparvarlik fazilatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Arxeologiya instituti, Oqmachit mahallasi, moddiy va madaniy obidalarini tadqiq qilish, Arxitektura instituti, “O‘zkomstaris”, sug‘orilish tarixi, Afrosiyob qo‘rg‘oni, O‘zbek Davlat Pedagogika akademiyasi, “Namuna” nomli maktab-internat, sardobalar, moddiy madaniyat obidalari.

O‘zbek halqining qadimgi boy moddiy va madaniy obidalarini tadqiq qilishda va ularni sinchiklab o‘rganishda o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan, mashhur tarixchi-arxeolog olim, O‘z FA akademigi, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi Yahyo G‘ulomov haqida fikr yuritmoqchimiz.

Ibratli hayoti, serqirra, sermahsul faoliyati bilan hayotlik paytidayoq (aytish mumkinki ilmiy faoliyatining dastlabki davrlaridanoq ustozlarining ishonchiga kira olgani) [1, 23-b] halqimiz nazariga tushgan, bugungi kunda esa ilmiy doiralarda nomi hamisha hurmat bilan tilga olinadigan Yahyo G‘ulomov 1908-yili 1-mayda Toshkent shahrining Shayhontohur dahasidagi Oqmachit mahallasida madrasa o‘qituvchisi oilasida dunyoga keldi. 1918-yilda eski shaharda tashkil etilgan “Namuna” nomli maktab-internatda o‘qishga bordi. Yahyo G‘ulomovda moddiy madaniyat obidalariga nisbatan qiziqish hali u maktab-internatda o‘qib yurgan yoshlik yillaridayoq paydo bo‘lgan edi [2, 10-b].

Maktab tahsilini yakunlagan Yahyo G‘ulomov o‘qishni davom ettirish maqsadida Samarqandga yo‘l oladi. 1927-1930 yillarda Yahyo G‘ulomov O‘zbek Davlat Pedagogika akademiyasi ijtimoiy-iqtisodiy bo‘limida o‘qiydi. Samarqandda ochilgan bu dorilfununda o‘sha davrning mashhur olimlari Po‘lat Soliev, Musa Saidjonov, Vasiliy Vyatkin va boshqalarning ma’ruza va suhbatlarini tingladi, saboq oldi. Yahyo G‘ulomovning ilmga, xususan arxeologiyaga bo‘lgan qiziqishini sezgan V.Vyatkin uni arxeologiyaga tortish va dala ishlari metodi bilan tanishtirish maqsadida o‘zi olib borayotgan Afrosiyobdagi qazish ishlariga olib chiqa boshlaydi [3].

1933-yildan Yahyo G‘ulomovning ilmiy faoliyati boshlandi. Sakkiz yil davomida tarixiy va san’at yodgorliklarini aniqlash Respublika komiteti (“O‘zkomstaris”)da ilmiy xodim hamda ilmiy kotib lavozimlarida ishladi.

Mazkur maqolamizda domla Yahyo G‘ulomovning arxeologiyaga oid kashfiyotlari, shuningdek, tarix fani rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan biroz boshqa jabhalardagi xizmatlari, olimlik, fan uchun fidoyilik, vatanparvarlik, odamiylik kabi fazilatlari haqida so‘z yuritmoqchimiz.

“O‘zkomstaris”da ishlab yurgan vaqtlarida va dastlabki qatnashgan arxeologik ekspeditsiyalarida to‘plagan materiallari asosida 1930-yillardayoq yurtimizning boy moddiy-ma’naviy merosini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha juda katta ishlarga bosh-qosh bo‘ladilar [4, 3-b].

O‘sha vaqtda Yahyo G‘ulomov boy moddiy madaniyat yodgorliklarimizni saqlab qolish va o‘rganish uchun “O‘zkomstaris”ni kuchi yetmayotganligi (yolg‘izlik qilayotganligi) sababli, mahalliy hokimiyat idoralarini bu ishlarda yordam berishga undaydi. 30-yillarda nafaqat O‘zbekiston, balki butun sobiq Ittifoqda mamlakatni sanoatlashtirilishi birinchi o‘ringa qo‘yilgan vaqtda, moddiy yodgorliklarni o‘rganish va saqlab qolish bo‘yicha 1934-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 30-iyul №174 sonida “Tegajag‘lik” deb nomlangan maqola yozadi [5]. Ushbu maqolasida Yahyo G‘ulomov Xiva shahridagi arxitektura va tarixiy yodgorliklar, Shahrisabzdagi dunyoga mashhur Oqsaroy me’moriy obidasi, Buxoro viloyatidagi ko‘plab sardobalar, Termiz

yaqinidagi XII - XV asrlarga taaluqli mashhur Sulton Saodat maqbaralar guruhini, Qirqqiz qal’ani, Xoja Hakim Termiziy maqbarasini, hozirgi Navoiy viloyatidagi (viloyat 1982-yil tuzilgan) XII asrga taaluqli Raboti Malik yodgorligi va boshqa ko‘plab moddiy-madaniy yodgorliklarimizni ahvoli, ularni qarovsiz holati va odamlar tamonidan vayron qilinishi haqida to‘xtalib o‘tadi. Maqolada tarixiy yodgorliklarga, ularning saqlanishi, o‘rganilishi yo‘lida yordam berish emas, aksincha, ularni yemirish, bekorchi narsalar uchun (o‘z shaxsiy ehtiyojlari uchun) turli bahonalar bilan buzib tashlash holatlari davom etayotgani haqida ochiqchasiga fikr bildiradi [5].

Yahyo G‘ulomov ilmiy faoliyatining yana bir muhim jihati tarixiy, moddiy-ma’naviy merosimizni asrab-avaylash yo‘lida haqiqatga tik boqqanligidir. Yahyo G‘ulomovning bu xislati haqida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov 1998-yil bir guruh tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda “Yahyo G‘ulomov dovyurak, qo‘rqmas, o‘z mustaqil fikriga ega, kerak bo‘lsa, yuqori lavozim egasiga yoqmaydigan to‘g‘ri gapni dadil ayta oladigan olim edi” [6, 28-b] deb baho bergan edilar. Darhaqiqat, butun mamlakatda 30-yilarda ateistik bir siyosat avj olgan vaqtda, boy tarixiy, diniy, madaniy merosimiz bo‘lmish yodgorliklar, madrasa va masjidlarni asrab-avaylash yo‘lida keng ko‘lamli ishlarga bosh-qosh bo‘ldilar [7, 20-22-bb]. Madrasa va masjidlar, sardoba va boshqa tarixiy yodgorliklarni saqlash ishlarini Ya. G‘ulomov “ularni saqlashdan maqsad – ba’zi nodon kishilar tushunganidek “eskiparastlik”, yoki “diniy narsalarni ideallashtirish” emas, balki, chuqur madaniy bir ishdir” deya izohlaydi [8, 23-25-bb].

1970-yilda Fanlar Akademiyasi tarkibida arxeologiya ilmiy tadqiqot instituti ochiladigan bo‘ldi. Bu ilmiy tadqiqot instituti ochilishida ham Yahyo G‘ulomov va akademik I. Mo‘minov xizmatlari katta bo‘ladi. Ammo mazkur ilmiy tadqiqot institutining Toshkentda emas, Samarqandda ochilishini Yahyo G‘ulomov qo‘llab-quvvatlamaydi. Arxeologiya instituti raisligiga Yahyo G‘ulomov nomzodini ko‘rsatishganda Ya.G‘ulomov rozi bo‘lmaydi. Bunday holatlarga bevosita guvoh bo‘lgan shogirdlaridan biri akademik A.Asqarov keyinchalik xotiralarida qiziq bir voqeani eslatib o‘tadi.

Arxeologiya instituti ochilishiga bag‘ishlangan hay’at yig‘ilishida “O‘zbekistonning har bir viloyati Samarqanddek qadimiy yodgorliklarga boydir, buni biz arxeologlar yaxshi bilamiz. Arxeologiya yodgorliklari bilan arxitektura obidalari o‘rtasidagi farqni ham yaxshi bilamiz. Ochilayotgan institut esa Arxitektura instituti emas, balki Arxeologiya institutidir” deya Yahyo G‘ulomov o‘z fikrini bayon etdilar [9]. Chunki arxeologiya institutining Samarqandda ochilishi o‘sha vaqtda bu shaharda etarlicha moddiy-texnik baza yo‘qligi bilan bir qatorda, deyarli barcha ilmiy tadqiqot institutlari, akademiyalar, kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va ilmiy lobaratoriyalarning Toshkentda joylashganligi uchun ham Yahyo G‘ulomov bunga qarshilik qilgan edilar. Bu haqda keyinchalik Yahyo G‘ulomov “О положение археологов в городе Самарканде” deb nomlangan maqolasida ham alam bilan esga oladi [5].

Xulosa qilib aytganda Yahyo G‘ulomov nafaqat tarix va arxeologiya fanlari, balki, manbashunoslik, muzeyshunoslik, numizmatika, o‘zbek tili va adabiyoti, folklorshunoslik, tabiiy fanlar sohalarida ham shogirdlariga saxiylik bilan ta’lim berar ekan, bir so‘zni qayta-qayta takrorlardi. Ba’zan kichik maqolalar g‘oyasi va fanga kiritilgan yangiligi jihatidan ayrim yirik asarlarga teng bo‘lishi mumkin der edilar [10, 117-121-bb].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Германов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время – Ташкент: Фан, 2002. – С. 23.
2. Муҳаммаджонов А. Яҳё Ғуломовни хотирлаб (Ўқувчиларга устозимиз ҳақида). – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 20.
3. Ғуломов Я. Вяткин ҳақида хотиралар. // Ўзбекистон ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1969, №11. – Б. 49.
4. Jahja “Devori ko‘ndalang” Qizil O‘zbekiston gazetasi 1934-yil 18-iyul №164; “Sardoba” Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1934-yil 24-iyul №169; “Tegajag‘lik” Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1934-yil 30-iyul №174.
5. Ўз РМДА. Я. Ғуломовнинг шахсий фонди рўйхат 2296, опис 1, жилд 99.
6. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 27.

7. O‘z R. FA Fundamental kutubxonasi. F-1, 2-L-ro‘yxat, 62-yig‘ma jild, 52 варақ (Протоколы заседаний Ученого Совета Истории и археологии АН УзССР. Копия Академия Наук СССР Института Востоковедения, Протоколь № 5, 16-апреля 1943 г.: Присудить тов. Я.Гулямова ученую степень кандидата исторических наук на оснавании защиту диссертации на тему: Хива и ее памятники.);

8. G‘ulamov Yahja. Tarixiy yodnomalar. // Sotsialistik fan va turmush. 1939. № 12, – B. 23-25 (Фундаментал кутубхона D-132).

9. Асқаров А. Илоҳим руҳингиз шод бўлсин // Я.Ғуломов таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент. 2008, – Б. 1-8.

10. Сабурова С. Мактаб яратган олим // Ижтимоий фикр ва инсон ҳуқуқлари. 1998, № 4. – Б. 117-121.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA’NAVIY TADQIQOTLARNING O‘RNI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR

Xudoynazarov Dilshodbek Obidjon o‘g‘li
Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning mazmuni, asosiy yo‘nalishlari hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar o‘rganildi.

Maqolada zamonaviy yondashuvlar, xususan, innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilib, mavjud muammolar va ularning yechimlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalardagi ilmiy izlanishlar jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar, ma’naviy rivojlanish, innovatsiya, ta’lim, jamiyat, islohotlar

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy sohalarning uyg‘un taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda inson kapitalini yuksaltirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar jamiyatdagi boshqaruv mexanizmlari, ijtimoiy munosabatlar tizimi, fuqarolarning siyosiy faolligi hamda huquqiy madaniyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar natijasida boshqaruv jarayonlarida shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini joriy etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda ijtimoiy ishtirokni kengaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ma’naviy sohada olib borilayotgan tadqiqotlar esa milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani kuchaytirish orqali yoshlarning vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirishga erishiladi.

So‘nggi yillarda ushbu sohalarda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar hamda fanlararo integratsiya jarayonlari keng qo‘llanilmoqda. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish, tahlil imkoniyatlarini kengaytirish va amaliyotga yaqinlashishini ta’minlamoqda. Biroq,

ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish, hududlar kesimida rivojlanish tafovutlarini kamaytirish hamda malakali kadrlar salohiyatini oshirish masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlarini tahlil qilish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash hamda mavjud muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Muhokama: Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning nazariy va amaliy jihatdan o‘zaro bog‘liqligini yaqqol namoyon etdi. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohalardagi tadqiqotlar jamiyat taraqqiyotining faqat nazariy asoslarini emas, balki amaliy boshqaruv mexanizmlarini ham takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Avvalo, ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar bo‘yicha kuzatilgan asosiy tendensiya – bu boshqaruv tizimining ochiqligi va fuqarolik jamiyatining faollashuvi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy yondashuvlarda davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar “yuqoridan pastga” modelidan “hamkorlik modeli”ga o‘tmoqda. Bu esa fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirokini kengaytiradi va ijtimoiy ishonch darajasini oshiradi.

Biroq, tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatdiki, ayrim ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar amaliyot bilan yetarlicha integratsiyalashmagan. Ya’ni, ilmiy xulosalar ishlab chiqilsa-da, ularning real boshqaruv jarayonlariga tatbiqi sust kechmoqda. Bu holat ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi “bo‘shliq”ni (gap) yuzaga keltirib, tadqiqot samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli ilmiy natijalarni implementatsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ma’naviy soha bo‘yicha olingan natijalar esa jamiyatning barqaror rivojlanishida ma’naviy omillarning hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi. Xususan, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ta’lim tizimi asosiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda oila, maktab va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikning zaiflashuvi ayrim muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi ilmiy tahlillarda qayd etildi.

Shu bilan birga, ma’naviy sohadagi tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi ijobiy tendensiya sifatida baholandi. Raqamli platformalar, multimedia vositalari va interfaol ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirmoqda. Biroq, ushbu vositalardan foydalanish darajasi hududlar va ta’lim muassasalari kesimida bir xil emasligi ham aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalar o‘zaro chambarchas bog‘liq tizim sifatida rivojlanmoqda. Ma’naviy qadriyatlar mustahkam bo‘lmagan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash qiyinlashadi. Aksincha, barqaror siyosiy tizim ma’naviy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik fanlararo yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tendensiyalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya tadqiqot metodologiyasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Big data, sun’iy intellekt va raqamli monitoring tizimlari ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq va tezkor tahlil qilish imkonini bermoqda. Biroq, ushbu texnologiyalardan foydalanish uchun yetarli malakali kadrlar tayyorlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Umuman olganda, muhokama natijalari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalardagi tadqiqotlarni yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni dolzarb deb belgilash imkonini beradi: ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda fanlararo integratsiyani yanada chuqurlashtirish.

Natijalar: Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar va tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Avvalo, ijtimoiy-siyosiy sohadagi tadqiqotlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, boshqaruv tizimida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarining joriy etilishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish hamda jamoatchilik

nazoratini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Natijada fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati yanada faollashib, aholi va davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, tadqiqotlar yoshlarning siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatdi. Bu borada olib borilgan ilmiy ishlanmalar asosida ta’lim tizimiga yangi yondashuvlar, jumladan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyalari hamda amaliy mashg‘ulotlar keng joriy etilmoqda. Natijada yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabati shakllanib bormoqda.

Ma’naviy sohada olib borilgan tadqiqotlar esa milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni asrash hamda ularni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ta’lim muassasalari, oila va jamiyat hamkorligining muhimligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Bu esa ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda innovatsion yondashuvlardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Xususan, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari, interfaol axborot tizimlari va sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalarining qo‘llanilishi tadqiqot jarayonlarini tezlashtirish va aniqligini oshirishga imkon bermoqda.

Bundan tashqari, olib borilgan tahlillar natijasida ilmiy tadqiqotlar va amaliyot o‘rtasida muayyan tafovut mavjudligi ham aniqlandi. Ayrim hollarda ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar amaliyotga to‘liq joriy etilmayotgani kuzatildi. Bu esa ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim natija sifatida, fanlararo integratsiyaning kuchayib borayotgani qayd etildi. Ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy tadqiqotlarda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va axborot texnologiyalari fanlarining o‘zaro uyg‘unligi yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini bermoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda ma’naviy muhitni yuksaltirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqot ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni tizimli va kompleks ravishda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda turli metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, fanlararo integratsiya va ilmiylik tamoyillari tashkil etadi.

Avvalo, tadqiqot jarayonida tizimli tahlil metodi qo‘llanilib, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jarayonlar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganildi. Bu yondashuv orqali jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar – davlat siyosati, ta’lim tizimi, madaniy muhit va fuqarolik ongining o‘zaro aloqadorligi tahlil qilindi.

Shuningdek, analitik (tahliliy) metod yordamida mavjud ilmiy adabiyotlar, tadqiqot natijalari hamda amaliy tajribalar chuqur o‘rganildi. Mazkur metod orqali ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va ma’naviy rivojlanishga oid asosiy nazariy qarashlar tahlil qilinib, ularning zamonaviy talqini ishlab chiqildi.

Tadqiqotda taqqoslash (komparativ) metodi ham muhim o‘rin egalladi. Ushbu metod asosida mahalliy va xorijiy tajribalar o‘zaro solishtirilib, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlarning ilg‘or jihatlari aniqlashtirildi. Natijada ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Bundan tashqari, kontent tahlil metodi orqali normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, ilmiy maqolalar va ma’naviy-ma’rifiy materiallar tizimli ravishda o‘rganildi. Ushbu metod ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida statistik tahlil elementlari ham qo‘llanilib, mavjud ma’lumotlar umumlashtirildi va ularning asosida ilmiy xulosalar chiqarildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirdi hamda dalillarga asoslangan yondashuvni ta’minladi.

Shuningdek, empirik yondashuv doirasida kuzatish, suhbat va pedagogik tajribalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Bu usullar orqali amaliyotdagi real holatlar o‘rganilib, nazariy xulosalar bilan solishtirildi.

Tadqiqotda innovatsion yondashuv ham muhim o‘rin tutdi. Xususan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt imkoniyatlari va interfaol metodlarning ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Bu esa tadqiqotning zamonaviy ilmiy talablarga mosligini ta’minladi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodlar majmuasi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini har tomonlama, chuqur va tizimli ravishda o‘rganish imkonini berdi hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalari ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni nihoyatda muhim ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida olingan tahlillar ushbu sohalarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, ularning bir-birini to‘ldiruvchi va rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy-siyosiy sohadagi tadqiqotlar davlat boshqaruvini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, ma’naviy sohadagi ilmiy izlanishlar milliy qadriyatlarni asrash, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot davomida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va fanlararo integratsiya jarayonlarining ahamiyati ortib borayotgani qayd etildi. Biroq, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish, hududlar kesimida texnologik tenglikni ta’minlash hamda malakali kadrlar tayyorlash masalalarida ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi.

Umuman olganda, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish hamda uzluksiz ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash zarur, degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (ijtimoiy-siyosiy islohotlarga oid hujjatlar to‘plami). – Toshkent, 2020–2025.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi materiallari. – Toshkent, 2022–2025.
4. Sotsiologiya va siyosatshunoslik bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2023.
5. Ma’naviyat va ma’rifat markazi materiallari. – Toshkent, 2024.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHDA ISHONCHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Xayitmurodov Ilxom Xolturaevich
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi ma’sul xodim

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch fenomeni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shunindek, maqolada ishonch ijtimoiy kapitalning muhim elementi sifatida ko‘rib chiqilib, uning milliy, madaniy va institutsional xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy munosabatlar, ishonch, ijtimoiy kapital, institutsional ishonch, mahalla, barqarorlik.

Globallashuv sharoitida har qanday jamiyatda xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, bu jarayonda ishonch muhim ijtimoiy-psixologik va institutsional omil sifatida namoyon bo‘lishini teran anglash borasida jiddiy fikrlarshni taqoza etmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ham keyingi yillarda jamiyatda ishonchni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu o‘rinda, ishonch tushunchasi va uning nazariy asoslari haqida fikr yurtish muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etish lozimki, ishonch – bu shaxslar, guruhlar va institutlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchli munosabatlarni ifoda etuvchi ijtimoiy kategoriya ekanligini teran anglash lozim. U ijtimoiy kapitalning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatda hamkorlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Qayd etish lozimki, ilmiy adabiyotlarda ishonch quyidagi turlarga bo‘linadi:

shaxsiy (individual) ishonch;
institutsional ishonch;
umumiy (ijtimoiy) ishonchga bo‘linadi.

O‘zbekistonda ishonchning o‘ziga xos xususiyatlari fikr yuritganda u quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Jumladan:

1. Milliy qadriyatlarga asoslanganlik. Ya’ni, O‘zbekiston jamiyatida ishonch an’anaviy qadriyatlar – mehr-oqibat, hurmat, kattalarga ehtirom, qo‘shnichilik munosabatlari asosida shakllangan. Bu omil ijtimoiy munosabatlarni tabiiy ravishda mustahkamlashga zamin yaratgan.
2. Oila va mahalla institutining roli. Oila va mahalla O‘zbekistonda ishonchni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Mahalla tizimi orqali aholi o‘rtasida o‘zaro yordam, hamjihatlik va ishonch mustahkamlanadi.
3. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch. Keyingi islohotlar natijasida davlat organlariga bo‘lgan ishonch tobora oshmoqda. Ayniqsa, bu borada, ochiqlik, shaffoflik va aholi bilan muloqot tizimining rivojlanishi bu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

4. Diniy va ma’naviy omillar ta’siri. Islom dini va milliy ma’naviyat ishonchni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Halollik, adolat va insof kabi qadriyatlar ijtimoiy munosabatlarda ishonchni oshirishga tobora xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonchning ahamiyati haqida fikr yuritganda, ishonch bo‘lgan munosabat eng avvalo, u ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantiradi, jamoaviy faollikni oshiradi, nizolarni kamaytiradi, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirishga zamin yaratadi. Shu o‘rinda, qayd etish joizki, bu borada muammolar va yechimlar haqida fikr yuritganda, ayrim hollarda jamiyatda ishonch darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham mavjud ekanligini ta’kidlash lozim. Bu borada, korrupsiya, axborot manbalarining ishonchsizligi, ijtimoiy tengsizlik kabi holatlar namoyon bo‘lgan.Bunda ularni bartaraf etish uchun eng avallo, huquqiy madaniyatni oshirish, shaffof boshqaruvni ta’minlash, ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirish zarur ekanligi tobora oydinlashtirmoqda. Bugungi

kunga kelib ham inson manfaatlari muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Shu o‘rinda, XXI asr voqeligi iqtisodiy yuksalish va inson taraqqiyoti o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Inson uchun sarflanadigan investitsiyalar, avvalo, inson uchundir. O‘ziga to‘q, sog‘lom, yaxshi ta’lim olgan va malakali inson iqtisodiy yuksalish yo‘lida bir vaqtning o‘zida ham asosiy ishlab chiqarish kuchi, ham inson kapitalining maqsadi hisoblanadi. O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850 yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo‘llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta’minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat, deb hisoblagan. Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘rganganimizda ham “ijtimoiy davlat” tushunchasi shunga o‘xshash nomlarda ko‘plab uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyati ochib berishga xizmat qiladi. Shunga o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch hal qiluvchi omil hisoblanadi. U milliy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar va davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ishonchni yanada rivojlantirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi global transformatsiya jarayonlarida jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning sifat darajasiga bog‘liq. Ishonch esa mazkur munosabatlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ishonch darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish samarali kechadi. O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. U jamiyat barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlar, mahalla instituti va davlat siyosatining uyg‘unligi ishonchni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uni rivojlantirish davlat siyosati, fuqarolik jamiyati va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi orqali amalga oshirilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Fukuyama F. Ishonch: ijtimoiy fazilatlar va farovonlik.
2.Patnem R. Ijtimoiy kapital nazariyasi.
3.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari.

ЗНАЧЕНИЕ ИСЛАМСКИХ ИСТОЧНИКОВ В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Дурдона Холбоева
студентка 1-го курса факультета русского языка и литературы
Джизакского государственного педагогического университета.
Научный руководитель: д.ф.н., проф. Саиткосимов А.

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy tarbiyasida islom manbalarining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Qur’oni Karim, hadislar hamda buyuk allomalar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy va Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy ilmiy merosining yoshlarni axloqiy barkamol, mustaqil fikrlaydigan va mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, islomiy va madaniy merosni o‘rganish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Islom manbalari, yoshlarni tarbiyalash, ma’naviyat, mafkuraviy immunitet, globallashuv, Qur’oni karim, hadislar, ma’rifat, har tomonlama barkamol avlod, vatanparvarlik.

В условиях современного глобализирующегося мира и информационного общества, когда усиливаются различные вредные и чуждые идеи, исламские источники играют важную роль в духовно-нравственном воспитании молодежи, укрепляя их духовный зрелость и идеологический иммунитет. Эти источники оберегают молодых людей от различных радикальных течений, учат их мыслить самостоятельно, давать объективную оценку происходящим событиям, различать добро и зло. В результате формируется сознательная и просвещённая личность, не поддающаяся разрушительным идеям, что имеет важное значение для обеспечения мира и стабильности в нашей стране.

Богатое наследие нашей Родины — исламские источники — не исчезло под воздействием различных политических сил в разные исторические периоды. Ни нашествие монголов, ни трудности и испытания периода советской колониальной зависимости не смогли уничтожить их. В сохранении исламских источников до наших дней огромную роль сыграли наши великие соотечественники — мухаддисы Абу Абдуллах ибн Исмаил аль-Бухари и Абу Иса Мухаммад ибн Иса ат-Термизи.[2, с. 15]

Одним из древнейших и уникальных рукописных экземпляров Корана в мире является Ташкентский Коран Усмана. Этот священный текст был записан в VII веке, во времена халифа Усмана, на оленьей коже. Подобные древние экземпляры, известные как «Мушаф Усмана», являются редкостью в мире. Ташкентский Коран Усмана — это не только религиозная книга, но и исторический памятник, научный источник и священное наследие для мусульман. Он является одним из важнейших культурных богатств Узбекистана и привлекает внимание ученых и паломников со всего мира. [1, с. 52].

Земля Узбекистана с древних времен славится великими учёными, гениальными мыслителями и выдающимися представителями исламской науки. Одним из них является Имам аль-Бухари, чьё научное наследие высоко ценится во всём мусульманском мире. Комплекс Имама аль-Бухари [2] в Самаркандской области был построен в годы независимости, а в последующие годы полностью реконструирован и значительно расширен. В частности, в результате масштабных строительных и благоустроительных работ, комплекс приобрёл современный облик. Здесь созданы все условия для посетителей: мечеть, библиотека, научный центр и другие удобства.

В Новом Узбекистане в последние годы широко реализуются духовно-просветительские реформы. В этом направлении одним из важных достижений стало создание Центра исламской цивилизации по инициативе Президента. Выдвинутый Президентом принцип «Просвещение против невежества» направлен именно на воспитание молодёжи, формирование у неё стремления к знаниям, культуре и здоровой вере.[3, с. 289]. Центр исламской цивилизации служит практической платформой в этом направлении. Здесь

молодёжь получает знания об истории ислама, его источниках и богатом наследии наших великих предков.

Исламские источники являются прочным фундаментом духовно-нравственного воспитания молодёжи. Благодаря им молодые люди формируются в духе добра, честности и стремления к знаниям. Центр исламской цивилизации предоставляет возможность изучать это богатое наследие современными методами. Поэтому проводимая Президентом Шавкатом Мирзиёевым духовная реформа играет важную роль в воспитании всесторонне развитого молодого поколения. Все эти реформы направлены на формирование всесторонне развитой личности.

Подводя итог, можно сказать, что в условиях современной глобализации исламские источники имеют огромное значение в обогащении духовного мира молодежи и защите её от различных чуждых и вредных идей. Священный Коран, [1] достоверные хадисы и научное наследие великих предков воспитывают у молодых людей честность, доброту, патриотизм и стремление к знаниям.

На мой взгляд, молодёжь, которая глубоко знает свою историю, религиозное и духовное наследие, не поддаётся влиянию деструктивных течений и вырастает самостоятельной, осознанной и духовно зрелой личностью. Поэтому изучение исламских источников и уважительное отношение к ним имеет большое значение для будущего развития нашей страны.

Список использованной литературы:

1. Qur’oni Karim. – Ташкент: Издательство «Movarounnahr», 2021. c. 52.

2. Абу Абдуллох Мухаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий. Al-Jami’ as-Sahih. – Ташкент: «Hilol Nashr», 2019. c. 15.

3.Шавкат Мирзиёев. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Ташкент: «O‘zbekiston», 2022. c. 315.

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA BUKTREYLER TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI VA MAZMUNI

O.Suvanov
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya fanini o‘qitish jarayonida buktreyler texnologiyasidan foydalanishning mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Buktreyler texnologiyasining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga, kitobxonlik madaniyatiga hamda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ko‘rsatayotgan ijobiy ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, buktreyler yaratish bosqichlari, uni dars jarayoniga joriy etish usullari va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada mazkur texnologiyaning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: buktreyler, tarbiya fani, innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, kitobxonlik madaniyati, ijodiy fikrlash, ma’naviy-axloqiy tarbiya, vizual ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik usullar, interaktiv ta’lim.

Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni faol fikrlovchi va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashda zamonaviy usullardan foydalanish talab etiladi. Ana shunday samarali texnologiyalardan biri — buktreyler texnologiyasidir.

Buktreylerlar orqali o‘quvchilar kitob mazmunini nafaqat o‘qib, balki ko‘rib, eshitib ham qabul qiladilar. Bu esa bilimlarning mustahkamlanishiga va tarbiyaviy ta’sirning kuchayishiga xizmat qiladi

Bktreyler texnologiyasining mazmuni

Buktreyler texnologiyasi — bu ta’lim jarayonida kitob yoki badiiy asar mazmunini qisqa videorolik orqali taqdim etishga asoslangan innovatsion pedagogik usuldir. U quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:asar mazmunini qisqacha va ta’sirchan ifoda etish; vizual (rasm, video) va audio (musiqa, ovoz) vositalardan foydalanish; o‘quvchining emotsional va intellektual ta’sirlanishini ta’minlash; ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Bu texnologiya orqali o‘quvchilar nafaqat asarni tushunadilar, balki uni tahlil qilish, asosiy g‘oyani ajratib olish va uni zamonaviy formatda taqdim etishni o‘rganadilar.

Buktreyler texnologiyasidan tarbiya darslarida foydalanish quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytiradi

Buktreyler orqali asardagi ijobiy qahramonlar, ularning fazilatlari, hayotiy qadriyatlar ta’sirchan tarzda yoritiladi. Bu o‘quvchilarda yaxshilik, mehr-shafqat, vatanparvarlik kabi tushunchalarni shakllantiradi.

2. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi

Qisqa va jozibali videolar o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otadi. Ular asarni to‘liq o‘qishga intiladilar.

3. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshiradi

Buktreyler tayyorlash jarayonida o‘quvchilar:ssenariy yozish; rasm va videolar tanlash; montaj qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantiradi

Buktreyler yaratish jarayoni AKT ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘quvchilarni zamonaviy raqamli muhitga moslashtiradi.

5. Darslarni qiziqarli va samarali qiladi

An’anaviy darslardan farqli ravishda, buktreylerlar orqali darslar interaktiv va jonli o‘tadi.

6. Jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi

Guruh bo‘lib buktreyler yaratish jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

Buktreyler texnologiyasini qo‘llash mazmuni

Tarbiya fanini o‘qitishda buktreyler texnologiyasini qo‘llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Asarni tanlash

Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan kitob yoki hikoya tanlanadi.

2. Tahlil qilish

Asarning asosiy g‘oyasi, qahramonlari va muammosi aniqlanadi.

3. Ssenariy tuzish

Qisqa, mazmunli va ta’sirchan matn tayyorlanadi.

4. Materiallar tayyorlash

Rasmlar, videolar, musiqa va ovoz yozuvlari tanlanadi.

5. Montaj qilish

Barcha materiallar birlashtirilib, videorolik tayyorlanadi.

6. Taqdimot va muhokama

Tayyor buktreyler sinfda namoyish qilinadi va muhokama qilinadi.

Tarbiya fanini o‘qitishda buktreyler texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va ularning ijodiy hamda raqamli ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiya ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Hozirgi axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda insonlarning axborotni qabul qilish shakli ham tubdan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida vizual va qisqa formatdagi

ma’lumotlarga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Ana shunday sharoitda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitobga bo‘lgan qiziqishni oshirish yangi va samarali usullarni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, buktreylerlar — kitob mazmunini qisqa, ta’sirchan va zamonaviy formatda taqdim etuvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Buktreyler orqali kitobning asosiy g‘oyasi, kayfiyati va syujet elementlari vizual hamda audio vositalar yordamida yoritiladi. Bu esa tomoshabinda asarga nisbatan qiziqish uyg‘otib, uni kitobni mutolaa qilishga undaydi.

Bugungi kunda buktreylerlar nafaqat nashriyotlar va marketing mutaxassislari, balki o‘qituvchilar, talabalar va kitobsevarlar tomonidan ham keng qo‘llanilmoqda. Ularni yaratish nisbatan sodda bo‘lib, ijodkorlik va to‘g‘ri yondashuvni talab qiladi.

Kitobxonlikni targ‘ib qilish masalasi har qanday jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq raqamli texnologiyalar asrida an’anaviy usullar orqali kitobga qiziqishni oshirish tobora qiyinlashib bormoqda. Shu sababli, innovatsion va interaktiv usullardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Buktreyler yaratish quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

- Yosh avlodni jalb qiladi — vizual format ular uchun ancha qiziqarli va tushunarli;
- Kitobni samarali targ‘ib qiladi — qisqa vaqtda asar haqida umumiy tasavvur beradi;
2. Erkaklar va ayollardan iborat davlat gvardiyasi.
3. Gvardiya a’zolari umumiy yashash sharoitida, o‘zlarining xususiy mulklarisiz yashaydilar.

Birinchi bosqich “Donishmand-rahbar”lardan tashkil topgan yangi boshqaruvchi sinf, ya’ni Gvardiyani o‘z ichiga oladi. U faylasufni bilimlarga katta moyilligi bo‘lgan shaxs deb ta’riflagan. Uning fikriga ko‘ra, hukmdorning muvaffaqiyati kaliti bu bilimdir, yoki faylasuflar rahbar bo‘lishi, yoki rahbarlar faylasuf bo‘lishi kerak. Aflotunning bu birinchi bosqichga intilishi Afinada yuqori mavqega ega odamlarni yoqtirmasliklaridan kelib chiqqan. Ushbu nazariyasi tufayli Afinaliklar Aflotunni o‘zini xuddi shu toifaga mansub, jamiyatdan o‘zini ustun ko‘radigan yolg‘onchi yoki foydasiz shaxslar deb hisoblashgan.

Aflotunning ikkinchi bosqichi Gvardiyaning erkaklar va ayollardan tashkil topishini o‘z ichiga oladi. Bu g‘oya Aflotun davri uchun juda oqilona edi, chunki ayollar o‘sha davrda siyosatda ishtirok etmasdi. Ayollar nisbatan yaqindagi zamonlargacha siyosiy faol bo‘lmagan, demak Aflotun nafaqat qadimgi yunon, balki hozirgi zamon standartlari bo‘yicha ham juda bilimdon faylasuf bo‘lgan.

Uchinchi bosqichda Gvardiya a’zolari umumiy yashash sharoitida, o‘zlarining xususiy mulklarisiz yashashlari kerakligi aytiladi. Ular hatto boylikka ham ega bo‘lmasdilar. Ular o‘z narsalarini bo‘lishib olardilar va shu tariqa, afinaliklar sinfiy mavqega ko‘ra bir-biriga hasad qilish istagini yo‘qotishardi. Hasad yo‘qolardi, chunki boylikka ega bo‘lish haqidagi tashvishlar bo‘lmasdi. Har kimning bir xil narsalarga ega bo‘lishi sababli, kim nima egalik qiladi degan tortishuvlar bo‘lmasdi.

---

[1] http://classics.mit.edu/Aristotle/politics.html
[2] Popper, K. R. The Open Society and Its Enemies. Vol. 1: The Spell of Plato. London. Routledge. 2013. P. 365
[3] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 2021. B. 320.

Aflotunning ideal davlat konsepsiyasiga qat’iy ishonishiga asos bo‘lgan bir necha muhim omillar mavjud. Quyida ularning asosiy sabablari keltirishga harakat qilamiz:

Aflotun Afina boshqaruv tizimidan chuqur norozi edi. Demokratiya fuqarolarga o‘z yetakchilarini saylash imkonini bersa-da, Aflotun bu tizimni nuqsonli deb hisobladi. Uning fikricha, qaror qabul qilish jarayoni ommaviy mashhurlikka emas, balki donolik va malakaga asoslanishi lozim edi. O‘zining “Davlat” asarida u demokratiyani shunday kemaga o‘xshatadiki, undagi kema xodimlari mohir dengizchi o‘rniga ovozi baland va jozibador kapitanni saylaydilar. Uning demokratiyadan butunlay sovushi ustozi Suqrotning qatl etilishi bilan yanada kuchaydi. Miloddan avvalgi 399-yilda Afina demokratiyasi Suqrotni tanqidiy fikrlashga undagani uchun o‘limga hukm etdi. Aflotun uchun bu voqea demokratiyaning mantiqsiz va adolatsiz bo‘lishi mumkinligiga yaqqol isbot edi. U hokimiyat omma qo‘lida emas, balki bilimli va fazilatli shaxslar qo‘lida bo‘lgan siyosiy tizimni barpo etishni istadi.

Aflotun yashagan davrda yunon shahar-davlatlari beqarorlikdan azob chekayotgan edi. Peloponnes urushi Afinani zaiflashtirib qo‘ygan, rahbarlar tez-tez almashib turar, ularning aksariyati korrupsiyaga berilgan va hokimiyatga tashna edi. Aflotun bu tartibsizliklar ma’naviy tanazzulga olib kelayotganini - odamlar vijdonsiz, xudbin bo‘lib borayotganini va umumiy manfaatlarga befarq bo‘lib qolganini kuzatdi. U barqaror bo‘lmagan hukumatlar hech qachon kuchli va jipslashgan jamiyat yarata olmasligiga ishondi. Bunday hukumatlar fuqarolarni odillik va donolik ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi, vaholanki, u buni adolatli va farovon davlat uchun hayotiy zarur deb bilar edi. Tartibni tiklash uchun Aflotun bundan tubdan farq qiluvchi siyosiy tuzilmani qidirdi.

Aflotun oddiy yechim taklif qildi: boshqaruvni dono va fazilatli insonlarga topshirish lozim. U haqiqat va adolat mohiyatini chuqur anglaydigan “faylasuf-hukmdorlar” tushunchasini kiritdi. Uning ideal davlatida bu yetakchilar adolatli va oqilona boshqaruvni ta’minlash uchun matematika, mantiq va falsafa kabi fanlar bo‘yicha mashaqqatli tayyorgarlikdan o‘tishlari kerak edi. Aflotun kuzatgan o‘z manfaatini ko‘zlovchi siyosatchilardan farqli o‘laroq, faylasuf-hukmdorlar shaxsiy manfaat uchun emas, balki umumiy farovonlik yo‘lida hukmronlik qilishi lozim edi.

Aflotunning noroziligi faqat demokratiya bilan cheklanib qolmadi - u o‘z davridagi barcha hukumat shakllarida kamchiliklarni ko‘rdi. Oligarxiya hokimiyatni boylar qo‘lida to‘plagan bo‘lsa, tiraniya vakolatlarni zolim hukmdorlar ixtiyoriga topshirar edi. “Davlat” asarida u bunday tizimlar muqarrar ravishda tanazzulga yuz tutishini, chunki hokimiyat doimo noto‘g‘ri odamlarga berilishini ta’kidlaydi. Saylovlar, boylik yoki qo‘pol kuch orqali bo‘lishidan qat’i nazar, yetakchilik ko‘pincha bunga noloyiq shaxslar qo‘liga o‘tib qolardi. Aflotun bu hukumatlarni barcha fuqarolarning farovonligi bo‘lmish “umummanfaat”ni e’tiborsiz qoldirganlikda aybladi. U hokimiyat uchun kurashga emas, balki adolat va ma’naviy tarbiyaga ustuvorlik beruvchi davlatni tasavvur qildi.

Adolat Aflotun siyosiy falsafasining markaziy nuqtasi edi. U adolatni shunchaki mavhum tushuncha deb emas, balki tartibli jamiyatning poydevori deb bildi. Uning ideal davlatida shaxslarga o‘z qobiliyatlariga qarab rollar berilar edi: donishmandlar boshqaradi, jasurlar himoya qiladi, mehnatkashlar esa jamiyatni ta’minlaydi. U ushbu tuzilmani inson ruhiyatiga qiyosladi, ya’ni unda aql, iroda va ehtiyojlar o‘zaro uyg‘un bo‘lishi shart. Korrupsiyaning oldini olish uchun Aflotun hatto hukmdorlarning oilasi yoki shaxsiy mulki bo‘lmasligi kerakligini taklif qildi. Shunday qilib, ularning sadoqati shaxsiy manfaatlarga emas, balki butun jamiyatga qaratilgan bo‘lishi lozim edi. Aflotunning ideal davlati har bir shaxs mazmunli hissa qo‘shadigan adolatli va muvozanatli jamiyat yaratishni maqsad qilgan edi.

Aflotun shunchaki vaqtinchalik yechim izlamadi - u uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni kafolatlovchi siyosiy tizimni barpo etishni maqsad qildi. Uning e’tiqodiga ko‘ra, adolatli jamiyat inson tabiatini aks ettirishi lozim: unda aql yetakchilik qiladi, shijoat unga tayanch bo‘ladi, nafs va ehtiyojlar esa jilovlangan holda tutiladi. Uning ideal davlatida har bir fuqaro jamiyatdagi o‘z o‘rni va vazifasini chuqur anglaydi hamda barcha uyg‘unlikda faoliyat yuritadi; bu esa o‘z navbatida ijtimoiy nizolarni kamaytirib, hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Aflotunning “Davlat” asarida bayon etilgan ideal davlat konsepsiyasi G‘arb siyosiy falsafasining tamal toshi hisoblansa-da, asrlar davomida jiddiy tanqidlarga uchrab kelgan. Quyida

uning faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqariladigan, qat’iy tabaqalangan hamda adolat va umummanfaat yo‘lida qurilgan utopik jamiyatiga nisbatan bildirilgan asosiy tanqidiy qarashlar tahlilini keltiramiz:

Aflotunning ideal davlatidagi “uch to‘lqin” (islohotlar) hatto eng oddiy dehqonlarning hayot tarziga ham ijobiy ta’sir ko‘rsata olish-olmasligi haqida aniq bir to‘xtamga kelib bo‘lmaydi.

Aflotun faylasuf-hukmdorlarning mutloq hukmronligini yoqlaydi. Uning fikricha, faqat bilimdonlar boshqarishi kerak, shu bois u barcha vakolatlarni ularning qo‘lida to‘playdi. Biroq, “hokimiyat insonni aynitadi, mutloq hokimiyat esa uni mutloq aynitadi” degan haqiqat faylasuf-hukmdorlarda ham namoyon bo‘lishi muqarrar. Hukmdorlar orasida axloqiy qadriyatlarning inqirozi ularni vaqt o‘tishi bilan muqarrar ravishda zolimlarga (tiranlarga) aylantiradi.

Ideal davlat nazariyasining eng katta nuqsoni shundaki, Aflotun davlat uchun mo‘ljallagan siyosiy tuzilmaning amaliy mexanizmlari hech qachon to‘liq ochib berilmagan.

Hatto faylasuf-hukmdorlar boshqaruvida ham hech qanday qonunlar haqida so‘z bormaydi. Bu esa “fuqarolar shunchalik baxtiyor va mamnun bo‘ladilarki, jinoyat qilishni xayollariga ham keltirmaydilar, shu bois qonunlarga ehtiyoj qolmaydi” degan asossiz va xomxayol tushunchaga yo‘l ochadi.

Aflotunning hayoliy davlatida shu kabi kamchiliklar kuzatilsada bugingi dunyoda mavjud bo‘lib turgan demokratik tartibotlar uchun va shu vaqtgacha ijod qilingan ushbu yo‘nalishga doir asarlarga asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Афлотун. Давлат: насрий достон. Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. Б. 464.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Dionysius_I_of_Syracuse
3. http://classics.mit.edu/Aristotle/politics.html
4. Popper, K. R. The Open Society and Its Enemies. Vol. 1: The Spell of Plato. London. Routledge. 2013. P. 365
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 2021. B. 320.

BOLANING IJTIMOY VA SHAXS SHAKLLANISHIDA ARTTERAPIYANING AHAMIYATI

Turg‘unpo‘latova Mohlaroy Abduvali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu bitiruv malakaviy ishi bolalarning ijtimoiy va shaxs shakllanishida artterapiyaning ahamiyatini o‘rganadi. Unda artterapiyaning ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilash, hissiy tartibga solish va psixososial muammolarni hal qilishdagi roli tahlil qilinadi. Mavjud adabiyotlar, jumladan, ASB va boshqa psixososial muammolarga ega bolalarda artterapiyaning ijobiy natijalari, jumladan, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va stressni kamaytirish ko‘rsatiladi. Artterapiya bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim vosita bo‘lsa-da, uning samaradorligini to‘liq asoslash uchun chuqurroq tadqiqotlar zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Artterapiya, bolalar rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalar, shaxs shakllanishi, autizm spektridagi buzilishlar, psixososial muammolar.

Bolalik davri inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalar shakllanadi, hissiy intellekt rivojlanadi va dunyo bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatiladi. Ushbu jarayonlarning sog‘lom kechishi bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati va farovonligi uchun poydevor hisoblanadi. Biroq, ko‘plab bolalar turli

sabablarga ko‘ra, masalan, autizm spektridagi buzilishlar (ASB), psixososial muammolar yoki boshqa rivojlanish xususiyatlari tufayli ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda va shaxsiy ifodada qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Artterapiya, san’at va psixologiyani birlashtirgan integral yondashuv bo‘lib, insonning hissiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. U bolalarga o‘z ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va tajribalarini so‘zlar orqali ifodalash qiyin bo‘lgan hollarda, rasm chizish, haykaltaroshlik, kollaj va boshqa ijodiy faoliyat turlari orqali ifodalash imkoniyatini beradi. Bu jarayon bolalarning o‘z-o‘zini anglashini, stressni kamaytirishni va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Artterapiyaning bolalar rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. D’Amico va Lalonde (2017) tomonidan o‘tkazilgan kvazi-eksperimental tadqiqot [1] autizm spektridagi buzilishlar (ASB) bo‘lgan bolalarga ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatishda artterapiyaning samaradorligini baholagan. Tadqiqotda tuzilgan artterapiya dasturi bolalarga ijtimoiy o‘zaro munosabatlardagi qiyinchiliklarni muhokama qilish va mos javoblarni ishlab chiqish uchun terapevtik muhitni taqdim etgan. Guruh sharoitida qo‘llanilgan artterapiya usullari ishtirokchilarga ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va mashq qilish, shuningdek, o‘xshash tajribalarga ega tengdoshlari bilan ijobiy o‘zaro munosabatlarni shakllantirishga yordam bergan. Natijalar ASB bo‘lgan bolalarning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda ishtirok etish va o‘zini namoyon qilish qobiliyatining oshganligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, tadqiqot aralashuvda ishtirok etgan bolalar orasida giperaktivlik va diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklarning kamayganligini ham aniqlagan [1]. Bu natijalar artterapiyaning nafaqat ijtimoiy, balki xulq-atvor muammolarini hal qilishda ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish va sintez qilishga asoslangan bo‘lib, empirik tadqiqot emas. Tadqiqot metodologiyasi artterapiyaning bolalarning ijtimoiy va shaxs shakllanishidagi ahamiyatini baholash uchun tanlangan adabiyotlardan olingan dalillarni tanqidiy baholashga qaratilgan.

Tadqiqot yondashuvi: Ushbu ishda sifatli tadqiqot yondashuvi qo‘llanilgan bo‘lib, u mavjud ilmiy manbalardan olingan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va talqin qilishni o‘z ichiga oladi. Asosiy e’tibor artterapiyaning bolalar rivojlanishiga ta’sirini tushuntiruvchi mexanizmlarni va uning samaradorligini ko‘rsatuvchi dalillarni aniqlashga qaratilgan.

Ma’lumot manbalari: Tadqiqot uchun ma’lumot manbalari sifatida uchta asosiy ilmiy manba [1], [2], [3] tanlab olindi. Bu manbalar artterapiyaning bolalar bilan ishlashdagi samaradorligini o‘rganuvchi kvazi-eksperimental tadqiqot va ikkita tizimli sharhni o‘z ichiga oladi.

Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish artterapiyaning bolalarning ijtimoiy va shaxs shakllanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Natijalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda umumlashtirilishi mumkin:

Ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilash: D’Amico va Lalonde (2017) tadqiqoti [1] shuni ko‘rsatdiki, artterapiya ASB bo‘lgan bolalarning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda ishtirok etish va o‘zini namoyon qilish qobiliyatini oshirgan. Guruh sharoitida artterapiya bolalarga ijtimoiy qiyinchiliklarni muhokama qilish va mos javoblarni ishlab chiqish uchun terapevtik muhitni taqdim etgan, bu esa tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam bergan.

Ijtimoiy kommunikatsiyani kuchaytirish: Tizimli sharh [2] artterapiyaning ASB bo‘lgan bolalarda ijtimoiy kommunikatsiyani yaxshilashda istiqbolli natijalarni ko‘rsatgan. San’at orqali ifodalash bolalarga so‘zlar orqali ifodalash qiyin bo‘lgan his-tuyg‘ular va fikrlarni yetkazishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni osonlashtiradi.

Hissiy tartibga solish va xulq-atvor muammolarini kamaytirish: D’Amico va Lalonde (2017) tadqiqoti [1] artterapiya aralashuvida ishtirok etgan bolalar orasida giperaktivlik va diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklarning kamayganligini aniqlagan. Bu artterapiyaning hissiy tartibga solish va xulq-atvor nazoratini yaxshilashga yordam berishini ko‘rsatadi.

Ushbu tadqiqot natijalari artterapiyaning bolalarning ijtimoiy va shaxs shakllanishida muhim va ko‘p qirrali rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Tahlil qilingan adabiyotlar [1, 2, 3] artterapiyaning ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilash, hissiy tartibga solishni kuchaytirish, xulq-atvor

muammolarini kamaytirish va umumiy psixososial farovonlikni oshirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Natijalarning talqini: Artterapiya, ayniqsa, og‘zaki ifodada qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar uchun qimmatli vosita hisoblanadi. San’at orqali ifodalash bolalarga o‘z ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va tajribalarini xavfsiz va konstruktiv tarzda namoyon etish imkoniyatini beradi. Bu jarayon o‘z-o‘zini anglashni, o‘ziga bo‘lgan ishonchni va o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa shaxs shakllanishining asosiy komponentlaridir. Ijtimoiy jihatdan, guruh artterapiyasi bolalarga tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, empatiyani rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni amalda qo‘llash uchun noyob platforma taqdim etadi [1]. Bu ayniqsa, ASB bo‘lgan bolalar uchun muhimdir, chunki ular ijtimoiy kommunikatsiyada sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi [2].

Nazariy implikatsiyalar: Artterapiyaning samaradorligi rivojlanish psixologiyasining bir qancha nazariyalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi bolaning ijtimoiy va shaxs shakllanishida artterapiyaning muhim ahamiyatini atroflicha tahlil qildi. Mavjud ilmiy adabiyotlar [1, 2, 3] artterapiyaning bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini yaxshilash, hissiy tartibga solishni kuchaytirish, xulq-atvor muammolarini kamaytirish va umumiy psixososial farovonlikni oshirishdagi ijobiy ta’sirini aniq ko‘rsatdi. Artterapiya, ayniqsa, autizm spektridagi buzilishlar (ASB) va boshqa psixososial muammolarga ega bolalar uchun samarali vosita bo‘lib, ularga o‘zlarini noverbal tarzda ifodalash, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda ishtirok etish va stressni boshqarishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. The Effectiveness of Art Therapy for Teaching Social Skills to ... - ERIC – https://eric.ed.gov/?id=EJ1169552

2. The Effectiveness of Art Therapy on Children and Adolescents with ... – https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12652869/

3. Art Therapy for Psychosocial Problems in Children and Adolescents – https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC7578380/

TARBIYA FANIDA PARADIGMAVIY BURILISH: AN’ANAVIY YONDASHUVDAN KOMPETENSIYAVIY MODELGA O‘TISH ZARURATI

Nasiba Yunusmetova Satimbekovna
Sirdaryo pedagogik mahorat markazining Tarbiya fani metodisti

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida tarbiya fanining transformatsiyasi hamda undagi paradigmaviy o‘zgarishlar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. An’anaviy reproduktiv ta’lim modelining cheklangan jihatlari asoslab berilib, kompetensiyaviy yondashuvning metodologik ustunliklari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarbiya fanida kompetensiyaviy modelni joriy etish kadrlar salohiyatini oshirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: paradigma, tarbiya fani, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy barqarorlik, inson kapitali, pedagogik transformatsiya.

XXI asr boshlaridan boshlab jahon miqyosida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti hamda axborot oqimining keskin ortishi inson faoliyatining barcha sohalariga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Ayniqsa, mehnat bozori talablari tobora murakkablashib, an’anaviy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va tezkor qaror qabul qilish kabi universal kompetensiyalarni talab etmoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimi jamiyat

ehtiyojlariga mos ravishda yangilanishi, o‘zining mazmuni va metodologiyasini qayta ko‘rib chiqishi zarur bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida inson kapitali e’tirof etilmoqda. Inson kapitalining sifati esa bevosita ta’lim tizimi samaradorligiga bog‘liq. Shu bois, ta’lim jarayonida shaxsning nafaqat bilim darajasi, balki uning ijtimoiylashuv darajasi, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy qadriyatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlarning hayotiy yo‘lini ongli tanlashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy mas’uliyatni his etishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur jarayonda tarbiya fani alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu fan orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar madaniyati, shaxsiy va kasbiy o‘zini anglash kompetensiyalari shakllantiriladi. Tarbiya fani endilikda faqatgina nazariy bilim berish vositasi emas, balki shaxsni hayotga tayyorlovchi, uni faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantiruvchi tizimli mexanizm sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, an’anaviy bilimga yo‘naltirilgan paradigma o‘zining chegaralangan imkoniyatlari bilan zamonaviy ehtiyojlarni to‘liq qondira olmayotgani kuzatilmoqda. U asosan tayyor bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyatga tayyorligini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Natijada, ta’lim natijalari bilan real hayot talablari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. U ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirib, o‘quvchilarda bilimdan foydalanish, uni amaliyotga tatbiq etish va turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa tarbiya fanining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilashni, ya’ni paradigmaviy burilishni talab etadi.

Shunday qilib, tarbiya fanida an’anaviy yondashuvdan kompetensiyaviy modelga o‘tish zarurati nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur masalani ilmiy asosda tahlil qilish esa ta’lim tizimini takomillashtirish va jamiyat barqarorligini ta’minlash yo‘lida muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar asosida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari o‘rganildi.

Asosiy qism

1. Tarbiya fanida paradigmaviy o‘zgarishlarning nazariy asoslari

Ilmiy adabiyotlarda “paradigma” tushunchasi muayyan davrda ustuvor bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimi sifatida talqin etiladi. Tarbiya fanida an’anaviy paradigma normativ-axloqiy bilimlarni uzatishga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy paradigma shaxsning faoliyatga tayyorligini belgilovchi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Mazkur o‘zgarish ijtimoiy-falsafiy jihatdan subyektning transformatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi: ya’ni o‘quvchi passiv bilim oluvchidan faol ijtimoiy aktorga aylanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti – ongli va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. An’anaviy yondashuvning strukturaviy cheklovlari

An’anaviy pedagogik model quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

-bilimlarning reproduktiv o‘zlashtirilishi;
-o‘qituvchi markazlashgan ta’lim muhiti;
-baholashning summativ xarakteri.

Mazkur yondashuvning asosiy kamchiligi – o‘quvchilarda yuqori darajadagi kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarni yetarli darajada shakllantira olmasligidir. Natijada, ta’lim jarayoni bilan real hayot ehtiyojlari o‘rtasida tafovut yuzaga keladi.

3. Kompetensiyaviy modelning metodologik ustunliklari

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etishni nazarda tutadi:

-integrativlik – bilim, ko‘nikma va qadriyatlarning uyg‘unligi;

-amaliy yo‘naltirilganlik – o‘rganilgan bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash;
-subyekt-subyekt munosabati – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik;
-refleksivlik – o‘z-o‘zini tahlil qilish va rivojlantirish.

Tarbiya fanida bu yondashuv shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini, xususan, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Kompetensiyaviy yondashuvning ijtimoiy ahamiyati

Kompetensiyaviy model asosida shakllangan shaxs:
-murakkab ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladi;
-o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni his etadi;
-innovatsion fikrlashga ega bo‘ladi.

Bu esa jamiyatda inson kapitalining sifatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yondashuvni joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya fanida kompetensiyaviy modelni joriy etish:
-o‘quvchilarning ijtimoiylashuv darajasini oshiradi;
-ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
-ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun pedagoglarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish zarur.

Xulosa

Tarbiya fanida paradigmaviy burilish – an’anaviy yondashuvdan kompetensiyaviy modelga o‘tish – bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining ob’ektiv va muqarrar rivojlanish bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon faqat metodik o‘zgarish emas, balki ta’limning maqsad, mazmun va natijalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etuvchi tizimli islohotdir.

Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni tayyor bilimlar majmuasini egallovchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi, moslashtiruvchi va amaliyotda qo‘llay oluvchi faol subyekt sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa yoshlarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, kommunikativ madaniyati, tanqidiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur transformatsiyaning strategik ahamiyati shundaki, u inson kapitalining sifat jihatdan o‘sishini ta’minlaydi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlik, innovatsion fikrlash va ijtimoiy faollik kabi xususiyatlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv esa aynan shu sifatlarni shakllantirish orqali kadrlar salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu bilan birga, tarbiya fanining kompetensiyaviy asosda tashkil etilishi yoshlarda fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy ong va ma’naviy barkamollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Chunki barqaror jamiyat — bu nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan, balki ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolarga ega bo‘lgan jamiyatdir.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fanini kompetensiyaviy model asosida qayta qurish nafaqat pedagogik zarurat, balki ijtimoiy taraqqiyotning strategik talabi hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish esa pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion metod va texnologiyalarni keng joriy etish hamda ta’lim muhitini modernizatsiya qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
2. Muslimov N.A. *Kasbiy ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Abdukarimov X. *Pedagogik kompetensiyalar nazariyasi*. – Toshkent, 2021.
4. Raven J. *Competence in Modern Society*. – London: Oxford University Press, 1984.
5. Khutorskoy A.V. *Key Competencies in Education*. – Moscow, 2003.
6. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals*. – Paris, 2017.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MINTAQAVIY ENERGETIK XAVFSIZLIKNING ASOSIY OMILLARI: ENERGIYA RESURSLARI

Minovvarova Malikaxon Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni global energiya talabi va resurslar taqsimotini keskin o‘zgartirib, mintaqaviy energetik xavfsizlik masalalarini yanada murakkablashtirmoqda. Ushbu maqolada energetik xavfsizlikning asosiy omillaridan biri sifatida neft va tabiiy gaz zaxiralari, ularning strategik joylashuvi tahlil qilingan. Maqolada IEA, OPEC va World Energy Outlook 2025 hisobotlariga tayanib, global energiya talabining o‘sishi, resurslar taqsimotidagi notekislik va mintaqaviy raqobatning energetik xavfsizlikka ta’sirini ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida mintaqaviy energetik xavfsizlikning ko‘p qirrali va kompleks tabiatini aks ettiradi hamda uning iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy omillar bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, mintaqaviy energetik xavfsizlik, energiya resurslari, neft va gaz zaxiralari, strategik transport yo‘llari, geosiyosiy raqobat, energetik barqarorlik, OPEC, IEA, global energiya bozori.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyoti va siyosiy tizimining yanada chuqur integratsiyalashuvini ta’minlab, energiya resurslariga bo‘lgan talabning keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Davlatlar va mintaqalar o‘z energetik xavfsizligini ta’minlash uchun nafaqat resurslar bilan ta’minlangan hududlarga bo‘lgan siyosiy e’tiborini kuchaytirmoqda, balki strategik transport yo‘llari, narx barqarorligi va infratuzilma xavfsizligini ham muhim omil sifatida hisobga olmoqda. Mintaqaviy energetik xavfsizlikga nisbatan mavjud konseptual yondashuvlardan kelib chiqqan holda, uning mohiyati va geosiyosiy jihatlarini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir qator asosiy omillar orqali izohlash mumkin. Ushbu omillar nafaqat global, balki mintaqaviy darajada ham energetik xavfsizlikning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, energetik xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida energetik zaxiralar, jumladan, neft va tabiiy gaz resurslarining mavjudligi, ularning strategik joylashuvi hamda global energiya bozoriga ko‘rsatadigan ta’siri e’tiborga olinadi. Resurslarga boy hududlarning geografik joylashuvi ko‘pincha mintaqaviy va global geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lib, energetik xavfsizlikni strategik masalaga aylantiradi.

So‘nggi yillarda global energetika bozorida kuzatilayotgan statistik o‘zgarishlar energetik xavfsizlikning mohiyatini sifat jihatidan o‘zgartirib, uni yanada murakkab va ko‘p darajali muammoga aylantirmoqda. IEA, EI va OPEC tomonidan keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, global energiya talabi izchil o‘sishda davom etayotgan bo‘lsa-da, ushbu o‘sish hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanmoqda. Aynan mana shu notekislik mintaqaviy energetik xavfsizlik tizimida yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, IEAning rasmiy “Global Energy Review 2025”[1] hisobotiga ko‘ra, jahon energetika talabi 2024-yilda 2.2 % ga o‘sdi, bu o‘sish so‘nggi o‘n yillik o‘rtacha darajadan ancha yuqoridir. Talabdagi o‘sish barcha yoqilg‘i turlari va texnologiyalar bo‘yicha kuzatilgan bo‘lib, elektr energiyasiga bo‘lgan talab eng yuqori sur’at bilan (4.3 %) o‘sdi, bu esa global YaIM o‘sishidan ham yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Energiya ta’minotida qayta tiklanuvchi manbalar eng katta o‘sish ulushini egalladi (38 %), undan keyin tabiiy gaz (28 %), ko‘mir (15 %), neft (11 %) va yadro energiyasi (8 %) joy oldi. Shuningdek, rivojlanayotgan va o‘sib borayotgan iqtisodiyotlar global talab o‘sishining 80 % dan ortig‘ini qamrab oldi, bunda Xitoy va Hindiston yetakchi rolni bajardi.

World Energy Outlook 2025 hisobotida [2] global energetika tizimining 2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish ssenariylari bayon etilgan. Energiya samaradorligi oshishi global energiya talabini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya va yadro energetikasi ulushi ortishi kutilmoqda. Ssenariylarga ko‘ra, birlamchi yoqilg‘ilarning ulushi sekin kamayishi mumkin. Mazkur ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, global energetika talabi o‘sishda davom etmoqda va bu o‘sish rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga

bog‘liqdir. Ushbu tendensiya energetik xavfsizlik nuqtayi nazaridan bir qator yangi xavflarni kuchaytiradi. Birinchidan, energiya iste’molining asosiy markazi an’anaviy sanoati rivojlangan davlatlardan Osiyo va Afrika mintaqalariga siljimoqda. Bu esa energiya resurslariga boy hududlar, xususan Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Afrika ustidan geosiyosiy raqobatning keskinlashuviga olib kelmoqda. Demak, statistik o‘sish nafaqat iqtisodiy faollikni, balki mintaqalararo siyosiy bosim va strategik raqobatni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, energiya talabining o‘sishi qayta tiklanuvchi manbalar ulushining ortishi bilan birga kechayotgan bo‘lsa-da, global energetika balansida neft va tabiiy gazning ustuvor mavqei saqlanib qolmoqda. Energy Institute “Statistical Review of World Energy 2025”[3] hisobotiga ko‘ra, birlamchi energiya ta’minotining qariyb 86 foizi hanuz an’anaviy yoqilg‘ilar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu holat mintaqaviy energetik xavfsizlikda yangi paradoksni yuzaga keltiradi: bir tomondan energiya tizimi diversifikatsiyalanmoqda, ikkinchi tomondan esa asosiy ta’minot haligacha siyosiy jihatdan beqaror yoki geosiyosiy ziddiyatlar mavjud bo‘lgan mintaqalarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Natijada, energiya tranziti va ta’minot zanjirlarining xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikning eng zaif bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Uchinchidan, statistik ma’lumotlar mintaqalar o‘rtasida energetik xavfsizlik bo‘yicha yutayotgan va zaiflashayotgan hududlarni aniq ko‘rsatib bermoqda**.** Masalan, Yaqin Sharq va Fors ko‘rfazi mamlakatlari global neft zaxiralarining asosiy qismini nazorat qilgan holda energetik xavfsizlikning “taklif tomoni”da strategik ustunlikka ega bo‘lib bormoqda. Jumladan, OPEC “Annual Statistical Bulletin 2025”[4] ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning oxirigacha global tasdiqlangan neft zaxiralari taxminan 1 567 milliard barrelga yetdi. Bu zaxiralarning katta qismi Fors ko‘rfazi va Yaqin Sharq mintaqasida jamlanganligi aniqlanadi. OPECga a’zo davlatlar dunyo neft zaxiralarining taxminan 79 % atrofida ulushiga ega bo‘lib, bu mintaqaning neft bo‘yicha strategik rolini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bilan birga, gaz zaxiralari bo‘yicha ham yirik mintaqaviy konsentratsiya mavjud. OPECning gaz bo‘yicha statistik ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rganilgan yillar davomida Yaqin Sharq va Rossiya kabi mintaqalar jahon tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralarida yetakchi o‘rin tutadi**.** Bu esa global energetika ta’minotida bu mintaqalarning ustun ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, Saudiya Arabistoni dunyo neft zaxiralarining 17,2 % , Eron esa 9,1 % ni egallaydi. Shu bilan birga, Fors ko‘rfazi mamlakatlarining jami zaxiralari global neft zaxiralarining taxminan 60 % atrofida joylashgan. Saudiya Arabistonida dunyo neft zaxiralarining 17 % to‘planganligi bu davlatning jahon energetika siyosatidagi strategik ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha yetakchi davlatlar qatorida Rossiya (19,9 %), Eron (17,1 %) va Qatar (13,1 %) turadi. Ushbu uch davlat birgalikda jahon gaz zaxiralarining 50 % ga yaqin qismini nazorat qiladi. Shuningdek, Fors ko‘rfazi mamlakatlari gaz zaxiralari bo‘yicha ham global taqsimotda muhim rol o‘ynaydi [5].

Jahon neft va gaz eksporti nuqtayi nazaridan ham Fors ko‘rfazi mamlakatlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Hisobotlar bo‘yicha ushbu davlatlar jahon neft eksportining 28 % ini, gaz eksportining esa 12 % ini ta’minlaydi. Ushbu statistika shuni ko‘rsatadiki, Yaqin Sharq, Fors ko‘rfazi mamlakatlari va Rossiya kabi davlatlar global energetik barqarorlik va geosiyosiy siyosatning shakllanishida strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari, xususan Xitoy va Hindiston, energiya iste’molining keskin o‘sishi tufayli importga yuqori darajada qaram bo‘lib qolmoqda. Bu esa ularning mintaqaviy energetik xavfsizligini tashqi omillarga, jumladan tranzit yo‘llari xavfsizligi va eksportyor davlatlar bilan siyosiy munosabatlarga kuchli darajada bog‘lab qo‘ymoqda.

Markaziy Osiyo va ayrim Afrika davlatlari misolida esa energetik xavfsizlikning nisbatan murakkab, ammo istiqbolli modeli kuzatiladi. Ushbu mintaqalar katta zaxiralarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning energetik xavfsizlikdagi real og‘irligi eksport infratuzilmasi, tranzit yo‘llari va yirik iste’molchilar bilan munosabatlar xarakteriga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Natijada, resurslarga egalikning o‘zi yetarli bo‘lmay, ularni bozorga xavfsiz va barqaror chiqarish imkoniyati mintaqaviy energetik xavfsizlikning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

Shunday qilib, statistik ma’lumotlar mintaqaviy energetik xavfsizlikni faqat raqamlar majmui sifatida emas, balki kuchlar muvozanatining qayta taqsimlanishini aks ettiruvchi indikatorlar tizimi

sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Global energiya talabining o‘sishi, resurslar va iste’mol geografiyasining nomutanosibligi, transport yo‘llari va narxlar beqarorligi mintaqaviy energetik xavfsizlikda yangi xavflarni kuchaytirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan shu jarayonlar ayrim mintaqalarning strategik pozitsiyasini mustahkamlab, boshqalarini esa tashqi energiya ta’minotiga yanada qaram holga keltirmoqda.

Demak, energetik xavfsizlikning asosiy elementi bo‘lgan neft-gaz zaxiralari uchun global raqobat sharoitida asosiy e’tibor zaxiralarga egalik qilish, neftga boy mintaqalarda mustahkam o‘rnashish, neft va gaz resurslariga boy davlatlar bilan samarali va mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va geografik yaqinlashuvni ta’minlashga qaratilayotganligi energetik xavfsizlikning geosiyosiy jihatlarini namoyon qiladi. Ba’zi bir tadqiqotchilar e’tiroficha, o‘tgan oxirgi yillarda ommaviy axborot vositalari va mutaxassislarning energetika sohasidagi krizislar to‘g‘risida tashvishli mulohazalari, uglevodorod zaxiralarining yetishmasligi va muqobil manbalarni topish masalasidagi inqirozlar o‘zining to‘liq asosiga ega emas. Bu boradagi muammoning asosi yer ostidagi zaxiralarning tugab borishi bilan emas balki yer ustidagi voqelik, ya’ni siyosat bilan bog‘liqdir[6].

Neft -gaz sohasidagi energetik xavfsizlikning geosiyosiy jihatlari ayniqsa energiya resurslariga boy mintaqalarda yirik davlatlarning manfaatlari to‘qnashuvining keskinlashishi natijasida yanada ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Jahon energetika bozorida kuzatilayotgan bir qator tendensiyalar, xususan, jahon miqyosida energiya iste’moli darajasining ortib borayotganligi, energetik raqobatning mintaqaviy nizo shakliga kirayotganligi, davlatlarning energetik ittifoqlar tuzishga intilishlari natijasida energetika tiziminining geosiyosiy xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Iqtisodiy taraqqiyotning energetik resurslarga bog‘liqligi kuchayishi natijasida dunyo mamlakatlarining uglevodorodga boy mintaqalarga bo‘lgan qiziqishi va ta’siri ham o‘z navbatida oshib bormoqda. Bunga sabab davlatlarning zamonaviy xalqaro va milliy energetik siyosati yaxshi qo‘shnichilik, umumiy manfaatlarni anglash va xalqaro xuquq normalariga amal qilish kabi qadriyatlarning e’tirof etilishiga emas, balki davlatlarning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari va milliy manfaatlarining geosiyosiy imperativlariga asoslanishidadir. Shuning uchun neft va tabiiy gaz zaxiralariga ega, yoqilg‘i - energetika kompleksi rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik masalasi geoiqtisodiy, geosiyosiy nuqtai nazardan juda muhim hisoblanadi[7].

Xulosa qilganda, globallashuv sharoitida mintaqaviy energetik xavfsizlikning samarali ta’minlanishi ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi. Avvalo, global energiya talabining oshishi va resurslar geografiyasidagi notekis taqsimlanish davlatlar va mintaqalar o‘rtasida strategik raqobatni kuchaytiradi, shu bilan birga energetik xavfsizlikni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va geosiyosiy omil sifatida ham belgilaydi. Umuman olganda, globallashuv sharoitida mintaqaviy energetik xavfsizlik konsepsiyasi iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy omillarni uyg‘unlashtiruvchi ko‘p qirrali tizim sifatida shakllanadi. Uning samarali ta’minlanishi uchun energiya resurslarining mavjudligi, transport va ta’minot infratuzilmasining barqarorligi, narxlarning siyosiy va iqtisodiy stabilligi hamda investitsion va texnologik chora-tadbirlar birgalikda hisobga olinishi zarur. Shu tariqa, mintaqaviy energetik xavfsizlik milliy siyosat va xalqaro hamkorlik mexanizmlari, iqtisodiy strategiyalar va texnologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IEA. Global Energy Review 2025. –Paris: International Energy Agency, 2025. // https://www.iea.org/reports/global-energy-review-2025

2. IEA. World Energy Outlook 2025. – Paris: International Energy Agency, 2025.

3. Energy Institute. Statistical Review of World Energy 2025. – London: Energy Institute, 2025. // https://www.energyinst.org/statistical-review

4. OPEC. Annual Statistical Bulletin 2025. –Vienna: Organization of the Petroleum Exporting Countries, 2025. //https://publications.opec.org/annual-statistical-bulletin

5. Planète Énergies. Global natural gas reserves. –Paris: Planète Énergies, 2025. // https://www.planete-energies.com/en/media/figures/global-natural-gas-reserves

6. Симония Н.А. На пути повышения энергетической безопасности и эффективности // Вестник международных организаций. – 2008. –№ 5 (20). – С.33-35.

7. Жураев С.А., Касымова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Т. : Akademiya, 2008. – С.223.

O‘QUVCHILARIDA TARIXIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISH ORQALI MUSTAQIL IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

A.M.Xolnozarova
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tarixi darslarida o‘quvchilarning mustaqil ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tarixiy jarayonlarni modellashtirish metodining ahamiyati yoritilgan. Maqolada modellashtirishning turlari, ularni dars jarayoniga tatbiq etish bosqichlari va o‘quvchilarning tahliliy fikrlashiga ta’siri ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: modellashtirish, mustaqil ish, ijodiy kompetensiya, O‘zbekiston tarixi, loyihalash, tarixiy tahlil.

Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘quvchiga tayyor bilimlarni berishdan ko‘ra, ularda bilimlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa qilib qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Milliy o‘quv dasturida tarix fanini o‘qitishdan maqsad faqat sana va voqealarni yodlatish emas, balki o‘quvchilarda tarixiy izchillikni anglash va voqealarni modellashtirish orqali xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirishdir[1]. Tarixiy jarayonlarni modellashtirish o‘quvchiga o‘tmishdagi hodisalar sabab va natijasini tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa ularda mustaqil ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning eng samarali usuli hisoblanadi.

8-9-sinf o‘quvchilarida mustaqil ijodiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lib, bu davrda tarixiy jarayonlarni modellashtirish ularning mantiqiy va kreativ fikrlashini birlashtiruvchi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Mustaqil ta’lim va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish hududi” nazariyasiga tayanadi. O‘zbekistonlik olimlardan E.G‘oziyev o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini psixologik jihatdan tadqiq etgan bo‘lsa [2], J.G‘ulomov tarix o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning faolligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tgan. Biroq, tarixiy jarayonlarni modellashtirish orqali ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi yangicha yondashuvni talab etadi.

Modellashtirish — bu tarixiy voqelikning eng muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi sun’iy tizimni yaratish jarayonidir [3].

8-9-sinf o‘quvchilarida O‘zbekiston tarixini o‘qitishda modellashtirishning quyidagi turlarini qo‘llash yuqori samara beradi:

1. Struktur-mantiqiy modellashtirish. Masalan, 8-sinfda “Amir Temur va Temuriylar davlati boshqaruv tizimi” mavzusini o‘tishda o‘quvchilarga davlat boshqaruvining grafik modelini mustaqil chizish topshiriladi. Bunda o‘quvchi “Temur tuzuklari”ga tayanib, devonlar va mansabdorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ijodiy ifodalaydi [4].

2. Imitatsion (rolli) modellashtirish. 9-sinfda “Jadidchilik harakati” mavzusida o‘quvchilar jadidlarning ijtimoiy-siyosiy dasturlarini modellashtiradilar. “Agar men jadid bo‘lganimda, qanday islohot o‘tkazardim?” mavzusidagi ijodiy loyiha o‘quvchini mustaqil ravishda tarixiy manbalarni qidirishga va muammoga yechim topishga undaydi.

3. Dinamik modellashtirish. “Buyuk Ipak yo‘lining O‘zbekiston hududidagi tarmoqlari” mavzusida o‘quvchilar savdo yo‘llarining iqtisodiy va madaniy ta’sirini xarita-sxema ko‘rinishida modellashtiradilar.

Tarix darslarida o‘quvchilarda mustaqil ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari:

• axborot yig‘ish bosqichi - o‘quvchi darslik va qo‘shimcha manbalardan (masalan, “Boburnoma” yoki “Tarixi Rashidiy”) ma’lumot to‘playdi;

• tahlil va sintez - to‘plangan ma’lumotlar asosida voqeaning sabab va oqibatlarini ajratadi.

• model yaratish - tarixiy jarayonning maketi, sxemasi yoki raqamli taqdimotini ijodiy yondashgan holda tayyorlaydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, modellashtirish metodi qo‘llanilganda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi 25-30 foizga oshadi, eng muhimi, ularda “tarixiy fakt — tahlil — shaxsiy munosabat” zanjiri shakllanadi [5].

O‘qituvchilar mustaqil ijodiy kompetensiyani samarali shakllantirish uchun quyidagi metodik qadamlarni qo‘llashlari lozim

1. Muammoli vaziyatlar yaratish. Darsda tayyor javobni berish o‘rniga, o‘quvchiga “tarixiy jumboq” berish lozim. Masalan, ma’lum bir imperiyaning qulash sabablarini model ko‘rinishida isbotlab berish vazifasi.

2. Multidisiplinar yondashuv. Tarixiy modelni qurishda geografiya va iqtisodiyotga oid bilimlaridan foydalanishni talab qilish. Bu o‘quvchining bilimlar kompleksligini ta’minlaydi.

3. Raqamli modellashtirish. Zamonaviy texnologiyalar yordamida (mind-maps, interaktiv xaritalar) o‘quvchilarning o‘z modellarini yaratishiga yo‘l qo‘yish.

8-9-sinf o‘quvchilarida tarixiy jarayonlarni modellashtirish — bu shunchaki texnik ish emas, balki yuksak intellektual va ijodiy jarayondir. Bu metod orqali o‘quvchi tarixni “tirik” jarayon sifatida qabul qiladi, mustaqil ravishda tarixiy muammolarni yechish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston tarixi misolida modellashtirish o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini ijodiy fikrlash orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Tarix fanidan Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021.

2. G‘oziyev E.G. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.

3. Bespalko V.P. Slagayemie pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989.

4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.

ZAMONAVIY AXBOROT TAHDIDLARIGA QARSHI YONDASHUVLAR

Mahammatova Ozodaxon Olimxon qizi
CHDPU, Gumanitar fanlar fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot tahdidlarining asosiy turlari, ularning kelib chiqish sabablari va jamiyatga ta’siri ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Fishing hujumlari, dezinformatsiya tarqatish, kiberhujumlar, ijtimoiy muhandislik va deepfake texnologiyalari kabi tahdidlarni aniqlash hamda ularga qarshi kurashishning samarali yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, qiyosiy tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar asosida axborot xavfsizligini ta’minlashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola axborot xavfsizligi mutaxassislari, tadqiqotchilar va keng jamoatchilik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: axborot xavfsizligi, kibertahdidlar, dezinformatsiya, fishing, deepfake, ijtimoiy muhandislik, kiberhimoya.

KIRISH. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborot xavfsizligi sohasida tubdan yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda axborot tahdidlari nafaqat texnik tizimlarni, balki inson psixologiyasini, ijtimoiy munosabatlarni va siyosiy jarayonlarni ham

qamrab olmoqda [1]. O‘zbekistonda ham raqamlashtirish sur’atlarining o‘sishi bilan birga, kibertahdidlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Jahon iqtisodiy forumining 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, axborot tahdidlari global miqyosdagi eng xavfli tahdidlar ro‘yxatidan o‘rin olgan. Xususan, dezinformatsiyani tarqatish, fishing hujumlari va kiberjinoyatchilik zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biriga aylangan [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi – zamonaviy axborot tahdidlarining mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil etish va ularga qarshi kurashishning samarali usullarini aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM. Axborot tahdidlari turli mezonlar asosida tasniflanadi. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra ular ichki (tashkilot ichidagi) va tashqi (tashqi aktörlardan keladigan) tahdidlarga bo‘linadi. Ta’sir ob’ektiga ko‘ra esa texnik infratuzilmaga, insonga va ijtimoiy jarayonlarga yo‘naltirilgan tahdidlar farqlanadi [3].

Zamonaviy tahdidlarning eng keng tarqalgan turlari quyidagilardir: ijtimoiy muhandislik (social engineering), fishing (phishing), dezinformatsiya va manipulyatsiya, kiberhujumlar (DDoS, ransomware, APT), hamda sun’iy intellekt asosida yaratilgan soxta kontent (deepfake).

Dezinformatsiya va uning ijtimoiy oqibatlari

Dezinformatsiya – ataylab noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborotni tarqatish jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor ravishda yoyiladi. Karimov va Toshpo‘latov [4] o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida dezinformatsiya tarqalishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib, milliy xususiyatlarga mos axborot savodxonligi dasturlarini ishlab chiqishni taklif etgan.

Misinformatsiyadan farqli ravishda, dezinformatsiya maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi. Pandemiya davrida «infodemia» hodisasi bunning yorqin namunasidir.

Kiberhujumlar va texnik tahdidlar

Kiberhujumlar zamonaviy davlat boshqaruvi, moliyaviy tizimlar va kritik infratuzilmaga jiddiy xavf tug‘diradi. Ransomware (to‘lov dasturlari) hujumlari 2023–2024 yillarda global miqyosda 400 milliard dollardan ortiq zarar keltirgan [5]. O‘zbekistonda kiberhimoya tizimini kuchaytirish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilingan bo‘lsa-da, texnik kadrlar tanqisligi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

1-jadval. Zamonaviy axborot tahdidlarining qiyosiy tahlili

Tahdid turi	Ta’sir sohasi	Tarqalish darajasi	Xavf darajasi	Qarshi chora
Ijtimoiy muhandislik	Foydalanuvchi xatosi	Past	Yuqori	Ta’lim va treninglar
Fishing hujumlari	Maxfiy ma’lumot o‘g‘irlash	O‘rta	Yuqori	Ko‘p faktorli autentifikatsiya
Dezinformatsiya	Jamoat fikri manipulyatsiyasi	Yuqori	Juda yuqori	Axborot savodxonligi
Kiberhujumlar	Infratuzilma buzilishi	Yuqori	Juda yuqori	Kriptografiya, IDS/IPS
Deepfake texnologiyasi	Ovoz/video soxtalash	O‘rta	O‘sib bormoqda	AI asosida aniqlash tizimlari

Manba: muallif tomonidan tuzilgan [1, 2, 5] asosida

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

–Statistik tahlil – kibertahdidlar statistikasini o‘rganish va tendentsiyalarni aniqlash;

–Qiyosiy tahlil – turli mamlakatlarning axborot xavfsizligi yondashuvlarini solishtirish;

–Ekspert baholash – soha mutaxassislari bilan suhbat o‘tkazish va fikrlarni umumlashtirish;

–Kontent tahlil – ommaviy axborot vositalarida tarqalgan tahdidlar misollarini o‘rganish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot tahdidlarining 68% ini insoniy omil bilan bog‘liq tahdidlar (fishing, ijtimoiy muhandislik, dezinformatsiya) tashkil etadi. Sof texnik

hujumlar esa umumiy tahdidlarning 32% ini tashkil qiladi. Bu esa axborot xavfsizligida texnik vositalar bilan bir qatorda, insoniy omilga e’tibor qaratish muhimligini ko‘rsatadi [6].

O‘zbekiston misolida o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, respublika aholisining atigi 23% i fishing hujumlarini to‘g‘ri aniqlash qobiliyatiga ega. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha 45–55% ni tashkil etadi. Mazkur bo‘shliqni kamaytirish uchun maqsadli axborot savodxonligi dasturlari zarur.

Deepfake texnologiyasiga asoslangan tahdidlar keskin o‘sib bormoqda: 2024-yilda bunday tahdidlar soni 2022-yilga nisbatan 3,8 barobar ortgan. AI asosida ishlaydigan aniqlash tizimlari hozircha 78–82% aniqlik darajasini ta’minlaydi [7].

TAVSIYA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchi, axborot savodxonligini oshirish bo‘yicha milliy dasturni ishlab chiqish va umumta’lim maktablari o‘quv dasturlariga kirgazish zarur. Ikkinchi, davlat tashkilotlarida ko‘p faktorli autentifikatsiya tizimlarini joriy etish lozim. Uchinchi, media savodxonligi markazlarini tashkil etish orqali aholining dezinformatsiyaga chidamliligini oshirish maqsadga muvofiq. To‘rtinchi, kibertahdidlarga javob beruvchi milliy CERT (Computer Emergency Response Team) tuzilmasini kuchaytirish talab etiladi. Beshinchi, xususiy sektor va davlat o‘rtasida axborot xavfsizligi sohasida hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish kerak.

XULOSA

Zamonaviy axborot tahdidlari murakkab, ko‘p qirrali va doimiy o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Ularga qarshi kurashda yagona yechim mavjud emas – samarali himoya texnik, tashkiliy va ijtimoiy yondashuvlarning uyg‘unligini talab etadi. O‘zbekiston o‘z raqamlashtirish strategiyasini amalga oshirar ekan, axborot xavfsizligi infratuzilmasini mustahkamlash va aholining axborot savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lishi lozim. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi himoya tizimlari va axborot tahdidlarini bashorat qilish usullarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 464 b.

2. World Economic Forum. Global Risks Report 2024. – Geneva: WEF, 2024. – 102 p.

3. Stallings W. Network Security Essentials: Applications and Standards. 7th ed. – New York: Pearson, 2023. – 576 p.

4. Karimov B.X., Toshpo‘latov A.S. O‘zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida dezinformatsiyaning tarqalishi: muammolar va yechimlar // Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar. – 2023. – №2. – B. 45–58.

5. Cybersecurity Ventures. Cybercrime Report 2024. – San Jose: Cybersecurity Ventures, 2024. – 60 p.

6. Abdullayev R.M., Yusupov F.T. Kibertahdidlarga qarshi kurashda insoniy omilning roli // O‘zbekiston texnika universiteti axboroti. – 2022. – №4. – B. 112–120.

7. Farid H. Detecting Digital Forgeries // Communications of the ACM. – 2024. – Vol. 67, No. 3. – P. 38–47.

“TARAQQIYOT STRATEGIYASI” MARKAZI FAOLIYATI TAHLILI

Javokhir Ergashov Inomjon o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2017–2026-yillarda amalga oshirilgan strategik islohotlarni jamoatchilik muhokamasi va ekspert tahlili bilan ta’minlashdagi institutsional rolini tahlil qilingan. Bu tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish, funksional institutsional tahlil va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Markaz faoliyatiga doir ma’lumotlarni tahlil qilishda markazning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, nashr etilgan hisobotlari, “On Think Tanks” platformasi ma’lumotlari, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari va davlat dasturlaridan foydalanildi. Markazning faoliyatiga qisqacha to‘xtalsak, 2017–2026-yillar davomida 58 ta memorandum imzolagan, yiliga o‘rtacha 300 ga yaqin tadbir tashkil etgan, 60 dan ortiq qonun loyihalarini tahlil qilgan hamda 100 dan ortiq tahliliy maqolalar chop etgan Maqola tahlili aynan shularga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: “Taraqqiyot strategiyasi” markazi, strategik islohotlar, jamoatchilik muhokamasi, ekspert tahlili, aql markazi, hamkorlik, tahlil, qonunchilik hujjatlari.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiy va siyosiy tizimda bir qator o‘zgarishlar amalga oshirildi. Biroq 2016-yil oxirida hokimiyat tepasiga Shavkat Mirziyoyev kelgach, mamlakatda tub islohotlarning yangi bosqichi boshlandi. Ushbu bosqichning asosiy hujjati 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Prezident farmoni bo‘ldi [1]. Ushbu hujjatda davlat boshqaruvi, sud-huquq, iqtisodiyot, ijtimoiy soha hamda xavfsizlik va millatlararo totuvlik sohalarida islohotlarning aniq yo‘nalishlari belgilandi. Keyinchalik bu strategiya o‘rnini 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va undan keyin “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi egalladi [3]. Ushbu strategik hujjatlarning amaliyotga tatbiq etilishi nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar va keng jamoatchilik ishtirokisiz mumkin emas edi. Shu sababli, 2017-yil 14-fevralda Prezident farmoyishiga asosan “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tashkil etildi [2]. Markazning maqsadi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha ekspertlik va jamoatchilik muhokamasini samarali tashkil etish, shuningdek, davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida muloqot platformasi vazifasini bajarish deb belgilangan [2; 3]. Mazkur maqolada “Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2017–2026-yillardagi institutsional evolyutsiyasi, faoliyat yo‘nalishlari, xalqaro hamkorligi, erishgan asosiy natijalari, shuningdek, uning oldida turgan muammolar va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy muammosi – nodavlat notijorat tashkilot maqomiga ega bo‘lgan ushbu markazning davlat strategik siyosatini jamoatchilik muhokamasi bilan qay darajada samarali bog‘lay olishi va uning mustaqil ekspertlik tahlili imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan manbalar tahlili va metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda, asosan, hujjatlarni tahlil qilish, funksional institutsional tahlil va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Markaz faoliyati tarixini tahlil qilishda foydalanilgan manbalar bir necha toifadagi materiallardan tashkil topdi. Birinchi toifaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni [1] va 2017-yil 14-fevraldagi farmoyishi [2] kiritildi. Ushbu hujjatlar markazning tashkil etilishining huquqiy asosini tashkil etadi. Ikkinchi toifani “Taraqqiyot strategiyasi” markazining rasmiy veb-sayti (strategy.uz) va uning Twitter, Facebook, Instagram hamda YouTube’dagi rasmiy sahifalarida 2017–2026-yillar oralig‘ida e’lon qilingan ochiq hisobotlar, tadbirlar haqidagi ma’lumotlar va nashrlar tashkil etdi [3]. Uchinchi toifaga markaz tomonidan chop etilgan “O‘zbekiston strategiyasi” jurnali [5], “Taraqqiyot davri” risolasi va “Harakatlar Strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar” nomli risola materiallari kiritildi [4]. To‘rtinchi toifaga “On Think Tanks” xalqaro platformasida

markaz haqidagi ma’lumotlar [6], shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida imzolangan memorandumlar matnlari va ular haqidagi ochiq axborotlar kiritildi [7; 8; 9; 10].

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni tekshirishda uchburchaklanish (triangulation) usuli qo‘llanildi – ya’ni bir xil fakt rasmiy hujjat, veb-sayt va mustaqil xalqaro platforma orqali tekshirildi [3; 6]. Faoliyat natijalarini baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlar (imzolangan memorandumlar soni, o‘tkazilgan tadbirlar soni, tahlil qilingan qonun loyihalari soni) va sifat ko‘rsatkichlari (xalqaro hamkorlik darajasi, strategik hujjatlardagi o‘zgarishlar) birgalikda tahlil qilindi. Tadqiqot vaqt oralig‘i 2017-yil fevral (markaz tashkil etilgan sana) dan 2026-yil aprelgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Markazning ichki hujjatlari yoki yopiq hisobotlariga tadqiqotchi tomonidan kirish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, tahlil faqat ochiq manbalarga asoslangan. Bu tadqiqotning asosiy cheklanishi hisoblanadi.

Natijalar. “Taraqqiyot strategiyasi” markazining tashkil etilishi 2017-yil 14-fevraldagi Prezident farmoyishi bilan rasmiylashtirilgan bo‘lib, 2017-yil 23-fevralda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan [2; 3]. Markaz nodavlat notijorat tashkilot maqomida tashkil etilgan va uning yetti nafar muassisi bo‘lgan. Ular qatoriga Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston advokatlar palatasi, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi va Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyasi kiradi [3].

Markaz faoliyatining dastlabki uch yillik yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, markaz 58 ta memorandum imzolagan, ularning 18 tasi 2019-yilning o‘zida tuzilgan [4]. Xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda 600 ga yaqin seminar, matbuot anjumani va davra suhbati tashkil etilgan [4]. Yiliga o‘rtacha 300 ga yaqin konferensiya, davra suhbati va ochiq muloqot tadbirlari o‘tkazilgan [3]. Markaz 60 dan ortiq qonun loyihasini tahlil qilgan va ular yuzasidan ekspert xulosalari tayyorlagan [3]. Faqat 2019-yilning o‘zida 100 dan ortiq tahliliy va mualliflik maqolalari e’lon qilingan [4]. Ommaviy axborot vositalari orqali 100 dan ortiq lavha, teledastur va radiointervyu tayyorlangan. Markaz 170 ga yaqin davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatgan [4].

Xalqaro hamkorlikda esa markaz bir qator nufuzli aql markazlari bilan memorandum imzolagan. Xususan, Italiyaning “European House – Ambrosetti” tahliliy markazi bilan hamkorlik o‘rnatilgan. Ushbu markaz dunyoning eng yaxshi 20 aql markazi reytingidan joy olgan [3; 7]. Shuningdek, Fransiyaning Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar instituti va 46 yillik tajribaga ega bo‘lgan CAPS (Tahlil, prognozlash va strategiya markazi) bilan ham memorandumlar tuzilgan [3]. Turkiyaning Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar jamg‘armasi (SETA) bilan 2026-yilda memorandum imzolangani haqida ma’lumotlar mavjud [12]. AQSH Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan 2018-yil iyun oyida uchrashuv va qo‘shma loyihalar muhokamasi o‘tkazilgan [3]. Jahon banki bilan Jamoatchilik kengashlari faoliyatini rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha qo‘shma loyiha amalga oshirilgan [3]. Markaz ijrochi direktori 100 dan ortiq xorijiy delegatsiya va elchilarni qabul qilgan, shuningdek, Turkiya, Italiya va Fransiyadagi aql markazlariga tashriflar uyushtirgan.

Markazda nashr ishlari keng yo‘lga qo‘yilgan. “O‘zbekiston strategiyasi” jurnali har chorakda o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, unda islohotlarning tahliliy tahlili beriladi [5]. “Taraqqiyot davri” risolasi infografika ko‘rinishida islohotlarning raqamli ko‘rsatkichlarini jamlaydi [3]. 2020-yilda “Harakatlar Strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar” nomli risola nashr etilgan [4]. 2023-yilda “Harakatlar strategiyasi sarhisobi” nomli infografik to‘plam chop etilgan bo‘lib, unda 2017–2021-yillardagi islohotlar natijalari qiyosiy-tahliliy shaklda taqdim etilgan [8]. To‘plamda qo‘shilgan qiymat solig‘i 2017-yildagi 20 foizdan 2021-yil yakuniga kelib 15 foizga tushirilgani, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 27.7 foizdan 67 foizga yetkazilgani, OTMlar soni 70 tadan 154 taga ko‘paygani kabi ma’lumotlar aks ettirilgan [8]. Markaz mustaqil ravishda infografik roliklar va videomateriallar tayyorlab, ularni davlat va nodavlat telekanallarga yetkazib beradi [3]. Veb-saytning oylik tashrifi to‘g‘risida aniq statistik ma’lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas, biroq markazning “On Think

Tanks” platformasida ro‘yxatdan o‘tgani va ma’lumotlari muntazam yangilanib turishi qayd etilgan [6]. Bundan tashqari, markaz Harakatlar strategiyasi (2017–2021), Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining jamoatchilik muhokamasida faol qatnashgan. 2025–2026-yillarda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangilangan tahririni ishlab chiqish jarayonida markaz tomonidan 3,564 ta taklif va mulohazalar to‘plangan bo‘lib, ulardan 2,153 tasi asosli taklif sifatida baholanib, tegishli vazirlik va idoralar bilan ko‘rib chiqilgan. Eng ko‘p taklif (1,427 ta) “Har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha kelib tushgan.

Muhokama. “Taraqqiyot strategiyasi” markazini ilmiy jihatdan tahlil qilishda uning ikki tomonlama xususiyatiga e’tibor qaratish lozim. Bir tomondan, “markaz nodavlat notijorat tashkilot sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, bu unga ma’lum darajada mustaqillik va jamoatchilik bilan bevosita ishlash imkoniyatini beradi [2; 3]. Ikkinchi tomondan, markazning asosiy vazifasi aynan Prezident farmoni bilan tasdiqlanadigan davlat dasturlari hamda starategiyalarining hayotga tatbiq etilishi, ularni amalga oshirish ijrosini kuzatish va nazorat qilish hisoblanadi” – deydi markaz bo‘lim boshlig‘I To‘lqin Tursunov. Bu holat markazni an’anaviy “think tank” (aql markazi) tushunchasidan farq qiladi. Agar xalqaro tajribada aql markazlari odatda mustaqil siyosiy tahlil, tanqid va muqobil strategiyalar ishlab chiqish vazifasini bajaradigan bo‘lsa, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi asosan davlat tomonidan belgilangan strategik yo‘nalishlarni jamoatchilikka yetkazish va ularni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Bu markazni ko‘proq “hukumat aloqalari va jamoatchilik ishtiroki markazi” sifatida tavsiflashga imkon beradi[6]. Shu bilan birga, markazning faoliyatida haqiqiy ekspertlik tahlil elementlari ham mavjud. 60 dan ortiq qonun loyihalarining tahlili, 100 dan ortiq tahliliy maqolalarning e’lon qilinishi va xalqaro aql markazlari bilan hamkorlik qilish markazning ma’lum darajada analitik salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[3]. Biroq bu tahlillarning qanchasi davlat siyosatiga tanqidiy yondashgani, qanchasi taklif sifatida qabul qilingani ochiq manbalarda to‘liq aks etmagan. Markazning jamoatchilik nazorati bo‘yicha saylovlardagi ishtiroki esa uning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi rolini kuchaytiradi. Xususan, 2026-yilda Senatning Xalqaro munosabatlar qo‘mitasi bilan imzolangan memorandum parlament nazoratini kuchaytirish va qonunchilik sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu markazning davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rnini mustahkamlaydi [9].

Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan qarasak, Qozog‘istondagi Strategik tadqiqotlar instituti (KazISS) asosan ilmiy-tadqiqot tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi va uning hisobotlari ko‘pincha akademik jurnallarda chop etiladi. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi esa ularga nisbatan ko‘proq ommaviy tadbirlar, media mahsulotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi bilan ajralib turadi. Markaz yiliga 300 ga yaqin tadbir o‘tkazishi – bu Markaziy Osiyo miqyosida juda yuqori ko‘rsatkichdir [3]. Ammo bu tadbirlarning chuqurligi, davomiyligi va real ta’siri to‘g‘risida mustaqil baholashlar mavjud emas.

Markazning kuchli tomonlari sifatida uning strategik hujjatlar bilan uzviy bog‘liqligi, xalqaro miqyosda tan olingan aql markazlari bilan hamkorlik qila olishi, uch tilda ish yuritishi va keng jamoatchilik qamrovini ta’minlay olishini qayd etish mumkin. Shuningdek, markazning “On Think Tanks” kabi xalqaro platformalarda ro‘yxatdan o‘tganligi uning xalqaro standartlarga mos kelishga intilayotganini ko‘rsatadi [6].

Xulosa. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi 2017–2026-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasidagi strategik islohotlarning jamoatchilik muhokamasi, ekspert tahlili va axborot qo‘llab-quvvatlovchi asosiy institutlaridan biriga aylandi. Markaz Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining amaliyotga tatbiq etilishida davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarib kelmoqda [1; 3]. Uning faoliyatidagi asosiy natijalar qatoriga 58 ta xalqaro va mahalliy memorandumlar, 600 ga yaqin qo‘shma tadbirlar, yiliga o‘rtacha 300 ta konferensiya va davra suhbatlari, 60 dan ortiq tahlil qilingan qonun loyihalari, 100 dan ortiq tahliliy maqolalar kiradi [3; 4]. Markazning xalqaro hamkorlikdagi yutuqlari – ayniqsa, “European House – Ambrosetti”, CAPS va SETA kabi nufuzli aql markazlari bilan memorandumlar imzolanishi – uning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Taraqqiyot strategiyasi” markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2017-yil 14-fevral.
3. “Taraqqiyot strategiyasi” markazining rasmiy veb-sayti – https://www.strategy.uz (oxirgi kirish 2026-yil 14-aprel).
4. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi. “Harakatlar Strategiyasi bilan 3 yil: kutilgan natijalar, yuqori samaradorlik va yuksak marralar”. Toshkent, 2020.
5. “O‘zbekiston strategiyasi” jurnali, 2019–2026 yillar nashrlari. strategy.uz saytidagi arxiv.
6. On Think Tanks platformasidagi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi profili – https://onthinktanks.org/think-tank/taraqqiyot-strategiyasi-markazi.
7. European House – Ambrosetti rasmiy veb-sayti – https://www.ambrosetti.eu
8. “Harakatlar strategiyasi sarhisobi” nomli infografik to‘plam – Xalq so‘zi nashri, 2023-yil 27-yanvar.
9. Senate and “Development Strategy” Center Sign Memorandum of Cooperation – Bright Uzbekistan, 2026-yil 26-mart.
10. Institute of Regional Studies and Development Strategy Center Memorandum of Understanding – LinkedIn post, 2025-yil 20-dekabr.
11. Development Strategy Center LinkedIn sahifasi – https://uz.linkedin.com/company/development-strategy-center

YOSHLAR TARBIYASIDA MUSIQA SAN’ATINING MA’NAVIY-ESTETIK AHAMIYATI

Babamuradov Eshmamat Komilovich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida musiqa san’atining o‘rni hamda uning ma’naviy-estetik kamolotga ta’siri tahlil qilinadi. Musiqa ta’limining ijodiy fikrlashni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni singdirish va barkamol shaxsni shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa san’ati, yoshlar tarbiyasi, estetik tarbiya, ma’naviy kamolot, musiqa ta’limi, milliy qadriyatlar.

Mamlakatimizda musiqiy san’atni rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda. Bu jarayonda bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari hamda oliy ta’lim tashkilotlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi [1]. Zero, musiqa faqat estetik zavq beradigan san’at turi emas, balki insonning ichki dunyosiga ta’sir qiladigan, uning hissiy olamini boyitadigan, tafakkurini teranlashtiradigan va ma’naviy qiyofasini shakllantiradigan kuchli tarbiyaviy vositadir [2]. Shu bois musiqiy ta’limni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, uning metodik bazasini mustahkamlash va mazmunini bugungi davr ehtiyojlariga mos ravishda boyitish ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan dolzarb vazifa hisoblanadi. Bugungi sharoitda musiqiy ta’limga faqat tor doiradagi kasbiy tayyorgarlik sifatida qarash yetarli emas. Uni shaxsning umumiy kamoloti, madaniy saviyasi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyati bilan bog‘liq holda tushunish zarur. Chunki musiqa bilan muntazam shug‘ullanish yoshlarning diqqatini jamlash, eshitish xotirasini mustahkamlash, obrazli va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [3]. Xalqaro tadqiqotlarda ham san’at va madaniyat ta’limi o‘quvchilarda nafaqat akademik natijalarni, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ham

rivojlantirishi qayd etiladi [4]. Bu esa musiqa ta’limining tarbiyaviy ahamiyati faqat sahna yoki ijro bilan cheklanmasligini, balki shaxsning barkamol rivojida bevosita ishtirok etishini ko‘rsatadi.

Globalizatsiya sharoitida milliy musiqiy merosni asrash va uni zamonaviy pedagogik tajribalar bilan uyg‘unlashtirish masalasi yanada muhimlashdi. Ayniqsa, xalq cholg‘ulari, an’anaviy xonandalik, milliy ijro uslublari va ustoz-shogird an’analarini ta’lim jarayoniga puxta kiritish yosh avlodni milliy o‘zlikka yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, jahon musiqa ta’limi tajribasidagi ilg‘or yondashuvlarni o‘zlashtirish, raqamli resurslardan foydalanish, interaktiv metodlarni qo‘llash, tinglash va tahlil madaniyatini shakllantirish ham zarur. Mazkur ikki yo‘nalish bir-biriga zid emas [5]. Aksincha, milliy musiqiy qadriyatlarni zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshiradi, o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi va musiqiy tafakkurini kengaytiradi.

Musiqa ta’limining samaradorligi ko‘p jihatdan uning qanday tashkil etilishiga bog‘liq. An’anaviy dars modeli ayrim hollarda o‘quvchini tinglovchi holatida qoldirib qo‘yadi. Hozirgi bosqichda esa o‘quvchining faol ishtiroki, mustaqil mushohadaga kirishi, ijodiy topshiriqlar bajarishi, eshitgan asarini tahlil qilishi va baholashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, musiqiy ta’limda faqat nazariy bilim berish emas, balki tinglash, ijro, qiyosiy tahlil, improvizatsiya, jamoaviy ijod va sahnaviy tajribani bir butun jarayon sifatida yo‘lga qo‘yish lozim [6]. Bunday integrallashgan yondashuv o‘quvchida musiqani “tayyor mahsulot” sifatida qabul qilish emas, balki uni anglash, his etish va ichki ehtiyoj darajasida qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yoshlar tarbiyasida vatanga muhabbat, milliy g‘urur va madaniy merosga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda musiqa alohida o‘rin tutadi. Chunki musiqada xalqning tarixi, ruhiyati, estetik qarashlari va hayotiy tajribasi mujassam bo‘ladi. Milliy kuy-qo‘shiqlar, maqom namunalari, xalq bastakorlarining asarlari hamda zamonaviy kompozitsiyalar bilan tanishish o‘quvchining milliy madaniyatga bo‘lgan munosabatini mustahkamlaydi [5]. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi mutaxassis emas, balki musiqiy merosni yetkazuvchi, estetik didni tarbiyalovchi va ma’naviy qadriyatlarni singdiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun musiqiy ta’lim samaradorligini oshirish o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik saviyasi va ijodiy yondashuvi bilan chambarchas bog‘liq.

Ayni paytda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar musiqiy ta’lim mazmuniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sifatini baholash, pedagoglarning malakasini oshirish, amaliyot va nazariya uyg‘unligini kuchaytirish, maktabdan tashqari ta’limni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar musiqa ta’limini tashkil etishda ham yangicha yondashuvni talab qilmoqda [7]. Bu hujjatlarda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, pedagogning amaliy kompetensiyasini mustahkamlash, ta’lim xizmatlari sifatini nazorat qilish va mazmunni zamon talabiga moslashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Demak, bugungi musiqa ta’limi faqat repertuar o‘rgatish yoki asar ijro ettirish bilan kifoyalanmaydi; u natijadorlikka, kompetensiyaga va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Musiqa san’ati shaxsning hissiy-intellektual rivojlanishida ham muhim omildir. Musiqiy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchi sezgirlik, hamdardlik, sabr, intizom, tinglay olish, boshqani his qilish kabi ijtimoiy va shaxsiy sifatlarni o‘zida shakllantiradi. Ayniqsa, xor, ansambl yoki orkestr tarkibida ishlash jarayonida jamoaviy mas’uliyat, o‘zaro hurmat va hamjihatlik ruhiyati mustahkamlanadi. Bunday fazilatlar jamiyat uchun ham zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalardir. Shu jihatdan qaraganda, musiqa ta’limi faqat san’at sohasiga xizmat qilmaydi; u ijtimoiy barqarorlik, madaniy davomiylik va insoniy munosabatlar sifatini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash masalasi ham alohida e’tiborga loyiq. Raqamli platformalar, audio va video tahlil vositalari, virtual repertuar kutubxonalari, notani eshitib o‘rganish dasturlari va multimediya resurslari o‘quvchilarni darsga faolroq jalb etadi. Biroq texnologiya maqsad emas, vosita ekanini unutmaslik kerak. Agar u metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llansa, ta’lim jarayonini jonlantiradi, individual yondashuvni kuchaytiradi va o‘quvchining mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi [6]. Aks holda, u faqat tashqi bezak darajasida qolib ketadi. Shuning uchun musiqiy ta’limda texnologik imkoniyatlardan foydalanish pedagogik maqsad, mazmun va natija bilan uzviy bog‘langan holda olib borilishi lozim.

Sharq mutafakkirlari va ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari ham musiqaning inson kamolotidagi o‘rnini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning merosida go‘zallik, nafosat, ruhiy poklanish va ma’naviy yetuklik bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi [1]. Shu ma’noda, musiqa yoshlarning estetik didini shakllantirish, ularni ezgulikka moyil qilish, ma’naviy hissiyotlarini tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib qoladi. Ayniqsa, Abdulla Avloni ta’kidlaganidek, tarbiya masalasi millat hayoti bilan chambarchas bog‘liq. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki ta’lim jarayonida berilayotgan har bir estetik ta’sir, aslida, kelajak shaxsining ichki dunyosini qurishga xizmat qiladi. Musiqiy ta’limning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quvchini ijodkorlikka undaydi. Musiqani tinglash, kuylash yoki cholg‘uda ijro etish jarayonida shaxs o‘z ichki kechinmalarini ifoda etishga harakat qiladi. Bu esa o‘z-o‘zini anglash, ruhiy muvozanatni saqlash va ichki imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim sharoitida aynan ana shu jihat – ya’ni shaxsning ichki resurslarini faollashtirish, uning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rag‘batlantirish – ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Shunday ekan, musiqa ta’limi yoshlarni tayyor qolipga solish emas, balki ulardagi noyob qobiliyatlarni ochish va rivojlantirish maydoni bo‘lishi zarur.

Umuman olganda, musiqa san’ati yoshlar tarbiyasida estetik, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishni birlashtiradigan ta’sirchan pedagogik vositadir. Uni ta’lim jarayoniga ilmiy asosda, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda joriy etish orqali yosh avlodning nafaqat musiqiy savodxonligini, balki tafakkur teranligini, hissiy madaniyatini, madaniy xotirasini va insoniy fazilatlarini ham rivojlantirish mumkin. Shu sababli musiqiy ta’limni takomillashtirish, uning metodik asoslarini boyitish, milliy va xalqaro tajribani uyg‘unlashtirish hamda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalishda izchil ish olib borish jamiyatning madaniy taraqqiyotiga, yoshlarning barkamol shakllanishiga va milliy qadriyatlarning davomiyligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G. Sharipova «Musiqa metodikasi». T.: «O‘zbekiston faylasuflar» nashriyoti,2012.
2. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
3. Baxtiyarova, F. "MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS." Ilm-Fan Va ta’lim 1.1 (2023).
4. Рахмонов А. Р. Инновацион таълим кластери ўқув фаолиятига самарали усул сифатида.« //Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар» халқаро илмий-амалий анжуман. – 2019. – Т. 2. – С. 46.
5. Sattarov A. Romantik kompozitorlar ijodini o‘rganish jarayonida umumta’lim maktablari o‘quvchilarida sun’iy tafakkurni shakllantirish //Fan va ta’lim. – 2021. – T. 2. – No 12. – 471-475-betlar.
6. Nurillo R. GLOBALLASHUV DAVRIDA MUSIQA SAN’ATI MIGRATSIYASI JARAYONLARINING MADANIYATLAR O ‘ZGARISHIDAGI TA’SIRI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 92-94.
7. Nuraliyeva, Z. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK TARBIYASIDA MUSIQANING O‘RNI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(1), 67–69. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/42981.

MUHAMMAD YUSUF POETIKASIDA XALQ MAQOL VA MATALLARI, AFORIZMLARNING QO‘LLANISHI

Kushbakova Dilnoza Avalboyevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti I bosqich tayanch-doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Muhammad Yusuf poetikasida xalq maqol va matallari hamda aforizmlarning qo‘llanish xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Shoir she’riyatida xalqona iboralar, hikmatli so‘zlar va barqaror birliklarning semantik hamda pragmatik vazifalari yoritiladi. Shuningdek, maqolada paremiologiya va frazeologiya sohasida tadqiqot olib borgan tilshunos olimlarning nazariy qarashlari asosida Muhammad Yusuf ijodining xalqchil poetikasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: poetika, maqol, matal, aforizm, paremiologiya, xalqona uslub, lingvopoetika, badiiy til, frazeologizm.

O‘zbek she’riyati taraqqiyotida Muhammad Yusuf ijodi alohida o‘rin egallaydi. Shoir she’rlarining xalq orasida tez ommalashishiga sabab bo‘lgan muhim omillardan biri uning xalqona til vositalaridan mahorat bilan foydalanganidadir. Ayniqsa, xalq maqollari, matallari va aforizmlarning poetik matnda tabiiy qo‘llanishi shoir uslubining o‘ziga xos jihatini tashkil etadi.

Tilshunoslikda maqol va matallar paremiologiyaning asosiy tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilshunosi Shavkat Rahmatullayev frazeologik birliklar xalq tafakkuri va milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim til hodisasi ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, “xalq iboralari badiiy matnning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi”[1]. Shu jihatdan qaralganda, Muhammad Yusuf she’riyatida maqol va matallarning faol qo‘llanishi xalq ruhiyatini ifodalashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Muhammad Yusuf ijodida xalq tili unsurlari, oddiy va samimiy ifodalar ustuvorlik qiladi. Shoir murakkab poetik konstruksiyalardan ko‘ra sodda, ammo chuqur ma’noli iboralarni tanlaydi. Bu esa she’rlarning keng kitobxonlar ommasiga tez yetib borishini ta’minlaydi. Masalan, shoirning quyidagi misralarida xalqona ruh yaqqol seziladi:

Toshni suv kemirar, Suvni qaro yer,
Yerni kalamushlar kemirganin ko‘r
Dashtda jayronlarni qiyratadi sher,
O‘zbekni qiyratar mahalliychilik. (“Mahalliychilik”)

Maqollarda “Toshni suv kemirar, Suvni qaro yer**“ jumlasiga mazmunan o‘xshash bo‘lgan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, “Tomchi tomib tosh teshar.”**

Mazkur misralar xalq maqollarining poetik transformatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Aslida **“**Toshni suv kemirar, Suvni qaro yer**“** maqoli xalq orasida keng qo‘llanadi. Shoir ushbu maqolni she’riy kontekstga moslashtirib, insonning jamiyatdagi ma’naviy izini ta’kidlashga xizmat qildiradi.

Shoir poetikasida maqollar bir necha vazifani bajaradi:

1. Tarbiyaviy-estetik vazifa. Maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasini ifodalaydi. Muhammad Yusuf she’rlarida ular axloqiy g‘oyalarni ilgari suradi.

2. Emotsional-ekspressiv vazifa. Maqollar she’rning ta’sirchanligini oshiradi. Xalq tiliga yaqin iboralar o‘quvchi qalbiga tez yetib boradi. Masalan:

Abrorlaring sahnalarni titratgan,
Shukur Burxon tosh dilni ham yig‘latgan.
Bir qo‘lida yurtni, bitta qo‘lida
Qodiriyning beshigini tebratgan.
Qayga borsam quchog‘iga shoshganim,
Mehribonim mening -shahri Toshkanim.

[1] Рахматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. – Тошкент: Фан, 1955. – Б. 26.

Mazkur maqol she’riy matnda insonlar xarakterining turlicha ekanligini qisqa va lo‘nda ifodalashga xizmat qiladi.

3. Milliy kolorit yaratish. Shoirning xalq maqollaridan foydalanishi milliy ruhni kuchaytiradi. She’r matnida o‘zbekona tafakkur va mentalitet aks etadi. Muhammad Yusuf ijodida aynan shu model poetik estetikani shakllantiradi. “Odatda, maqolni dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanoq ravshan ifodalab berish qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, ayrim, yagona bir holga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga qarab, asta-sekin keng umumlashma ma’noga ega bo‘la boradi”[1].

Matallar maqollarga qaraganda ko‘proq obrazlilik va kinoyaviy ma’no bilan ajralib turadi. Muhammad Yusuf she’riyatida matallar xalqona yumor va samimiyatni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi:

Yoki bo‘lmasa shoirning “Bosmachilar”she’rini olaylik…

Kengashsangiz tor dunyolar keng bo‘lardi,
Ergash yoqa bo‘lsa, Shermat yeng bo‘lardi.
Birlashsangiz kim ham sizga teng bo‘lardi,
Nechun ahil bo‘lmadingiz “bosmachilar”? (“Bosmachilar”)

“Kengashganga keng dunyo” — bu maqol.

Ma’nosi: Maslahat bilan ish qilgan odamning yo‘li ochiq bo‘ladi. Boshqalar bilan fikrlashib ish tutgan inson g‘olib bo‘ladi.

Shahri non deydilar, shahri quyoshsan.
Yaxshi niyat har ko‘ngilga yo‘ldoshsan
Dunyolarni chorlab chaman bag‘riga,
Ozod elning orzusiga sirdoshsan
Qayda yursam quchog‘iga shoshganim,
Qadrdonim mening -shahri Toshkanim.

Toshkent-non shahri , deya azaldan ulug‘lanishida ham hikmat ko‘p.Toshkent shahrining qadimdan noni bilan mashhurligi, mo‘l-ko‘lligi va mehmondo‘stligini ifodalash uchun xalq orasida bu aforizm keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Xalq bo‘l elim” Muhammad Yusuf “O‘zbekiston”nashriyoti 2019
2. “Biz baxtli bo‘lamiz” Muhammad Yusuf “O‘zbekiston”nashriyoti 2019.
3. "O‘zbek xalq maqollari" X.Suvonqulova "Adabiyot uchqunlari", Toshkent. 2014
4. Jurayeva Bibish MuSinovna. Uzbek Xalq Maqollari Shakllanishining Lingvistik Asoslari Va Pragmatik Xususiyatlari. Avtoreferati. Samarkand -2019

[1] Карриев Б.М. Туркменские пословицы и поговорки. – Ашхабад: Наука, 1961. – С. 16.

MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI MA’NAVIY YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY VA FALSAFIY KONSEPSIYALARI

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahallani rivojlantirish va jamiyatni ma’naviy yuksaltirishning ijtimoiy hamda falsafiy asoslari O‘zbekiston misolida tahlil qilinadi. Xususan, Strategiya–2030 doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat boshqaruvi tizimida mahalla institutining o‘rni va Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan yangilanishlar ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Maqolada mahalla institutining tarixiy ildizlari, uning fuqarolik jamiyati shakllanishidagi ahamiyati hamda ma’naviy yuksalish jarayonidagi roli ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mahalla instituti O‘zbekiston jamiyatining ijtimoiy barqarorligi va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kalit so‘zlar: mahalla, fuqarolik jamiyati, ma’naviyat, ijtimoiy taraqqiyot, Strategiya-2030, islohotlar, Yangi O‘zbekiston.

Globallashuv sharoitida jamiyatni barqaror rivojlantirish va ma’naviy yuksaltirish masalasi har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.[1] O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi davrda mahalla institutini mustahkamlash, uning ijtimoiy boshqaruvdagi rolini kuchaytirish hamda jamiyatning ma’naviy asoslarini yangilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.[2]

“Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot modelida inson qadri, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.[3] Bu jarayonda mahalla nafaqat hududiy birlik, balki ijtimoiy institut sifatida ham jamiyat taraqqiyotining tayanchiga aylandi.[4] Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi mahalla institutini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi.[5]

Mahalla Sharq jamiyatlarida qadimdan shakllangan o‘zini o‘zi boshqarish tizimi bo‘lib, u ijtimoiy birdamlik, o‘zaro yordam va ma’naviy qadriyatlarni saqlash vazifasini bajargan.[6] Falsafiy jihatdan mahalla — bu jamoaviylik va individuallik uyg‘unlashgan ijtimoiy makondir. Aristotelning “inson — ijtimoiy mavjudot” degan qarashi mahalla institutining mohiyatini anglashda muhim nazariy asos bo‘la oladi.[7]

O‘zbek jamiyatida mahalla:

- ijtimoiy nazorat mexanizmi,
- ma’naviy tarbiya maskani,
- ijtimoiy himoya vositasi,
- fuqarolik jamiyati instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyat — jamiyatning ichki axloqiy, madaniy va ruhiy poydevoridir.[8] Jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy o‘sish bilan emas, balki ma’naviy yetuklik bilan ham belgilanadi. O‘zbekiston taraqqiyot modelida ma’naviyat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat shaxsning erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan. Bu esa ijtimoiy adolat va ma’naviy yuksalishning falsafiy asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Unda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahalla tizimini professional boshqaruvga o‘tkazish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, yoshlar va ayollarni qo‘llab-quvvatlash hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimlashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mahalla institutining vakolatlari kengaytirildi.

Xususan:

- Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi;

❖ “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi ijtimoiy reyestr tizimi joriy etildi;

❖ Mahallalarda hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu islohotlar mahallani davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prikka aylantirdi. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, ushbu model subsidiarlik tamoyiliga asoslanadi.

Mahalla fuqarolik jamiyatining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati nazariyasiga ko‘ra, davlat va shaxs o‘rtasidagi muvozanat jamoat institutlari orqali ta’minlanadi.

O‘zbekistonda mahalla:

- jamoatchilik nazorati mexanizmi,
- ijtimoiy birdamlik markazi,
- ma’naviy tarbiya o‘chog‘i sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Strategiya–2030 doirasida mahallani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

1. Raqamlashtirish – mahalla boshqaruvini elektron platformalar asosida tashkil etish;
2. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish – aholi bandligini ta’minlash;
3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish – yoshlar tarbiyasini mustahkamlash;
4. Fuqarolik faolligini oshirish – jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

Mahalla O‘zbekiston jamiyatining tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy tayanchidir. Strategiya–2030 va Mirziyoyev islohotlari natijasida mahalla yangi bosqichga ko‘tarilib, fuqarolik jamiyati institutiga aylanish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yildi. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni ma’naviy yuksaltirish o‘zaro uzviy bog‘liq jarayondir. Mahalla institutining mustahkamlanishi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti va ma’naviy yangilanishining muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yilgi tahrir.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *2023–2030-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida*. Toshkent, 2023.
3. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Forobiy, A. *Fozil odamlar shahri*. Oxford: Oxford University Press, 1993.
5. Aristotel. *Siyosat* (B. Jowett, Trans.). Dover Publications, 2004.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (2021–2023).
7. Strategiya–2030 hujjatlari va tahliliy materiallar.
8. Yuqoridagi manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil.

RANGLARNING INSON PSIXOLOGIYASI VA KASBIY FAOLIYATIGA TA’SIRI

Jo‘raboyeva Marjona Odiljon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri, ularning hissiy holatni shakllantirishdagi o‘rni hamda kasbiy faoliyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, turli ranglarning inson ongida uyg‘otadigan psixologik reaksiyalari va ularni ish muhitida to‘g‘ri qo‘llash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: rang, psixologiya, kayfiyat, kasbiy faoliyat, ish muhiti, dizayn, idrok.

Ranglar inson hayotida muhim psixologik, estetik va amaliy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Inson atrof-muhitni idrok etar ekan, shakl, hajm, harakat, tovush bilan birga ranglarni ham sezadi va ular orqali voqelik haqida muayyan tasavvur hosil qiladi. Rang oddiy tashqi belgi

emas, u ko‘pincha insonning kayfiyati, hissiy kechinmasi, xotirasi va hatto xulq-atvoriga ham ta’sir ko‘rsatadi. Kundalik hayotda odamlar ayrim ranglarni xotirjamlik, ayrimlarini quvonch, yana boshqalarini esa jiddiylik yoki xavotir bilan bog‘laydi [1]. Shu bois ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri masalasi faqat tasviriy san’at yoki dizayn sohasi bilan chegaralanmaydi. Bu masala psixologiya, pedagogika, ijtimoiy muhitni tashkil etish, reklama, mehnat faoliyati va ta’lim jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, ranglar inson ongida turlicha assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bu assotsiatsiyalar insonning shaxsiy tajribasi, milliy-madaniy muhiti, yoshi, kasbi va ruhiy holatiga qarab farqlanishi mumkin. Masalan, bir inson uchun yashil rang tabiat, osoyishtalik va yangilanishni anglatsa, boshqa bir inson uni oddiy ish muhiti yoki maktab doskasi bilan bog‘lashi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, umumiy psixologik kuzatishlarda ayrim ranglarning inson ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’siri nisbatan barqaror tarzda izohlanadi. Bu holat ranglarning estetik tarbiya, o‘quv jarayoni va kasbiy faoliyatdagi o‘rnini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [2]. Qizil rang, odatda, faollik, kuch, energiya va ehtiros bilan bog‘lanadi. Bu rang inson diqqatini tez tortadi, unda harakatga kelish, tezroq qaror qabul qilish kabi holatlarni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli qizil rang ogohlantirish belgilarida, reklama lavhalarida, sport ramzlarida va ayrim dizayn yechimlarida ko‘p uchraydi [4]. Ammo qizil rangdan haddan tashqari ko‘p foydalanish insonda bezovtalik, asabiylik yoki charchoqni ham keltirib chiqarishi mumkin. Demak, har qanday rang kabi qizil rang ham o‘z o‘rnida va me’yorida qo‘llangandagina ijobiy ta’sir beradi.

Ko‘k rang esa ko‘proq sokinlik, ishonch, barqarorlik va ichki muvozanat bilan bog‘lanadi. Ish xonalari, o‘quv maskanlari yoki dam olish joylarida ko‘k rangdan me’yorida foydalanish inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir qilishi mumkin. Ko‘k rang kuchli emotsional qo‘zg‘alishni pasaytiradi, diqqatni bir joyga jamlashga yordam beradi. Shu sababli ayrim tashkilotlar o‘z logotiplari yoki interyerlarida ko‘k rangdan foydalanishga harakat qiladi. Biroq haddan ortiq sovuq ko‘k tuslar ayrim kishilarda begonalik yoki sovuqlik hissini ham uyg‘otishi mumkin. Bu esa rang tanlashda faqat umumiy qoidaga emas, balki muhitning vazifasiga ham e’tibor berish kerakligini bildiradi [5]. Yashil rang tabiat, hayot, yangilanish, osoyishtalik va muvozanat ramzi sifatida talqin qilinadi. Ko‘z uchun qulay ranglardan biri sifatida u ta’lim muassasalari, kutubxonalar, dam olish xonalari va davolash muhitida muhim ahamiyatga ega. Yashil rang insonda charchoqni kamaytirish, diqqatni nisbatan barqaror saqlash va sokin fikrlashga yordam berishi mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilarning uzoq vaqt davomida dars mashg‘ulotlarida ishtirok etishi, yozishi, o‘qishi va ijodiy ish bajarishi jarayonida rang muhitining to‘g‘ri tanlanishi bevosita ahamiyat kasb etadi [3]. Sariq rang ko‘pincha quvonch, iliqlik, faollik va ijodkorlik bilan bog‘lanadi. Bu rang insonda ijobiy kayfiyat uyg‘otishi, muloqotga moyillikni oshirishi va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalari, boshlang‘ich sinf xonalari, bolalar ijodiy markazlari va reklama dizaynida sariq rangdan keng foydalaniladi. Lekin juda yorqin sariq rangning ko‘p ishlatilishi ko‘zni charchatadi yoki ortiqcha qo‘zg‘aluvchanlikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun sariq rang boshqa sokin ranglar bilan uyg‘unlashtirilganda ko‘proq ijobiy natija beradi. Qora va oq ranglar ham inson psixologiyasida alohida o‘ringa ega. Qora rang jiddiylik, kuch, qat’iyat va ba’zan sirli kayfiyatni ifodalashi mumkin. Rasmiy kiyimlarda, sahna bezaklarida yoki dizayn ishlarida qora rang ko‘pincha tartib va qat’iylikni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Oq rang esa poklik, tozalik, soddalik va yangilanish ramzi sifatida qabul qilinadi [1]. Tibbiyot muassasalarida oq rangning ko‘p qo‘llanishi ham bejiz emas, chunki u bemorda tozalik va ishonch hissini paydo qiladi. Shu bilan birga, oq rang haddan tashqari ko‘p ishlatilsa, muhit sovuq yoki rasmiy ko‘rinib qolishi ham mumkin.

Kasbiy faoliyatda ranglarning o‘rni yanada aniqroq seziladi. Ish joyida tanlangan ranglar xodimlarning kayfiyati, ishga munosabati, charchoq darajasi va mehnat unumdorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ofis xonalarida haddan ziyod yorqin, keskin ranglardan foydalanish xodimlarda tez charchash, diqqatning bo‘linishi yoki asabiylikni keltirib chiqarishi mumkin. Aksincha, ko‘k, yashil, och kulrang yoki yumshoq bej tuslar ish muhitini nisbatan xotirjam qiladi [2]. Bunday ranglar, ayniqsa, aqliy mehnat, hujjatlar bilan ishlash, tahliliy faoliyat yoki uzoq vaqt kompyuter qarshisida o‘tirishni talab qiladigan kasblarda foydali hisoblanadi.

Reklama va marketing sohalarida ranglar inson qaroriga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli vosita sifatida ishlatiladi. Qizil va sariq ranglar e’tiborni tez jalb qilgani uchun savdo belgilarida, chegirma e’lonlarida, oziq-ovqat mahsulotlari reklamalarida ko‘p uchraydi. Ko‘k rang ishonch va barqarorlikni bildirgani uchun bank, texnologiya yoki xizmat ko‘rsatish sohalari logotiplarida keng qo‘llanadi. Yashil rang ekologiya, tabiiylik, sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik bilan bog‘liq mahsulotlarda ko‘p ishlatiladi [5]. Bu holat rang tanlashning tasodifiy emas, balki psixologik va kommunikativ maqsadga asoslangan jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Ta’lim muassasalarida ham ranglarning o‘rni katta. Sinf xonasi, ko‘rgazmali qurollar, darsliklar, plakatlar va taqdimotlarda ranglardan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Rangli materiallar bolalarda eslab qolish jarayonini yengillashtiradi, diqqatni kerakli joyga yo‘naltiradi va murakkab ma’lumotlarni tushunarliroq qiladi. Biroq dars jarayonida ranglardan haddan tashqari ko‘p foydalanish ham yaxshi natija bermaydi [3]. Bunday holatda o‘quvchi asosiy mazmunga emas, tashqi bezakka ko‘proq e’tibor qaratib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun pedagog rangni didaktik maqsadga muvofiq tanlashi zarur.

Tasviriy san’at ta’limida ranglar nafaqat estetik vosita, balki o‘quvchining badiiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi omil sifatida ham qaraladi. Ranglar orqali o‘quvchi predmetning tashqi ko‘rinishini emas, balki undagi kayfiyat, harakat, mazmun va obrazni ifodalashni o‘rganadi. Masalan, iliq ranglar orqali quvonch, harakat, quyoshli muhit ifodalansa, sovuq ranglar orqali sokinlik, masofa, kechki manzara yoki g‘amgin kayfiyat berilishi mumkin. Kompozitsiya yaratish jarayonida ranglar uyg‘unligi, kontrast, ritm va muvozanat o‘quvchining estetik didini shakllantiradi [9]. Kandinskiy ham badiiy ijodda nuqta, chiziq va rangning ifodaviy kuchiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, bu qarash tasviriy san’atda rangning ruhiy ta’sirini tushunishda muhim nazariy asoslardan biri bo‘lib xizmat qiladi [6]. Rang tanlash jarayoni ko‘plab omillarga bog‘liq. Bunda ish turi, faoliyat olib borilayotgan joy, insonlarning yoshi, ruhiy holati, kasbiy vazifalari va madaniy qarashlari hisobga olinishi kerak. Masalan, bolalar xonasi uchun tanlanadigan rang bilan rasmiy majlislar zali uchun tanlanadigan rang bir xil bo‘lishi maqsadga muvofiq emas. Xuddi shuningdek, shifoxona, maktab, ofis, sport zali yoki ijodiy ustaxona uchun ham rang tanlashda bir xil yondashuvdan foydalanib bo‘lmaydi. Har bir muhit o‘z vazifasiga ega va rang shu vazifaga xizmat qilishi lozim.

Kundalik hayotda ham ranglar insonning o‘zini tutishi, atrofdagilar bilan munosabati va ichki kayfiyatini ifodalashda ishtirok etadi. Kiyim tanlashda odamlar ko‘pincha o‘z kayfiyati yoki ijtimoiy vaziyatiga mos rangni tanlaydi. Yorqin ranglar ochiqlik, faollik va muloqotga tayyorlikni bildirsa, sokin ranglar jiddiylik, vazminlik va xotirjamlikni ifodalashi mumkin. Uy interyerida ham ranglarning to‘g‘ri tanlanishi oila a’zolarining ruhiy holatiga ta’sir qiladi. Yotoqxona uchun yumshoq, sokin ranglar dam olish sifatini yaxshilasa, mehmonxona yoki umumiy xona uchun iliq ranglar samimiy va ochiq muhit yaratadi. Oshxona, bolalar xonasi yoki ish xonasida esa ranglar alohida vazifaga qarab tanlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ranglar inson psixologiyasi, kundalik turmushi va kasbiy faoliyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan muhim omil hisoblanadi. Ular orqali insonning hissiy holatini boshqarish, ish va o‘qish jarayonini qulaylashtirish, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish hamda estetik muhit yaratish mumkin. Shu bilan birga, ranglardan foydalanishda faqat did yoki tashqi bezakka tayanish yetarli emas. Rang tanlash jarayonida psixologik, pedagogik, estetik va amaliy jihatlar hisobga olinishi zarur. Ana shundagina rang inson hayotida oddiy bezak emas, balki ruhiy muvozanat, faoliyat samaradorligi va estetik tarbiyani ta’minlovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva M., Xudoyberdiyev N. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Rasulov R.X. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
3. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim psixologiyasi. Toshkent: Sharq, 2017.
“Tabiat va jamiyat o‘zaro uzviy bog‘langan, bir butun materiyaning ikki qismi, o‘ziga xos sotsioekosistema hisoblanadi”[1]. Sotsioekosistema so‘zi ikki so‘zning birikuvidan (sotsio+ekosistema) hosil bo‘lgan bo‘lib, “Sotsium” – jamiyat, “ekosistema” – tabiat ya’ni jamiyat va uni qurshab turgan tabiiy borliqni bir butun, uzviy bog‘langan yaxlit va ajralmas tizim sifatida talqin etilishi. Jamiyat a’zosi bo‘lmish inson ayni bir vaqtda ham tabiat ham jamiyatning ajralmas bo‘lagidir. Su nuqtai nazardan U biosotsial mohiyat kasb etadi. Inson yashash faoliyati davomida tabiatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. O‘z navbatida tabiat ham shunday. Lekin, so‘nggi yillardagi insoniyatni tabiatga bo‘lgan antroposentristik qarashlari natijasida muvozanat buzuldi. Tabiat resurslaridan cheksiz foydalanishga bo‘lgan ishtiyoq, tabiatni ahvolini og‘irlashtirib, o‘z-o‘zini tiklab borishdek qobiliyatini susaytirib yubordi. Natijada global ekologik xavfni yuzaga kelishiga zamin yaraldi. Yer sayyorasida tabiiy iqlimning o‘zgarishi, tabiiy ofatlarning me’yoridan ortib borishi, insoniyatni cheksiz ehtiyojlari natijasida tobora kamayib borayotgan tabiiy resurslar kabi muammolar nafaqat tabiiy balki iqtisodiy jihatdan ham xavflidir. Tabiatdagi iqlim o‘zgarishi faqatgina ekologik, tabiat hodisasi emas. U bevosita jamiyatning ijtimoiy-axloqiy munosabatining natijasidir. Qisqacha qilib aytganda jamiyat va tabiat o‘rtasidagi ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlarning maxsuli. Bu Yangi O‘zbekiston singari bugungi transformatsion jarayondagi jamiyatlar uchun nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xavf tug‘diradi deyish mumkin.

Global ekologik muammolarni tahlil qilinganda, “1995 yildan 2024 yilgacha dunyo bo‘ylab 9700 dan ortiq ekstremal iqlim sharoiti 832 ming odamning umriga zomin bo‘lgan. Iqtisodiyotga 4,5 trillion AQSh dollariga yaqin zarar yetkazgan”[2]. Bu muammolarni kelib chiqishining bosh omillaridan biri inson va uning antroposentristik qarashlari bilan bog‘liq. Odamzod tabiat oldidagi mas’uliyatini unutishi yoki o‘z manfaatlari oldida tabiat manfaatlarini chetga surib qo‘yishining achchiq natijasi deyish mumkin. Raqamlarga e’tibor berilsa, “inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan isish 2017-yilga kelib sanoatlashuvdan oldingi darajadan taxminan 1°C ga (ehtimoliy oraliq 0,8°C va 1,2°C orasida) yetdi va har o‘n yillikda o‘rtacha 0,2°C (ehtimoliy oraliq 0,1°C va 0,3°C orasida) tezlikda ortib bormoqda”[3]. Bu global iqlim o‘zgarishiga antropogen omillarning kuchli ta’siridan dalolat deyish mumkin.

[1] A.A.Nazarov. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish [Matn] : darslik. - Toshkent : « O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. - 228 b
[2] https://www.germanwatch.org/en/cri?page=0
[3] https://www.ipcc.ch/sr15/

Global iqlim o‘zgarishi ta’sirini Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston ham o‘zida yetarlicha his qilishga ulgurdi. “O‘zbekistonda 1880 yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrda o‘rtacha yillik harorat 1,6 daraja (13,2 dan 14,8 °S gacha) oshdi, bu global miqyosda kuzatilayotgan o‘rtacha sur’atlardan yuqoridir. Mutaxassislarning prognozlariga ko‘ra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°Sga ko‘tarilishi mumkin. Havo haroratining ayniqsa Orolbo‘yida ko‘tarilishi kutilmoqda, bu esa mahalliy iqlim o‘zgarishlari bilan yanada og‘irlashadi”[1]. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi A.A.Abduxakimov: “So‘nggi 50 yil ichida mamlakatda o‘rtacha yillik harorat 1,2°C ga oshgani, qurg‘oqchil kunlar soni esa 20 foizga ko‘payganini ta’kidladi. 2023-yilda mamlakat hududining deyarli 40 foizi kuchli qurg‘oqchilikka duchor bo‘lib, bu holat yalpi ichki mahsulot tarkibida 17 foiz ulushga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatgan”[2]. Orol dengizining qisqarishi taxminan bir million kishining salomatligiga xavf solayotganligi va ularning hayot manbalari yo‘qolishiga olib kelyotganligini ham aytib o‘tdi.

Mamlakatimizning dunyo okeanlaridan uzoqda joylashgani, iqtisodiyotining asosiy qismi suv resurslariga bog‘liq ekanligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni kuchayishiga sabab bo‘ladi. Iqlimning keskin isishi tog‘larda yetarli miqdorda muzliklarni saqlanmasligi va natijada Amudaryo hamda Sirdaryo suvlarini keskin kamayishiga olib kelyapti. Suv hajmining qisqarishi qishloq xo‘jaligiga ta’sir etadi. Hosilning kamayishiga, unumdor yerlarning ozayib, cho‘llanishning kuchayishiga olib keladi. Natijada iqtisodiy pasayish, Yalpi ichki maxsulotning tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ekologik inqiroz tasirini yumshatish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Yangi O‘zbekiston uchun iqlim o‘zgarishi faqatgina ekologik yoki iqtisodiy xavf bo‘lmay, balki ijtimoiy oqibatlar olib kelishi bilan ham xatarlidir. Bu ekologik muammo jamiyatning ijtimoiy strukturasiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, jamiyatning ertangi kunini belgilovchi, turmush darajasiga ta’sirini o‘tkazuvchi determinant deyish mumkin. Masalan: iqlimning keskin isib ketishi suv tanqisligiga sabab bo‘lishi mumkinligini inobatga olsak, migratsiya jarayonini kuchaytirib yuborishi, aholi sog‘ligiga putur yetkazishi, suv talashish ortidan mahalliy nizolarni ko‘payishi va davlatga nisbatan aholini ishonchsizligi ortib borishi mumkin. “Orolbo‘yi regioni deb ataluvchi bu mintaqada 5 mln. ga yaqin aholi yashaydi. Ana shu aholining butun xo‘jalik faoliyati Orol dengizi bilan bog‘liq bo‘lgan….1970-yillarda faqat orol shahrida, baliq ovlash xo‘jaligining yo‘qalishi natijasida, ya’ni dengizda kema yurishi u bilan bo‘liq bo‘lgan kemalarni remont qilishning yo‘q bo‘lishi natijasida 5000 kishi ishsiz qoldi. Dengizning qarama qarshi qirg‘og‘idai mo‘ynoq shahrida ham hudi shunday vaziyat vujudga keldi”[3]. Qurg‘oqchilik natijasi o‘laroq vujudga kelgan ishsizlik natijasida migratsion jarayonlarning kuchayishi jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilalarning yemirilishiga, ajrimlar sonining ortishiga sabab bo‘lishi ham mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi ekologik muammolar faqat tabiiy jarayonlar bo‘lmay, antropogen omillarning natijasidir. Ushbu muammolarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy oqibatlarini yumshatish uchun Yangi O‘zbekiston jamiyati tabiatga nisbatan utilitar yondashuvdan butkul voz kechib, ekosetrik yondashuvga ega bo‘lgan dunyoqarashni shakllantirish lozim.

1Diyorov Og‘abek Ixtiyor O‘g`lii (2024). IQLIM O‘ZGARISHI MUAMMOSINI YECHISHDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HAMKORLIGINING TENDENSIYALARI. Eurasian Journal of Academic Research, 4 (5-3), 73-82. doi: 10.5281/zenodo.11399830

[2] https://gov.uz/oz/eco/news/view/76248

[3] J.K.Qaynarov. Orol dengizi qurishi natijasida vujudga kelgan tabiiy geografik o’zgarishlar va ularning ekologik, sotsial va iqisodiy oqibatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. Samarqand-2014. 63-bet. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/662/5b977872ddbb6.pdf

ALI SAFIY MEROSIDA IJTIMOIY TENGLIK MASALALARI TAHLILI

Sh.G.Tangirberdiyev
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ali Safiy merosi doirasida ijtimoiy tenglik va adolat konsepsiyalarining falsafiy-axloqiy asoslari tadqiq etiladi. Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining jamiyat tarkibini muvozanatga keltirishdagi roli, ijtimoiy iyerarxiyani insoniy qadriyatlar asosida tartibga solish mexanizmlari va ushbu qarashlarning zamonaviy ijtimoiy muammolarga bo‘lgan yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tenglik, insoniy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, ijtimoiy muammolar.

Insoniyat tarixida ijtimoiy tenglik va adolat masalasi har doim falsafiy va siyosiy tafakkurning markazida bo‘lib kelgan. Ali Safiy merosi nafaqat diniy-axloqiy, balki ijtimoiy-huquqiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli tizimdir. Uning merosida jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida teng huquqlilik va inson qadrini ulug‘lash tamoyillari markaziy o‘rin tutadi.

Tarixiy manbalarning tahlili Ali Safiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘ta murakkab va beqaror bo‘lgan XV asrning II yarmi va XVI asrning birinchi choragidagi tarixiy sharoitlarda shakllanganidan dalolat beradi. Sabzavor, Nishopur, Hirot mintaqasida yashagan, davlat munosabatlarida faoliyat ko‘rsatgan otasi Husayn Voiz Koshifiy Sulton Abu Said Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro hukmdorlik yillarida barqaror ijtimoiy-tabaqaviy maqomga, himoya va kafolatlarga ega rasmiy sunniy islom mudarrisi, mufassiri, voiz, xotib sifatida o‘z o‘g‘lining har tomonlama barqaror, tinch-osuda yashashi, mukammal islomiy va dunyoviy ta’limni egallashi uchun barcha sharoitlarni yaratgan edi.

Agar XV asrning 70-yillarining o‘rtalaridan boshlab Ali Safiyning otasi va ustozlari uning ilmiy va irfoniy shakllanishida katta obro‘ va ta’sir kuchiga ega bo‘lgan Xoja Ahror Valiy yetakchiligida kechishini ko‘zlab, yetuk piri-murshid rahnamoligida shakllantirila boshlagan “Himoyat tizimi”[1] imkoniyatlari asosida mukammal dunyoviy va irfoniy ta’lim-tarbiyasini nihoyasiga yetkazishi uchun Samarqandga yuborgan bo‘lsalar, 90-yillar boshlaridan Ali Safiy Hirotga qaytgan, poytaxt madaniy-siyosiy hayotida sezilarli ko‘zga tashlana boshlagan, voiz, xotib, adib, mudarris hamda xojagoniya-naqshbandiya g‘oyalari, ijtimoiy adolat, himoya, islom, shariatning ijtimoiy adolat prinsiplarini faol targ‘ib, tashviq eta boshlagan edi.

Mana shu yuqorida sanab, ko‘rsatilgan ijtimoiy asoslar Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining zamini, ularning shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgan obyektiv, tarixiy va ma’naviy shart-sharoit vazifasini o‘tagan edi, deyish mumkin.

XV asr nihoyasida temuriylar davlati hududlariga shimoliy-sharqdan shayboniylar, janubiy-g‘arbdan esa safaviylar tajovuzi[2] nafaqat Ali Safiy oilasini ostin-ustun qilib yubordi, balki shu davrdagi nisbiy barqaror hayotni ta’minlab turgan temuriylar davlatining o‘rtadan ko‘tarilishiga olib kelib, umuman, ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy va ma’naviy hayotni izdan chiqardi. Lekin alloma hayotining birinchi yarmida bo‘lgan nisbiy barqaror va osuda hayot, mukammal diniy-irfoniy ta’lim uning ilmiy-falsafiy dunyoqarashi bilan birga, alloma ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy qarashlarini, barqaror ijtimoiy-siyosiy, diniy-mazhabiy mavqeini ham muntazam, izchil tarzda shakllanishiga olib keldi.

Birinchidan, Ali Safiy faol, yaratuvchan, ijodkor shaxs, musulmon jamiyati talab va qadriyatlarini yuksakka ko‘tara olgan ko‘zga ko‘ringan, nufuzli diniy arbob, voiz, xotib, mudarris, davlat arbobi sifatida shakllanib ulgurgan edi.

Ikkinchidan, bu ma’naviy asosning bevosita oqibati o‘laroq Ali Safiy, ayniqsa, 1497-1511 yillarda oy-yil sari safaviylar va shayboniylar o‘rtasida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan poytaxt

[1] Paul Jurgen. Die politische und soziale Bedeuting der Naqsbandiyyain XV jahrhudert. –Berlin: Walter de Cruter, 1991. (Марказий Осиёда XV асрда Нақшбандиййанинг сиёсий ва ижтимоий ўрни). -P. 164-207 (немис тилида).
[2] Зиёев Х. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. –Т.: Маънавият, 2008. –Б. 99-111.

Hirotdagi omonat, xatarli harbiy-siyosiy, diniy-mazhabiy to‘qnashuvlar, taassublar avj olib turgan murakkab sharoitda faol, izchil sunniy ijtimoiy-siyosiy mavqeda turib, sunniy islom davlati – temuriylar davlatini himoya qildi. Shu bilan birga, u shafqatsiz, murosasiz va qatag‘on safaviy shialar tajovuzi, bosqiniga qarshi poytaxt aholisini, davlat arboblarini, sunniy musulmonlarning barcha tabaqa, toifa, qatlamlarini vatanparvarlik asosida ham o‘z amri-ma’rufi, ya’ni siyosiy targ‘iboti vositasida birlashtirishga, bosqinchilarga qarshi kurashni tashkil etishga urindi.

Uchinchidan, hatto o‘zining xos e’tiqodi asosini tashkil etgan tasavvufiy-irfoniy hayot tarzi, targ‘ibotlari, ayniqsa, xojagon-naqshbandiya g‘oya, qadriyatlari “himoyat tizimi” imkoniyatlarini ishga solgan holda safaviylar tajovuzi va qatag‘on siyosatiga qarshi kurash olib bordi.

Islom an’analari ruhida shakllangan Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy voqea, o‘zgarishlarni, bu Xudoning taqdiri, men hech narsani o‘zgartira olmayman, deb kuzatuvchi, loqayd bo‘lib o‘tira olmas edi. “Darhaqiqat, fayzi Ilohiyda qusur yo‘q turur, qusur tolib tarafida turur. Vaqtikim, tolib raf’i mavoni’i (to‘siqlarni yo‘q) etsa, albatta ... ... Ixtiyorning hikmati odamlarda ko‘broq turur. Vaqtikim, mavoni’i tabiat (tabiiy to‘siqlar)nikim, asl bo‘lub turur, ixtiyorning quvvati ko‘b va jahd bila ul mavoni’ilarini raf’ etmak kerak”[1] degan va barchani xushyor bo‘lishga, jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni yechishga harakat qilishga, ijtimoiy faol bo‘lishga da’vat etgan.

Garchi Ali Safiy an’anaviy sodiq sunniy musulmon bo‘lsa-da, taqdiri ilohiyni umuman tan olgan holda, inson sohibi iroda ekanligi va demak, o‘z aqli-zakovati bilan, irodasi bilan hayotiy to‘siqlarni yengib o‘ta olish, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni amalga oshirish, shu jumladan siyosiy maqsad, intilishlarida, umuman, hayotda nisbatan faol, irodali bo‘lishi lozim, degan pozitsiyada turgan. Shu bilan birga, o‘z maqsadiga yetish yo‘lida inson duch kelgan qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tishi lozim, kayfiyatsizlik, omadsizlik uni tushkunlikka, kayfu safoga berilib, muammolar yechimini izlamaslikka olib kelmasligi kerak.[2]

Alloma ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘z ifodasini topgan ma’lumotlar “Latoif ut-tavoif”da muallif tomonidan shoir va mutafakkir Rashididdin Votvot borasida keltiriladi. Ali Safiyning bunga bag‘ishlangan hikoyati bayonida milliy davlatchiligimizning Sulton Jaloliddin Malikshoh, Sulton Sanjar, Xorazmshoh Otsiz, El Arslon, Sultonshohlar hukmronlik qilgan davrlardagi taraqqiyoti to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.[3]

Inson o‘z shaxsiyati, oilasi va jamiyatda yuksak orzu maqsadlar, adolat, oqillik talabida bo‘lishi, jamiyatni o‘zi, maqsadlari, intilishlari borasida tashvishga qo‘ymasligi, xushyor, ongi va irodasiga o‘zi sohib bo‘lishi, o‘tkinchi, past kayfiyat, intilishlardan qochishi, buning uchun esa, Ali Safiyga ko‘ra uning aqli-idroki nafaqat xushyor, balki faol, anglangan faoliyat holatida bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, Ali Safiy inson iroda-ixtiyori, faolligini mavhum yoki irfoniy jiddi-jahd, riyozat shaklidagina tushunmagan, balki mamlakat, yurt, Vatan, xalq tinchligini va xavfsizligini ta’minlash, buning uchun kerak bo‘lsa faol harbiy-siyosiy jiddi-jahdda bo‘lish – vatanparvar va ayni paytda, sulhparvar bo‘lish maqsadga muvofiqligini tushungan. Alloma shu munosabat bilan Xoja Ahrorning quyidagi qarash, hikmatini keltiradi: “ ... agarchandkim, har fe’l, agar xoh haddi shar’iy mutavajjih bo‘lsun, xoh bo‘lmasun, bu qavldin tururkim, Haq subhonahu va taoloning aqdori va tamkini va xalqi bila mavjud bo‘lub turur, lekin murod ul tururkim, ... qazovu qadarning haqiqatig‘a nazar etmak kerak, to urush va fitna (sodir) bo‘lmasun ...”.[4] Bu hikmatda esa Ali Safiy vatanparvarlikning ifodasini ko‘rgan.

Alloma asarlarida din va tasavvuf vakillari, yetuk piru murshidlarning tarkidunyochilik, taqdiri azalning hukmini kutib yashash emas, balki jamiyatda taraqqiyparvar fikrlar va sog‘lom muhit barqaror bo‘lishi yo‘lida hukmdorlar, amaldorlar bilan muloqotda bo‘lish, ularning siyosatiga “tuzatuvchi” sifatida aralashishlari lozimligi asoslangan.

[1] Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.
[2] Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.
[3] Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. O‘sha nashr, –B. 83; 87-91.
[4] Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.

Ali Safiy yozgan barcha asarlariyu o‘zining ongli ijtimoiy-siyosiy faoliyatida adolat, ijtimoiy hamkorlik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi umuminsoniy g‘oyalarga amal qilgan va bu g‘oyalar hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy tamoyillari sifatida amal qilmoqda. Bu esa Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining ahamiyati davrlar o‘tgani sari oshib borishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B. 99-111.

2. Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. O‘sha nashr, –B. 83; 87-91.

3. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot (Obihayot tomchilari). –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004.

4. Paul Jurgen. Die politische und soziale Bedeuting der Naqsbandiyyain XV jahrhudert. – Berlin: Walter de Cruter, 1991. (Markaziy Osiyoda XV asrda Naqshbandiyyaning siyosiy va ijtimoiy o‘rni). -P. 164-207.

ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Ж. Комилов
Гулистон давлат педагогика институти профессори

Аннотация. Ушбу мақолада ёшларнинг сиёсий маданиятини шакллантиришнинг назарий ва амалий механизмлари таҳлил қилинади. Тадқиқотда ёшлар сиёсий маданиятининг моҳияти, унинг жамият ҳаётидаги ўрни ва ривожланиш босқичлари кўриб чиқилади. Мақолада ёшларнинг сиёсий жараёнларда фаол иштирокини таъминлаш, уларда ҳуқуқий онглилик ва фуқаролик масъулиятини оширишга қаратилган механизмлар, жумладан, таълим тизими, оммавий ахборот воситалари, сиёсий партиялар ва жамоат ташкилотларининг рольи атрофлича ўрганилган. Шунингдек, ёшлар сиёсий маданиятини шакллантиришда дуч келинаётган муаммолар ва уларнинг ечимлари бўйича илмий-амалий тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: ёшлар сиёсати, сиёсий маданият, фуқаролик жамияти, сиёсий фаоллик, ҳуқуқий онглилик, таълим тизими, ОАВ, жамоат ташкилотлари.

Бугунги тараққий этган анъанавий давлатлар турмуш тарзига, ҳаёт даражасига, иқтисодий ривожланиш кўламига назар ташласак, улар ўзларининг тарихий, миллий урф-одатлари, қадриятлари, дунёқараш ва диний эътиқодлари ўз миллий менталитетига мос равишда давлатчилик тизимини яратганлигининг гувоҳи бўламиз. Ана шу маънода биз бугун “Ҳаракатлар стратегиясидан-Тараққиёт стратегияси сари” дадил одимлаётган эканмиз, мамлакат юксалиши, халқимизнинг келажаги нафақат моддий омилларга, балки ёшларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги иштирокига боғлиқ эканлигини ҳам чуқур англамоқдамиз. Бугунги кунда жаҳон ҳамжамиятида глобаллашув жараёнларининг чуқурлашуви, улар ўртасида “ижтимоий-ҳуқуқий зиддиятларнинг кучайиб бораётганлиги сабабли дунёдаги 2 миллиарддан ортиқ ёшларнинг”[1] тафаккурини ҳар тамонлама ривожлантириш борасида дунёнинг кўплаб давлатларида бир қатор ишлар амалга оширилиб келинмоқда. Шу боис “ёшлар ҳуқуқий ва сиёсий маданиятининг даражаси эртанги кун тараққиётини белгилаб бериши муносабати билан мазкур масала тобора глобал ва долзарб аҳамият касб этмоқда”[2]. Ҳозирги пайтда БМТ Бош ассамблеяси томонидан ёшларни ҳар томонлама фаол этиб тарбиялашга жиддий эътибор қаратилганлиги ОАВ ларида ёритилиб борилмоқда. Шундай экан, ёшлар маданияти, хусусан, ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини

инновацион-креатив ёндашув асосида оширишга алоҳида эътибор қилиш ва бу борада инновацион усул ва воситаларни ишлаб чиқиш зарурати тобора ортиб бормоқда.

Шу боисдан ҳам дунёнинг кўплаб ривожланган мамалакатларида ёшларнинг сиёсий маданиятини креатив ёндашув асосида юксалтиришнинг методологик жиҳатларини ҳар тамонлама таҳлил ва тадқиқ этиш масаласи, хусусан, ёшлар сиёсий маданиятини оширишнинг усул ва воситаларини яратиш бугунги куннинг муҳим масалаларидан бирига айланди.

Шунингдек, ёшларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги иштирокини кенг таъминлаш мақсадида илмий тадқиқотлар олиб бориш, уларнинг сиёсий билимдонлик даражасини инновацион-креатив ёндашув асосида ривожлантириш энг муҳим мақсадларидан биридир. Бундай дейишимизга асосий сабаблардан бири “бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисининг 60 фоизидан ортиғини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этмоқда. Бу миқдор бошқа мамлакатлар кўрсаткичларидан икки ярим баробар кўпдир. Ўзбекистон аҳолисининг 40 фоизи эса 18 ёшгача бўлган ёшлардир”[3]. Ҳозирда, Янги Ўзбекистоннинг келажаги бўлган ёшларга, уларни жисмоний-маънавий етук ёшлар қилиб тарбиялашга катта эътибор қаратилиб келинмоқда. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “... ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала, ҳақиқатдан ҳам, ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда”[4].

Ҳозирги кунда давлатимизнинг асосий вазифаларидан бири жадаллик билан юз бераётган ижтимоий-сиёсий жараён ва ҳодисаларни мустақил таҳлил қиладиган, янгича креатив фикрлайдиган етук авлодни тарбиялаб беришдан иборатдир. Шу боисдан ҳам, давлатимиз сиёсатида “…мустақил фикрлайдиган, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш”[5]. Янги Ўзбекистон янгича дунёқараш соҳасида қилинадиган ишларнинг устувор йўналишларидан биридир.

Бу борада давлатимиз томонидан ёшларнинг сиёсий маданиятини энг илғор замонавий усул ва ёндашувлар асосида ривожлантириш орқали мустақил фикрловчи ёшларни камол топтиришга алоҳида эътибор берилиб, кўплаб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ислоҳотлардан кўзланган мақсад ёшлар сиёсий маданиятини шакллантириш тизимини янада такомиллаштиришдир. Бу соҳада инновацион ёндашув зарурати муҳим касб этиб бормоқда. Бу борада таълим тизимини янада такомиллаштириш жамият тараққиётини белгиловчи муҳим омил ҳисобланади. Барча даврларда буюк мутафаккирларимиз қарашларида инсонпарварлик, миллатпарварлик ва ватанпарварлик тамойиллари жамият аъзоларига, айниқса, ёшларга маънавий куч бўлиши ҳақида алоҳида тушунтириб борилган. Бу тамойилларнинг аҳамияти ҳақидаги тасаввурлар биринчи навбатда оиладан шакллантирилса, ёшларнинг дунёқараши ва турмуш тарзида ижобий ўзгаришлар содир бўлади.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга қилган мурожаатномасида: “...Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Мирзо Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб, хизмат қилиши лозим. Ушбу мақсад йўлида ёшларимиз ўз олдига катта марраларни қўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш-барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур. Шундагина фарзандларимиз халқимизнинг асрий орзу-умидларини рўёбга чиқарадиган буюк ва қудратли кучга айланади. Шу мақсадда, “Янги Ўзбекистон – мактаб остонасидан, таълим-тарбия тизимидан бошланади”, деган ғоя асосида кенг кўламли ислоҳотларни амалга оширамиз”[6], деган фикрлари ҳам ёш авлод тарбиясига ҳар доимгидан кўпроқ масъулиятли ва бефарқ бўлмасликни талаб этади. Мустақиллик даврида бу борада мамлакатимиз

олимлари томонидан ўтказилган ва ўтказилаётган тадқиқотларни таҳлил қилиш бу соҳадаги ишлар эндигина бошланаётганидан, ҳали бу борада кенг кўламли тадқиқотлар олиб бориш зарурлигидан гувоҳлик беради.

Ҳозирда ёшларнинг сиёсий маданияти тушунчаси табиатан бир-бирига зид бўлган ва жамият ҳаётининг вужудга келишининг яхлит бирлигини намоён этадиган ҳодиса сифатида маълум бир маданиятдан юзага келадиган маънолар билан кўпроқ бойитилган. Шу боис, ёшларнинг сиёсий маданияти маълум бир жамиятдаги маънавий ва маданий муҳитнинг сиёсий мезони, маълум бир одамнинг хулқи, унинг цивилизация тараққиётининг ўзига хос хусусияти сифатида кўпроқ акс этади. Шу мазмунда, ёшларнинг сиёсий маданияти давлат ҳокимияти соҳасида халққа тегишли бўлган урф-одатлар динамикасини, уларнинг замонавий шароитда мужассам этиши ва ривожланиши, келажакдаги сиёсатни шакллантириш шароитларига ўз таъсирини намоён этади. Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, мавзуни тадқиқ этиш давомида қуйидаги хулосаларга келинди:

-ёшларда сиёсий маданиятни инновацион-креатив ёндашув асосида шакллантириш ва ривожлантириш зарурлигининг ўзига хос жиҳатлари, шундаки, аввало, ёшлар сиёсий маданиятини шакллантириш ва улар билан турли хил сиёсий мавзуларда давра суҳбатларини ташкил этиб бориш ёшларимизнинг сиёсий маданияти ва салоҳияти қай даражада эканлигини билишга хизмат қилади;

- буюк аждодларимизнинг шарқона тамойиллар асосида давлатни бошқариш, мустаҳкамлаш ва юксалтиришга қаратилган асарлари, рисолалари ўтмишда халқимиз давлат тақдири, халқ тақдири учун масъулиятли бўлган қанчадан-қанча фозил кишиларни тарбиялаган ҳамда аждодларимизнинг сиёсий маданиятини ўзида акс эттирган бой маънавий меросдан тўлақонли фойдаланиш;

- азал-азалдан ўзбек халқи миллий қадриятлари ва анъаналарини инобатга олган ҳолда, ёшлар сиёсий маданиятига ҳар доимгидан кўпроқ миллий мазмун акс эттириш ва уларни давлат ва жамият ишларини бошқаришга кенг жалб қилиш, бунинг учун зарур бўлган барча шароитларни яратиб бериш;

- ёшларнинг ўз конституцион ҳуқуқ ва эркинликларидан фойдаланишни ўргатиш ҳамда сиёсий маданият шаклланишининг устувор омили сифатида кўппартиявийликни қўллаб-қувватлаш, ғоялар ва қарашлар эркинлигини таъминлаш;

-сиёсий билимларни кенг ёйган ҳолда, ёшлар сиёсий тафаккирини юксалтириш ҳамда уларнинг илмий ва маънавий салоҳиятини дунёнинг тараққий қилган давлатлари ёшлари салоҳияти даражасига етказиш, ёшларимиз сиёсий маданиятини ривожлантиришнинг устувор омилидир.

Адабиётлар:

1. https // news./un. org/ 565442-government-bodies-must-serve-people-uzbek-president

2. Проблемы гражданского общества. Ежемесячный обзор зарубежной литературы. - 2018. - Т. - №9 (14).

3. Турдиева Р. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш. – Т.: Ўзбекистон, 2014. –Б.5-6.

4. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир // “Халқ сўзи” 2017 йил 1 июль.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // Манба: www.president.uz

7. Нобель мукофотининг расмий веб-саҳифаси. https://www.nobelprize.org/ - Мурожаат этилган сана: 14.06.2017.

TARBIYA FANIDA PARADIGMAVIY BURILISH: AN’ANAVIY YONDASHUVDAN KOMPETENSIYAVIY MODELGA O‘TISH ZARURATI

Nasiba Yunusmetova Satimbekovna
Sirdaryo pedagogik mahorat markazining Tarbiya fani metodisti

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida tarbiya fanining transformatsiyasi hamda undagi paradigmaviy o‘zgarishlar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. An’anaviy reproduktiv ta’lim modelining cheklangan jihatlari asoslab berilib, kompetensiyaviy yondashuvning metodologik ustunliklari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarbiya fanida kompetensiyaviy modelni joriy etish kadrlar salohiyatini oshirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: paradigma, tarbiya fani, kompetensiyaviy yondashuv, ijtimoiy barqarorlik, inson kapitali, pedagogik transformatsiya.

Kirish. XXI asr boshlaridan boshlab jahon miqyosida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti hamda axborot oqimining keskin ortishi inson faoliyatining barcha sohalariga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Ayniqsa, mehnat bozori talablari tobora murakkablashib, an’anaviy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va tezkor qaror qabul qilish kabi universal kompetensiyalarni talab etmoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimi jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda yangilanishi, o‘zining mazmuni va metodologiyasini qayta ko‘rib chiqishi zarur bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida inson kapitali e’tirof etilmoqda. Inson kapitalining sifati esa bevosita ta’lim tizimi samaradorligiga bog‘liq. Shu bois, ta’lim jarayonida shaxsning nafaqat bilim darajasi, balki uning ijtimoiylashuv darajasi, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy qadriyatlari va mustaqil fikrlash qobiliyatlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlarning hayotiy yo‘lini ongli tanlashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy mas’uliyatni his etishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mazkur jarayonda tarbiya fani alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu fan orqali o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar madaniyati, shaxsiy va kasbiy o‘zini anglash kompetensiyalari shakllantiriladi. Tarbiya fani endilikda faqatgina nazariy bilim berish vositasi emas, balki shaxsni hayotga tayyorlovchi, uni faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllantiruvchi tizimli mexanizm sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtai nazardan, an’anaviy bilimga yo‘naltirilgan paradigma o‘zining chegaralangan imkoniyatlari bilan zamonaviy ehtiyojlarni to‘liq qondira olmayotgani kuzatilmoqda. U asosan tayyor bilimlarni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyatga tayyorligini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Natijada, ta’lim natijalari bilan real hayot talablari o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. U ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirib, o‘quvchilarda bilimdan foydalanish, uni amaliyotga tatbiq etish va turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa tarbiya fanining mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilashni, ya’ni paradigmaviy burilishni talab etadi.

Shunday qilib, tarbiya fanida an’anaviy yondashuvdan kompetensiyaviy modelga o‘tish zarurati nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Mazkur masalani ilmiy asosda tahlil qilish esa ta’lim tizimini takomillashtirish va jamiyat barqarorligini ta’minlash yo‘lida muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar asosida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari o‘rganildi.

Asosiy qism

1. Tarbiya fanida paradigmaviy o‘zgarishlarning nazariy asoslari

Ilmiy adabiyotlarda “paradigma” tushunchasi muayyan davrda ustuvor bo‘lgan ilmiy qarashlar tizimi sifatida talqin etiladi. Tarbiya fanida an’anaviy paradigma normativ-axloqiy bilimlarni uzatishga asoslangan bo‘lsa, zamonaviy paradigma shaxsning faoliyatga tayyorligini belgilovchi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Mazkur o‘zgarish ijtimoiy-falsafiy jihatdan subyektning transformatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi: ya’ni o‘quvchi passiv bilim oluvchidan faol ijtimoiy aktorga aylanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti – ongli va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. An’anaviy yondashuvning strukturaviy cheklovlari

An’anaviy pedagogik model quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

-bilimlarning reproduktiv o‘zlashtirilishi;
-o‘qituvchi markazlashgan ta’lim muhiti;
-baholashning summativ xarakteri.

Mazkur yondashuvning asosiy kamchiligi – o‘quvchilarda yuqori darajadagi kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarni yetarli darajada shakllantira olmasligidir. Natijada, ta’lim jarayoni bilan real hayot ehtiyojlari o‘rtasida tafovut yuzaga keladi.

3. Kompetensiyaviy modelning metodologik ustunliklari

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etishni nazarda tutadi:

-integrativlik – bilim, ko‘nikma va qadriyatlarning uyg‘unligi;
-amaliy yo‘naltirilganlik – o‘rganilgan bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash;
-subyekt-subyekt munosabati – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik;
-refleksivlik – o‘z-o‘zini tahlil qilish va rivojlantirish.

Tarbiya fanida bu yondashuv shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini, xususan, kommunikativlik, tanqidiy fikrlash va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Kompetensiyaviy yondashuvning ijtimoiy ahamiyati

Kompetensiyaviy model asosida shakllangan shaxs:

-murakkab ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladi;
-o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni his etadi;
-innovatsion fikrlashga ega bo‘ladi.

Bu esa jamiyatda inson kapitalining sifatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yondashuvni joriy etish strategik ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarbiya fanida kompetensiyaviy modelni joriy etish:

-o‘quvchilarning ijtimoiylashuv darajasini oshiradi;
-ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
-ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun pedagoglarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish zarur.

Xulosa

Tarbiya fanida paradigmaviy burilish – an’anaviy yondashuvdan kompetensiyaviy modelga o‘tish – bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining ob’ektiv va muqarrar rivojlanish bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon faqat metodik o‘zgarish emas, balki ta’limning maqsad, mazmun va natijalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etuvchi tizimli islohotdir.

Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni tayyor bilimlar majmuasini egallovchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi, moslashtiruvchi va amaliyotda qo‘llay oluvchi faol subyekt sifatida

shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa yoshlarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, kommunikativ madaniyati, tanqidiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur transformatsiyaning strategik ahamiyati shundaki, u inson kapitalining sifat jihatdan o‘sishini ta’minlaydi. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlik, innovatsion fikrlash va ijtimoiy faollik kabi xususiyatlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv esa aynan shu sifatlarni shakllantirish orqali kadrlar salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Shu bilan birga, tarbiya fanining kompetensiyaviy asosda tashkil etilishi yoshlarda fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy ong va ma’naviy barkamollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Chunki barqaror jamiyat — bu nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan, balki ongli, mas’uliyatli va faol fuqarolarga ega bo‘lgan jamiyatdir.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fanini kompetensiyaviy model asosida qayta qurish nafaqat pedagogik zarurat, balki ijtimoiy taraqqiyotning strategik talabi hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish esa pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion metod va texnologiyalarni keng joriy etish hamda ta’lim muhitini modernizatsiya qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
2. Muslimov N.A. *Kasbiy ta’lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Abdukarimov X. *Pedagogik kompetensiyalar nazariyasi*. – Toshkent, 2021.
4. Raven J. *Competence in Modern Society*. – London: Oxford University Press, 1984.
5. Khutorskoy A.V. *Key Competencies in Education*. – Moscow, 2003.
6. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals*. – Paris, 2017.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Matyoqubova Barno
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA. Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga ko‘rsatayotgan ijtimoiy, psixologik va kommunikativ ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli vositalarning oiladagi muloqot sifati, tarbiya jarayoni, hissiy yaqinlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri empirik ma’lumotlar asosida o‘rganildi. 2015–2025-yillar oralig‘idagi statistik ko‘rsatkichlar tahlili orqali raqamli muhitning oilaviy hayotga ta’sir darajasi aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari axborot texnologiyalarining ijobiy va salbiy jihatlarini muvozanatli baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, raqamli muhit, oila, kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik ta’sir, tarbiya, internet madaniyati.

Kirish. XXI asr boshidan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, oilaviy munosabatlar tizimiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va raqamli xizmatlarning keng tarqalishi insonlarning muloqot uslubi, ijtimoiy xulq-atvori hamda kundalik turmush tarzini tubdan o‘zgartirdi. Natijada, an’anaviy oilaviy muloqot shakllari zamonaviy raqamli muhit bilan uyg‘unlashib, yangi ijtimoiy modelni shakllantirmoqda. So‘nggi o‘n yillikda dunyo miqyosida internetdan foydalanuvchilar soni keskin oshdi. Xususan, 2010-yilda global miqyosda internet foydalanuvchilari ulushi 34 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 67 foizga yetdi. O‘zbekistonda esa 2015-yilda 9 million nafar aholi

internetdan foydalangan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 27 milliondan oshdi. Ushbu raqamlar raqamli texnologiyalar deyarli har bir oilaning hayotiga chuqur kirib borganini ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari oilaviy munosabatlarga bir vaqtning o‘zida ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, masofaviy aloqa vositalari uzoqda bo‘lgan oila a’zolari o‘rtasida muloqotni saqlab qolish, axborot almashish va hamkorlikni mustahkamlash imkonini bermoqda. Ikkinchi tomondan esa, raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanish oilada jonli suhbatlarning kamayishiga, hissiy yaqinlikning pasayishiga va o‘zaro tushunmovchiliklarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 2018–2023-yillar oralig‘ida yosh oilalarda muloqot muammolari bilan bog‘liq murojaatlar soni 30 foizga oshgan. Sotsiologik so‘rovlar natijalariga ko‘ra, oilaviy nizolarning 40 foizga yaqini bevosita yoki bilvosita raqamli muhit bilan bog‘liq omillar ta’sirida yuzaga kelmoqda. Bu holat axborot texnologiyalarining oilaviy barqarorlikka ta’sirini chuqur ilmiy tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar oilada ta’lim, tarbiya va madaniy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, interaktiv dasturlar orqali farzandlarning bilim saviyasini oshirish, ota-onalarning pedagogik savodxonligini rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. 2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda onlayn ta’limdan foydalanuvchi oilalar ulushi 2,5 barobarga oshgani buning yaqqol dalilidir. Biroq raqamli muhitdan noto‘g‘ri foydalanish axborot qaramligi, psixologik zo‘riqish, stress va ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanish oilaviy mas’uliyatning susayishiga olib kelmoqda. 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 20–30 yoshdagi respondentlarning 45 foizi kuniga 5 soatdan ortiq vaqtni ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishini bildirgan. Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga ko‘rsatayotgan ta’sirini tizimli ravishda o‘rganish, ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun texnologik, sotsiologik va psixologik yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan holda tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda raqamli muhit va oilaviy munosabatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Amaliy ahamiyati esa oila institutini mustahkamlash, raqamli madaniyatni rivojlantirish va sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishida namoyon bo‘ladi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga ta’sirini tizimli va kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida sotsiologik, statistik, psixologik va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasi 2022–2024-yillar davomida O‘zbekistonning Toshkent shahri, Samarqand, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlar natijalariga asoslandi. So‘rovda jami 850 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 52 foizini ayollar, 48 foizini erkaklar tashkil etdi. Respondentlarning yosh tarkibi 20 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan shaxslarni qamrab oldi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida maxsus ishlab chiqilgan anonim so‘rovnoma shaklidan foydalanildi. So‘rovnoma quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi: raqamli qurilmalardan foydalanish chastotasi, oilaviy muloqot sifati, psixologik holat, farzandlar tarbiyasida texnologiyalarning o‘rni hamda oilaviy nizolarning sabablari. Shuningdek, yarim strukturalangan intervyu usuli orqali 40 nafar oila vakili bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o‘tkazildi. Ushbu suhbatlar orqali respondentlarning shaxsiy tajribasi, hissiy holati va texnologiyalarga munosabati o‘rganildi.

Tadqiqotda 2015–2024-yillarga oid milliy statistika ma’lumotlari, sotsiologik markazlar hisobotlari hamda ilmiy manbalar kontent-tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida Excel va SPSS dasturlaridan foydalanildi. Korrelatsion va regressiya tahlili yordamida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan oilaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi. Ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida triangulyatsiya usuli qo‘llanilib, turli manbalardan olingan natijalar solishtirildi. Tadqiqot jarayonida etik me’yorlarga rioya qilinib, respondentlarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi ta’minlandi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy obyektivlik, tizimlilik va taqqoslash tamoyillariga asoslangan bo‘lib, olingan

natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

NATIJALAR. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. So‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 78 foizi kuniga kamida 3–5 soat internetdan foydalanishini bildirgan. Ularning 41 foizi esa oilaviy davrada ham mobil qurilmalardan faol foydalanishini tan olgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 39 foizida oxirgi uch yil davomida oilaviy suhbatlar chastotasi kamaygan. 28 foiz respondent hissiy yaqinlik darajasining pasayganini, 19 foiz respondent esa oilada kelishmovchiliklar sonining ortganini qayd etgan. 2018–2024-yillar oralig‘ida o‘rganilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda ajrimlar soni 21 foizga oshgan bo‘lib, mutaxassislar bu holatga raqamli muhitning bilvosita ta’siri mavjudligini ta’kidlamoqda. So‘rov natijalarida ajrim bilan yakunlangan oilalarning 34 foizida texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Yosh guruhlar kesimida tahlil qilinganda, 20–30 yoshdagi respondentlarning 48 foizi kuniga 5 soatdan ortiq vaqtni ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishini bildirgan. Ushbu guruhda oilaviy muloqotning sustlashuvi darajasi eng yuqori bo‘lib, 43 foizni tashkil etdi. Biroq tadqiqotda ijobiy jihatlar ham aniqlandi. Respondentlarning 62 foizi internet orqali uzoqda yashovchi qarindoshlar bilan aloqani saqlash imkoniyati yaxshilangani haqida fikr bildirgan. 54 foiz respondent onlayn ta’lim platformalari farzandlarining bilim saviyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlagan. Tahlil natijalariga ko‘ra, texnologiyalardan me’yorida foydalanuvchi oilalarda psixologik barqarorlik indeksi yuqori bo‘lib, u raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanuvchi oilalarga nisbatan 1,5–1,7 barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Korrelatsion tahlil natijalari internetdan foydalanish va oilaviy muloqot sifati o‘rtasida manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi ($r = –0,46$). Bu ko‘rsatkich raqamli faollik ortishi bilan real muloqot pasayishini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy hayotga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali ekanligini, uning ijobiy va salbiy jihatlari muvozanatli tarzda boshqarilmaguncha barqaror rivojlanish ta’minlanmasligini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga ko‘p qirrali va murakkab ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Raqamli qurilmalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan sharoitda, oilaviy muloqotning mazmuni va shakli sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnologiyalardan foydalanish darajasi ortishi bilan oiladagi jonli suhbatlar chastotasi kamayib, virtual muloqot ustuvorlik kasb etmoqda.

2015–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘rsatkichlari 2,8 barobarga oshgani qayd etilgan. Ushbu jarayon oilaviy munosabatlar tizimida yangi ijtimoiy modelni shakllantirib, an’anaviy qadriyatlarning qayta talqin qilinishiga olib keldi. Ayniqsa, yosh oilalarda texnologik vositalar hayot tarzining asosiy tarkibiy qismiga aylangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanish oilaviy muloqot sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Respondentlarning qariyb 40 foizi oxirgi besh yil davomida oila a’zolari bilan yuzma-yuz suhbatlar sezilarli darajada kamayganini bildirgan. Bu holat hissiy yaqinlikning zaiflashuvi, o‘zaro tushunmovchiliklarning ortishi va psixologik sovuqlikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, raqamli muhitda uzoq vaqt qolish shaxsning ijtimoiy faolligini pasaytiradi, empatiya darajasini kamaytiradi va individualizmning kuchayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kuniga 5 soatdan ortiq internetdan foydalanuvchi respondentlarning 47 foizida stress darajasi yuqori ekanligi aniqlangan. Bu esa oilaviy nizolarning kuchayishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ijobiy jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Masofaviy muloqot vositalari orqali migratsiyada bo‘lgan oila a’zolari bilan doimiy aloqa saqlab qolish imkoniyati paydo bo‘ldi. 2020–2024-yillar oralig‘ida xorijda ishlayotgan fuqarolar oilalarining 68 foizi videoaloqa orqali muntazam muloqot olib borayotganini bildirgan. Bundan tashqari, onlayn ta’lim platformalarining rivojlanishi farzandlar tarbiyasida yangi imkoniyatlar yaratdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanuvchi oilalarda farzandlarning o‘quv natijalari o‘rtacha 18–22 foizga oshgan. Bu holat texnologiyalarning maqsadli qo‘llanilganda ijobiy natija berishini tasdiqlaydi. Quyidagi jadvalda 2018–2024-yillar oralig‘ida axborot texnologiyalaridan foydalanish

darajasi va oilaviy munosabatlar sifatining o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan.

1-jadval. 2018–2024-yillarda raqamli texnologiyalardan foydalanish va oilaviy munosabatlar ko‘rsatkichlari

Yillar	Internetdan foydalanish (%)	Kuniga 4 soatdan ortiq foydalanuvchilar (%)	Oilaviy muloqot pasayishi (%)	Nizolar soni oshishi (%)	Psixologik barqarorlik (%)
2018	52	28	19	14	68
2019	55	31	22	16	65
2020	61	38	27	19	61
2021	64	41	31	22	58
2022	66	45	35	25	55
2023	69	48	38	27	53
2024	72	52	41	29	50

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, internetdan foydalanish darajasi oshgani sari oilaviy muloqotning pasayishi va nizolar sonining ortishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayni paytda psixologik barqarorlik ko‘rsatkichi izchil ravishda pasayib borgan.

Mazkur natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham mos keladi. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda ham raqamli qaramlik va oilaviy nizolar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik aniqlangan. Masalan, 2021-yilda o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotda texnologiyalarga qaram oilalarda ajrim xavfi 1,4 barobar yuqori ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari texnologiyalarning salbiy ta’siri mutlaq emasligini ham ko‘rsatadi. Raqamli vositalardan ongli, me’yoriy va maqsadli foydalanilgan hollarda oilaviy munosabatlar mustahkamlanishi mumkin. Bunda raqamli madaniyat, media savodxonlik va oilaviy tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Muhokama natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki undan foydalanish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganidadir. Oilalarda raqamli gigiyena, vaqtni boshqarish va sog‘lom muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish mumkin.

Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalari oilaviy munosabatlarga ta’siri murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u doimiy ilmiy monitoring va chuqur tahlilni talab etadi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda keng qamrovli longitudinal tadqiqotlar olib borish oilaviy siyosat va ijtimoiy dasturlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga sezilarli va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Raqamli qurilmalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar oilaviy hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ularning ta’siri yil sayin kuchayib bormoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish oilaviy muloqotning kamayishiga, hissiy yaqinlikning zaiflashishiga va nizolar sonining ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, yosh oilalar orasida raqamli muhitga qaramlik holatlari ko‘proq kuzatilmoqda. Bu holat psixologik barqarorlikning pasayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ijobiy jihatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Masofaviy aloqa vositalari orqali uzoqda yashovchi oila a’zolari o‘rtasida muloqotni saqlab qolish, onlayn ta’lim platformalari orqali farzandlarning bilim saviyasini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli resurslardan maqsadli foydalanilgan hollarda oilaviy muhitning barqarorlashuvi kuzatilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammo texnologiyalarning mavjudligida emas, balki ulardan foydalanish madaniyatining yetarli darajada

shakllanmaganidadir. Raqamli savodxonlik, vaqtni boshqarish va sog‘lom muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishi salbiy oqibatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:
– oilalarda raqamli foydalanish me’yorlarini belgilash;
– ota-onalar uchun media savodxonlik bo‘yicha treninglar tashkil etish;
– farzandlar bilan jonli muloqotni kuchaytirish;
– ta’lim muassasalarida raqamli madaniyatni rivojlantirish dasturlarini joriy etish;
– oilaviy psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish.

Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalarining oilaviy munosabatlarga ta’siri muvozanatli boshqarilgandagina ijobiy natija beradi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar jamiyatda sog‘lom va barqaror oilaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 245 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 312 b.
3. Rasulov A.B. Axborot jamiyati va ijtimoiy rivojlanish. – Toshkent: Fan, 2019. – 198 b.
4. Qodirov X.M. Oila sotsiologiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 176 b.
5. Abduqodirova N.N. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 224 b.
6. Ismoilov S.S. Zamonaviy kommunikatsiya va ijtimoiy munosabatlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 190 b.
7. Xolmatov A.R. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 210 b.
8. Usmonova D.T. Media savodxonlik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 165 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Aholining internetdan foydalanish ko‘rsatkichlari. 2015–2024-yillar. – Toshkent, 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. Raqamli rivojlanish bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
11. Normatov B.J. Raqamli jamiyat va ijtimoiy barqarorlik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 182 b.
12. Saidova M.K. Oilada tarbiya va zamonaviy muammolar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 154 b.

MUSIQA TARBIYA VA IJTIMOIY ONG: PEDAGOG KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI



Ro‘ziyeva Munisa G‘anijon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: **Nuraliyeva Zuhra Anvarovna**
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqiy tarbiyaning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o‘rni, pedagog kadrlar salohiyatini oshirishning dolzarb masalalari hamda zamonaviy ta’lim tizimida uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqa ta’limining innovatsion yondashuvlari, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari va amaliy takliflar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Musiqiy tarbiya, ijtimoiy ong, pedagog kadrlar, ta’lim tizimi, madaniyat, estetik tarbiya, kasbiy rivojlanish, musiqa pedagogikasi, ijodkorlik, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, san’at ta’limi, pedagogik mahorat, musiqa savodxonligi, madaniy meros.

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Ayniqsa, musiqiy tarbiya nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki shaxsning

ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan pedagog kadrlarning salohiyatini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki zamonaviy jamiyatda yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va madaniy saviyasi ko‘p jihatdan ta’lim tizimi orqali shakllanadi. Musiqiy tarbiya esa bu jarayonda o‘ziga xos vosita bo‘lib, o‘quvchilarda nafaqat san’atga qiziqish uyg‘otadi, balki ularni ijtimoiy hayotga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi.

Agar pedagog zamonaviy metodlarni qo‘llay olsa, o‘quvchilarni darsga faol jalb etadi va ularning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi. Aks holda, ta’lim jarayoni biryoqlama bo‘lib qoladi va kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.

Asosiy qism: 1. Musiqiy tarbiyaning ijtimoiy ongga ta’siri. Musiqiy tarbiya jamiyatning ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. U insonning nafaqat estetik didini, balki fikrlash tarzini, qadriyatlarini va jamiyatga bo‘lgan munosabatini ham rivojlantiradi. Quyida uning asosiy ta’sir jihatlari keltirilgan:

-qadriyatlar va madaniyatni shakllantiradi

Musiqa orqali milliy an’analar, urf-odatlar va tarixiy meros avloddan avlodga o‘tadi. Bu esa jamiyat a’zolarida umumiy madaniy ongni mustahkamlaydi.

-axloqiy tarbiyani kuchaytiradi

Musiqiy asarlar ko‘pincha ezgulik, vatanparvarlik, do‘stlik kabi g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Natijada insonlarda ijobiy axloqiy sifatlar shakllanadi.

-emotsional va ruhiy rivojlanishga ta’sir qiladi

Musiqa insonning his-tuyg‘ularini boyitadi, empatiya (boshqalarni tushunish) qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi.

-jamoaviylik va ijtimoiy birdamlikni oshiradi

Qo‘shiq kuylash, ansamblda ishtirok etish kabi faoliyatlar odamlarni birlashtiradi, hamkorlik va o‘zaro hurmatni kuchaytiradi.

-tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi

Musiqani tushunish va tahlil qilish jarayoni insonni chuqurroq fikrlashga undaydi. Bu esa ijtimoiy ongning rivojlanishiga xizmat qiladi.

-ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratadi

Ko‘plab musiqiy asarlar jamiyatdagi muammolarni yoritadi (tengsizlik, adolatsizlik va boshqalar). Bu odamlarni o‘ylashga va faol pozitsiya egallashga undaydi.

Musiqiy tarbiya-bu faqat san’atni o‘rganish emas, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi kuchli vositadir. U insonni har tomonlama rivojlantirib, uni faol, ongli va madaniyatli shaxs sifatida kamol toptiradi.

2. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish zarurati. Zamonaviy ta’lim tizimi pedagogdan faqatgina o‘z fanini bilishni emas, balki keng qamrovli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Chunki bugungi kunda ta’lim jarayoni tez o‘zgarib bormoqda va bu o‘zgarishlarga moslashish pedagogning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Avvalo, pedagog innovatsion pedagogik texnologiyalarni bilishi zarur. Bu degani, u yangi o‘qitish usullarini, zamonaviy metodlarni va ta’limda samarali yondashuvlarni amaliyotda qo‘llay olishi kerak. Masalan, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish kabi usullar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, bugungi raqamli davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog kompyuter, internet resurslari, multimedia vositalari va onlayn platformalardan samarali foydalanishi orqali darslarni yanada qiziqarli va tushunarli tashkil etishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Bundan tashqari, pedagog ijodiy va interfaol metodlarni qo‘llay olishi lozim. Ijodiy yondashuv o‘quvchilarning qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradi, interfaol metodlar esa ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada o‘quvchilar faqat tinglovchi emas, balki fikrlovchi va muhokama qiluvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Shu bilan birga, pedagogning o‘z ustida ishlashi, yangiliklarga ochiqligi va kasbiga bo‘lgan mas’uliyati ham uning salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy pedagog-bu nafaqat o‘qituvchi, balki tarbiyachi, yo‘naltiruvchi va motivator hamdir.

3. Pedagog kadrlar faoliyatida uchrayotgan zamonaviy muammolar. Hozirgi kunda musiqiy ta’lim tizimida va pedagog kadrlar faoliyatida bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Ushbu muammolar ta’lim sifati va o‘quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Birinchidan, zamonaviy texnologiyalardan yetarlicha foydalanilmayapti. Raqamli ta’lim vositalari, multimedia darslari, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar musiqa ta’limida katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning amaliyotda qo‘llanilishi cheklangan. Masalan, audio va video materiallar, virtual musiqa asboblari yoki notalarni o‘rganishga mo‘ljallangan dasturlardan to‘liq foydalanilmasligi dars samaradorligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishiga yetarli e’tibor berilmayapti. Ba’zi o‘qituvchilar zamonaviy metodika va innovatsiyalarni o‘zlashtirishga yetarlicha intilmaydi. Malaka oshirish kurslari ko‘pincha nazariy xarakterda bo‘lib, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga kam e’tibor qaratadi. Natijada pedagoglar yangi ta’lim talablariga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Uchinchidan, musiqa ta’limiga nisbatan e’tiborning yetarli emasligi ham muhim muammolardan biridir. Ayrim hollarda musiqa darslari asosiy fanlarga nisbatan ikkinchi darajali deb qaraladi. Bu esa o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi. Holbuki, musiqiy tarbiya shaxsning ma’naviy va estetik rivojida muhim o‘rin tutadi.

To‘rtinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muammolardan biri hisoblanadi. Ba’zi ta’lim muassasalarida musiqa asboblari, texnik jihozlar va o‘quv resurslari yetishmaydi. Bu esa amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, o‘quv dasturlarining zamon talablariga to‘liq mos kelmasligi ham kuzatilmoqda. Ba’zi dasturlar eskirgan bo‘lib, ular zamonaviy musiqa yo‘nalishlari, global madaniy jarayonlar va yangi pedagogik yondashuvlarni yetarlicha qamrab olmaydi.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun tizimli yondashuv, zamonaviy metodlarni joriy etish va pedagog kadrlarning uzluksiz rivojlanishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Men bu maqoladan shuni aytmoqchimanki, musiqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy ongini shakllantirishda juda muhim o‘rin tutadi. Musiqa faqat san’at turi emas, balki u insonning ichki dunyosini boyitadigan, uning ma’naviy va estetik qarashlarini rivojlantiradigan kuchli tarbiyaviy vositadir. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida musiqa orqali milliy qadriyatlarni singdirish, vatanparvarlik, insonparvarlik va madaniy ongni shakllantirish mumkin.

Maqolada tahlil qilinganidek, musiqiy tarbiya samaradorligi bevosita pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatiga bog‘liq. Men shuni ta’kidlamoqchimanki, agar o‘qituvchi zamonaviy bilimga, innovatsion metodlarga va yetarli pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lsa, u o‘quvchilarda nafaqat musiqiy bilim, balki ijtimoiy ong va ijodiy fikrlashni ham shakllantira oladi. Aksincha, pedagogning zamon bilan hamnafas bo‘lmasligi ta’lim sifatining pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
3. Abdurahmonov.Q. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2020.
4. Sayfullayeva.R. Musiqa ta’limi metodikasi. Toshkent, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil tahriri.
6. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

AYOLLAR KOLONIYASINI TUGATGAN SHAXSLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK REHABILITATSIYASIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Samatova Dilrabo Yusufovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — sudlangan ayollarni ijtimoiy hayotga qayta integratsiyalashda samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlash va ularning psixologik moslashuviga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy asoslashdir. Tadqiqotda psixodiagnostik, psixokorreksion, ijtimoiy-pedagogik va kasbiy yo‘naltiruvchi texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, qo‘llanish doirasi va natijalari ko‘rib

chiqiladi. Maqolada shuningdek, reabilitatsiya jarayonida duch kelinadigan psixologik va ijtimoiy to‘siqlar, ularni bartaraf etishning pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kompleks pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali sudlangan ayollarning o‘z-o‘ziga ishonchi oshishi, ijtimoiy munosabatlarda faollashishi va mehnat bozorida talabgir ko‘nikmalarni egallashi mumkinligi isbotlangan.


Kalit so‘zlar: ayollar koloniyasi, ijtimoiy reabilitatsiya, pedagogik texnologiyalar, psixologik rehabilitatsiya, sudlangan ayollar, ijtimoiy moslashuv, psixokorreksion ish.

Kirish. Zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biri jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bir qatorda, sudlangan shaxslarni ijtimoiy hayotga qayta integratsiyalashdir. Xususan, ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning reabilitatsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat huquqiy, balki psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi [1]. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sudlangan shaxslarni reabilitatsiya qilish sohasida katta ishlarni amalga oshirilmoqda, jumladan, «Sudlangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish to‘g‘risida»gi qonun doirasida turli dasturlar ishlab chiqilmoqda [2]. Ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi bu murakkab va ko‘p bosqichli jarayondir. Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyalar alohida o‘rin tutadi, chunki ular shaxsning ichki dunyosini, qadriyatlarini, munosabatlarini va xulq-atvorini ijobiy o‘zgartirishga qaratilgan [3]. Pedagogik texnologiyalar — bu maqsadli ta’lim va tarbiya natijasini ta’minlash uchun mo‘ljallangan, pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro faoliyatini tashkil etish usullari, shakllari va vositalarining tizimli kombinatsiyasidir [4]. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning katta qismi ijtimoiy hayotga qaytganidan so‘ng psixologik stress, stigmatlash, ish bilan ta’minlanmaslik va oilaviy munosabatlarning buzilishi kabi muammolarga duch keladi [5]. Bu muammolarni hal etishda pedagogik texnologiyalar samarali vositaga aylanishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi, ularning samaradorligi baholanadi va takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Sudlangan shaxslarni reabilitatsiya qilish muammosiga dunyo ilm-fanida katta e’tibor qaratilgan. Xususan, I. V. Stamml, J. Braithwaite, F. E. Tannenbaum va boshqa olimlar stigmatlash nazariyasini ishlab chiqishgan bo‘lib, sudlangan shaxslarning ijtimoiy hayotga qaytishidagi asosiy to‘siq — jamiyat tomonidan «yorliq» yopishtirilishidan dalolat beradi [6; 7]. A. V. Dovgiy, N. A. Kostenko, V. N. Kudryavtsev kabi rus olimlari sudlangan shaxslarning psixologik xususiyatlarini, ularning ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini tadqiq qilishgan [8; 9]. O‘zbekiston olimlari — M. M. Rahimova, N. N. Normatov, Z. K. Karimova va boshqalar — sudlangan ayollar psixologiyasini, ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi shart-sharoitlarini o‘rganishgan [10; 11]. Biroq, ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bag‘ishlangan kompleks tadqiqotlar hali yetarli emas.

Tadqiqotda mavzuga doir ilmiy manbalar va huquqiy hujjatlarni o‘rganish; o‘z-o‘ziga baholash shkalalari (Rosenberg, Spielberger); reabilitatsiya markazlari xodimlari va sudlangan ayollar bilan suhbatlashish; pedagogik texnologiyalarni reabilitatsiya jarayoniga joriy etish va ularning samaradorligini baholash kabi metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya jarayoni. Tadqiqot predmeti ushbu jarayonda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

Ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning psixologik portreti murakkab tuzilmaga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ularning katta qismida quyidagi psixologik xususiyatlar kuzatiladi:



1-Rasm

Ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning psixologik portreti

Shu bilan birga, ayollar erkaklarga nisbatan reabilitatsiya jarayonida qo‘shimcha muammolarga duch keladi. Jumladan, bolalarni tarbiyalash huquqini tiklash, ota-onalik vazifalarini bajarish, jinsiy zo‘ravonlik va diskriminatsiyadan himoyalanish kabi masalalar [14]. Bu esa reabilitatsiya jarayonida jinsga mos pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyalar — bu maqsadli natijaga erishish uchun mo‘ljallangan aniq metodlar, usullar va vositalar majmuasidir. Ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasida quyidagi pedagogik texnologiyalar tizimini ajratish mumkin:

1. Psixodiagnostik texnologiyalar- Reabilitatsiya jarayonining birinchi bosqichida shaxsning psixologik holatini, qobiliyatlari, ehtiyojlari va muammolarini aniqlashga qaratilgan texnologiyalar qo‘llaniladi. Bu bosqichda:

Klinik suxbat — shaxsning hayot tarixi, jinoyatchilikka olib kelgan sabablar, hozirgi kayfiyati va reabilitatsiya istagini aniqlash;

Psixologik testlash — shaxsiyatning tuzilishi, aqliy rivojlanish darajasi, emotsional sohani baholash;

Ijtimoiy-pedagogik pasportlashtirish — shaxsning ijtimoiy holati, oilaviy munosabatlari, mehnat tajribasi, ta’lim darajasi haqida ma’lumot to‘plash [15].

Psixodiagnostik texnologiyalar reabilitatsiya dasturini individualizatsiyalash uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi.

2. Psixokorreksion va psixoterapevtik texnologiyalar-Shaxsning ichki konfliktlarini, tushkunlik holatini, xavotirlikni kamaytirishga qaratilgan texnologiyalar:

Kognitiv-hulq-atvor terapiyasi (KHT) — buzuilgan fikrlash sxemalarini aniqlash va ularni ijobiyga almashtirish. Masalan, «Men hech qachon o‘zgarolmayman» degan fikrni «Har bir kishi o‘zgarishga qodir» ga almashtirish [16].

San’at terapiyasi — musiqa, tasviriy san’at, teatr orqali emotsional bosimni yengillashtirish, o‘zini ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish.

Guruhli psixoterapiya — o‘xshash muammoli ayollar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi, tajriba almashishi, ijtimoiy o‘rgangan yordamsizlikni yengish.

Relaksatsiya va meditatsiya mashqlari — xavotirlik va stressni kamaytirish, o‘z-o‘zini nazorat qilishni oshirish [17].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kompleks pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali erishilgan natijalar quyidagi jadvalda taqdim etilgan:

Jadval 1

Ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasida pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi

Pedagogik texnologiya	**Qo‘llanish bosqichi**	**Asosiy metodlar va usullar**	**Kutilayotgan natija**	**Samaradorlik ko‘rsatkichi**
Psixodiagnostik texnologiyalar	1-bosqich (boshlang‘ich)	Klinik suxbat, psixologik testlash, pasportlashtirish	Shaxsning psixologik portretini aniqlash, individual reabilitatsiya dasturini ishlab chiqish	92%
Kognitiv-hulq-atvor terapiyasi	2-bosqich (psixokorreksion)	Kognitiv rekonstruksiya, xulq-atvor mashqlari, o‘z-o‘zini kuzatish	Tushkunlik va xavotirlikni 40-50% kamaytirish	85%
San’at terapiyasi	2-bosqich (psixokorreksion)	Tasviriy san’at, musiqa terapiyasi, drama terapiya	Emotsional bosimni yengillashtirish, ijodiy salohiyatni ochish	78%
Guruhli psixoterapiya	2-3-bosqich	Guruh suhbatlari, tajriba almashish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash	Ijtimoiy yordamsizlikni yengish, o‘z-o‘ziga ishonchni oshirish	88%
Ijtimoiy o‘rganish	3-bosqich (ijtimoiy moslashuv)	Rolli o‘yinlar, muloqot treninglari, muammoli vaziyatlarni hal etish	Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, konfliktlarni konstruktiv hal etish	90%
Kasbiy treninglar	3-4-bosqich (kasbiy integratsiya)	Master-klasslar, amaliyot, ishga joylashish suhbatlarini mashq qilish	Kasbiy ko‘nikmalarni egallash, ish bilan ta’minlanish	75%
Huquqiy savodxonlik	Butun jarayon bo‘ylab	Seminarlar, konsultatsiyalar,	Huquqiy ongni oshirish, huquqiy himoyalanganlikni	95%

		huquqiy yordam	ta’minlash	
Mentorlik va tutorship	3-4-bosqich	Tajribali mentor bilan juft ishlash, maslahatlar	Reabilitatsiya davrida qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, qayta jinoyatchilikka qaytishni oldini olish	82%

Natija. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasida pedagogik texnologiyalarni kompleks ravishda qo‘llash quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi:vBirinchidan, psixologik holatning yaxshilanishi. Kognitiv-hulq-atvor terapiyasi va san’at terapiyasini qo‘llagan ayollarning 85%ida tushkunlik va xavotirlik belgilari keskin kamaygan. Bu esa ularning ijtimoiy faollashishiga zamin yaratadi [20]. Ikkinchidan, ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi. Ijtimoiy o‘rganish va guruhli psixoterapiya natijasida ayollar o‘rtasida o‘zaro yordam tizimi shakllangan. Tadqiqot ishtirokchilarining 88%i o‘zlarini kamroq yolg‘iz his qilishgan va boshqalarga ishonish qobiliyati oshganini ta’kidlaganlar. Uchinchidan, kasbiy integratsiyaning tezlashishi. Kasbiy treninglarni tamomlagan ayollarning 75%i birinchi olti oy ichida ish bilan ta’minlangan. Biroq, bu ko‘rsatkichni oshirish uchun ish beruvchilar bilan targ‘ibot ishlari olib borish, sudlanganlik haqidagi ma’lumotlarni cheklash mexanizmlarini takomillashtirish zarur [21]. To‘rtinchidan, qayta jinoyatchilikka qaytishning oldini olish. Mentorlik dasturlarida ishtirok etgan ayollarning qayta huquqbuzarlikka yo‘l qo‘yish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 2,3 marta kamroq bo‘lgan. Bu «tengdoshlar yordami» prinsipining samaradorligini tasdiqlaydi [22].

Muhokama. Tadqiqot davomida bir qator muammolar ham aniqlandi. Jumladan, pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo‘llay oladigan malakali mutaxassislar yetishmaydi. Shuningdek, reabilitatsiya markazlarining moddiy-texnik bazasi ham yetarli darajada rivojlanmagan. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda individual yondashuv yetarli emasligi, ya’ni har bir shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari to‘liq inobatga olinmayotgani ham muammo sifatida kuzatildi. Bundan tashqari, oilaviy reabilitatsiya dasturlari ham yetarli darajada shakllanmagan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta takliflar ilgari surildi. Avvalo, kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish zarur, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida sudlangan shaxslarni reabilitatsiya qilishga ixtisoslashgan yo‘nalishlarni joriy etish yoki maxsus qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish lozim. Shu bilan birga, reabilitatsiya markazlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy psixodiagnostika vositalari, kompyuter xonalari va ijodiy ustaxonalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, har bir shaxs uchun individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va ularni doimiy ravishda monitoring qilish orqali individual yondashuvni kuchaytirish kerak. Oilaviy reabilitatsiyani rivojlantirish ham muhim bo‘lib, bunda sudlangan ayollarning oila a’zolari bilan birgalikda psixologik-pedagogik ishlar olib borish va oilaviy terapiya mashg‘ulotlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Shuningdek, jamiyatda sudlangan ayollarga nisbatan salbiy qarashlarni kamaytirish uchun ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Xulosa. Shu bilan birga, ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi murakkab va uzoq muddatli jarayondir. Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyalar shaxsning psixologik holatini tiklash, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, kasbiy integratsiyani ta’minlash va huquqiy himoyalanganlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixodiagnostik, psixokorreksion, ijtimoiy-pedagogik va kasbiy yo‘naltiruvchi texnologiyalarning kompleks qo‘llanilishi reabilitatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, individual yondashuv, guruhli shakllar va mentorlik dasturlarining aralash qo‘llanilishi yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Kelajakda tadqiqotlar reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, masofaviy ta’lim platformalaridan va sun’iy intellekt asosidagi

psixodiagnostika vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilishi lozim. Shuningdek, ayollar koloniyasini tugatgan shaxslarning reabilitatsiyasining uzoq muddatli natijalarini kuzatish, avlodlararo jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan oilaviy dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri qilib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Sudlangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonunlar to‘plami. — 2019. — 19-son. — 112-b.
2. Karimova Z. K. Sudlangan ayollarning psixologik xususiyatlari va ularni reabilitatsiya qilishning pedagogik asoslari: ped. fan. nomz. ... diss. — Toshkent, 2018. — 168 b.
3. Bim-Bad B. M. Pedagogika i obrazovaniye: sovremennost’ i perspektivy: ucheb. posobiye. — M.: Rossiyskaya akademiya obrazovaniya, 2019. — 480 s.
4. Ginevskiy V. I., Golant E. Ya. Tekhnologiya obucheniya v vysshey shkole: ucheb. posobiye. — M.: Vysshaya shkola, 2018. — 256 s.
5. Rahimova M. M. Sudlangan ayollarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi: nazariy va amaliy jihatlar // O‘zbekiston xabarlar. — 2020. — № 3. — B. 45-49.
6. Goffman E. Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. — N. Y.: Simon & Schuster, 2009. — 147 p.
7. Braithwaite J. Crime, Shame and Reintegration. — Cambridge: Cambridge University Press, 2017. — 236 p.
8. Dovgiy A. V. Psixologiya lichnosti osuzhdennogo: ucheb. posobiye. — M.: Yuniti-Dana, 2019. — 295 s.
9. Kostenko N. A. Sotsial’naya psixologiya penitentsiarnoy sredy. — M.: Institut sotsiologii RAN, 2018. — 312 s.
10. Normatov N. N. Sudlangan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishning huquqiy va pedagogik asoslari // Huquq va jamiyat. — 2021. — № 2. — B. 78-82.
11. Abduraxmanova D. A. Ayollarning jinoyatchilik psixologiyasi: nazariy tahlil // Psixologiya va jamiyat. — 2019. — № 4. — B. 112-118.
12. Zeigarnik B. V. Patopsixologiya. — M.: Moskovskiy psixologo-sotsial’nyy institut, 2017. — 416 s.
13. Kudryavtsev V. N. Prichinnaya svyaz’ v prestuplenii. — M.: Nauka, 2018. — 288 s.
14. Vanzha V. I., Xarlamova E. F. Gendernyye aspekty penitentsiarnoy psixologii // Psixologicheskiy zhurnal. — 2020. — T. 41, № 5. — S. 90-102.
15. Bodalev A. A. Psixologiya obscheniya. — M.: Izdatel’stvo Instituta Psixoterapii, 2018. — 304 s.
16. Beck J. S. Kognitivnoye povedencheskaya terapiya: dlya professionalov. — M.: Piter, 2019. — 400 s.
17. Lindsli O. R. Proyektivnoye obucheniye kak sredstvo psixologicheskoy pomoshchi // Voprosy psixologii. — 2018. — № 6. — S. 55-63.
18. Petrovskiy V. A. Lichnost’ v psixologii: paradigma sub"yektnosti. — M.: Smysl, 2019. — 528 s.
19. Bandura A. Social Learning Theory. — N. Y.: General Learning Press, 2017. — 128 p.
20. Seligman M. E. P. Learned Optimism: How to Change Your Mind and Your Life. — N. Y.: Vintage Books, 2018. — 336 p.
21. Umarova M. T. Mehnat bozorida ayollarning huquqiy holati // O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. — 2022. — № 1. — B. 134-139.
22. Cullen F. T., Jonson C. L. Rehabilitation and Treatment Programs // The Oxford Handbook of Criminology. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — P. 721-761.

JAMIYATDA EKOSENTRIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

A.Bayeshanov
Guliston davlat universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada antroposentrik dunyoqarashdan voz kechib, ekosentrik dunyoqarashga o‘tishning ijobiy tomonlari, ekosentrizmni jamiyat ekobarqarorligidagi ahamiyati, shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ekosentrizm, ma’naviy chegara, ekobarqarorlik, perseptiv-affektiv, kognitiv component, ekologik xavfsizlik.

XXI asr insoniyat uchun mislsiz rivojlanish, texnologik yuksalish asri bo‘ldi deyish mumkin. Insoniyatning intellektual qudrati nanotexnologiyalar, suniy intellektning yaratilishi, koinotni o‘rganish jarayonidagi yutuqlarda namoyon bo‘lmoqda. Lekin, farovon yashash ilinji va resurslardan cheksiz foydalanishga bo‘lgan harakatlar ona zaminimizni halokat sari yetakladi. To‘g‘rirog‘i ekologik bumerang[1] ishga tushdi desak bo‘ladi. Antropogen omillar ta’siri tabiat regeneratsiyasi imkoniyatlari bilan hisoblashib o‘tirmadi. Natijada, tabiat o‘zining tabiiy ofatlari, iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi kabi jarayonlari bilan odamzodga javob qaytara boshladi. Endilikda odamzod ko‘nikib ulgurgan antroposentristik dunyoqarash o‘zini oqlamay qo‘ydi. O‘rniga yangi tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan, odamzodni uning bir qismi sifatida qarovchi ekosentristik dunyoqarashga ehtiyoj sezila boshladi. Tabiat odamlardan, ularning cheksiz ehtiyojlariyu, adoqsiz tajribalaridan charchadi. Professor David Orr ta’kidlaganidek: “Oddiy haqiqat shundaki, sayyoramizga ko‘proq “muvaffaqiyatli” insonlar kerak emas. Lekin u tinchlikparvarlarga, shifokorlarga, tiklovchilarga, hikoyanavislarga va har qanday turdagi oshiqlarga (tabiatni sevuvchilarga) qattiq muhtojdir. Unga o‘z joylarida munosib yashaydigan odamlar kerak. Unga dunyoni yashash uchun qulay va insonparvarlashtirish yo‘lidagi kurashga qo‘shila oladigan ma’naviy jasoratli insonlar kerak”[2].

Ekosentrizm so‘zi ikki so‘zning birikuvidan(eko+sentrizm) hosil bo‘lgan bo‘lib, “Eko-oikos” – uy, makon, vatan, “sentrizm-centre” – markaz, ya’ni tabiatni markaziy o‘ringa qo‘yuvchi, tabiatning barcha tirik organizmlari teng ahamiyat kasb etuvchi, yashash va rivojlanishga haqli, inson ham shular qatori tabiatning bir qismi deb hisoblovchi dunyoqarash shakli.

Bugungi global ekologik muammolar kuchayib, tobora chigallashib borayotgan bir davrda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ekobarqarorlikka erishish eng muhim hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Ekologik xavfsizlikka faqatgina davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, huquqiy yechimlar bilan erishib bo‘lmaydi. Avvalo, jamiyat va uning a’zolarini dunyoqarashini o‘zgartirish lozim. Antroposentristik dunyoqarash sarqitlaridan holi, ekosentristik ongni shakllantirish lozim.

Rus olimlari Sergey Deryabo va Vitold Yasvin tabiatga bo‘lgan subyektiv munosabatning tuzilishini 4 ta komponentga ajratishgan[3] bo‘lib, jamiyat ekosentrik dunyoqarashni shakllantirish masalalarini aynan shu prizma asosida tahlil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘z navbatida jamiyatda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning ichki ishlash mexanizmini ochib berishga xizmat qiladi.

Perseptiv-affektiv komponent-hissiy idrok deyish mumkin. Bunda inson tabiat va uni go‘zalliklaridan estetik zavq tuyadi. Antroposentrik ya’ni inson va uning ma’nfaatlarini ustun

[1] BUMERANG (ing. boomerang) — qad. otish quroli. Bukilgan yog‘ochdan yasalgan, ko‘pincha o‘roqsimon shaklda bo‘ladi. Bumerang otilganda, aylanib, yana otuvchining o‘ziga qaytib keladi. O`zbekiston milliy entsiklopediyasi.” O`zbekiston milliy entsiklopediyasi “davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent-2001. – B.: 248

[2] https://www.context.org/iclib/ic27/orr/

[3] Дерябо С. Д., Ясвин В. А. Экологическая педагогика и психология. — Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. — 480 с.

qo‘yuvchi dunyoqarashdan farqli o‘laroq, o‘zi kabi tabiatning boshqa tirik va notirik organizmlarini seva boshlaydi. Agar jamiyatda tabiat bilan hissiy yaqinlik uyg‘onsa, tabiatga zarar yetkazishdan tiyiladi. Unga ozor berishga “ma’naviy chegara” qo‘yadi deyish mumkin.

Kognitiv komponent – bilim va tushunchalari darajasi. Bu o‘z ichiga inson o‘zlashtirgan barcha ekologik bilimlarni oladi. Bu bilimlar tizimli fikrlar asosini tashkil etishi kerak. Inson tabiatdagi biror bir turning yo‘qolishi yoki unga ko‘rsatilgan har qanday salbiy ta’sir ekologik muvozanatini buzulishiga, tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishini odamzod hayotiga ta’sirini anglab yetadi. Bunda jamiyatning bilim darajasi yuqori bo‘lsa ekologik xavf-xatarlardan ogoh bo‘ladi, ekologik barqarorlikka intiladi.

Amaliy-konativ component - harakat va ko‘nikmalar darajasi bo‘lib, bilimdan amaliy ko‘nikmalarga, harakatlarga o‘tish nazarda tutiladi. Ekosentrik dunyoqarashda tabiatga nisbatan amaliy faoliyat uni bo‘ysindirish emas, uyg‘unlikka erishish tamoyiliga asoslanadi. Tabiatga munosabat usullari, texnologiyalari shunga moslashib boradi. Jamiyat a’zolari endilikda resurslardan oqilona foydalanishga intilib, tabiatga nisbatan iste’mol madaniyatini o‘zgartiradi. Tabiatni tiklanish jarayoniga ko‘maklashadi. Ekologik inqirozlarga qarshi aniq, amaliy harakatlar qiladi.

Postulat-ixtiyoriy-amaliy komponentni qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy faollik darajasi deyish mumkin. Odam ekologik dunyoqarashidan kelib chiqib, tabiatga bo‘lgan munosabatini boshqalarga qanday targ‘ib qilishi, o‘z pozitsiyalarini jamiyatda qanday himoya qilishi nazarda tutiladi. Jamiyatning ekologik etikasini eng yuqori darajasi deyish mumkin. Inson atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi bilan birga, boshqalardan ham shuni talab qiladi. Jamiyatda jamoatchilik nazorati kuchayadi. Postulat drajasi shakllangan jamiyatda ekologiyaga yetkazilgan har qanday huquqbuzarlikka nisbatan keskin, murosasiz muhit yaratiladi. Bu ijtimoiy mexanizm ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Rus olimlari Sergey Deryabo va Vitold Yasvin modeli prizmasi nuqtai-nazaridan qaraganda ekosentrik dunyoqarash bu oddiy va shunchaki tabiatni sevish va zavqlanish emas. Balki, tabiatni ham huddi inson kabi subyekt deb his qilish, uning muvozanatli qonunlarini anglab yetish, zarar yetkizmasdan yashash va bunday munosabatni jamiyatning ekologik axloqiy qadriyatlari va turmush tarzini asosi deb tan olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi.” O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi “davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent-2001.

2. Deryabo S. D., Yasvin V. A. Ekologicheskaya pedagogika i psixologiya. — Rostov-na-Donu: Feniks, 1996.

3. https://www.context.org/iclib/ic27/orr/

4. Karimova, S. (2025). MA’NAVIYAT VA UNI SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. *Универсальная индексная библиотека инновационных исследований в современном мире: теория и практика*, *4*(22), 81-84.

5. BAYESHANOV, A. (2026). O‘ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA BIOSENTRIZM VA EKOLOGIK VIJDON OMILINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI. *«ACTA NUUz»*, *1*(1.3), 50-52.

YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY E’TIQODINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ismayilov Akmal Ziyadillayevich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi,
Sultonov Abdurahmon Abduqodirovich
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistondagi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini yanada takomillashtirish, har tomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishilaridan biri ekanligiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirib borish va unga innovatsion yondashuv – yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini takomillashtirishda muhim rol o‘ynashi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, yoshlar siyosati, axloq, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyatlar, madaniy meros, dunyoqarash, davlat, jamiyat, globallashuv.

Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini yanada takomillashtirish, har tomonlama ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishilaridan biridir. “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini - deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, - hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1:145-146].

Bugungi kunga kelib dunyoda globallashuv jarayonida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash kechayotganini unutmasligimiz kerak. Shunday ekan, talaba yoshlarni globallashuv jarayonida o‘z ongi va tafakkuri bilan mustaqil fikrlaydigan, o‘z xalqini va Vatanini har tomonlama himoya qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini tashkil etadi hamda talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy bilimlarga ega bo‘lishini taqoza etadi.

Albatta, har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topishi hech kimga sir emas. Ajdodlarimizning asrlar davomida to‘plagan boy ma’naviy merosini to‘la egallash va kelajak avlodga yetkazish esa hozirgi avlodning vazifasi ekanligini unutmasligi lozimdir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik manqurtlikdan boshqa narsa emas. Aksincha, ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun fojeadir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyasi yuksak darajada rivojlangan insongina nafaqat o‘zi, balki jamiyat va davlat kelajagi uchun mehnat qilishga o‘zida kuch va qudrat topa oladi. Shuni unutmasligimiz lozimki, shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyasi dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma’naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Buning asosida ta’lim muassasasida o‘quvchi va talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash va mustahkamlashda maxsus ta’lim-tarbiyaviy dasturlar asosida ma’naviy-axloqiy ishlar samaradorligi oshirib boriladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish, o‘z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlariga, diniga, axloqiga hamda huquqiy ongiga, turmush tarziga tanqidiy ko‘z bilan qaray olishlarida ota-onalar, qolaversa pedagog kadrlarning mas’uliyati kattadir. Mana shu mas’uliyatimiz asnosida har bir yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlashi bilan jamiyat ma’naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, be’etibor bo‘lsak esa har bir yoshni jamiyatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni noto‘g‘ri talqin etishga olib keladi. O‘zbek xalqida ta’lim-

tarbiyaning milliy qadriyatlarga asoslanganligini, o‘ziga xosligini inobatga olgan holda Vataniga, xalqiga, oilasiga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, e’tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas’uliyatli, ma’naviy va jismoniy barkamol avlod voyaga yetadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar jamiyatda ma’lum bir ijtimoiy-axloqiy talablarga mos keluvchi, axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida talabalar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etish hisoblanadi [2: 522].

Ma’naviy tarbiya - yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha [3: 317-318].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, Vatanimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongi, tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora yuksalib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy e’tiqodini takomillashtirishda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar ham mavjud. Masalan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy ishlari olib borilmayotganligi, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish yuzasidan jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emasligini qayd etib o‘tishimiz lozimdir.

Yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida 26-mart 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-sonli qarori qabul qilinganligi ayni muddao bo‘ldi. Ushbu qarorda quyidagilar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb topdik:

- ✓ ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- ✓ oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;
- ✓ targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;
- ✓ el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;
- ✓ madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;
- ✓ geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [4].

Bunday holatda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi masalalariga e’tiborni yanada kuchaytirish taqazo qilinadi. Zero Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal

bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” [5:504-505].

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra, inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, talabalar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi kabilardan iborat. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan bog‘liq bo‘lgan tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bundan tashqari barcha ta’lim muassasasida talaba- yoshlarga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zero, ta’lim tamoyillarining eng muhim tamoyillardan biri - ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy mohiyati talaba shaxsiga insoniy munosabatda bo‘lishni, ta’lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada ham yana bir eng qimmatli qadriyat - erkinlik hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida talaba shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Bugun O‘zbekistonda, barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirib borish va unga innovatsion yondashuv – yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va ularni intelektual rivojlangan shaxslar bo‘lib yetishishlarida muhim rol o‘ynamoqda. Umumta’lim maktablari va oliy ta’limda mazkur fanlarning o‘qitilishi kelajakda yetuk milliy kadrlar tayyorlashda o‘zining amaliy va fundamental ahamiyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirib borish jarayonida yoshlar ongida demokratik tamoyillar va dunyoqarashni shakllantirishda ahamiyati ortib bormoqda. Binobarin mamlakatimiz yoshlari ijtimoiy fanlarning ta’sirida ulkan ijodiy, intellektual, ijtimoiy-siyosiy salohiyatga ega ega bo‘lmoqda. Shu bois yoshlar deb atalgan ana shu kuch va salohiyatni yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi sari safarbar etishda ijtimoiy fanlarning o‘rni roli va nufuzi ortib boradi [6: 504-505].

Yoshlar – jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalari. Jahon hamjamiyatida o‘zining mustaqil maqomiga ega har qanday davlat yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha davlatning, jamiyatning nafaqat yaqin kelajagi balki uzoq muddatli taraqqiyotini aniq tasavvur etish mumkin. Shu ma’noda, yurtimizning har tomonlama taraqqiy etishi, yuksalishida ilm-fanning, xususan, ijtimoiy fanlarning roli beqiyos darajada kattadir. Hozirda, ijtimoiy fanlarni, tarix, etika, estetika, falsafa, dinshunoslik kabi fanlarni o‘qitishga innovatsion yondashish orqali u, pedagogik va psixologik jihatlari bilan uzviy bog‘lagan va unga innovatsion yondashgan holda ularni yanada takomillashtirib borish orqali ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida sifat o‘zgarishlariga erishishga erishilmoqda. Buning uchun esa, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglar, barcha fan o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini zamonaviy talablar asosida oshirib borish, ularga innovatsion fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashish muhim ahamiyat kasb etadi

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallagan talaba yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar shakllanadi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlar odob-axloq me’yorlari talablarini ongli ravishda bajaradi, ma’naviy meros, urf-odat va an’analar kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlaydi. Talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetentsiyani rivojlantirishda milliy qadriyatlar va milliy tarbiya asoslaridan foydalanish yo‘llari, ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish va bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat o‘z sohasining bilimdoni, balki axloqiy jihatdan tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy sifatlari, milliy odat, an’ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo‘qligidan tashqari, insoniyat ma’naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg‘otishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Ashirmatova M.E. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyati va asosiy tushunchalari. “Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar” TMA konferensiya materiallari 2023 yil 6 may.
3. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: “G‘ofur G‘ulom”, 2009.
4. https://president.uz/uz/lists/view/4309
5. Sh.M.Mirziyoev “Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining quriltoyida so‘zlagan nutq. 2017-yil 30-iyun. To‘la asarlar to‘plami 1-jild, - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

BUXORO XONLIGI VA AMIRLIK DAVRIDA ZARAFSHON VOHASI QORAQALPOQLARI (O‘ZBEK-QORAQALPOQLARI)NING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

O.A.Abdig‘apparov
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Buxoro xonligi hududiga kirib kelgan qoraqalpoqlar va xonlik va shu atrofda yashovchi aholi munosabatlari ko‘p ziddiyatli bo‘lmaganga o‘xshaydi. Sababi, qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi (keyin amirlik) hududlariga kelib joylashishi amirlikining (olinadigan soliqlar hisobiga) foydasiga bo‘lgan. Chunki qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va ular xonlikka zakot, yerdan foydalanganligi uchun esa xiroj va boshqa soliqlar to‘lab turgan.

Kalit so‘zlar: Zarafshon daryosi, Quyi Amudaryo, Orol bo‘ylari va Xiva xonligi, Nurota, G‘ijduvon, Kenemeh bozorlari.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Zarafshon vodiysi aholisining etnik tarkibi xilma-xil edi. Bu yerda o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, O‘rta Osiyo eroniylari, arablar, yahudiylar va boshqa elatlar yashar edi. O‘zbeklar aholining asosiy qismini tashkil etardi. Turli elat vakillari yashaydigan Zarafshon vohasi aholisi etnik xususiyatlari, kelib chiqishi, voha bo‘ylab joylashishi hamda yashash tarzi va xo‘jalik mashg‘ulotlari xususida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda Zarafshon vohasi bo‘ylab 92 o‘zbek qavmining deyarli barcha urug‘lari istiqomat qilishadi. Bu urug‘larning tumanlar kesimida tarqalishi va urug‘ nomlarining etimologiyasi tahliliga ko‘ra nayman urug‘i o‘n uch tumanda, turkman, xo‘ja va eshonlar to‘qqiz tumanda, mang‘it va xitoy urug‘lari sakkiz tumanda, qipchoq, saroy, bahrin, beklar etnik guruhlari yettita tumanda, ming, barlos, qirq etnik guruhlari oltita tumanda, tuyoqli etnik guruhi beshta tumanda, burqut, arab, qiyot etnik guruhlari to‘rtta tumanda istiqomat qilishadi[1]. Butun voha bo‘ylab joylashgan etnik guruhlar, jumladan qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayoti va etnomadaniy jarayonlari bilan bog‘liq tadqiqotlar bir-biriga bog‘langan holatda kompleks o‘rganilmagan.

Qoraqalpoqlar Zarafshon vohasiga ko‘chib kelgan vaqtlarida hali urug‘ qabilachilik tuzumida yashaganlar. Ular vohaga dastlab, bir-birlaridan alohida bo‘lib, chorva va dehqonchilik uchun qulay adir va to‘qaylar atrofi bo‘ylab joylashganlar. Zarafshon vohasida bugungi kungacha saqlanib qolgan urug‘lari nomlari bilan ataluvchi aholi mamaskanlarini tahlil qilish ularnin kelib chiqishini o‘rganishda yordamchi manba sifatida muhim hisoblanadi.

Manbalarda ta’kidlanishicha, qoraqalpoq urug‘lari Zarafshon daryosi atroflariga XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XIX asrning 40-yillarigacha ko‘chib kelib joylashgan[2]. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida qoraqalpoqlar dastlab Quyi Amudaryo, Orol bo‘ylari va Xiva xonligi atroflarida yashaganligi, biroq u yerlardan turli xil ijtimoiy va siyosiy omillar tufayli Turkiston,

Chimkent, Toshkent, Chinaz va Jizzaxga orqali Zarafshon daryosi bo‘ylariga kelib joylashganligi eslatiladi. Biroq, yangi kelib joylashgan hududda yer va yaylovlarnig yetshmasligi natijasida, ularnig ba’zi guruhlari Zarafshon vohasi (hozirgi Mitan) va Bulung‘ur rayonlari hamda janubiy rayonlar (Qashqadaryo va Surxondaryo) hududlariga borib joylashgan.

Buxoro xonligi hududiga kirib kelgan qoraqalpoqlar va xonlik va shu atrofda yashovchi aholi munosabatlari ko‘p ziddiyatli bo‘lmaganga o‘xshaydi. Sababi, qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi (keyin amirlik) hududlariga kelib joylashishi amirlikining (olinadigan soliqlar hisobiga) foydasiga bo‘lgan. Chunki qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va ular xonlikka zakot, yerdan foydalanganligi uchun esa xiroj va boshqa soliqlar to‘lab turgan. Shu bilan birga qoraqalpoqlarning kelib joylashgan hududlari mahalliy axoli yashaydigan qishloq va ovullardan uzoqda, asosan, daryo vohalari bo‘ylab joylashgan edi. Qoraqalpoq qabila boshliqlarning Buxoro xonligi siyosiy hayotidagi roli xakida ma’lumotlar kam. Biroq, qoraqalpoq oqsuyaklaridan mang‘it urug‘idan chiqqan bir necha vakillar amirdan boshqaruv apparatidagi to‘qsabo, muxtar kabi mansablarni olgan va Buxoro amiri lashkarlarida ham xizmat qilib, lashkarboshi lavozimlariga ko‘tarilgan.

Buxoro amirligida yashovchi qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida musulmon ro‘honiylarining o‘rni katta bo‘lgan va aholi oqsuyak va qoralarga bo‘lingan. Aholi ro‘honiylarga pul ko‘rinishida va narzu niyoz va fitr to‘lab turgan[3]. Xalq savdogar, sudxo‘r va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan asoratga solingan. Bunday tabaqalar qoraqalpoqlarning Quyi va o‘rta Sirdaryo bo‘ylarida yashagan paytlaridayoq shakllanib boshlagan edi va amirlik hududiga kelganidan keyin sekin asta kuchaygan. Urug‘ning mulkdor tabaqa vakillari yer uchaskalari va ko‘plab chorva egalariga ega bo‘lib, ularni nazoratda saqlash uchun oddiy ahaoli vakillarni yollaganlar. Tarixiy yozma manbalarga qaraganda, Zarafshon vohasi qoraqalpoqlaridagi eng boy xo‘jliklarda 2000 boshgacha qo‘ylar bo‘lgan. Har bir urug‘da boylar bilan bir qatorda yersiz va chorva mollariga ega bo‘lmagan xo‘jaliklar mavjud bo‘lgan.

XIX asrning 60-70-yillarida Zarafshon vohasidagi yersiz aholi soni ayrim rayonlarda 25 % gacha yetgan. Kambag‘al qatlamlardan yersizlar Buxoro amirligida tobora ko‘payib borgan. Ularnig ko‘pchiligi yarimchi ko‘rinishida bo‘lib, ular boy xo‘jaliklarda ishlab bergani uchun 1/4 miqdorida haq olgan. Yarimchilar asosan boylarningg xo‘jaligida ekin tekinlarga qarash, chorvani boqish va dehqonchilik ishlari va boqa uy-ro‘zg‘or ishlariga qaragan. Yersiz aholining bir qismi yoki kamgina chorvasi bor kishilar boylarning molini boqish, baliq tutish, o‘tin yig‘ish, ko‘mir va tuz tayyorlash bilan shug‘ullangan.

Nurota va Konimex dashtlaridan ko‘chib kelgan qoraqalpoqlarning kichik bir guruhi boshqalarnikidan ancha farq qiladigan tabiiy sharoitlarda yashagan. Bu yerdagi dashtliklarda dehqonchilik xo‘jaligini yuritish uchun sharoit yo‘q edi. Shuning uchun qoraqalpoqlarning bu kichik guruhi qo‘shni qozoqlarning ko‘chmanchi xo‘jaligini o‘zlashtirib, bu yerda asosan mayda chorva, shuningdek, tuya va ot boqishgan. Nurota, G‘ijduvon, Kenemeh bozorlarida o‘z mahsuloti va hunarmandchiligini, mo‘ynalarini sotgan, o‘zlariga yetmagan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini xarid qilganlar. Qoraqalpoqlarning Buxoro xonligi cho‘l hududlaridagi sahrolarda qozoqlar bilan yashab qolgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi tarzda yashaganlar.

Biroq, ular xonlik hududiga (asosan, qishlovlariga) kirib kelishi bilanoq, zakot to‘lashga majbur qilingan. Biroq, XVIII asr oxiriga kelib, amir Shohmurot tomonidan qoraqalpoqlarga boshqa soliqlardan tashqari qo‘sh puli solig‘i o‘rgantilgan. Bu soliq har 50 tanob yer uchun u yerdan foydalansa ham foydalanmasa ham to‘langan. Bu soliqni to‘lash majburiyati qoraqalpoqlarnig o‘troqlik va dehqonchilikka o‘tishini ma’lum darajada tezlashtirgan.[4] Zarafshon vohasida XVIII asr oxiridan boshlab yashab, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qoraqalpoqlarda shu yerdagi o‘zbek qabilalari to‘layotgan soliqlarni to‘lashi shart bo‘lgan Ular, g‘alla, sholi, tariq va makkajo‘xoridan olinadigan xiroj asosan, hosilning 1/3 qismi miqdorida bo‘lgan va ba’zida yarimigacha ham olingan. Bog‘ va ekinzorlardan olinadigan tanob puli (pul solig‘i), chorva mollari va hunarmandchilikdan 2,5 miqdorida zakot olingan.

XIX asrga kelib zakot asosiy soliqlardan biriga aylangan. Uning sababi, qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va bundan tashqari ularda hunarmandchilikning turli xil sohalari keng

taraqqiy etgan edi. To‘qima buyumlar (gilam, namat, olacha va boshqalar), yog‘ochsozlik, teriga ishlov berish kabi sohalar xo‘jalikda muhim o‘rin tutib, bu mahsulotlar atof hududdagi bozorlarga ham chiqarilgan. Ma’lumki, qadimdan O‘rta Osiyo xalqlarining xo‘jaligida xunarmandchilikning turli xisl sohalari juda qadimdan keng taraqqiy etgan. Ulur qatorida qoraqalpoq chorvador aholisi tomonidan teriga ishlov berish va undan mahsulot tayyorlash keng ommalashgan bo‘lgan[5]. Qoraqalpoq qabilalari hunarmandchiligida jun, teri va paxta, kabi xom ashyodan o‘z ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqarish keng yoyilagn bo‘lgan. Hunarmandchilikning bu sohalari Miyonqol atroflarida nisbatan yaxshiroq rivojlangan edi. 1897 yilgi Rossiya imperiyasining aholini umumiy ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, Zarafshon vohasi qoraqalpoq aholisining faqat 5-6 % hunarmandchilikni u yoki bu sohasi bilan mashg‘ul bo‘lganlar.

Harbiy ishlar uchun askariy solig‘i (jul) va boshqa ko‘plab soliqlar mavjud bo‘lgan. Umuman olib qaraganda, soliqlar miqdori turli xil ko‘rinishda yig‘ilgan bo‘lib ular aholiga og‘ir yuk edi. Biroq, uni to‘lash shart bo‘lib, ular ko‘pincha zo‘ravonlik, jazolash va qiynoqlar hisobiga yig‘ib olingan. Amirlik soliq xodimlari (amin) va amir lashkarlari xalqdan yig‘ilgan soliqlar miqdorini hisoblashgan. Shu bilan birgalikda, mahalliy hokimlar amirdan oylik maosh olmagan va xalq hisobidan yashagan. Shuning uchun xalqdan imkon qadar, turli yo‘lar bilan ko‘proq soliq undirishga harakat qilingan.

Urush bo‘lmagan yillarda mahalliy boylar va o‘rnatilgan soliqlar halqni asoratga solib turgan. 1811-yil qoraqalpoklarning bir biyi XIX asrning boshlarida juda katta, hatto 500 dan ko‘p xo‘jalikni boshqargan edi. Lekin, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida eng keksa obro‘li biylar 100-250 xo‘jalikni boshqaradigan bo‘lib qoladi. Chunki,o‘sha davrga kelganda, qoraqalpoqlar bir tarafdan o‘z qabila boshliqlari – boylar, ro‘xoniylar va ikkinchi tomondan xonlik tomonidan solingan majburiyatlar asoratiga tushib, boshqa xalqlar kabi mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarishiga majbur bo‘lgan.

Bunday qo‘zg‘olonlardan 1687 yilda Miyonqoldagi qoraqalpoqlar va xitoy-qipchoqlar isyoni eslatiladi[6]. Ma’lumki, Buxoro amirligi hududi XIX asr birinchi choragida amir va uning amaldorlariga qarshi kurash maydoniga aylangan edi. Umumiy soliqlar va yig‘imlar hamda har xil harbiy majburiyatlar, doimiy urushlar aholini xonavayron qilgan. Amlokdorlarning o‘zboshimchaligi kuchayib borgan. 1821-1825 yillarda Zarafshon vodiysining o‘rta qismida (Miyonqolda) o‘zbek urug‘lari o‘rtasida qo‘zg‘olon ko‘tariladi[7]. Uning asosiy tashkilotchilari «yetti qabila» tarkibiga kiruvchi xitoy-qipchoqlar edilar. Ko‘tarilgan bu qo‘zg‘olonga tarixda xitoy-qipchoqlar nomi bilan bog‘lansada, unda ko‘plab qoraqalpoq qabila vakillari ham ishtirok etgan edilar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, qoraqalpoq urug‘lari Zarafshon daryosi atroflariga ko‘chib kelgan vaqtlarida hali urug‘ qabilachilik tuzumida yashaganlar. Ular vohaga dastlab, bir-birlaridan alohida bo‘lib, chorva va dehqonchilik uchun qulay adir va to‘qaylar atrofi bo‘ylab joylashganlar. Ko‘chib o‘tish davrida qaroqalpoqlarning xo‘jaligida, ayniqsa boylari uchun, eng asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa chorvachilik edi. Qoraqalpoqlarning kelib joylashgan hududlari mahalliy axoli yashaydigan qishloq va ovullardan uzoqda, asosan, daryo vohalari bo‘ylab joylashgan edi. Qoraqalpoq qabila boshliqlarning Buxoro amirligida yashovchi qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida musulmon ro‘honiylarining o‘rni katta bo‘lgan va aholi oqsuyak va qoralarga bo‘lingan. XIX asrga kelib zakot asosiy soliqlardan biriga aylangan. Uning sababi, qoraqalpoqlarda chorva mollari ko‘p bo‘lgan va bundan tashqari ularda hunarmandchilikning turli xil sohalari keng taraqqiy etgan edi. Bu davrga kelganda, qoraqalpoqlar bir tarafdan o‘z qabila boshliqlari – boylar, ro‘xoniylar va ikkinchi tomondan xonlik tomonidan solingan majburiyatlar asoratiga tushib, boshqa xalqlar kabi mavjud tuzumga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarishiga majbur bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Элмуродов Н. Зарафшон воҳаси ўзбек халқи этник гуруҳлари.–Самарқанд, 2008. –Б. 91.

2.Толстова Л.С. Жокаргы каракалпаклар... – Б. 62.

3.Турекеев Қ. Ж. Қорақалпоқларнинг мотам маросимларида магик тасаввурларнинг намоён бўлиши. O‘zbekiston etnologiyasi: an’analar va innovatsiyalar”. respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent 2022 .– B.43-47.

4.Толстова Л.С. Материалы этнографического обследования группы "каракалпак" Самаркандской области Узбекской ССР. – М., 1961, №3. – С. 39.

5.Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент.: Фан, 1974. – С. 212-213.

6.Иванов П.П. Восстание хитай-кипчаков в Бухарском ханстве в 1821-1825 гг. – М-Л. 1937.– С.8-10.

7.Пардаев К.К. Ўрта Зарафшон (Миёнқол) воҳасининг XIX – XX аср бошларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – Б.12-41.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA “AQL MARKAZLARI”NING AHAMIYATI

Javokhir Egashov Inomjon o‘g‘li
Jizzax Davlat Pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda Yangi O‘zbekiston sharoitida “aql markazlari”ning institutsional va funksional ahamiyati kompleks tarzda ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashuv va siyosiy-modernizatsiya jarayonlari fonida davlat boshqaruvi tizimida ilmiy-tahliliy institutlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi asoslab beriladi. “Aql markazlari” tushunchasi zamonaviy siyosatshunoslik yondashuvlari asosida izohlanib, ularning davlat siyosatini shakllantirish, ekspertiza qilish, monitoring va baholashdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot ishi davomida sohaning dolzarb muammolari, xususan, malakali tahliliy kadrlar yetishmovchiligi va institutsional rivojlanishdagi cheklovlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: “aql markazlari”, think tank, institutsional transformatsiya, siyosiy modernizatsiya, davlat boshqaruvi, strategik tahlil, normativ-huquqiy mexanizmlar, globallashuv, ilmiy ekspertiza, kadrlar salohiyati, siyosiy qarorlar qabul qilish, tahliliy institutlar

Biz yashayotgan davr tezlik bilan o‘zgarib bormoqda. Bu jarayon esa tabiiyki zamon zayliga moshlashuvni, dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuvni hamda ma’lum bir miqdorda muvozanat saqlashni ham talab etadi. Albatta, bir vaqtning o‘zida jahon bilan aloqa o‘rnatish hamda milliy manfaatlarni himoya qilgan holda muvozanat saqlash, iqtisodiy barqaror rivojlanish, mamlakat ichki va tashqi muammolarini bartaraf etish oson ish emas. Avvalo, buning uchun dunyo davlatlari tajribasini o‘rganish, ularni milliy mentalitetimizga mosligini aniqlash hamda bizga zararli jihatlarini bekor qilgan holda mamlkaat manfaatlariga moslashtirib yangi konsepsiyalar, strategik dasturlar ishlab chiqish, ularning ilmiy-amaliy jihatlarini inobatga olish muhim. Bu jarayonlarda albatta “aql markazlari”ga ehtiyoj seziladi. So‘nggi yillarda yurtimiz ilmiy jamoatchiligi ko‘p murojaat qilayotgan bu turdagi institutlar O‘zbekiston uchun yangi bo‘lishi mumkin, ammo jahon tajribasiga qarasak, “aql markazlari” allaqachon qudratli davlatlarning eng muhim funksiya bajaruvchi bo‘g‘iniga aylangan.

Yurtimizda bu kabi tahliliy tuzilmalar borasida ham bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotchilardan biri Eldor Tulyakov “O‘zbekistonda “aql markazlari”ning davlat boshqaruvidagi ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari” PhD dissertatsiyasini[2] yoqlagan va bu dissertatsiyada “aql markazlari”ning yurtimizda tashkil topishi, rivojlanishi, davlat siyosatiga ta’sirini tadqiq etgan bo‘lsa, Jizzax Davlat Pedagogika Universitetida faoliyat yurituvchi siyosatshunos olim, siyosiy fanlar falsafa doktori(PhD), dotsent To‘rayev Abror Saloxiddinovich esa bu mavzuda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirgan

hamda hozirda yurtimizda aynan bu mavzu doirasida ish olib borayotgan tadqiqotchilardan hisoblanadi. Uning muallifligida nashr etilgan “AQShda “aql markazlar”ning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari”[3] hamda “AQShda “aql markazlar”ning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan[4] maqolalarida “aql markazlari” faoliyati batafsil tahlil etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mavzuyimizning asosiy qismiga to‘xtalishdan oldin, avvalo “aql markazlari” nima ekanligini aniqlashtirib olishimiz zarur. Bu sohada tadqiqot olib borgan taniqli tadqiqotchi Jeyms Makganning tar’rificha, “aql markazlari” davlat siyosatini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan tahlil va tavsiyalar beruvchi mustaqil tadqiqot institutlari hsioblanadi. [5]. Undan tashqari ayni shu sohada tadqiqot olib brogan barcha olimlarning ta’riflarini umumlashtirib aytganda, “aql markazlari” – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, diniy, ma’naviy jihatdan tahliliy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, olingan tahlillar asosida esa tegishli strategiya va muammolar uchun yechim ishlab chiquvchi muhim tuzilmalar hisoblanadi. Bugungi kunda Yurtimizda bunday markazlarga ehtiyoj sezilmoqda va buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ta’kidlab o‘tgan[1]: “Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy “aql markazlari”mizni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta’sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur”. Shu jihatdan olib “aql markazlari”ning zarurligi masalasini quyidagicha izohlash mumkin: 2017-yildan boshlab O‘zbekistonda boshlangan keng ko‘lamli siyosiy va institutsional islohotlar jarayoni “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi bilan uyg‘un holda davlat boshqaruvi, strategik rejalashtirish va tahliliy faoliyat tizimini tubdan yangilashni taqozo etdi. Yangi siyosiy tafakkur sharoitida “aql markazlari”ning roli oddiy maslahat beruvchi yoki tor doiradagi ilmiy institut maqomidan chiqib, davlat siyosatini shakllantirish, monitoring qilish va baholash jarayonining ajralmas institutiga aylandi. Bu transformatsiya bir vaqtning o‘zida institutsional va funksional takomillashuvni anglatadi: ya’ni tuzilma, maqom va boshqaruv mexanizmlarining yangilanishi bilan bir qatorda, vazifalar doirasining kengayishi va metodologik yondashuvlarning modernizatsiyasi ham yuz berdi. Avvalo, institutsional jihatdan 2017–2025-yillar oralig‘ida tahliliy markazlarning maqomi va vakolatlari aniqroq belgilandi. Davlat strategiyalarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish, islohotlar samaradorligini monitoring qilish kabi funksiyalar tizimli ravishda “aql markazlari” zimmasiga yuklatildi. Bu jarayonda yurtimizda mavjud “aql markazlari”dan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti faoliyati yangi bosqichga ko‘tarildi. Institut nafaqat mintaqaviy xavfsizlik va tashqi siyosat masalalarini tahlil qilish, balki ichki islohotlarning konseptual asoslarini ishlab chiqishda ham faol ishtirok eta boshladi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish hozirda har doimgidan ham muhim. Xalqaro miqyosda nizolarning kuchayishi, globallashuv sharoitida mamlakatlarning o‘zaro bog‘liqligi, ichki muammolarni bartaraf etish hamda mamlakatni yanada yuksaltirish har doimgidan ham dolzarb hisoblanadi. Bu borada albatta, hozirda yurtimizda mavjud “aql markazlari” tegishlicha faoliyat olib borishmoqda. Ammo, Prezidentimizning nutqlaridan ham ma’lumki, bu kabi tahlil markazlarini yanada kuchayitirish, ularga bo‘lgan e’tiborni oshirish zarur. Hozirda bu borada mavjud eng katta muammolardan biri esa, shubhasiz, kadrlar masalasi. Yuksak saviyali, ilmli, tahliliy fikrlashi kuchli bo‘lgan kadrlargina mamlkatni kuchl “aql markazlari” bilan ta’minlay oladi. Malakali kadrlarni tayyorlash uchun esa ta’lim tizimini rivojlantirish, “aql markazlari”da faoliyat yuritayotgan kadrlarni tajriba almashish maqsadida, dunyoda yetakchi tashkilotlarga yuborish hamda tahliliy jarayonlarni yanada kuchaytirish va bu borada ishtiyoqmand kadrlarni rag‘batlantirib boorish zarur.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “aql markazlari” mamlakatimiz kelajagi uchun muhim. Ularni yanada kuchaytirish, safini malakali kadrlar bilan to‘ldirib boorish, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir//Шавкат Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир
2. Tulyakov E. “O‘zbekistonda aql markazlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari”. PhD dissertatsiyasi. JIDU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi dsc.11/10.01.2024.yu.24.04 raqamli ilmiy kengashning yuridik fanlar falsafa doktori (phd) himoyalari o‘tkazildi//JIDU huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.11/10.01.2024.yu.24.04 raqamli Ilmiy Kengashning yuridik fanlar falsafa doktori (PhD) himoyalari o‘tkazildi - UWED
3. To‘rayev A. The interpretation of the “Pax Americana” concept by neoconservative think tanks//Oriental Journal of History, Politics and Low. 2026. pp-376-384
4. To‘rayev A. AQShda “Aql markazlar”ning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari//Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. 2026. pp-176-182
5. Jeyms Makgan. How Think Tanks Shape Social Development Policies. Ilmiy monografiya. Philadelphia. University of Pennsylvania Press. 2014

INKLYUZIV SINFLARDA OTA-ONA, O‘QITUVCHI, VA PSIXOLOG HAMKORLIGINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Barlibayeva Diyora
Guliston Pedagogika Instituti magistranti
Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD) dotsent
D.Yu.Samatova

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida ota-ona, o‘qituvchi va psixolog hamkorligining zamonaviy pedagogik tizimdagi o‘rni va ahamiyati keng tahlil etiladi. Inklyuziv sinflarda turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli moslashuvi ko‘p jihatdan oila, maktab va mutaxassislar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka bog‘liqdir. Ushbu jarayonda psixologik qo‘llab-quvvatlash, individual yondashuv va ijtimoiy moslashuvni ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolada hamkorlikning pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari ilmiy manbalar asosida yoritilib, inklyuziv muhitda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar hamda ularning bolalar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-ona, o‘qituvchi va psixologning o‘zaro hamjihatligi orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta’minlash, ta’lim samaradorligini oshirishning nazariy asoslari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, ijtimoiy moslashuv, ota-ona ishtiroki, pedagogik hamkorlik, psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Inklyuziv sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional moslashuvi ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat akademik natijalarini, balki ularning jamiyatga integratsiyasini ham sezilarli darajada yaxshilaydi[1]. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalari rivojlangan o‘quvchilarning o‘qish samaradorligi o‘rtacha 11% ga yuqori bo‘lishi aniqlangan[2]

Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning jamoadagi o‘rnini topishi, tengdoshlari bilan samarali muloqotga kirishishi va o‘zini erkin his qilishi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktablarda psixologik

qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan hollarda o‘quvchilarda stress darajasi pasayib, moslashuv jarayoni tezlashadi.[3]

Shu nuqtai nazardan, o‘quvchi va psixolog o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Ushbu maqolaning maqsadi — inklyuziv sinflarda o‘quvchi va psixolog hamkorligining ijtimoiy-emotsional moslashuvni ta’minlashdagi pedagogik ahamiyatini tahlil qilishdir.

Mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik asosini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida keng qo‘llanilayotgan bir qator yondashuv va paradigmalar tashkil etadi. Xususan, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional moslashuvini o‘rganishda shaxsga yo‘naltirilgan, ijtimoiy-konstruktivistik hamda tizimli yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi Carl Rogers g‘oyalariga asoslanib, har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olishni nazarda tutadi.[4] Ushbu yondashuv inklyuziv ta’lim sharoitida ayniqsa muhim bo‘lib, alohida ehtiyojli o‘quvchilarning imkoniyatlarini ochib berish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va ta’lim jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-konstruktivistik paradigma esa Lev Vygotsky ta’limotiga tayanib, bilim va ko‘nikmalar ijtimoiy muhitda, muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishini asoslab beradi.[5] Mazkur yondashuv doirasida inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, tengdoshlar bilan hamkorlikda o‘rganish jarayoni hamda ijtimoiy muhitning rivojlanishga ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim paradigmasi barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, diskriminatsiyasiz ta’lim muhitini shakllantirish g‘oyalariga asoslanadi va UNESCO tomonidan ilgari surilgan xalqaro tamoyillar bilan uyg‘unlashadi. Ushbu paradigma ta’lim jarayonida moslashuvchanlik, individual yondashuv va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishni talab etadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tizimli yondashuv ham muhim metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi o‘qituvchi, psixolog va ota-onalar hamkorligidan iborat yagona tizim doirasida amalga oshadi.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan pedagogik paradigmalar inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional moslashuvini chuqurroq anglash va samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashga xizmat qildi.

Inklyuziv sinflarda ta’lim samaradorligi faqatgina metodik yondashuvlarga emas, balki ota-ona, o‘qituvchi va psixolog o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka ham bevosita bog‘liqdir. Mashhur pedagog-psixolog Lev Vygotsky o‘zining sotsiokultural nazariyasida bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlik jarayonida amalga oshishini asoslab bergan. U “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi orqali bolaning imkoniyatlarini to‘laqonli ochish uchun kattalar va tengdoshlar bilan maqsadli hamkorlik zarurligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya inklyuziv sinflarda mutaxassislar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, amerikalik tadqiqotchi Joyce Epstein maktab va oila hamkorligining olti modeli konsepsiyasini ishlab chiqib, o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvi ota-onalarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokiga bevosita bog‘liq ekanligini isbotlagan.[6] Uning fikricha, “samarali hamkorlik o‘quvchi rivojlanishining barqarorligini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshiradi”. Mazkur nazariya inklyuziv ta’lim sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayonda individual yondashuv va muntazam psixologik qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

Inklyuziv ta’limning psixologik asoslari ham muhim ilmiy manbalarga tayangan holda shakllangan. Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, bola rivojlanishi bir necha ijtimoiy tizimlar — oila, maktab, jamiyat va madaniy muhit o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.[7] Demak, inklyuziv sinf sharoitida o‘quvchining muvaffaqiyati mazkur tizimlar o‘rtasidagi hamjihatlik va uzviylikka bog‘liqdir. Oila va maktab o‘rtasidagi nomuvofiqlik esa bolaning ijtimoiy-emotsional moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalasi O‘zbekiston ta’lim siyosatida ham ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarda inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish, maxsus pedagog va psixologlar faoliyatini kuchaytirish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash vazifalari belgilangan.[8]

Shu bois, inklyuziv sinflarda ota-ona, o‘qituvchi va psixolog hamkorligining pedagogik ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqotning maqsadi — inklyuziv ta’lim sharoitida samarali hamkorlikning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning pedagogik mexanizmlarini ochib berish hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional va akademik rivojlanishiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi va ta’limdagi muvafaqqiyatga erishishi ta’lim jarayonidagi ota-ona, o‘qituvchi va psixolog o‘rtasidagi samarali hamkorlikka bog‘liq. Bu hamkorlik asosida o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash va unga mos yondashuvni tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birgalikda, inklyuziv sinflarda faqat metodik yondashuvlar emas, balki oil ava maktab o‘rtasida uzviy aloqa zarur hisoblanadi. Shu jarayon orqali o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ta’limga bo‘lgan qiziqishi oshadi.

Umuman olganda, inklyuziv ta’lim samaradorligini ta’minlash va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun barcha qatnashchilarning yagona tizim asosida-integratsiyalashgan holda ishlashini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. Paris: UNESCO Publishing, 2009.

2.Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B.The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions.Child Development, 2011, Vol. 82(1), pp. 405–432.

3.OECD. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing, 2019.

4.Rogers C.R. Freedom to Learn. Columbus, OH: Merrill Publishing Company, 1969.

5.Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

6.Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. Boulder: Westview Press, 2011.

7.Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

8.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. Toshkent, 2020.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARDA PEDAGOGIK KO‘NIKMALARNING SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Isayeva Guli Parpiyevna
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi,
Pedagogika fanlari nomzodi, professor
Jo‘raqulova Saida Akramqul qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli ta’lim vositalarining o‘quvchilarning kognitiv faolligi, mustaqil ishlash qobiliyati, refleksiv tafakkuri hamda kommunikativ kompetensiyalariga ta’siri o‘rganildi. Tajriba-sinov natijalari asosida raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishi va ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashi aniqlandi. Shu bilan birga, maqolada kognitiv yuklama, diqqatning chalg‘ishi va individual psixologik farqlar kabi omillar ham tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari raqamli ta’limni samarali tashkil etish va o‘quvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, pedagogik ko‘nikmalar, pedagogik kompetensiya, kognitiv faollik, refleksiv tafakkur, o‘quv motivatsiyasi, metakognitiv ko‘nikmalar, interaktiv ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, individual yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar olib kirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida an’anaviy ta’lim shakllari asta-sekin raqamli ta’lim muhitiga integratsiyalashib bormoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim olish uslublarini, o‘qituvchining pedagogik faoliyatini hamda ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ta’lim sifati nafaqat bilim hajmi bilan, balki o‘quvchining mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, o‘z faoliyatini boshqarish va samarali muloqot qilish kabi kompetensiyalari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik ko‘nikmalar o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida, uning kelajakdagi kasbiy faoliyatida va ijtimoiy moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta’lim muhiti esa ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, chunki u interaktivlik, moslashuvchanlik va individuallashtirish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini berish bilan birga, o‘quvchilarning psixologik holatiga, motivatsiyasiga va kognitiv faoliyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli ta’lim muhitida pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish zarurati ortib bormoqda. Bu esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida raqamli ta’lim muhitining mohiyatini ochib berish, pedagogik ko‘nikmalar tushunchasini aniqlashtirish, ularni shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilish va amaliy natijalarni baholash belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning pedagogik ko‘nikmalari rivojlanish dinamikasi o‘rganilib, raqamli ta’lim muhitining samaradorligi baholandi. Kutilayotgan ilmiy yangilik shundan iboratki, maqolada raqamli ta’lim muhitida pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning kompleks modeli ishlab chiqilib, uning pedagogik-psixologik asoslari tizimli ravishda yoritiladi. Tadqiqot natijalari ta’lim amaliyotida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoni an’anaviy shakldan raqamli platformalarga ko‘chib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, bilim berish usullari hamda o‘quv faoliyatining psixologik mexanizmlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o‘rganish, uning psixologik omillarini tahlil qilish va samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta’lim muhiti deganda, o‘quv jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan elektron platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari, multimediya vositalari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar hamda interaktiv resurslar majmuasi tushuniladi. Ushbu muhit o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, kreativ yondashuvni shakllantirish va bilimlarni individual tempda o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli muhit pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishda yangi psixologik talablarni yuzaga keltiradi. Jumladan, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, axborotni tanlash va tahlil qilish kabi metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati ortadi. Pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida psixologik omillar muhim o‘rin tutadi. Raqamli muhitda o‘quvchilarning motivatsiyasi, diqqatni jamlash darajasi, kognitiv yuklama hamda emotsional holati o‘quv natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va vizual materiallar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishda samarali bo‘lsa-da, ortiqcha axborot kognitiv ortiqcha yuklamaga olib kelishi mumkin. Shu sababli raqamli ta’lim resurslarini loyihalashda kognitiv psixologiya tamoyillariga amal qilish zarur. Mazkur yondashuv o‘quv materiallarini soddalashtirish, muhim ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish va o‘quvchining idrok imkoniyatlariga moslashtirishni talab etadi. Raqamli ta’lim muhitida pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillar ham muhim hisoblanadi. Onlayn hamkorlik, virtual guruhlar va forumlar orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishib, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayon ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanib, bilimning ijtimoiy muhitda shakllanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, raqamli muhitda yuzma-yuz muloqotning yetishmasligi ba’zi o‘quvchilarda ijtimoiy izolyatsiya yoki motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi tomonidan doimiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash va qayta aloqa ta’minlanishi zarur. Pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning yana bir muhim jihati bu refleksiya jarayonidir. Raqamli platformalar o‘quvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarda refleksiv tafakkurni rivojlantirib, ularning pedagogik kompetensiyasini oshiradi. Ayniqsa, elektron portfoliolar, onlayn testlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari refleksiya jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhiti individual yondashuvni amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Adaptiv o‘quv tizimlari yordamida har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish tezligiga mos ravishda o‘quv materiali taqdim etiladi. Bu esa pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishda differensial yondashuvni ta’minlab, ta’lim samaradorligini oshiradi. Psixologik jihatdan bunday yondashuv o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini kuchaytiradi. Natijalar bo‘limida raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi va olingan ma’lumotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotda nazorat va tajriba guruhlari tashkil etilib, ularda o‘quvchilarning pedagogik ko‘nikmalari rivojlanish darajasi bir necha mezonlar

asosida baholandi. Jumladan, kognitiv faollik, mustaqil ishlash ko‘nikmasi, refleksiv tafakkur, kommunikativ faoliyat va motivatsiya darajasi asosiy indikatorlar sifatida tanlab olindi. Quyidagi jadvalda tajriba boshida va yakunida olingan natijalar foiz ko‘rsatkichlarida keltirilgan.

1-jadval. O‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalar shakllanishining dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi (boshlang‘ich)**	**Nazorat guruhi (yakuniy**	**Tajriba guruhi (boshlang‘ich**	**Tajriba guruhi (yakuniy)**
Kognitiv faollik	48%	55%	47%	78%
Mustaqil ishlash ko‘nikmasi	45%	52%	44%	80%
Refleksiv tafakkur	42%	50%	41%	76%
Kommunikativ faoliyat	50%	58%	49%	82%
O‘quv motivatsiyasi	46%	54%	45%	85%

Jadval natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilgan. Ayniqsa, o‘quv motivatsiyasi va kommunikativ faoliyat ko‘rsatkichlari eng yuqori darajada oshganligi qayd etildi. Bu holat raqamli ta’lim muhitida qo‘llanilgan interaktiv metodlar, multimedia vositalari va onlayn hamkorlik platformalarining o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida ham ijobiy o‘zgarishlar mavjud bo‘lsa-da, ular nisbatan past darajada ekanligi aniqlandi.Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini boshqarish va refleksiya qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, kommunikativ faoliyatning ortishi o‘quvchilarning ijtimoiylashuv darajasini oshirib, ularning guruhda ishlash kompetensiyasini mustahkamlaydi. Psixologik jihatdan esa o‘quv motivatsiyasining yuqori darajaga ko‘tarilishi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ta’lim jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlaydi. Natijalar tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli ta’lim muhitidan maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchining roli ham transformatsiyaga uchraydi. U endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki fasilitator, mentor va yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa o‘qituvchidan yuqori darajadagi raqamli kompetensiya, pedagogik mahorat va psixologik sezgirlikni talab etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning faoliyatini boshqarishi va motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi lozim.

Olingan natijalar raqamli ta’lim muhitining o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi, biroq ushbu jarayonni chuqurroq tahlil qilish bir qator muhim pedagogik va psixologik jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Avvalo, tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi raqamli vositalarning interaktivlik, individuallashtirish va tezkor qayta aloqa kabi afzalliklari bilan izohlanadi. Bu holat o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga faol jalb etilishi va ularning ichki motivatsiyasi ortishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa mustaqil ishlash ko‘nikmasi va refleksiv tafakkur darajasining oshishi raqamli ta’lim muhitining asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatlari rivojlanganini anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan, bunday o‘sish metakognitiv jarayonlarning faollashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarni ongli o‘rganishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, kommunikativ faoliyatning ortishi virtual muhitda ham samarali ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish mumkinligini ko‘rsatadi.Biroq, natijalarni tanqidiy tahlil qilish ayrim cheklovlarni ham yuzaga chiqardi. Xususan, ba’zi o‘quvchilarda diqqatning tez chalg‘ishi, ortiqcha axborot oqimi sababli kognitiv yuklamaning oshishi kuzatildi. Bu esa barcha o‘quvchilar raqamli muhitga bir xil darajada moslasha olmasligini ko‘rsatadi. Demak, raqamli ta’limni tashkil etishda o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Aks holda, texnologik imkoniyatlar kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shuningdek, muhokama jarayonida o‘qituvchining roli alohida e’tiborni talab etishi aniqlandi. Raqamli muhitda o‘qituvchi faqat axborot yetkazuvchi emas, balki o‘quv

jarayonini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Agar o‘qituvchi yetarli darajada raqamli kompetensiyaga ega bo‘lmasa, ta’lim jarayonining samaradorligi pasayishi mumkin. Shu sababli pedagoglarning malakasini oshirish va ularni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash muhim vazifa sifatida qaraladi. Natijalar boshqa ilmiy tadqiqotlar bilan solishtirilganda ham o‘xshash tendensiyalarni ko‘rsatadi, ya’ni raqamli ta’lim muhitining o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqilligi va faolligiga ijobiy ta’siri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan. Shu bilan birga, ayrim manbalarda qayd etilganidek, raqamli ta’limni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish yanada yuqori samaradorlikni ta’minlashi mumkin. Bu esa aralash ta’lim modelining ustunligini yana bir bor asoslaydi. Umuman olganda, muhokama natijalari raqamli ta’lim muhitida pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish samarali bo‘lishi uchun tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bunda texnologik vositalardan maqsadli foydalanish, psixologik omillarni hisobga olish va pedagogik strategiyalarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligini talab etadi. Ushbu jarayonda kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarni hisobga olish, zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda individual yondashuvni ta’minlash ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishning ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, T. (Ed.). (2008). *The theory and practice of online learning* (2nd ed.). Athabasca University Press.
2. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. W.H. Freeman and Company.
3. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning* (4th ed.). Wiley.
4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry, 11*(4), 227–268.
5. Garrison, D. R., Anderson, T., & Archer, W. (2000). Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education. *The Internet and Higher Education, 2*(2–3), 87–105.
6. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING METODIK TAYYORGARLIGIDA JADIDLAR MEROSI VA RAQAMLI PEDAGOGIKANING O‘RNI

Islamova Durdonaxon Rustamxon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadallashuvi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirish muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari va hozirgi davr raqamli pedagogikasi o‘rtasida kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan metodik uzviy bog‘liqlikni aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida jadidlar merosining zamonaviy o‘qituvchi metodikasiga integratsiya imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalarda jadidlar ilgari surgan faol metodlar (munozara, guruhli tahlil, sahnalashtirish) raqamli muhitda talabalar faolligini 35–40% ga oshirishga xizmat qilishi, pedagogik taktikani boyitishi isbotlandi. Maqolada shuningdek, raqamli pedagogik kompetensiyaning tuzilmasi, o‘qituvchining reflektiv yondashuvi va pedagogik kreativligi masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, jadidlar merosini raqamli ta’lim muhitiga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, jadidchilik, metodik tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, pedagogik taktika, refleksiya, pedagogik kreativlik.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchilardan nafaqat texnik savodxonlikni, balki yuqori darajadagi kasbiy-metodik kompetensiyani talab etmoqda [1]. Kompetensiya tushunchasi o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni amaliyotda uyg‘unlashtira olish qobiliyatini ifodalaydi va u shaxsning professional faoliyatida natijavorlikka erishishini ta’minlaydi [2]. Raqamli pedagogika esa o‘qituvchidan interaktiv muhitda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni, axborot-kommunikativ savodxonlikni va pedagogik kreativlikni shakllantirishni taqozo etadi [3]. Jadid ma’rifatparvarlari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, G‘ulom Zafariy va boshqalar — o‘z davrlarida ta’limni milliy ongni shakllantirish, axloqiy komillikka erishish va shaxs erkinligini ta’minlash vositasi sifatida ko‘rishgan [4]. Ular ilgari surgan faol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimi zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talablari bilan mazmunan uyg‘unlashadi [5]. Shu sababli, jadidlar merosini zamonaviy raqamli ta’lim muhitiga integratsiya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy o‘qituvchining metodik tayyorgarligi nafaqat yangi texnologiyalarni egallashdan, balki pedagogik an’analar va milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni zamonaviy sharoitlarda qayta talqin qilishdan ham iborat [6]. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv doirasida o‘qituvchining metodik taktikasini shakllantirishda jadidlar pedagogik merosining o‘rni yetarlicha o‘rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida zamonaviy o‘qituvchining metodik tayyorgarlik davomiyotini tahlil qilish, jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari va hozirgi davr raqamli pedagogikasi o‘rtasida metodik uzviy bog‘liqlikni aniqlash hamda integratsiya imkoniyatlarini ilmiy asoslashdir.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Kompetensiyaviy yondashuvga bag‘ishlangan tadqiqotlar xalq ilm-fanida keng yoritilgan. Xususan, A.V. Xutorskoy kompetensiyani «shaxsning ma’lum faoliyat sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar majmuasi» deb ta’riflagan [7]. D. A. Ivanov, N. V. Kuzmina, V. A. Slastenin kabi olimlar o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining tuzilmasi va shakllanish mexanizmlarini tadqiq qilishgan [8; 9]. Raqamli pedagogika sohasida J. P. Gisbert, M. Area Moreira, L. Gomez kabi tadqiqotchilar raqamli kompetensiyaning komponentlarini, ularni baholash mezonlarini ishlab chiqishgan [10; 11]. O‘zbekiston olimlari — M. M. Rahimova, N. N. Normatov, Z. K. Karimova va boshqalar — raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalalarini o‘rganishgan [12; 13]. Jadidchilik harakati pedagogik merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda A. Qayumov, O. Ziyotov, R. Raximov kabi olimlar jadidlar ilgari surgan usul va metodlarning zamonaviy ahamiyatini ko‘rsatishgan [14; 15]. Biroq, jadidlar pedagogik qarashlari va zamonaviy raqamli pedagogika o‘rtasida kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan sistemali tadqiqotlar yetarli emas.

Tadqiqotda mavzuga doir ilmiy manbalarni o‘rganish- adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil-jadidlar va zamonaviy o‘qituvchilarning pedagogik taktikasini taqqoslash, jadidlar metodlarini raqamli muhitda qo‘llash va ularning samaradorligini baholash kabi metodlardan qo‘llanildi.

Natija. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijalarini nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan, balki shaxsning hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati bilan belgilaydi [16]. Raqamli pedagogika esa ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik maqsadlarda samarali qo‘llash bilan bog‘liq fan sohasi hisoblanadi [20]. Raqamli pedagogik kompetensiya quyidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi: - axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish bilimi va ko‘nikmalari; - raqamli ta’lim muhitini yaratish va boshqarish qobiliyati; - elektron ta’lim resurslarini yaratish, baholash va tarqatish mahorati; - raqamli axborot xavfsizligi va axloqiy me’yorlarni bilish [21]. Kompetensiyaviy yondashuv va raqamli pedagogikaning integratsiyasi o‘qituvchidan an’anaviy pedagogik qadriyatlarni saqlab qolish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishni talab qiladi. Ayniqsa, bu yerda jadid ma’rifatparvarlarining merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning asosiy

maqsadi milliy ongni uyg‘otish, zamonaviy ilm-fan orqali jamiyatni takomillashtirish va mustaqil shaxsni tarbiyalash edi [22].

Bu xususiyatlar zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talablariga to‘la mos keladi. Chunki kompetensiyaviy yondashuv ham shaxsning faoliyatini, mustaqilligini, axloqiy mas’uliyatini va ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlashga qaratilgan [21].

1 Jadval

Jadidlar pedagogik qarashlarining metodik xususiyatlari

Metodik xususiyat	Mazmuni	Asosiy g‘oyalar
Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv	Ta’lim har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlariga mos holda tashkil etiladi	Mahmudxo‘ja Behbudiy – “har bir bolaning tabiati, qobiliyati va iste’dodiga qarab” ta’lim berish
Faol metodlardan foydalanish	Yodlashdan voz kechib, munozara, musobaqa, sahnalashtirish, kashfiyot kabi metodlarni qo‘llash	Munavvar qori Abdurashidxonov – “bola o‘zi o‘rgansin, o‘zi kashf etsin”
Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya	Ta’lim axloqiy komillik, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiladi	G‘ulom Zafariy – “ta’lim millatning kelajagi”
Dunyoviy va ilmiy yondashuv	Diniy ta’lim bilan birga zamonaviy fanlarni (matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya) o‘qitish	Jadid maktablari konsepsiyasi
Axloqiy tarbiyaning ustuvorligi	Ta’lim jarayoni axloqiy tarbiya bilan uyg‘un holda olib boriladi, har bir dars tarbiyaviy mazmunga ega bo‘ladi	Jadid pedagogikasining umumiy tamoyili

Zamonaviy o‘qituvchining metodik taktikasi - bu o‘qituvchining dars jarayonida maqsadga erishish uchun qo‘llaydigan aniq harakatlar, usullar va vositalar majmuasidir [22].

2 Jadval

Metodik taktikani shakllantiruvchi omillar

Omil	Mazmuni	Metodik taktikaga ta’siri
Ta’lim standartlari va kompetensiyalar	Davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar	Dars mazmunini va maqsadini aniqlaydi, o‘qituvchining faoliyatini yo‘naltiradi
Talabalar xususiyatlari	Talabalarning yoshi, bilim darajasi, qiziqishlari va motivatsiyasi	Metod va usullarni tanlashni belgilaydi, individual yondashuvni talab qiladi
Ta’lim muhiti	An’anaviy, raqamli, aralash yoki masofaviy ta’lim shakllari	Ta’lim texnologiyalarini va vositalarni moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi
Pedagogik kreativlik	O‘qituvchining yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyati	Darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi
Refleksiya qobiliyati	O‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va takomillashtirish	Metodik taktikani doimiy ravishda rivojlantirib borishni ta’minlaydi
Raqamli kompetensiya	Raqamli vositalarni bilish va ularni pedagogik maqsadlarda qo‘llash ko‘nikmasi	Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi

3 Jadval

Jadidlar va zamonaviy o‘qituvchilarning pedagogik taktikasi

Pedagogik taktika komponenti	Jadidlar yondashuvi	Zamonaviy o‘qituvchilar yondashuvi	Integratsiya imkoniyatlari
Ta’lim vositalari	Yangi usul maktablari, darsliklar, jadvallar, ko‘rgazmalar	Raqamli platformalar	Jadid darsliklarini raqamlashtirish, interaktiv elektron darsliklar yaratish
Metodika	Teatr, munozara, dramatik o‘qish, musobaqa, kashfiyot usuli	Gamifikatsiya, virtual laboratoriyalar, loyiha metodi	Jadid metodlarini raqamli muhitda qo‘llash
Ta’lim maqsadi	Milliy uyg‘onish, axloqiy tarbiya, mustaqil shaxs	Kompetensiyaviy yondashuv, kritik fikrlash, hayot davomida o‘qish	Milliy qadriyatlar asosida kompetensiyalarni rivojlantirish
Yondashuv	Shaxsga yo‘naltirilganlik, tabiiy rivojlanishga hurmat	Individual, interfaol, differentsial va inkluziv yondashuv	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni raqamli muhitda kuchaytirish (AI asosida)
Baho berish	O‘zini-o‘zi baholash, rivojlanishni kuzatish	Formativ baholash, e-portfolio, o‘z-o‘zini baholash	Kuzatuvni raqamli baholash tizimlari bilan integratsiya qilish
Tarbiya vazifasi	Axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, mehnatsevarlik	Fuqarolik kompetensiyasi, ijtimoiy mas’uliyat, ekologik madaniyat	Milliy va zamonaviy tarbiya yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish
O‘qituvchi roli	Yo‘lboshchi, tashkil etuvchi, axloqiy namuna	Fasilitator, mentor, tahlilchi	An’anaviy yo‘lboshchilikni saqlagan holda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish
O‘quvchi roli	Faol ishtirokchi, kashfiyotchi, munozarachi	Avtonom o‘quvchi, loyiha ishtirokchisi, kontent yaratuvchi	Faollikni saqlash va raqamli ijodkorlikni rivojlantirish

Jadval tahlilidan ko‘rinib turibdiki, jadidlar va zamonaviy o‘qituvchilarning pedagogik taktikasi o‘rtasida mazmunan uyg‘unlashuv mavjud. Har ikkala yondashuv ham shaxsning faolligini, mustaqilligini va axloqiy mas’uliyatini ta’minlashga qaratilgan. Asosiy farq — zamonaviy o‘qituvchi raqamli vositalarni qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi.

Muhokama. Ushbu jarayonda jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik merosi va zamonaviy raqamli pedagogikaning integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlar ilgari surgan faol metodlar (munozara, dramatik o‘qish, guruhli tahlil, sahnalashtirish) zamonaviy raqamli muhitda samarali qo‘llanilishi mumkin va ular talabalar faolligini 35–40% ga oshirishga xizmat qiladi. Jadidlar pedagogik merosi hozirgi zamonaviy ta’limning kompetensiyaviy modeli bilan mazmunan uyg‘unlashadi, chunki har ikkala yondashuv shaxsda bilim, ko‘nikma va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan. Raqamli metodlarning samaradorligi aynan shu an’anaviy pedagogik qadriyatlarning texnologik platformalarda qayta talqin qilinishi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy o‘qituvchi nafaqat raqamli

texnologiyalarni egallashi, balki ularni pedagogik maqsadlarda samarali qo‘llashni, an’anaviy metodlarning mohiyatini saqlab qolishni ham o‘rganishi kerak. Kasbiy rivojlanishda o‘qituvchining reflektiv yondashuvi va pedagogik kreativligi muhim omil hisoblanadi. Biroq, raqamli ta’lim muhitida yuzaga keladigan texnik muammolar, metodologik qiyinchiliklar va raqamli kompetensiyadagi nomutanosibliklar professional o‘sishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Bu muammolarni hal etish uchun doimiy malaka oshirish, professional hamjamiyatlar va mentorlik dasturlarini rivojlantirish zarur. Kelajak tadqiqotlarida jadidlar merosining boshqa komponentlarini (axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, mehnat tarbiyasi) raqamli muhitda qo‘llash imkoniyatlari, shuningdek, o‘qituvchilar raqamli kompetensiyasini baholash mezonlari va usullari chuqurroq o‘rganilishi lozim. Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalarini pedagogik faoliyatga integratsiya qilish masalalari ham dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri qilib qolmoqda.

Xulosa. Raqamli pedagogik kompetensiyaning shakllanishida pedagogik kreativlik va reflektiv yondashuv asosiy omillar ekanligi aniqlandi. O‘qituvchining o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilishi, an’anaviy metodlarni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishga intilishi, yangi pedagogik g‘oyalar ishlab chiqishi uning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Biroq, tadqiqot davomida raqamli ta’lim muhitida yuzaga keladigan texnik muammolar, an’anaviy metodlarni raqamli shaklga o‘tkazishdagi metodologik qiyinchiliklar hamda o‘qituvchilar o‘rtasida raqamli kompetensiyaning nomutanosib taqsimlanishi kabi cheklovlar ham aniqlangan.

Jadidlar pedagogik merosi zamonaviy raqamli ta’lim tizimi uchun milliy innovatsiyalar tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Uning kompetensiyaviy yondashuv bilan integratsiyasi o‘qituvchining metodik taktikasini boyitadi, ta’lim jarayoniga milliy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, jadidlar ilgari surgan faol metodlarni raqamli simulyatsiyalar orqali qo‘llash talabalarning nafaqat fanaviy bilimlarini, balki ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy qarorlar qabul qilish va o‘z-o‘zini boshqarish kabi hayotiy kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xutorskoy A. V. Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-orientirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoye obrazovaniye. — 2003. — № 2. — S. 58–64.

2. Zeer E. F. Psikhologiya professiy: ucheb. posobiye dlya stud. vyssh. ucheb. zavedeniy. — M.: Akademiya, 2003. — 336 s.

3. Gisbert J. P., Esteve-González V. F. La competencia digital del profesorado en la Universidad: desarrollo y validación de un instrumento de evaluación // Revista de Educación a Distancia. — 2017. — № 17(56). — P. 1–18.

4. Qayumov A. Jadidchilik harakati va uning ta’lim-tarbiyaviy qarashlari // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy xabarlari. — 2019. — № 1. — B. 112–118.

5. Ziyotov O. Jadidchilik pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati // Farg‘ona davlat universiteti ilmiy xabarlari. — 2020. — № 2. — B. 89–95.

6. Rahimova M. M. Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish // O‘zbekiston xabarlar. — 2021. — № 3. — B. 45–49.

7. Xutorskoy A. V. Klyuchevyye kompetentsii. Tekhnologiya proyektirovaniya. — M.: Eksmo, 2008. — 304 s.

8. Ivanov D. A. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. Problemy, kontseptsii, instrumentariy // Voprosy obrazovaniya. — 2008. — № 3. — S. 29–43.

9. Kuz’mina N. V. Pedagogicheskoye masterstvo uchitelya: ucheb. posobiye. — M.: Vysshaya shkola, 1990. — 238 s.

10. Area Moreira M. Competencia digital: una introducción // Pixel-Bit. Revista de Medios y Educación. — 2010. — № 36. — P. 5–14.

11. Gómez L. Desarrollo de la competencia digital docente en la formación inicial de maestros // Comunicar. — 2014. — № 21(42). — P. 187–195.

JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA YOSHLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI

Axadjonova Gulruxsor Toxirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash omillari, ayniqsa yoshlar ijtimoiy faolligining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonida yoshlarning ishtiroki, ularning jamiyatdagi roli hamda davlat siyosati bilan uyg‘unligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, yoshlar faolligi, fuqarolik jamiyati, birdamlik, tinchlik, taraqqiyot.

Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyat taraqqiyotida yangi imkoniyatlar yaratib, ayniqsa yosh avlod uchun keng istiqbollarni ochmoqda. Shu nuqtai nazardan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqsadlar jamiyatda farovonlikni ta’minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotga erishishga xizmat qiladi.[2]

O‘zbekistonda ham barqaror rivojlanish tamoyillari asosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi ushbu yo‘nalishda muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu strategiyalarda yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.[1] biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tinchlik kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Barqarorlik (ijtimoiy, ma’naviy) – jamiyatda hukm surayotgan tinch-totuvlik, birdamlikni asrab-avaylash va mustahkamlashga asoslangan tinch shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, guruh va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik qaror topganini anglatadigan tushuncha. Barqaror rivojlanish maqsadlari– bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig’idir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030 yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya’ni 2030 yilga mo‘ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o‘zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli statistik ko’rsatkichlar uchun miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlashi hamda vazifalar va aniq miqdoriy ko’rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak.

Barqaror rivojlanish – kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan insoniyat taraqqiyotining samarali yo‘nalishidir. Maqsad – yashash sharoitlari va resurslar inson ehtiyojlarini qondirgan holda, sayyoramizning yaxlitligini xavf ostiga qo‘ymasdan, jamiyat yaratishdir. Iqtisodiyot, atrof-muhit va ijtimoiy farovonlik ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi hisoblanadi. 1987-yildagi Brundtland hisoboti barqaror rivojlanish tushunchasining keng tarqalishiga hissa qo‘shdi.Barqaror rivojlanish tushunchasi me’yoriy konsepsiya hisoblangan barqarorlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. UNESCO ikkala tushuncha o‘rtasidagi farqni quyidagicha tushuntirgan: „Barqarorlik ko‘pincha uzoq muddatli maqsad sifatida qaraladi (ya’ni, yanada barqaror dunyo), barqaror rivojlanish esa shu maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli jarayonlar va yo‘llarni ifodalaydi“[4].

1992-yildagi Rio-deoJaneyroda o‘tkazilgan Yer sammitidan boshlangan Rio jarayoni barqaror rivojlanish tushunchasini xalqaro darajaga olib chiqdi. Barqaror rivojlanish – bu barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy g‘oyasi hisoblanadi· 2030-yilga mo‘ljallangan ushbu global maqsadlar 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Maqsadlar qashshoqlik, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va tinchlik kabi global muammolarni hal qilishga qaratilgan. Barqarorlik (ijtimoiy, ma’naviy) – jamiyatda hukm surayotgan tinch-totuvlik, birdamlikni asrab-avaylash va mustahkamlashga asoslangan tinch shart-sharoitning mavjudligi; ijtimoiy qatlamlar, guruh va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik; davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik qaror topganini anglatadigan tushuncha. Barqaror rivojlanish maqsadlari– bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig’idir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030 yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya’ni 2030 yilga mo‘ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o‘zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli statistik ko’rsatkichlar uchun miqdoriy ko’rsatkichlarni aniqlashi hamda vazifalar va aniq miqdoriy ko’rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerak.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog‘liq ba’zi muammolar mavjud. Ba’zi olimlar uni oksimoron deb ataydilar. Chunki, ularning fikricha, rivojlanish barqarorlik xususiyatiga emas. Boshqa tahlilchilar esa hozirgacha erishilgan yutuqlarni yetarli deb bilmaydilar. Olimlarning ta’kidlashicha, barqaror rivojlanish tushunchasi ochiq talqinga ega bo‘lib, ko‘pincha noaniq va nomuvofiq deb tanqid qilinadi, shu sababli uni osonlikcha o‘zlashtirish mumkin.Ijtimoiy barqarorlik — bu jamiyatda tinchlik, adolat, tenglik va o‘zaro ishonch muhitining qaror topishidir. Bunday muhitni shakllantirishda yoshlar muhim ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi deganda ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki, tashabbus ko‘rsatishi, fuqarolik pozitsiyasinibildira olishtushuniladi.

Yoshlar ijtimoiy faolligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolik jamiyati institutlarida ishtirok etish;
- ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarni ilgari surish;
- volontyorlik faoliyatida qatnashish;
- jamiyatdagi muammolarga befarq bo‘lmaslik.

Aynan shu jihatlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki faol yoshlar — bu ongli, mas’uliyatli va tashabbuskor fuqarolar demakdir. Shuningdek, diniy qadriyatlarning to‘g‘ri anglanishi ham ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Dinni noto‘g‘ri talqin qilish jamiyatda turli nizolar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirish, ularni turli yot g‘oyalardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat hayotida barqarorlik quyidagi natijalarga olib keladi:

- tinchlik va osoyishtalikning mustahkamlanishi;
- iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi;
- fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchining ortishi.

Aksincha, beqarorlik esa ijtimoiy inqirozlar, nizolar va taraqqiyotning sekinlashuviga sabab bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda yoshlarning ijtimoiy faolligi hal qiluvchi omillardan biridir. Yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etib, o‘z bilim va salohiyatini namoyon etsa, mamlakat taraqqiyoti yanada jadallashadi. Shu bois yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini rag‘batlantirish va ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
5. UNDP. *Human Development Report.* – New York, turli yillar.
6. UNICEF. *The State of the World’s Children*. – New York, turli yillar.
7. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
8. G‘ulomov S.S. *Ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omillari*. – Toshkent, 2019.
9. Abdurahmonov Q.X. *Yoshlar siyosati va ijtimoiy faollik.* – Toshkent, 2020.

ENERGETIKA OMILINING DAVLATLAR TASHQI SIYOSATIDAGI O‘RNI (SAUDIYA ARABISTONI MISOLIDA)

Minovvarova Malikaxon Ulug‘bek qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida energetika omilining strategik roli tahlil qilingan. Muallif energetika resurslarini nafaqat iqtisodiy manba, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy instrument sifatida ko‘rib chiqadi. Maqolada rentier davlat nazariyasi va energetik realizm paradigmalari orqali Saudiya Arabistonida neft va gaz daromadlarining ichki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy mustaqillik va tashqi siyosiy faoliyatga qanday ta’sir qilishi yoritilgan. Shuningdek, OPEC va OPEC+ doirasidagi siyosiy hamkorlik, global energetika bozori va yetakchi davlatlar bilan aloqalar energetika resurslari orqali mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasini mustahkamlashdagi strategik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Saudiya Arabistoni, energetika omili, tashqi siyosat, rentier davlat nazariyasi, energetik realizm, strategik diplomatiya, Fors ko‘rfazi, global energetika bozori.

Saudiya Arabistoni dunyoning eng yirik neft eksportyorlaridan biri sifatida tashqi siyosiy strategiyasini, avvalo, energetika resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish orqali amalga oshirib kelmoqda. Shu bois mazkur davlat tashqi siyosatini tahlil qilishda energetika omilini ikkilamchi iqtisodiy omil sifatida emas, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir etuvchi markaziy strategik vosita sifatida ko‘rib chiqish zarur. Saudiya Arabistoni misolida energetika resurslari ichki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy mustaqillik va tashqi siyosiy faoliyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Saudiya Arabistonining energetika omili ko‘p darajali strategik ahamiyat kasb etib, neft va gaz daromadlari orqali ichki siyosiy legitimlik hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, Fors ko‘rfazi mintaqasida strategik ustunlik va mintaqaviy siyosiy ta’sirni mustahkamlash, shuningdek OPEC+, global energetika bozorlari va yirik davlatlar bilan strategik hamkorlik doirasida mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Energetika omilining mohiyatini chuqur anglash uchun, avvalo, Saudiya Arabistonining tashqi siyosatidagi strategik qarorlarni izohlab beruvchi yetakchi nazariy yondashuvlarga murojaat qilish zarur. Rentier davlat nazariyasi Saudiya Arabistonida siyosiy legitimlikning iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash hamda ijtimoiy kompensatsiya mexanizmlari orqali shakllanish jarayonini izohlaydi. Mazkur yondashuv doirasida neftdan olinadigan daromadlar davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuvning asosiy institutsional poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, energetik realizm hamda resursga asoslangan tashqi siyosat konsepsiyalari neft va gazni nafaqat

iqtisodiy foyda manbai sifatida, balki ichki siyosiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro maydondagi siyosiy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida talqin qiladi. H.Beblavi ta’kidlaganidek, rentier davlatlarda siyosiy legitimlik, asosan, soliqqa asoslangan ijtimoiy kelishuv orqali emas, balki davlat tomonidan resurs daromadlarini qayta taqsimlash hamda ijtimoiy kompensatsiya mexanizmlari orqali shakllanadi[1].

Saudiya Arabistoni sharoitida neftdan olinadigan daromadlar davlatning moliyaviy mustaqilligini ta’minlab, siyosiy tizimning ichki barqarorligini mustahkamlaydi. Ushbu holat davlat hokimiyatiga jamiyat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy bog‘liqlikni minimallashtirish, siyosiy muxolifatni cheklash va ijtimoiy norozilikni iqtisodiy kompensatsiya orqali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, neft daromadlariga tayangan siyosiy model Saudiya Arabistoniga tashqi siyosatda nisbatan erkin va mustaqil qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy bazani ham yaratadi. Demak, energetika resurslari rentier davlat modeli doirasida ichki barqarorlikni ta’minlovchi omil bo‘lish bilan birga, tashqi siyosatning institutsional va moliyaviy tayanchiga ham aylanadi.

Energetika masalasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tobora mustaqil strategik omil sifatida shakllanib, davlatlarning qudrati va ta’sir doirasini belgilovchi muhim instrumentga aylanmoqda. Shu sababli energiya resurslarini tahlil qilishda realizm paradigmasi asosiy metodologik yondashuvlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur paradigma davlatlarning xalqaro tizimdagi xatti-harakatlarini moddiy resurslar va kuch omili orqali izohlash imkonini beradi.

Energetika omilini tashqi siyosiy instrument sifatida yanada chuqurroq anglash uchun energetik realizm paradigmasiga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Realizm nazariyasiga muvofiq, davlatlar xalqaro tizim sharoitida o‘z milliy manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga intiladi va ushbu jarayonda moddiy resurslar, xususan strategik ahamiyatga ega resurslar, asosiy kuch omillari sifatida maydonga chiqadi. Energetik realizm esa energiya resurslarini davlat qudratining moddiy va institutsional asoslaridan biri sifatida talqin qiladi.

G.Chesnakas ta’kidlaganidek, birlamchi energiya resurslari davlat qudratini belgilovchi asosiy komponentlardan biri bo‘lib, resurslarga egalik darajasi va ularni boshqarish salohiyati davlatning xalqaro maydondagi ta’sirini aniqlaydi[2]. Ushbu yondashuv energiya resurslari va siyosiy qudrat o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni nazariy jihatdan mustahkamlaydi.

Realizm doirasida energiya resurslari faqat bozor qiymati bilan emas, balki ularning strategik va geosiyosiy ahamiyati bilan baholanadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, neft, gaz va boshqa strategik resurslar ko‘plab davlatlar tomonidan tashqi siyosiy bosim, ta’sir va kelishuvlar vositasi sifatida qo‘llanilgan. Shu sababli energiya resurslari tashqi siyosatda “qattiq kuch” (hard power) elementlari tarkibiga kiritiladi va ularning boshqarilishi davlatning umumiy tashqi siyosiy strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi.

Saudiya Arabistoni misolida energetik realizm paradigmasi energetika resurslarining tashqi siyosatda faol qo‘llanilishini yaqqol ko‘rsatadi. Mamlakat dunyodagi eng yirik neft zaxiralaridan biriga egaligi sababli, energiya resurslari uning milliy qudrati va global siyosiy pozitsiyasini belgilovchi asosiy moddiy omil hisoblanadi. Energiya resurslarini eksport qiluvchi davlatlar ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki kamaytirish orqali xalqaro bozorlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va o‘zlarining xorijdagi siyosiy ta’sir doirasini kengaytirishi mumkin. Mazkur nazariy xulosa Saudiya Arabistonining OPEC va OPEC+ doirasidagi siyosatini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Energetika resurslari orqali bozorni boshqarish, narxlar va ishlab chiqarish kvotalarini muvofiqlashtirish Riyodga global energiya tizimida alohida strategik mavqe beradi.

Saudiya Arabistoni tashqi siyosatida energetika omili alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakat dunyodagi eng yirik neft zaxiralaridan biriga egaligi sababli, energiya resurslari uning milliy qudrati va xalqaro maydondagi ta’sirini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. G.Chesnakas bu holatni umumiy nazariy xulosa sifatida energiya resurslarini eksport qiluvchi davlatlar qazib olish hajmini oshirish yoki kamaytirish orqali o‘zlarining xorijdagi ta’sir doirasini kengaytirishi va xalqaro bozorlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini keltiradi[2]. Bu xolat Saudiya Arabistonining OPEC doirasidagi siyosatini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Neft

qazib olish hajmini tartibga solish orqali Saudiya Arabistoni nafaqat jahon neft narxlariga ta’sir o‘tkazadi, balki yirik energiya iste’molchi davlatlar bilan siyosiy munosabatlarda muhim strategik ustunlikka ham erishadi.

Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida energetika omili nafaqat ichki barqarorlikni ta’minlovchi vosita, balki global siyosiy maydonda strategik ta’sir instrumenti sifatida faol namoyon bo‘ladi. Riyod dunyodagi eng yirik neft zaxiralariga egaligi, yuqori ishlab chiqarish quvvatlari va eksport hajmi orqali global energetika tizimida markaziy o‘rin egallaydi. Energetik resurslarni ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki kamaytirish, global neft narxlariga ta’sir o‘tkazish hamda siyosiy va iqtisodiy bosim mexanizmlarini yaratish orqali Riyod tashqi siyosatda faol instrument sifatida harakat qiladi[3]. Shu nuqtayi nazardan, Saudiya Arabistoni energetika resurslarini global siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p qirrali vosita sifatida ishlatadi.

Energetika omili orqali erishilgan bozor ta’siri Saudiya Arabistonining global siyosiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Qirollik global yetkazib berish tarmog‘ida barqarorlikni ta’minlash va jahon iqtisodiyotidagi energiya muvozanatini boshqarish orqali nafaqat iqtisodiy manfaatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, balki ko‘plab davlatlar bilan strategik aloqalarni ham mustahkamlaydi. Shu yo‘l bilan global iqtisodiy va siyosiy maydonda o‘zining geosiyosiy rolini kuchaytiradi va ishlab chiqarish, narxlar hamda yetkazib berish siyosatlarini muvofiqlashtirishda kuchli pozitsiyani saqlab qolishga harakat qiladi.

Eskpertlar ta’kidlashicha, energetika siyosatini tuzishda Saudiya ichki va tashqi talablar hamda bosimlarni muvofiqlashtirishi kerak, bu esa uning global siyosatdagi strategik o‘rnini yanada mustahkamlaydi [4]. Shu nuqtayi nazardan, Riyod o‘z ichki barqarorligi va tashqi ta’sirini bir-biri bilan uyg‘unlashtiradi. Bu esa uning global siyosiy mavqeini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakat global energetika bozorida yetakchi ishlab chiqaruvchi va eksportyor sifatida o‘z salohiyatini va bozor ta’sirini boshqarish imkoniyatiga ega. Dunyo neft zahiralari va yetakchi ishlab chiqarish quvvatlariga egaligi sababli, Saudiya Arabistoni OPEC doirasidagi yetakchi roli orqali global bozor muvozanatini saqlashga, narxlar va yetkazib berish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishga qodir[5]. Energetik resurslarni boshqarish orqali Riyod ko‘pincha global neft narxlariga ta’sir qiladi. Bu esa nafaqat bozor kon’yunkturasini, balki diplomatik aloqalarni ham tartibga solishga yordam beradi. Masalan, OPEC+ doirasida 2025-yil sentyabrda qabul qilingan ishlab chiqarish qarorlari global narxlar va yetkazib berish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, shu bilan siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy muvozanat shakllandi[6]. Shu bilan birga, ishlab chiqarish strategiyasi bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlar mamlakat ichidagi siyosiy muloqot va tashqi bosimlarni ham aks ettiradi. Masalan, Rossiya bilan ishlab chiqarish kvotalari bo‘yicha olib boriladigan muzokaralar bozor siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[7].

IEA World Energy Outlook hisobotiga ko‘ra, global miqyosda yashil energetikaga o‘tish tendensiyalarining kuchayishi va energiya bozorlarining transformatsiyasi neftga bo‘lgan talabni sekinlashtiradi hamda Saudiya Arabistonining uzoq muddatli energetik strategiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[8]. Shu bilan birga, EU Green Deal kabi iqlim siyosatlari birlamchi yoqilg‘ilarga tayanadigan davlatlar uchun siyosiy bosimni kuchaytiradi, karbon chiqindilarini kamaytirish va yashil energiyaga o‘tishni rag‘batlantirish orqali Riyodning strategik rejalari uchun strukturaviy cheklovlarni yaratadi[9]. Natijada, Saudiya energetika siyosati nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni saqlash, balki global iqlim siyosati va bozor transformatsiyasiga moslashish zarurati bilan ham yuzlashmoqda. Bu jarayon Saudiya Arabistonini energetika resurslaridan tashqi siyosiy instrument sifatida foydalanishda ehtiyotkorlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu sababli mamlakat, global va mintaqaviy energetik transformatsiyalar fonida, strategik qarorlarni ishlab chiqishda uzoq muddatli risklarni va siyosiy cheklovlarni hisobga olgan holda harakat qilmoqda. Natijada, energetika Saudiya Arabistonining tashqi siyosatida bir vaqtning o‘zida ustunlik, raqobat va cheklov manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Riyod Fors ko‘rfazidagi yetakchiligini mustahkamlashga intilar ekan, global va mintaqaviy o‘zgarishlar bu vositaning samaradorligini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, energetika resurslari Saudiya uchun strategik va diplomatik moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Bu chaqiriqlarga javob sifatida Saudiya Arabistonining Vision 2030 strategiyasi energetika siyosatiga yangi institutsional o‘lcham beradi. Ushbu strategiya mamlakat iqtisodiyotini neftga qaramlikdan bosqichma-bosqich xalos etishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, qisqa va o‘rta muddatda energetika resurslari tashqi siyosatning asosiy tayanchi bo‘lib qolmoqda. Saudi Vision 2030 [10] rasmiy hisobotlariga ko‘ra, Saudiya Arabistoni davlatining uzoq muddatli strategiyasi neftga bog‘liqlikni kamaytirish, iqtisodiy diversifikatsiya va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu strategik rejalar global va ichki siyosat uchun muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilganda, Saudiya Arabistonining energetika resurslari mamlakat tashqi siyosatida faqat iqtisodiy omil sifatida emas, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan strategik instrument sifatida faol namoyon bo‘ladi. Energetika resurslari nafaqat davlatning moliyaviy salohiyatini oshiradi, balki siyosiy legitimlikni mustahkamlash, ichki barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy muvozanatni boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beblawi H. The Rentier State in the Arab World // Arab Studies Quarterly. – 1987. – Vol. 9. – No. 4. – P. 383-398

2. Česnakas G. Energy resources in foreign policy: a theoretical approach // Baltic Journal of Law & Politics. – 2010. – Vol. 3. – No.1. – P.31

3. Krane J. Energy Kingdoms: Oil and Political Survival in the Persian Gulf. – Ithaca: Cornell University Press, 2019. 52-56 //https://dokumen.pub/energy-kingdoms-oil-and-political-survival-in-the-persian-gulf-9780231548922.html

4. Fathallah H. Saudi Energy Policy and Global Order // Carnegie Endowment for International Peace. Sada . – 06.04.2023. // https://carnegieendowment.org/sada/2023/04/saudi-energy-policy-and-global-order?lang=en

5. Chaziza M., Lutmar C. Saudi Arabia’s Niche Diplomacy: A Middle Power’s Strategy for Global Influence // World. – 2025. – Vol.6. –No.2. – Article 65//https://www.mdpi.com/2673-4060/6/2/65

6. Oil prices spike as Saudi Arabia, Russia extend 1.3 million barrel a day oil cut through December // AP News– 2025//https://apnews.com/article/saudi-arabia-oil-production-cut-opec-2d6f724e899f31e92d4bdf052921125c

7. Saudi Arabia and Russia clash within OPEC+ over oil production increases // Reuters. – 2025. // https://www.reuters.com/business/energy/opec-set-another-oil-hike-saudi-russia-debate-size-sources-say-2025-10-03/

8. IEA. World Energy Outlook 2025. – Paris: International Energy Agency, 2025. // https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2025 (ko‘rilgan: 12.01.2026).

9. European Commission. EU Green Deal. – Brussels: European Commission, 2023. // https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/fs_23_23

10. Saudi Vision 2030 Annual Report 2024 //https://www.vision2030.gov.sa/en/annual-reports

OILAVIY MUAMMOLAR SHAROITIDA BOLALAR RUHIY SALOMATLIGINI ART - PEDAGOGIKA ORQALI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Kadirova Iroda Xamidovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti
Ilmiy rahbar: Nurumbekova Yarkinay Anarmatovna
p.f.f.d. (PhD) dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy muammolar ta’sirida bolalar ruhiy salomatligining buzilishi, bunga sabab bo‘luvchi omilar va oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalar psixologik holatini barqarorlashtirishda art-pedagogikaning o‘rni, uning samarali usullari va amaliyot jarayonida qo‘llash imkoniyatlari shuningdek bu borada olib borilgan ishlar haqida yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Oilaviy muammolar, ruhiy salomatlik, bolalar psixologiyasi, art-pedagogika, emotsional rivojlanish, ijtimoiy muhit.

Kirish. Bugungi kunda oilaviy muhitning beqarorligi, nizolar, ajralishlar va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bolalar ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bunday sharoitda ulg‘ayayotgan bolalarda qo‘rquv, ishonchsizlik, agressiya yoki ichki tushkunlik holatlari kuzatiladi. Shu bois, ularning psixologik holatini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shunday yondashuvlardan biri — art-pedagogik faoliyatdir.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hamda zamonaviy turmush tarzining murakkablashuvi oilaviy institutga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada oilalarda nizoli vaziyatlarning ortishi, ajrimlar sonining ko‘payishi, ota-onalarning bandligi yoki emotsional befarqligi kabi omillar bolalar ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi muhim faktorlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bunday muhitda ulg‘ayayotgan bolalarda xavotirlik, ichki tushkunlik, agressiv xatti-harakatlar yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ko‘proq kuzatiladi. Bugungi kunda bolalar ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash nafaqat psixologiya, balki pedagogika sohasining ham dolzarb muammolaridan biriga aylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalar ruhiy salomatligi va unga oilaviy muhitning ta’siri masalasi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, amerikalik olim D. Baumrind ota-onalar tarbiya uslublarining bolalar psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sirini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, avtoritar va befarq tarbiya uslublari bolalarda xavotirlik, ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqaradi [1].

Shuningdek, ingliz psixologi J. Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog‘lanish (attachment) nazariyasida bola va ota-ona o‘rtasidagi emotsional aloqaning uzilishi yoki sustligi ruhiy buzilishlarning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatilgan [2]. Ushbu yondashuv oilaviy muhitning bola shaxsiyati shakllanishidagi muhim o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Rossiyalik olim L.S. Vygotskiy esa bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlab, ta’lim va tarbiya jarayonida emotsional omillarning ahamiyatini alohida qayd etadi [3]. Uning madaniy-tarixiy nazariyasida bola rivojlanishida ijodiy faoliyatning o‘rni muhim ekanligi asoslab berilgan.

Art-pedagogika va art-terapiya yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlar ham mazkur muammoni hal etishda samarali yondashuvlarni taklif etadi. Jumladan, amerikalik tadqiqotchi E. Kramer art-terapiya bolalarning ichki kechinmalarini ifodalashda va psixologik zo‘riqishni kamaytirishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi [4]. Uning fikricha, tasviriy faoliyat orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ramziy tarzda namoyon etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning nazariy asosini bolalar psixologiyasi, pedagogika va art-terapiya sohasidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Xususan, shaxs rivojlanishining ijtimoiy omillarga bog‘liqligi, emotsional muhitning ahamiyati hamda ijodiy faoliyat orqali psixologik holatni barqarorlashtirishga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Amaliy tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat va diagnostik metodlardan foydalanildi. Jumladan, oilaviy muammolarga duch kelgan bolalarning emotsional holatini aniqlash maqsadida ularning xatti-harakatlari, muloqot darajasi va ijodiy faoliyatdagi ishtiroki kuzatildi. Shuningdek, bolalar bilan individual va guruh shaklida suhbatlar o‘tkazilib, ularning ichki kechinmalari va psixologik holati o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida oilaviy muammolar ta’sirida ruhiy zo‘riqishga uchragan bolalarning psixologik holati dastlabki bosqichda tahlil qilindi. Kuzatishlar natijasida bunday bolalarda emotsional beqarorlik, xavotirlik, tortinchoqlik, ba’zi hollarda esa agressiv xatti-harakatlar kuzatilishi aniqlandi. Ayniqsa, oiladagi nizoli vaziyatlar va e’tiborsizlik bolalarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etildi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning aksariyatida o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishda qiyinchiliklar mavjudligi, ichki kechinmalarini yashirishga moyillik yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat ularning ruhiy salomatligida muayyan muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida art-pedagogik faoliyat tashkil etilib, unda rasm chizish, ranglar bilan ishlash, dramatizatsiya va musiqa elementlari qo‘llanildi. Ushbu mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning faol ishtiroki ta’minlandi hamda ularga erkin ijod qilish imkoniyati yaratildi. Jarayon davomida bolalar o‘z kechinmalarini tasviriy va ijodiy shaklda ifoda eta boshlaganligi kuzatildi (1-rasm).



1-rasm. **Art-pedagogik mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki**

Olib borilgan art-pedagogik mashg‘ulotlar natijasida bolalarda ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Xususan, ularning emotsional holati barqarorlashdi, xavotir darajasi kamaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonch ortdi. Shuningdek, bolalarning ijtimoiy faolligi va muloqotga kirishish qobiliyati sezilarli darajada yaxshilandi. Ayrim bolalarda agressiv xatti-harakatlarning kamayishi va ijobiy xulq-atvor shakllanishi kuzatildi

Taqqoslama tahlillar shuni ko‘rsatdiki, art-pedagogik yondashuv bolalarning ruhiy salomatligini tiklash va qo‘llab-quvvatlashda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, oilaviy muammolar ta’sirida yuzaga kelgan psixologik zo‘riqishlarni kamaytirishda ijodiy faoliyat muhim rol o‘ynaydi.



***2- rasm*. Art-pedagogik mashg‘ulotlarning yakuniy kuzatuvlari**

Art-pedagogik mashg‘ulotlar 3–4 hafta davomida tizimli ravishda olib borildi. Mashg‘ulotlarda rasm chizish, ranglar bilan ishlash, erkin ijodiy kompozitsiyalar yaratish, dramatizatsiya va musiqiy faoliyat elementlari qo‘llanildi. Jarayon davomida bolalarning faolligi bosqichma-bosqich oshib bordi. Dastlab passiv ishtirok etgan bolalarning 70% ga yaqini keyingi mashg‘ulotlarda faol ijodiy ishtirok eta boshladi (2-rasm).

1-jadval. Art-pedagogik mashg‘ulotlarda ishtirok dinamikasi

Hafta	Faollik darajasi (%)	Tavsif
1-hafta	30	Passiv ishtirok
2-hafta	55	O‘rtacha faollik
3-hafta	75	Faol ishtirok
4-hafta	90	Yuqori ijodiy faollik

Yakuniy kuzatuvlarga ko‘ra, art-pedagogik faoliyatdan so‘ng bolalarda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi:

- xavotir darajasi taxminan 30–40% ga kamaydi;
- ijtimoiy muloqot faolligi 50% ga yaqin oshdi;
- agressiv xatti-harakatlar sezilarli darajada pasaydi;
- o‘ziga ishonch va mustaqil fikrlash ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitdagi beqarorlik, nizolar va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bolalarning ruhiy salomatligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda ulg‘ayayotgan bolalarda xavotirlik, emotsional beqarorlik, agressiv xulq-atvor hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ko‘proq uchrashi aniqlandi. Bu esa bolalar psixologik holatini barqarorlashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baumrind D. (1967). *Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior*. Genetic Psychology Monographs.
2. Bowlby J. (1982). *Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment*. New York: Basic Books.
3. Vygotsky L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.
4. Kramer E. (1971). *Art as Therapy with Children*. New York: Schocken Books.

5. Abdukarimov A.A. (2019). Bolalar psixologiyasi va rivojlanish xususiyatlari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Karimova V.M. (2020). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Hasanov B.B. (2021). Ta’lim jarayonida art-terapiya va art-pedagogika imkoniyatlari. Ilmiy maqolalar to‘plami.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Jo‘raqulova Saida Akramqul qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish muammosining dolzarbligini asoslaydi hamda zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida uning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli ta’lim vositalari orqali o‘quvchilarning fikrlash faolligi, tahliliy qobiliyati va mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, pedagogik kuzatuv, eksperiment va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv platformalar, adaptiv o‘qitish texnologiyalari va multimediya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning kognitiv jarayonlarini sezilarli darajada faollashtiradi, xususan, muammoli fikrlash, refleksiya va metakognitiv ko‘nikmalar rivojlanadi. Shuningdek, raqamli muhitda individual o‘quv trayektoriyalarini tashkil etish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini oshirishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida kognitiv faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrativ model taklif etildi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, kognitiv faollik, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o‘qitish, metakognitiv ko‘nikmalar, ta’lim samaradorligi.

Kirish. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimi tubdan yangilanib, an’anaviy o‘qitish shakllari o‘rnini raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion yondashuvlar egallamoqda. Raqamli ta’lim muhiti nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda kognitiv faolligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va ta’lim psixologiyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kognitiv faollik o‘quvchining bilim olish jarayonidagi ongli ishtiroki, tahliliy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va o‘z bilimlarini mustaqil ravishda boyitishga intilishi bilan tavsiflanadi. Raqamli ta’lim muhitida esa ushbu jarayon yanada murakkablashib, interaktiv platformalar, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, multimediya resurslari va masofaviy ta’lim texnologiyalari orqali yangi imkoniyatlar bilan boyitiladi. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, o‘quvchilarning kognitiv faolligini samarali rivojlantirish uchun metodik asoslangan yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish nafaqat ularning akademik natijalarini yaxshilash, balki kelajakda mustaqil fikrlovchi, raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytiradi hamda individual ta’lim trayektoriyalarini yaratishga imkon beradi. Tadqiqotning maqsadi – raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash va samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun raqamli ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, kognitiv jarayonlarga ta’sirini aniqlash va tajriba-sinov ishlari orqali ularning samaradorligini baholash vazifalari belgilandi. Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning kognitiv faolligini

rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari doirasida keng o‘rganilgan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini transformatsiya qilish bilan birga o‘quvchilarning bilish faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol konstruktor sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv raqamli ta’lim muhitida o‘z aksini topib, interaktiv platformalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanishini ta’minlaydi. Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi esa ta’lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik va muloqotning muhimligini ta’kidlab, onlayn muhitda guruhli ishlash va kollaborativ o‘qitishning ahamiyatini asoslaydi. Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan Siemens (connectivism nazariyasi) raqamli davrda bilimlar tarmoq shaklida shakllanishini va o‘quvchilarning axborot oqimlarini boshqarish qobiliyati muhim kompetensiyaga aylanishini ta’kidlaydi. Bu esa raqamli ta’lim muhitida kognitiv faollikni rivojlantirishda axborot bilan ishlash kompetensiyalarining ahamiyatini oshiradi.

Anderson va Krathwohl tomonidan takomillashtirilgan Bloom taksonomiyasi ham raqamli ta’lim sharoitida keng qo‘llaniladi. Unga ko‘ra, kognitiv jarayonlar eslab qolishdan tortib, yaratish darajasigacha rivojlanadi. Raqamli vositalar aynan yuqori darajadagi kognitiv faoliyat — tahlil qilish, baholash va yaratish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Mayerning multimedia o‘qitish nazariyasi raqamli ta’limda vizual va audial axborotlarni birgalikda taqdim etish o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini optimallashtirishini va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Bu nazariya asosida ishlab chiqilgan interaktiv darslar o‘quvchilarning diqqatini jamlash va uzoq muddatli xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahalliy va MDH olimlarining tadqiqotlarida ham raqamli ta’limning afzalliklari keng yoritilgan. Ular o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion fikrlashni shakllantirish va pedagogik jarayonni individuallashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Ayrim tadqiqotlarda esa raqamli muhitda o‘qituvchining fasilitator sifatidagi roli muhimligi ta’kidlangan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish jarayonini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda aralash (mixed-methods) yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental shaklda tashkil etildi, ya’ni tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, ularning kognitiv faollik darajasi taqqoslab tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) metodlar integratsiyasi ta’minlandi.

9. Stepanov V. G."Qiyin maktab o‘quvchisi psixologiyasi", Moskva, 1998, 5-sahifa
10. Isaev D. D., Juravlev I. I., Dementiev V. V., Ozeretskovskiy S. D. "o‘ziga qaram bo‘lgan xatti-harakatlarning turli shakllari bo‘lgan o‘spirinlarning xatti-harakatlarining tipologik modellari", Sankt-Peterburg, 1997, 16-bet

[1] Kulagin L. G."Qiyin bo‘lgan o‘smirlar haqida" / / Sovet pedagogikasi, 1991, no 6, 141142 sahifa

PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI (STEM, STEAM, CLIL VA RAQAMLI DIDAKTIKA MISOLIDA)



N.M. Botirova
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik innovatsiyalar va ilg‘or ta’lim texnologiyalarining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. STEM, STEAM, CLIL hamda raqamli didaktika yondashuvlari misolida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kirish. XXI asrda globallashuv, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga, xususan ta’lim tizimiga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilimlar hajmining keskin ortishi, kasbiy faoliyatning murakkablashuvi hamda mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi ta’lim tizimini modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda an’anaviy ta’lim modelidan innovatsion, kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ta’lim sohasidagi islohotlarning markazida pedagogik innovatsiyalar turadi. Pedagogik innovatsiyalar - bu ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarini yangilash orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyatdir. Ushbu jarayon nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etishni, balki o‘qitish falsafasini o‘zgartirishni ham nazarda tutadi. Amerikalik pedagog olim John Dewey ta’kidlaganidek: “Ta’lim bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o‘zidir” [1, 1].Mazkur yondashuv ta’limning amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, Lev Vygotskyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasiga ko‘ra: “O‘qitish rivojlanishni oldinga yetaklaydi” [2].Bu esa ta’lim jarayonida faol, interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. A. Abduqodirov, U. Tolipov va M. Ochilovlar ta’limni modernizatsiya qilish zaruratini ta’kidlab, pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘qitish sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ilmiy asoslab berganlar [7]. UNESCO va OECD tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar va XXI asr kompetensiyalari ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biridir [3; 4].

Hozirgi davrda STEM, STEAM, CLIL hamda raqamli didaktika kabi zamonaviy yondashuvlar ta’limni transformatsiya qilishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. STEM ta’limi fanlararo integratsiyani ta’minlab, o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. STEAM esa ushbu jarayonga kreativlik va san’at komponentini qo‘shadi. CLIL metodologiyasi esa til va mazmunni integratsiyalash orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Raqamli didaktika esa ta’limni individuallashtirish va moslashtirish imkonini beradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO ta’kidlashicha: “Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish va unga kirishni kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi” [3, 3]. Shuningdek, OECD hisobotlarida XXI asr ko‘nikmalari - tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik va kommunikatsiya - ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan [4, 4].

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarining nazariy hamda amaliy asoslarini tahlil qilish, ularning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda STEM, STEAM, CLIL va raqamli didaktika yondashuvlarining imkoniyatlari, afzalliklari hamda ularni amaliyotga joriy etish muammolari kompleks tarzda o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Pedagogik innovatsiya - bu ta’lim jarayoniga yangi metod, texnologiya yoki yondashuvni tatbiq etish orqali uning sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Mazkur tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar

qo‘llanildi.
Tahliliy metod orqali STEM, STEAM, CLIL va raqamli didaktika bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi. Qiyosiy metod asosida zamonaviy va an’anaviy ta’lim yondashuvlari solishtirildi. Tizimli yondashuv orqali ushbu texnologiyalar yagona integrativ tizim sifatida tahlil qilindi.

Pedagogik innovatsiyalar tushunchasining nazariy asoslari

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik innovatsiya turli talqinlarda izohlanadi. Masalan, innovatsiya nazariyasiga ko‘ra, u “yangilikni yaratish, joriy etish va ommalashtirish jarayoni” sifatida qaraladi. Pedagogik innovatsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega: yangilik elementi mavjudligi, samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilganligi, tizimli yondashuvga asoslanganligi, amaliy natijadorlik bilan ifodalanadi. Pedagog olimlari A. Abduqodirov, U. Tolipov va M. Ochilovlarning fikricha, pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi [7; 8].

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion jarayonlar quyidagi yo‘nalishlarda - didaktik innovatsiyalar, metodik innovatsiyalar, texnologik innovatsiyalar, boshqaruv innovatsiyalari yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

STEM ta’lim texnologiyasining mohiyati

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi fanlararo integratsiyaga asoslangan bo‘lib, u o‘quvchilarda muhandislik tafakkuri va analitik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEM ta’limining asosiy prinsiplari - integrativlik, amaliy yo‘naltirilganlik, muammoli o‘qitish,loyihaviy faoliyatdan iborat. O‘zbekiston ta’lim tizimida STEM yondashuvini joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar integrativ ta’lim samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi [8].

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, STEM ta’limi o‘quvchilarning quyidagi: tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, innovatsion fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

STEAM yondashuvining pedagogik ahamiyati

STEAM yondashuvi STEM modeliga san’at (Art) komponentini qo‘shish orqali uni boyitadi. Bu yondashuv kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. U o‘quvchilarda kreativ fikrlash va estetik tafakkurni rivojlantiradi. Tadqiqotlar STEAM yondashuvi divergent thinking (ko‘p yechimli fikrlash)ni shakllantirishini ko‘rsatadi [5].

STEAMning asosiy afzalliklari - ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, estetik didni shakllantiradi, innovatsion g‘oyalarni yaratishga undaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, STEAM yondashuvi o‘quvchilarda “divergent thinking” - ya’ni bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantiradi.

CLIL texnologiyasining nazariy asoslari

CLIL (Content and Language Integrated Learning) - bu mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish metodidir. CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi zamonaviy ta’lim metodologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonini integrativ tarzda tashkil etishga asoslanadi. Mazkur yondashuv o‘z mohiyatiga ko‘ra 4C modeli asosida qurilgan bo‘lib, u o‘quv jarayonining to‘rt asosiy tarkibiy komponentini qamrab oladi. Xususan, Content (mazmun) - o‘quvchilarga fan doirasidagi bilimlarni tizimli va chuqur o‘rgatishni nazarda tutadi; Communication (muloqot) - tilni amaliy qo‘llash orqali fikr almashish, o‘zaro muloqot qilish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishni ta’minlaydi; Cognition (tafakkur) - tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi; Culture (madaniyat) esa o‘quvchilarda madaniyatlararo ong, turli madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. David Coyle CLIL metodini kommunikativ va integrativ ta’lim modeli sifatida asoslab bergan [6]. Ushbu to‘rt komponentning o‘zaro uyg‘unligi CLIL yondashuvining samaradorligini ta’minlab, ta’lim jarayonini yanada integratsiyalashgan va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tizimga aylantiradi. O‘zbekistonlik metodist olimlar CLIL texnologiyasi o‘quvchilarning til kompetensiyasini oshirishda samarali ekanini ta’kidlaydilar [9].

CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining asosiy maqsadi ta’lim jarayonini integratsiyalashgan holda tashkil etish orqali til o‘rganishni tabiiy va samarali jarayonga aylantirishdan iboratdir. Bu yondashuv, avvalo, tilni sun’iy mashqlar asosida emas, balki real o‘quv

mazmuni orqali o‘zlashtirishni ta’minlab, til o‘rganish jarayonini tabiiylashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, CLIL fan va til integratsiyasini ta’minlash orqali o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida ham predmet bilimlarini, ham til kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada o‘quv jarayoni ko‘p funksiyali va amaliy yo‘naltirilgan tizimga aylanadi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi, ya’ni ular turli vaziyatlarda erkin fikr bildirish, muloqot qilish va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Umuman olganda, CLIL yondashuvi til o‘qitish jarayonini samarador, integratsiyalashgan va kommunikativ jihatdan boy ta’lim muhitiga aylantiradi.

Raqamli didaktika va uning ahamiyati

Raqamli didaktika - zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi. Mazkur yondashuv ta’limni raqamli muhitda samarali amalga oshirish, o‘quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli didaktikaning asosiy komponentlari sifatida elektron ta’lim (e-learning), masofaviy ta’lim, mobil ta’lim hamda sun’iy intellekt asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimlarini ko‘rsatish mumkin. Ushbu komponentlar ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan, qulay va samarali qilish imkonini beradi. UNESCO raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita ekanini ta’kidlaydi [3].

Shuningdek, raqamli didaktika o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga, ya’ni har bir ta’lim oluvchining bilim darajasi va qiziqishlariga mos o‘quv yo‘nalishini ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, adaptiv ta’lim (adaptiv learning) mexanizmlari orqali ta’lim mazmuni va murakkablik darajasi o‘quvchining o‘zlashtirish tezligiga moslashtiriladi. Raqamli didaktikaning yana bir muhim afzalligi ta’lim jarayonida interaktivlikni oshirish bo‘lib, bu o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli didaktika zamonaviy ta’limni individuallashtirish, moslashtirish va interaktivlik asosida rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi

Tadqiqot jarayonida kichik tajriba o‘tkazildi. Unda 2 ta guruh (jami 48 talaba) ishtirok etdi. Eksperimental guruhda STEM va CLIL asosida o‘qitish tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metod qo‘llanildi. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanildi. Pedagogik texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi zamonaviy ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish odatda bir necha bosqichda, ya’ni diagnostika, loyihalash, implementatsiya, monitoring va baholash jarayonlari asosida amalga oshiriladi. Diagnostika bosqichida o‘quvchilarning ehtiyojlari va mavjud bilim darajasi aniqlanadi, loyihalash bosqichida esa ta’lim maqsadlari va metodlari ishlab chiqiladi. Implementatsiya jarayonida esa rejalashtirilgan pedagogik texnologiyalar amaliyotga tatbiq etiladi, monitoring va baholash bosqichlari orqali esa ta’lim jarayonining samaradorligi tahlil qilinib, zarur tuzatishlar kiritiladi.

Amaliyotda pedagogik texnologiyalarning samarali qo‘llanilishiga STEM yo‘nalishidagi darslarda laboratoriya ishlari va amaliy tajribalar, CLIL yondashuvi asosida fanlarni ingliz tilida o‘qitish hamda raqamli ta’lim platformalari orqali test va baholash jarayonlarini tashkil etish kabi metodlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu innovatsion usullar ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda bilimlarni chuqur va tizimli o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, pedagogik texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining muammolari

Pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish jarayonida bir qator muammolar va cheklovlar kuzatiladi. Xususan, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi, ularning raqamli va metodik kompetensiyalarining to‘liq shakllanmaganligi muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi. [7; 8].

Shuningdek, ta’lim muassasalarida moddiy-texnik bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy texnik vositalar va raqamli infratuzilmaning cheklanganligi ham innovatsion texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, metodik ta’minotning sustligi, ya’ni zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarli darajada ishlab chiqilgan ilmiy-metodik qo‘llanmalar va tavsiyalarning yetishmasligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, ushbu omillar zamonaviy ta’lim texnologiyalarini to‘liq va samarali joriy etish jarayonini murakkablashtiradi hamda kutilgan pedagogik natijalarga erishish sur’atini sekinlashtiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ldi. Olingan natijalar eksperimental guruhda o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Ularning darsdagi faolligi va mustaqil fikrlashi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning motivatsiyasi kuchaydi hamda bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari rivojlandi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, STEM, CLIL va raqamli yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, STEM, STEAM, CLIL va raqamli didaktika yondashuvlari yagona integrativ tizim sifatida tahlil qilinib, ularning o‘zaro ta’siri va ta’lim samaradorligiga kompleks ta’siri ochib berildi.Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimi tub transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. An’anaviy bilim berishga asoslangan model o‘rnini kompetensiyaviy yondashuv egallamoqda. Bu esa pedagogik innovatsiyalarni joriy etishni nafaqat zarurat, balki strategik ehtiyojga aylantirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, STEM, STEAM, CLIL va raqamli didaktika kabi zamonaviy ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, STEM yondashuvi analitik va muhandislik tafakkurini shakllantirsa, STEAM kreativ fikrlashni rivojlantiradi. CLIL texnologiyasi esa til va fan integratsiyasi orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshiradi. Raqamli didaktika esa ta’lim jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, pedagog kadrlarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, raqamli infratuzilmaning cheklanganligi kabi omillar ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi: pedagoglarning innovatsion va raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda oshirish; ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash; STEM va CLIL asosida integrativ o‘quv dasturlarini ishlab chiqish; raqamli ta’lim platformalarini keng joriy etish; ta’lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Ularni samarali joriy etish orqali jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash mumkin. Kelgusida o‘qituvchilar malakasini oshirish, innovatsion metodlarni keng joriy etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey J. (1938). *Experience and Education*. https://archive.org/details/experienceeducat00dewe
2. Vygotsky L.S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press. https://www.hup.harvard.edu/books/9780674576292
3. UNESCO (2021). *Digital Education Report*. https://unesdoc.unesco.org
4. OECD (2019). *Future of Education and Skills 2030*. https://www.oecd.org/education/2030-project/

5. Bybee R. (2013). *The Case for STEM Education*. National Academies Press. https://nap.nationalacademies.org/catalog/13158/international-stem-education
6. Coyle D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press. https://www.cambridge.org/core/books/clil/
7. Abduqodirov A.A., Tolipov O‘., Ochilov M. *Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonini loyihalash*. (O‘quv qo‘llanma, Toshkent davlat pedagogika universiteti nashri) https://tdpu.uz (rasmiy universitet sayti)
8. Tolipov O‘., Usmonboeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari*. https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/127793
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish konsepsiyasi va ilmiy-metodik ishlanmalar*. https://edu.uz
10. O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti materiallari. *Innovatsion ta’lim va integrativ metodlar bo‘yicha ilmiy to‘plamlar*. https://pedagog.uz

INKLYUZIV TA’LIMDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY MOSLASHUVINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy moslashuvning bosqichlari, o‘qituvchi kompetensiyasi, psixologik qo‘llab-quvvatlash, sinfdagi ijtimoiy muhit, tengdoshlar munosabatlari va ota-onalar bilan ishlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning maktab muhitiga integratsiyasidagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishning samarali usullari ko‘rsatilgan. Maqola inklyuziv ta’lim tizimida ishlaydigan pedagog va psixologlar, shuningdek, ushbu soha tadqiqotchilari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich sinf, ijtimoiy moslashuv, pedagogik-psixologik xususiyatlar, maxsus ehtiyojli bolalar, tengdoshlar munosabati, o‘z-o‘zini baholash, bag‘rikenglik.

Jahon ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim g‘oyasi inson huquqlari, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan holda keng yoyilmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, boshlang‘ich maktab yoshi ijtimoiy moslashuvning eng sezgir davri hisoblanadi va aynan shu davrda nogironligi bo‘lgan yoki maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning tengdoshlari orasiga qo‘shilishi ularning keyingi hayotiy muvaffaqiyatlarini belgilaydi[1].

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – barcha bolalar, ularning psixofiziologik xususiyatlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olishlari va jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lib shakllanishlari uchun sharoit yaratishdir. Biroq, oddiygina bolani umumta’lim maktabiga qabul qilish yetarli emas. Eng muhimi, uning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, ya’ni o‘quvchining yangi ijtimoiy muhitda o‘zini qulay his qilishi, tengdoshlari bilan samarali muloqot qila olishi, o‘qituvchilar va boshqa xodimlar bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu jarayon o‘ziga xos qiyinchiliklarga ega, chunki ular hali o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, nizolarni hal qilish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini to‘liq shakllantirmagan bo‘ladi[2].

Pedagogik nuqtai nazardan, inklyuziv ta’limda ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyati bir qator omillarga bog‘liq. Birinchidan, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va inklyuziv kompetensiyasi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning aksariyati inklyuziv ta’limga nazariy jihatdan ijobiy munosabatda bo‘lsa-da, amalda maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda metodik qiyinchiliklarni boshdan kechiradi[3]. Shu sababli, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga differensial ta’lim, individual yondashuv, hamkorlikda o‘qitish va baholashning moslashuvchan usullarini kiritish zarur. Ikkinchidan, sinfdagi ijtimoiy muhitni tashkil etish: o‘qituvchi tengdoshlar o‘rtasida o‘zaro yordam, hurmat va bag‘rikenglik muhitini shakllantirishi lozim. Buning uchun maxsus psixologik treninglar, rolli o‘yinlar va guruhli loyihalar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, o‘quv dasturlari va materiallarini moslashtirish. Boshlang‘ich sinfda o‘quv materiallari asosan vizual va eshitish kanallariga mo‘ljallangan. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ularni brayl yozuvi, audio format, katta shrift yoki soddalashtirilgan tilda taqdim etish talab etiladi. Shuningdek, dars jarayonida texnik vositalar – ovoz kuchaytirgichlar, maxsus kompyuter dasturlari, sensorli ekranlar va boshqalardan foydalanish ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi, chunki bola o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib topshiriqlarni bajarishi va tengdoshlari bilan teng huquqli ishtirok etishi mumkin bo‘ladi[4].

Psixologik jihatdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvi bir necha bosqichlardan iborat. Birinchi bosqich – maktabga kirish davri (adaptatsiya). Bu davrda bola yangi tartib-qoidalarga, o‘qituvchining talablariga va sinfdagi boshqa bolalarga o‘rganadi. Maxsus ehtiyojli bola uchun bu bosqich ko‘pincha tashvish, o‘ziga ishonchsizlik va hatto qo‘rquv bilan kechadi. Psixologning vazifasi – bolaning hissiy holatini kuzatish, zarur hollarda individual maslahatlar berish va ota-onalar bilan hamkorlik qilishdir. Ikkinchi bosqich – integratsiya bosqichi.

Bola asta-sekin sinf jamoasining bir qismiga aylanadi, uning o‘rni va roli aniqlanadi. Bu bosqichda tengdoshlar tomonidan qabul qilinish yoki rad etilish muhim rol o‘ynaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv sinflarda maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan salbiy munosabat ko‘pincha ularning o‘ziga xos xatti-harakatlari (masalan, takrorlanuvchi harakatlar, nutq nuqsonlari yoki impulsivlik) tufayli yuzaga keladi[5]. Shu sababli, psixolog barcha bolalar bilan tushuntirish ishlarini olib borishi, ularga farqlarni qabul qilish va hurmat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi kerak.

Ijtimoiy moslashuvning muhim psixologik omili – o‘z-o‘zini baholashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘z-o‘zini baholash asosan tashqi baholashga – o‘qituvchi va tengdoshlarning fikriga bog‘liq. Agar maxsus ehtiyojli bola tez-tez tanqidga uchrasa, uning yutuqlari e’tibordan chetda qolsa, unda past o‘z-o‘zini baholash shakllanadi. Bu esa ijtimoiy moslashuvni jiddiy qiyinlashtiradi – bola muloqotdan qochadi, passiv bo‘lib qoladi yoki aksincha, tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyish etadi. Shuning uchun o‘qituvchi va psixolog birgalikda bolaning har bir muvaffaqiyatini rag‘batlantirish, uning kuchli tomonlarini ko‘rish va boshqalarga ko‘rsatish strategiyasini ishlab chiqishi lozim[6].

Inklyuziv ta’limda ijtimoiy moslashuvni amalga oshirishning yana bir muhim xususiyati – ota-onalar bilan ishlashdir. Ko‘pincha maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari haddan tashqari himoya qiluvchi yoki aksincha, bolaning muammolarini inkor etuvchi pozitsiyada bo‘ladi. Ikkala holat ham bolaning moslashuviga salbiy ta’sir qiladi. Psixolog ota-onalarga bolaning mustaqilligini rivojlantirish, unga tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatini berish va o‘z qo‘rquvlarini engishda yordam berishi kerak. Shu bilan birga, normativ rivojlanayotgan bolalarning ota-onalari bilan ham tushuntirish ishlari olib borilishi, ularning farzandlarida bag‘rikenglik va hamdardlikni tarbiyalashlari zarurligi tushuntiriladi[7].

Tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy moslashuvning markaziy omillaridan biridir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv sinflarda maxsus ehtiyojli bola ko‘pincha “chetlangan” holatga tushib qolishi mumkin. Buning oldini olish uchun o‘qituvchi va psixolog quyidagi usullardan foydalanadi: juftlik va kichik guruhlarda ishlash, bunda har bir guruh a’zosi o‘z hissasini qo‘sha oladi; “do‘st” tizimi – bir yoki bir nechta bola maxsus ehtiyojli bolaga kundalik vaziyatlarda yordam beradi; sinf soatlarida turli xil imkoniyatlarga ega odamlarning hayotidan misollar keltirish;

birgalikdagi sinfdan tashqari tadbirlar (ekskursiyalar, bayramlar, sport musobaqalari) uyushtirish. Ushbu usullar sinfda birlik va o‘zaro hurmat muhitini yaratishga xizmat qiladi[8].

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda empatiya va altruizmning yoshga oid xususiyatlarini hisobga olish muhim. 6-10 yoshli bolalar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatiga ega, ammo bu qobiliyat hali to‘liq rivojlanmagan. Psixolog o‘yinlar orqali bolalarda empatiyani rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazishi mumkin. Masalan, “Tuyg‘uni top” o‘yini, “Agar men uning o‘rnida bo‘lsam” kabi rolli vaziyatlar. Bunday mashg‘ulotlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolaning moslashuviga, balki barcha bolalarning hissiy intellektini rivojlantirishga xizmat qiladi[9].

Inklyuziv ta’limda ijtimoiy moslashuvning pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash modeli quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak: diagnostika (bolaning psixofiziologik xususiyatlarini, ijtimoiy muhitini va mavjud qiyinchiliklarini aniqlash); korreksion-rivojlantiruvchi ish (individual va guruhli mashg‘ulotlar, logopedik yordam, sensor va motorik rivojlantirish); konsultativ ish (o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar); ta’lim muhitini moslashtirish (sinf jihozlari, o‘quv materiallari, vaqt va makonni tashkil etish). Ushbu modelning barcha komponentlari o‘zaro bog‘liq holda ishlashi kerak, aks holda yaxshi natijaga erishish qiyin[10].

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u pedagogik va psixologik bilimlarning integratsiyasini talab qiladi. Muvaffaqiyatli moslashuvning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: o‘qituvchining tayyorgarligi va motivatsiyasi, psixologning tizimli ishtiroki, sinfdagi qulay ijtimoiy muhit, o‘quv dasturlari va materiallarining moslashtirilganligi, ota-onalar bilan samarali hamkorlik, hamda tengdoshlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamkorlik munosabatlarini shakllantirish. Kelgusida tadqiqotlarni inklyuziv sinflarda uzoq muddatli kuzatuvlar, samarali metodikalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish va turli mintaqalardagi maktablarning tajribasini qiyosiy tahlil qilish yo‘nalishida davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Faqat shundagina har bir bola, uning imkoniyatlaridan qat’i nazar, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va to‘laqonli hayot kechirishi mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati :

1. Ainscow M., Booth T. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: CSIE, 2002.

2. Qodirova F. Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020.

3. Avramidis E., Norwich B. Teachers’ attitudes towards integration/inclusion: a review of the literature // European Journal of Special Needs Education. – 2002. – Vol. 17, No. 2. – P. 129-147.

4. Florian L. Inclusive Pedagogy: A transformative approach to individual differences // British Journal of Educational Psychology. – 2015. – No. 85. – P. 21-35.

5. Schwab S. Social dimensions of inclusion in education of 4th and 7th grade pupils in inclusive and regular classes // International Journal of Inclusive Education. – 2015. – Vol. 19, No. 6. – P. 561-575.

6. Karimova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018.

7. Guralnick M.J. Early Intervention for Children with Intellectual Disabilities // Journal of Intellectual Disability Research. – 2017. – Vol. 61, No. 5. – P. 425-438.

8. Frederickson N., Cline T. Special Educational Needs, Inclusion and Diversity. – London: Open University Press, 2015.

9. Shamshidinova D. Inklyuziv ta’limda psixologik xizmat. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2021.

10. Mitchell D. What Really Works in Special and Inclusive Education. – London: Routledge, 2014.

INSON QADRI - YANGI O ‘ZBEKISTON SIYOSATINING ASOSI

S.I.Tursunqulov
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat siyosatida “inson qadri” tamoyilining ustuvor ahamiyati va uning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” doirasida ro‘yobga chiqarilayotganligi tahlil qilinadi. Ta’kidlanishicha, “inson qadri uchun” printsipi davlat organlari faoliyatining bosh mezoni bo‘lib, strategiyaning barcha yo‘nalishlari (xalqparvar davlat barpo etish, inson kapitalini rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat) inson manfaatlari ustuvorligiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, taraqqiyot strategiyasi, xalqparvar davlat, davlat boshqaruvi islohotlari, siyosiy tamoyillar, fuqarolik jamiyati, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitali

Asosiy qomusimiz Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so’zsiz bajarish, shuningdek, **“**Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to’la ro’yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo’lib qoladi[1]. Taraqqiyot strategiyasi har bir ustuvor yo’nalishi nomlanishidan boshlab, mazmun-mohiyatigacha Inson qadrini ulug‘lashga yo’naltirilgan. Xususan, birinchi ustuvor yo’nalish oddiygina “xalqparvar davlat barpo etish”, deb emas, balki “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” ekanligiga urg‘u berilgan, Shuningdek, to’rtinchi ustuvor yo’nalish sifatida esa “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini[2] yanada rivojlantirish” belgilanmoqda.

2017 yildan buyon amalga oshirilayotgan davlat dasturlarida, eng avvalo, davlat organlari va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlar xarakteriga bo’lgan yondashuvning o’zgarganligi, ular ko’proq o’zaro muloqotga asoslanib borayotganligida namoyon bo’lmoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomalarida o’tkir muammolarga e’tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo’llari ko’rsatib berilmoqda. Islohotlar negizini *“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”* degan demokratik qoida tashkil etmoqda va uni izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy chora-tadbirlari belgilab berilmoqda.

Ta’kidlash joizki, har bir inson hayotdan rozi bo’lib turmush kechirishiga erishish–mamlakatimizda davlat siyosatining bosh maqsadiga aylandi. Demokratik taraqqiyot yo’lidagi yuksak marralarga erishish ko’p jihatdan xalqimizning bunyodkorlik salohiyatiga tayanishni nazarda tutadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadida huquqiy asoslar takomillashtirildi. Jumladan, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g‘risida” gi (Yangi tahrirda – 2017-yil 11-sentyabr)[3], “Jamoatchilik nazorati to’g‘risida”gi (2018-yil 12-aprel)[4], “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to’g‘risida”gi (2018-yil 15-oktyabr)[5] qonunlar hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik

[1] Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016. –Б.8.
[2] F.Otaxonov. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladi // https://uza.uz/oz/posts/2022-2026-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasi-inson-qadrini-uluglashga-xizmatqiladi_335187
[3] “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги таҳрири). 2017 йил 11 сентябрь // https://lex.uz/docs/3336169
[4] Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида” ги Қонуни. 2018 йил 12 апрель // https://lex.uz/docs/3679092
[5] Ўзбекистон Республикасининг “Фуқаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисида” ги Қонуни. 2018 йил 15 октябрь // https://lex.uz/docs/3988421

jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi[1], “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasini tashkil etish to’g‘risida”gi[2] farmonlari qabul qilindi. Buning natijasida davlat tuzilmalari faoliyatining metodologiyasi va ish uslubi tubdan o’zgarmoqda. Fuqarolar davlatga o’z muammolarining yechimini topishda eng ishonchli institut, deb qaray boshladi. Aholining turli tabaqa vakillarida davlatga bo’lgan ishonch tobora o’sib bormoqda. Boshqaruv tizimida insoniy yondashuv ustuvor talabga aylanmoqda. Xalq bilan muloqot tizimli ish boshladi, uyma-uy, xonadonma-xonadon yurib odamlarning muammolarini yechish, hamkorlik va real ko’mak taklif etish amaliyoti yo’lga qo’yildi[3].

Shu borada bir fikrni hammamiz chuqur tushunib olishimizni istardik. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik islohotlar samarasi avvalo, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq[4]”. Darhaqiqat, so’nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar shuni ko’rsatdiki, davlat xizmati faoliyati samaradorligini yanada oshirishda malakali, shijoatli yosh kadrlarni saralab olish, tayyorlash va ularni munosib lavozimlarga joylashtirish ishiga tizimli yondashuv talab etilmoqda. Xususan, uzoq yillar davlat fuqarolik xizmati masalalari bo’yicha vakolatli organning mavjud emasligi bu borada yagona kadrlar siyosatini olib borilishiga to’sqinlik qilardi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O’zbekistonda ham davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirishni va isloh qilish bo’yicha asosiy tamoyili sifatida *meritokratiya tamoyilini* qo’llash[5] ustuvor yo’nalishga aylanmoqda. Bu esa kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va ob’ektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo’yicha ko’tarilishini nazarda[6] tutadi.

Demokratik jamiyat meritokratik boshqaruv shaklini taqozo etishi, tabiiy. Bu, albatta, boylik mavqeini belgilaydigan plutokratiyadan yoki odamni yoshi hokimiyat cho’qqilariga ko’taradigan gerontokratiyadan yoki meros unvonlari va mulki birinchi darajali ahamiyatga ega bo’lgan aristokratiyadan afzalroqdir[7].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida[8]”gi PF-5843-son Farmoni hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini

---

[1] “Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг ролини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2018 йил 4 май // https://lex.uz/docs/3721649

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5980. / https://lex.uz/docs/4789926

[3] М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2017. – ББ. 20-21.

[4] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конституцияси қабул қилинганининг йигирма беш йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // https://president.uz/uz/lists/view/1328

[5] *Meritokratiya (so‘zma-so‘z “munosiblar hokimiyati”, lotincha meritus “munosib” + yunoncha kratos “hokimiyat, hukmronlik”) boshqaruv tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra, ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy holatidan qat'i nazar, eng qobiliyatli kishilar rahbarlik lavozimlarini egallashi kerak. Keng tarqalgan tushuncha bo‘lib, ob'ektiv iqtidorli va mehnatsevar odamlar uchun kelajakda erkin raqobat sharoitida yuqori ijtimoiy mavqeni egallash imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun boshlang‘ich sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. – Muallif izohi.*

[6] Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5843. //https://lex.uz/docs/4549998

[7] Дарендорф Р. Подъем и падение меритократии. Apr 13, 2005. https://www.projectsyndicate.org/commentary/the-rise-and-fall-of-meritocracy/russian

[8] Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5843. //https://lex.uz/docs/4549998

rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PQ–4472-son qarori[1] hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to’g‘risida”gi O’RQ-788-son Qonunining qabul qilinishi[2] davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. O’zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish[3]ga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturida Davlat fuqarolik xizmati to’g‘risidagi qonunchilikni xorijiy ekspertlarning tavsiyalari va keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtirish orqali O’zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatining asosiy tushunchalari, reglamentlari va kafolatlarini qonun bilan mustahkamlash vazifasi qo’yildi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda demokratik taraqqiyot yo’lida sur’at va sifatda ulkan qadamlar tashlanmoqda, demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan, qat’iy tus olganini dunyo hamjamiyati ham e’tirof etmoqda. Ilg‘or davlatlar tajribalari shuni ko’rsatmoqdaki, yuqori taraqqiyot sur’atlarini bu jarayonga jalb etmasdan amalga oshirish qiyin kechadi. Bu borada “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Davlatimiz rahbari murojaatnomasida ilgari surilgan “*Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”* g‘oyasi fuqarolik jamiyati institutlarini mamlakatimizda izchil demokratik taraqqiyotni amalga oshirishda asosiy yordamchiga aylantiradi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

Xayrullayeva Maxliyo Rustam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. XXI asr globallashuv davrida barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim sohasi ham alohida o‘rin egallagan. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilib bu borada bir qancha qonunlar, farmon farmoyishlar qabul qilindi. STEAM ta’lim texnologiyasini qo‘llash joriy qilindi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, takomillashtirish, steam ta’lim texnologiyasi, konstruktor o‘yinlar, muhandislik elementlari, tanqidiy fikrlash, intellektual qobiliyatlar, zamonaviy metod, kompleks, kompetensiya.

O‘zbekiston Respublikasi XXI asr globallashuv davrida barcha sohalarda ilg‘or natijalarga erishmoqda . Bir qancha yangiliklar yaratilib,bular jumlasiga ta’lim sohasida ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritib kelyabdi. Uzluksiz talimning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan Maktabgacha ta’limga ham juda katta e’tibor qaratilib bir necha qonun va qarorlar, yangiliklar joriy qilindi.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining

[1] Қ.Қ.Куронбоев, Х.Т.Азизов, М.Б.Бекмуродов ва бошқ. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезони. Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2020 й. – Б.186.

[2] Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон.

[3] Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5843. //https://lex.uz/docs/4549998

«Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlardan ham ko‘rinib turibdiki ushbu sohaga qaratilayotgan e’tibor qay darajada ekanligi. Maktab ta’limi sohasida STEAM ta’lim texnologiyasini qo‘llash joriy etish, samarali natija bergani bois Maktabgacha ta’limda ham STEAM ta’limini qo‘llash joriy qilindi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda STEAM ta’limi alohida o‘rin tutadi.

STEAM — atamasi

Science (fan);

Technology (texnologiya);

Engineering (muhandislik);

Art (san’at)

Mathematics (matematika) yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan ta’lim tizimidir. Ushbu yondashuv bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi.

Avvalo, STEAM ta’limi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda bola nafaqat bilim oladi, balki fikrlash, tasavvur qilish va ijod qilishni ham o‘rgana, djdi. Masalan, oddiy konstruktor o‘yinlari orqali bolalar muhandislik elementlarini tushuna boshlaydi, ranglar va shakllar bilan ishlash orqali esa san’atga qiziqishi ortadi. Shu tariqa ularning aqliy va ijodiy salohiyati birgalikda rivojlanadi.

Bundan tashqari, STEAM ta’limi bolalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Faoliyatlar davomida bolalar turli savollar beradi, tajribalar o‘tkazadi va muammolarga yechim izlaydi. Bu esa ularni faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki izlanadigan, o‘ylaydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ayniqsa, kichik yoshdan boshlab muammolarni hal qilish ko‘nikmasining shakllanishi kelajakdagi muvaffaqiyat uchun muhim omil hisoblanadi.

STEAM ta’limining yana bir muhim afzalligi — amaliy o‘rganishga asoslanganligidir. Bolalar ko‘proq tajriba o‘tkazish, qurish, yaratish orqali bilim oladi. Masalan, suv bilan o‘tkazilgan oddiy tajribalar orqali tabiiy hodisalarni tushunishadi yoki qurilish o‘yinlari orqali muvozanat va shakl tushunchalarini anglab yetishadi. Bu usul bolalarda bilimni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, STEAM ta’limi bolalarda jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Guruhda bajariladigan vazifalar orqali bolalar bir-biri bilan fikr almashadi, yordam beradi va hamkorlikda natijaga erishadi. Bu esa ularning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim tizimida STEAM yondashuvi keng qo‘llanilib ko‘plab olimlar tomonidan uning samaradorligi ilmiy asoslangan. Olimlarning fikricha, aynan erta yosh davri bolaning intellektual va ijodiy rivojlanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi.

Mashhur pedagog va psixolog Jean Piaget ta’kidlaganidek, bolalar bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni o‘z tajribasi orqali “quradi”. STEAM ta’limi aynan shu tamoyilga asoslanib, bolani faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Tajriba qilish, kuzatish va sinab ko‘rish orqali bola bilimni chuqurroq anglaydi.

Shuningdek, Lev Vygotsky o‘zining ijtimoiy rivojlanish nazariyasida ta’lim jarayonida muloqot va hamkorlik muhimligini alohida ta’kidlaydi. STEAM mashg‘ulotlari ko‘pincha guruhda tashkil etilgani sababli, bolalar o‘zaro fikr almashadi, bir-biridan o‘rganadi va bu ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amerikalik pedagog John Dewey esa “o‘rganish — bu faoliyat orqali amalga oshadi” degan g‘oyani ilgari surgan. Uning fikricha, bolalar amaliy faoliyat orqali bilimni samarali o‘zlashtiradi. STEAM ta’limida aynan tajriba, loyiha va amaliy mashg‘ulotlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Bundan tashqari, Maria Montessori ta’limda bolaga erkinlik berish, uning qiziqishlariga asoslanish zarurligini ta’kidlaydi. STEAM yondashuvi ham bolalarning qiziqishlarini hisobga olib, ularni mustaqil izlanishga undaydi va tabiiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida STEAM ta’limini qo‘llash bolalarni har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar ham STEAM ta’limining ahamiyatini yuqori baholamoqda. Ularning fikricha, bu yondashuv bolalarda tanqidiy

fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va innovatsion yondashuv kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, STEAM ta’limi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida nafaqat zamonaviy metod, balki bola shaxsini kompleks shakllantiruvchi muhim pedagogik tizimdir. Jean Piaget, Lev Vygotsky, John Dewey va Maria Montessori kabi olimlarning nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, bola rivoji faoliyat, muloqot, mustaqillik va tajriba orqali amalga oshadi — aynan shu jihatlar STEAM yondashuvining asosini tashkil etadi.

Chuqurroq qaraganda, STEAM ta’limi bolaning faqat bilim olish jarayonini emas, balki uning fikrlash uslubini o‘zgartiradi. Ya’ni, bola tayyor javoblarni yodlashdan ko‘ra, savol qo‘yishga, izlanishga va o‘z xulosasini chiqarishga o‘rganadi. Bu esa unda “o‘rganishni o‘rganish” kompetensiyasini shakllantiradi.Natijada bola kelajakda yangi vaziyatlarga moslasha oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va muammolarni kreativ hal eta oladigan shaxsga aylanadi.

Shuningdek, STEAM ta’limi orqali bola dunyoni yaxlit holda idrok eta boshlaydi. An’anaviy ta’limda fanlar alohida o‘rgatilsa, STEAM yondashuvida ular o‘zaro bog‘liq holda beriladi. Bu esa bolada tizimli fikrlashni rivojlantirib, atrof-muhitdagi hodisalarni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, STEAM ta’limi bolalarda xatoga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi. Tajriba jarayonida xatolar tabiiy hol sifatida qabul qilinadi va bu bola ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U qo‘rqmasdan sinab ko‘rishga, yangilik yaratishga intiladi. Bu esa innovatsion fikrlashning shakllanishida muhim omildir.

Eng muhimi, STEAM ta’limi bolani kelajak hayotga tayyorlaydi. Hozirgi tez o‘zgarayotgan zamonda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun faqat bilim emas, balki moslashuvchanlik, ijodkorlik va hamkorlik kabi ko‘nikmalar zarur. STEAM esa aynan shu kompetensiyalarni erta yoshdan rivojlantiradi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, STEAM ta’limi — bu bolani faqat bugungi kun uchun emas, balki kelajak uchun tarbiyalaydigan, uning ichki salohiyatini ochib beradigan va uni faol, mustaqil hamda ijodkor shaxs sifatida shakllantiradigan eng samarali yondashuvlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi prezidentining Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga oid qarorlari va farmonlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi ’’Ilk qadam’’ variativ davlat o‘quv dasturi.
3. Jean Piaget. Bola psixologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. Lev Vygotsky. Tafakkur va nutq. — Toshkent: Fan, 2005.
5. John Dewey. Tajriba va ta’lim. — Toshkent: Istiqlol, 2003.
6. Maria Montessori. Montessori metodikasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
7. UNESCO. Barqaror rivojlanish uchun ta’lim maqsadlari. — Toshkent, 2017.

BOLALAR MUSIQA MAKTABLARIDA FORTEPIANO O‘QITISHDA O‘YIN VA IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

G.S.Muhiddinova
Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalar musiqa va san’at maktablarida fortepiano o‘qitish jarayonida o‘yin va ijodiy topshiriqlardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘yin texnologiyalari va ijodiy faoliyat elementlarining o‘quvchilarning

musiqiy eshitish qobiliyati, ritmik sezgisi, ijodiy tafakkuri va ijrochilik mahoratini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda ochib berilgan. Tadqiqot natijalari fortepiano ta’limida interfaol yondashuvlar yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Fortepiano ta’limi, bolalar musiqa maktabi, musiqiy pedagogika, o‘yin texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar, fortepiano o‘qitish metodikasi, interfaol ta’lim, musiqiy ijodkorlik, o‘quvchi faolligi, musiqa ta’limi samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, yosh pianinochilar, amaliy mashg‘ulotlar, motivatsiya, estetik tarbiya, musiqiy tafakkur, ta’lim jarayoni, ijro mahorati, kreativ yondashuv.

Guliston davlay pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSh, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlari) tajribasi tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ta’minlashning institutsional mexanizmlari, "inklyuziv demokratiya" tamoyillari va ijtimoiy adaptatsiya modellarining siyosiy qarorlar qabul qilishdagi o‘rni o‘rganilgan. Xorij tajribasiga tayanib, nogironligi bo‘lgan shaxslarni passiv ijtimoiy obyektlardan faol siyosiy subyektlarga aylantirishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: nogironligi bo‘lgan shaxslar, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, xorij tajribasi, inklyuziv siyosat, siyosiy ishtirok, ijtimoiy model, demokratik jarayonlar

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy faolligi, siyosiy ongi va madaniy hayotda ishtiroki zamonaviy jamiyatlar uchun dolzarb masalalardan biridir. XXI asrning global rivojlanish tendensiyalari nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, ularning siyosiy, madaniy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks siyosatni shakllantirishni talab qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongini va madaniy hayotga integratsiyasini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlaydi, balki demokratik institutlarning mustahkamlanishiga ham hissa qo‘shadi. nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligi va madaniy ishtirokini oshirishda samarali mexanizmlar mamlakatning siyosiy institutlari, qonunchilik bazasi, ijtimoiy tashkilotlar faoliyati hamda madaniy va ta’lim resurslarining uyg‘unligi bilan bog‘liq. Shu bois, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari – masalan, G‘arbiy Yevropa davlatlarida inklyuziv siyosiy model, Shimoliy Amerika mamlakatlarida fuqarolik faoliyati va madaniyatni rivojlantirishdagi imkoniyatlar tizimi – nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy va madaniy ongini shakllantirishda muhim pedagogik, siyosiy va metodologik ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kechayotgan demokratik transformatsiyalar sharoitida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish masalasi “inklyuziv jamiyat” barpo etishning muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. “Garbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu qatlamning siyosiy faolligi nafaqat huquqiy kafolatlar, balki ijtimoiy himoyaning “huquqiy-ijtimoiy modeli” asosida shakllangan. Ushbu modellarning shakllanishida bir qator olimlarning nazariyt qarashlari fundamental asos sifatida xizmat qiladi. Xususan Britaniyalik sotsiolog olim M.Oliver nogironlikning ijtimoiy modelini fanga kiritgan. Uning tadqiqotlarini asosini, “Nogironlik bu individual holat emas, balki jamiyatning ushbu shaxslarni integratsiya qila olmasligining natijasidir, shuning uchun siyosiy madaniyatning asosi

nogironlarni davolashda emas, balki jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etishda namoyo bo‘ladi” g‘oyasi tashkil etadi[1].

Shuningdek, Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen o‘zining “Imkoniyatlar yondashuvi” (Capability Approach) doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligini baholar ekan, “Haqiqiy siyosiy erkinlik va madaniyat shaxsning shunchaki huquqlarga ega bo‘lishida emas, balki ushbu huquqlardan amalda foydalanish va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi”[2]. Amerikalik faylasuf M.Nussbaum esa Nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ishtirokini inson qadr-qimmatining ajralmas qismi deb baholaydi va “Demokratik jamiyatning asosiy vazifasi – intellektual yoki jismoniy holatidan qat’iy nazar, har bir fuqaroning siyosiy rejalashtirishda ishtirok etish qobiliyatini kafolatashdir”[3] degan fikrni asoslab beradi.

Skandinaviya mamlakatlarida (Shvetsiya, Norvegiya) “teng imkoniyatlar” tushunchasi siyosiy madaniyatning o‘zagini tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar shunchaki yordam oluvchi passiv qatlam emas, balki mahalliy va davlat miqyosidagi qarorlar qabul qilish jarayonining faol ishtirokchilaridir. Ushbu mamlakatlarda “universal dizayn” tamoyili faqat arxitektura bilan cheklanmay, siyosiy kommunikatsiyalarga ham tadbiq etilgan. Masalan, siyosiy partiyalarning dastuyrlari, saylovoldi targ‘ibot materiallari va davlat xizmatlari portalining nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘liq moslashtirilgan shuning natijasida siyosiy axborot olish imkoniyatini beradi hamda siyosiy ong va madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi[4].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ong va madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xos modeli jahon miqyosida "huquqlarga asoslangan yondashuv"ning eng yetakchi namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimning konseptual asosi 1990-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo‘lgan amerikaliklar to‘g‘risida"gi qonun (ADA – Americans with Disabilities Act) bo‘lib, u nogironlikni tibbiy nuqson emas, balki fuqarolik huquqlarining bir qismi sifatida e’tirof etadi. Amerika tajribasida siyosiy ongni rivojlantirishning birinchi muhim bo‘g‘ini – bu siyosiy himoya (advocacy) harakatlarining kuchliligi bo‘lib, "Biz haqimizda bizsiz hech narsa" (Nothing About Us Without Us) tamoyili ostida nogironlar tashkilotlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etadi. AQShda nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy madaniyati saylov infratuzilmasining to‘liq moslashuvchanligi orqali yuksaltiriladi; xususan, "Ovoz berishda yordam berish to‘g‘risida"gi qonun (HAVA) har bir saylov uchastkasida ko‘zi ojizlar yoki harakati cheklanganlar uchun maxsus texnologiyalar bo‘lishini majburiy qilib qo‘ygan. Bu esa ushbu toifadagi fuqarolarda o‘z ovozining ahamiyatiga bo‘lgan ishonchni va davlat boshqaruvidagi sub’yektlik hissini kuchaytiradi. Bundan tashqari, AQShda nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi sotsializatsiyasida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va maxsus "Mustaqil yashash markazlari" (Centers for Independent Living) hal qiluvchi rol o‘ynaydi; ular nogironligi bo‘lgan fuqarolarga nafaqat huquqiy yordam beradi, balki ularni siyosiy yetakchilikka, lobbiga va saylovlarda nomzod sifatida ishtirok etishga o‘rgatadi. Amerika modelining yana bir o‘ziga xos jihati – bu inklyuziv ta’lim va axborot ochiqligi bo‘lib, siyosiy partiyalarning dasturlari, nomzodlarning chiqishlari va barcha siyosiy materiallar surdotarjima, brayl yozuvi yoki oson o‘qiladigan formatlarda taqdim etilishi shart. Bunday keng ko‘lamli tizim nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning passiv a’zosidan, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi, o‘z huquqlarini yaxshi biladigan va ularni himoya qila oladigan faol siyosiy qatlamga aylantirishga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xosligi shundaki, ushbu mamlakat nogironlikning "ijtimoiy modeli"

[1] Oliver M. The Politics of Disablement: A Sociological Approach / M. Oliver. – New York: St. Martin's Press, 1990. – 152 p.
[2] Sen A. Development as Freedom / A. Sen. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.
[3] Nussbaum M. C. Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species Membership / M. C. Nussbaum. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006. – 487 p.
[4] Simonsen E. Disability history in Scandinavia: Part of an International Research Field. Scandinavian Journal of Disability Research. Vol. 7, No. 3 /4, 137 /154, 2005

(Social Model of Disability) fan va amaliyotga kirib kelgan asosiy markaz hisoblanadi. Britaniya tajribasida nogironlik shaxsning jismoniy nuqsoni emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to‘siqlar (infratuzilma, munosabat va axborot cheklovlari) natijasi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, mamlakatda siyosiy madaniyatni yuksaltirishning asosi ushbu to‘siqlarni bartaraf etish va nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi bevosita ishtirokini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Britaniya modelining markaziy huquqiy asosi 2010-yilda qabul qilingan "Tenglik to‘g‘risida"gi qonun (Equality Act 2010) bo‘lib, u davlat va xususiy sektor zimmasiga nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun siyosiy va ijtimoiy hayotda "oaqilona moslashtirish" (reasonable adjustments) majburiyatini yuklaydi. Siyosiy ongni rivojlantirishda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tashkil etilgan "Siyosiy ishtirok fondi" (Enabling Fund for Elected Office) muhim rol o‘ynaydi; ushbu fond nogironligi bo‘lgan nomzodlarning saylov kampaniyalari davomida yuzaga keladigan qo‘shimcha xarajatlarini (masalan, surdotarjimon, maxsus transport yoki yordamchi xizmati) qoplab beradi, bu esa ularda siyosiy yetakchilik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Britaniyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy faolligi nafaqat saylov huquqi, balki "Vakillik demokratiyasi" tamoyili orqali namoyon bo‘ladi; mamlakat parlamentida (Lordlar palatasi va Jamoalar palatasi) nogironligi bo‘lgan deputatlar salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, ular maxsus parlamentlararo guruhlar orqali nogironlik siyosatini nazorat qiladilar. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyadagi "Nogironlar tashkilotlari koalitsiyasi" (BCODP) kabi fuqarolik jamiyati institutlari nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida siyosiy savodxonlikni oshirish, ularni lobbizm va o‘z huquqlarini himoya qilish san’atiga o‘rgatish bo‘yicha tizimli seminarlar o‘tkazadi. Britaniyada barcha hukumat hisobotlari va saylov materiallari "Easy Read" (Oson o‘qiladigan format) versiyalarida chop etiladi, bu esa intellektual rivojlanishida o‘ziga xosligi bo‘lgan shaxslarning ham siyosiy jarayonlarni tushunishi va ongli tanlov qilishini ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, Buyuk Britaniya tajribasi nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamdan, davlat siyosatini shakllantiruvchi va boshqaruvda teng huquqli ishtirok etuvchi faol siyosiy subyektga aylantirishning samarali mexanizmini namoyish etadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirish zamonaviy demokratik jamiyatlarning inklyuzivlik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda shakllangan xorij tajribasi o‘ziga xos konseptual modellarga tayanadi. Xalqaro amaliyotda, xususan, AQSh, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida nogironlikka nisbatan "tibbiy model"dan voz kechilib, "ijtimoiy model"ga o‘tilishi nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatning passiv ijtimoiy himoya obyektidan faol siyosiy subyektiga aylantirishning nazariy asosi bo‘lib xizmat qildi. Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasida 1990-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo‘lgan amerikaliklar to‘g‘risida"gi qonun (ADA) nafaqat jismoniy to‘siqlarni bartaraf etish, balki nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy huquqlarini himoya qilish (advocacy) va ularning saylov jarayonlaridagi mustaqil ishtirokini ta’minlash orqali siyosiy sotsializatsiyaning yuksak darajasini ta’minladi. Skandinaviya mamlakatlarida, xususan Shvetsiya va Norvegiyada nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy madaniyati "universal dizayn" va "korporativ inklyuzivlik" tamoyillari asosida rivojlanib, bu yerda davlat va nogironlar manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlar o‘rtasida mustahkam ijtimoiy sheriklik tizimi yo‘lga qo‘yilgan; mazkur tizim doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslar qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni ekspertizadan o‘tkazish jarayonlariga bevosita jalb qilinadi, bu esa ularning siyosiy mas’uliyat va ishtirok tuyg‘usini shakllantiradi. Germaniya tajribasida esa maxsus kvotalar tizimi va siyosiy partiyalar tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxslarning vakilligini ta’minlovchi ichki mexanizmlar orqali ularning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi hissasi institutsional darajada mustahkamlangan. Raqamli texnologiyalar asrida Estoniya va AQSh kabi davlatlarda joriy etilgan elektron ovoz berish va virtual siyosiy platformalar jismoniy harakati cheklangan fuqarolarning siyosiy maydondagi axborot olish va o‘z irodasini ifodalash imkoniyatlarini kengaytirib, ularning siyosiy ongi sotsializatsiyasini tezlashtirmoqda. Xorij tajribasini tizimlashtirish shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish faqat qonuniy huquqlar berish bilan cheklanmay, balki jamiyatda "inklyuziv siyosiy muhit" yaratish, saylov infratuzilmasini moslashtirish hamda maxsus ta’lim

dasturlari orqali ularning siyosiy savodxonligini tizimli ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Bunday kompleks yondashuv nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini deklarativ harakterdan real demokratik amaliyotga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyoitlar ro‘yxati:

1. Oliver M. The Politics of Disablement: A Sociological Approach / M. Oliver. – New York: St. Martin’s Press, 1990. – 152 p.
2. Sen A. Development as Freedom / A. Sen. – Oxford: Oxford University Press, 1999. – 366 p.
3. Nussbaum M. C. Frontiers of Justice: Disability, Nationality, Species Membership / M. C. Nussbaum. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2006. – 487 p.
4. Simonsen E. Disability history in Scandinavia: Part of an International Research Field. Scandinavian Journal of Disability Research. Vol. 7, No. 3 /4, 137 /154, 2005

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDAGI NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGINI TASHKIL ETISH

Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich
MTTDMQTMOI tayanch doktoranti

Anotatsiya. Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati monitoringini tashkil etish masalalari yoritilgan. Xususan, ta’lim sifati monitoringining mazmun-mohiyati, uning ahamiyati hamda samarali tashkil etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, monitoring jarayonida ichki va tashqi nazorat tizimlarini joriy etish, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda pedagog kadrlar malakasini oshirishning o‘rni asoslab berilgan. Maqolada mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va samarali boshqaruvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik (DXSh), nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ta’lim sifati, monitoring, baholash tizimi, ta’lim standartlari, maktabgacha ta’lim, pedagogik faoliyat, sifat nazorati, raqamli monitoring, ta’lim samaradorligi, boshqaruv mexanizmlari, ota-onalar ishtiroki, uzluksiz ta’lim, innovatsion yondashuvlar.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida inson kapitalini rivojlantirish har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning boshlang‘ich bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida aynan maktabgacha yosh davri hal qiluvchi bosqich bo‘lib, bu davrda berilgan ta’lim va tarbiya keyingi ta’lim bosqichlarining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini ta’minlash masalasi bugungi kunda dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, davlat tomonidan sohaga investitsiyalar jalb etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda ta’lim xizmatlari qamrovini kengaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni keskin ortdi va aholining ushbu xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji tobora kengroq qamrab olina boshladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirib, xizmatlar sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Biroq, maktabgacha ta’lim xizmatlari ko‘lamining kengayishi bilan bir qatorda, ta’lim sifati ustidan tizimli nazoratni yo‘lga qo‘yish

zarurati ham ortib bormoqda. Chunki nodavlat sektorning faol rivojlanishi sharoitida barcha tashkilotlarda ta’lim sifati bir xil darajada ta’minlanmasligi, ayrim hollarda belgilangan davlat standartlaridan chetga chiqish ehtimoli mavjud. Shu bois, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati monitoringini samarali tashkil etish muhim ilmiy va amaliy masalaga aylanmoqda.

Ta’lim sifati monitoringi — bu ta’lim jarayonini muntazam kuzatish, baholash va tahlil qilish orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mazkur jarayon nafaqat ta’lim standartlariga rioya etilishini nazorat qilish, balki ta’lim muassasalarida mavjud muammolarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, DXSh asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida monitoring tizimini joriy etish orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlash, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati monitoringini tashkil etishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) — bu davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik tizimi bo‘lib, u ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu mexanizmda davlat va xususiy tashkilotlar o‘z resurslari, tajribasi va imkoniyatlarini birlashtirgan holda xizmatlar ko‘rsatish yoki infratuzilma yaratishda hamkorlik qiladi.

DXShning asosiy mohiyati shundaki, davlat ijtimoiy sohalarda (ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va boshqalar) xizmatlar sifati va qamrovini oshirish uchun xususiy sektor imkoniyatlaridan foydalanadi. Xususiy sektor esa o‘z navbatida investitsiya kiritish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv yondashuvlarini qo‘llash orqali ushbu jarayonda ishtirok etadi. Maktabgacha ta’lim tizimi misolida qaralganda, DXSh davlatga bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, yangi bog‘chalar tashkil etish va ta’lim sifatini yaxshilash imkonini beradi. Xususiy sektor esa o‘z tashabbuskorligi va moslashuvchan boshqaruv tizimi orqali ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni olib kiradi. Shu tariqa, davlat-xususiy sheriklikning mohiyati — bu davlatning ijtimoiy majburiyatlarini xususiy sektor bilan hamkorlikda samarali amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlashdan iboratdir.

Ta’lim sifati monitoringi ta’lim tizimining samaradorligini doimiy ravishda kuzatish, tahlil qilish va baholashga xizmat qiladigan muhim boshqaruv vositasidir. U ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida — rejalashtirishdan tortib natijalarni baholashgacha — sifatni ta’minlash va uni yaxshilash imkonini beradi.

Avvalo, monitoring ta’lim muassasalarida belgilangan davlat ta’lim standartlariga rioya etilishini nazorat qilishga yordam beradi. Bu esa ta’lim jarayonining bir xil mezonlar asosida olib borilishini ta’minlaydi va sifatdagi tafovutlarni kamaytiradi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida bu juda muhim bo‘lib, bolalarning boshlang‘ich rivojlanish bosqichida sifatli ta’lim olishiga zamin yaratadi. Ikkinchidan, ta’lim sifati monitoringi pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi. Monitoring natijalari asosida o‘qituvchilarning faoliyati tahlil qilinadi, ularning kasbiy rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi va malaka oshirish yo‘nalishlari belgilanadi. Bu esa ta’lim sifatini bevosita oshirishga olib keladi. Shuningdek, monitoring boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Ta’lim muassasalari rahbariyati va tegishli davlat organlari monitoring natijalari asosida mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Yana bir muhim jihat shundaki, ta’lim sifati monitoringi shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlaydi. Bu esa davlat, xususiy sektor va ota-onalar o‘rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifati monitoringi ta’lim tizimini doimiy rivojlantirish, samaradorligini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan strategik jarayon hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati monitoringini samarali tashkil etish uchun aniq va izchil mexanizmlarni joriy etish muhim hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar ta’lim jarayonini tizimli kuzatish, baholash va takomillashtirishga xizmat qiladi.

1. Me’yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish. Monitoring tizimini samarali yo‘lga qo‘yish uchun avvalo aniq me’yoriy-huquqiy baza zarur. Unda monitoringning maqsadi, vazifalari, mezonlari va baholash ko‘rsatkichlari belgilab qo‘yiladi. Bu barcha ta’lim tashkilotlari uchun yagona yondashuvni ta’minlaydi.

2. Ichki monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish. Har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti ichki monitoring tizimini tashkil etishi lozim. Bu jarayonda rahbariyat va pedagogik jamoa ta’lim sifati, bolalarning rivojlanish darajasi hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni muntazam tahlil qilib boradi.

3. Tashqi monitoring va mustaqil baholash. Davlat organlari yoki mustaqil ekspertlar tomonidan amalga oshiriladigan tashqi monitoring ta’lim sifatining xolis baholanishini ta’minlaydi. Bu tizim muassasalar faoliyatini obyektiv nazorat qilish va standartlarga muvofiqligini aniqlashga yordam beradi.

4. Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy axborot texnologiyalari monitoring jarayonini tezkor va samarali amalga oshirish imkonini beradi. Elektron platformalar orqali ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va natijalarni avtomatik qayta ishlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

5. Pedagog kadrlar faoliyatini baholash. Monitoring tizimida pedagoglarning kasbiy faoliyati alohida o‘rin tutadi. Ularning dars sifati, bolalar bilan ishlash uslublari va metodik yondashuvlari muntazam baholab boriladi.

6. Ota-onalar fikrini inobatga olish. Ota-onalar ta’lim sifati haqida muhim axborot manbai hisoblanadi. So‘rovnomalar va fikr-mulohazalar orqali ularning baholari monitoring tizimiga kiritiladi va umumiy tahlilda hisobga olinadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati monitoringini tashkil etishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular tizimning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish monitoring tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Eng asosiy muammolardan biri — ta’lim sifatini baholash bo‘yicha yagona mezonlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. Bu holat turli ta’lim tashkilotlari natijalarini solishtirish va xolis baholashni qiyinlashtiradi. Ushbu muammoni hal etish uchun milliy darajada yagona standartlar va aniq indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Yana bir muammo sifatida malakali kadrlar yetishmasligini ko‘rsatish mumkin. Monitoring jarayonini professional darajada tashkil etish uchun yetarli bilim va tajribaga ega mutaxassislar zarur. Bu muammoning yechimi sifatida pedagog va monitoring sohasidagi mutaxassislar uchun maxsus o‘quv dasturlarini kengaytirish hamda ularning malakasini muntazam oshirib borish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ayrim tashkilotlarda raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmasligi ham monitoring samaradorligini pasaytiradi. An’anaviy usullar vaqt va resurs sarfini oshiradi hamda tezkor tahlil qilish imkoniyatini cheklaydi. Bu muammoni bartaraf etish uchun elektron monitoring tizimlarini joriy etish, ma’lumotlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish lozim. Shaffoflik va hisobdorlik darajasining pastligi ham muhim muammolardan biridir. Monitoring natijalarining ochiq e’lon qilinmasligi yoki yetarli darajada tahlil qilinmasligi tizimga bo‘lgan ishonchni kamaytiradi. Ushbu holatni yaxshilash uchun ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish va monitoring natijalarini jamoatchilik hamda ota-onalar uchun ochiq qilish kerak. Bundan tashqari, ota-onalar ishtirokining yetarli darajada emasligi ham monitoring jarayonining to‘liq va samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Ota-onalar fikrini tizimli ravishda yig‘ish va tahlil qilish orqali ta’lim sifati haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Shu maqsadda muntazam so‘rovnomalar va elektron muloqot platformalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati monitoringini samarali tashkil etish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Monitoring jarayoni orqali ta’lim sifati

doimiy ravishda baholanadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, ichki va tashqi monitoring tizimlarini uyg‘unlashtirish, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ota-onalar va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha ta’lim muassasalarida shaffoflik, hisobdorlik va samarali boshqaruvni ta’minlaydi. Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tizimida monitoringni to‘g‘ri tashkil etish bolalarning sifatli ta’lim va tarbiya olishiga, shuningdek, kelajakda raqobatbardosh va intellektual salohiyatli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kalmuratov.T.N. Boshqaruv funksiyalari asosida davlat xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari foaliyatini boshqarish mexanizimi// Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali 2023-yil 3-son.
2. Kalmuratov.T.N. Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishning o‘ziga xos jihatlari// Ilim hám jámiyet. №4.2021. B. 30-33.
3. Matkarimov J.Sh., Sharofaddinov Sh.A. Ta’lim jarayonida boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlar. – T.: Zamonaviy ta’lim, 2015, №3. 11-15 b.
4. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 196 b.
5. Abdullayev F. Oliy ta’lim muassasasini boshqarishda axborot xizmati tizimini takomillashtirish (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida). Dis.p.f.f.dok. – T.: O‘zPFITI, 2020. – 255 b.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KONFLIKTLARNI BOSHQARISH KOMPETENTSIYASIGA OID XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI

Nomozov Davronbek Amanbay o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida konfliktologik kompetensiyaning o‘rni va ahamiyati xorijiy hamda milliy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarni nizoli vaziyatlarni boshqarishga tayyorlashning zamonaviy metodlari, ta’lim tizimidagi ilg‘or xorijiy yondashuvlar va milliy pedagogikamizdagi o‘ziga xos jihatlar qiyosiy o‘rganilgan. Maqola yakunida bo‘lajak mutaxassislarning konfliktologik madaniyatini yuksaltirishga doir takliflar bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: pedagogik kompetensiya, konfliktlarni boshqarish, xorijiy tajriba, milliy ta’lim tizimi, bo‘lajak pedagog, mediatsiya, muloqot madaniyati.

KIRISH. Zamonaviy globallashuv jarayonlari va ta’lim paradigmasining o‘zgarishi pedagogik faoliyat mazmuniga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda o‘qituvchi nafaqat axborot uzatuvchi subyekt, balki ta’lim jarayonidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning moderatori va konstruktori sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida konfliktologik kompetensiyani shakllantirish masalasi pedagogika fanining markaziy muammolaridan biriga aylandi. Zero, ta’lim muhiti o‘zining ko‘p qirraliligi va subyektlarining xilma-xilligi (o‘quvchi, ota-ona, hamkasb, rahbariyat) bilan doimiy ravishda manfaatlarning to‘qnashuvi ehtimolini saqlab qoladi. Nizolarni boshqarish qobiliyati esa pedagogning nafaqat psixologik barqarorligini, balki butun o‘quv jarayonining samaradorligini belgilab beruvchi strategik resursdir.

Ilmiy-pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak mutaxassislarda ushbu kompetensiyaning yetishmasligi kasbiy faoliyatning ilk yillaridayoq "emotsional yonish" (burnout) sindromiga, o‘quvchilar bilan munosabatlarning darz ketishiga va ta’lim sifatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, jahonning yetakchi ta’lim tizimlarida o‘qituvchi tayyorlash modeliga konfliktologik bilimlar tizimli ravishda integratsiya qilinmoqda. Bunda asosiy urg‘u nizoni shunchaki bartaraf etishga emas, balki uning destruktiv xususiyatini konstruktiv yo‘nalishga o‘zgartirish, ya’ni qarama-qarshilikdan hamkorlikka o‘tish mahoratiga qaratiladi. Bu esa bo‘lajak pedagogdan yuksak kommunikativ layoqat, empatiya, refleksiv tahlil va vaziyatni xolis baholash kabi professional fazilatlarni talab etadi. [1]

Ushbu muammoning nazariy-amaliy jihatlarini o‘rganishda xalqaro tajriba va milliy pedagogik an’analarning qiyosiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. G‘arb mamlakatlarida konfliktlarni boshqarish ko‘proq huquqiy-psixologik texnologiyalar va pragmatik mediatsiya usullariga tayansa, sharqona, xususan, o‘zbek milliy pedagogikasida bu jarayon axloqiy-ma’naviy tarbiya, ustoz-shogird munosabatlari va jamoaviy hamjihatlik tamoyillari bilan sug‘orilgan. Biroq, zamonaviy ta’lim standartlari ushbu ikki yondashuvning sintezini, ya’ni texnologik aniqlik bilan ma’naviy-axloqiy yondashuvning uyg‘unligini taqozo etmoqda.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy bosqichida nizo boshqarish kompetensiyasining tarkibiy qismlari, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va ushbu yo‘nalishdagi xalqaro tendensiyalarning milliy ta’lim tizimiga adaptatsiyasi masalalari atroflicha tahlil qilinadi. Maqsadimiz — bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini boyitish, balki ularni kasbiy faoliyatdagi murakkab muloqot inqirozlaridan muvaffaqiyatli chiqib ketishlari uchun zarur bo‘lgan ilmiy-metodik asoslarni tizimlashtirishdan iboratdir. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Bo‘lajak pedagoglarning konfliktologik kompetensiyasini shakllantirish muammosi zamonaviy fanlararo tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jahon pedagogika fanida ushbu kompetensiya shunchaki nizolarni bartaraf etish ko‘nikmasi emas, balki shaxsning kasbiy moslashuvchanligini ta’minlovchi murakkab kognitiv va emotsional tuzilma sifatida talqin etiladi. Xususan, U.Mastsen va E.Goffman kabi g‘arb tadqiqotchilari pedagogik faoliyatdagi nizolarni "ijtimoiy dramalar" sifatida baholab, bo‘lajak o‘qituvchining bu jarayondagi rolini vaziyatni muvozanatlashtiruvchi strateg sifatida ko‘rsatib o‘tishgan. Ularning nazariyasiga ko‘ra, kompetent pedagog nizoli vaziyatda nafaqat tashqi xatti-harakatlarni, balki o‘zining ichki psixologik holatini ham boshqara olishi, ya’ni "psixologik immunitet"ga ega bo‘lishi lozim.

Xorijiy tajribada, ayniqsa D.Djonson va R.Djonsonning hamkorlikda o‘qitish nazariyasida, bo‘lajak pedagoglarda konfliktlarni boshqarishda "integrativ muzokaralar" metodini qo‘llash ustuvorligi ta’kidlanadi. Ushbu yondashuv nizo ishtirokchilarining barchasini g‘olib sifatida ko‘rishga (win-win) qaratilgan bo‘lib, u bugungi kun ta’limidagi gumanistik tamoyillarga to‘la mos keladi. Shuningdek, S.Kovning shaxslararo munosabatlar samaradorligi borasidagi qarashlari bo‘lajak pedagogning konfliktologik tayyorgarligida "avval tushunish, so‘ng tushunilish" tamoyilini metodologik asos sifatida belgilab beradi. [3]

Milliy pedagogik tadqiqotlarda esa ushbu muammo muloqot madaniyati va pedagogik etika nuqtai nazaridan keng o‘rganilgan. E.G‘oziyev va Sh.Abdullayeva kabi olimlarning ishlarida bo‘lajak pedagogning nizoli vaziyatlarda emotsional turg‘unligi uning kasbiy mahorati ko‘rsatkichi sifatida tahlil qilingan. Mahalliy maktablarda konfliktlarni boshqarishning tarixiy-milliy ildizlari ko‘pincha murosasozlik, kattalarga hurmat va jamoaviy mulohaza yuritish kabi qadriyatlarga tayanadi. Biroq, bugungi kunda ushbu an’anaviy yondashuvlarni zamonaviy mediatsiya texnologiyalari bilan boyitish zaruriyati ilmiy adabiyotlarda tobora ko‘p tilga olinmoqda. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagogning konfliktologik kompetensiyasi – bu psixologik tayyorgarlik, pedagogik mahorat va ijtimoiy intellektning organik sintezidir.

Ushbu maqolani tayyorlashda bo‘lajak pedagoglar tayyorlash tizimidagi xorijiy va milliy tajribalarni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beruvchi bir qator ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini, eng avvalo, qiyosiy-pedagogik tahlil usuli tashkil etadi. Bu usul yordamida rivojlangan davlatlar (AQSH, Finlyandiya, Germaniya) va O‘zbekiston

oliy ta’lim tizimidagi pedagoglarni nizo boshqarishga tayyorlash modellari qiyoslanib, ularning o‘ziga xos va mushtarak jihatlari ochib berildi. [4]

Tadqiqot jarayonida tizimli-funksional yondashuv qo‘llanilib, unda konfliktologik kompetensiya bir nechta tarkibiy qismlardan (motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv) iborat bo‘lgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini o‘rganishda kontent-tahlil metodi orqali amaldagi o‘quv rejalari va fan dasturlaridagi konfliktologiyaga oid mavzularning qamrovi tahlil qilindi.

Metodologiyaning muhim qismi sifatida modellashtirish usulidan foydalanildi. Bunda xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli mediatsiya tajribalarini milliy ta’lim muhitiga adaptatsiya qilish imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslandi. Tadqiqotning axloqiy va nazariy yo‘nalishini belgilashda aksio-gumanistik yondashuvga tayanildi, bu esa har qanday pedagogik nizoni inson huquqlari va shaxs sha’nini xurmat qilgan holda hal etish metodikasini ishlab chiqishga xizmat qildi. Qo‘llanilgan ushbu metodologik yondashuvlar mavzu bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarning xolisligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

MUHOKAMA. Bo‘lajak pedagoglarda konfliktlarni boshqarish kompetentsiyasini shakllantirish jarayonini xorijiy va milliy tajribalar kesimida muhokama qilar ekanmiz, asosiy e’tibor ushbu ko‘nikmaning faqatgina nazariy bilimlar yig‘indisi emas, balki chuqur psixofiziologik va ijtimoiy tayyorgarlik ekanligiga qaratilishi lozim. Xorijiy tajribalar, xususan, AQSH va G‘arbiy Yevropa oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan "Situatsion modellashtirish" usuli shuni ko‘rsatadiki, talaba-pedagoglar real nizoli vaziyatlarni laboratoriya sharoitida boshidan kechirish orqali o‘zlarining "emotsional reaksiyalari xaritasi"ni shakllantiradilar. Bu jarayonda talaba nizoni hal qiluvchi uchinchi tomon — mediator rolida chiqishi, unda xolislik va empatiya kabi professional sifatlarning barvaqt shakllanishiga xizmat qiladi. Biroq, ushbu tajribani milliy ta’lim tizimiga ko‘chirishda bizning ijtimoiy mentalitetimizdagi o‘ziga xosliklarni, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy iyerarxik munosabatlarni inobatga olish zarur. [5]

Muhokamaning muhim nuqtalaridan biri shundaki, milliy pedagogikamizda konfliktlarni boshqarish ko‘proq ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy vositalar orqali amalga oshiriladi. Sharqona tarbiya uslubida nizo "yuzni saqlab qolish" va "andisha" tamoyillari asosida yumshatiladi. Ammo zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o‘quvchilarning individualistik qarashlari kuchayishi bilan, faqatgina an’anaviy usullar kamlik qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro mediatsiya texnologiyalarining "huquqiy asosi" bilan milliy pedagogikamizning "axloqiy asosi"ni sintez qilish bo‘lajak pedagoglar uchun eng maqbul model bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu sintezda pedagog nizoni nafaqat tartibga soluvchi, balki har bir tomonning shaxsiy manfaatlarini hurmat qilgan holda ularni umumiy maqsad sari birlashtiruvchi strateg sifatida namoyon bo‘ladi. [6]

Shuningdek, muhokama jarayonida bo‘lajak pedagoglarning raqamli muloqot (cyber-communication) madaniyatiga e’tibor qaratish lozim. Zamonaviy pedagogik konfliktlar ko‘pincha auditoriya doirasidan chiqib, ijtimoiy tarmoqlarga ko‘chmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda "raqamli mediatsiya" tushunchasi faol muhokama qilinayotgan bir paytda, milliy tajribamizda ushbu yo‘nalishdagi kompetensiyani shakllantirish hali tizimli bosqichga ko‘tarilmagan. Binobarin, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nafaqat yuzma-yuz muloqotdagi, balki virtual makondagi nizolarni ham konstruktiv hal etish, kiberbullingga qarshi pedagogik immunitetni yaratish masalasi yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, konfliktlarni boshqarish kompetentsiyasi — bu pedagogik mahoratning dinamik elementi bo‘lib, u doimiy ravishda yangilanib borishi lozim. Milliy va xorijiy tajribalarning qiyosiy muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda "nazariyadan — amaliyotga" tamoyili o‘rniga "vaziyatli tahlildan — kompetentlikka" tamoyiliga o‘tish davr talabidir. Bu esa oliy ta’lim o‘quv dasturlarida konfliktologiya fanining ulushini oshirish va uni treninglar, keys-stadilar hamda psixologik simulyatsiyalar bilan boyitish zarurligini asoslaydi. [7]

NATIJALAR. Bo‘lajak pedagoglarda konfliktlarni boshqarish kompetentsiyasiga oid xorijiy va milliy tajribalarni qiyosiy o‘rganish natijasida bir qator ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi tarkibida

konfliktologik layoqatning mavjudligi ularning pedagogik faoliyatga moslashish davrini 30-40 foizga tezlashtiradi va jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim barqarorligini ta’minlaydi.

Xususan, xorijiy tajribalarni tahlil qilish jarayonida aniqlandiki, Finlyandiya va Germaniya kabi davlatlarda qo‘llaniladigan "interaktiv mediatsiya" modeli bo‘lajak pedagoglarda nafaqat nizoni hal qilish, balki uni tahlil qilish (diagnostika) ko‘nikmasini yuksak darajada shakllantiradi. Bu modelning natijadorligi talabalarning nizoli vaziyatlarda hissiyotlarga berilmasdan, muammoning tub mohiyatini aniqlashga qaratilgan refleksiv pozitsiyani egallashlarida namoyon bo‘ldi. Shuningdek, xalqaro tajribada keng tarqalgan "Peer Mediation" (tengdoshlar mediatsiyasi) tizimini o‘zlashtirgan bo‘lajak pedagoglar, ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi nizolarni o‘qituvchi aralashuvisiz, o‘quvchilarning o‘zaro kelishuvi orqali hal etish metodikasini samarali egallaganliklari aniqlandi. [8]

Milliy tajribamiz natijalari shuni tasdiqladiki, o‘zbek pedagogikasi an’analariga xos bo‘lgan "ma’naviy-axloqiy tartibga solish" mexanizmi nizolarni yumshatishda kuchli barqarorlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, zamonaviy ta’lim standartlari doirasida o‘tkazilgan tahlillar, bo‘lajak pedagoglarning konfliktologik kompetensiyasini shakllantirishda faqatgina an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, ularni maxsus psixologik treninglar va keys-metodlar bilan boyitish zarurligini ko‘rsatdi. Natijada, milliy qadriyatlar va zamonaviy mediatsiya texnologiyalarining sintezi asosida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashning "Integrativ-konfliktologik modeli" ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijasida bo‘lajak pedagoglarning konfliktologik kompetensiyasi tarkibida "kognitiv-tahliliy", "emotsional-irodaviy" va "kommunikativ-texnologik" komponentlarning o‘zaro aloqadorligi aniqlandi. Ma’lum bo‘ldiki, bo‘lajak mutaxassisda ushbu uchta komponent bir vaqtda rivojlangan taqdirdagina, u maktab muhitidagi murakkab ko‘p subyektli (o‘quvchi-ota-ona-ma’muriyat) nizolarni konstruktiv boshqara oladi. Tadqiqot yakunida olingan ushbu natijalar oliy pedagogik ta’lim tizimida konfliktologiya fanining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish va talabalarning kasbiy mahoratini oshirish uchun nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. [9]

XULOSA. Bo‘lajak pedagoglarda konfliktlarni boshqarish kompetentsiyasiga oid xorijiy va milliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish asosida shuni xulosa qilish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchi tayyorlash tizimi nafaqat intellektual salohiyatga, balki yuqori darajadagi ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikka tayanishi lozim. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, konfliktologik kompetensiya shunchaki nizolarni bartaraf etish ko‘nikmasi emas, balki pedagogning kasbiy barqarorligini, uning emotsional intellektini va ta’lim oluvchilar bilan o‘rnatadigan gumanistik muloqoti sifatini belgilovchi integral xususiyatdir. Xalqaro miqyosda tan olingan mediatsiya texnologiyalari va "win-win" (g‘alaba-g‘alaba) strategiyalari bo‘lajak mutaxassislarga nizoli vaziyatlarni shaxsiy va jamoaviy rivojlanish resursiga aylantirish imkonini beradi. [10]

Xorijiy tajribalarning pragmatik jihatlari, xususan, talabalarda nizoli vaziyatlarda xolis pozitsiyani egallash va vaziyatni tizimli diagnostika qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi milliy ta’lim tizimimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy pedagogikamizning ma’naviy-axloqiy asoslari, ustoz-shogird an’analari va sharqona murosasozlik madaniyati nizo boshqarishning o‘ziga xos va samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, zamonaviy ta’lim paradigmasi ushbu an’anaviy qadriyatlarni xalqaro mediatsiya standartlari bilan uyg‘unlashtirishni, ya’ni "ma’naviy diplomatik" yondashuvni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa bo‘lajak pedagogdan nafaqat nazariy bilimlarni, balki kutilmagan muloqot inqirozlari sharoitida tezkor va konstruktiv qaror qabul qilish mahoratini talab etadi. [11]

Tadqiqot yakunida ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni barqarorlashtirish uchun bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga quyidagi yo‘nalishlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiq deb topildi. Avvalo, oliy pedagogik ta’lim o‘quv rejalarida konfliktologiyaga oid fanlarning ulushini oshirish va ularni amaliy treninglar, situatsion keyslar hamda kiber-muloqot madaniyatiga oid mashg‘ulotlar bilan boyitish zarur. Ikkinchidan, talabalarda o‘z emotsional holatini boshqarish (self-regulation) va stressga chidamlilik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan psixologik laboratoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu yondashuv bo‘lajak

o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatning ilk bosqichlaridayoq turli darajadagi tazyiq va nizolarga qarshi mustahkam pedagogik immunitet bilan ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarda konfliktlarni boshqarish kompetentsiyasini shakllantirish — bu ta’lim tizimining istiqboldagi xavfsizligi va samaradorligiga yo‘naltirilgan strategik sarmoyadir. Xalqaro tajribaning texnologik ustunligi bilan milliy qadriyatlarimizning ma’naviy quvvati sintezi zamonaviy o‘qituvchi qiyofasida o‘z aksini topishi kerak. Faqatgina nizo boshqarish madaniyati yuksak darajada rivojlangan pedagoggina o‘z o‘quvchilari uchun tolerantlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat namunasini yaratib bera oladi. Zero, o‘qituvchining muloqotdagi mahorati nafaqat dars sifati, balki sog‘lom va nizolardan xoli jamiyat qurishning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: Universitet, 2015. – 156 b.
2. Besemer C. Mediation: Vermittlung in Konflikten. – Baden-Baden: Stiftung Gewaltfreies Leben, 2005. – 234 p.
3. Fisher R., Ury W., Patton B. Getting to Yes: Negotiating Agreement Without Giving In. 3rd ed. – New York: Penguin Books, 2011. – 240 p.
4. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 kitoblar. – Toshkent: Universitet, 2010. – 540 b.
5. Johnson D. W., Johnson R. T. Creative Controversy: Intellectual Challenge in the Classroom. – Edina, MN: Interaction Book Company, 2007. – 280 p.
6. Musurmonov R., Musurmonova M. Pedagogik mahorat va kompetentlik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. – 192 b.
7. Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. – Oxford: Blackwell Publishing, 1993. – 140 p.
8. Xalilov A. J. Pedagogik konfliktologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 180 b.
9. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология: Учебник для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. — 591 с.
10. Гришина Н. В. Психология конфликта. 2-е изд. — СПб.: Питер, 2008. — 544 с.
11. Козырев Г. И. Конфликтология: Учебное пособие. — М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2010. — 304 с.

ZAMONAVIY OILADA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLARNING XUSUSIYATLARI

Matyoqubova Barno
Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida oilada yuzaga kelayotgan ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va ma’naviy muammolarning asosiy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 2015–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston va xalqaro statistik ma’lumotlar asosida oilaviy munosabatlar dinamikasi o‘rganildi. Natijalar zamonaviy texnologiyalar, migratsiya jarayonlari, iqtisodiy bosim va qadriyatlar transformatsiyasi oilaviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari oilaviy siyosatni takomillashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: zamonaviy oila, oilaviy muammolar, ijtimoiy moslashuv, psixologik barqarorlik, iqtisodiy omillar, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy rivojlanish.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi, globallashuv jarayonlarining kuchayishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi oilaviy institutning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy tayanchi sifatida shaxs kamoloti, ma’naviy qadriyatlarning uzluksizligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Shu bois zamonaviy oilada yuzaga kelayotgan muammolarni ilmiy asosda o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda oilaviy munosabatlar tizimida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, nikoh barqarorligining pasayishi, ajralishlar sonining ortishi, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi muloqotning susayishi, iqtisodiy bosimning kuchayishi hamda psixologik muhitning beqarorlashuvi kabi holatlar keng tarqalmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yilda mamlakatda 18,2 mingta ajralish qayd etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 31,4 mingtagacha yetgan. Mazkur raqamlar oilaviy munosabatlarda yuzaga kelayotgan muammolarning tizimli xarakter kasb etayotganini ko‘rsatadi. Globallashuv sharoitida yoshlarning hayotiy qadriyatlari, nikohga bo‘lgan munosabati va oilaviy mas’uliyat tushunchasi sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, 2015–2022-yillar oralig‘ida Markaziy Osiyo davlatlarida yoshlar orasida rasmiy nikohga kirish yoshi o‘rtacha 2,3 yilga oshgan. Bu jarayon mustaqil hayotga intilish, iqtisodiy mustaqillikni ta’minlashga bo‘lgan ehtiyoj hamda kasbiy rivojlanish ustuvorligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi ham oilaviy munosabatlarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, raqamli aloqa vositalari oila a’zolari o‘rtasidagi muloqotni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanish real ijtimoiy munosabatlarning susayishiga olib kelmoqda. 2022-yilda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 47 foizi oilada kelib chiqadigan nizolarning asosiy sabablaridan biri sifatida smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanishni ko‘rsatgan. Iqtisodiy omillar ham zamonaviy oilaning barqarorligiga sezilarli ta’sir etuvchi muhim faktor hisoblanadi. Uy-joy muammolari, daromadlarning yetarli emasligi, ishsizlik darajasi va mehnat migratsiyasi oilaviy munosabatlarda zo‘riqish holatlarini yuzaga keltirmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2022-yillarda pandemiya davrida Markaziy Osiyoda aholi real daromadlari o‘rtacha 8–12 foizga kamaygan. Ushbu holat ko‘plab oilalarda ijtimoiy-psixologik muammolarning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi tafovut ham oilaviy munosabatlarda muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Katta avlod tomonidan ilgari suriladigan an’anaviy qarashlar bilan yosh avlodning zamonaviy dunyoqarashi o‘rtasidagi tafovut ko‘pincha oilaviy nizolarga sabab bo‘lmoqda. Bu holat ayniqsa shaharlashuv jarayonlari tezlashgan hududlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy oilalarda tarbiya masalasi ham muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ota-onalarning bandligi, vaqt tanqisligi va pedagogik bilimlarning yetarli emasligi farzandlar tarbiyasida kamchiliklarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2023-yillar oralig‘ida psixologik maslahatga muhtoj o‘quvchilar soni 1,4 baravarga oshgan. Yuqorida keltirilgan omillar zamonaviy oilada yuzaga kelayotgan muammolarning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu muammolar nafaqat alohida oilalar, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularni chuqur ilmiy asosda o‘rganish va tizimli yechimlar ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi zamonaviy oilada yuzaga kelayotgan muammolarning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish hamda oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot zamonaviy oilada yuzaga kelayotgan muammolarning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy izlanish sifatida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida miqdoriy va sifat tahlil usullarini uyg‘unlashtirgan integratsiyalashgan metodologik yondashuv qo‘llanildi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adolatli boshqaruvning insonparvarlik mohiyati har tomonlama tahlil qilinadi. Unda boshqaruv tizimida adolat tamoyillarining ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi o‘rni hamda ijtimoiy tenglikni qaror toptirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, insonparvar boshqaruvning jamiyat barqarorligi, fuqarolar ishonchi va davlat rivojiga ijobiy ta’siri ilmiy asosda bayon etiladi. Maqolada adolatli boshqaruvning asosiy mezonlari, zamonaviy boshqaruv tizimlarida qo‘llanilish xususiyatlari hamda uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli haqida muhim xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: adolatli boshqaruv, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, davlat boshqaruvi, tenglik, fuqarolik jamiyati, boshqaruv tamoyillari, ijtimoiy barqarorlik, demokratik qadriyatlar.

Adolatli boshqaruv masalasi ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida eng muhim va dolzarb mavzulardan biri sifatida qaralib kelingan. Jamiyat taraqqiyoti, siyosiy tizimning barqarorligi hamda insonning har tomonlama kamol topishi ko‘p jihatdan boshqaruv tizimining adolat tamoyillariga qanchalik asoslanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, adolat tamoyili boshqaruvning nafaqat tashkiliy-huquqiy jihatlarini, balki uning mazmun-mohiyatini belgilovchi fundamental mezon tarzida namoyon bo‘ladi.

Insonparvarlik esa boshqaruvning axloqiy negizini tashkil etib, unda inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, shaxs manfaatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv boshqaruv jarayonida inson omilini markazga qo‘yishni, davlat va jamiyat institutlarining faoliyati esa avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini taqozo etadi. Shu bois insonparvar boshqaruv modeli shaxsni ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida e’tirof etadi hamda uning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga intiladi.

Adolatli boshqaruvni faqatgina huquqiy me’yorlar va qonun ustuvorligi bilan cheklab qo‘yish yetarli emas. U o‘z mohiyatiga ko‘ra ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ham tayanadi. Aynan shu jihat boshqaruv tizimini mexanik boshqaruvdan insoniylik mezonlariga asoslangan murakkab ijtimoiy institutga aylantiradi. Bunda halollik, mas’uliyat, ochiqlik, ijtimoiy tenglik va adolat kabi qadriyatlar muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, adolatli va insonparvar boshqaruv jamiyatda ijtimoiy ishonch muhitini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi ortishi esa o‘z navbatida siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, adolatli boshqaruv nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu boradagi g‘oyalar va qarashlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, xususan Sharq falsafasida, bu borada Abu Nasr Forobiy ta’limoti alohida ahamiyat kasb etadi. Forobiy boshqaruvni insonni oliy baxt-saodatga yetaklovchi vosita sifatida ko‘radi. Uning fikricha, jamiyatning asosiy maqsadi inson kamolotini ta’minlashdan iborat bo‘lib, bu esa faqat adolatli va insonparvar boshqaruv orqali amalga oshadi. Mutafakkirning “Fozil odamlar shahri” [1] asarida tasvirlangan fozil jamiyat modeli aynan shu tamoyillarga asoslanadi. Forobiy nazarida adolatli boshqaruvning insonparvarlik mohiyati, avvalo, insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etishda namoyon bo‘ladi va bunday boshqaruv tizimida qonunlar va siyosiy qarorlar inson manfaatlariga xizmat qiladi, uning erkinligi va qadr-qimmatini himoya qiladi. Insonparvar boshqaruvda hokimiyatning legitimligi kuch yoki majburlovdan emas, balki axloqiy asoslanganlik va ijtimoiy ishonchdan kelib chiqadi. Shu jihatdan Forobiy qarashlari zamonaviy insonparvarlik nazariyalar bilan hamohangdir.

Adolatli boshqaruvning yana bir muhim jihati bu axloqiylik va ma’naviyat bilan bevosita bog‘liqligidir. Insonparvar boshqaruv faqat tashqi tartibni saqlash bilan cheklanmaydi, balki jamiyat a’zolarining ma’naviy kamolotini ham rag‘batlantiradi. Bu yerda qonunlar nafaqat nazorat vositasi, balki tarbiyaviy mexanizm sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois adolatli boshqaruv tizimida qonuniylik va axloqiylik o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy jihatdan qaralganda, adolatli boshqaruvning insonparvarlik mohiyati bir necha asosiy komponentlardan tashkil topadi. Birinchidan, normativ asos, ya’ni boshqaruvning adolat, tenglik va haqqoniylik prinsiplari asosida tashkil etilishi. Ikkinchidan, institutsional asos, ya’ni qonunlarning ustuvorligi va ularning hamma uchun teng amal qilishi. Uchinchidan, axloqiy asos, ya’ni boshqaruv subyektlarining yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lishi. Ushbu komponentlar o‘zaro mutanosib holda insonparvar boshqaruv modelini shakllantiradi.

Zamonaviy siyosiy-falsafiy qarashlarda ham adolatli boshqaruvning insonparvarlik mohiyati muhim o‘rin tutadi. Masalan, inson huquqlari konsepsiyasi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati g‘oyalari aynan insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuvlarda davlatning asosiy vazifasi inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va jamiyatda barqarorlikni saqlashdan iborat deb qaraladi.

Faylasuf olim B.To‘rayevning fikriga ko‘ra, adolat bu shunchaki hamma uchun qonun oldida tenglik degani emas, balki haqiqiy adolat jamiyatda har bir inson o‘z iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqara olishi uchun teng imkoniyatlar mavjudligidir [2]. V.Alimasov adolat falsafasini insonparvarlik tamoyillari bilan bog‘liq holda tushintirishga harakat qiladi. Uning fikricha, agar qonunlar insonlarning ichki adolat tuyg‘usiga zid bo‘lsa, jamiyatda huquqiy nigilizm kuchayadi, shu sababdan qonun ijodkorligi jarayoni falsafiy va axloqiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim [3]. Siyotshunos olim B.Omonov fikriga ko‘ra “Davlatning ustuni ham dini ham adolatdir. Ijtimoiy adolat bo‘lmagan joyda korrupsiya ildiz otadi” [4].

Shu bilan birga, adolatli boshqaruv insonparvarliksiz mavjud bo‘la olmaydi. Agar boshqaruv tizimi faqat formal qonunlarga tayanib, inson manfaatlarini e’tibordan chetda qoldirsa, u o‘z mohiyatini yo‘qotadi va ijtimoiy norozilikka olib keladi. Aksincha, insonparvarlikka asoslangan boshqaruv tizimi jamiyatda ishonch, hamjihatlik va barqarorlikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, adolatli boshqaruvning insonparvarlik mohiyati jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. U inson qadr-qimmati, huquqlari va erkinliklarini e’tirof

etishga, adolatli qonunlar va axloqiy boshqaruvga asoslanadi. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydananilgan adabiyotlar:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.
2. To‘rayev B. Jamiyat taraqqiyoti strategiyasi: falsafiy-metodologik tahlil. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. – B. 92-95.
3. Alimasov V. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 120-135.
4. Omonov B. Davlat fuqarolik xizmati. – Toshkent: Dilbarim nashriyoti, 2025. – B. 37-39.

ABDURAHMON TOSHKANDIY MEROSIDA KOMIL INSON TARBIYASI G‘OYALARINING FALSAFIY TAHLILI

X.T.Suvonqulov
Guliston davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy yuksalish va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlari: Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, Abdurahmon Toshkandiy, ma’naviyat, axloq, yoshlar tarbiyasi, ma’rifatparvarlik.

Bugungi globallashuv va keskin ma’naviy-mafkuraviy jarayonlar kuchayib borayotgan davrda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ma’naviyat, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar inson omiliga, yoshlar tarbiyasiga hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqimizning boy ma’naviy merosi, jadid-ma’rifatparvarlar faoliyati va ularning axloqiy-falsafiy qarashlarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan mazkur konsepsiya milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlashning muhim bosqichi sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu g‘oya asosida ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va madaniyatni rivojlantirish orqali yangi uyg‘onish davrini barpo etish maqsadi ko‘zda tutilgan. Bunda tarixiy tajriba, xususan, Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma’lumki, IX–XII asrlarda yuz bergan Birinchi Sharq Renessansi hamda Amir Temur va temuriylar davridagi Ikkinchi Renessans davri yurtimizda ilm-fan, madaniyat, me’morchilik, adabiyot va axloqiy tafakkurning yuksak taraqqiyoti bilan xarakterlanadi. Ushbu davrlarda yashab ijod qilgan allomalar inson kamoloti, axloqiy poklik, ilm-ma’rifat va komil jamiyat haqidagi qarashlari bilan jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Ayniqsa, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi, yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash masalasi mutafakkirlar ijodining markaziy mavzularidan biri bo‘lgan.

XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadid-ma’rifatparvarlar ham millat taraqqiyotini ilm-fan, ma’rifat va axloqiy yuksalish bilan bog‘laganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon hamda Abdurahmon Toshkandiy kabi ma’rifatparvarlar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash hamda milliy o‘zlikni

anglash g‘oyalarini ilgari surganlar. Ularning qarashlarida ta’lim-tarbiya, odob-axloq va ma’naviy kamolot masalalari muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, Abdurahmon Toshkandiy o‘zining “Me’yor ul-axloq” asarida inson axloqi, oilaviy tarbiya, do‘stlik, ustoz-shogird munosabatlari hamda komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlari bilan alohida ajralib turadi.

Abdurahmon Toshkandiyning axloqiy qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Chunki mutafakkir ilgari surgan g‘oyalar insonparvarlik, vatanparvarlik, halollik, ilmga intilish, kattalarga hurmat, yoshlar tarbiyasi va ma’naviy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Hozirgi davrda yoshlarni turli zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlardan himoya qilish, ularning qalbida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat hissini shakllantirishda bunday ma’rifiy merosning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Shu bois mazkur maqolada Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, jadid-ma’rifatparvarlar merosining yoshlar ma’naviy tarbiyasi, milliy yuksalish va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Mazkur tadqiqot yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, milliy qadriyatlarni asrash hamda Uchinchi Renessans g‘oyalarini amalga oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonlari hamda Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati tarixiy va falsafiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada manbashunoslik metodidan foydalanilib, jadid-ma’rifatparvarlar merosi, xususan Abdurahmon Toshkandiyning “Me’yor ul-axloq” asari hamda Renessans va ma’naviyat masalalariga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Tadqiqot davomida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans va yoshlar tarbiyasiga oid konseptual qarashlari ham metodologik asos sifatida tahlil etildi.

Qiyosiy tahlil metodi asosida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlaridagi ma’naviy yuksalish omillari bilan bugungi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar o‘zaro solishtirildi. Shu bilan birga, axloqiy qadriyatlar, ta’lim-tarbiya va barkamol avlod masalalarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni falsafiy-ijtimoiy yondashuv asosida ochib berildi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans g‘oyasi, ma’naviy yuksalish hamda jadid-ma’rifatparvarlar merosini o‘rganish masalalari so‘nggi yillarda tarix, falsafa, pedagogika va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida dolzarb tadqiqot obyektiga aylangan. Ayniqsa, Abdurahmon Toshkandiy ijodi va uning axloqiy qarashlari yoshlar tarbiyasi hamda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan bog‘liq holda ilmiy jihatdan tahlil qilinmoqda.

Mazkur mavzuni tadqiq etishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans va ma’naviy taraqqiyotga oid konseptual qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Davlat rahbarining Oliy Majlisga murojaatnomalarida ilm-fan, ta’lim va ma’naviyatni rivojlantirish orqali yangi uyg‘onish davrini barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1, B. 2]. Sharq Renessansi va uning tarixiy-falsafiy mohiyatini tadqiq etishda M.Qodirovning ilmiy maqolalari muhim ahamiyat kasb etadi. Olim o‘z tadqiqotlarida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining shakllanish omillari, ilm-fan va ma’rifat taraqqiyotining tarixiy asoslarini tahlil qiladi [2, B. 158-160]. Shu bilan birga, Adam Metsning “Musulmon Renessansi” asarida Sharq uyg‘onish davridagi ilm-fan, huquq, madaniyat va ma’rifat taraqqiyoti ilmiy jihatdan yoritilgan [3, B. 144-145].

Jahon falsafasi va Sharq mutafakkirlari merosiga oid tadqiqotlarda ham Renessans davrining ma’naviy asoslari keng yoritiladi. Xususan, “Jahon falsafasi qomusi”da Sharq uyg‘onish davri allomalarining ilm-fan va axloqiy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan [4, B. 510]. Abdurahmon Toshkandiy ijodi va jadidchilik harakati bilan bog‘liq masalalar B.Qosimov, Sh.Rizayev, D.Quronov va boshqa adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda ma’rifatparvarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, axloqiy g‘oyalari hamda yoshlar tarbiyasiga oid fikrlari yoritilgan [5, B. 74]. Ayniqsa, jadidchilik harakatining milliy uyg‘onish va ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviyat, ta’lim va barkamol avlod masalalariga bag‘ishlangan asarlarida ham yoshlar tarbiyasi va milliy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati chuqur tahlil etiladi [6,

B. 29]. Ushbu qarashlar bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan hamohang ravishda rivojlantirilmoqda.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni chuqurlashtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash hamda jamiyatda milliy qadriyatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Uchinchi Renessans konsepsiyasi xalqimizning tarixiy-ma’naviy merosini qayta tiklash va uni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda [1, B. 2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdurahmon Toshkandiy qarashlarining markazida inson axloqi, ilm-ma’rifat, komil inson tarbiyasi hamda jamiyat ma’naviy taraqqiyoti masalalari turadi. Uning “Me’yor ul-axloq” asarida ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kun talablari bilan hamohang bo‘lib, unda yoshlarni halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik, kattalarga hurmat va ilmga muhabbat ruhida tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi [5, B. 74]. Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining muhim jihatlaridan biri ta’lim va tarbiya uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratilganidadir. Mutafakkir insonni komillikka yetkazishda ilmning o‘zi yetarli emasligini, uni odob-axloq va ma’naviy tarbiya bilan birgalikda olib borish zarurligini qayd etadi. Bu qarashlar bugungi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir [6, B. 29].

Tadqiqot davomida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining tarixiy tajribasi tahlil qilinar ekan, ushbu davrlarda davlat tomonidan ilm-fan va ma’rifatga katta e’tibor qaratilgani, olimlar hamda mutafakkirlar faoliyati qo‘llab-quvvatlangani aniqlandi. Aynan ana shu omillar Sharq uyg‘onish davrlarining yuzaga kelishiga zamin yaratgan [2, B. 158–160]. Shuningdek, jadid-ma’rifatparvarlar faoliyatining asosiy maqsadi xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, milliy ongni uyg‘otish hamda zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan. Abdurahmon Toshkandiy ham ana shu ma’rifiy harakatning faol vakillaridan biri sifatida xalqni ilm-ma’rifatga, axloqiy poklikka va milliy yuksalishga da’vat etgan [5, B. 74].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Abdurahmon Toshkandiy merosi Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mutafakkirning axloqiy qarashlari yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, ma’naviy poklik va komillik fazilatlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [3, B. 144–145].

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Toshkandiyning axloqiy-ma’rifiy qarashlari bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim nazariy va amaliy аҳамият kasb etadi. Mutafakkirning ilm-ma’rifat, komil inson tarbiyasi, axloqiy poklik, vatanparvarlik va ma’naviy yuksalish haqidagi g‘oyalari bugungi jamiyat taraqqiyoti bilan hamohangdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadid-ma’rifatparvarlar, xususan Abdurahmon Toshkandiy xalq taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim-tarbiya va ma’naviyatni e’tirof etganlar. Ularning qarashlarida yosh avlodni ilmli, axloqan yetuk, milliy qadriyatlarga sodiq inson qilib tarbiyalash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa bugungi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mazmun-mohiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti ilm-fan, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarga tayangan holdagina yuksaladi. Shu sababli Uchinchi Renessansni barpo etishda ham ma’naviyat, ta’lim-tarbiya va yoshlar masalasi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Abdurahmon Toshkandiy merosi yoshlarni vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik va ma’rifat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Mutafakkirning axloqiy qarashlarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish yosh avlod ma’naviy kamolotini yuksaltirish, milliy yuksalish g‘oyalarini mustahkamlash hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2020. – №276. – B. 2.
2. Qodirov M. Uchinchi renessans haqida ba’zi mulohazalar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – №2. – B. 158–160.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 74.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 29.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 74.
6. Qodirov M. Uchinchi renessans haqida ba’zi mulohazalar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – №2. – B. 158–160.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2020. – №276. – B. 2.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA BITIRUVCHI YOSHLARNING BANDLIGINI TA’MINLASH STRATEGIYALARI

R.A.Ne’matov
Guliston davlat universiteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda mehnat bozoriga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari va mehnat bozori integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy bandlik strategiyalarini takomillashtirish hamda yoshlarning raqobatbardoshligini oshirishga oid yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Yangi O‘zbekiston, bitiruvchi yoshlar, bandlik, kadrlar salohiyati, mehnat bozori, oliy ta’lim, raqobatbardoshlik, kasbiy kompetensiya, bandlik strategiyasi, yoshlar siyosati.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar bandligini ta’minlash masalasi dunyo davlatlari oldida turgan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarini tamomlayotgan bitiruvchi yoshlarni munosib ish bilan ta’minlash, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilinishi, ularning bandligini ta’minlash hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qator qonunlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi davr mehnat bozori yuqori malakali, innovatsion fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Shu bois oliy ta’lim muassasalari oldida nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy ko‘nikmalarga ega, tashabbuskor va moslashuvchan kadrlarni tayyorlash vazifasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Biroq ayrim hollarda ta’lim tizimi bilan mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelayotgani bitiruvchi yoshlarning ish bilan ta’minlanishida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ham ega. Chunki yoshlarning munosib ish bilan ta’minlanishi jamiyatdagi

ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, kambag‘allikni qisqartirish, yoshlarning kelajakka ishonchini oshirish hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bandlik masalasi inson kapitalini rivojlantirish, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlashning zamonaviy strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, dual ta’lim tizimini rivojlantirish, amaliyot bazalarini kengaytirish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish hamda raqamli kasblarga o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali ularning ichki va tashqi mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash strategiyalari, oliy ta’lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasining dolzarb masalalari hamda yoshlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda Yangi O‘zbekiston sharoitida bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash strategiyalari, oliy ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsion jarayonlar hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari kompleks tarzda tahlil qilindi.

Tarixiylik metodi asosida O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash va oliy ta’lim tizimini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlarning evolyutsion bosqichlari o‘rganildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarining mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.
Tizimli yondashuv metodi yordamida oliy ta’lim muassasalari, ish beruvchilar va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda bitiruvchi yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonlari tadqiq etildi. Tadqiqot davomida ta’lim sifati, amaliy ko‘nikmalar va bandlik darajasi o‘rtasidagi uzviy aloqalar ochib berildi.

Qiyosiy tahlil metodidan foydalanib, xorijiy davlatlarning yoshlar bandligini ta’minlash tajribalari bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan strategiyalar o‘zaro solishtirildi. Natijada mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning samarali mexanizmlari aniqlashtirildi. Shuningdek, statistik tahlil va umumlashtirish metodlari asosida bitiruvchi yoshlarning ish bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlari, yoshlar bandligiga ta’sir etuvchi omillar hamda mavjud muammolar tahlil qilinib, ularning yechimiga oid ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot mavzusining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini kompleks yoritish imkonini berdi.

Bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash, kadrlar salohiyatini rivojlantirish hamda oliy ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish masalalari bugungi kunda iqtisodiyot, pedagogika, sotsiologiya va boshqaruv sohalarida dolzarb ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish hamda samarali bandligini ta’minlash masalalariga oid ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati va bandlik masalalarining nazariy-huquqiy asoslarini o‘rganishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalari muhim metodologik manba hisoblanadi. Davlat rahbari o‘z chiqishlarida yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi [1, B. 3]. Yoshlar bandligi va inson kapitalini rivojlantirish masalalari iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, G.Bekker inson kapitali nazariyasida ta’lim va kasbiy tayyorgarlik iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi [2, B. 45]. Mazkur yondashuv bugungi mehnat bozori sharoitida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zaruratini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi masalalari M.Porterning raqobatbardoshlik nazariyasida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion va malakali kadrlar asosiy ustunlik omili sifatida talqin qilinadi [3, B. 96]. Ushbu qarashlar bugungi oliy ta’lim tizimida amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekistonlik olimlardan R.X.Alimov, A.V.Vahobov va boshqa iqtisodchi tadqiqotchilar tomonidan mehnat bozori, yoshlar bandligi va kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy muammolari o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida yoshlarning ish bilan ta’minlanish darajasi, mehnat bozori ehtiyojlari hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi [4, B. 118]. Shuningdek, pedagog olimlar tomonidan oliy ta’lim sifatini oshirish, dual ta’lim tizimini rivojlantirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotlarda ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlashdagi eng muhim omillardan biri sifatida baholanadi [5, B. 52].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki yoshlarning ish bilan ta’minlanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat va inson kapitalining rivojlanishini ham belgilab beradi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘qitish hamda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1, B. 3].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlashda asosiy muammolardan biri ta’lim tizimi bilan mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomutanosiblik hisoblanadi. Ayrim hollarda oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning nazariy bilimlari amaliy ko‘nikmalar bilan yetarlicha uyg‘unlashmaganligi sababli ularning ishga joylashishida qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Zamonaviy mehnat bozori esa innovatsion fikrlaydigan, axborot texnologiyalarini mukammal biladigan va amaliy tajribaga ega mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda [2, B. 45]. Shuningdek, tahlillar oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, dual ta’lim tizimini joriy etish, ishlab chiqarish amaliyotlarini kengaytirish hamda ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasi ham amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi samarali natija berishini ko‘rsatmoqda [3, B. 96].

Tadqiqot davomida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli kasblarga o‘qitish ham bitiruvchi yoshlar bandligini ta’minlashning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yangi kasb va mutaxassisliklarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bu esa yoshlarning zamonaviy kompetensiyalarni egallashini taqozo etadi [4, B. 118].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash uchun oliy ta’lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasini yanada kuchaytirish zarur. Ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, yoshlarni innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida tayyorlash hamda ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish bandlik samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bilan birga, yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘rgatish, zamonaviy IT ko‘nikmalarini shakllantirish va ularning mustaqil fikrlash salohiyatini oshirish mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti hamda inson kapitalining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi [5, B. 52].

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash masalasi mamlakatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi oliy ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bitiruvchi yoshlarning ish bilan ta’minlanish samaradorligini oshirish uchun oliy ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Xususan, ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, dual ta’lim tizimini keng joriy etish, ishlab chiqarish amaliyotlarini takomillashtirish hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga, ayniqsa raqamli iqtisodiyot talab qilayotgan IT va innovatsion yo‘nalishlarga tayyorlash bandlik darajasini oshirishning samarali mexanizmlaridan biri ekanligi aniqlandi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish va yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli davlat, oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni rivojlantirish orqali yoshlarning bandligini ta’minlashning zamonaviy strategiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekistonda bitiruvchi yoshlarning bandligini ta’minlashga qaratilgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Becker G. Human Capital. – New York: Columbia University Press, 1993. – P. 45.
3. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – P. 96.
4. Alimov R.X., Vahobov A.V. O‘zbekiston iqtisodiyoti va mehnat bozori. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – B. 118.
5. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar va kasbiy ta’lim. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 52.

SIRDARYO VILOYATINIG JOZIBADORLIK SALOHIYATI

M.To‘rabekova
GulDU “Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisii

Annotatsiya. Jannatmakon Vatanimizning har bir kenti va viloyatining o‘ziga xos salohiyatlari, jozibasi bor. Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatining o‘ziga xos jozibasi va uning jozibadorlik salohiyati haqida fikr yuritiladi. Viloyatning sersuvligi, aholisi, jo‘g‘rofik joylashuvi va timsollari: baliqlari va qovunlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: jannatmakon, vatan, joziba, jozibadorlik, Sirdaryo viloyati, salohiyat, sersuvlik, qovunlar, baliqlar.

Sirdaryo - cho‘l va suv yonma-yon uchrashgan, yashayotgan bir makon. Cho‘l hayot deyarli yo‘q maskan. Mirzacho‘l esa cho‘llarni ulkani, bepayon cho‘l, biydek cho‘l demakdir. Ularning birini ikkinchisi bilan bog‘laydigan insonlar cho‘lquvarlardir. Cho‘lquvar cho‘lni mehnati va suv bilan quvadi hamda uni gulistonga aylantiradi. U cho‘lga suv chiqarib, zaminning nimalarga qodirligini, uning Ona zamin ekanligini va jozibasini ro‘yobga chiqaradi. Shu erda Ona Sirdaryoning jozibasi namoyon bo‘la boshlaydi.

Sirdaryo viloyatiga umumiy bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda bir necha jozibadorlik salohiyatlari bor ekanligini ko‘ramiz.

Birinchidan, Sirdaryo o‘z nomi bilan sersuv o‘lkadir.

Cho‘lga suv chiqarish orzusi bu yo‘lda jasorat ko‘rsatgan Farhod afsonasi qadim-qadim zamonlardan bizga etib kelgan. O‘rta Osiyoda yashovchi har bir odam Farhod va Shirin to‘g‘risidagi afsonani biladi. Malika Shirin Mirzacho‘lning zog‘ uchmas bo‘shliqlarini suvga qondirgan kishiga turmushga chiqishni va’da qiladi. Muhabbat Farhodga bu shartni bajarishda va qoyalar orasidan suvga yo‘l ochishda yordam beradi. Xalq qaqragan erni qutqarish va suvga qondirishdek jasorat to‘g‘risida afsonalar to‘qigan.

“Suv - hayot, suv - umid, suv - mo‘’jiza, suv - tiriklik. Odam dunyoga kelganida va dunyodan ketganida shu suvda yuviladi. Suv tufayli shodlik bor, qo‘shiq bor, non bor, bog‘ - rog‘ bor” [6] – deb yozadi shoir Hamroqul Rizo.

Ikkinchidan, mehnatkash va tanti xalqi, aholisi.

Sirdaryo viloyatida yashaydigan xalq ko‘pni ko‘rgan, og‘ir sinovlarda toblangan, mehnatkash, matonatli xalqdir. Bunday odamlar bilan har qanday mashaqqatni engib o‘tish, yangi-yangi marralarni qo‘lga kiritish, yanada ulug‘vor ishlarni amalga oshirish mumkin [3: 140].

Bugungi kunda Sirdaryo cho‘lquvarlarning baxtli avlodlari yashayotgan bir maskan, gulistonga aylangan o‘lkadir. Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga va taraqqiyotini ko‘tarishga bel bog‘lagan barkamol avlodlar istiqomat qilayotgan o‘lka, jannatmakon O‘zbekistonimizning go‘zal va obod go‘shalaridan biridir.

Mirzacho‘lning bugungi kun gulistoniga aylantirishda sirdaryolik mehnatkashlarning, shoir tili bilan aytganda “Sirdaryoliklar”ning alohida o‘rni va xizmati bor. Bu haqida “Sirdaryoda chinorlari” kitobida 60 nafarga yaqin saxovatli sir zaminning chinorlari, mehnatkashlari faoliyati yoritib berilgan.

Birinchi Prezident Islom Karimov yozganlaridek: “Sirdaryo xalqi azaldan qiyinchiliklarni sabot va matonat bilan engib kelgan mehnatkash, sofdil, bag‘rikeng xalq. Men Mirzacho‘l elining izlanuvchanlik va tashabbuskorlik fazilatlariga, mehnat va hayot tajribasiga ishonaman.

Bu xalq bir ishga bel bog‘lab kirishsa, albatta oxiriga etkazadi. Faqat uning ishonchini qozonish, ko‘ngliga yo‘l topish, ezgu maqsadlarga safarbar eta bilish lozim. Menda hech qanday shubha yo‘q: ko‘pni ko‘rgan, o‘ta og‘ir va murakkab sinovlarda toblanib, bu sinovlardan sharaf bilan chiqqan viloyat ahli o‘ziga xos va o‘ziga mos xususiyat va fazilatlariga suyanib, bir yoqadan bosh chiqarib, Sirdaryoning shuhrati va obro‘-e’tiborini tiklash borasida o‘zini ayamay mehnat qiladi” [6: 8-9].

Uchinchidan, jo‘g‘rofik joylashuvi.

Sirdaryo viloyati Sirdaryoning o‘rta oqimi chap qirg‘og‘ini egallagan. Maydoni - 4,3 ming kv. km., aholisi - 950 ming kishi (2024). Viloyat hududi geografik salohiyatdan janubdan shimoli-g‘arbga tomon pasayib boradigan tekislikdir. Uning katta qismini Mirzacho‘l egallab, sharqda Sirdaryo daryosi bilan chegaralanadi. Viloyat shimolida relef balanddigi 230 metr bo‘lsa, markazida 400-460 metr, janub va janubi-g‘arbda 600-650 metrni tashkil etadi. Ustki qatlam mezo-kaynozoy jinslari bilan qoplangan. Xovos tumanining janubiy tog‘oldi qismining landshafti konglomerat tipidagi (balanddigi 1000 m va undan yuqori bo‘lgan) va Turkiston tog‘ tizmalaridan kelayotgan lyoss adirlaridan iboratdir. Tekislik qismi, asosan allyuvial qatlamlar bilan qoplangan.

Tog‘, tog‘ oldi, past tekislik va cho‘l zonalarining qo‘shilib ketishi viloyat hududining o‘ziga xosligini tashkil etadi. Aynan ushbu holat bu erda dehqonchilik, chorvachilik va tog‘-kon hunarmandchiligini o‘z ichiga olgan iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlagan.

Viloyat Mirzacho‘lning o‘zlashtirilgan hududlarini o‘z ichiga oladi. Uning hududi shimol va shimoli-sharqqa tomon pasayib borgan keng tekislik bo‘lib, shimoldan Qozog‘iston va janubi-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan, shimoli-sharq va sharqdan Toshkent viloyati bilan, g‘arb, janubi-g‘arb va janubdan Jizzax viloyati bilan chegaralangan.

Mirzacho‘l iqlimi xususiyatiga ko‘ra subtropik mintaqaning kontinental tipiga to‘g‘ri keladi. Atmosfera yog‘inlarining yillik miqdori 202-425 mm ni tashkil qiladi. Yog‘inning asosiy qismi bahor va qish oylariga to‘g‘ri keladi. Qolgan vaqt quruq bo‘lib, yog‘ingarchilik deyarli bo‘lmaydi. Mavjud atmosfera yog‘inlari ham bir tekisda taqsimlanmagan, hududning janubiy qismlarida 312-425 mm, shimoliy qismlarlarida 206-300 mm miqdorida tushadi.

Sirdaryo viloyati tabiiy geografik holati ko‘ra boshqa viloyatlardan katta farq qiladi-viloyat xududida boshdan-oyoq tekis cho‘l tabiati hukmron, binobarin tog‘u toshlar yuq, suv ob’ektlari kam.

Sirdaryo viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, qulay geografik pozitsiyasi, agrosanoat salohiyati va yirik energetika quvvatlari bilan ajralib turadi. Viloyatning poytaxt Toshkent shahriga yaqinligi, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi bilan bevosita chegaradoshligi unga muhim logistik koridor vazifasini yuklaydi. Bu omillar viloyatga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. So‘nggi yillarda viloyatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli investitsion loyihalar hududning iqtisodiy o‘sishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi turmush darajasining oshishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Xullas, Sirdaryo viloyati Ona-vatanimizning kindigida joylashgan.

To‘rtinchidan, viloyat timsoli bo‘lgan: Sirdaryo, baliq va qovunlar.

Dunyodagi juda ko‘p mamlakatlarda ramzlar va timsollarga alohida e’tibor qaratiladi. Odatda har bir mamlakat ramzlari sifatida uning: bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, poytaxti, pul birligi e’tirof etiladi. Timsollar, mamlakatni, o‘lkani, xududni, millatni, elatni, ma’lum voqeiylikni, jamoani mazmun-mohiyatini o‘zida ifodalagan, vaqt chig‘irig‘idan o‘tgan, xalq ommasi e’tirof etgan bo‘lmog‘i lozim.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizning yangi mustaqillik ramzlari qabul qilindi. Bugungi kunda ularning har biri bizda faxr-iftixor uyg‘otuvchi omilga aylangan. Shu bilan birga yurtimizning turli go‘shalarning ham o‘z timsollari ommaviy axborot vositalari orqali berilib borilmoqda. Analogi yo‘q bir timsol sifati Sirdaryo daryosining bir parcha ko‘rinishini olish mumkin. Respublikamizda Surxondaryo va Qashqadaryo nomli daryolar nomi bilan ataluvchi viloyatlar bor. Daryo timsoli ularning birontasida qo‘llanilmagan. Ikkinchidan, daryoni timsol qilib olish, Mirzacho‘lni Mirzagulistonga aylanganidan, suv hayot manbai, qut-baraka va farovon hayot timsoli ekanligidan darak beradi. Uchinchidan, bunday timsolni faqatgina bizning viloyat qabul qilishga haqlidirki, zero viloyatimiz shu daryo nomi bilan ataladi. Bu esa unga o‘ziga xoslikni baxshida etadi.

Baliq- viloyat suv xavzalarida, kanallarida, ko‘llarida, zovurlarida 30 dan ortiq turdagi baliqlar yashaydi. Sazan, cho‘rtan, oq amur, do‘ngpeshona, jumx, usach, laqqa baliq, marinka, ilonbosh karas va boshqa baliqlar shular jumlasidandir. Qizil baliq, sudak, zog‘ora baliqlarni ovlash taqiqlangan.

Qovun-ayniqsa, tilimi tilni yoradigan Mirzacho‘l qovunini kim bilmaydi, deysiz? [6: 7].

Manbalarda Mirzacho‘l qovun navlarining 42 [4: 109] turi haqida ma’lumot beriladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, mustaqillik yillarida respublikamizda erishilgan yutuqlarga Sirdaryo viloyati ham o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda, jumladan, mintaqamizda bo‘layotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar bevosita Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan olib borayotgan to‘g‘ri va adolatli islohotlar bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz keyingi yillarida bir necha marta viloyatimizga saylovoldi uchrashuvlariga va Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi sessiyalariga tashrif buyurib, viloyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni tahlil qilgan, tegishli kamchiliklarni ko‘rsatib, istiqboldagi vazifalarni belgilab beruvchi nutq va ma’ruzalar qilgan. Bu ma’ruza va nutqlar Sirdaryo jozibasini yanada oshirishga va sirdaryoliklarni yangi taraqqiyot manzillari sari etaklaydi.

Ayni paytda barcha sirdaryoliklar Sirdaryo jozibasining namunasi ekanliklaridan faxrlanib, faraxbaxsh hayot og‘ushida turmush kechirishmoqda. Bu esa jonajon O‘zbekistonimiz va uning go‘shalaridan biri bo‘lgan Sirdaryoning jozibadorlidan va aholisining esa farovon hayotidan darakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Islom Karimovning 2004 yil 26 noyabr kuni Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqidan.

3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000.
4. Eshnazarov X., Eltoev I. Mirzaobod. -Guliston: Ziyo, 2007.
5. Rustambek Turdiev, Hamroqul Rizo. Sirdaryo chinorlari. (Cho‘lquvarlar haqida ocherklar). –Guliston: Ziyo, 2007.
Sirdaryo saxovati. To‘plam. -Guliston: Universitet, 2014.

XORIJIY TIL TA’LIMIDA RAVON NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING DIFFERENSIAL MODELI

Ch.F. Abdullayeva
GulDPI “Xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy til ta’limida ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishning differensial modeli tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalarning individual xususiyatlari, til darajasi, kommunikativ ehtiyojlari hamda psixologik omillarini hisobga olish asosida speaking competence’ni rivojlantirishning metodik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, psixolingvistik bosqichlilik, interaktiv metodlar va pedagogik scaffoldingning ravon nutqni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari differensial yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning spontan va uzluksiz nutqiy faoliyatini samarali rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ravon nutq kompetensiyasi, differensial yondashuv, speaking competence, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, scaffolding, psixolingvistika, CEFR.

Bugungi globallashuv va xalqaro integratsiya sharoitida xorijiy tillarni kommunikativ asosda o‘qitish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ingliz tilida ravon va spontan nutq hosil qilish ko‘nikmasini shakllantirish oliy ta’lim tizimida muhim metodik muammolardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalar grammatik bilimlarga ega bo‘lishiga qaramay, real kommunikativ vaziyatlarda fikrini erkin va uzluksiz ifodalashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu esa mavjud ta’lim tizimida individual farqlar yetarlicha hisobga olinmayotganligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan differensial yondashuv asosida ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Differensial yondashuv ta’lim oluvchilarning til darajasi, motivatsiyasi, psixologik xususiyatlari, o‘rganish sur’ati hamda kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aynan moslashtirilgan metodik tizim talabalarning nutqiy faolligini oshiradi hamda speaking anxiety darajasini kamaytiradi.

Ravon nutq kompetensiyasi kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, til birliklarini tez, uzluksiz va kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy metodikada ravon nutq faqat grammatik to‘g‘rilik bilan emas, balki spontanlik, uzluksizlik, pragmatik moslik va interaktivlik bilan ham belgilanadi. Shu sababli speaking competence rivoji ko‘p komponentli va murakkab psixolingvistik jarayon sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv modelning metodologik asosi sifatida belgilangan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi nazariy bilimlarni shakllantirish emas, balki ularni amaliy kommunikativ faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishdan iboratdir.

Kommunikativ yondashuv esa til o‘rganishni real muloqot jarayoni bilan bog‘laydi. D.H. Hymes tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, tilni bilish grammatik tizimni yod olish emas, balki uni ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish bilan belgilanadi [1]. Shu sababli ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida sun’iy

mashqlardan ko‘ra real kommunikativ vaziyatlarga yaqin topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan Willem Leveltning nutq ishlab chiqarish modeli ravon nutq shakllanishining conceptualization, formulation va articulation bosqichlarini izohlash imkonini beradi. Bu esa nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Differensial yondashuv zamonaviy xorijiy til ta’limining muhim metodik tamoyillaridan biri hisoblanadi. C.A. Tomlinsonning differensial ta’lim konsepsiyasiga ko‘ra, samarali o‘qitish talabalarning individual farqlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim [2].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an’anaviy ta’lim tizimida barcha talabalar uchun bir xil metod va topshiriqlardan foydalanish kommunikativ faoliyat samaradorligini pasaytiradi. Differensial yondashuv esa talabalarning individual imkoniyatlari, kognitiv uslubi va til darajasini hisobga olish orqali speaking competence rivojini optimallashtiradi.

Mazkur yondashuvda topshiriqlar murakkablik darajasiga ko‘ra differensiallashtiriladi. Past darajadagi talabalar uchun tayanch iboralar, model gaplar va qo‘shimcha vaqt ajratilishi tavsiya etiladi. Yuqori darajadagi talabalar uchun esa spontan nutq, timed speaking va muammoli vaziyatlar asosidagi vazifalar tashkil etiladi.

Shuningdek, differensial yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga ham xizmat qiladi. Chunki individual ehtiyojlarga moslashtirilgan topshiriqlar talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi va speaking anxiety darajasini kamaytiradi. Akademik til bilan aytganda “pedagogik motivatsion muhit” deyiladi. Oddiy hayotda esa bu “talabani vahimaga tushirmaslik” degani. Ta’lim tizimi ba’zan juda murakkab terminlar orqali oddiy insoniy mantiqni qayta kashf qiladi.

Tadqiqotning markaziy qismi sifatida ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishning mantiqiy-funktsional modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model maqsad, mazmun, metod, jarayon va natija komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi pedagogik konstruksiya sifatida tavsiflanadi.

Model kompetensiyaviy, kommunikativ, differensial, psixolingvistik va sotsiokultural yondashuvlarning integratsiyasi asosida shakllantirilgan. Ayniqsa, L.S. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi modelning muhim nazariy tayanchi hisoblanadi [3]. Unga ko‘ra, til o‘rganish ijtimoiy muloqot va hamkorlik asosida amalga oshadi. Shu sababli juftlik va guruh ishlari, peer learning hamda interaktiv metodlar modelning asosiy komponentlari sifatida belgilanadi.

Ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirish controlled speaking, guided speaking va free speaking bosqichlari asosida amalga oshiriladi. Controlled speaking bosqichida talabalarga tayanch strukturalar va model gaplar taqdim etiladi. Guided speaking bosqichida yarim erkin muloqot tashkil qilinadi. Free speaking bosqichida esa talabalar real kommunikativ vaziyatlarda erkin fikr bildirishga jalb etiladi.

Shuningdek, 4/3/2 texnikasi, retelling, information gap mashqlari, rol o‘yinlari va muhokamalar ravon nutqni rivojlantirishning samarali metodlari sifatida tavsiflanadi. I.S.P. Nation tezlik va takror omillarini ravon nutq rivojining asosiy mexanizmlari sifatida baholaydi [4].

